O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

R.D.DO‘SMURATOV,
B.YU.MENGLIQULOV

QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA STATISTIKA ASOSLARI

(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT - 2014

UO‘K: 657.1(075)
KBK 32.81ya73
D-32

D-32 **Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich, Mengliqulov Baxtiyor Yusupovich. Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 392 bet.**

ISBN 978–9943–4265–3–5

O‘quv qo‘llanma 600000-«Qishloq va suv xo‘jaligi» bilim sohasining 5620200-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo‘yicha), 5620300-O‘simliklar himoyasi va karantini, 5620400-Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi, 5620500-Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi, 5620900-Ipakchilik, 5140900-Kasb ta’limi (5620200-Agronomiya) bakalavriat yo‘nalishlari bo‘yicha namunaviy dastur asosida yozilgan.

Xo‘jalik hisobi, uning turlari, buxgalteriya hisobining mohiyati, maqsadi va vazifalari, axborotdan foydalanuvchilarning har xil toifalari, buxgalteriya hisobining predmeti va metodi, balansning mohiyati va tuzilishi bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda yoritilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobining schotlari va ikki yoqlama yozuv, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, analitik va sintetik hisobning xususiyatlari tushunarli va batafsil bayon qilingan.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ta’minot, ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlarini hisobga olishning xususiyatlarini yoritish muhim o‘rin egallagan., hisob registrlari va shakllari, buxgalteriya hisobotining mohiyati va ahamiyati etarli darajada bayon etilgan.

Statistikaning mazmuni, ahamiyati, predmeti va metodi hamda qishloq xo‘jalik statistikasining xususiyatlari yoritilgan. Xususan, dehqonchilik va chorvachilik statistikasi, qo‘llaniladigan statistik metodlar hamda ularning amaliy ahamiyati aniq misollar bilan keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlarining noiqtisod bakalavriat yo‘nalishlari talabalari mo‘ljallangan. Shuningdek, qishloq xo‘jalik kollejlarining o‘qituvchilari, amaliyotdagi buxgalter-iqtisodchilar, tadbirkorlar va fermerlar ham foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 657.1(075)
KBK 32.81ya73

Mas’ul muharrir:
S.Sh.Xolmirzayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:
Ibragimov A.K. – O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit kafedrasi mudiri, i.f.d., professor;
Saidakbarov X.X. – Toshkent davlat agrar universiteti Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti kafedrasi mudiri, i.f.n. dotsent.

ISBN 978–9943–4265–3–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va bozor munosabatlari buxgalteriya hisobining qo‘llanilish chegaralarini kengaytirmoqda. Jumladan, yangi hisob obyektlari vujudga kelmoqda va buning natijasi sifatida hisob axborotlaridan foydalanuvchilarning yangi turlari paydo bo‘lmoqda. Shu bois, buxgalteriya hisobi oldiga uni yangi sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha vazifalar qo‘shilmoqda. Hisob axborotlari hajmining doimiy o‘sib borishi, uning sifatiga zarar etkazmasdan, buxgalteriya hisobi shakllari va uslublarini yanada takomillashtirib borishni, EHM yordamida dastlabki hisob axborotlarini ro‘yxatga olish va ishlov berish vaqtini qisqartirishni taqozo etmoqda.

Bozor munosabatlari rivojlanishi natijasida boshqaruvning axborotlarga talabi ham kuchaymoqda. Uning asosini esa buxgalteriya hisobining axborot tizimi tashkil etadi. Bu axborot tizimining ajralib turuvchi belgilari: to‘liqlik, hujjat bilan asoslanganlik, pul o‘lchovining qo‘llanilishi va boshqalar bo‘lib, hisob axborotlarini shakllantirish va umumlashtirish hamda ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilarga etkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, axborotdan foydalanuvchilar korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar.

Fanning maqsadi buxgalteriya hisobining obyektlari va subyektlari; schotlar tizimi va ikki yoqlama yozuv, xo‘jalik muomalalarini hisobga olish, dastlabki hujjatlarni yuritish, qishloq xo‘jaligi korxonalarida statistik usullarni qo‘llash, statistik ko‘rsatkichlarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonlarini statistik tahlil etish to‘g‘risidagi bilimlarni berishdan iborat.

Fanning vazifalari talabalarga buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, buxgalteriya balansi, uning tuzulishini, xo‘jalik jarayonlarini hisobga olish va ularning natijalari asosida hisobot tuzish to‘g‘risidagi bilimlarni, statistikaning nazariy asoslarini, umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini va ularning mohiyatini, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini tavsiflovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullarini va statistik tahlil etishni o‘rgatishdan iborat.

Fanning namunaviy dasturiga muvofiq talabalarning bilimi, uquvi va ko‘nikmasiga quyiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- buxgalteriya hisobi va statistikaning nazariy asoslarini;
- qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobining tashkil etish va yuritishni;
- xo‘jalik jarayonlari va moliyaviy natijalarni hisobga olishni;
- qishloq xo‘jaligi statistikasini tashkil qilishni *bilishi* lozim.
- buxgalteriya hisobi va statistikaning asosiy tushunchalarini bilish;
- qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobini yuritish;
- hujjatlarni to‘ldirish, jamlash va ulardagi ma’lumotlarni qayta ishlash;
- statistik kuzatishni tashkil etish;
- ommaviy-ijtimoiy hodisalar haqidagi ma’lumotlarni jamlangan ko‘rinishga keltirish *o‘quviga ega bo‘lishi* kerak.
- buxgalteriya hisobi va statistikaning usullari;
- xo‘jalik jarayonlari va moliyaviy natijalarni hisobga olish hamda moliyaviy hisobot tuzish;
- statistik tahlil usullarini va ularning ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda qo‘llanishi yuzasidan *ko‘nikmalarga ega bo‘lishi* lozim.

Ushbu fan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiy tahlil», «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti», «Oliy matematika», «Falsafa» kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq.

Qishloq xo‘jaligida, xususan fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini amaliy jihatdan yaxshilashda «Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risida»gi Nizom muhim amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘quv qo‘llanmada buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda ustun darajada mazkur Nizomga asoslanildi.

O‘quv qo‘llanmaning kirish, I-VII boblari iqtisod fanlari doktori, professor R.D.Do‘smuratov,VIII-X boblari iqtisod fanlari nomzodi, dotsent B.Yu.Mengliqulovlar tomonidan yozilgan.

Albatta, kitob kamchiliklardan holi bo‘lmasligi mumkin. Uni mazmun va shakl jihatdan yaxshilash borasida bildiriladigan barcha fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Mualliflar

I BOB. BUXGALTERIYA HISOBINING MOHIYATI, PREDMETI VA METODI

1.1. Xo‘jalik hisobining mohiyati va funksiyalari

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, innovatsiya jarayonlarini jadallashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy e’tiborni moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga, unumsiz sarflarni va nobudgarchiliklarni bartaraf qilishga qaratmoq kerak. Bunday ulkan ishlarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobining roli beqiyosdir.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotining asosini moddiy ne’matlar ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonda kishilar iste’mol buyumlarini: oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyafzal hamda mehnat vositalarini; mashinalar, inshootlar, asbob-uskunalar va hokazolar yaratadilar. Ishlab chiqarishdan olingan mahsulotlar esa sotiladi, taqsimlanadi va iste’mol qilinadi. Bunday uzluksiz davom etadigan ishlab chiqarish, sotish (ayirboshlash) va iste’mol jarayonlari ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyatini tashkil etadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun esa ularni muntazam ravishda nazorat qilib, ushbu jarayonlarda sodir bo‘layotgan miqdor va sifat o‘zgarishlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish kerak.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlari mazmunan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo‘ladigan jarayonlar yig‘indisidan iboratdir. Shuning uchun iqtisodiyotning ayrim bo‘g‘inlaridagi ishlab chiqarish, sotish, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarini tavsiflovchi miqdor ko‘rsatkichlarining yig‘indisi takror ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy turmushdagi boshqa jarayonlarni butunligicha tavsiflay oladi.

Xo‘jalik jarayonlarini va ularning natijalarini nazorat qilish *kuzatish, o‘lchash va ro‘yxatga olish* orqali amalga oshiriladi. Kuzatish orqali korxona va tashkilotlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini tashkil etuvchi ko‘p sonli va turli xil faktlarga ega bo‘linadi. Bu faktlarni esa ma’lum o‘lchov birliklarida ifodalash hamda tegishli ravishda guruh-

larga ajratib ro‘yxatga olib borish zarur. Shu tariqa xo‘jalik faoliyatiga baho berish uchun zarur ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

Shunday qilib, hisob yuritish xo‘jalik faoliyatini boshqarish, keng ma’noda esa butun ijtimoiy ishlab chiqarishni, ya’ni jamiyatni boshqarish uchun zarur ekan. Boshqacha qilib aytganda, hisobot yuritish deb ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va ularni boshqarishni ta’minlash maqsadida, bu jarayonlarni miqdor jihatdan aks ettirib, sifat jihatdan tavsiflashga aytiladi. Demak, hisob yuritish boshqarishning ajralmas qismi ekan.

Kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida hisob butun jamoaga ishlab chiqarish va iste’mol uchun qanday mehnat qurollari va mehnat buyumlari zarurligini bilish maqsadida kerak bo‘lgan bo‘lsa, jamiyat sinflarga bo‘lingandan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda esa hukmron sinfning manfaatini himoya qilib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, sinflar mavjud jamiyatda hisob yuritish o‘zgarib, takomillashib va uning roli oshib borgan. Bozor munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha hukumat qabul qilgan qarorlarni hayotga tadbiq qilishda, korxonalarni xususiylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida hisob va statistikaning roli yana ham oshib bormoqda. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun hisob ma’lumotlariga ishlov berishni kompyuterlashtirish, hisobning ilg‘or shakl va uslublarini qo‘llash, hisob ishlariga sarflanadigan mablag‘lar va mehnat sarflarini kamaytirishga yerishish zarur.

Har bir xo‘jalik fakti hisobda korxona faoliyatining ham miqdor, ham sifat jihatlarini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlarga aylanadi. Bular ayrim mahsulot turlarining haqiqiy tannarxi, korxona faoliyatining moliyaviy natijalari va boshqalar.

Xo‘jalik hisobi xo‘jalik yurituvchi subyektni boshqarishda foydalaniladigan axborot tizimidan iborat bo‘lib, unda korxona faoliyatida sodir bo‘ladigan barcha jarayonlar va hisob obyektlarining holati to‘g‘risidagi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari haqidagi axborotlar ma’lum qoidalar va standartlar bo‘yicha ularni boshqarish uchun ilmiy asoslangan qoidalarga muvofiq qayd qilinadi, o‘lchanadi, ishlov beriladi, to‘planadi va guruhlanadi. Xo‘jalik hisobi keng qamrovli va tulaqonli bo‘lishi hamda korxona iqtisodiyotini boshqarish vazifalari to‘liq va o‘z vaqtida amalga oshirishga yo‘naltirilgan, ya’ni boshqaruv tizimi uchun foydali bo‘lishi lozim.

Xo‘jalik hisobining mohiyatini uning funksiyalari orqali mufassal ochib berish mumkin (1.1-rasm).

Xo‘jalik hisobi keng ma’noda boshqaruv funksiyasi bo‘lib, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridayoq ijtimoiy foydali mehnatning mustaqil turi sifatida ajralib chiqqan.



1.1-rasm. Xo‘jalik hisobining funksiyalari

Xo‘jalik hisobi hamma vaqt, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda ham, o‘zining mohiyatiga ko‘ra boshqaruv apparatini axborot bilan ta’minlashga mo‘ljallangan.

Shunday qilib, xo‘jalik hisobi – xo‘jalik faktlarini, hodisalarini va jarayonlarini boshqarish, nazorat va tahlil qilish maqsadida ularni kuzatish, o‘lchash, ro‘yxatga olish va umumlashtirish tizimidir. Xo‘jalik hisobi negizida uchala hisob turining (***operativ, statistik va buxgalterlik***) o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydigan boshqaruv obyektining faoliyat ko‘rsatish modeli tuziladi. Ular bir-birlarini o‘zaro to‘ldiradilar va ko‘p hollarda bir xil axborotlardan foydalanadilar (hisobning turlari va ularning qiyosiy tavsifi 1.3- paragrafda batafsil bayon qilingan).

1.2. Xo‘jalik hisobida qo‘llaniladigan o‘lchovlar

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati to‘g‘risidagi axborotlar, agar barcha hisobga olingan resurslar va xo‘jalik jarayonlari hisob o‘lchovlarida ifodalansa, axborotdan foydalanuvchilar extiyojini qondiradi.

Hisob o‘lchovlari – xo‘jalik resurslari va jarayonlarini o‘lchash va hisoblash asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning har xil extiyojlari uchun ko‘rsatkichlarni shakllantiradigan o‘lchov birliklari.

Xo‘jalik mablag‘larini va jarayonlarini hisobda miqdoriy aks ettirish uchun *natural*, *mehnat* va *pul o‘lchov*laridan foydalaniladi.

Natural o‘lchovlar – hisob obyektlarini og‘irlik (kg, s, t), hajm (m.kub, litr), uzunlik (mm, sm, m, km), maydon (kvadrat metr, ga) va boshqa o‘lchovlarda ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Natural o‘lchovlarda yuritiladigan hisob miqdoriy yoki natural hisob deb ham ataladi. Miqdoriy hisob asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, xom ashyo va Materiallar, tayyor mahsulotlar va boshqa hisob obyektlarini natural (fizik) hajmi to‘g‘risida axborotlar bilan ta’minlashdan iborat.

Bunday o‘lchovlar xo‘jalik mablag‘larining saqlanishini hamda xo‘jalik faoliyatiga tezkor rahbarlik qilishni ta’minlaydi. Natural o‘lchovlar bir xildagi xo‘jalik mablag‘larini hisobga olishda qo‘llaniladi. Turli xil natural ko‘rsatkichlarini jamlash mumkin emas. Shuning uchun ham har xildagi xo‘jalik mablag‘larini tavsiflovchi umumlashgan ma’lumotlarni olishda bunday ko‘rsatkichlardan foydalanib bo‘lmaydi.

Sarflangan ish vaqtini hisobga olish uchun ***mehnat o‘lchovi***dan foydalaniladi. Mehnat o‘lchovlari – kishi/kuni, kishi/soati, norma/soat va boshqalarda ifodalanadi. Mehnat o‘lchovlari ko‘p hollarda natural o‘lchovlar bilan birga qo‘llaniladi. Masalan, bir ishchi bir soatda yoki bir kunda qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqargan va h.k. Ular asosan vaqtbay ishlovchilarga ish haqi hisoblashda, ishbay ishlovchilarning normalarini bajarishini nazorat qilishda, mehnat unumdorligini o‘rganishda va hokazolarda qo‘llaniladi.

Shunday qilib, mehnat o‘lchovlari, natural o‘lchovlari kabi qat’iy belgilangan qo‘llanilish chegaralariga ega.

Turli xildagi xo‘jalik mablag‘larini, xo‘jalik ehtiyojlarini, hisoblashuv va kredit munosabatlarini hisobda aks ettirishda hamda xo‘jalik faoliyatining yakunini pul ifodasida chiqarishda ***pul o‘lchovi*** qo‘llaniladi. U tovar-pul munosabatlari mavjudligi, mablag‘lardan juda tejab foydalanish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bevosita hamda chambarchas bog‘liqdir.

Pul o‘lchovi ko‘pincha natural va mehnat o‘lchovi bilan birga qo‘llaniladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini aniqlash uchun bu mahsulot miqdorini va bahosini, ishchiga ish haqi hisoblash uchun esa, ishchi tomonidan ishlangan kunlar va vaqt birligi uchun to‘lanadigan haq summasini bilish zarur.

1.3. Xo‘jalik hisobining turlari va ularning tavsifi

Mamlakatimizdagi ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning serqirra moliya-xo‘jalik faoliyatini har tomonlama aks ettirish uchun har xil hisob turlaridan foydalaniladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Xo‘jalik hisobining turlari

Ularning har biri o‘z predmetiga mos bo‘lgan hisob obyektlariga va mazkur predmetni o‘rganadigan o‘z metodiga ega bo‘lganliklari bois mustaqildirlar. Ayni vaqtda ulardan har birining mustaqilligi o‘zaro bog‘liqlik va bir-birini taqozo qilishidan mustasno emas.

Hisobning har bir turi bir xildagi xo‘jalik jarayonlarining turli jihatlarini o‘rganib, axborotdan foydalanuvchilarni qiziqtiradigan axborot oqimlarining alohida bosqichlarda kesishishiga to‘sqinlik qilmaydi. Bu hisobning barcha turlariga taalluqli bo‘lgan, ular uchun juda muhim bitta xususiyat tufayligina mumkin. U ham bo‘lsa, yuqorida ko‘rib chiqilgan uchta: natural, mehnat va pul o‘lchovlarining uchala hisob turida ham qo‘llanilishidir. Shu boisdan, hisobning uchta turini alohida va batafsil ko‘rib chiqamiz.

Operativ hisob rejalarning bajarilishini nazorat qilish va ishlab chiqarishga tezkor rahbarlikni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kundalik ma’lumotlarni olish va umumlashtirishga xizmat qiladi. U tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Operativ hisob yordamida korxona resurslari va ular miqdorining o‘zgarishini joriy tartibda kuzatish, buxgalterlik va statistik hisobda aks ettirilmaydigan qator ma’lumotlarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish me’yorlarining bajarilishi, shartnoma majburiyatlarning bajarilishi, mashina va qurilmalardan foydalanish darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Operativ hisob xo‘jalikka tezkor rahbarlik qilishni ta’minlash uchun iqtisodiy ma’lumotlarni to‘plashda bevosita xo‘jalik bo‘linma-

larida amalga oshiriladi. Ayrim operativ hisob ma’lumotlaridan faqat bevosita korxonada foydalanilib qolmasdan, balki ular korxonaga rahbarlik qiluvchi yuqori tashkilotlarda, hatto iqtisodiyot tarmoqlari miqyosida alohida operativ hisobot ko‘rinishida ham umumlashtirilishi mumkin. Bunday hisobotlardan esa, mahsulot ishlab chiqarish miqdori va sifati, xom-ashyo bilan ta’minlanganlik darajasi, hosilni yig‘ishtirishning borishi to‘g‘risidagi va boshqa ma’lumotlarni olishda foydalaniladi.

Nazorat qilinayotgan xo‘jalik muomalalarining mazmuniga ko‘ra operativ hisobda natura va mehnat o‘lchovlari, ayrim hollarda esa pul o‘lchovlari qo‘llaniladi.

Ta’kidlanganidek, operativ hisob tomonidan boshqaruv apparatiga taqdim etiladigan axborot kundalik xo‘jalik muomalalari alohida qismlarining mazmuni to‘g‘risida javob bera olishi sababli zarur. Mazkur axborotning vaqt oralig‘ida chegaralanganligi – operativ hisobning birinchi ajralib turuvchi belgisi hisoblanadi.

Bunday axborotlarni hisobning boshqa turlaridan olish ularga g‘ov bo‘lishi va quyilgan vazifalarni hal etishga tizimli yondashuvni qo‘llashni yuzaga chiqarmasligi mumkin. Shuning uchun ushbu bo‘shliqni o‘z tabiatiga ko‘ra bir xil bo‘lmagan, operativ hisob to‘ldiradi. Operativ hisob xo‘jalik hisobiga xos bo‘lgan uchala o‘lchovdan foydalansa ham, shunga qaramasdan, pul o‘lchovidan foydalanish unda cheklangan. Bu operativ hisobda asosan doimiy ravishda umumlashtirish talab qilinmaydigan, ayrim bir xil xo‘jalik muomalalari aks ettirilishi bilan bog‘liq. Mazkur hisob turining farq qiluvchi ikkinchi belgisi ham mana shundan iborat.

Bunday axborotlarni olishning tezkorligi operativ hisobning uchinchi farq qiluvchi belgisi hisoblanadi. Opyerativ axborotlarni olishga bo‘lgan talablarning soddalashtirilishi shundan kelib chiqadi. Operativ hisob axborotlari hujjatlashtirilmaganligi bois, ular yuridik dalillovchi kuchga ega emas. Agar operativ hisob axborotlarining tayinlanishidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, bunday dalillash shart emas. Operativ hisobning to‘rtinchi farqlovchi belgisi mana shundan iborat.

Opyerativ axborotlar, odatda, og‘zaki, telefon yoki telegraf, teletayp orqali uzatiladi. Ayrim hollarda bunday axborotlar ma’lumotnoma, xizmat yozuvi va boshqa ko‘rinishda rasmiylashtirilib, bu operativ hisobot tuzish deb qaralishi mumkin. Zarur hollarda operativ hisobda statistik va buxgalterlik hisobdan olingan axborotlar ham qo‘llaniladi. Bu operativ hisobning beshinchi o‘zishga xos belgisidir. Hisobning

boshqa turlariga xos bo‘lgan, axborotlarga ishlov berishning maxsus usullari va amallarini qo‘llash operativ hisobda ishlatilmaydi.

Statistik hisob miqdor ko‘rsatkichlarida ifodalanadigan ijtimoiy-ommaviy hodisalarni sifat jihatdan tavsiflab, kuzatish va aks ettirish hamda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganish tizimidir.

Statistik hisob ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari va ijtimoiy turmushdagi siyosiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ochib beradi. Iqtisodiyotni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish, statistik tahlil qilish va axborotdan foydalanuvchilarga o‘z vaqtida taqdim etish statistik hisobning asosiy vazifasidir. Bu maqsadda statistik hisob buxgalteriya va operativ hisob ma’lumotlaridan foydalanib, shu bilan birga ularning tuzulishiga ham ta’sir etadi.

O‘rganilayotgan hodisalarning xususiyatiga ko‘ra statistik hisobda natura, mehnat va pul o‘lchovlaridan foydalaniladi. Statistik hisob ma’lumotlarni to‘plash va ishlov berishning muayyan metodik usullaridan, masalan, yalpi va tanlab kuzatish, statistik to‘plash, statistik guruhlash, o‘rtacha miqdorlarni hisoblash, indekslar va boshqalardan foydalanib, xo‘jalik faoliyatining asosiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Davlat boshqaruv organlari tomonidan statistik ma’lumotlar asosida prognozlar ishlab chiqiladi, iqtisodiy siyosat sohasidagi qarorlar qabul qilinadi. Mamlakat iqtisodiyotini tezkor boshqarish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi xo‘jalik yurituvchi subyektning mablag‘lari va ular manbalarining harakatini aks ettirib, xo‘jalik jarayonida sodir bo‘ladigan muomalalarni yoppasiga va uzluksiz kuzatib borish, kuzatish natijalarini o‘lchash va hujjatlarda rasmiylashtirish, ularni yagona bir o‘lchovda, ya’ni pul ifodasida umumlashtirish hamda boshqaruv qarorlarini asoslash va qabul qilish uchun zarur ko‘rsatkichlarni hisoblash va baholash, ularni tegishli axborotdan foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish tizimidir.

1.4. Buxgalteriya hisobining mohiyati, turlari va tamoyillari

Bozor iqtisodiyotining buxgalteriya hisobi oldiga qo‘yadigan talablari rejali-taqsimot iqtisodiyotiga qaraganda ancha keng. Bu eng avvalo, boshqaruv maqsadlari xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining yakuniy natijasi – ***foyda*** olishga qaratilganligi bilan bog‘liq. Hozirgi

sharoitda **buxgalteriya hisobi** ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda **uch turga bo‘linadi** (1.3-rasm).



1.3-rasm. Buxgalteriya hisobining turlari

Moliyaviy hisob tashqi va ichki axborotdan foydalanuvchilar talabini qondirishga qaratilgan hisob va hisobot tizimidan iborat. ***Boshqaruv hisobi*** faqat ichki axborotdan foydalanuvchilar, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyekt boshqaruv apparatini axborot bilan ta’minlaydi va uning joriy vazifalari (ishlab chiqarish hisobi) kabi strategik maqsadlariga (strategik hisob) xizmat qiladi. ***Soliq hisobi*** soliqlarning alohida turlari bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazani to‘g‘ri hisoblash va budjet bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlashga qaratilgan. Shunday qilib, boshqaruvning ko‘rib chiqilgan rejalashtirish, nazorat va qabul qilingan qarorlar bajarilishining samaradorligini baholash kabi funksiyalari buxgalteriya hisobi tufayli amalga oshiriladi. Uning axborot tizimi ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilarning xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida yaqqol tasavvurga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Buxgalteriya hisobi axborotlarini hisobning boshqa turlarida shakllanadigan axborotlar bilan qiyoslaganda farq qiladigan belgilari uning asosiy tamoyillariga tayanadi. Ularga asoslangan holda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma’lum mahsulot, ish va xizmatlar bozorida o‘zining moliya-xo‘jalik strategiyasi ishlab chiqiladi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasiga muvofiq buxgalteriya hisobining asosiy **tamoyillari** quyidagilar:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni pulda baholash;
- aniqlik;
- hisoblash;
- oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik);
- mazmunning shakldan ustunligi;

- ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- moliyaviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

1.5. Buxgalteriya hisobining maqsadi, vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 2-moddasiga muvofiq, «Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlash»dir.[1] Shuningdek, ushbu maqsadga yerishish uchun buxgalteriya hisobi oldiga quyidagi vazifalar quyilgan:

« – buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va xarakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risida to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish;

- samarali boshqaruv maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish;

- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni aniq tuzish»[2].

Shuningdek, buxgalteriya hisobi korxona xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilishi ustidan nazorat o‘rnatish, xo‘jalik faoliyatida salbiy holatlarning oldini olish va uning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydigan ichki xo‘jalik imkoniyatlarini topishni ta’minlashi zarur.

Buxgalteriya hisobining *birinchi vazifasi* korxona rahbarlari, ta’sischilari, ishtirokchilari va mulkdorlari, investorlar, kreditorlar, xaridorlar va boshqa axborotdan foydalanuvchilar manfaatlaridan kelib chiqadi. Buxgalteriya axborotlari to‘liq va ishonchli bo‘lishi, ya’ni foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘g‘risida, uning mulklari, majburiyatlari, faoliyat natijalari to‘g‘risida barcha zarur axborotlarni taqdim qilishi, demak, korxona ma’muriyati va boshqa axborotdan foydalanuvchilar uchun foydali bo‘lishi lozim.

*Ikkinchi vazifa*ning mazmuni shundan iboratki, buxgalteriya hisobi tizimida korxona moliya-xo‘jalik faoliyati faktlarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mosligi ustidan nazorat o‘rnatish uchun ma’lumotlarni shakllantirish zarur. Bunday axborotlar xo‘jalik muomalalarining maqsadga muvofiqligini, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni tasdiqlashi lozim.

[1] O‘zbekiston Respublikasi qonuni «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida «, 2-modda.
[2] Shu erda

Uchinchi vazifa korxona xo‘jalik faoliyatini boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, shartnomalarning bajarilishini, tejamkorlikka rioya qilishni va mulkning saqlanishini ta’minlashni nazorat qilish ham hisobning vazifasiga kiradi.

Shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish buxgalteriya hisobi tomonidan ikkita vazifani bajarishda ifodalanadi. Birinchisi, buxgalteriya hisobi tadbirkorlikni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun zarur dastlabki ma’lumotlar beradi.

Chunki mavjud bozor konyunkturasini, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni hisobga olmay turib, haqqoniy biznes-reja topshiriqlarini tuzish mumkin emas. Ikkinchidan, shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun bir vaqtning o‘zida ularning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish zarur.

Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxini pasaytirish, korxonalarda va uning bo‘linmalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish buxgalteriya hisobining muhim vazifasidir. Bundayulkan vazifalar korxonalarning hamma ichki imkoniyatlarini axtarib topish va ulardan samarali foydalanish, iqtisodiy tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarish zaxiralarini va xarajatlarini o‘z vaqtida hisobga olib borish bilan muvaffaqiyatli amalga oshiriladi

Buxgalteriya hisobi boshqaruv tizimida quyidagi **funksiyalarni** bajaradi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Buxgalteriya hisobining funksiyalari

1. Axborot (boshqaruv tizimini axborot bilan ta’minlash) funksiyasi. Buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimi va bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi asosiy funksiyalaridan biri axborot bilan ta’minlash funksiyasi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida o‘z vaqtida olinadigan haqqoniy iqtisodiy axborotlarning roli va ahamiyati kuchaymoqda.

Buxgalteriya hisobi tizimi har xil boshqaruv obyektlariga – korxona xizmatlari, uning bo‘linmalari menejerlariga haqiqiy axborotlarni yetkazib beruvchi muhim manba bo‘lib, ular ushbu axborotlardan foydalangan holda tegishli boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadilar va qabul qiladilar.

Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, iqtisodiy axborotlar umumiy hajmining 70% idan oshig‘i buxgalteriya axborotlari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Aynan buxgalteriya hisobi tizimi korxona mablag‘lari va ular manbalarining ahvoli va harakati, xo‘jalik jarayonlari to‘g‘risida korxona moliyaviy natijalari to‘g‘risida umumlashgan (sintetik) va batafsil (analitik) axborotlarni aks ettiradi va to‘playdi.

Buxgalteriya axborotlari operativ va statistik hisobda, rejalashtirishda, istiqbolni belgilash (prognozlash) da, korxona faoliyati taktikasi va strategiyasini ishlab chiqishda va boshqalarda keng qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobining axborot sig‘imi eng katta bo‘lgan uchastkalariga xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblar, tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olish, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, tayyor mahsulotlar va ularni sotishni hisobga olish kabilar misol bo‘ladi.

Masalan, xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga olishga doir axborotlar jami hisob axborotlarining 25-30 foizini tashkil etadi. Shu tufayli hisob-kitoblar, mehnat va ish haqini tahlil qilish hamda mehnat resurslarini boshqarish uchun etarli axborot bazasi yaratilgan.

Quyilgan maqsad, hal etiladigan vazifalar doirasi axborotdan foydalanuvchi bo‘linmalar, boshqariladigan obyekt darajasiga ko‘ra hisob va tahliliy axborotlarni ularning eng yuqori va eng past qismlarga bo‘lish zarur. Har bir axborot turini boshqaruv obyektlari va berish muddatlari bo‘yicha tabaqalashtirish kerak.

Axborotlar davriyligi ham turlicha bo‘lishi mumkin: smena, sutka, hafta, dekada, oy, chorak va boshqalar.

2. Nazorat funksiyasi – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini erkinlashtirish, turli mulkchilik shakllarining mavjudligi sharoitlarida buxgalteriya hisobining nazorat qilish funksi-

yasi kuchaymoqda. Bunga uning shakl va uslublarini takomillashtirish, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarini joriy qilish, hisob ishlarini kompyuterlashtirish, buxgalter, iqtisodchi va tahlilchilarning avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari imkoniyatlaridan keng foydalanish sabab bo‘lmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish turli mulkchilik shakllarining mavjudligi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar huquqlarining kengaytirilishi, xalq xo‘jaligida moliyaviy nazorat tizimining mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish xarajatlari ustidan nazoratning pasaytirilishini bildirmaydi. Aksincha, moliya-hisob markazi (MHM), vazirlik va davlat idoralarining nazorat va taftish xizmatlari, banklar, auditorlik tashkilotlar va soliq inspeksiyasi xodimlari yangicha xo‘jalik yuritish uslublariga tayangan holda barcha resurslardan oqilona foydalanish ustidan kuchli nazorat o‘rnatishlari lozim. Buxgalteriya hisobining yagona yaxlit tizimida nazorat qilish funksiyasining roli kuchaymoqda va yanada ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, korxona ma’muriyati yoki mulkdorlarga nafaqat o‘z korxonasining moliyaviy ahvolini bilish, balki raqobatchi korxonalarning hamda hamkorlarining moliyaviy ahvolini, to‘lov layoqatini bilish zarur.

Buxgalteriya hisobining maxsus usullari va amallari yordamida nazoratning uchta turi yuritiladi: *dastlabki nazorat* – xo‘jalik muomalasi sodir bo‘lgungacha; *joriy nazorat* – xo‘jalik muomalasini amalga oshirish; *keyingi nazorat* – muomala sodir bo‘lganidan so‘nggi.

Hisob jarayonining axborotlarni to‘plash, o‘lchash, ro‘yxatga olishdan tortib, to zarur bo‘lgan oraliq, natijaviy va hisobot ko‘rsatkichlarini olish bilan yakunlanadigan barcha bosqichlarida kompyuter va boshqa tashkiliy-texnik vositalardan foydalanish buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimidagi nazorat funksiyasini kuchaytirishga doir vazifalarni bajarishga yordam beradi.

3. Mulkning saqlanishini ta’minlash funksiyasi. Bu funksiya buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish va uning nazorat funksiyasini kuchaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, ushbu funksiyani amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur: jihozlangan omborxona binolari, nazorat va o‘lchash asboblari, o‘lchagich idishlar va boshqalar.

Inventarizatsiya ushbu funksiyani amalga oshirishning muhim usuli bo‘lib, korxona mulklarining saqlanishi va ular tarkibida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aniqlashga imkon yaratadi. Uni amalga oshirish uchun №19-«Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» nomli Bux-

galteriya Hisobi Milliy Standarti (BHMS) dan foydalaniladi. Ushbu standart O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Inventarizatsiya jarayonida barcha xo‘jalik muomalalari hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligi va tegishli buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilganligi, zarur aniqliklar va tuzatishlar kiritilayotganligi hamda joriy hisob ko‘rsatkichlari va haqiqiy ma’lumotlarning o‘zaro mos (teng) kelishlari tekshiriladi. Inventarizatsiya mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga qilingan xarajatlarni, mulklarni saqlanishi maqsadida to‘g‘ri aks ettirish, asosan xom-ashyo va Materiallar va yoqilg‘i-enyergetik resurslarning yo‘qotilishi borasida katta ahamiyatga ega. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida va turli mulkchilik shakllari mavjudligi sharoitida inventarizatsiya o‘tkazish, odatda, katta hajmdagi axborotlarga ishlov berish bilan bog‘liq. Shuning uchun inventarizatsiya o‘tkazish jarayonlarini ham kompyuterlashtirish zarur. Asosan katta nomenklaturadagi tovar-moddiy zaxiralarini inventarizatsiya qilishda kompyuterlardan foydalanish yuqori samara beradi.

4. Uzviy aloqa funksiyasi. Buxgalteriya hisobi uzviy aloqa funksiyasini bajarib, busiz boshqaruv tizimining faoliyati ma’nosiz bo‘lib qoladi, buning ustiga keng ko‘lamda kompyuterlashtirilgan sharoitda faoliyat ko‘rsatadigan tizimli buxgalteriya hisobi boshqaruv xodimlarini korxona va uning bo‘linmalarining ma’lum davr ichidagi faoliyati to‘g‘risida, xo‘jalik mablag‘lari, ularning vujudga kelish manbalari va korxonaning majburiyatlari haqida, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, buyurtmachilar, banklar, soliq inspeksiyasi, investorlar va boshqa xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida, moliyaviy natijalarni shakllantirish, foydaning ishlatilishi va jamg‘arilishi to‘g‘risida, mulkdorlar (aksiyadorlar, paychilar, ta’sischilar va h.k.) bilan munosabatlar to‘g‘risida haqiqiy ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.

Ko‘rsatkichlarning haqiqiy miqdorini aks ettiradigan buxgalteriya axborotlari yordamida uzviy aloqadan foydalangan holda biznes-reja ko‘rsatkichlari, standartlar, norma va normativlar, smetalar bajarilishi, barcha turdagi resurslardan oqilona foydalanish ustidan nazorat o‘rnatiladi, har xil kamchiliklar bartaraf etiladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va ularning safarbar etilish hamda ishlatilish darajasi aniqlanadi (1.5-rasm).

Buxgalteriya hisobi tizimi boshqaruvni uzviy aloqa orqali har qanday darajada ta’minlay oladi. Boshqa hech qanday tizim ushbu vazifani bajara olmaydi.

Uzviy aloqa funksiyasi, odatda asosan dastlabki hujjatlardan olinadigan, turli xil tashuvchilardagi birlamchi axborotni bajaradi. Masalan, mehnatga haq to‘lash to‘g‘risidagi ishbay naryadlarda mavjud bo‘lgan axborotlar, ham bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmini hisobga olish uchun, ham ma’lum davr ichidagi rejalashtirilgan har bir tadbir bo‘yicha rejadan chetga chiqishlarni aniqlash uchun ishlatiladi.



1.5-rasm. Buxgalteriya hisobining «uzviy aloqa» funksiyasining paydo bo‘lish jarayoni

5. Tahliliy funksiya xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatini va uning natijalarini tahlil qilishdan iborat. Axborotdan foydalanuvchilar (ichki va tashqi) hisob-iqtisodiy axborotlarga asosan xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy holati, to‘lov layoqati, chetdan kapital jalb qilishi, ichki va tashqi munosabatlari, faoliyat samaradorligi, rivojlantirish istiqbollari va hokazolar to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni olishga intiladilar. Boshqaruv maqsadlari uchun resurslarning barcha turlaridan foydalanish, ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari; foydaning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi va shunga o‘xshashlar tahlil qilinishi lozim. Tahlil jarayonida haqiqiy ko‘rsatkichlar, reja, normativ, smeta ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, tafovut sabablari aniqlanadi. Demak, operativ boshqaruv, boshqaruv qarorlarini tayyorlash, asoslash va qabul qilish hamda korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini prognozlashda buxgalteriya hisobi tahliliy funksiyasining ahamiyati beqiyosdir.

1.6. Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar

Buxgalteriya hisobi o‘ziga xos xususiyatlari tufayli ko‘p hollarda «biznesning tili», rivojlangan bozor ishtirokchilarining muloqat qiladigan umumiy tili deb e’tirof etiladi. Tegishli axborotlar ulardan foy-

dalanuvchilarga buxgalteriya hisobi tilida, ya'ni tadbirkorlar «o'qiy oladigan» tilda etkaziladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi axborotlarga qiziquvchi istalgan yuridik yoki jismoniy shaxs moliyaviy hisobotdan foydalanuvchi deb tan olinadi. Shu munosabat bilan hisob axborotlaridan foydalanuvchilar doirasining manfaatlari shakllanadi. Mazkur foydalanuvchilar doirasi etarli darajada barqaror bo'lishiga qaramasdan, ularning axborotlarga talabi har xil. Farqlar eng avvalo? manfaatlar xilma-xilligidan kelib chiqadi. Birovlarni mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga quyilgan kapitaldan olinadigan daromad qiziqtirsa, boshqalarni – ushbu daromadni soliqqa tortish, uchinchi birovlarni – sarflangan mehnatga to'liq va o'z vaqtida haq to'lash hamda boshqa shu kabilar qiziqtiradi. Hisob axborotidan foydalanuvchilar talablarining xilma-xilligi foydalanuvchilarning tarkibi bilan ham bog'liq (1.6-rasm).

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari umumiy konsepsiyasiga muvofiq hisob axborotlaridan foydalanuvchilar: xizmatchilar, mol etkazib beruvchilar, kreditorlar, investorlar, xaridorlar, hukumat, jamoatchilik hisoblanadi.



1.6-rasm. Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilarning turkumlanishi

Bunday axborotdan foydalanuvchilar ikkita katta guruhga: *ichki foydalanuvchilar* va *tashqi foydalanuvchilar*ga bo‘linadi.

Birinchi guruh *ichki foydalanuvchilar*ni tashkil etadi. Keng ma’noda ularga korxona ma’muriyati, uning menejerlari va nihoyat korxona xodimlari kiradi. Korxona ma’muriyati boshqaruv qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida: biznes-reja tuzish, nazorat va boshqaruv funksiyasining o‘zining samaradorligini baholashda hisob axborotlaridan foydalanadi.

Bevosita moliyaviy manfaatdor bo‘lgan tashqi foydalanuvchilar – bu qarz beruvchilar, kreditorlar, mol etkazib beruvchilar va xaridorlar, bo‘lg‘usi aksiyadorlar, ularning konsultantlari.

Tashqi foydalanuvchilarni eng avvalo, quyilgan kapitalning qoplanishi qiziqtiradi: qarzlar qaytarilishi, foizlarni ham qo‘shgan holda; tovarlar shartnoma bahosining to‘lanishi; dividendlarning olinishi; ishbilarmonlik aloqalarini yo‘lga quyishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va h.k. Mol etkazib beruvchilar va boshqa tijorat kontragentlari sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar uchun pul mablag‘larining o‘z vaqtida olinishi to‘g‘risida shak-shubhasiz xulosaga kelishga imkon beradigan hisob axborotlarini olishdan manfaatdordirlar.

Bevosita moliyaviy manfaatdor bo‘lmagan tashqi foydalanuvchilar – bu birinchi navbatda soliq organlari. Ularning asosiy vazifasi soliqlar va boshqa to‘lovlar (bojxona to‘lovlari, jarimalar va boshqalar) ni yig‘ishdan iborat.

Moliya bozorining ishtirokchilari – investorlarni emitent qimmatli qog‘ozining daromadliligi (kotirovkasi), asosan aksiya sotib olish bilan bog‘liq risk (tavakkalchilik) darajasi qiziqtiradi. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarning sotilish va sotib olinish bahosi o‘rtasidagi farqqa, vositachilik xizmatlari ko‘rsatishda uning ishtirokchilari o‘z moliyaviy natijalarini shakllantiradi. Emitentning qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan talab va taklif uning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Moliya bozorining professional ishtirokchilari, moliyaviy barqarorlik darajasini, mulkdorlarning fond birjasida ro‘yxatga olingan va e’lon qilingan moliyaviy hisobotlaridagi ma’lumotlar asosida aniqlashlari mumkin.

Davlat organlari – bu mamlakat iqtisodiyotini boshqaruv organlari (Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Davlat statistika komiteti va b.) bo‘lib, ular hisob va moliyaviy axborotlarni milliy iqtisodiyotning tarmoqlari va

alohida ishlab chiqarishlarning rivojlanishini bashorat qilish, nisbatlarni va o‘sish sur'atini aniqlash, yalpi daromadni hisob-kitob qilish va boshqa shunga o‘xshash statistik ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilishga zarur bo‘lgan me’yorda o‘rganish bilan shug‘ullanadilar.

Moliyaviy manfaati bo‘lmagan buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanuvchilar guruhiga auditorlik tashkilotlari, kasaba uyushmalari, yollangan shaxslar, davlat muassasalari va shu kabilarni kiritish mumkin.

Kasaba uyushmalari xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini uning bilan jamoa shartnomasi tuzish yoki muddatini uzaytirish maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan o‘rganadilar.

Mahalliy davlat muassasalari va aholi korxonalar moliyaviy hisobotlari bilan ularning moliyaviy holati va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ayrim tumanlar, fuqarolar yig‘ini va boshqalar doiralarida hal eta olishlari nuqtai nazaridan qiziqadilar.

Shunday qilib, hisob axborotlari moliyaviy hisobotda muayyan xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini ko‘rsatilgan yo‘nalishda ochib berishi uchun, buxgalteriya hisobining butun metodologiyasi axborotdan foydalanuvchilar tomonidan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilishi lozim. Ayni vaqtda buxgalteriya axborotlaridan foydalanuvchilar o‘rtasida raqobatli muhit mavjud bo‘lgan va uning tijorat sirini saqlash obyektiv zarurati, hisob axborotlarining mazmuniga ichki va tashqi foydalanuvchilar tomonidan quyiladigan talablardan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyotida buxgalteriya hisobining ikkita turi mavjud: *boshqaruv hisobi* va *moliyaviy hisob*.

Boshqaruv hisobi ichki foydalanuvchilar-xo‘jalik yurituvchi subyektni boshqaruvchi menejerlar uchun axborotlarni tayyorlaydi.

Moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilar uchun axborot taqdim etishni maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun uning negizida shakllanadigan moliyaviy hisobotda tijorat siri bo‘lmaydi va e’lon qilinishidan oldin uning ishonchliligi mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiriladi.

1.7. Buxgalteriya hisobining predmeti va obyektlari

Ma’lumki, u yoki bu sohani o‘rganuvchi har bir fan o‘z *predmeti*, ya’ni o‘rganiladigan obyektlariga va *metodi*, ya’ni shu predmetni o‘rganish usullarining ilmiy asoslangan majmuasiga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, buxgalteriya hisobi ham iqtisodiy fanlarning mustaqil bir tarmog‘i sifatida o‘z predmeti va metodiga ega.

Buxgalteriya hisobining predmeti bo‘lib, xo‘jalik mablag‘lari (aktivlar), ularning manbalari (passivlar) va mablag`larning takror ishlab chuqarish jarayonidagi doiraviy aylanishi hamda faoliyat natijalari hisoblanadi.

Korxonalar xo‘jalik faoliyati amaldagi qonunchilik va tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq amalga oshirilib, ishlab chiqarishni beto‘xtov o‘stirishga, mehnat unumdorligini oshirishga, resurslarni juda ham tejab sarflashga, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga, foydani ko‘paytirish va natijada rentabellikni o‘stirishga yordam berishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur mablag‘lar va ularning vujudga kelish manbalariga ega bo‘lishlari lozim. Mablag‘lar va manbaar ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarida sodir bo‘ladigan xo‘jalik muomalalari ta’sirida o‘zgaradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, buxgalteriya hisobi tadbirkorlikni rivojlantirish va biznesni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Lekin, buxgalteriya hisobi korxona xo‘jalik faoliyatining pulda ifodalanadigan qisminigina aks ettiradi. Bu esa buxgalteriya hisobining obyektlarini belgilab beradi.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq «Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik muomalalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir». Korxonalar o‘z xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishlari uchun zarur mablag‘lar, mashinalar, qurilmalar, pul, moddiy boyliklar va boshqalarga ega bo‘lishlari kerak. Bu mablag‘larning tarkibi va ko‘lami korxonalarning xo‘jalik faoliyatining yo‘nalishi (sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va h.k.) bilan bog‘liq bo‘lib, ularning biznes-rejalari bilan belgilanadi.

Xo‘jalik mablag‘larining tarkibi va joylashishi bo‘yicha hisobga olish korxonaning muayyan mablag‘lari (mashinalar, bino va inshootlar, Material va mahsulotlar va h.k.) to‘g‘risida ma’lumot bersa, ularni vujudga kelish manbalari va tayinlanishi bo‘yicha hisobda aks ettirish esa, bu mablag‘larning xususiy mulk hamda ularning korxonaga biriktirilganligi yoki vaqtincha ishlatilayotganligi va xo‘jalik

mablag‘larining qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, eng umumiy ko‘rinishda buxgalteriya hisobi predmetining mazmuni **hisob obyektlari**ning iqtisodiy mohiyati orqali ochib beriladi (1.7-rasm).



1.7-rasm. Buxgalteriya hisobining obyektlari

Xo‘jalik mablag‘larining tarkibi korxonalar faoliyatining yo‘nalishiga bog‘liq (sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va h.k.).

Xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari (mablag‘lari) mohiyati, tarkibi va joylanishiga ko‘ra ikkita guruhga bo‘linadi.

I. Uzoq muddatli aktivlar.

II. Joriy aktivlar.

Quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi:

a) xizmat muddati 1 yildan oshiq;

b) bitta birligi (komplekti) ning qiymati O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 50 barobaridan oshiq bo‘lgan (sotib olish vaqtida) predmetlar.

Asosiy vositalarga yer, yerni obodonlashtirsh, binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar va hokazo shunga o‘xshashlar kiradi.

Asosiy vositalarni hisobga olish uslublari №5-«Asosiy vositalar» nomli BHMSda keltirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2004 yil 20 yanvarda 1299-raqam bilan ro‘yxatga olingan).

Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investitsiyalar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital quyilmalar va uzoq muddatli debitor qarzlari hamda kechiktirilgan xarajatlar

kiradi. Bularning mazmunini tushunish uchun ayrimlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

Asosiy vositalar – korxona xo‘jalik faoliyatini yuritishda uzoq davom etadigan vaqt mobaynida, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish yoki ma’muriy va ijtimoiy-madaniy funksiyalarni amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

Nomoddiy aktivlar – moddiy-ashyoviy shaklga ega bo‘lmagan, xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan, xo‘jalik faoliyatida foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek, uzoq vaqt (bir yildan ko‘p) ishlatish uchun mo‘ljallangan mol-mulk obyektlari. Shuningdek, nomoddiy aktivlar quyidagi talablarga javob berganida aktiv deb olinadi: aktiv ta’rifini qondiradigan; o‘lchanadigan; ahamiyatga molik bo‘lgan; ishonchli bo‘lgan; kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan; ajratiladigan, ya’ni uni ishlatiladigan ishlab chiqarishdan alohida foydalanish mumkin bo‘lgan hollarda.

Nomoddiy aktivlarga patentlar, litsenziyalar, «nou-xau», savdo markalari, tovar belgilari, sanoat namunalari, dasturiy ta’minot, gudvill, tashkiliy xarajatlar, franshizalar, mualliflik huquqlari, xizmat ko‘rsatish belgilari va boshqalar kiradi.

Korxonaning *joriy aktivlari*ga tovar-moddiy zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan qarzlar, olinadigan schotlar (debitor qarzlar), pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqalar kiradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari tarkibida joriy aktivlarning ro‘yxati keng va xilma-xil bo‘lib, ular doimo aylanishda bo‘lganligi sababli uzoq muddatli aktivlarga qaraganda nisbatan yuqori likvidli hisoblanadi. Joriy aktivlarning naqd pulga aylantirish oson bo‘lgan qismi yuqori likvidli deyiladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi mablag‘larning ikkinchi qismini mehnat buyumlari tashkil etadi. Bular kishi mehnati yo‘naltiriladigan mablag‘lardir. Mehnat buyumlari tarkibiga urug‘lik ko‘chatlar, emxashak, yosh chorva mollari va boquvdagi mollar, yordamchi Materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, ehtiyot qismlar, yoqilg‘ilar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr sarflari va boshqalar kiradi. Mehnat buyumlari ishlab chiqarishi jarayonida qatnashib mehnat vositalaridan farq qilgan holda, bir ishlab chiqarish jarayonida o‘z qiymatini yangidan yaratilgan mahsulotning tannarxiga to‘liq o‘tkazadi. Mehnat buyumlarining pulda ifodalangan yig‘indisi aylanma ishlab chiqarish mablag‘lari deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralari korxonaning ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish sohasidagi aylanma mablag‘laridan tashkil topadi. Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma mablag‘lari quyidagilarga bo‘linadi: ishlab chiqarish zaxiralari – o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, urug‘lik va ko‘chatlar, ehtiyot qismlar va ta’mirlash materiallari, neft mahsulotlari, qattiq yoqilg‘i, mineral o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar, hunarmandchilik va yordamchi ishlab chiqarishdagi qayta ishlovchi vositalar, idish va idish materiallari, boshqa materiallar, ta’mirlashga va boshqa asosiy faoliyat ehtiyoji uchun ishlatiladigan qurulish Materiallari, tugallanmagan ishlab chiqarish – kelgusi yillar hosili uchun qilingan xarajatlar, chorvachilikdagi ishlab chiqarish xarajatlari, hunarmandchilik va yordamchi ishlab chiqarishdagi xarajatlar, ustaxonalarning tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, kelgusi davr sarflari.

Zaxiralar, kapital quyilmalar va ta’mirlash xarajatlari (qurilma va Materiallar) tugallanmagan kapital qurilish, kapital tuzatish xarajatlari kapital quyilmalar va kapital ta’mirlashdagi aylanma mablag‘lar qatoriga kiradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning tovar qismi (ya’ni sotishga mo‘ljallangan qismi), pul mablag‘lari debitorlar bilan hisoblashuvdagi va muomala jarayoniga xizmat qiluvchi mablag‘lar muomala sohasidagi mablag‘larni tashkil etadi.

Sotgan mahsulotlari uchun korxonalar pul oladilar va bu pullardan ishlab chiqarish vositalari (Materiallar, urug‘lik, neft mahsulotlari) sotib olish, ish haqi berish uchun, davlat budjeti bilan hisoblashish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanadilar. Korxonaning pul mablag‘lari bankning hisoblashuv schoti va maxsus schotlarida yoki kassada saqlanadi. Korxona ixtiyorida mahsulot sotishdan va xizmat ko‘rsatishdan tushgan pullardan tashqari ishlab chiqarishni kengaytirishni budjetdan moliyalashtirish yoki mavsumiy sarflarni qoplash ko‘rinishidagi pul mablag‘lari ham bo‘ladi.

Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun pul mablag‘lari kelib tushishi amalda mahsulot sotilgan yoki xizmat bajarilgan vaqtidan kechikib sodir bo‘ladi. Sotilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmat uchun mazkur korxonaga qarzdor bo‘lgan korxonalar yoki ayrim shaxslar *debitorlar*, qarzning o‘zi esa, (hisoblashuvdagi mablag‘lar) *debitor qarz* deb ataladi.

Shunday qilib, korxonaning muomala sohasidagi mablag‘lari amaliyotda tayyor mahsulotlar (tovar) ko‘rinishida omborlarda, pul mablag‘lari kassada yoki hisoblashuvda (debitor qarz) bo‘lishi mumkin.

Mablag‘lar mavjudligi va joylashuvi xo‘jalikning iqtisodini to‘liq tavsiflay olmaydi. Buning uchun ularning manbalarini bilish zarur.

Xo‘jalik mablag‘lari tashkil topish manbalari va tayinlanishiga ko‘ra korxonaning *o‘z mablag‘lari manbalari* va *majburiyatlari* yoki qarzga olingan mablag‘lar manbalariga bo‘linadi.

Korxonaning o‘z mablag‘lari manbalari *xususiy kapital, maqsadli tushumlar* hamda *kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar*-dan iborat.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq korxonaning xususiy kapitali: ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav kapitali ta’sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pul ifodasidagi) yig‘indisidir. Ustav kapitaliga hissa shaklida qo‘shiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta’sischilar kelishuviga yoki yuridik shaxs ijrochi organining qaroriga ko‘ra baholanadi va hisobga olinadi.

Qo‘shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narx-larda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini aks ettiradi.

Zaxira kapitali mol-mulkni qayta baholash chog‘ida hosil bo‘ladigan inflyatsiya zaxiralarini, shuningdek, tekinga olingan mol-mulk qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg‘arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo‘shilishi mumkin.

*Maqsadli tushumlar*ga maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan va qaytarib berilmaydigan maqsadli moliyalashtirish mablag‘lari va boshqa tushumlar kiradi. Bundaylarga grantlar, subsidi-yalar, a’zolik badallari, maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari va boshqa maqsadli tushumlar misol bo‘ladi.

*Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar*ga xarajatlar va to‘lovlarni xarajatlarga bir tekisda qo‘shish uchun belgilangan tartibda tashkil etiladigan zaxiralar kiradi.

Korxonaga chetdan jalb qilingan yoki qarzga olingan mablag‘lar manbalariga bank kreditlari(ssudalari), kreditor qarzlar va korxonaning boshqa majburiyatlari kiradi.

Bank kreditlari (ssudalari) – bu korxonalarning qo‘shimcha mab-lag‘larga bo‘lgan talabini qondirish uchun korxonaga ma’lum muddatga

berilgan davlat mablag‘laridir. Bank ssudalari qat’iy maqsadli ehtiyoj uchun beriladi va belgilangan muddatida qaytarilishi kerak.

Kreditor qarzlar – bu korxonalarning mol yetkazib beruvchilarga olgan Materiallari uchun, pudratchilarga ular tomonidan bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar hamda boshqa muomalalar bo‘yicha paydo bo‘ladigan qarzlardir.

Korxona majburiyatlari – bu budjetga va budjetdan tashqari fondlarga o‘tkaziladigan ajratma va soliq summalari, ishchi va xizmatchilarga (jamoa xo‘jaligi a’zolariga) beriladigan ish (mehnat) haqi summasi va boshqalardir.

Buxgalteriya hisobining obyektlariga yuqorida ko‘rib chiqilgan xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalaridan tashqari, xo‘jalik jarayonlari ham kiradi. Xo‘jalik jarayonlari *ta’minot, ishlab chiqarish* va *realizatsiya* jarayonlaridan iborat.

Korxona faoliyati uni ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta’minlashdan boshlanadi. Ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va tayyorlash jarayoni *ta’minot jarayoni* deb ataladi. Ta’minot jarayonida pul mablag‘lari ishlab chiqarish zaxiralari va asosiy vositalar ko‘rinishiga o‘tadi. Bu bosqichda korxona mol etkazib beruvchilardan, boshqa korxona va tashkilotlardan ishlab chiqarish zaxiralari (mineral o‘g‘it, urug‘lik, yoqilg‘i va moylash materiallari va h.k.) va asosiy vositalar (mashinalar, qurilmalar va h.k.) sotib oladilar va shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonining to‘xtovsizligi ta’minlanadi. Ta’minot jarayonining vazifalari quyidagicha.

Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari ishchi kuchi bilan birikib, uning ta’siri ostida ishlab chiqarish vositalarining ayrim elementlari o‘z shaklini o‘zgartiradi va boshqacha xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu mahsulotlar tayinlanishiga ko‘ra shaxsiy iste’mol va ishlab chiqarish iste’moli uchun ishlatilishi yoki sotilishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayoni quyidagi vazifalarni hal etishi lozim.

Realizatsiya jarayoni xo‘jalik mablag‘larining doiraviy aylanishini yakunlar ekan, korxona o‘z tayyor mahsulotini xaridorlarga va boshqa korxonalarga sotadi va natijada ulardan pul kelib tushadi. Shunday qilib, bu jarayonda tayyor mahsulot pul shakliga o‘tadi. Ko‘p hollarda sotilgan mahsulot uchun pul kelib tushishi mahsulot sotilgan vaqtdan kechikadi. Realizatsiya jarayoni oldiga quyidagi vazifalar quyiladi.

Bunday hollarda mahsulot vaqtincha muomaladagi mablag‘lar, ya’ni debitor qarz shakliga o‘tadi.

Shunday qilib, xo‘jalik faoliyati jarayonida korxona mablag‘lari doiraviy aylanishining uchta bosqichini ketma-ket o‘tar ekan. Ularning ayrimlari ta’minot jarayonida bo‘lganida, ayrimlari ishlab chiqarish jarayonida bo‘ladi, shuningdek bir qismi realizatsiya jarayonida bo‘ladi va natijada biridan ikkinchisiga o‘tib turadi (xo‘jalik jarayonlarini hisobga olish uslubiyoti 5,6 va 7-boblarda batafsil bayon qilingan).

Demak, xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari doimo harakatda bo‘lib, o‘zgarib turar ekan. Xo‘jalik mablag‘lari va ular manbalarining tarkibi va tuzulishida sodir bo‘lib, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan ayrim o‘zgarishlar ***xo‘jalik operatsiyasi*** deb ataladi. Masalan, ishlab chiqarishga moddiy boyliklarni sarflash, olingan mahsulotlarni kirim qilish va boshqa shunga o‘xshash ayrim muomalalar.

Xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalarida o‘zgarish sodir qiluvchi barcha xo‘jalik muomalalari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xo‘jalik mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalarining tarkibi va funksional rolini, ularning doiraviy aylanish jarayonlaridagi harakatini ko‘rib chiqib, buxgalteriya hisobi predmetiga umumiy ta’rif berish mumkin.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning pulda baholanadigan xo‘jalik mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari, hamda xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘ladigan mablag‘lar doiraviy aylanishi va manbalar o‘zgarishi buxgalteriya hisobining predmetini tashkil etadi.

1.8. Buxgalteriya hisobi metodining ta’rifi, tarkibi, predmeti va metodining o‘zaro bog‘liqligi

Har qanday fanning predmeti va obyektlarining mohiyatini bilishga mazkur fan metodining mazmunini bilish orqali erishiladi.

Oldingi paragraf (1.7) da ta’riflanganidek, buxgalteriya hisobining predmeti deganda, mablag‘lar, manbalar va xo‘jalik jarayonlari hamda faoliyat natijalari tushunilsa, uning metodi predmetni qanday usullar va amallar yordamida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, ***buxgalteriya hisobining metodi*** *mazkur fan predmetini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan usullar (element) ning ilmiy asoslangan tizimiga aytiladi.*

Iqtisodiy fanlar qatorida buxgalteriya hisobining metodi faqat uning o‘ziga xos usullardan iborat bo‘lib, ular fan predmetining mohiyati va uning oldiga quyilgan vazifalar hamda talablardan kelib chiqadi

Buxgalteriya hisobi metodini tashkil etuvchi asosiy usullar (elementlar) quyidagilardan iborat: *hujjatlashtirish va inventarizatsiya; baholash va kalkulyatsiya (mahsulotlar, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini aniqlash); schotlar tizimi va ikki yoqlama yozuv; balans va hisobot.*

Buxgalteriya hisobi sodir bo‘layotgan xo‘jalik muomalalarini hujjatlarda uzluksiz va yoppasiga aks ettirishdan boshlanadi. Hujjatlashtirish – bu sodir bo‘lgan muomalani dastlabki ro‘yxatga olish usulidir. Hujjatlarda xo‘jalik muomalalarining mazmuni, ularning miqdori va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Hujjatlarda aks ettirilgan xo‘jalik muomalalarining to‘g‘riligi uchun mas'ul shaxslar imzolari bilan tasdiqlanib, ularning dalillovchi kuchi ta’minlanadi.

Hujjatlashtirish – buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlay turib, mulklarning saqlanishini qat’iy nazorat qilish, tejamkorlikka rioya qilish va xo‘jalik faoliyati jarayonida mablag‘lardan maqsadli foydalanishning muhim shartidir. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari mavjud mablag‘lar bilan bir xil bo‘lmog‘i kyerak. Bunday bir xillikni ta’minlash uchun vaqti-vaqti bilan inventarizatsiya o‘tkazib turish kyerak.

Inventarizatsiya – bu sanash, tortish, o‘lchash va boshqa yo‘llar bilan korxona mol-mulkini ro‘yxat qilish, olingan ma’lumotlarni buxgalteriya ma’lumotlari bilan solishtirish, aniqlangan kamomad, ortiqcha chiqish, nobudgarchilik va hokazolar tarzidagi farqlarni hujjatlar asosida rasmiylashtirish, bu farqlarning sabablarini va aybdorlarini aniqlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobida korxona mablag‘larini aks ettirish uchun hujjatlarda qayd qilingan xo‘jalik muomalalarining natura va mehnat o‘lchovi ko‘rsatkichlarini pul ifodasida baholash kyerak. *Baholash* – bu hujjatlarda ko‘rsatilgan xo‘jalik muomalalarini pulda ifodalash usulidir. U har xil narsalardan tarkib topgan xo‘jalik mablag‘larini yagona pul ifodasida ko‘rsatish imkonini beradi. Korxonalar mablag‘larini baholashda ularning haqiqiy ishlab chiqarish yoki sotib olish tannarxi asos bo‘ladi. Hujjatlarda aks ettirilgan va pulda baholangan barcha xo‘jalik muomalalari buxgalteriya hisobi schotlariga yoziladi. ***Buxgalteriya hisobi schotlari*** – bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish man-

balari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir.

Xo‘jalik mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarining har bir guruhi bo‘yicha yig‘ma ma’lumotlar olish uchun iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir xil bo‘lgan xo‘jalik muomalalarini guruhlashda schotlardan foydalaniladi.

Xo‘jalik muomalasini buxgalteriya schotlarida aks ettirish ***ikki yoqlama yozuv*** usuli yordamida amalga oshiriladi. Bu usul xo‘jalik muomalalarining ikki taraflamalik xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, moddiy boyliklar sotib olish redm bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik muomalasi bir tomondan moddiy boyliklar zaxirasini ko‘paytirsa, ikkinchi tomondan pul mablag‘larining kamayishiga olib keladi. Xaridorda bu muomala aks ettirilganda sotib olingan mMateriallarning kirimi va mol yetkazib beruvchiga to‘langan pul mablag‘larining chiqimi bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘lanadi. Mol etkazib beruvchi bu muomalani aks ettirganda, xaridordan kelgan pulning ko‘payishi va unga sotilgan Materialning kamayishini o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rsatadi.

Materiallarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar buxgalteriya hisobining alohida schotlarida joriy tartibda guruhlanadi. Tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan redm ko‘rsatilgan xizmatning tannarxini aniqlash buxgaltriya hisobida ***kalkulyatsiya*** deyiladi. Kalkulyatsiyaning rejadagi, normativ, kutilayotgan (provizor) va hisobot kabi turlari mavjud. Hisobot kalkulyatsiyalari buxgalteriya hisobi schotlaridagi yozuvlar asosida tuziladi. Kalkulyatsiyalash qoidalarini yuqori organlar belgilaydi va ular barcha korxonalar uchun majburiydir.

Buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilgan korxona mablag‘lari, mablag‘lar manbalari, xo‘jalik jarayonlari va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar vaqti-vaqti bilan ***balans*** tarzida umumlashtirilishi zarur. Balansda xo‘jalik mablag‘lari to‘g‘risida ma’lumotlar aks ettirilib, unda xo‘jalikda qanday mablag‘lar mavjudligi va ular qaysi manbalar hisobidan tashkil topganligi hamda maqsadli tayinlanishi ko‘rsatiladi. Balans mavjud mablag‘lar bilan ularning tashkil topish manbalarini taqqoslab, xo‘jalik ahvolini o‘rganish imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati haqida xulosa chiqarish uchun xo‘jalik mablag‘lari, ularning tarkibi va tashkil topish manbalarini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarga ega bo‘lgan balansdan tashqari, korxonadagi ayrim bo‘limlar xo‘jalik faoliyatining umumiy ko‘rsatkichlari, xo‘jalik faoliyatining maxsus tomonlarini tavsiflaydigan

ko‘rsatkichlar ham zarur bo‘ladi. Bunday ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish buxgalteriya hisobi metodining muhim usullaridan bo‘lgan *hisobot* yordamida yerishiladi. Ma’lum davr uchun xo‘jalik faoliyatini aks ettiruvchi umumlashtirilgan va o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlarni aks ettiruvchi shakllar yig‘indisi hisobot deyiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan buxgalteriya hisobi metodini tashkil etuvchi usullar (elementlar) ning har biri ma’lum darajada mustaqil bo‘lishi bilan birga boshqalarining amal qilishlari uchun birlamchi muhim shart-sharoit ham hisoblanadi. Bu esa fanning predmeti hisoblangan: mablag‘lar, manbalar va xo‘jalik jarayonlari hamda unda sodir bo‘ladigan xo‘jalik muomalalari o‘rtasida sabab-oqibatli dialektik bog‘liqlik mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga ularni buxgalteriya hisobi tizimida to‘liq, uzluksiz va obyektiv aks ettirishga eirishiladi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi predmeti va metodi o‘rtasida ham sabab-oqibatli dialektik bog‘liqlik mavjud (1.8-rasm).

1.8-rasm

Buxgalteriya hisobi predmeti va metodining o‘zaro bog‘liqligi



NAZORAT SAVOLLARI

1. Xo‘jalik hisobining ta’rifi va turlari qanday?
2. Operativ hisob korxona boshqaruv tizimida qanday ahamiyatga ega?
3. Statistik hisobda ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun qanday usullar va amallar qo‘llaniladi?
4. Buxgalteriya hisobini ta’riflang.
5. Korxona boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobining ahamiyati nimadan iborat?
6. Xo‘jalik hisobi turlarining farqlari va o‘xshashliklari nimadan iborat?
7. Buxgalteriya hisobini ta’riflang.
8. Nima uchun buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining boshqa turlari orasida asosiy o‘rin tutadi?
9. Buxgalteriya hisobining qanday turlari mavjud va ularni ta’riflang.
10. Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari qanday?
11. Buxgalteriya hisobi boshqaruv tizimida qanday funksiyalarni bajaradi?
12. Buxgalteriya hisobining axborot bilan ta’minlash funksiyasi mazmuni.
13. Nazorat funksiyasining ahamiyati nimadan iborat?
14. Mulklarning saqlanishini ta’minlash funksiyasi qanday vazifalarni bajaradi?
15. Uzviy aloqa funksiyasining mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
16. Tahlil funksiyasining mazmunini tushuntirib bering.
17. Buxgalteriya hisobini yuritish oldiga qanday talablar quyiladi?
18. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va ularning mazmuni nimadan iborat?
19. Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar va ularning turlarini tavsiflang.
20. Buxgalteriya hisobi predmetini ta’riflang.
21. Uzoq muddatli aktivlar deganda nimani tushunasiz?
22. Joriy aktivlarga nimalar kiradi?
23. O‘z mablag‘larining manbalari nimalardan iborat?
24. Korxona majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?
25. Ustav kapitali qanday shakllantiriladi?

26. Qo‘shilgan kapital nimaning hisobiga tashkil etiladi?

27. Rezerv kapitali nima va u qanday yaratiladi?

28. Korxona mablag‘larining vujudga kelish manbalari qanday guruhlarga bo‘linadi?

29. Majburiyatlar qanday guruhlarga bo‘linadi?

30. Buxgalteriya hisobi metodining mohiyati va uning tarkibi qanday usullardan iborat?

31. Buxgalteriya hisobi predmeti va metodi o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik mavjud?

NAZORAT TESTLARI

1. Xo‘jalik hisobining funksiyalari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Natural, mehnat, pul

B) Opyerativ, buxgalterlik, statistik

S) Miqdoriy, sifat

D) Axborotlarni to‘plash, axborotlarni ro‘yxatga olish, axborotlarni tizimlashtirish

2. Hisobda qo‘llaniladigan o‘lchovlar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Boshqaruv hisob, soliq hisobi, dastlabki hisob

B) Pul, natura, inventarizatsiya

S) Natura, mehnat, pul

D) Mehnat, pul, tannarx

3. Xo‘jalik hisobining turlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Opyerativ hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi

B) Natura, mehnat, pul

S) Boshqaruv hisob, soliq hisobi, dastlabki hisob

D) Moliyaviy hisob, soliq hisobi, boshlang‘ichhisob

4. Buxgalteriya hisobining yo‘nalishlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Natura, mehnat, pul

B) Moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi

S) Buxgalteriya hisobi schotlarida axborotlarni shakllantirish

D) Soliq hisobi, boshlang‘ich hisob

5. Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, xo‘jalik muomalalari

B) Ta’minot, ishlab chiqarish va sotish (realizatsiya)

S) Ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, aniqlik, hisoblash, oldindan ko‘ra bilish, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi, hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiq kelishi va boshqalar

D) Operativ-texnik hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi

6. Buxgalteriya hisobining maqsadi nima?

A) Buxgalteriya hisobi schotlarida axborotlarni shakllantirish

B) Foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq buxgalteriya hisobi va boshqa moliyaviy axborot bilan ta’minlash

S) Samarali boshqarish maqsadida axborotlarni umumlashtirish

D) Aktivlar va passivlarni hisobga olish

7. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, xo‘jalik muomalalari

B) Ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, aniqlik, hisoblash, oldindan ko‘ra bilish, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi, hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiq kelishi va boshqalar

S) Axborotlarni to‘plash, axborotlarni ro‘yxatga olish, axborotlarni tizimlashtirish

D) Buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotlarni shakllantirish; samarali boshqaruv maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarni umumlashtirish; moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish

8. Buxgalteriya hisobining funksiyalari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Axborot, nazorat, uzviy aloqa, tahliliy, mulkning saqlanishini ta’minlash

B) Operativ-texnik hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi

S) Moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, soliq hisobi

D) Natura, mehnat, pul

9. Buxgalteriya hisobining predmeti qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Axborot, nazorat, uzviy aloqa, tahliliy, mulkning saqlanishini ta’minlash

B) Xo‘jalik mablag‘lari (aktivlar), xo‘jalik mablag‘lari manbalari (passivlar), xo‘jalik faoliyati (jarayonlari), faoliyat natijalari

S) Axborotlarni to‘plash, axborotlarni ro‘yxatga olish, axborotlarni tizimlashtirish

D) Ta’minot, ishlab chiqarish va sotish (realizatsiya)

10. Buxgalteriya hisobining obyektlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotlarni shakllantirish; samarali boshqaruv maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarni umumlashtirish; moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish

B) Buxgalteriya hisobi axborotlaridan ichki foydalanuvchilar va tashqi foydalanuvchilar

S) Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik muomalalari

D) Ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, aniqlik, hisoblash, oldindan ko‘ra bilish, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi, hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiq kelishi va boshqalar.

II BOB. BUXGALTERIYA BALANSI, SCHOTLAR VA IKKI YOQLAMA YOZUV

2.1. Buxgalteriya balansining mohiyati va tuzilishi

«Balans» so‘zi lotincha bo‘lib, uning aynan tarjimasi «bis»- ikki karra va «lans» tarozi pallasi, ya’ni «tarozi ikkita pallasining tengligi» degan ma’noni, muvozanat, tenglik ramzini bildiradi.

Buxgalteriya hisobida «balans» tushunchasi ikkita ahamiyat kasb etadi:

1. Jamlangan summalar tengligi, ya’ni schotlarning debeti bo‘yicha summalar jami va krediti bo‘yicha summalar jamining tengligi, har bir sintetik schot ma’lumotlarining (boshlang‘ich qoldig‘i, debet va kredit oborotlari, oxirgi qoldig‘i) mazkur sintetik schotga tegishli analitik schotlar ma’lumotlariga tengligi, balans aktividagi moddalar summalari jami va passividagi moddalar summalari jamining tengligini ifodalaydi;

2. Moliyaviy hisobotning asosiy shakli bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum sanadagi mulkiy va moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini ifodalaydi.

Buxgalteriya hisobining metodini tashkil etuvchi boshqa usullar (elementlar) orasida bunday ikki tomonlama ahamiyat faqat buxgalteriya balansiga xosdir.

Ushbu ahamiyatli jihatlariga asoslanib buxgalteriya balansini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Xo‘jalik mablag‘larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning vujudga kelish manbalaridagi hamda maqsadli tayinlanishidagi o‘zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma’lum bir sanaga qiymat ifodasida umumlashtirilgan holda aks ettirish usuli buxgalteriya balansi deyiladi.

Balans ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarkibiy qismdan iborat: aktiv va passiv. Bu atamalar ham lotincha bo‘lib, aynan tarjimasi «astivus»- aktiv, faol va «rassivus» - passiv, faoliyatsiz degan ma’nolarni bildiradi.

Balans **aktivida** mablag‘lar tarkibi,joylanishi va ishlatilishiga qarab; **passivida** esa mablag‘larning tashkil topish manbalari: ularning kimniki ekanligi va qanday maqsadga mo‘ljallanganligiga qarab guruh-

langan holda, pul ifodasida ma’lum bir sanaga aks ettiriladi. Balans aktiv va passivi hamma vaqt o‘zaro teng bo‘lishi shart.

Balans aktivi va passivining o‘zaro tengligi uning aktivida ham, passivida ham bir xil xo‘jalik mablag‘lari aks ettirilishidan kelib chiqadi, lekin aktivda mablag‘lar tarkibi, joylanishi va ishlatilish shakli bo‘yicha, passivda esa tashkil topish manbalari va maqsadli tayinlanishi bo‘yicha aks ettiriladi.

Aktiv va passivning o‘zaro tengligi ulkan nazorat ahamiyatiga ega bo‘lib, buxgalteriya yozuvlarining to‘g‘riligini tekshirish va hisobot tuzishda foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni va buxgalteriya hisobining xalqaro hamda milliy standartlariga muvofiq moddiy boyliklar balansda aks ettirilganda, quyidagicha baholanadi: asosiy vositalar (ishlatilayotgani hamda zaxirada yoki konservatsiyada saqlanayotgani) - ularning qoldiq qiymati bo‘yicha; xomashyolar, asosiy va yordamchi Materiallar, yoqilg‘ilar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va yig‘ib tuzatiladigan buyumlar, ehtiyot qismlar, idish va moddiy qiymatliklar (tayyorlash va omborga tashib keltirish sarflarini qo‘shgan holda); tayyor mahsulotlar, xo‘jalikning o‘zida yetishtiriladigan urug‘lik, yem-xashak va yosh chorva mollarichakana bahoda, ulgurji omborlar va savdo qiluvchi yoki savdo-ta’minot tashkilotlarida esa - chakana bahoda yoki xarid qilingan qiymati bo‘yicha aks ettiriladi.

Aktivda moddiy mablag‘lar, tugallanmagan ishlab chiqarishdagi mablag‘lar, pul mablag‘lari, debitorlar kelgusi davr uchun sarflangan mablag‘lar, aylanishdan tashqari (chetlashtirilgan) mablag‘lar, passivda esa - ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezyerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, budjetdan moliyalashtirish, bank kreditlari, korxonaning kreditor qarzlari, berilmagan mehnat haqi va daromadni taqsimlash bo‘yicha majburiyatlar kabilar aks ettiriladigan moddalar bo‘ladi.

Shunday qilib, balans tuzilishiga xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari hamda iqtisodiy mazmuni asos bo‘ladi.

Buxgalteriya balansi aktiv va passividagi moddalar mablag‘larning tarkibi, joylanishi va tashkil topish manbalari bo‘yicha iqtisodiy tasniflanishiga muvofiq ikkita bo‘limga guruhlanadi.

Korxona balansining aktivi tarkibiga quyidagi bo‘limlar kiradi:

I. «Uzoq muddatli aktivlar»;II. «Joriy aktivlar».

Passivda esa yuqoridagi bo‘limlar qarshisida mos ravishda quyidagi bo‘limlar; joylashgan:

I. «O‘z mablag‘lari manbalari»; II. «Majburiyatlar».

Balans aktivi va passividagi alohida bo‘limlarning o‘zaro bog‘liqligini 2.1-rasmda ko‘rsatish mumkin.



2.1-rasm. Balans aktivi va passividagi bo‘limlarning o‘zaro aloqadorligi.

Chizmadan ko‘rinib turibdiki, uzoq muddatli aktivlar ham, joriy aktivlar ham korxonaning o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlar (qarz manbalar) hisobidan tashkil topishi mumkin.

Buxgalteriya balansining shakli O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Namunaviy shakldagi balansni qisqartirilgan holda quyidagi jadval ko‘rinishida keltirish mumkin (2.1-jadval).

Balans aktivining I «*Uzoq muddatli aktivlar*» bo‘limida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy quyilmalar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital quyilmalar va sh.o‘. aks ettiriladi.

Aktivning II «*Joriy aktivlar*» bo‘limida yuqori likvidli, ya’ni pulga aylantirilishi nisbatan oson xo‘jalik mablag‘lari guruhlangan. Bularga asosan, Materiallar, o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, tugallanmagan ishlab chiqarish, debitor qarzlar, qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hamda pul mablag‘lari kiradi.

Balansning passivida (o‘ng tomoni) o‘z mablag‘larining manbasi va majburiyatlar aks ettiriladi.

Passivning I «*O‘z mablag‘lari manbasi*» bo‘limida xususiy kapital asosiy o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni 14-moddasiga muvofiq xususiy kapital ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydadan iborat.

2.1-jadval

Buxgalteriya balansi

Aktiv	Satr kodi	Hisobot davri		Aktiv	Satr kodi	Hisobot davri	
		boshiga	oxiriga			Boshi-ga	Oxiri-ga
I. *Uzoq muddatli aktivlar*				***I O‘z mab-lag‘lari man-balari***			
Asosiy vositalar	012	1900	2100	Ustav kapitali	410	2700	2700
Nomoddiy aktivlar	022	760	870	Qo‘shilgan kapital	420	150	180
				Rezerv kapital	430	657	690
				Taqsimlan-magan foyda	450	241	779
I bo‘lim jami	X	2660	2970	I bo‘lim jami	X	3748	4349
II Joriy aktivlar				***II Majbu-riyatlar***			
Ishlab chiqarish zaxiralari	150	245	293	Uzoq muddatli majburiyatlar	490	601	938
Tugallan-magan ishlab chiqarish	160	833	1031				
Debitorlar	210	976	1089				
Pul mablag‘-lari	320	486	717	Joriy majburiyatlar	600	851	813
II bo‘lim jami	X	2540	3130	II bo‘lim jami	X	1452	1751
Balans	**X**	**5200**	**6100**	**Balans**	**X**	**5200**	**6100**

Balans passivining II «*Majburiyatlar*» bo‘limida korxona majburiyatlari ularning muddatiga ko‘ra: *uzoq muddatli majburiyatlar* va *qisqa muddatli majburiyatlar*ga ajratilgan holda ko‘rsatiladi.

Buxgalteriya balansining ushbu tuzulmasi barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun umumiy bo‘lib, ularning xususiyatlariga qarab balans moddalari farq qilishi mumkin. Masalan,

savdo korxonalari uchun «Tovarlar», qishloq xo‘jalik korxonalari uchun «Tugallanmagan ishlab chiqarish», «O‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari» kabi moddalar xosdir.

Shunday qilib, bayon qilingan talablarga muvofiq tuzilgan buxgalteriya balansi xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum sanaga bo‘lgan moliyaviy ahvolini aks ettirishi lozim.

2.2. Xo‘jalik muomalalari ta’sirida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlar va ularning tavsifi

Xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘ladigan muomalalar ta’sirida korxona mablag‘larining tarkibida va ularning tashkil topish manbalarida, ayrim hollarda ularning ikkalasida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalaridagi ro‘y bergan o‘zgarishlar balansda ham tegishli o‘zgarishlarga olib keladi. Mablag‘lar qiymati o‘zgarmagan holda doiraviy aylanish jarayonida ularning buyum shakli o‘zgaradi, mablag‘lar tashkil topish manbalarining ham shakli o‘zgaradi, xo‘jalik mablag‘lari ko‘payadi yoki kamayadi. Lekin **balansning asosiy xususiyati**- xo‘jalik muomalalarini schotlarda ikki yoqlama aks ettirish ta’sirida balans moddalari summasi o‘zgarganda aktiv va passiv tengligining o‘zgarmasligi doimo saqlanadi. Buni misolda tasdiqlashimiz uchun qishloq xo‘jalik korxonasining yil boshiga tuzilgan balansni keltiramiz (2.2-jadval) va uning xo‘jalik muomalalari ta’sirida o‘zgarishini quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz.

2.2-jadval

Boshlang‘ich balans

Aktiv	Summa, so‘m	Passiv	Summa, so‘m
Asosiy vositalar	1312600	Ustav kapitali	1448960
Materiallar	24200	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar	39890
Asosiy ishlab chiqarish	43850		
Hisob-kitob schoti	134400	Mol etkazib beruvchilar	26200
Balans	1515050	Balans	1515050

1-muomala. Qiymati 8600 so‘mlik material ombordan asosiy ishlab chiqarishga berildi va sarflandi. Bu muomala natijasida ombordagi

Materiallar 8600 so‘mga kamaydi (24200 – 8600 = 15600). Shu vaqtning o‘zida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari 8600 so‘mga ko‘payadi (43850+8600=52450). Bu muomaladan so‘ng balansning jami summasi o‘zgarmadi, faqat balans aktividagi moddalar orasida o‘zgarish sodir bo‘ldi.

*Birinchi tip balans o‘zgarishi*ning ya’ni faqat aktivdagi moddalar orasida sodir bo‘lgan o‘zgarishning matematik modelini tuzamiz.

2.3-jadval

1-muomaladan keyingi balans

Aktiv	Summa, so‘m	Passiv	Summa, so‘m
Asosiy vositalar	1312600	Ustav kapitali	1448960
Materiallar (-8600)	15600	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar	39890
Asosiy ishlab chiqarish (+8600)	52450		
Hisob-kitob schoti	134400	Mol yetkazib beruvchilar	26200
Balans	1515050	Balans	1515050

Agar balans aktivi summalarining jami A, balans passivining summalarining jamini P, balans moddalarining summasini a deb qabul qilsak, quyidagi matematik modelni tuzamiz,

$$\sum A + a - a = \sum P, \qquad (1)$$

Ushbu model quyidagicha o‘qiladi: balans aktivining bir moddasi ko‘payadi, boshqasi (u bilan bog‘liq bo‘lgan) xuddi shu summaga kamayadi; natijada aktiv va passiv summalar yig‘indisi o‘zgarmaydi, ularning o‘zaro tengligi saqlanib qoladi.

2-muomala. Xodimlarga hisoblangan ish haqi summasidan 14500 so‘m daromad solig‘i ushlandi. Bu muomaladan so‘ng hisoblangan ish haqi summasi 25390 so‘m bo‘lgan (39890-14500=25390) va bir vaqtning o‘zida balans passivida 1450 so‘mga «Soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar» degan yangi modda paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, bu muomala natijasida faqat balans passividagi moddalar orasida o‘zgarishlar ro‘y bergan va yig‘indisi o‘zgarmagan.

2.4-jadval

2-muomaladan keyingi balans

Aktiv	Summa, so‘m	Passiv	Summa, so‘m
Asosiy vositalar	1312600	Ustav kapitali	1448960
Materiallar (-8600)	15600	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar (-14500)	25390
Asosiy ishlab chiqarish (+8600)	52450	Budjet bilan hisob-kitoblar (+14500)	14500
Hisob-kitob schoti	134400	Mol etkazib beruvchilar	26200
Balans	1515050	Balans	1515050

Endi ikkinchi tip o‘zgarish, ya’ni faqat passivdagi moddalarda sodir bo‘ladigan, o‘zgarishlar matematik modelini tuzamiz. Bunda avvalgi shartli belgilardan foydalanamiz va balans passivi moddalarining summasini p harfi bilan belgilaymiz. Bunda matematik model quyidagicha bo‘ladi:

$$\sum A = \sum P + p - p, \qquad (2)$$

Ushbu model balans passividagi bir modda ko‘payganda boshqasi (u bilan bog‘liq bo‘lgan) huddi shu summaga kamayadi deb o‘qiladi. Bu vaqtda har bir aktiv va passivning alohida jami summasi o‘zgarmaydi va ularning o‘zaro tengligi buzilmaydi.

3. Muomala. «Zenit» zavodidan tekinga 500000 so‘mlik asosiy vosita (Televizor)qabul qilib olindi. Bu muomala natijasida balans aktivida ham, passivida ham o‘zgarish (ko‘payish) sodir bo‘lgan. Birinchidan, aktivdagi «Asosiy vositalar» moddasi 500000 so‘mga ko‘paygan (1312600Q 500000 q 1812600), ikkinchidan passiv tomonda «Rezyerv kapitali» moddasi paydo bo‘ladi (500000 so‘mga).

Shunday qilib, bu xo‘jalik muomalasi natijasida balans aktivi va passivi bir xil summaga ko‘payib, lekin balans tengligi buzilmagan.

Uchinchi tip o‘zgarish uchun yani o‘zgarish balansning aktividagi moddalarda ham, passividagi moddalarda ham ko‘payish tomonga sodir bo‘lganda quyidagicha matematik model tuziladi:

$$\sum A + a = \sum P + p, \qquad (3)$$

Bu model balans aktivi va passivining moddalari bir xil summalarga ko‘payganda, shu summalarga aktiv passiv summalari yig‘indisi ham ko‘payadi, aktiv va passiv tengligi esa buzilmaydi deb o‘qiladi.

2.5-jadval

3-muomaladan keyingi balans

Aktiv	Summa, so‘m	Passiv	Summa, so‘m
Asosiy vositalar (+500000)	1812600	Ustav kapitali	1448960
Materiallar (-8600)	15600	Rezyerv kapitali (+500000)	500000
Asosiy ishlab chiqarish (+8600)	52450	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar (-14500)	25390
		Budjet bilan hisob-kitoblar (+14500)	14500
Hisob-kitob schoti	134400	Mol etkazib beruvchilar	26200
Balans	2 015050	Balans	2 015050

4-Muomala. Mol etkazib beruvchilarga hisob-kitob schotidan 13900 so‘m qarz puli o‘tkazildi. Bu muomala natijasida hisob-kitob schotidagi qoldiq 13900 so‘mga kamaydi (134400-13900 = 120500) va bir vaqtning o‘zida mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarz ham shu summaga kamaydi (26200 - 13900 = 12300).

Bu muomala balansning aktivida ham, passivida ham bir xil summaga kamayishga olib keldi. Lekin balans tengligi buzilmadi.

Yuqoridagi barcha muomalalarni aks ettirganimizdan so‘ng korxona balansi quyidagi ko‘rinishga keladi (2.6-jadval).

To‘rtinchi tip o‘zgarish uchun ya’ni o‘zgarish aktivdagi moddalarda ham, passivdagi moddalarda ham kamayish tomonga sodir bo‘lganda matematik model quyidagicha tuziladi:

$$\sum A - a = \sum \mathrm{P} - \mathrm{p}, \qquad (4)$$

Bu model; aktiv va passiv moddalari bir xil summaga kamayganda, shu summaga aktiv va passivdagi summalar yig‘indisi ham kamayadi, aktiv va passiv tengligi esa buzilmaydi deb o‘qiladi.

2.6-jadval

Yakuniy balans

Aktiv	Summa, so‘m	Passiv	Summa, so‘m
Asosiy vositalar (+500000)	1812600	Ustav kapitali	1448960
Materiallar (-8600)	15600	Rezyerv kapitali (+500000)	500000
Asosiy ishlab chiqarish (+8600)	52450	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar (-14500)	25390
		Budjet bilan hisob-kitoblar (+14500)	14500
Hisob-kitob schoti (-13900)	120500	Mol etkazib beruvchilar (-13900)	12300
Balans	2 001150	Balans	2 001150

Demak, xo‘jalik muomalalari ta’sirida balansda sodir bo‘ladigan to‘rt tip o‘zgarishlarni yuqorida ko‘rib chiqilgan to‘rtta matematik model orqali ifodalash mumkin ekan.

Ko‘rib chiqilgan to‘rtta xo‘jalik muomalasi balansda ro‘y beradigan barcha o‘zgarish turlari uchun misol bo‘la oladi. Demak, korxonada qancha xo‘jalik muomalasi sodir bo‘lishidan qat’iy nazar, ular to‘rt tipga bo‘linadi:

I tip. Aktiv moddalaridagi o‘zgarish (aktivda ko‘payish va aktivda kamayish) – balans jami o‘zgarmaydi.

II tip. Passiv moddalaridagi o‘zgarish (passivdagi ko‘payish va passivdagi kamayish) – balans jami o‘zgarmaydi.

III tip. Aktiv va passiv moddalarida ko‘payishga olib keluvchi o‘zgarishlar (aktiv va passiv bir xil summaga ko‘payadi).

IV tip. Aktiv va passiv moddalarida kamayishga olib keluvchi o‘zgarishlar (aktiv va passiv bir xil summaga kamayadi).

Shunday qilib, har qanday xo‘jalik muomalasi ushbu ko‘rsatilgan to‘rt tip o‘zgarishlardan birining sodir bo‘lishiga olib keladi.

2.3. Buxgalteriya balansi – korxonalarning moliyaviy ahvolini o‘rganish uchun axborot manbai ekanligi

Buxgalteriya balansi axborotlarga boy manba bo‘lib, ularga asoslanib xo‘jalik yurituvchi subyekt moliya-xo‘jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Aynan mana shunday muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi bois buxgalteriya balansi buxgalteriya hisoboti shakllari ichida birinchi o‘rinda turadi. Undagi axborotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, balki ayrim ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi mantiqiy va o‘ziga xos bog‘liqliklarni ham bilish zarur. Buxgalteriya balansining mazmunini bilishda uni o‘qish ketma-ketligi ham muhim ahamiyatga ega, shuningdek, faqat buxgalteriya balansiga xos bo‘lgan ayrim cheklashlarni albatta bilish zarur.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining tuzilishi hamda mazmuni undagi axborotdan foydalanuvchilar, eng avvalo, tashqi foydalanuvchilarga qaratilgan. Debitor va kreditor qarzlarning holatini ochib beruvchi, korxonaning joriy xarajatlari yoki foydasi hisobidan tashkil etilgan xususiy kapital va ayrim turdagi rezervlar shakllanishini ochib beruvchi moddalar batafsillik darajasining yuqoriligi shundan kelib chiqadi.

Balansga xos ichki o‘zaro bog‘liqliklar axborotdan foydalanuvchilar ehtiyojining qondirilish darajasiga bog‘liq bo‘lmaydi va quyidagilardan iborat:

1. Aktivdagi barcha bo‘limlar summalari yig‘indisi passivdagi barcha bo‘limlar summalari yig‘indisiga teng bo‘lib, bu balansning mohiyati bilan izohlanadi.

2. Xususiy kapitalning hajmi (passivdagi birinchi bo‘lim) uzoq muddatli aktivlar (aktivdagi birinchi bo‘lim) hajmidan ko‘p bo‘ladi. Bunday xulosa isbot talab qilmaydi. Chunki, xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati joriy aktivlarsiz mumkin emas deb qabul qilingan. Shuning uchun xususiy kapitalning tarkibi uzoq muddatli va joriy aktivlar shakllanishini doimo nazarda tutadi. Milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlarning o‘ziga xos xususiyatlari aktivdagi mulklar nisbatiga har xil ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu uslub bo‘yicha hisoblangan tafovut o‘z aylanma mablag‘larining mavjudligini ko‘rsatadi. Bu mablag‘lar va zaxiralar hamda xarajatlarni shakllantiradigan uzoq muddatli qarz manbalarining summasi kapital va rezervlarning jamini bildiradi (passivning birinchi

bo‘limi), hamda uzoq muddatli kreditlar va qarz mablag‘lar (passivning ikkinchi bo‘limi) uzoq muddatli aktivlarni (aktivning birinchi bo‘limi) chegirib tashlagan holda.

Shunday qilib, zaxiralar va xarajatlarni shakllantiruvchi asosiy manbalarning umumiy miqdori qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasi qo‘shilgan holdagi oldingi ko‘rsatkich miqdoriga teng.

3. Uzoq muddatli aktivlar (balans aktivining birinchi bo‘limi) asosan o‘z mablag‘lari hisobidan shakllanishini e’tiborga olib, ularning miqdori xo‘jalik yurituvchi subyekt normal faoliyat ko‘rsatgan sharoitda, majburiyatlar (balans passivining ikkinchi bo‘limi) summasidan ko‘p bo‘lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ularning nisbati 6/4 va undan yuqori bo‘lishi normal holat deb tan olinadi.

4. Balansda barcha aktivlar va passivlar juda batafsil beriladi. Bu uning aktivi va passivi bo‘yicha ayrim moddalari, natijada, ayrim mulklarni qoplash manbalari o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatishga imkon beradi. Masalan, uzoq muddatli va qisqa muddatli quyilmalarni qoplash manbalari bo‘lib, maxsus mo‘ljallangan har xil fondlar va rezyerv kapitali hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya balansining eng umumiy sharhi, uning ma’lum cheklashlarida (statiklik, baholash tamoyilining realligi va h.k.), undan foydalanuvchilarga, eng avvalo, mulkdorlarning moliyaviy barqarorligi to‘g‘risida zarur axborotlarni taqdim etadi.

2.4. Buxgalteriya hisobining schotlari va ularning tuzilishi: aktiv va passiv schotlar

Ma’lum bo‘ldiki, balans xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalarini ma’lum sanaga, umumlashtirilgan tasnifiy guruhlar bo‘yicha tavsiflar ekan. Lekin, korxona moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarish va biznes-reja hamda shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish uchun har bir mablag‘ning mavjudligi va harakati, har bir korxona bilan hisob-kitoblar ahvoli, ayrim mablag‘ manbalarining o‘zgarishi va boshqalar to‘g‘risida kundalik ma’lumotlar kerak. Shuningdek, faqat natijalarnigina emas, balki xo‘jalik jarayonlarini ham tavsiflaydigan ma’lumotlar zarur. Bunday ma’lumotlarga xo‘jalik muomalalarini, ularning xususiyatlariga ko‘ra hisobga olgan holda aks ettirib borish yo‘li bilan ega bo‘lish mumkin. Xo‘jalik muomalalarini joriy tartibda

aks ettirish va guruhlash uchun buxgalteriya hisobining schotlaridan foydalaniladi.

> Buxgalteriya hisobining schotlari – bu xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari va xo‘jalik jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish uchun zarur axborotlarga ega bo‘lish maqsadida, ularni dastlabki hujjatlar ma’lumot-lariga asosan joriy tartibda hisobga olish, guruhlash va bir tizimga keltirish usulidir.

Guruhlash iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bir xil xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘lar manbalari va xo‘jalik muomalalari uchun alohida schot ochish bilan ta’minlanadi.

Schot buxgalteriya hisobi obyektlarini identifikatsiyalashga imkon yaratadigan maxsus belgi hisoblanadi. Shuning uchun har bir schotga, unda hisobga olinadigan obyektga mos keladigan nom va xos raqam (kod) belgisi beriladi (1-ilovaga qarang). Schotlar xo‘jalik mablag‘lari, ularning vujudga kelish manbalari va xo‘jalik jarayonlarining har bir turi uchun buxgalteriya hisobi obyektlarining turkumlanishiga muvofiq ochiladi. Masalan, «Bino, inshootlar va uzatgich moslamalar», «Mashina va uskunalar», «Xom-ashyo va Materiallar», «Patentlar, litsenziyalar va nou-xou», «Asosiy ishlab chiqarish», «Hisob-kitob schoti» va h.k.

Buxgalteriya hisobining schotlari ikki tomonli jadval shakliga ega bo‘lib, chap tomoni – «debet», o‘ng tomoni – «kredit» deb ataladi. «Debet» va «kredit» atamalari lotincha bo‘lib, aynan tarjimasi debet – «u qarzdor» va credit – «u ishonadi» degan ma’noni bildiradi.

Mablag‘larning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ikki guruhga: 1) Tarkibi, joylanishi va ishlatilishi bo‘yicha; 2) Tashkil topish manbalari va maqsadli tayinlanishi bo‘yicha bo‘linishidan kelib chiqqan holda schotlar ham, aktiv va passiv schotlarga bo‘linadi. Aktiv schotlarda xo‘jalik mablag‘larining mavjudligi va harakati (ko‘payishi, kamayishi) aks ettiriladi. Aktiv schotlarning qoldiqlari debet tomonida yoziladi. Aktiv schotlar balans aktividagi moddalarga asosan ochiladi:

Aktiv schot chizmasi

Debet	Kredit
Boshlang‘ich qoldiq	Kamayishi (-)
Ko‘payishi (+)	
Oborot	Oborot
Oxirgi qoldiq	

Passiv schotlarda esa xo‘jalik mablag‘lari manbalarining mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Passiv schotlarning qoldiqlari schotning kreditida aks ettiriladi. Passiv schotlar joriy hisobda balansning passiv moddalariga asosan ochiladi:

Passiv schot chizmasi

Debet	Kredit
	Boshlang‘ich qoldiq
Kamayish (-)	Ko‘payish (+)
Oborot	Oborot
	Oxirgi qoldiq

Aktiv va passiv schotlarda debet (schotning chap tomoni) va kredit (schotning o‘ng tomoni) tayinlanishiga ko‘ra turli xil vazifalarni bajaradi.

Aktiv schotlarning debetida mablag‘larning qoldig‘i va ko‘payishi, kreditida esa kamayishi aks ettiriladi. Passiv schotlarda, aksincha, mablag‘lar tashkil topish manbalarining qoldig‘i va ko‘payishi kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobi amaliyotida «qoldiq» so‘zining o‘rniga ko‘pincha «saldo» so‘zi ishlatiladi. «Saldo» italyancha so‘z bo‘lib, aynan tarjimasi «hisob-kitob» degan ma’noni bildiradi.

Schot bo‘yicha hisobot davrining boshiga bo‘lgan qoldiq *boshlang‘ich saldo* deb ataladi. Schot bo‘yicha hisobot davrining oxiriga bo‘lgan qoldiq *oxirgi saldo* deb ataladi. Agar schotning debeti bo‘yicha oborotlar jami mazkur schotning krediti bo‘yicha oborotlar jamidan ko‘p bo‘lsa, u holda debet qoldiq qoladi. U schotning boshlang‘ich qoldiq joylashgan, chap tomonida ko‘rsatiladi.

Qoldiq har bir schot bo‘yicha har oyning birini sanasiga hisoblab chiqariladi. Schotda boshlang‘ich qoldiq bo‘lgan hollarda yangi (oxirgi) qoldiq schotning boshlang‘ich qoldig‘i ko‘rsatilgan tomondagi oborot yozuvlarining jamini hisobga olgan holda mazkur schotning qarama-qarshi tomonidagi oborotlar jami chegirib tashlab aniqlanadi. Oxirgi qoldiq bo‘lmagan, ya’ni u nolga teng bo‘lgan hollarda schot yopilgan hisoblanadi.

Schotni yopish quyidagilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- ✓ alohida faoliyat turlarining moliyaviy natijasini har bir hisobot davri bo‘yicha hisoblab chiqarish zaruratidan kelib chiqqan holda ularning qoldiqlarini boshqa schotga o‘tkazish. Masalan, 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010, 9020, 9030) qoldiqlari har oy oxirida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o‘tkazish bilan yopilishi lozim;
- ✓ hisobga olinadigan obyektning mohiyati bilan bog‘liq. Masalan, korxonada yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq xarajatlar amalga oshirilgan. Ushbu maqsadlar uchun joriy oyda amalga oshirilgan xarajatlar, hali mahsulot ishlab chiqarilmaganligi sababli, ma’lum bir mahsulot tannarxiga qo‘shilishi mumkin emas. Shuning uchun bunday xarajatlar 3100-«Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» schotining debetida to‘plab boriladi. Ishlab chiqarish yo‘lga quyilganidan va mahsulot ishlab chiqarish boshlanganidan so‘ng mazkur schotlarda to‘plangan xarajatlar har bir hisobot oyi bo‘yicha teng ulushlarda mahsulotlar turlarining tannarxiga taqsimlanadi. Xarajatlar hisobdan chiqarilgandan so‘ng 3100-«Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» yopiladi;
- ✓ ayrim turdagi xarajatlarni, avvalo, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlarini hisobga olishga oid amaldagi me’yoriy hujjatlar bilan bog‘liq. Masalan, 2510-«Umum ishlab chiqarish xarajatlari» schoti unda yig‘ilgan xarajatlarni har oyda kalkulyatsiya obyektlariga taqsimlash va hisobdan o‘chirish yo‘li bilan yopiladi

Aktiv va passiv schotlar balansning aktiv va passiv moddalariga mos kelganligi sababli *balans schotlari* deb ham ataladi. Bu esa balans va schotlar o‘rtasida hisob obyektlarini turkumlashning yagona iqtisodiy tasnifiga asoslangan o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi to‘g‘risida xulosa qilishga asos bo‘ladi (buxgalteriya balansi, schotlar va ikki yoqlama yozuv usullarining o‘zaro bog‘liqligi 6-bobning 6.4-bo‘limida batafsil yoritilgan).

2.5. Ikki yoqlama yozuvning mohiyati va ahamiyati

Buxgalteriya hisobi schotlarida xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari, shuningdek xo‘jalik jarayonlarining to‘g‘ri hisobga olib borilishini o‘z vaqtida nazorat qilish uchun, ularning o‘zgarishini aks ettiradigan har bir xo‘jalik muomalasi bir vaqtda ikkita schotning qarama - qarshi tomoniga yoziladi.

Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozuvning mohiyati shundaki, har bir xo‘jalik muomalasi, u qanday turdagi balans o‘zgarishiga olib kelishidan qat’iy nazar, bir vaqtda va o‘zaro aloqador holda, bir xil summada bir schotning debet tomonida va ikkinchi schotning kredit tomonida aks ettiriladi.

Xo‘jalik muomalalarini schotlarda ikki yoqlama aks ettirishda qiymat miqdori o‘zgarmaganligi sababli o‘zaro bog‘lanadigan schotlarning debet va kreditiga tegishli summalar bir-biriga teng bo‘ladilar. Masalan, asosiy ishlab chiqarishga Material sarflanishi natijasida ombordagi materiallar kamayadi va asosiy ishlab chiqarish xarajatlari ko‘payadi. Bu xo‘jalik muomalasi hisobning ikki obyektida aks etayotgani uchun u ikkita, ya’ni «Xom-ashyo va Materiallar» schoti va «Asosiy ishlab chiqarish» schotiga yozilishi kerak.

Misol: Xo‘jalikda paxta etishtirish uchun 21000 so‘mlik minyeral o‘g‘it sarflandi. Bu xo‘jalik muomalasi natijasida «Asosiy ishlab chiqarish» schoti 21000 so‘mga ko‘payadi. Aktiv schotlarning ko‘payishi debet tomonida ko‘rsatilishi sababli bu summani «Asosiy ishlab chiqarish schoti»ning debet tomoniga yozamiz.

Bir vaqtning o‘zida xo‘jalikda «Xom-ashyo va Materiallar» schotida hisobga olinadigan mineral o‘g‘itlar miqdori kamayadi. Ma’lumki, aktiv schotlar bo‘yicha kamayish kredit tomonidan ko‘rsatiladi. Shuning uchun ushbu muomala summasi «Xom-ashyo va Materiallar» schotining kreditiga yoziladi. Mazkur muomala schotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet «Asosiy ishlab chiqarish» schoti 21000 so‘m.

Kredit «Xom-ashyo va Materiallar» schoti 21000 so‘m.

Yuqoridagi muomalani schotlarga quyidagicha yozamiz:

«Xom-ashyo va Materiallar» schoti

Dt	Kt
Saldo	
	1) 21000

«Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Dt	Kt
Saldo	
1) 21000	

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalasini schotlarda ikki yoqlama aks ettirganimizda summalar tengligi o‘zgarmagan. Bu tenglik xo‘jalik muomalalarini schotlarga yozishning to‘g‘riligini nazorat qilishni ta’minlaydi. Uni quyidagi tengliklar qonuniyatining matematik modellari bilan ifodalash mumkin: barcha aktiv va passiv sintetik schotlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlar (saldolar) summasining tengligi; barcha aktiv va passiv sintetik schotlar bo‘yicha debet va kredit oborotlarining tengligi; barcha aktiv va passiv sintetik schotlar bo‘yicha oxirgi qoldiqlar (saldo) summasining tengligi.

Agar sintetik schotning boshlang‘ich debet qoldig‘i (saldo) S'_{dt} deb, sintetik schotning boshlang‘ich kredit qoldig‘ini S'_{kt} deb belgilasak, unda boshlang‘ich qoldiqlar (saldo) tengligi qonuniyatining matematik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$\Sigma S'_{dt}=\Sigma S'_{kt}\,, \qquad (5)$$

Ushbu model barcha sintetik schotlarning ma’lum sanaga bo‘lgan boshlang‘ich debet qoldiqlarining summasi passiv sintetik schotlarning shu sanaga bo‘lgan boshlang‘ich kredit qoldiqlari (saldo) summasiga teng deb o‘qiladi.

Barcha sintetik schotlar bo‘yicha debet va kredit oborotlari tengligi qonuniyatining matematik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$\Sigma DO_{dt}=\Sigma KO_{kt}, \qquad (6)$$

DO_{dt} – sintetik schotlarning ma’lum muddat ichidagi debet oboroti;

KO_{kt} – sintetik schotlarning ma’lum davr ichidagi kredit oboroti.

Ushbu model ma’lum davr ichida barcha sintetik schotlar debet oborotlarining summasi, shu davr ichidagi kredit oborotlari summasi bilan teng deb o‘qiladi.

Endi sintetik schotlarning oxirgi qoldiqlarini (saldo) S" – deb belgilab, barcha aktiv va passiv sintetik schotlar bo‘yicha oxirgi qoldiq (saldo) summalari tengligi qonuniyatining matematik modelini tuzamiz:

$$\Sigma S''_{dt}=\Sigma S''_{kt}, \qquad (7)$$

Ushbu model barcha aktiv sintetik schotlarning ma’lum sanaga oxirgi debet qoldiqlarining summasi, barcha passiv sintetik schotlarning shu sanaga bo‘lgan oxirgi kredit qoldiqlari summasiga teng deb o‘qiladi.

Bayon qilinganlarga asoslanib, ikki yoqlama yozuv usulining ahamiyatini quyidagicha tasvirlaymiz (2.3-rasm):



2.3-rasm. Ikki yoqlama yozuvning ahamiyati

Xo‘jalik muomalalarini schotlarda ikki yoqlama aks ettirish ulkan nazorat ahamiyatiga ega, chunki barcha schotlarning debetidagi yozuvlar barcha schotlarning kreditidagi yozuvlar yig‘indisiga teng bo‘ladi. Bunday tenglikning bo‘lmasligi ikki yoqlama yozuvda xatoga yo‘l quyilganligini, ya’ni schotlardagi yozuvlarda xato borligini bildiradi. Bunday xatolarni o‘z vaqtida topish va tuzatish kerak.

Xo‘jalik muomalalarini schotlarda aks ettirish natijasida schotlar o‘rtasida o‘zaro aloqa yuzaga keladi. Bunday o‘zaro aloqa ***schotlar korrespondensiyasi*** deyiladi. Shunday qilib, ***schotlar korrespondensiyasi*** deganda, ularda xo‘jalik muomalalari natijasida sodir bo‘lgan hodisalarni aks ettirishda schotlar orasidagi o‘zaro aloqani ifodalash tushuniladi.

Xo‘jalik muomalalarini schotlarga yozish uchun hujjatlarda debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlar ko‘rsatiladi, ya’ni buxgalteriya yozuvi (schot formulasi) tuziladi. Demak, debetlanuvchi va kreditlanuvchi schot va aks ettiriladigan xo‘jalik muomalasining summasini ko‘rsatishga ***buxgalteriya yozuvi*** (provodkasi) deyiladi.

Buxgalteriya yozuvini tuzish uchun nafaqat ma’lum bilimlar yig‘indisiga ega bo‘lish, balki uni rasmiylashtirish ketma-ketligini ham bilish zarur. Eng avvalo, muayyan xo‘jalik muomalasining iqtisodiy mohiyatini aniq tushunish kyerak. Faqat shunday tushuncha asosida mazkur muomala qaysi ikkita korrespondensiyalanuvchi schotlarda aks ettirilishini aniqlash mumkin (2.4-rasm).



2.4-rasm. Buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ni tuzish tartibi

Biz ko‘rib chiqqan oldingi misolda xo‘jalik muomalasi ikkita schotda, ya’ni bir schotning debetida ikkinchi schotning kreditida aks ettirilgan edi. Buxgalteriya hisobida xo‘jalik muomalasini schotlarga bunday aks ettirishga ***oddiy yozuv*** deyiladi. Ayrim xo‘jalik muomalalari xususiyatiga ko‘ra bir schotning debetida va bir necha schotning kreditida yoki aksincha aks ettiriladi. Bunday buxgalteriya yozuvini buxgalteriya hisobida ***murakkab yozuv*** deyiladi (2.5-rasm).

Misol tariqasida quyidagi xo‘jalik muomalasini ko‘rib chiqamiz. Shirkat xo‘jaligi omboriga mol yetkazib beruvchilardan 30000 so‘mlik yoqilgi va 40000 so‘mlik ehtiyot qismlar olindi. Bu xo‘jalik muomalasi quyidagi schotlar korrespodensiyasi orqali aks ettiramiz:

Debet «Yoqilg‘ilar» schoti 30000 so‘m.

Debet «Ehtiyot qismlar» schoti 40000 so‘m.

Kredit «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti70000 so‘m.

Ushbu xo‘jalik muomalasini schotlarga yozamiz:



2.5-rasm. Murakkab buxgalteriya yozuvi (provodkosi)

Yuqorida keltirilgan schotlardagi yozuvlardan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik muomalasini aks ettirishda uchta schot qatnashgan, ya’ni muomala summasi ikkita schotning debetiga va bir schotning kreditiga yozilgan. Bunda buxgalteriyadagi ikki yoqlamalik tamoyili, ya’ni bir xil summani tegishli schotlarning debet va kredit tomonlarida aks ettirish buzilmagan. Xo‘jalik muomalalarini qayd qilishda hisob ishlarini qisqartirish maqsadida murakkab yozuvlardan foydalaniladi. Lekin, bir vaqtning o‘zida bir necha schotlar ham debetlanib, ham kreditlanuvchi yozuvlar bo‘lishi mumkin emas. Bunday yozuvlarda schotlar orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ko‘rib bo‘lmaydi va aks ettirilgan xo‘jalik muomalasining mohiyati buziladi.

Schotda yangi qoldiq chiqarish uchun avvalo uning debeti va kreditidagi summalarni jamlash zarur. Debet bo‘yicha jami summa (boshlang‘ich qoldig‘isiz) schotning ***debet oboroti***, kreditning jami summasi (boshlang‘ich qoldig‘isiz) ***kredit oboroti*** deyiladi.

1-misol. Balansning «Nomoddiy aktivlar» moddasida hisobot davri boshiga 100 000 so‘m ko‘rsatilgan. 0400-«Nomoddiy aktivlar schotini ochganda ushbu summa boshlang‘ich qoldiq sifatida schotning debet tomoniga yoziladi. Hisobot davrida korxonada quyidagi xo‘jalik muomalalari ro‘y bergan:

1. Minyeral suv ishlab chiqarish uchun litsenziya olindi. Litsenziya qiymati 80 000 so‘m.
2. Mahsulotning yangi turini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun patent boshqa korxonaga sotildi. Patentning balans qiymati 90 000 so‘m.
3. Belgilangan tartibda 200 000 so‘mga litsenziya ro‘yxatdan o‘tkazildi va balans kirim qilindi..

4. Boshqa korxona ustav kapitaliga ulush sifatida «Nou-xau» kiritildi (qiymati 120 000 so‘m)

Nomoddiy aktivlarning kirim bilan bog‘liq barcha muomalalarni 0410-«Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schotining chap, ya’ni debet tomoniga, chiqimi esa schotning qarama-qarshi tomoniga, ya’ni kreditiga yoziladi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 80 000 so‘m va 200 000 so‘mni 0410-«Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schotining debet tomoniga, 90 000 so‘m va 120 000 so‘mni esa kredit tomoniga yozish kyerak. Yozilgan summalarni hisoblaymiz.

Schot debeti bo‘yicha oborot 280 000 so‘mni (80 000 so‘m Q 20 000 so‘m), krediti bo‘yicha— 210 000 so‘mni (90 000 so‘m Q 120 000 so‘m) tashkil qiladi. Yakuniy qoldiq 170 000 so‘mga (100 000 so‘m Q 280 000 so‘m — 210 000 so‘m.) teng bo‘ladi.

0410-«Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schotining ushbu muomalalardan keyingi ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

0410-«Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schoti

Debet	Kredit
Boshlang‘ich qoldiq 100 000	2. Patent sotildi …….....90
1) Litsenziya olindi …… 80 000 3) Litsenziya ro‘yxatdan o‘tkazildi va kirim qilindi 200 000	4. Boshqa korxona ustavi ta’sischi sifatida nou-xau kiritildi……. ... 120
Jami kirim (debet oborot) 280 000	Jami chiqim qilindi (kredit oborot) ….....210 000
Yakuniy qoldiq ……. 170 000	

Oxirgi qoldiq manfiy bo‘lishi mumkinmi degan savol tug‘iladi? Ha, mumkin. Bu ko‘p hollarda, agar u yoki bu aktiv hisobot oyining oxirgi sanalarida mol yetkazib beruvchi tomonidan daqdim etilgan hujjatlarsiz qabul qilingan hollarda bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda mazkur davrda xarajatlar qilinganda salbiy qoldik chiqdi. Shunga qaramasdan, aktiv schotning umumiy tuzilishini buzmaslik uchun, hisobot oyining oxiriga bunday qoldiq baribir schotning debet tomoniga, ammo qizil siyoh bilan yoziladi.

Kelgusi hisobot oyida mol yetkazib buruvchi hujjatlari olinishi bilan bunday nomuvofiqlik tuzatiladi.

Schotlarda qoldiq (saldo) chiqarishni matematik modellar orqali ifodalash mumkin. Oldingi belgilar va misoldan foydalanib, aktiv

schotlarda oxirgi qoldiq (saldo) chiqarishning matematik modelini quyidagicha tuzamiz:

$$S'_{dt}+DO_{to}-KO_{to}=S''_{dt}, \qquad (9)$$

Ushbu model aktiv schotning ma'lum sanaga bo'lgan debet qoldig'i boshlang'ich qoldiqqa shu schotning ma'lum vaqt oralig'idagi debet oborotini qo'shib, shu vaqt ichidagi kredit oborotini ayrilganiga teng deb o'qiladi.

Passiv schotlarda oxirgi qoldiq chiqarish uchun kreditdagi boshlang'ich qoldiqqa kredit oborotini qo'shib, hosil bo'lgan summadan debet oboroti ayriladi. Passiv schotlarda manbalarning ko'payishi kreditda, kamayishi esa debetda ko'rsatilishi sababli qoldiq faqat kreditda yoki nolga teng bo'lishi mumkin.

2-misol. Balansning «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik» moddasida hisobot davri boshiga 190 000 so'm qoldiq ko'rsatilgan. Joriy hisobda ushbu modda 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schotiga to'g'ri keladi. Hisobot davrida korxonada quyidagi xo'jalik muomalalari ro'y bergan:

1. Budjetga daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik aks ettirildi 400 000 so'm.
2. Hisob-kitob schotidan o'tkazish yo'li bilan 120 000 so'm qarzdorlik uzildi.
3. Moliya organlarining yakuniy hisob-kitoblariga ko'ra budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik 80 000 so'mga ko'paydi.
4. Budjetga qarzdorlik bankdan 160 000 so'm ssuda olish yo'li bilan uzildi.

Korxonaning budjetga to'lanmagan majburiyatlari bo'yicha boshlang'ich qoldig'i 190 000 so'm 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schotining kredit tomoniga yoziladi. Schotnng shu tomonida korxonaning soliq organlari oldidagi majburiyatlarining 480000 so'mga kupayishi aks ettiriladi (400000 so'm + 80000 so'm). Qarzlarning 280000 so'mga (120000 so'm + 160000 so'm) kamayishi qarama-qarshi tomonda, ya'ni debetida ko'rsatiladi.

Schotning oxirgi qoldig'i 390000 so'mni tashkil etadi (190000 so'm Q 480000 so'm – 280000so'm).

6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» passiv schotining ko'rinishi qo'ydagicha:

6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schoti

Debet	Kredit
2) qarz uzildi ……..120 000 3) qarz uzildi …….. 160 000	Boshlang‘ich qoldiq …….. 190 000 1) qarz aks ettirilishi …400 000 3) qarz ko‘payishi … 80 000
Jami kamaydi (debet oborot)…….280 000	Jami hisoblandi (kredit oborot) ……. 480 000
	Budjetga to‘lanmagan qarz bo‘yicha yakuniy qoldiq 390 000

Endi istalgan passiv schot bo‘yicha oxirgi qoldiq chiqarishning matematik modelini ko‘rib chiqamiz. U quyidagicha bo‘ladi:

$$S'_{kt}+KO_{to}-DO_{to}=S''_{kt}, \qquad (10)$$

Ushbu model passiv schotning ma’lum muddatga bo‘lgan oxirgi qoldig‘i uning boshlang‘ich kredit qoldig‘iga ma’lum davr ichidagi kredit oborotini qo‘shib, shu davr ichidagi debet oborotining ayrilganiga teng deb o‘qiladi.

Har qanday aktiv yoki passiv schot bo‘yicha oxirgi qoldiqning matematik modeli ikki variantda bo‘lishi mumkin. ***Birinchi variant***. Boshlang‘ich qoldiq (saldo) debet bo‘lib, kredit oboroti boshlang‘ich qoldiq va debet oboroti summasidan kichik bo‘lganda. Unda matematik model quyidagicha bo‘ladi:

$$S'_{dt}+DO_{to}-KO_{to}=S''_{dt}, \qquad (11)$$

Agar kredit oboroti boshlang‘ich debet qoldiq va debet oboroti summasidan katta bo‘lsa, u holda qoldiq kreditda qoladi;

Ikkinchi variant. Boshlang‘ich qoldiq (saldo) kreditda bo‘lib, debet oboroti esa boshlang‘ich kredit qoldiq va kredit oboroti summasidan kichik bo‘lganda, uning matematik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$S'_{kt}+KO_{to}-DO_{to}=S''_{kt}, \qquad (12)$$

Agar debet oboroti boshlang‘ich kredit qoldiq (saldo) va kredit oboroti summasidan katta bo‘lsa, u holda qoldiq debetda qoladi.

Buxgalteriya hisobida xo‘jalik muomalalarini qayd qilish ***xronologik*** va ***sistematik*** tartibda amalga oshiriladi.

Xronologik**[3] **yozuv deb, xo‘jalik muomalalalarining sodir bo‘lish ketma-ketligiga ko‘ra qayd qilishga aytiladi.

Sistematik yozuv deb, sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalalarini schotlar tizimi bo‘yicha belgilangan schotlar aloqasi orqali qayd qilishga aytiladi.

Xronologik va sistematik yozuvlar birlashtirilishi yuqori samara beradi. Hisob registrida bunday kombinatsiyadagi yozuv ***sinxronistik*** yozuv deyiladi.

Ro‘yxatga olish, hujjatlarga ishlov berish, buxgalteriya yozuvlarini tuzish va ularni schotlarga tarqatib yozishning zamonaviy usullari bu ishlarning sermehnatligini kamaytiradi. Hozirgi vaqtda ikki yoqlama yozuvning mohiyatida mujassamlashgan «eng buyuk kashfiyot»ning qadr-qimmatini amalga oshirish uchun to‘la sharoitlar yaratilmoqda. *Birinchidan,* debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlar bo‘yicha summalarni jamlash avtomatik rejimda amalga oshirilib, oborotlarni jamlash va qoldiqlarni chiqarishda xatolaring oldi olinadi hamda shu bilan birga xo‘jalik muomalalarining to‘liq ro‘yxatga olinganligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, tegishli xo‘jalik muomalalarini amalga oshiruvchi xodimlar o‘rtasida o‘zaro nazoratni ta’minlaydi.

Uchinchidan, schotlar korrespondensiyasi asosida xo‘jalik muomalasining o‘z vaqtida amalga oshirilishi va maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

To‘rtinchidan, bir xildagi muomalalarni ularni guruhlash zarur bo‘lgan jarayonda yig‘ib borish yo‘li bilan hisobot davrining oxirida umumiy jami bo‘yicha bitta yozuv bajarish imkoni yaratiladi. Bunda xo‘jalik muomalasining iqtisodiy mohiyati buzilmaydi. Shu bilan birga hisob jarayonning sermehnatligi pasayadi.

2.6. Schotlar, ikki yoqlama yozuv va balansning o‘zaro bog‘liqligi

Ushbu o‘zaro bog‘liqlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) joriy hisobda schotlar boshlang‘ich balans ma’lumotlariga asosan ochiladi;

2) boshlang‘ich qoldiqlar aktiv schotlarning chap tomoniga, passiv schotlarning esa o‘ng tomoniga yoziladi, ya’ni ular balansda ham tegishli moddalar bo‘yicha shunday joylashgan;

[**] Xronologik(grek. Chronos – vaqt) – Hodisalarning vaqt oralig‘idagi ketma-ketligi

3) schotlarning boshlang‘ich qoldiqlarini va hisobot davridagi xo‘jalik muomalalarini hisobga olgan holda chiqarilgan oxirgi qoldiqlari keyingi hisobot sanasi uchun balans tuzishda birlamchi ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi;

4) balans ko‘rsatkichlarining mazmunini ochib berish tegishli schotlarda aks ettirilgan oborotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qo‘llash bilan namoyon bo‘ladi.

Masalan, balansning «Tovarlar» (180-satr) moddasi bo‘yicha ik-kala firmaning qoldig‘i 10 mln. so‘mni tashkil etgan, ammo ushbu tovarlarning yillik oboroti birinchi firmada 120 mln. so‘m, yoki yillik zaxiraning 1/12 qismi, ya’ni bir oylik zaxira; ikkinchi firmada ushbu ko‘rsatkich 20 mln. so‘m, ya’ni u yarim yillik zaxiraga ega.

Schotlar va balans o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning mazmunini quyidagi misollarda ochib beramiz:

«Sharq» fermer xo‘jaligining (2011 yil 1 dekabrga), ming so‘m
BALANSI

Aktiv	Satr kodi	Hisobot davri boshiga (ming so‘m)	Passiv	Satr kodi	Hisobot davri boshiga (ming so‘m)
1	2	3	4	5	6
Asosiy vositalar	012	310	Ustav kapitali	410	460
Tovar-moddiy zaxiralari	140	190	Kreditor qarzdorlik	601	221
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Ishlab chiqarish zaxiralari (Materiallar)	150	90	Mol yetkazib beruv-chilar va pudrat-chilarga qarzdorlik	610	75
Tayyor mahsulot*	170	100	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	680	12
Kassadagi pul mablag‘lari	330	6	Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	700	40
Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lari	340	175	Mehnat haqi bo‘yicha qarzdorlik	720	94
Balans	400	681	Balans	780	681

Rahbar_____ Bosh buxgalter _____

«Sharq» fermer xo‘jaligida dekabr oyida quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan:

1. 10 dekabrdagi 6-sonli schot bo‘yicha shartnoma bahosi 80 000 so‘mlik Material «Zenit» zavodidan olingan.

2. Xodimlarga ish haqi hisoblangan – 47 000 so‘m

3. Hisoblangan ish haqidan yagona ijtimoiy to‘lov uchun ajratma hisoblandi – 15510 so‘m.

4. Xo‘jalik ehtiyojlari uchun hisob-kitob schotidan pul olindi va kassaga kirim qilindi – 5 000 so‘m.

5. «Zenit» zavodiga olingan Materiallar uchun qarz hisob-kitob schotidan o‘tkazildi (1 muomalaga qarang) – 80 000 so‘m.

Ushbu muomalalarni aks ettirish tartibi quyidagicha:

1) Balans aktivi va passivi moddalari ma’lumotlariga asosan aktiv va passiv schotlarni ochib, ularga qoldiqlarni o‘tkazamiz:

0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar» (mashina va uskunalar);

1000-«Xom-ashyo va Materiallar»;

2000-«Asosiy ishlab chiqarish»;

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar»;

5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari»;

5110-«Hisob-kitob schoti».

8300-«Ustav kapitali»;

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»;

6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»

6520-«Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar»;

6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

2) Dekabr oyida sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalalarining iqtisodiy mohiyatini ko‘rsatamiz:

1. Ombordagi ishlab chiqarish zaxiralari ko‘payadi va bir vaqtning o‘zida majburiyatlar (kreditor qarz) ko‘payadi.

2. Korxonaning joriy xarajatlari va ish haqi bo‘yicha majburiyatlari ko‘paygan.

3. Davlatning maqsadli fondlari oldidagi majburiyatlar ko‘paygan.

4. Hisob-kitob schotida pul mablag‘lari kamaygan va kassada ko‘paygan.

5. Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lari kamaygan va mol yetkazib beruvchilarga qarzlar kamaygan.

Yuqorida keltirilgan xo‘jalik muomalalarini ularning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda schotlarda aks ettiramiz. Har bir schot bo‘yicha oborotlarni jamlab, oy oxiriga qoldiq chiqaramiz.

0130-«Mashina v uskunalar» schoti

D-t	*K-t*
01.12.2011 ga qoldiq -310000	
Oborot–	Oborot–
01.01.2012 ga qoldiq 31000	

1010-«Xom-ashyo va Materialar» schoti

D-t	*K-t*
01.12.2011 ga qoldiq– 90000	
1) 80000	
Oborot 80000	Oborot–
01.01.2012 ga qoldiq 170000	

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti

D-t	*K-t*
01.12.2011 ga qoldiq -100000	
Oborot –	Oborot –
01.01.2006 ga qoldiq -100000	

5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schoti

D-t	*K-t*
01.12.2011 ga qoldiq 6000 4) 5000	
Oborot5000	Oborot –
01.01.2012 ga qoldiq–11000	

5110-«Hisob-kitob schoti»

D-t	*K-t*
01.12.2011ga qoldiq 175000	4) 5000 5) 80000
Oborot –	Oborot – 85000
01.01.2012 ga qoldiq –90000	

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti

D-t	*K-t*
01.12.2011 ga qoldiq –	
2) 47000 3) 15510	
Oborot 62510	Oborot–
01.01.2012 ga qoldiq 62510	

8300-«Ustav kapitali» schoti

D-t	*K-t*
	01.12.2011 ga qoldiq 46000
Oborot –	Oborot –
	01.01.2012 ga qoldiq 46000

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»

D-t	*K-t*
5) 80000	01.12.2011 ga qoldiq 75000
	80000 (1
Oborot 80000	Oborot 80000
	01.01.2012 ga qoldiq 75000

6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schoti

D-t	*K-t*
	01.12.2011 ga qoldiq 94000
	2) 47000
Oborot –	Oborot 47000
	01.01.2012 ga qoldiq 141000

6520-«Davlatning maqsadli fondlariga to‘lovlar» schoti

D-t	*K-t*
	01.12.2011 ga qoldiq 40000
	3) 15510
Oborot –	Oborot1 5510
	01.01.2012 ga qoldiq 55510

6410- «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» schoti

D-t	*K-t*
	01.12.2011 ga qoldiq 12000
Oborot –	Oborot –
	01.01.2012 ga qoldiq 12000

Hisoblab chiqarilgan yakuniy qoldiqlarga asosan «Sharq» fermer xo‘jaligining 2012 yil 1 yanvar holatiga balansini tuzamiz.

«Sharq» fermer xo‘jaligining 2012 yil 1 yanvar holatiga balansi

Aktiv	Satr kodi	Hisobot davri oxiriga	Passiv	Satr kodi	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4	5	6
Asosiy vositalar (mashina va uskunalar)	012	310	Ustav kapitali	410	460
Tovar-moddiy zaxiralar	140	333	Kreditor qarzdorlik	601	284
Shu jumladan:			Shu jumladan:		
Xom-ashyo, Materiallar va boshqa shunga o‘xshash qiymatliklar	150	170	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzdorlik	610	75
Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari	160	63	Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik	680	12
Tayyor mahsulot	170	100	Davlatning maq-sadli fondlariga to‘lovlari bo‘yicha qarzdorilk	700	56
Kassadagi pul mab-lag‘lari	330	11			
Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lari	340	90	Mehnat haqi bo‘yicha qarzdorlik	720	141
Balans	400	744	Balans	780	744

Rahbar_____Bosh buxgalter

Balans, schotlar va ikki yoqlama yozuv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik 2.5-rasmda ko‘rsatilgan.



2.5-rasm. Balans, schotlar va ikki yoqlama yozuv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

2.7. Sintetik va analitik schotlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi

Buxgalteriya hisobida schotlar yordamida korxonalar mablag‘-larining holati, shu mablag‘lar manbalari, shuningdek, mablag‘larning xo‘jalik jarayonlaridagi harakatlari tezkor ravishda umumlashtirilib hisobga olib boriladi. Masalan, «Xom-ashyo va Materiallar» schotida xo‘jalikdagi jami xom-ashyo va Materiallarning harakati, «Asosiy ishlab chiqarish» schotida hamma turdagi xarajatlar va mahsulotlarning harakati, shuningdek, «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga

to‘lanadigan schotlar» schotida barcha mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan olib boriladigan hisoblashuvlar va hokazolar umumlashtirilib aks ettiriladi. Lekin korxonalar mablag‘larni but holida saqlashni ta’minlash va samarali foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish uchun, ularning har bir turi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar ham bo‘lishi zarur. Chunki «Asosiy ishlab chiqarish» schotida umuman qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan birga ma’lum vaqtga xarajatlarning har bir turi (masalan, ish haqi, urug‘lik, amortizatsiya va hokazolar), shu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha (paxta, don, sut, tuxum va hokazolar) xarajatlar summasi va turlari bo‘yicha tafsiloti bilan aniqlangan ko‘rsatkichlar ham bo‘lishi zarur. «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schotida korxonaning ma’lum bir davrga mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan qarz summasi ko‘rinib turishi bilan birga har bir mol yetkazib beruvchi va pudratchi bilan hisoblashuvlar to‘g‘risida ma’lumotlar ham bo‘lishi kyerak.

Shunday qilib, deyarli hamma schotlarda ham umumiy ko‘rsatkichlar bilan birga tafsiloti aniqlangan ko‘rsatkichlar ham bo‘lishi zarur ekan. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobida hisob obyektlarini umumlashtirib hisobga oladigan (sintetik) schotlar bilan birga ularni turlari bo‘yicha alohida hisobga oladigan (analitik) schotlardan foydalanishga zarurat tug‘iladi.

Sintetik schyotlar deb xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi umumlashgan ma’lumotlarni faqat pul o‘lchovida hisobga oladigan schyotlarga aytiladi.

Analitik[4] schotlar deb xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalari va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risida to‘la tavsif beradigan va ularni pul, natura va mehnat o‘lchovida hisobga oladigan schotlarga aytiladi.

Shunga ko‘ra buxgalteriya hisobida ikki xil, ya’ni sintetik va analitik schotlar qo‘llaniladi.

Analitik schotlar va ularga tegishli sintetik schotlar orasida doimo o‘zaro uzviy bog‘liqlik mavjuddir. Chunki sintetik schotlarga yozilgan barcha qoldiq va xo‘jalik muomalalari shu sintetik schotlarga tegishli analitik schotlarga ham yoziladi.

[4] Analitic (grekcha «analytikos» - bo‘laklach, qismlarga ajratich)

«Xom-ashyo va Materiallar», «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar», «Boshqa debitorlar» va «Boshqa majburiyatlar» schotlarining analitik schotlari bo‘yicha 2012 yil 1 iyulga quyidagi qoldiqlar bo‘lgan:

a) «Xom-ashyo va Materiallar» schotida: - 2 820 000 so‘m, shundan:

Ammiak selitrasi – 34 tonna 1 020 000 so‘m.

Superfosfat – 50 tonna 1 800 000 so‘m.

b) «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schotida -6 600 000 so‘m, shundan:

Amudaryo «Agrokimyota’minot» OAJ – 4 800 000 so‘m

«Qipchoq MTP» OAJ – 1 800 000 so‘m.

B) «Boshqa debitorlar qarzlari» - 3 400 000 so‘m, shu jumladan:

Amudaryo «Matlubotsavdo» OAJ – 1 400 000 so‘m,

«Qipchoq don» OAJ – 2 000 000 so‘m.

g) «Boshqa majburiyatlar» schoti – 140 000 so‘m, shundan:

- Yusupova D.U. – 60 000 so‘m;
- Muratbaeva E.Q. – 80 000 so‘m.

Bu schotlar bo‘yicha iyul oyida quyidagi xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan:

№	Muomala mazmuni	Summasi, so‘m
1	Paxtachilikka quyidagi minyeral o‘g‘itlar sarflandi:	
	a) Ammiak selitrasi 18 tonna	540 000
	b) Superfosfat 22 tonna	792 000
	Jami:	1 332 000
2	Iyul oyi uchun hisoblangan mehnat haqidan ijro-hujjatlariga muvofiq quyidagi shaxslar foydasiga yozildi	
	a) Yusupova D.O‘.ga	50 000
	b) Muratboeva E.K.ga	60 000
	Jami:	110 000
3	Amudaryo «Agrokimyota’minot» korxonasidan quyidagi minyeral o‘g‘itlar olindi:	
	a) Ammiak selitrasi 30 t.	900 000
	b) Superfosfat 18 t.	648 000
	Jami:	1 548 000

4	Hisob-kitob schotidan qarzlar to‘landi:	
	Amudaryo «Agrokimyota’minot» korxonasiga	2 000 000
	«Qipchoq MTP» OAJga	1 000 000
	Jami:	3 000 000
5	Ijro hujjat bo‘yicha:	
	a) Yusupova D.O‘.ga	60 000
	b) Muratbaev E.Q.ga	80 000
	Jami:	140 000
6	Sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun hisob-kitob schotiga pul kelib tushdi:	
	a) Amudaryo «Matlubotsavdo» OAJdan	1 0000 000
	b) «Qipchoq don» OAJdan	1 200 000
	Jami:	2 200 000

Yuqorida keltirilgan qoldiqlarni va xo‘jalik muomalalarini analitik schotlarga yozamiz.

«Xom-ashyo va materiallar» sintetik schoti uchun ochilgan analitik schotlar

«Ammiak selitrasi» analitik schoti

D-t K-t

Muo-mala №	Miq-dori, t	Bahosi, so‘m	Summasi, so‘m	Muo-mala №	Miq-dori, t	Baho-si, so‘m	Sum-masi, so‘m
01.07 ga qoldiq	34	30000	1020000				
3)	30	30000	900000	1)	18	30000	540000
Obo-rot	30	30000	900000	Oborot	18	30000	540000
01.8 ga qoldiq	46	30000	1380000				

«Superfosfat» analitik schoti

D-t K-t

Muo-mala №	Miqdo-ri, t	Bahosi so‘m	Summa-si so‘m	Muo-mala №	Miqdo-ri, t	Bahosi so‘m	Sum-masi so‘m
01.07 ga qoldiq	50	36000	1800000	—	—	—	—
3)	18	36000	648 000	1)	22	36000	792000
Oborot	18	36000	648 000	Oborot	22	36000	792000
01.8 ga qoldiq	46	36000	1656000	—	—	—	—

«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» bo‘yicha analitik schotlari

Amudaryo «Agrokimyota’minot» OAJ

D-t	K-t
4) 2 000 000	01.07 ga qoldiq 4 800 000
	3)1 548 000
Oborot 2 000 000	Oborot 1 548 000
	01.08.ga qoldiq 4 348 000

«Qipchoq MTP» OAJ

D-t	K-t
4) 1 000 000	01.07.ga qoldiq 1 800 000
Oborot 1 000 000	Oborot -
	01.08.ga qoldiq 800 000

«Boshqa debitorlar qarzlari» schoti bo‘yicha analitik schotlar

Amudaryo «Matlubotsavdo» OAJ

D-t	K-t
01.07.ga qoldiq 1 400 000	5) 1 000 000
Oborot -	Oborot 1 000 000
01.08.ga qoldiq 400 000	

Qipchoq don» OAJ

D-t	K-t
01.07 ga qoldiq 2 000 000	
	5)1 200 000
Oborot -	Oborot 1 200 000
01.08.ga qoldiq 800 000	

«Boshqa majburiyatlar» schoti bo‘yicha
analitik schotlar

«Yusupova D.O‘.»

D-t	K-t
5)60 000	01.07.ga qoldiq 60 000
	2) 50000
Oborot60 000	Oborot50 000
	01.08.ga qoldiq 50 000

«Muratbaeva E.K.»

D-t	K-t
5) 80 000	01.07.ga qoldiq80 000
	2) 60 000
Oborot80 000	Oborot 60 000
	01.08.ga qoldiq 60 000

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, sintetik va analitik schotlar o‘zaro uzviy bog‘liq. Har bir sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalasi bir vaqtning o‘zida umumiy summasi bilan sintetik schotda va qisman summalari bilan shu sintetik schotga ochilgan analitik schotlarda aks etirilgan. Shuning uchun mazkur sintetik schotga ochilgan analitik schotlarning qoldiq va oborotlari shu sintetik schotlarning qoldiq va oborotlariga teng bo‘lishi kyerak.

2.8. Joriy buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish

2.8.1. Sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi

Korxonaning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida umumlashgan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish hisob yozuvlarining to‘g‘riligini tekshirib turish uchun joriy hisob ma’lumotlari vaqti-vaqti bilan jamlanib turiladi. Amalda bunday joriy hisob ma’lumotlarini jamlash va tekshirish har oyda oborot qaydnomalarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Oborot qaydnomalari sintetik schotlar bo‘yicha ham, analitik schotlar bo‘yicha ham tuziladi.

Sintetik schotlarning qoldiq va oborotlari asosida iyul oyi uchun oborot qaydnomasi quyidagicha tuziladi. Bu oborot qaydnomasi sintetik schotlardan boshlang‘ich qoldiqlar, jamlangan oylik oborotlar va oxirgi qoldiqlarni bevosita ko‘chirib o‘tkazish yo‘llari bilan tuziladi (2.7-jadval).

Sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasida uchta juft tenglik mavjudligini ko‘rish mumkin:

birini juftlik – barcha schotlarning boshlang‘ich debet qoldiqlari va boshlang‘ich kredit qoldiqlar yig‘indisining o‘zaro tengligi.

ikkinchi juftlik – debet oborotlari va kredit oborotlari yig‘indisining o‘zaro tengligi bo‘lib, xo‘jalik muomalalarini schotlarga ikki yoqlama aks ettirish usulining qo‘llanilishi bilan tushuntiriladi. Bunda har bir xo‘jalik muomalasi bir xil summa bilan tegishli schotlarning debet va kreditga yoziladi.

uchinchi juftlik – barcha schotlarning oxirgi debet qoldiqlari va kredit qoldiqlari yig‘indisining o‘zaro tengligidir. Bu qoldiqlar oy oxirida yangi balansda aks ettirilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar va manbalarning tarkibini tavsiflaydi.

2.7-jadval

Sintetik schotlarning
OBOROT QAYDNOMASI, 2012 yil, iyul

№	Sintetik schotlar nomi	1 iyulga qoldiq		Iyul oyidagi oborot		1 avgustga qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Asosiy vositalar	1 480 000	-	-	-	1480 000	-
2	Xom-ashyo va Materiallar	2 820 000	-	1 548 000	1 332 000	3 036 000	-
3	Asosiy ishlab chiqarish	164 400	240 000	1 332 000	-	1 496 400	240 000
4	Kassa	3 900	-	400 000	400 000	3 900	-
5	Hisob-kitob schoti	3 186 700	-	2 200 000	3 000 000	2 386 700	-
6	Boshqa debitorlar qarzi	3 400 000	-	-	2 200 000	1 200 000	-
7	Boshqa majburiyatlar		1 140 000	140 000	110 000		110 000

8	Ustav kapitali	-	3 000 000	-	-	-	3 000 000
9	Taqsimlanmagan foyda	-	395 000	-	-	-	395 000
10	Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashuvlar	-	680 000	461 000	491 000	-	710 000
11	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar	-	6 600 000	3 000 000	1 548 000	-	5 148 000
	J a m i	11 055 000	11 055 000	9 081 000	9 081 000	9 603 000	9 603 000

Yuqorida ko‘rsatilgan tengliklardan birortasining buzilishi xo‘jalik muomalalarini schotlarga yozishda yoki summalarni jamlashda xatoga yo‘l quyilganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, sintetik schotlarning oborot qaydnomasi schotlardagi yozuvlarning to‘g‘riligini nazorat qilish, shuningdek, yangi balans tuzishda ham ishlatilar ekan.

Agar korxonada «Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish daftari» yuritilsa, u holda sintetik schotlar bo‘yicha to‘g‘ri tuzilgan oborot qaydnomasi boshqa jami nazorat summasini tekshirishga ham imkon beradi. Ya’ni sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasidagi debet va kredit oborotlarining yig‘indisi ko‘rsatilgan daftardagi oborotlar yig‘indisiga teng bo‘lishi lozim.

Sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi, avvalo, nazorat ahamiyatiga ega. Uning tuzilishi joriy buxgalteriya hisobidagi xatolarni aniqlashga imkon beradi. Agar oborot qaydnomasidagi juftliklardan birortasida debet va kredit oborotlari o‘zaro teng chiqmasa, buning sababi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Qaysidir bitta schotning debeti bo‘yicha summa to‘g‘ri yozilgan, ammo uning bilan korrespondensiyalangan schotning krediti bo‘yicha summa tushirib qoldirilgan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

2. Buxgalteriya provodkasining summasi bitta schotning debetiga ikki marta yozilib, ammo boshqa schotning kreditida ko‘rsatilmagan, yoki aksincha, bitta schotning kreditida ikki marta yozilib, uning bilan korrespondensiyalanadigan schotning debetiga yozilmagan bo‘lishi mumkin.

3. Buxgalteriya provodkasining summasi bitta schotning debetiga ikki marta va boshqa schotning kreditiga ikki marta yozilgan.

4. Bitta schotning qoldig‘i va (yoki) debet oboroti boshqa schotning kredit qoldig‘i va (yoki) debet oboroti sifatida yozilgan bo‘lishi mumkin.

5. Ayrim schotlar bo‘yicha qoldiqlar va oborotlar tushirib qoldirilgan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik operatsiyalarining soni kam sodir bo‘ladigan va mulklari kam bo‘lgan, ishlab chiqarish sohasidagi korxonalar, masalan, dehqon xo‘jaliklarida joriy buxgalteriya hisobi yozuvlarining to‘liqligi va ishonchliligi «Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish daftari» yordamida nazorat qilinadi (2.8-jadval).

2.8-jadval

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish daftari

	Operatsiyalarni ro‘yxatga olish			Korxona mablag‘larining mavjudligi va harakati													
	Hujjat № va sanasi	Operatsiyalar mazmuni	Summa (so‘m)	Material-lar		Kassa		Hisob-kitob schoti		Mol yet-kazib be-ruvchilar va pudrat-chilarga to‘la-nadigan schotlar		Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz-dorlik		Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-ki-toblar		va b.	
				D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	Chek№ 061324, 10.10.2012 y.	Bankdan kassaga ish haqi tarqatish uchun naqd pul olindi	30000			30000			30000								
2	Buxgalteriya ma’lumotnomasi	2012 y. oktabr oyi uchun xodimlarning ish xaqidan daromad solig‘i ushlandi	3000										3000	3000			
3	№5 schot-faktura, 5.10.2012 y.	«Zenit» zavodidan material-lar sotib olindi	10000	10000							10000						
4	№15 to‘lov topshiriqnomasi, 31.10.2012 y.	Daromad solig‘i summasi hisob-kitob schotidan budjetga o‘tkazildi	3000						3000			3000					
J a m i			46000	10000		30000			33000		10000	3000	3000	3000			

2.8.2. Analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi

Analitik schotlarning oborot qaydnomalari ham shaklan sintetik schotlar oborot qaydnomasi kabi ko‘rinishiga ega. Talabalarga tushunarli bo‘lsin uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan misoldagi «Xom-ashyo va Materiallar» (2.9-jadval), «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» (2.10-jadval), «Boshqa debitor qarzlar» (2.11-jadval) va «Boshqa majburiyatlar» (2.12-jadval) sintetik schotlari bo‘yicha analitik schotlar uchun tuzilgan oborot qaydnomalarini keltiramiz.

Xom-ashyo va Materiallarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan analitik schotlarning oborot qaydnomasi hisob-kitob schotlarining oborot qaydnomalaridan, ularda Materiallarning har bir turi bo‘yicha nomenklatura raqami, o‘lchov birligi, Materiallarning miqdori va qiymati bo‘yicha harakati ko‘rsatilishi bilan farq qiladi.

Misol tariqasida «Xom-ashyo va Materiallar» schotining analitik schotlari bo‘yicha tuzilgan oborot qaydnomasini keltiramiz.

Analitik va sintetik schotlarning o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomalaridagi boshlang‘ich qoldiqlar, oborotlar va oxirgi qoldiqlar yig‘indisi sintetik schotlarning oborot qaydnomasidagi tegishli sintetik schotning boshlang‘ich qoldig‘i, oboroti va oxirgi qoldig‘iga mos ravishda teng bo‘lishi kerak. Bunga, yuqoridagi misolimizdagi «Xom-ashyo va Materiallar», «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» sintetik schotlari bo‘yicha tuzilgan oborot qaydnomalaridagi boshlang‘ich qoldiq, oborot va oxirgi qoldiqlarning analitik schotlar bo‘yicha yig‘indisini shu sintetik schotlar oborot qaydnomasidagi boshlang‘ich qoldiq, oborot, oxirgi qoldiqlari bilan mos ravishda taqqoslash natijasida ishonch hosil qilish mumkin. Analitik schotlar oborot qaydnomalarining nazorat ahamiyati mana shundan iboratdir.

2.9-jadval

«Xom-ashyo va Materiallar» sintetik schotining analitik schotlari bo‘yicha OBOROT QAYDNOMASI, 2012 yil iyul

№	No-menk-latura raqa-mi	Ma-te-rial-lar nomi	O‘l-chov bir-ligi	1 iyulga qoldiq		Iyul oyidagi oborot				1 avgustga qoldiq	
						Debet		Kredit			
				Miq-dori	Sum-masi	Miq-dori	Sum-masi	Miq-dori	Sum-masi	Miq-dori	Sum-masi
1	10101 01	Am-miak selit-rasi	ton-na	34	1 020 000	30	900 000	18	540 000	46	1 380 000
2	10101 02	Supy erfos-fat	Ton -na	50	1 800 000	18	648 000	22	792 000	46	1 656 000
	x	Jami	X	X	2 820 000	x	1548 000	x	13320 00	X	3 036 000

2.10-jadval

«Boshqa debitorlar qarzlari» sintetik schotining analitik schotlari bo‘yicha OBOROT QAYDNOMASI, 2012 yil iyul

№	Analitik schotlar nomi	1 iyulga qoldiq		Iyul oyidagi oborot		1 avgustga qoldiq	
		Debet	Kredit	De-bet	Kredit	Debet	Kredit
1	«Matlubotsavdo» OAJ	1 400 000	-	-	1000 000	400 000	-
2	«Qipchoq don» OAJ	2000 000	-	-	1200 000	800 000	-
	Jami	340 000	-	-	220 000	120 000	-

2.11-jadval

«Boshqa majburiyatlar» sintetik schotining analitik schotlari bo‘yicha
OBOROT QAYDNOMASI, 2012 yil iyul

№	Analitik schotlar nomi	1 iyulga qoldiq		Iyul oyidagi oborot		1 avgustga qoldiq	
		De-bet	Kredit	Debet	Kredit	De-bet	Kredit
1	Yusupova D.U.	-	60 000	60 000	50 000	-	50 000
2	Muratbaeva E.K.	-	80 000	80 000	60 000	-	60 000
3	Jami	-	140 000	140 000	110 000		110 000

2.12-jadval

«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» sintetik schotining analitik schotlari bo‘yicha
OBOROT QAYDNOMASI, 2012 yil iyul

№	Analitik schotlar nomi	1 iyulga qoldiq		Iyul oyidagi oborot		1 avgustga qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	De-bet	Kredit
1	Amudaryo«Ag-rokimyota’mi-not» OAJ	-	4 800 000	2 000 000	1 548 000	-	4 348 000
2	«Qipchoq MTP» OAJ	-	1 800 000	1 000 000	-	-	800 000
	Jami	-	6 600 000	3 000 000	1 548 000	-	5 148 000

2.8.3. Analitik schotlar bo‘yicha saldo qaydnomasi

So‘nggi vaqtlarda tovar-Material qiymatliklar schotlari bo‘yicha oborot qaydnomasi o‘rniga saldo (qoldiq) qaydnomasi tuzish keng qo‘llanilmoqda. Saldo qaydnomalari tovar-Material qiymatliklarning saldo metodida qo‘llaniladi. Saldo qaydnomasida har oyning birinchi sanasiga butun yil davomida faqat schotlarning qoldiqlari ko‘rsatiladi.

Yuqoridagi misollar asosida tuzilgan saldo qaydnomasini keltiramiz (2.13-jadval). Ko‘rinib turibdiki, saldo qaydnomasida tovar-Material qiymatliklarni hisobga oladigan schotlar bo‘yicha (sintetik va analitik schotlar asosida) tartib bilan, ya’ni ularning nomenklatura raqami, nomlari, o‘lchov birliklari ko‘rsatilgan holda yoziladi.

2.13-jadval

«Xom-ashyo va Materiallar» sintetik schoti bo‘yicha
SALDO QAYDNOMASI, 2012 yil uchun

№	Nomenklatura raqami	Materiallar nomi	O‘lchov birligi	Bahosi, so‘m	1 yanvarga qoldiq		va h.k.		1 iyulga qoldiq		1 avgustga qoldiq		va h.k.	
					Jami	So‘m	Jami	So‘m	Miqdori	Summasi	Miqdori	Summasi		
1	1010101	Ammiak selitrasi	tonna	30000	12	360 000			34	1 020 000	46	1 380 000		
2	1040102	Supyerfosfat	tonna	36000	26	936 000			52	1 800 000	48	1 656 000		
	X	Jami	x	X		1 296 000			x	2 820 000	x	3 036 000		

Demak, saldo qaydnomasi hisob ishlarini ancha qisqartirib, moddiy boyliklar ustidan nazoratni yaxshilashni ta’minlar ekan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya balansi nima va uning mohiyati qanday?
2. Buxgalteriya balansining tuzilishini ta’riflang.
3. Xo‘jalik muomalalarining ta’sirida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlar qanday va ularning mazmunini tavsiflang.
4. Buxgalteriya balansi ma’lumotlari bo‘yicha qanday ko‘rsatkichlarni hisoblash mumkin?

5. Buxgalteriya hisobi schotlarini ta’riflang.

6. Buxgalteriya hisobi schotlarining tuzilishi qanday?

7. Buxgalteriya balansiga nisbatan schotlar qanday turlarga bo‘linadi?

8. Aktiv schotlardagi yozuvlar passiv schotlardagidan farqi qanday?

9. Ikki yoqlama yozuv nima? Uning joriy buxgalteriya hisobida mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?

10. Buxgalteriya yozuvi (provodkasi)ni ta’riflang va uning qanday turlari mavjud?

11. Joriy buxgalteriya ma’lumotlari qanday umumlashtiriladi?

12. Schotlar korrespondensiyasini ta’riflang va misol keltiring.

13. Buxgaletriya provodkasini tuzish tartibini tushuntiring.

14. Oddiy va murakkab buxgalteriya provodkasi deganda nimani tushunasiz?

15. Buxgalteriya balansi, schotlar va ikki yoqlama yozuv usullari o‘rtasida qanday uzviy bog‘liqlik mavjud?

16. Sintetik schotlarni ta’riflang va misol keltiring.

17. Analitik schotlarni ta’riflang va misol keltiring.

18. Sintetik va analitik schotlar o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik mavjud?

19. Oborot qaydnomasini ta’riflang va u nima uchun tuziladi?

a) sintetik schotlar bo‘yicha

b) analitik schotlar bo‘yicha

20. Oborot qaydnomalari qanday tuziladi?

a) sintetik schotlar bo‘yicha

b) analitik schotlar bo‘yicha

21. Muayyan sintetik schot bo‘yicha oborot qaydnomasi va mazkur schotga ochilgan analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

22. Analitik schotlar bo‘yicha saldo qaydnomasining mazmuni, ahamiyati va tuzilishi qanday?

23. Korxonani boshqarishda sintetik va analitik schotlarning ahamiyati qanday?

NAZORAT TESTLARI

1. Buxgalteriya balansi aktivi tarkibi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar

B) O‘z mablag‘lari manbalari, majburiyatlar

S) Asosiy aktivlar, xususiy kapital

D) O‘z mablag‘ining manbalari, qisqa muddatli aktivlar

2. Buxgalteriya balansi passivi tarkibi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Asosiy aktivlar, xususiy kapital

B) O‘z mablag‘ining manbalari, qisqa muddatli aktivlar

S) Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar

D) O‘z mablag‘lari manbalari, majburiyatlar

3. Buxgalteriya balansidagi tip o‘zgarishlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Aktivda ko‘payish va passivda kamayish; aktiv va passiv bir xil summaga kamayadi; aktiv va passiv bir xil summaga ko‘payadi

B) Aktivda ko‘payish va aktivda kamayish; passivda ko‘payish va passivda kamayish; aktiv va passiv bir xil summaga ko‘payadi; aktiv va passiv bir xil summaga kamayadi

S) Passivda kamayish va aktivda ko‘payish; aktivda ko‘payish va aktivda kamayish; passivda ko‘payish va passivda kamayish

D) Aktiv va passiv bir xil summaga ko‘payadi; aktiv va passiv bir xil summaga kamayadi; aktivda ko‘payish va passivda kamayish; passivda ko‘payish va aktivda kamayish

4. Buxgalteriya hisobining schotlari ta’rifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotlarni shakllantirish; samarali boshqaruv maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarni umumlashtirish; moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish

B) Aktivda ko‘payish va aktivda kamayish; passivda ko‘payish va passivda kamayish; aktiv va passiv bir xil summaga ko‘payadi; aktiv va passiv bir xil summaga kamayadi

S) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari va xo‘jalik jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish uchun, ularni joriy tartibda hisobga olish, guruhlash va bir tizimga keltirish usuli

D) Ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, aniqlik, hisoblash, oldindan ko‘ra bilish, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi, hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiq kelishi va boshqalar

5. Aktiv schotlar deb nimaga aytiladi?

A) xo‘jalik mablag‘larining manbalarini hisobga oladigan schotlar

B) xo‘jalik mablag‘lari va jarayonlarini hisobga oladigan schotlar

S) Xususiy kapitalni hisobga oladigan schotlar

D) Majburiyatlarni hisobga oladigan schotlar

6. Passiv schotlar deb nimaga aytiladi?

A) xo‘jalik mablag‘larining manbalarini hisobga oladigan schotlar

B) xo‘jalik mablag‘lari va jarayonlarini hisobga oladigan schotlar

S) Uzoq muddatli aktivlarni hisobga oladigan schotlar

D) Joriy aktivlarni hisobga oladigan schotlar

7. Ikki yoqlama yozuv deb nimaga aytiladi?

A) Hisobot davri oxirida schotda qoladigan qoldiq

B) Aktiv schotning debet tomoniga joriy davrda yozilgan summalarning yig‘indisi

S) Passiv schotning kredit tomoniga joriy davrda yozilgan summalarning yig‘indisi

D) Xo‘jalik muomalasi ta’sirida summaning bir schotning debet, ikkinchi schotning kredit tomonida o‘zaro aloqadorlikda aks ettirilishi

8. Sintetik schotlar deb nimaga aytiladi?

A) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat pul o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

B) xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘larning manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat mehnat o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

S) xo‘jalik mablag‘lari, manbalar va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat natura o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

D) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hech qanday o‘lchovlarsiz hisobga oladigan schotlar

9. Analitik schotlar deb nimaga aytiladi?

A) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat pul o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

B) xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘larning manbalari to‘g‘risida to‘la tavsif beradigan va ularni pul, natura va mehnat o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

S) xo‘jalik mablag‘lari, manbalar va xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni faqat natura o‘lchovida hisobga oladigan schotlar

D) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hech qanday o‘lchovlarsiz hisobga oladigan schotlar

10. Oborot qaydnomasi nima?

A) Xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida umumlashgan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish joriy hisob ma’lumotlarini jamlash va tekshirish uchun har yilda bir marta tuziladigan qaydnoma

B) Aktivlar va passivlar haqidagi ma’lumotlarni yilni oxirida umumlashgan holda aks ettiradigan qaydnoma

S) Korxonaning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida umumlashgan ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish, hisob yozuvlarining to‘g‘riligini tekshirib turish uchun joriy hisob ma’lumotlarini jamlash va tekshirish uchun har oyda tuziladigan qaydnoma

D) Xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida umumlashgan hisob ma’lumotlarini jamlash va tekshirish uchun har chorakda bir marta tuziladigan qaydnoma

III BOB. HUJJATLASHTIRISH, INVENTARIZATSIYA, HISOB REGISTRLARI VA SHAKLLARI

3.1. Buxgalteriya hujjati, hujjatlashtirish va hujjatlarni turkumlash

Buxgalteriya hujjati - bu xo‘jalik muomalasi faktining haqiqatda mavjudligini yoki sodir bo‘lganligini yoki sodir bo‘lishi lozimligini isbotlovchi, mas'ul shaxslar imzosi bilan tasdiqlangan yozma guvohlikdir. Hujjatlar xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan vaqtda yoki sodir bo‘lishi bilan tuzilishi va ularning mazmunini to‘liq aks ettirishi kerak.

Hujjatlashtirish buxgalteriya hisobi uslubining muhim usullaridan biri bo‘lib, uning mazmuni xo‘jalik muomalalarini yozma ravishda dastlabki qayd qilish va ularning haqiqatda sodir bo‘lganligini isbotlashdan iboratdir**.**

Buxgalteriya hujjatlari xo‘jalik faoliyatini boshqarish, nazorat va tahlil qilishda ulkan *iqtisodiy* va h*uquqiy* ahamiyatga ega.

Korxona resurslaridan foydalanish haqidagi tezkor ma’lumotlarni olish, xo‘jasizlik hollarini aniqlash va buning aybdorlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarining iqtisodiy ahamiyati kattadir. To‘g‘ri tashkil etilgan hujjatlashtirish faqat xo‘jasizlik va suyiste’mol qilish hollarini aniqlabgina qolmay, balki uning oldini olishga ham yordam beradi. Buxgalteriya hujjatlari ulkan huquqiy ahamiyatga ham egadir. O‘z vaqtida va to‘g‘ri rasmiylashtirilgan buxgalteriya hujjatlari xo‘jalik muomalalarini amalga oshirish va ular qonuniyligining yagona isbotidir. Ular boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va shaxslar bilan da’volar va har xil kelishmovchiliklarni sud hal qilishda dalil sifatida hamda hisob yozuvlarini yozishda yagona qonuniy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, soliqlarni tekshirishda ham buxgalteriya hujjatlari xo‘jalik muomalasining sodir bo‘lganligi yoki uni amalga oshirish huquqi to‘g‘risida yozma guvohlik ahamiyatiga ega va xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning to‘g‘riligi hamda ishonchliligini tekshirishda muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun *hujjat yo‘qligi – xo‘jalik muomalasi yo‘q* degan qoida har bir buxgalter uchun asosiy qoidalardan biri bo‘lishi lozim. Har qanday hujjatning yo‘qligi yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilganligi xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z xodimlari, investorlari, aksiyadorlari, davlat nazorat

(ko‘pincha soliq) organlari va hokazolar bilan jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Bunda dastlabki hujjatlar quyidagi hollarda hisobga qabul qilinishi mumkin:

– to‘liq, to‘g‘ri va aniq rasmiylashtirilgan;

– xo‘jalik muomalasini amalga oshirish uchun vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan.

Shunday qilib, dastlabki hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va tekshirishni bilish – buxgalterlarning malakali ishlashini asosidir.

Buxgaltyerlarning dastlabki hujjatlar bilan ishlash quyidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

1) O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni (7,8-moddalar)

2) O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanish to‘g‘risida»gi qonuni

3) O‘zbekiston Respublikasining «Elektron imzo to‘g‘risida»gi qonuni

4) Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 23 dekabrdagi 131-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan).

Buxgalteriya hisobida hujjatga asosan tegishli yozuvlarni yozish uchun hujjatlarda sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot aks ettirilishi lozim. Hujjatlarda aks ettiriladigai bunday ma’lumotlarga ***rekvizitlar***[5] deyiladi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq dastlabki hujjatlarning *majburiy rekvizitlari* quyidagilardir:

- korxona(muassasa)ning nomi;
- hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;
- xo‘jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o‘lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida);
- mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi qonuning 6-moddasiga muvofiq ***elektron hujjatning majburiy rekvizitlari*** quyidagilardan iborat:

- ✓ elektron raqamli imzo;
- ✓ elektron hujjatni jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;

[5] Rekvizit (lot. Requisitium – talab qiinadigan, zarur)

- ✓ elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili;
- ✓ hujjat yaratilgan sana.

Xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘ladigan muomalalar mazmuni, tayinlanishi va shakliga ko‘ra turli xil hujjatlarni qo‘llashni talab qiladi.

Buxgalteriya hujjatlari ***tayinlanishi, axborotlarni shakllantirish tartibi, muomalalarni qamrab olish usuli, axborot ta’minoti tizimidagi maqomi, tuzilgan joyi, qatorlar (pozitsiyalar) soni, bir turdagi muomalalarni rasmiylashtirish va to‘ldirish usuliga*** ko‘ra turkumlanadi.

Tayinlanishi bo‘yicha hujjatlar to‘rtta guruhga bo‘linadi:

1. Farmoyish hujjatlari.
2. Isbotlovchi hujjatlar.
3. Buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan hujjatlar.
4. Uyg‘unlashtirilgan hujjatlar.

Buxgalteriya hisobining hujjatlari shakllantirish tartibiga ko‘ra ***dastlabki*** va ***yigma*** hujjatlarga bo‘linadi.

Dastlabki hujjatlar deb bevosita xo‘jalik muomalasi sodir bo‘lgan vaqtda yoki sodir bo‘lganidan so‘ng darrov tuziladigan hujjatlarga aytiladi. Bunday hujjatlarga kassa kirim orderi, (KO-1-shakl), kassa chiqim orderi (ko-2-shakl)qishloq xo‘jalik mahsulotlarining kelish kundaligi, talabnoma-nakladnoy, chorva mollarini tortish (o‘lchash) qaydnomasi va boshqa hujjatlar misol bo‘ladi.

Yig‘ma hujjatlar deb to‘ldirilgan bir qancha dastlabki hujjatlar asosida tuziladigan hujjatlarga aytiladi. Kassirning hisoboti, bo‘nak (avans) hisobotlari, ferma dagi hayvon va parrandalarining harakati to‘g‘risidagi hisobot va boshqa hujjatlar yig‘ma hujjatlarga misol bo‘la oladi.

Buxgalteriya hujjatlari xo‘jalik *muomalalarini qamrab olish*, ya’ni bir yoki bir qancha xo‘jalik muomalalarini o‘zida aks ettirish xususiyatiga qarab *bir martalik* va *jamlama* hujjatlarga bo‘linadi.

Bir martalik hujjatlar deb bir yoki bir necha xo‘jalik muomalasi bir vaqtda rasmiylashtiriladigan hujjatlarga aytiladi. Bunday hujjatlarga kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi, to‘lov qaydnomalari va boshqa shunga o‘xshash hujjatlar kiradi.

«Qangli» fermer xo'jaligi«
korxona, muassasa

KASSA KIRIM ORDERI 112

Hujjat №	Tuzilgan sana		Schotlar bilan bo'lgan aloqasi	Analitik hisob kodi	Summasi	Maqsadli topshiriq kodi		
112	01.03.2012		710	084	3500-00	11		

qabul qilindi _Xudoyorov Rustamdan_
Asos: ishlatilmagan hisobdor summa
uch ming besh yuz so'm tiyin
Ilova: _____

Bosh buxgalter *Muratboeva E*
Kassir qabul qildi *Yakubova G*

kesishchizig'i

Qangli» fermer xo'jaligi
(korxona, muassasa)

KVITANSIYA
№112 kassa kirim orderiga

Qabul qilindi _*Xudoyorov Rustamdan*_
Asos: *Ishlatilmagan hisobdor summa*
uch ming besh yuzso'm
yozma ravishda
00 tiyin

«01» mart 2012 y
M.J
Bosh buxgalter *Muratboeva E*
Kassir *Yakubova G*

«Qangli» fermer ho'jalig KO-2
shakl
korhona, tashkilot

84

KASSA CHIQIM ORDERI №

Sana	oy
01	03

2006 y.

Bering _*Allayarov Karim Urazimbetovichga*_
Asos _*xo'jalik xarajatlari uchun*_
Yigirma sakkiz ming so'm ___tiyin
yozuv bilan

ilova _____

Bosh buhgalter *Muratboyeva E.*
Oldim _Yigirma sakkiz ming_ so'm __00__tiyin
Yozuv bilan
« 01 » mart 2012 y.Imzo: *Allayarov K*

Jamlama hujjatlar deb bir xil xo'jalik muomalalari ularning sodir bo'lgan vaqtiga qarab rasmiylashtirilib boriladigan hujjatlarga aytiladi. Bunday hujjatlarga kassir hisoboti, tovar-moddiy boyliklarni olish uchun limit-zabor kartalari, sut sog'ishni hisobga olish jurnali va boshqa hu-

jjatlar misol bo‘ladi. Misol tariqasida kassir hisobotini keltirishimiz mumkin:

Kassa daftari

1 mart *2012 y. 42-bet*

Huj-jat ra-qami	Kimdan olindi yoki kimga berildi	korrespon-den-siyalanuv-chi schot	Kirim	Chi-qim
	Kun boshiga qoldiq	X	1785-00	X
112	Xudoyorov Rustamdan – ishlatilmagan hisobdor summa	4420	3500	_
113	Ish haqi uchun bankdan olindi	5110	156500	-
114	Sotilgan Materiallar uchun	9010	15000	-
82	14-hisoblashuv-to‘lov qaydnomasi bo‘yicha ish haqi tarqatildi	6710		150000
115	Maxsus schotdan olindi	5530	58000	-
116	Xudoyorov Rustamdan – ishlatilmagan hisobdor summa	4420	3500	-
83	Bankka – daromad va deponent ish haqi	5110	-	8000
84	Allayarov Karimga – xo‘jalik xarajatlari uchun	4430	-	28000

Axborot ta’minoti tizimidagi maqomi bo‘yicha hujjatlar oddiy hujjatlar va qat’iy hisobot blankalariga bo‘linadi.

Oddiy hujjatlar – eng ko‘p qo‘llaniladigan dastlabki hisob hujjatlaridir. Ularga umum qabul qilingan hujjatlar aylanishi tadbiq qilinadi, tuzish va saqlashga oddiy talablar quyiladi.

Qat’iy hisobot blankalari maxsus shakldagi hujjatlar bo‘lib, ularning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.

Tuzilgan joyiga ko‘ra hujjatlar ichki va tashqi hujjatlarga bo‘linadi.

Hisob yozuvlari qatorlarining soniga ko‘ra hujjatlar bir qatorli (Materiallarni olish uchun talabnoma, kassa chiqim orderi) yoki ko‘p

qatorli (limit-zabor kartasi, hisoblashuv-to‘lov qaydnomasi, to‘lov qaydnomasi va h. k.) bo‘lishlari mumkin.

Bir turdagi muomalalarni rasmiylashtirish bo‘yicha hujjatlar unifikatsiyalangan va boshqa hujjatlarga bo‘linadi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish unifikatsiyalangan dastlabki hujjatlarni va ularning elektron versiyalarini ishlab chiqish hamda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

To‘ldirish usuliga ko‘ra buxgalteriya hujjatlarini qo‘lda tuziladigan, yozuv mashinkasida va kompyuterda tuziladigan (elektron) hujjatlarga bo‘lish mumkin.

Qo‘lda tuziladigan hujjatlarga asosan ichki hujjatlar kiradi. Ularga birinchi navbatda qo‘lda tuziladigan har xil jadvallar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash jadvallari hamda yig‘ma qaydnomalar va boshqalar kiradi.

Yozuv mashinkasida tuziladigan hujjatlar ko‘pincha maketlangan kartalar ko‘rinishida bo‘ladi**.** Bunda gap hujjatlarni ko‘rsatilgan usullar bilan to‘ldirishda emas, balki xo‘jalik muomalalarini yozuv mashinkalarida, ko‘proq texnik vositalarida to‘ldirish to‘g‘risida bo‘ladi. Shu maqsadda har xil priborlar va moslamalar qo‘llaniladi: schotchiklar, avtomatik tarozilar, o‘lchagich idishlar, elektr va boshqa yozuv mashinalari va x.k.

Hujjatlarga ishlov berishning eng takomillashgan usuli shaxsiy elektron hisoblash mashinalarini (ShEHM) qo‘llash bilan bog‘liq.

Elektron hujjat deb elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborotga aytiladi.

Elektron hujjat qog‘oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Elektron hujjatning bir xil har qaysi aynan nusxasi, basharti u belgilangan tartibda haqiqiy deb tasdiqlangan bo‘lsa, asl nusxadir.

Elektron hujjatning qog‘oz nusxasi bo‘lishi mumkin.

Elektron hujjatning qog‘oz nusxasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va saqlanadi.

Ta’kidlash joizki, buxgalteriya hujjatlari yuqorida ko‘rib chiqilgan tasnifiy belgilar bo‘yicha guruhlanganida bitta hujjat ayni paytda bir necha guruhlarga tegishli bo‘lishi ham mumkin. Masalan, kassa chiqim orderi kassir uchun isbotlovchi hujjat bo‘lsa, ayni paytda korxona rahbariyati uchun kassadan pul mablag‘larini berishga asos bo‘luvchi ***farmoy-***

ish hujjati, shuningdek, ***dastlabki, bir martalik*** va ***bir qatorli*** hujjat bo‘lib hisoblanadi; guruhlovchi qaydnoma ***buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan yig‘ma, bir martalik hujjat***; limit zabor kartasi ***isbotlovchi, farmoyish, dastlabki*** va ***yig‘ma hujjat*** bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 8-moddasiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari yoki u vakolat bergan shaxslar tomonidan pul, tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchuy asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, korxona muassasa va tashkilotning kredit va hisob-kitob majburiyatlari hamda buxgalteriya hisobotlari va balanslari imzolanadi. Shuningdek, xo‘jalik muomalalarini amalga oshirish va subyekt nomidan hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning lavozimi va buxgalterlik funksiyalari hamda rahbarlik funksiyalarini amalga oshiradigan har bir mansabdor shaxs uchun pul summalari bo‘yicha cheklanishlarga ko‘ra imzo huquqlarining iyerarxiyasi (ketma-ketligi) o‘rnatiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan elektron raqamli imzodan foydalanilganida zarur ehtiyotkorlik choralari va tegishli nazorat o‘rnatilishi zarur.

Elektron raqamli imzo deb elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzoga aytiladi.

3.2. Hisob registrlari, ularning ahamiyati va turlari

Xo‘jalik muomalalari aks ettirilgan dastlabki hujjatlar tekshirilib, taksirovka qilinib va ayrimlari o‘z xususiyatlariga ko‘ra yig‘ma hujjatlarda to‘planib, keyinchalik hisob registrlariga yoziladi.

Hisob registrlari deb boshlang‘ich va yig‘ma hujjatlarda aks ettirilgan xo‘jalik muomalalarini joriy tartibda yozib borish uchun moslashtirilgan, ya’ni korxona aktivlari, passivlari va xo‘jalik jarayonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning iqtisodiy guruhlanishiga mos tuzilgan maxsus shakldagi jadvallarga aytiladi.

Hisob registrlari buxgalteriya hisobini yuritishning muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ularda xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘larning man-

balarining harakati to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar sintetik va analitik hisob schotlari bo‘yicha guruhlanadi va sistemalashtiriladi.

Hisob registrlari ma’lumotlari asosida korxonaning ichida va yuqori tashkilotlarining korxona faoliyatini nazorat va rahbarlik qilish uchun hisobotlar tuziladi.

Hisob registrlaridan olingan ma’lumotlar korxona va uning bo‘linmalariga rahbarlik va nazorat qilish hamda iqtisodiy tahlil qilishda foydalaniladi.

Xo‘jalik muomalalarini hisob registrlariga yozish hisobda qayd qilish deyiladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Xo‘jalik muomalalarini hisobda qayd qilish jarayoni

Hisob registrlarining mazmuni va ularni grafalash xo‘jalik muomalalarining xususiyati hamda ularni hisobga olish tartibiga bog‘liq.

Buxgalteriya hisobi registrlari tashqi ko‘rinishlariga ko‘ra buxgalteriya daftarlari, kartochkalari, alohida varaqalarga va mashinogrammalarga bo‘linadi

Buxgalteriya daftarlari – bir-biriga biriktirilgan va muqovalangan qog‘oz varaqlaridir. Muqovasida muayyan korxonaning nomi, hisobot yili va buxgalterlik hisobi schotlarining nomi va shifri ko‘rsatiladi. Daftar varaqlari buxgalteriya yozuvlari yozilishiga qadar raqamlanadi, ayrim maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan daftarlar ip o‘tkazib, ipning uchlari daftarning oxirgi betiga surg‘uchli muhr bilan muhrlanadi va «Ushbu daftarda hamma betlar raqamlangan» degan yozuv yozilib, korxona rahbari va bosh buxgalterining imzolari quyiladi. Daftarning kerakli betini tez topish maqsadida uning birinchi betiga mundarija qilinadi.

So‘nggi yillarda daftar shaklidagi hisob registrlari kam qo‘llanilmoqda. Chunki, ular hisob xodimlari orasida vazifalarni taqsimlashda noqulay va xo‘jalik muomalalarini qayd qilishda hisoblash texnikasidan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Kartochkalar xo‘jalik muomalalarini ro‘yxatga olish uchun mo‘ljallangan bir xil shakldagi qog‘oz va kartondan tayyorlangan, maxsus rekvizitlari matbaa usulida bosilgan jadvallardir. Ular analitik hisob uchun ishlatiladi.

Kartochkalar ochilish vaqtida maxsus reestrda qayd qilinadi. Yil boshida reestrda avval qoldig‘i bor schotlar bo‘yicha ochilgan kartochkalar, so‘ngra yangi ochilgan kartochkalar xronologik tartibda qayd qilinadi. Amalda kartochkalar bir nusxada ochiladi va korxona buxgalteriyasida maxsus quti-kartotekalarda saqlanadi. Kartochkalarni saqlash va ulardan foydalanish qulay bo‘lishi uchun kartoteka bo‘lgichlar (karton plastinkalar) va indiqatorlar (metall plastinkalar) bilan jihozlanadi. Jamlash va hisoblash texnikasida bajarilganda ham kartochkalardan foydalanish yozuvlarni bajarishga imkon beradi. Bundan tashqari ular hisob xodimlari o‘rtasida ishni taqsimlashda yordam beradi.

Alohida varaqlar kartochkalarga o‘xshash bo‘lib, ulardan formatining kattaligi va yozuv qog‘ozida bosilishi bilan farq qiladi. Ular bir qancha afzalliklarga ega bo‘lganligi sababli hisob registrlari sifatida keng qo‘llaniladi. Alohida varaqlar bir-biriga biriktirilmaganligi uchun ish jarayonida qo‘llash ancha qulay va hisob xodimlari o‘rtasida ishni taqsimlashda qo‘l keladi, hamda hisobni avtomatlashtirish talablariga mos keladi. Alohida varaqlar shaklidagi hisob registrlariga jurnal-order va ularga qo‘shimcha qaydnomalar misol bo‘la oladi.

Axborotlar hajmiga ko‘ra hisob registrlari sintetik hisob registrlari, analitik hisob registrlari va birlashtiruvchi, ya’ni sintetik va analitik hisobni birlashtiruvchi registrlarga bo‘linadi.

Sintetik hisob registrlarida xo‘jalik muomalalari umumlashtirilib, pul ifodasida sintetik schotlar bo‘yicha aks ettiriladi. Sintetik hisob registrlari yoziladigan yozuvning turiga ko‘ra xronologik, sistematik va uyg‘unlashgan bo‘lishi mumkin.

Analitik hisob registrlari xo‘jalik muomalalarini analitik schotlar bo‘yicha yozish uchun mo‘ljallangandir. Bu registrlarda yozuvlar sintetik registrlarga nisbatan batafsilroq yoziladi. Bu esa sodir bo‘layotgan xo‘jalik muomalalarini batafsil kuzatish zaruriyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun analitik hisob registrlarida xo‘jalik muomalasining mohiyatini tavsiflaydigan tushuntirish matni yozish uchun joy ajratilgan.

Analitik hisob registrlarining sintetik hisob registrlari bilan parallel, lekin alohida qo‘llanilishi, analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomalari tuzish yo‘li bilan hisob yozuvlarini umumlashtirish va tekshirish bo‘yicha texnik ishlarning ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun

so‘ngi yillarda sintetik va analitik hisobni o‘zida *birlashtiruvchi hisob registrlari* keng qo‘llanilmoqda. Bunday registrlarning qo‘llanilishi hisob yozuvlarini qisqartiradi, alohida obyektlar hisobni analitik yo‘nalishda yuritish va bir vaqtning o‘zida sintetik hisobning umumlashgan ko‘rsatkichlarini olish imkonini beradi. Shunday qilib, analitik va sintetik hisob ko‘rsatkichlari bitta amalni bajarish natijasida olinadi va sintetik yozuvlar jamini tekshirishga zarurat qolmaydi. Bunday hisob registrlariga «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» schoti bo‘yicha 6-jurnal-order va «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» schoti bo‘yicha 7-jurnal-order misol bo‘ladi. Ularda nafaqat bir mol yetkazib beruvchi, hisobdor shaxs bilan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma’lumotlar dastlabki hujjatlarga asosan aks ettiriladi. Analitik va sintetik hisob yozuvlarini bitta hisob registrida bunday birlashtirilishi natijasida alohida analitik hisob kartochkalarini yuritishga ehtiyoj qolmaydi. Barcha analitik schotlar bo‘yicha yozuvlar jami bir vaqtning o‘zida sintetik schot bo‘yicha aks ettirilgan summa bilan ifodalanadi. Sintetik va analitik hisobni bitta registrda birlashtirish buxgalteriya hisobini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Hisob yozuvlarining turlariga ko‘ra buxgalteriya hisobi registrlari: ***xronologik, sistematik*** va ***uyg‘unlashgan*** yozuvlar hisob registrlariga bo‘linadi.

Xronologik registrlar deb xo‘jalik muomalalari xronologik tartibda (ularning sodir bo‘lishiga qarab) yozib boriladigan registrlarga aytiladi. Bunday registrlarga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini realizatsiya qilishga oid hujjatlar reestri misol bo‘ladi. Bu reestrda mahsulotlarni sotishga jo‘natish uchun to‘lg‘azilgan tovar-transport nakladnoylari va ularning qabul qilinganligi to‘g‘risidagi kvitansiyalari qayd qilib boriladi.

Sistematik reestrlar deb xo‘jalik muomalarining bir xil guruhlari buxgalteriya hisobi schotlari bo‘yicha yoziladigan registrlarga aytiladi. Bunga misol tariqasida jurnal-order shakli bo‘yicha hisob yuritadigan xo‘jaliklarda qo‘llanilgan №8- ASK, 10-ASK jurnal-orderlarni keltirish mumkin.

Uyg‘unlashgan registrlar deb yozuvlarni ham xronologik, ham sistematik ravishda guruhlashtirishni ta’minlaydigan registrlarga aytiladi. Bunday registrlar buxgalteriya hisobining takomillashuvi natijasida vujudga kelgan bo‘lib, ularda xo‘jalik muomalalari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra buxgalteriya hisobining schotlari bo‘yicha ajratilgan holda bir vaqtda aks ettiriladi. Uyg‘unlashgan registrga misol qilib bosh daftarni (№18 ASK shakl) keltirish mumkin.

Buxgalteriya hisobi registrlari to‘ldirilish usuliga ko‘ra qo‘lda to‘ldiriladigan (asosiy vositalar hisobi bo‘yicha inventar kartochkalar) va ShEHMda to‘ldiriladigan registrlarga bo‘linadi.

Kompyutyer yordamida registrlardan nafaqat ulardagi ma’lumotlarning mazmunini, balki registrlar shakllarining o‘zini ham olish mumkin.

Buxgalteriya hisobi registrlari tuzilish shakliga ko‘ra: bir tomonlama, ikki tomonlama, ko‘p grafalari, chiziqli va shaxmatli registrlarga bo‘linadi.

Bir tomonlama registrlar – bu moddiy qiymatliklarni, hisob-kitoblarni va boshqa muomalalarni hisobga olishga doir har xil kartochkalardir. Ularda debet va kredit yozuvlarning alohida grafalari birlashtirilgan.

Ikki tomonlama hisob registrlari deb xo‘jalik muomalalarini aks ettiradigan grafalar varaqning turli tomonlarida (debet qismi varaqning chap tomonida, kredit qismi esa varaqning o‘ng tomonida) joylashgan registrlarga aytiladi. Bularga tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish kartochkalari misol bo‘ladi.

*Ko‘p grafali registrlar*da bir tomonida (odatda debet tomonida) bir necha kolonkalar bo‘ladi (xarajatlarni moddalar bo‘yicha hisobga olish daftarlari yoki kartochkalari).

Shaxmatli registrlar – bu kataklarga bo‘lingan registrlardir. Bunday registrlarda yozuvlar kolonkalar va satrlarning kesishgan joyida amalga oshirilib, bir vaqtning o‘zida schotning debeti va krediti bo‘yicha aks ettiriladi (jurnal-orderlar, bosh daftar va boshqalar).

*Chiziqli hisob registrlari*da bir xil axborotlar bitta satr bilan yoziladi. Masalan, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar qaydnomasi tegishli sintetik schotni hisobdor shaxslarning nomlari bo‘yicha zarur miqdordagi analitik schotlarga bo‘lish imkonini beradi.

Hisobning avtomatlashtirilgan shaklida hisob registrlari sifatida natijaviy ma’lumotlarni alfavit tartibda belgilashga mo‘ljallangan mashinagrammalar qo‘llaniladi.

Analitik hisob mashinogrammalarida analitik schotlar bo‘yicha sistemalashtirilgan dastlabki hujjatlarning ma’lumotlari, zarur vaqtlarda esa xarajat moddalari bo‘yicha korrespondensiyalanuvchi schotlar ko‘rsatilgan holda aks ettiriladi. Bunday mashinagrammalar jurnal-order shaklida qo‘llaniladigan qaydnomalar o‘rnini bosadi. Ular hisob yuritish, nazorat va xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish hamda hisobotlar tuzish uchun kyerakli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Bux-

galterlik yozuvlarni hisob registrlariga sifatli yozish hisobning aniqligini oshirishning muhim shartidir. Yozuvlar hisob registrlariga qo‘lda (siyoh yoki sharikli ruchka pastasi bilan) yoki yozuv mashinkasi yordamida yoziladi.

Hisob registrlariga yoziladigan yozuvlar: hujjat bilan asoslangan, o‘z vaqtida, qisqa, aniq va tushunarli bo‘lishi lozim.

Bu talablarga rioya qilish korxona faoliyatini joriy nazorat va iqtisodiy tahlil qilish uchun zarur ma’lumotlarni hisob registrlaridan olishga imkon beradi.

Hisob registrlariga yozilgan yozuvlar to‘g‘risida shu registrlarga yozish uchun asos bo‘lgan dastlabki hujjatlarning jami ma’lumotlari bilan taqqoslanadi.

Masalan, kassaga bankdagi hisob-kitob schotidan olingan yoki kassadan hisob-kitob schotiga topshirilgan summalar to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish uchun 1-ASK jurnal-orderi qaydnoma qismining jami 2-ASK jurnal-order jami bilan, 2-ASK jurnal-order qaydnoma qismining jami 1-ASK jurnal-order jami bilan solishtirib ko‘riladi. Hujjatlarni tuzishda va ishlashda hamda hisob registrlariga yozishda har xil xatolarga yo‘l quyilishi mumkin (raqamlarni yozishda aniqlash, jamlashda va korrespodensiyalanuvchi schotlarni yozishda xato qilish).

3.3. Hisob yozuvlaridagi xatolarni tuzatish

Hisob jarayonida ayrim paytlarda xatolar uchraydi va ularni o‘z vaqtida tuzatish zarur. Xatolarni topish uchun yozuvlarni tanlab yoki yoppasiga tekshirish usullari qo‘llaniladi. Yozuvlardagi xatolar har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, hujjatlarda va hisob registrlarida matn yoki summa noto‘g‘ri yozilgan, natural yoki qiymat ko‘rsatkichlarini jamlashda xatoga yo‘l quyilishi, xo‘jalik muomalalarini aks ettirishda schotlar korrespondensiyasi noto‘g‘ri tuzilishi, yozuvlar tegishli bo‘lmagan boshqa registrlarga yozilgan bo‘lishi mumkin va h.k.

Aniqlangan barcha xatolar hisobot tuzilgunga qadar tuzatilishi lozim.

Hisob registrlaridagi xatolarni tuzatishda xatoning xususiyati va aniqlangan vaqtiga qarab quyidagi usullardan birortasi qo‘llaniladi: ***korrektura, qizil storno*** va ***qo‘shimcha yozuv.***

Korrektura usuli ma’lumotlar hisobot davri uchun jamlangunga qadar topilgan xatolarni tuzatishda qo‘llaniladi. Bu usulda noto‘g‘ri yozuv ustidan, uni o‘qish mumkin qilib, ingichka bitta chiziq tortiladi va

yuqorisiga to‘g‘ri yozuv yozib quyiladi. Bunday tuzatish to‘g‘risida tegishli registrning bo‘sh joyiga izoh berilib, xatoni tuzatgan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Jurnal-order shaklida hisob yuritishda hisob registrlaridagi xatolar korrektura usuli bilan ularda hisobot oyi uchun jami chiqarilgunga qadar tuzatiladi. Registrlar jamlangandan so‘ng, lekin yozuvlar bosh daftarga o‘tkazilmasdan oldin, registrlardagi xatoni tuzatish, buning uchun belgilangan bo‘sh qator yoki grafada, maxsus *buxgalteriya ma’lumotnomasi* (spravkasi) asosida amalga oshiriladi. Jamlangan ma’lumotlar daftarga o‘tkazilgandan so‘ng registrlarda xatoni tuzatishga yo‘l quyilmaydi. Bunday vaqtda ham xatoni tuzatish maxsus tuziladigan buxgalteriya ma’lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Bu ma’lumotnomadagi yozuv Bosh daftarga alohida o‘tkaziladi. Ma’lumotnoma esa xato topilgan jurnal-orderga ilova qilinadi (tikib quyiladi).

Qizil storno usuli schotlar aloqasida yo‘l quyilgan va schotlarga tarqatib yozilgandan so‘ng yoki hisobot tuzilgandan so‘ng topilgan xatolarni tuzatishda qo‘llaniladi. Bu usul noto‘g‘ri schotlar aloqasi bilan yozuv yana o‘shaning o‘ziday qilib qizil siyoh bilan yoziladi. Shundan so‘ng to‘g‘ri yozuv oddiy rang bilan yozib quyiladi. Summalar jamlanganda xato yozuv va qizil rang bilan yozilgan (storno) yozuv o‘zaro bir-birini yo‘qotadi va to‘g‘ri yozuv qoladi.

Yo‘l quyilgan xatoni qizil storno usuli bilan tuzatishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

Masalan, fermer xo‘jaligida hisobdor shaxsga xizmat safari uchun kassadan 50000 so‘m bo‘nak berildi va bu muomala schotlarga quyidagicha aks ettirilgan:

1) D-t 4890 – «Boshqa debitorlar qarzlari» schotining debeti – 50000 so‘m

K- t 5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schotining krediti – 50000 so‘m.

Bu yozuv noto‘g‘ri, chunki hisobdor shaxsga xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar 4890 – «Boshqa debitorlar qarzlari» degan schotda emas, balki 4220 – «Xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar» degan schotda hisobga olinishi kerak. Yo‘l quyilgan xatoni tuzatish uchun avval xuddi shu xato yozuv qizil siyoh bilan yoziladi yoki oddiy rangda yozilib to‘rtburchak ichiga olinadi;

2) D-t 4890 - «Boshqa debitorlar qarzlari-joriy qismi» schoti debeti – 50000 so‘m.

K-t 5010 – «Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schoti krediti – 50000 so‘m.

Natijada ushbu qizil yoki to‘rtburchak ichiga olingan yozuv oldingi xato yozuvni yo‘qqa chiqaradi. So‘ngra mazkur xo‘jalik muomalasining mazmuniga mos keladigan. To‘g‘ri yozuv oddiy rangda yoziladi.

3) D-t 4220 – «Xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar» schotining debeti 50000 so‘m.

K-t 5010 – «Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schotining krediti50000 so‘m

Yuqoridagi schotlar korrespondensiyasi buxgalterlik hisobi schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

4890 – «Boshqa debitorlar qarzlari-joriy qismi» schoti

D-t	K-t
S-do	
1) 50000 2) 50000	
Oborot: —	Oborot: —

5010 – «Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schoti

D-t	K-t
S-do:100000	1) 50000 2) 50000 3) 50000
Oborot: —	Oborot: 50000

4220-«Xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar» schoti

D-t	K-t
S-do	
3) 50000	
Oborot: 50000	Oborot: —
S-do:50000	

Qo‘shimcha yozuv usuli schotlar aloqasi to‘g‘ri tuzilgan, lekin xo‘jalik muomalasining summasi yozilishi kyerak bo‘lganidan kam qilib yozilgan paytda xatoni tuzatish uchun qo‘llaniladi.

Qo‘shimcha yozuvda schotlar korrespondensiyasi xato (kam) yozilgan yozuvdagidek qilib, xato yozilgan va yozilishi kyerak bo‘lgan to‘g‘ri summa o‘rtasidagi farqiga tuziladi.

Masalan, mol etkazib beruvchilardan 40000 so‘mlik Material olingan. Schotlar korrespondensiyasida esa 35000 so‘m deb ko‘rsa-tilgan.

D-t 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schoti debeti –35000 so‘m,

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga

to‘lanadigan schotlar» schotining krediti – 35000 so‘m.

Ushbu xatoni tuzatish uchun yuqoridagi schotlarga 5000 so‘m qo‘shimcha yozuv qilinadi (40000-35000).

D-t 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schoti debeti –5000 so‘m,

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga

to‘lanadigan schotlar» schotining krediti –5000 so‘m

Natijada ikkala yozuv summasi sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalasini to‘g‘ri aks ettiradi.

Ayrim hisob registrlarida xatolarni tuzatishda ham qizil storno usulidan, ham qo‘shimcha yozuv usulidan foydalanib, hisob ko‘rsatkichlari tartibga solinib ham turiladi.

Masalan, mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlashga oid hisob-kitobga muvofiq reja tannarx bilan haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq summasi qizil storno yoki qo‘shimcha yozuv yo‘li bilan hisob registrlarida rasmiylashtiriladi. Agar mahsulot (ish, xizmat) ning haqiqiy tannarxi reja tannarxidan oshiq bo‘lsa, u holda qo‘shimcha yozuv usulidan foydalanib, farq summa oddiy rang bilan yoziladi, agar teskarisi bo‘lsa, unda qizil storno usulidan foydalaniladi.Shunday qilib, mahsulot (ish, xizmat) larning reja tannarxi bo‘yicha baholanib schotlarda aks ettirilgan qiymati tartibga solish yozuvi yordamida haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi.

Tuzatilgan schotlar aloqasini yozishda xato yozuvning sanasi va raqamiga asoslanib, tuzatish sabablarini ko‘rsatgan holda izoh berish kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritishda xilma-xil texnik vositalar va turli hisob registrlaridan foydalaniladi. Xo‘jalik muomalalarini qayd qilishda tashqi shakli va grafalanishi turlicha daftarlar, kartochkalar va alohida varaqlar qo‘llaniladi, hisob registrlarining u yoki bu tartibda o‘zaro bog‘lanishi aniqlanadi va hisob registrlariga yozishning u yoki bu usuli, u yoki bu ketma-ketligi qo‘llaniladi. Muomalalarni qayd qilishda qo‘llaniladigan texnik vositalar va hisob registrlarining turli xil birlashmalari buxgalterlik hisobining har xil shakllarini ishlab chiqishga olib keladi.

3.4. Buxgalteriya hisobining asosiy shakllari

Buxgalteriya hisobining shakli deb hisob registrlaridan foydalanishning ketma-ketligi va bajarilish texnikasini yuzaga chiqaradigan ma’lum tizimga aytiladi.

Registrlarning shakli va tuzilishi, sintetik va analitik hisob registrlarining o‘zaro xronologik va sistematik bog‘liqligi, yozuv ketmaketligi va bajarilish texnikasi buxgalteriya hisobining shaklini aniqlaydigan asosiy belgidir.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishning rivojlanishi bilan buxgalterlik hisobining shakli tushunchasi o‘zgarmoqda va kengaymoqda.

Hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan buxgalteriya hisobining asosiy shakllariga ***memorial-order, jurnal-order*** va ***avtomatlashtirilgan*** shakllari kiradi. Shuningdek, kichik va o‘rta biznes korxonalarining shakllanishi va rivojlanishi natijasida ularning moliya-xo‘jalik faoliyatini aks ettiradigan *buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli* vujudga keldi.

Talabalarga tushunarli bo‘lishi uchun bu hisob shakllarini alohida misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli. Buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining mohiyati xo‘jalik muomalalarini aks ettiruvchi dastlabki hujjatlarga asoslanib, buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan hujjatlar – memorial-orderlar tuzilishidan iborat. Bu hujjatlar bosh buxgalter tomonidan qaysi sintetik va analitik schotlarga memorial-orderni tuzishga asos bo‘lgan hujjatda aks ettirilgan xo‘jalik muomalasi bo‘yicha yozuvlarni o‘tkazish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Memorial-order shaklining paydo bo‘lishi har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning imkoniyatlarini umumiy talablar bilan birlashtirishga yordam berdi. Alohida faktlarni ro‘yxatga olish uchun zarur qaydnomalar ochiladi.

Memorial-order bitta hujjatga asosan tuzilgani kabi, bir turdagi hujjatlar guruhiga asosan ham tuzilishi mumkin (3.1-jadval).

3.1-jadval

№01-MEMORIAL-ORDER
Kassa muomalalari. Yanvar 200__ y.

Asos (hujjatlarga yoki yozuvlar mazmuni)	Korrespodensiyalanuvchi schotlar		Summa
	Debet	Kredit	
2 yanvar uchun kassa hisoboti va h.k.	5110	5010	120000
Jami			120000

Buxgalter Ahmedov S.I.

Memorial-orderlar tuzilish me’yoriga qarab ro‘yxatga olish jurnalida qayd qilib boriladi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Memorial-orderlarni ro‘yxatga olish jurnali
Yanvar 200__ y.

Memorial-orderning tartib raqami	Orderning sanasi	Memorial-orderdagi summa
1	2 yanvar	120000
2	4 yanvar	80500
va h.k.		
Yanvar uchun jami		4005000

Shunday qilib, memorial-orderlar ro‘yxatga olish daftariga yozilganda ularga tartib raqami beriladi.

Amaliyotda memorial-orderlar bir turdagi bir oylik xo‘jalik muomalalari jami bo‘yicha tuziladi. Ushbu muomalalarni rasmiylashtiradigan memorial-orderlarga oldindan raqam berilgan bo‘ladi. Masalan, «Kassa» schotining debeti va u bilan korrespondensiyalanadigan schotlarning krediti bo‘yicha muomalalarni yozish uchun №1 memorial-order, «Kassa» schotining krediti bo‘yicha esa №2 memorial-order tuziladi. Bunday tajriba oy davomida analitik schotlar bo‘yicha ularni oy oxirida sintetik schotga birlashtiruvchi yozuvlar bo‘yicha rasmiylashtiradigan memorial-order raqami ko‘rsatilgan holda yozib borish imkonini beradi.

Memorial-orderlar tuzilib, ro‘yxatga olish daftarida qayd qilinganidan so‘ng yozuvlar Bosh daftardagi sintetik schotlarga o‘tkaziladi. Memorial-order shaklining Bosh daftari ikki tomonlama yoyiq shaklga ega bo‘lib, har bir sintetik schot uchun alohida yoyiq ikki bet ajratiladi. Ushbu daftarda memorial-orderlarning yozuvlari har bir schot bo‘yicha korrespondensiyalanuvchi schotlar ko‘rsatilgan holda yozilib, u yoki bu davr uchun ko‘rsatkichlarni umumlashtirish imkonini beradi.

Bosh daftar bir yilga ochilib, har bir oy uchun bir qator ajratiladi. Bunday shakldagi Bosh daftar nazorat-shaxmat qaydnomasi deb ham ataladi. Bosh daftar schotlarida faqat hisobot davri uchun joriy oborotlar hisobga olinadi.

Bosh daftar schotlarining shakli har bir korrespondensiyalanuvchi schot bo‘yicha debet va kreditga bo‘lingan holda tuziladi va quyidagi shaklga ega (3.3-jadval):

3.3-jadval

B O SH D A F T A R

Debet 5100-«Hisob-kitob schoti» Kredit											
Sana	Memorial-orderlar №	Schotlar kreditidan			Debet bo‘yicha jami	Sana	Memorial-orderlar №	Schotlar debetidan			Kredit bo‘yicha jami

Bosh daftar schotlari bo‘yicha sintetik hisob schotlarini oborot qaydnomasi tuzilib, unda schotlar bo‘yicha hisobot oyining boshi va oxiriga qoldiqlar aniqlanadi. Ular buxgalteriya balansini tuzish uchun qo‘llaniladi (3.4-jadval).

3.4-jadval

Sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi						
Nomi (schotlar №)	_____ga qoldiq (oy boshiga)		___ oyi oboroti (oy davomida)		_____ ga qoldiq (oy oxiriga)	
	debet	Kredit	debet	kredit	debet	kredit

Agar sintetik schotlarga memorial-orderlardan faqat mazkur oy uchun jami oborot qaydnomasiga o‘tkaziladigan oborotlar yozilsa, u holda sintetik schotlar birlashadigan hisob registri *shaxmat nazorat qaydnomasi* deb ataladi.

Memorial-order shaklida analitik hisob sintetik hisobga parallel ravishda va memorial-orderlarga ilova qilinadigan hujjatlar asosida un-

dan mustaqil ravishda yuritiladi. Analitik hisob registrlari sifatida daftarlar va kartochkalardan foydalaniladi.

Sintetik va analitik hisobning to‘g‘riligi sintetik va analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomalarini solishtirish yo‘li bilan tekshiriladi. Memorial-order shaklining umumiy chizmasi quyidagicha (3.2-rasm):



3.2-rasm. Buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining umumiy chizmasi

Bayon qilinganlardan ko‘rinib turibdiki, hisobning memorial-order shakli unchalik murakkab emas. Unda hisob ishlari buxgalteriya xodimlari o‘rtasida ularning malakasi va tajribasiga qarab taqsimlanishi oson.

Memorial-order shaklining afzalliklari: yaqqollik, korxonalarda joriy davr uchun hisob hujjatlari ko‘p bo‘lmaganida qo‘llash qulayligi.

Buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

✓ bitta hisob yozuvining har xil hisob registrlarida ko‘p marta takrorlanishi;

memorial-order shaklida sintetik hisob ikkita hisob registrida – Ro‘yxatga olish jurnali va Bosh daftarda yuritiladi;

✓ analitik va sintetik hisob o‘rtasida vaqt bo‘yicha uzilish, ya’ni muomalalarni analitik schotlar bo‘yicha tarqatib yozish (raznoska) ko‘pincha balans tuzishdan bir necha oy kechikishi mumkin;

✓ hisob registrlari hisobot shakllarini tuzishda zarur bo‘ladigan ko‘rsatkichlarni guruhlash uchun unchalik moslashmagan. Shuning uchun ma’lumotlarni dastlabki hujjatlardan yig‘ib olish va umumlashtirishga to‘g‘ri keladi va bu hisob qo‘lda yuritiladigan sharoitda ish hajmini ko‘paytiradi.

Buxgalteriya hisobi memorial-order shaklining turlaridan biri *«Bosh-jurnal»* shakli hisoblanadi. U ishlab chiqarish hajmi katta bo‘lmagan korxonalarda, alohida muassasalarda va ayrim moliya organlarida yuritiladi.

«Bosh-jurnal» shakliga memorial-orderlar asos bo‘lib, ular «Bosh-jurnal» deb ataladigan har oyda sintetik hisob registriga yozib boriladi. Uning shakli quyidagicha (3.5-jadval):

3.5-jadval

B O SH J U R N A L

Sana	Memorial-orderlar №	Order bo‘yicha oborot summasi	Schotlar nomi va raqami							
			0100-«asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»			0200-«Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar		0400-«Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar»		va b.
			Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit

Bosh-jurnalga dastavval hisobot davrining boshida schotlar bo‘yicha qoldiqlar o‘tkazilib, so‘ngra korrespondensiyalanuvchi schotlar bo‘yicha barcha oborotlar memorial orderlardan o‘tkaziladi.

Hisobot davri oxirida schotlar bo‘yicha oborotlar va qoldiqlar aniqlanadi. Bunda yozuvlar to‘g‘riligi quyidagicha tekshiriladi: barcha schotlarning bir oydagi debet oborotlari summasi barcha schotlarning bir oylik kredit oborotlari summasiga teng bo‘lishi lozim.

Ushbu hisob shaklining mazmuni sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi tuzishni istisno qiladi.

Schotlarda chiqarilgan qoldiqlarga asosan yakuniy balans tuziladi. Buxgalteriya hisobi «Bosh-jurnal» shaklida yuritilganida yozuvlar ketma-ketligi va ma’lumotlarni guruhlash tartibi quyidagi chizmada keltirilgan (3.3-rasm).

Memorial-orderga ilova qilingan dastlabki hujjatlardagi barcha xo‘jalik muomalalari belgilangan shakldagi analitik hisob qaydnomalari va kartochkalariga tarqatib yoziladi. Ushbu qaydnoma va kartochkalar har bir sintetik schot uchun zaruratga qarab ochiladi va buxgalteriyada maxsus reestrda ro‘yxatga olinadi.



3.3-rasm. Buxgalteriya hisobining «Bosh-jurnal» shakli

«Bosh-jurnal» shaklining mazmunidan ko‘rinib turibdiki, u qo‘l mehnati xarajatlarini biroz qisqartirsada, ammo unda memorial-order shakliga xos kamchiliklar mavjud.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli. Hisobning jurnal-order shakli ma’lumotlarni joriy hisobni yuritish va hisobot tuzishni ta’minlaydigan tartibda sintetik va analitik hisob registrlarida sistemalashtirish va to‘plashga asoslanadi. Bu shaklda hisob yuritish qishloq xo‘jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishga oid ko‘rsatma va yo‘riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobining bu shaklida asosiy hisob registrlari jurnal-orderlardir.

Dastlabki hujjatlar ma’lumotlari bevosita jurnal-orderda va qaydnomalarda to‘planib boradi. Xo‘jalik muomalalarini sistematik va xronologik yozish bir vaqtning o‘zida ya’ni, bir xil ish usulida amalga oshiriladi.

Zarur analitik ma’lumotlarni jurnal-orderlardan olish imkoni bo‘lmagan hollarda yordamchi qaydnomalardan foydalaniladi. Jurnal-orderlarning tuzilish tamoyili tegishli schotlar aloqasi ko‘rsatilgan holda hisob yuritishga asoslangan.

Jurnal-orderlar shunday tuzilgan-ki, ularda iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir xil xo‘jalik muomalalari aks ettiriladi. Shuning uchun ayrim jurnal-orderlar bir necha schotlarning krediti bo‘yicha muomalalarni aks ettirishga mo‘ljallangan. Dastlabki hujjatlar ma’lumotlarini to‘g‘ri guruhlash uchun jurnal-orderlarda schotlar krediti bo‘yicha namunaviy schotlar aloqasi ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, jurnal-order shaklining tuzilishi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

jurnal-orderlarda xo‘jalik muomalalari tegishli schotlarning krediti bo‘yicha debetlanuvchi schotlar ko‘rsatilib yozilishi;

sintetik va analitik hisob yozuvlarining yagona tizimga birlashtirilishi;

buxgalteriya hisobida muomalalar xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish, davriy va yillik hisobot tuzishni ta’minlaydigan yo‘nalishda aks ettiriladi;

davriy va yillik hisobot tuzish uchun zarur bo‘lgan, analitik hisob moddalarining nomenklaturasi va ko‘rsatkichlari hamda schotlar aloqasi oldindan belgilangan hisob registrini qo‘llash.

Yuqoridagi tamoyillarni yaqqol tasavvur qilish va jurnal-order shaklining mohiyatini tushunish maqsadida 5010-«Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schoti bo‘yicha yuritiladigan 1-ASK jurnal-orderini ko‘rib chiqamiz (3.6-jadval).

3.6-jadval

№1-ASK JURNAL-ORDER
«Qangli» fermer xo‘jaligi mart 2012 yil. 5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» kreditidan boshqa schotlar debetiga

qator raqami	Sana (yoki qaysi davr uchun)	5110-«Hisob-kitob» schoti	6710-«Mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblar» schoti	4220-«Xizmat safari uchun berilgan bo‘naklar»	8720-«Jamg‘arilgan foyda»	4690-«Xodimlarning boshqa-qarzlari	Jami Dt oborot	Shu jumladan, savdodan tushgan daromad
1.	01.03.	100	120	80	120	-	420	80
2.	02-06	-	-	40	150	110	300	-
va ho kazo								
	Jami	440	4200	680	310	1870	45300	490

Yuqoridagi jurnal-orderdan ko‘rinib turibdiki, u 5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schotining krediti bo‘yicha yuritilib, har bir debetlanuvchi schot uchun alohida grafa ochilgan.

Muomalalarning mazmuni va xususiyatiga ko‘ra yozuvlar jurnal-orderlar va qaydnomalarga hujjatlarning buxgalteriyaga kelib tushishiga qarab bir yoki bir necha oyligi jamlanib yoziladi.

Ma’lumotlari jurnal-orderlarga o‘tkazilgan hujjatlarda korrespondensiyalanuvchi schotlar, tegishli registrlarning raqamlari va yozuvlarning tartib raqamlari (qator raqamlari) ko‘rsatiladi. Ma’lumotlari jamlanib hisob registrlariga o‘tkaziladigan hujjatlar bo‘yicha registr va yozuvlar raqami alohida varaqda ko‘rsatilib, bu varaq to‘planib tikilgan hujjatlarga biriktirib quyiladi.

Oy oxirida jurnal-orderlarning ma’lumotlari jamlanib, bosh daftarga o‘tkaziladi. Bosh daftar jurnal-orderlar ma’lumotlarini umumlashtirish, schotlardagi yozuvlarning to‘g‘riligini tekshirish va hisobot balansini tuzish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bir yilga ochiladi. Unda har bir schot uchun bir varaq ajratiladi. Har bir varaqda ochilgan sintetik

schotning boshlang‘ich qoldig‘i, joriy (oylik) oboroti va oxirgi qoldig‘i aks ettirib boriladi. Bosh daftarga joriy oborotlarni yozish bir vaqtning o‘zida jurnal-orderlarda aks ettirilgan ma’lumotlarni qayd qilish bo‘lib hisoblanadi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Buxgalteriya hisobi jurnal-order shaklining umumiy chizmasi

Bosh daftarga joriy (oylik) oborotlar jurnal-orderlardan o‘tkazilganda, tegishli schot kredit oborotlarining jami bitta yozuv bilan, debet oborotlar esa bog‘lanuvchi, ya’ni kreditlanuvchi schotlar ko‘rsatilib aks ettiriladi.

Shunday qilib, sintetik schotlarning debet oborotlari, kreditlanuvchi schotlari ko‘rsatilgan holda Bosh daftarda (№18-ASK shakl), kredit oborotlari esa debetlanuvchi schotlari ko‘rsatilgan holda jurnal-orderlarda aks ettiriladi. Balans bosh daftar ma’lumotlari asosida, ayrim hollarda hisob registrlari ma’lumotlaridan foydalanib tuziladi.

Yozuvlarning yozilish ketma-ketligi, texnikasi va tamoyili tushunarli bo‘lishi uchun Bosh daftarning bitta sintetik schot uchun ochilgan schotini misol tariqasida ko‘rsatamiz (3.7-jadval).

Jurnal-order shakli bo‘yicha hisob yuritishda hisob ishlarini to‘liq avtomatlashtirish uchun hisoblash mashinalaridan samarali foydalanish mumkin. Klavishali hisoblash mashinalarini qo‘llash uchun jurnal-order shaklidagi hisob registrlarini ko‘p o‘zgartirish talab qilinmaydi. Bunda

sintetik va analitik hisobni yuritish tamoyili buzilmaydi, registrlarning o‘zaro bog‘lanish va ularni nazorat qilish tizimi o‘zgarmasdan qoladi.

3.7-jadval

№18-ASK shakl

B O SH D A F T A R

5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schoti

	Debet oboroti schotlarning kreditidan								Saldo	
Oy	9010 schot K-ti №1 j-o dan	5110 schot k-ti №3 j-o dan	5530 schot k-ti №3 ASK j-o dan	5710 schot k-ti №3 j-o dan	6870 schot k-ti №7 j-o. dan	va ho-kazo	Debet bo‘yi-cha jami	Kt obo-roti	Dt	Kt
Yan-var	40	82950	2000	-	610	-	85600	856 02	10	-
Fevral	-	92410	1200	400	840	-	94850	948 46	8	-
Mart	120	88750	10120	-	475	-	99465	994 50	12	-

Misol tariqasida 1-ASK jurnal-orderning shakli o‘zgartirilib, hisoblash mashinasida to‘ldirilgan namunasini keltiramiz (3.8-jadval)

3.8-jadval

«Qangli» fermer xo‘jaligi mart 2012 yil

1-ASK J U R N A L – O R D E R

5010-«Milliy valutadagi pul mablag‘lari» schotining krediti bo‘yicha

Debetlanuvchi schotlar	Sana (yoki davr)					Oylik jami	Bel-gilar
	01.03	02-06			va h.k.		
5110	100	-				440	
6710	120	-				42000	
4420	80	40				680	
8720	120	150				310	

4690	-	110				1870	
va h.k.							
Jami	420	300				45300	
Shu jumladan, savdodan							

Hisobning jurnal-order shaklida klavishali hisoblash mashinalaridan foydalanish hisobning tezkorligini oshiradi va hisob xodimlarining sonini kamaytiradi.

Ko‘pchilik registrlardan hisob uchun tayyor ma’lumotlar olish mumkinligi sababli hisob yuritishning jurnal-order shakli buxgalteriya hisobotini tuzish muddatini ancha qisqartiradi. Bundan tashqari, ko‘pchilik jurnal-orderlar, qo‘shimcha qaydnomalar va rasshifrovka varaqlaridan tezkor boshqarish va iqtisodiy tahlil qilish maqsadida muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

3.9-jadval

B O SH J U R N A L

Memorial-orderning tartib raqami	Order sanasi	Operatsiya №	Hujjat va muomala mazmuni	Oborot summalar	№1000-«Materiallar» schoti		«Turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar		va h. k.
					D-t	K-t	D-t	K-t	
Saldo				15000	55000		78000	12000	
1	10. 01	1	Materiallar kelishi qaydnomasi	54000	54000			54000	
	I.t.d.								

Qishloq xo‘jalik korxonalarida hisob yuritishning jurnal-order shaklini qo‘llash amaliyoti uning ma’lumotlarini qo‘lda ishlash va klavishali hisoblash mashinalaridan foydalanish sharoitida samarali ekanligini isbotlamoqda.

Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shakli. Hisobning avtomatlashtirilgan shakli elektron hisoblash mashinalari(EHM)dan foydalanish asosida buxgalteriya hisobini to‘liq avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishga asoslanadi.

Hisob ma’lumotlariga ishlov berish uchun EHMdan foydalanishni ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqichda ishlab chiqilgan buxgalterlik hisobini EHMda to‘liq avtomatlashtirishning namunaviy loyihasi buxgalterlik hisobini EHMda to‘liq avtomatlashtirishning xususiyatlari saqlanib qolinganligi uchun EHM imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmagan. Bunda shartli doimiy ma’lumotlarning ko‘p qismi bevosita hujjatlardan kiritiladi. Natijada, u har bir muayyan holda mashinaga kiritilganligi uchun o‘zgaruvchan ma’lumotga tenglashtirilganday bo‘ladi. Bundan tashqari, ma’lumotlarni to‘plash va ro‘yxatga olish hamda hujjatlarga hisoblash-ishlov berish avtomatlashtirilmagan.

Ikkinchi bosqichda hisob vazifalarini to‘liq avtomatlashtirish va pyerifyerik texnikadan keng foydalaniladi. Bunda dastlabki ma’lumotlarnigina qayd qilishni avtomatlashtirish, uni aloqa shahobchalari va boshqa usullar yordamida EHMga uzatishga imkon yaratiladi. Bu vaqtda ma’lumotlarga hisoblash-ishlov berish, axborotlarni saralash, mashinagrammalarni pechatlash, hamda nazorat qilish bilan aloqador bo‘lgan barcha ma’lumotlar avtomatlashtiriladi. Avtomatlashtirilgan hisob shaklining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: ma’lumotlarni yig‘ish va qayd qilish vositalaridan foydalanish; shartli-doimiy ma’lumotlarga o‘zgaruvchan ma’lumotlar bilan birgalikda ishlov berilganda, ulardan ko‘p marta foydalanish uchun EHMning xotirasida to‘plash va dastlabki hujjatlardan barcha shartli-doimiy rekvizitlarni chiqarish hisobiga ularning mazmunini soddalashtirish; dastlabki ish hujjatlarining ma’lumotlari va ma’lumot (EHMga kiritilgan shartli-doimiy ma’lumot) massivlari asosida ma’lumotlarning oraliq massivlarini shakllantirish; avtomatik nazorat qilish va xatolarni ma’lumotlarga ishlov berish texnologik jarayonining barcha bosqichlarida tuzatib borish: natijaviy ma’lumotlar registri sifatida zarur ko‘rsatkichlar oldindan harflar bilan belgilangan mashina hujjatlari-mashinagrammalardan foydalanish.

Oraliq massivlar natijaviy ma’lumotlar olish uchun berilgan dastur bo‘yicha o‘zgartiriladi, ma’lumotlarni xos raqami (kod) bilan belgilash ayrim nomenklatura darajasida va to‘plamida ham bir xil amalga oshiriladi. Ular mashina xotirasiga rasmiylashtirilgan, tasniflagich ko‘rinishida kiritiladi. Bunda buxgalteriya hisobining asosiy tamoyili – *xo‘jalik muomalalarini schotlarda ikki yoqlama aks ettirish* to‘liq saqlanib qoladi. Natijaviy ma’lumot mashina chiqargichlarida va displey ekranida chiqishi mumkin. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) asosida ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish buxgalterlik hisobi oldiga yangi talablar qo‘yadi.

Shunga ko‘ra, buxgalteriya hisobining shakllarini rivojlantirishga zaruriyat kuchaymoqda. Bu rivojlanish hisobni zamonaviy elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish negizida to‘la kompyuterlashtirish yo‘lidan bormoqda.

Hisoblash texnikasini qo‘llash jarayonining butun tizimini takomillashtirish, ya’ni dastlabki hisobdan to davriy va yillik hisobotlar tuzgunga qadar nazorat, ishlab chiqarishni ilmiy rejalashtirish va boshqarish oldiga quyiladigan zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirilib borilishi lozim (3.5-rasm).

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli. Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishning oddiy texnologik jarayoniga ega va xo‘jalik muomalalari kam miqdorda sodir bo‘ladigan kichik biznes subyektlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vaziriligi №20 «Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisobni soddalashtirib yuritish va hisobotlarni tuzish tartibi to‘g‘risida» Buxgalteriya hisobi milliy standartini (BHMS) qabul qilingan.

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini tashkil etish har bir kichik biznes subyekti tomonidan, «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schotlar rejasi» (№21 BHMSning 1-ilovasi) asosida ishlab chiqiladigan soddalashtirilgan (ishchi) schotlar rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunday schotlar rejasi xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini buxgalterlik hisob registrlarida asosiy schotlar bo‘yicha olib borishni ta’minlaydi va shu asosda buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining aniqligi ustidan nazorat qilinadi.



Shartli belgilar:

——→ Joriy yozuvlar

- - - - - - - → Yozuvlarni tekshirish

3.5-rasm. Hisobning avtomatlashtirilgan shakli

Soddalashtirilgan (ishchi) schotlar rejasidagi ayrim schotlar, o‘z vazifalari bilan birga bu rejaga kiritilmagan schotlarning funksiyalarini ham bajarishi nazarda tutilgan.

Soddalashtirilgan (ishchi) schotlar rejasida taklif qilingan schotlar guruhi fermer xo‘jaligining moliyaviy holati to‘g‘risidagi buxgalteriya balansini tuzish qoidalariga muvofiq, uning mablag‘lari va mablag‘lar manbalarining miqdori hamda xo‘jalik faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi (3.10-jadval).

3.10-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun tavsiya etiladigan buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan (ishchi) schotlar rejasi (namuna)

Schotlar	Schotlarning nomi	Schot-lar turi
0110-0199	Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar	A

0211-0299□	Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar	KA
0310	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar	A
0810-0890□	Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schotlar	A
1010-1090□	Materiallarni hisobga oluvchi schotlar	A
1110-1120□	O‘stirilayotgan va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schotlar	A
2010	Asosiy ishlab chiqarish	A
2810	Ombordagi tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schotlar	A
4010	Xaridor va buyurtmachilardan oluvchi schotlar	A
4210	Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar	A
5010	Kassa	A
5110	Hisob-kitob schoti	A
5210	Mamlakat ichidagi valyuta schoti	A
5810	Qimmatli qogozlar	A
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar	P
6310	Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar	P
6510	Sugurta bo‘yicha to‘lovlar	P
6520	Maqsadli davlat jamgarmalariga to‘lovlar	P
6710	Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar	P
6810	Qisqa muddatli bank kreditlari	P
6910	To‘lanadigan qisqa muddatli ijara haqi	P
7910	To‘lanadigan uzoq muddatli ijara haqi	P
8300	Ustav kapitalini hisobga oluvchi schotlar	P
8400	Qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schotlar	P
8500	Rezerv kapitalini hisobga oluvchi schotlar	P
9010	Mahsulotlarni sotishdan daromadlar	T
9110	Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi	T
9900	Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar	T

□ - tegishli zarur schotlar qo‘llaniladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari mulkchilik shakllari va qaysi tarmoqqa tegishligiga qarab bir-biridan farq qiladilar. Shuning uchun ular

o‘zlarining ishchi schotlar rejasini tuzishda tavsiya qilinayotgan schotlar rejasidan namuna sifatida foydalanishlari mumkin.

Ayrim kichik tadbirkorlik subyektlari o‘zining ishchi schotlar rejasini ishlab chiqishda ishlab chiqarish xarajatlari, olingan mahsulotlar, tannarxni hisoblash, daromadlar va mahsulot(ish, xizmat)larni sotishning moliyaviy natijasini hisobga olishda o‘z faoliyatining muayyan shart-sharoitlaridan kelib chiqishlari kyerak.

Kichik tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini hisobga olish uchun ishchi schotlar rejasini qabul qilgani(tasdiqlagani)dan so‘ng soddalashtirilgan hisob tizimi tavsiyalarida taklif etilgan buxgalteriya hisobi shakllaridan o‘ziga mosini tanlaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli ikkita yo‘nalishda tashkil etilishi mumkin.

1. Buxgalteriya hisobining oddiy shakli (hisob registrlaridan foydalanmasdan yuritiladi).

2. Tegishli obyektlar bo‘yicha hisob registrlari (namunaviy shakldagi V 1 – V 11 qaydnomalardan foydalangan holda) yuritiladigan shakl.

Bayon qilinganlarni umumlashtirish asosida oilaviy (yakka) kichik tadbirkorlik subyektlari hisobning oddiy usuli soddalashtirilgan shakli bo‘yicha buxgalteriya hisobini yuritish tizimini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin (3.6-rasm).



3.6-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektida buxgalteriya hisobini tashkil etish sxemasi (ikki yoqlama yozuv usuli asosida)

Kichik tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tib, bankda schot ochib; soliq, sug‘urta, nafaqa fondi, bandlik xizmati va boshqa tegishli davlat organlari va nodavlat tashkilotlaridan ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng faoliyat boshlaydi. Bunda avvalo, mavjud mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini umumlashtirib dastlabki balans tuziladi.

Soddalashtirilgan buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli, agar kichik tadbirkorlik subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish yoki ish bajarish bilan shug‘ullanilmasa tashkil etiladi. Bunda quyidagi hisob qaydnoma foydalaniladi:

a) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasi;

b) moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasi;

v) kapital quyilmalarni hisobga olish qaydnomasi;

g) tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasi;

d) boquvdagi va o‘stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi;

e) xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

j) boshqa debitorlik qarzlarni hisobga olish qaydnomasi;

z) pul mablag‘larini hisobga olish qaydnomasi;

i) mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

k) hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

l) mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

m) boshqa majburiyatlarni hisobga olish qaydnomasi;

n) xususiy kapitalni hisobga olish qaydnomasi;

o) hisobot davri xarajat(sarf)larini hisobga olish qaydnomasi;

p) dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;

r) chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;

s) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi;

t) sof foyda (zarar) ni hisoblash qaydnomasi;

u) xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish Jamlanma qaydnomasi.

Yuqorida sanab o‘tilgan qaydnomalarning har biri, qoidaga ko‘ra buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan schotlarning bittasi bo‘yicha muomalalarni hisobga olish uchun qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobning soddalashtirilgan shaklini qo‘llash sharoitida, xo‘jalik muomalasi shaxmat yozuvi ko‘rinishida bir marta yoziladigan jurnal-orderdan farqli bo‘lib, har bir xo‘jalik muomalasi ikkita usul bilan rasmiylashtiriladi: bitta qaydnomada – schotning debeti bo‘yicha yozuv, kreditlanuvchi schotni ko‘rsatgan holda («korrespondensiyalanuvchi schot» grafasida), boshqasida esa korrespondensiyalanuvchi schotning krediti bo‘yicha bir vaqtning o‘zida debetlanuvchi schotni ko‘rsatilgan holda.

Ushbu qaydnomalarning jami umumlashtiruvchi shaxmat qaydnomasini jamlanma qaydnomasi to‘ldirish uchun asos bo‘lib, unda tegishli qaydnomada ko‘rsatilgan har bir schotning debeti va krediti bo‘yicha yozuvlar aks ettiriladi. Umumlashtiruvchi shaxmat qaydnomasining mazmuni gorizont bo‘yicha qaydnomalarning nomerlarini ularning o‘sib borish tartibida, vertikal bo‘yicha esa schotlar raqamlarining o‘sib borish tartibi va nomlaridan iborat. Yozuvlar qaydnomalardan tegishli schotlar bo‘yicha kredit oborotlarini «Korrespondensiyalanuvchi schot» grafasi bo‘yicha ushbu oborotlarni tegishli schotlarning debetiga tarqatib yozish (raznoska) yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Shaxmat qaydnomasi qo‘llaniladigan schotlar bo‘yicha oylik umumlashtiruvchi registr hisoblanadi va nazorat ahamiyatiga ega. U nafaqat joriy oy uchun axborotlarni umumlashtirish maqsadida, balki buxgalteriya hisobi schotlari bo‘yicha amalga oshirilgan yozuvlarning to‘g‘riligini o‘zaro tekshirish uchun ham xizmat qiladi. Xususan, bu tarqatib yozish vaqtida aniqlanib, uning natijasida har bir schot bo‘yicha jamlangan debet summasi mazkur schot bo‘yicha tegishli qaydnomada aks ettirilgan debet oboroti summasiga teng bo‘lishi lozim.

Har bir schotning debeti bo‘yicha aniqlangan jami summalar qo‘shiladi. Aniqlangan natija schotlarning krediti bo‘yicha umumiy oborotlar summasiga teng bo‘lishi lozim. Har bir schot bo‘yicha debet va kredit oborotlari oborot qaydnomasiga o‘tkazilib, unda har bir schot bo‘yicha hisobot davridan keyingi oyning birinchi sanasiga qoldiq chiqariladi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Buxgalteriya hisobining hisob registrlaridan foydalaniladigan sodda shakli

NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobida hujjat deb nimaga aytiladi?
2. Hujjatlashtirish va hujjatlarning rekvizitlari nima?
3. Hujjatlarning turkumlanishini tavsiflang.
4. Hujjatlarni to‘lg‘azishda qanday talablar quyiladi?
5. Hujjatlar aylanishi va uning ahamiyati nimadan iborat?
6. Elektron hujjat nima va uning xususiyatlari qanday?
7. Elektron hujjatda qanday majburiy rekvizitlar bo‘lishi kerak?
8. Elektron raqamli imzoning mazmuni nimadan iborat?
9. Elektron hujjatning aylanishi nima va uning xususiyatlari qanday?
10. Hujjatlarni rasmiylashtirish, tekshirish va ularga ishlov berishning ahamiyati nimadan iborat?
11. Hisob registrlari nima va ularning buxgalteriya hisobidagi vazifalari qanday?
12. Hisob registrlarining turkumlanishini ta’riflang.
13. Korxona uchun hisob registrlarini tanlash mezonlari qanday?
14. Joriy hisobda qanday yozuvlar bajariladi?
15. Hisob yozuvlaridagi xatolar nima sababli sodir bo‘ladi va ularni tuzatish usullari qanday?
16. Buxgalteriya hisobining qanday asosiy shakllari mavjud?
17. Buxgalteriya hisobi soddalashtirilgan shaklining mazmuni va ahamiyati qanday?

NAZORAT TESTLARI

1. Hujjat deb nimaga aytiladi?

A) Hisob – iqtisodiy axborotlarni tashuvchi

B) Xo‘jalik operatsiyalari haqiqatda bajarilishini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi yozma qog‘oz

S) Schotlarda qayd etilgan, xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashuvchi qayta ishlashga tegishli registr ma’lumotlarni tashuvchi

D) Xo‘jalik jarayonlarini aks ettiruvchi qog‘oz

2. Hujjatlar oboroti deb nimaga aytiladi?

A) Rasmiylashtirilib va qayta ishlanib ijrochilar ish joyiga tushgunga qadar o‘tgan vaqt

B) Ijrochilar ish joyidan arxivga topshirilguncha o‘tgan vaqt

S) Hujjatlarga birinchi yozuv yozilganidan arxivga topshirilgunga qadar bosib o‘tilgan yo‘li

D) Hujjatlarni ish joyidan bajarilishi buyicha birin-ketin o‘tish

3. Dastlabki hujjatlarning majburiy rekvizitlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Debitor va kreditor tashkilotlar haqida belgilar, guvohnomalar nomi, raqami, u tuzilgan sana va joy; mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari

B) Barcha to‘lg‘aziladigan belgilar, ularning nomi, sanasi, raqami va boshqalar

S) korxonaning nomi; hujjatning nomi, raqami, u tuzilgan sana va joy; xo‘jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdor o‘lchovi; mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari

D) hujjat yaratilgan sana; mas'ul shaxslarning ismi, sharifi, otasining ismi; litsenziya raqami, sanasi va berilgan joyi

4. Tayinlanishi bo‘yicha hujjatlar qaysi guruhlarga bo‘linadi?

A) Farmoyish hujjatlari, isbotlovchi hujjatlar, buxgalteriyada rasmiylashtiriladigan hujjatlar, uyg‘unlashtirilgan hujjatlar

B) Dastlabki hujjatlar va yig‘ma hujjatlar

S) Ichki hujjatlar va tashqi hujjatlar

D) Qo‘lda tuziladigan hujjatlar, yozuv mashinkasida yoziladigan hujjatlar, kompyuterda tuziladigan hujjatlar

5. Buxgalteriya hisobi registrlari tashqi ko‘rinishiga ko‘ra qanday bo‘ladi?

A) Buxgalteriya schotlari, kartochkalar, yuk xati

B) Buxgalteriya daftarlari, jurnal-orderlar, kirim kassa orderi

S) Buxgalteriya daftarlari, ishonchnoma, memorial-orderlar

D) Buxgalteriya daftarlari, kartochkalari, alohida varaqalar

6. Axborotlar hajmiga ko‘ra hisob registrlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Xronologik hisob registrlari, sistematik hisob registrlari va uyg‘unlashgan hisob registrlari

B) Bir tomonlama hisob registrlari, ko‘p tomonlama hisob registrlari,

S) Sintetik hisob registrlari, analitik hisob registrlari va birlashtiruvchi hisob registrlari

D) Ko‘p grafali hisob registrlari, shaxmatli hisob registrlari, chiziqli hisob registrlari

7. Hisob registrlaridagi xatolarni tuzatishning qanday usullari bor?

A) natural, mehnat va pul

B) korrektura, qizil storno va qo‘shimcha yozuv

S) operativ, statistik va buxgalteriya

D) analitik va sintetik

8. Inventarizatsiya qaysi buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) bilan tartibga solinadi?

A) 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMS

B) 5-sonli «Asosiy vositalar» nomli BHMS

S) 19-sonli «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» nomli BHMS

D) 1-sonli «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»

9. Inventarizatsiya kim tomonidan o‘tkaziladi va natijasi qaysi hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

A) Inventarizatsiya komissiyasi va inventarizatsiya dalolatnomasi

B) Inventarizatsiya komissiyasi va yuk xati

S) Komissiya va asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi

D) Komissiya va Materiallarni qabul qilish dalolatnomasi

10. Buxgalteriya hisobining shakllari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) markazlashtirilgan, uyg‘unlashtirilgan va natural

B) memorial-order, jurnal-order va avtomatlashtirilgan (kompyuterlashtirilgan)

S) mehnat, pul va natural

D) operativ hisob, statistik hisob

IV BOB. KORXONANING HISOB SIYOSATI VA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

4.1. Hisob siyosatining mohiyati, vazifalari, shakllantirish bosqichlari va tamoyillari

Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yo‘lga quyish usullarining tartiboti bo‘lib, ustav va boshqacha faoliyatning iqtisodiy hodisalar faktini dastlabki kuzatish (hujjatlashtirish va inventarizatsiya), qiymat o‘lchovida ifodalash (baholash va Kalkulyatsiya), joriy guruhlash (schotlar va ikkiyoqlama yozuv) va yakuniy umumlashtirish (balanslashtirish va hisobot)dan iborat. Buxgalteriya hisobining bir xildagi metodini har xil korxonalarda amalga oshiradigan hisob siyosati turlicha bo‘ladi. Baholash, Kalkulyatsiya, xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish tartibi va hokazolarning muayyan usullarini tanlash imkoniyati korxonaning hisob siyosatini shakllantirishdagi tanlash erkinligini bildiradi.

Hisob siyosatining bosh vazifasi – korxona faoliyatini yuqori darajada obyektiv aks ettirish, uning faoliyatini samarali boshqarish maqsadida to‘liq va ishonchli axborotlarni shakllantirishdan iborat.

Jumladan, korxona hisob siyosati quyidagilarni ta’minlashi lozim:

- xo‘jalik faoliyatining barcha faktlarini buxgalteriya hisobida to‘liq aks ettirish (to‘liqlik tamoyili);
- xo‘jalik faoliyati faktlarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda o‘z vaqtida aks ettirish (o‘z vaqtidalik tamoyili);
- mumkin bo‘lgan daromadlar va aktivlarga qaraganda xarajatlar va majburiyatlarni buxgalteriya hisobida tan olishga tayyor turish, yashirin rezervlar yaratilishiga yo‘l qo‘ymasdan (ehtiyotkorlik tamoyili);
- xo‘jalik faoliyati faktlarini nafaqat ularning huquqiy shaklidan kelib chiqqan holda, balki iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish sharoitlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish (mazmunning shakldan ustuvorligi tamoyili);
- har oy oxiriga sintetik hisob schotlari bo‘yicha qoldiq va oborotlarning analitik hisob ma’lumotlariga tengligi (o‘zaro zid bo‘lmaslik tamoyili);

- korxonaning hajmi va xo‘jalik faoliyatining shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobini oqilona yuritish (oqilonalik tamoyili).

Hisob siyosati buxgalteriya hisobining milliy standartlarida belgilangan hisob yuritish usullaridan maqbulini tanlash yo‘li bilan shakllantiriladi. Agar, buxgalteriya hisobi milliy standartida qandaydir obyekt uchun hisob yuritish usuli belgilanmagan bo‘lsa, korxona o‘zi ishlab chiqishi mumkin. Har ikkala holda hisob siyosatini tashkil etishda korxonada asosiy talab – buxgalteriya hisobini yuritish usulini tanlash yagona tamoyilga asoslanishi lozim. Bu quyidagilarni bildiradi: tanlangan hisob yuritish usulining korxonaning barcha tarkibiy bo‘linmalari, jumladan, mustaqil balansga ajratilganlari ham qo‘llashi, aks holda hisob axborotlarini taqqoslash va umumlashtirish mumkin emas; biron bir muayyan masalaga nisbatan korxona bitta tanlangan usulni, agar boshqachasi standartda belgilangan bo‘lmasa, qo‘llashi mumkin; masalan, barcha faoliyat turlari uchun sotishdan olingan foyda bitta usul – tovarlarni xaridorga jo‘natish va hisob-kitob hujjatlarini taqdim etish me’yoriga qarab aniqlanadi.

Hisob siyosatini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat (4.1 rasm).



4.1-rasm. Hisob siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlari

Hisob siyosatini shakllantirishning *birinchi bosqichi*da uning predmeti aniqlanadi. Chunki har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining buxgalteriya hisobi obyektlari to‘plamiga ega. *Ikkinchi bosqich*da hisob

obyektlarining tarkibidan kelib chiqqan holda, hisob siyosatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan shart-sharoitlar aniqlanadi. *Uchinchi bosqich*da oldingi bosqichda aniqlangan, yo‘l quyilgan qoidalarga nisbatan hisob siyosatining tuzilishi tahlil qilinadi. *To‘rtinchi bosqich* buxgalteriya hisobini yuritishning muqobil usullaridan maqbulini tanlashdan iborat. *Beshinchi bosqich*da muayyan korxona uchun buxgalteriya hisobi usullari tanlanadi. Oxirgi, *oltinchi bosqich*da tanlangan hisob siyosati hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

Hisob siyosatining variantini tanlashga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- korxonaning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy maqomi (mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy shakli, tarmoq va faoliyat turi, ko‘lami);
- tadbirkorlikdagi joriy va uzoq muddatli maqsadlari (korxonani kengaytirish, qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash va b.);
- faoliyat xususiyatlari – ishlab chiqarish (texnologik tuzilmasi, ishlatiladigan resurslar), tijorat (ta’minot va sotigshni tashkil etish, hisob kitob tizimi va shakllari), moliyaviy (bank, soliq inspeksiyasi bilan o‘zaro munosabatlar), boshqaruv (tuzilmasi, mulkdorlarga bog‘liqligi, ularga hisobot taqdim etish tartibi);
- kadr ta’minoti – xodimlarning malakasi;
- xo‘jalik vaziyati – bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligining ahvoli.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va qoidalari O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni, Buxgalteriya hisobi Milliy standartlari va boshqa me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan.

Korxona hisob siyosatini tanlashda uning muayyan xo‘jalik vaziyatiga mos kelishini ta’minlaydigan, ma’lum tamoyillardan kelib chiqish zarur (4.2-rasm).

To‘liqlik. Korxona tomonidan tanlangan buxgalteriya hisobini yuritish usullari korxonadagi barcha xo‘jalik faoliyati faqtlarini aks ettirishi lozim. Ushbu talab har bir faktni hujjatlashtirish vap hisobda aks ettirish yo‘li bilan ta’minlanadi.

O‘z vaqtidalik moyili xo‘jalik faoliyati faktlarini sodir bo‘lgan paytda aks ettirish lozimligini bildiradi.

Ehtiyotkorlik. Korxonada qo‘llaniladigan usullar buxgalteriya hisobida daromadlar va aktivlarni aks ettirishga qaraganda, yo‘qotishlar va passivlarni aks ettirish imkoniyatini ko‘proq ta’minlashi lozim. Bu hi-

sobga faqat olingan daromadlar qabul qilinishini, ayni paytda barcha kutilayotgan majburiyatlar va potensial zararlar hisobga olinishi lozimligini bildiradi.

Mazmunning shakldan ustuvorligi. Buxgalteriya hisobining tanlangan usullari sodir bo‘lgan xo‘jalik faoliyati faktlarini nafaqat ularning huquqiy shakli, balki iqtisodiy mazmuni va vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda hisobga olishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

4.2-rasm. Hisob siyosatining asosiy tamoyillari

Ushbu tamoyil korxonaga boshqa korxonalardan noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan, lekin bunday faktlar aniqlanganidan so‘ng, korxona ichida tuzatilishi lozim bo‘lgan dastlabki hujjatlar olinganida amalga oshiriladi. Shuningdek, operatsiya sodir bo‘lganligi boshqacha usul bilan, masalan, olingan tovar alohida tuzilgan dalolatnoma bo‘yicha barcha quyilgan talablarga rioya qilingan holda, qabul qilinishi mumkin.

Muvofiqlik. Korxona tomonidan tanlangan hisob usullari hisobning har xil turlari tomonidan shakllantiriladigan ma’lumotlarning muvofiqligini, masalan, har bir hisobot davrida analitik hisob oborotlari va qoldiqlarining sintetik hisob schotlarinikiga tengligini ta’minlash uchun asos yaratadi.

Oqilonalik. Hisob siyosati shunday tuzilishi lozimki, bunda buxgalteriya hisobi oqilona va tejamli, korxona ko‘lami va faoliyat miqyosiga mos tarzda yuritiladi. Ko‘rsatilgan tamoyillar korxona tomonidan o‘z hisob siyosatini ishlab chiqish va qabul qilishning asosini

tashkil etishi lozim. Ularga rioya qilinmasligi korxonanig mulkiy va moliyaviy ahvolini buzib ko‘rsatishi mumkin.

Korxona tomonidan yuqorida ko‘rib chiqilgan farazlar va tamoyillardan kelib chiqqan holda, qabul qilingan hisob siyosati korxonada buxgalteriya hisobi tizimining yahlitligini ta’minlaydi. U korxonadagi hisob jarayonlarining barcha – *uslubiy, tashkiliy* va *texnik* jihatlarini qamrab oladi.

Hisob siyosatining *uslubiy jihati* korxonada mulklarni va majburiyatlarni baholash, amortizatsiya hisoblash va shu kabilarni qanday usullari qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Tashkiliy jihati esa – ushbu usullarni buxgalteriya xizmatini tashkil etishda qanday amalga oshirilishini bildiradi.

Texnik jihati ushbu usullarni hujjatlar va hisob registrlarida qanday amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

4.2. Buxgalteriya hisobining uslubiy, tashkiliy va texnik ta’minoti

Bozor munosobatlarining rivojlanishi buxgalteriya hisobi oldiga yangi talablar qo‘ymoqda. Bir tomondan, bu talablar O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunida belgilangan. Ikkinchi tomondan, mazkur qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan belgilangan buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy konsepsiyasi bilan birga, korxona to‘plangan tajribaga tayanib, hisobni tashkil etishning yangi vazifalarini hal etishga qaratishi lozim.

Hisob siyosati tegishli mulklar va majburiyatlar hisobini yo‘lga quyishning muay'yan usullarini xo‘jalik yuritish shart-sharoitlari va amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda tanlashni bildiradi. Bunda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning aniq belgilangan yo‘nalishi doirasida bir qancha muqobil usullardan maqbuli tanlanadi, agar bu amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmasa. Buxgalteriya hisobini yuritishning tegishli usuli buxgalteriya hisobiga oid qonunchilik yoki me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilmagan bo‘lsa korxona uning amaldagi buxgalteriya hisobi qoidalaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlab chiqishi mumkin. Har qanday holatda korxona tarkibiy bo‘linmalari ham hisob siyosatiga rioya qilishi lozim(*Korxona hisob siyosatining namunasi 2-ilovada keltirilgan*).

Hisob siyosati moliya yili davomida o‘zgartirilmasligi lozim va uning tarkibida quyidagilar tasdiqlanadi:

- hisob va hisobotning o‘z vaqtidaligi talabidan kelib chiqqan holda, joriy hisobni yuritish uchun zarur bo‘lgan, eng kami sondagi, ammo yetarli schotlar ro‘yhatidan iborat Ishchi schotlar rejasi;

- dastlabki hujjatlarning shakllari (xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun namunaviy shakllari mavjud bo‘lmagan), hamda hisob axborotlaridan ichki foydalanuvchilar ehtiyoji uchun tuziladigan boshqaruv hisobi hujjatlarining shakllari;

- mulklarning alohida turlarini baholashning tegishli variantini tanlash;

- xarajatlarni guruhlash va ishlab chiqarishga olib borishning tegishli usullarini belgilash;

- kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun rezyervlarning turlari;

- hujjatlar aylanishi qoidalari va hisob axborotlariga ishlov berish texnologiyalari;

- buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun talab qilinadigan, xo‘jalik operatsiyalarini hamda boshqa amallarni bajarish jarayonida tegishli nazorat turini tanlash.

Hisob siyosatini qo‘llashning belgilangan chegaralari korxonada to‘liqlik, ehtiyotkorlik, xo‘jalik faktlari iqtisodiy mazmunining ularning shaklidan ustuvorligi hamda muvofiqlik va oqilonalik talablari doirasida belgilanishi mumkin.

Korxonada belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hisob siyosati yildan-yilga izchil qo‘llaniladi. Buning natijasida har xil hisobot davrlarida olingan buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining taqqoslanishi ta’minlanadi. Shunday qilib, ushbu talabni amalga oshirish maqsadida hisob siyosati tegishli tashkiliy-farmoyish hujjati (buyruq, farmoyish) tasdiqlangan yildan keyingi yilning 1 yanvaridan kuchga kiritilishi lozim.

Yangi tashkil etilgan korxona, u qachon yuridik shaxs maqomini olganligi (Davlat ro‘yxatidan o‘tganligi)dan qat’iy nazar, hisob siyosatini kuchga kiritish bo‘yicha yuqorida belgilangan talablarga rioya qilishi lozim. Ushbu talablar korxonaning filiallari, vakolatxonalari va bo‘linmalariga (jumladan, alohida balansga chiqarilgan) ham taalluqli, ularning joylashgan yeridan qat’iy nazar.

Yangidan tashkil etilgan korxonalarda ishlab chiqilgan hisob siyosatini rasmiylashtirish ko‘rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda uning moliyaviy hisobotini birinchi marta e’lon qilingunga qadar, ammo yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan(davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) kundan boshlab 90 kundan kechikmasdan amalga oshirilishi lozim.

Hisob siyosati tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining qoidalarini buxgalteriya hisobining yagona uslubiy tamoyilari asosida rivojlantirilgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari qo'llaniladi. Buxgalteriya hisobi milliystandartlari qonunga zid bo'lmasligi va uning uslubiy taminotini rivojlantirishi lozim. Hozirgacha 26 ta BHMS ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'lanilmoqda. Bizning fikrimizcha, BHMSlar keyinchalik ularga buxgalteriya hisobining ayrim murakkab qoidalari va normalari qo'shimcha sharhlar bilan to'ldirilgan va buxgalteriya hisobining texnik jihatlari to'liqroq aks etirilgan holda qayta ko'rib chiqilishi zarur.

Korxona darajasida buxgalteriya hisobining uslubiy ta'minlash quyidagilarni qo'llash bilan belgilanadi:

- tashqi va ichki axborotdan foydalanuvchilarni zarur axborotlar bilan ta'minlaydigan, sintetik va analitik schotlardan iborat, namunaviy schotlar rejasi asosida ishlab chiqilgan ishchi schotlar rejasi;
- xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish uchun mo'ljallangan tarmoqlararo va tarmoq dastlabki hujjatlarining namunaviy shakllari. Dastlabki hujjatlarning namunaviy shakllari ko'zda tutilmagan hodisalar, hamda ichki buxgalteriya hisoboti uchun dastlabki hujjatlar shakllari umumiy talablar va majburiy rekvizitlar ro'yxatiga mos kelishi lozim;
- xo'jalik operatsiyalarini, ularning mazmunidan kelib chiqqan holda joriy nazorat modeli inventarizatsiya o'tkazish texnologiyalari va ayrim turdagi mulklar hamda majburiyatlarni baholash uslublari;
- amal qilayotgan hisobni tashkil etish va mavjud texnik vositalar negizida hujjatlar aylanishi va hisob axborotlariga ishlov berish texnologiyasi.

Shunday qilib, boshqaruv pog'onalarining har birida o'zining vazifalari hal etiladi. Shu bilan birga ularning barchasi oxir-oqibatda buxgalteriya hisobining metodologik tamoyillariga muvofiq hisob jarayonini tartibga solish va maqbullashtirishga qaratilgan.

Buxgalteriya hisobining metodologik tamoyillari korxona hisob siyosatining tarkibiy qismi sifatida quyidagilarni nazarda tutadi:

- korxona mulklari va majburiyatlarining boshqa korxona va muldorlardan alohidaligi;

- korxona faoliyatining uzluksiligi, ya’ni kelajakda o‘z faoliyatini to‘xtatish niyatining yo‘qligi;
- bir hisobot davridan boshqasiga o‘tishda o‘z faoliyatini izchil amalga oshirishi va natijada, o‘z majburiyatlarini to‘lamaslik niyatining yo‘qligi (hisob siyosatini izchil qo‘llash tamoyili);
- hisoblash paytiga rioya qilinishi, ya’ni daromadlar va xarajatlar ular shakllangan paytda emas, ular tegishli bo‘lgan hisobot davrida aks ettiriladi.

Korxona hisob siyosati quyidagilarni ta’minlashi lozim:
- korxonada sodir bo‘ladigan barcha xo‘jalik operatsiyalarini ikki yoqlama yozuv usuli bilan o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish (to‘liqlik tamoyili);
- o‘z hatti-xarakatlarida extiyotkorlik, o‘zining hatti-xarakatlari bilan korxonaning moliyaviy barqarorligiga ataylab zarar etkazmaslik;
- huquqiy va iqtisodiy yondoshuvlarning ayrim amaldagi qoidalarini formal tushunishdan ustunligi (mazmunning shakldan ustuvorligi tamoyili);
- analitik schotlar boshlang‘ichva oxirgi qoldiqlari hamda debet va kredit oborotlari mos ravishda yig‘indilarining ularni umumlashtiruvchi sintetik schotning boshlang‘ich va oxirgi qoldig‘i hamda debet va kredit oborotlariga mos ravishda tengligi (muvofiqlik tamoyili);
- buxgalteriya hisobini muayyan korxona faoliyatini inobatga olgan holda tejamli va oqilona yuritish (oqilonalik tamoyili);
- bir tomondan, korxonaning moliyaviy natijasini hisoblash maqsadida, ikkinchi tomondan korxona moliyaviy ahvoli to‘g‘risida tashqi foydalanuvchilarga axborotlarni taqdim etish maqsadida, hisob (oy) va hisobot (choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik) davrini chegaralash, ya’ni davriylik tamoyili;
- moliyaviy hisobotni tuzish va e’lon qilish tamoyili (uning tarkibi o‘zgarmasligi, balans va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ko‘rsatkichlarining hisobot yili boshi va oxirida taqqoslanuvchanligi, hisobotning e’lon qilinishi).

Hisob siyosati korxona rahbarining buyrug‘i yoki farmoyishi bilan yillik hisobotni birinchi e’lon qilishdan, ammo yuridik shaxs huquqini olgan (davlat ro‘yhatidan o‘tgan) kundan boshlab 90 kundan kechikmasdan rasmiylashtiriladi.

Buxgalteriya hisobi boshqaruv funksiyasi sifatida o‘zining tashkiliy tuzilmasiga ega (*Buxgalteriya hisobining tashkiliy ta’minotini bu yerda hisob siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqamiz. Buxgalteriya*

hisobini tashkil etish masalalari 4.5 paragrafda batafsil bayon qilingan).

Buxgalteriya hisobining uslubiy ta’minoti boshqaruv apparatiga ishonchli va zarur axborotlarni kam xarajat qilgan holda, o‘z vaqtida taqdim etish vazifasiga bo‘ysundirilgan bo‘lishi lozim. Ushbu vazifani hal etish qator omillar bilan ta’minlanib, ulardan har biri qaror topgan an’analar, korxona faoliyatining muayyan shart-sharoitlari va hisob ishlarining xajmidan kelib chiqadi.

Buxgalteriya hisobining tashkiliy ta’minoti uni boshqaruv hisobi va moliyavyi hisob quyi tizimlariga ajratishni nazarda tutadi. Ular o‘rtasida keskin chegara bo‘lmasa-da, bunday ishni amalga oshirish zarur. U hisob axborotlarining alohida foydalanuvchilar o‘rtasida aniq yo‘nalishini belgilaydi. Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini shakllantirish bo‘yicha boshqaruv va korxonani strategik rivojlantirish asosini yaratadi. Ushbu axborot faqat korxona menedjerlariga ruxsat etiladi. Boshqaruv hisobini tashkil etish tartiblarini korxona mustaqil belgilaydi.

Moliyaviy hisob u yoki bu darajada tartibga solinadi. Shuning uchun ma’lum talablar va tamoyillar tizimi ishlab chiqiladi.

Korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaldagi qonunchilikka rioya qilinishi uchun uning rahbari javobgar. Rahbar hisob siyosatini ishchi schotlar rejasini, dastlabki hujjatlar shakllarini (namunaviy shakli bo‘lmagan xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun), inventarizatsiya o‘tkazish tartibini, hujjatlar aylanish qoidalarini va buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadida zarur bo‘ladigan tartib-qoidalarni tasdiqlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, korxona rahbari buxgalteriya hisobini shaxsan o‘zi yuritish huquqiga ega. Lekin, qaysi holatlarda ushbu funksiyani rahbarning o‘zi bajarishi aniq ko‘rsatilmagan, ammo bunday variant kichik biznes korxonalari, masalan, dehqon xo‘jaliklari uchun qulay.

Bosh buxgalter boshqaradigan mustaqil buxgalteriya xizmati tashkil etilishi ham mumkin. Bunday xizmat korxonaning boshqa bo‘linmalari kabi tarkibiy bo‘linma hisoblanadi.

Bosh buxgalter bevosita korxona rahbariga bo‘ysunadi va hisob siyosatini tashkil etish, buxgalteriya hisobini yuritish, to‘liq va ishonchli moliyaviy hisobotni o‘z vaqtida taqdim etish uchun javobgar.

Buxgalteriya hisobini yuritish shartnoma asosida markazlashgan buxgalteriya, ixtisoslashgan mustaqil tashkilot yoki tegishli oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega buxgalter tomonidan yuritilishi mumkin.

Har qanday holatda buxgalteriya hisobining u yoki bu tashkiliy shaklini tanlash hisob jarayonini oqilona tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Buning ustiga, agar oldin hisob texnologik jarayoniga EH-Mni keng qo‘llashga, markaziy buxgalteriya tashkil etish abzal hisoblansa, hozirgi vaqtda vaziyat boshqacha markazlashmagan buxgalteriya hisobi katta imkoniyatlarga ega. Asosiy masala – buxgalterning ish joyini avtomatlashtirish. Boshqa omillar: hisob ishlarining hajmi, xodimlar soni ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulotlarning nomenklaturasi, mol yetkazib beruvchilar, haridorlar va shu kabilarning soni katta ahamiyatga ega emas.

Shuning uchun hisob xodimlarining vazifalari ularning ish yuklamasi, boshqaruv tizimidagi pog‘onalar o‘rtasida to‘g‘ri va teskari o‘zaro aloqalarhisob ma’lumotlarini uzatish va uzatish vositalari va kanallaridan kelib chiqqan holda qayta taqsimlanishi lozim.

Hisob xodimlarining mehnat taqsimoti 3 turga bo‘linadi: *predmetli; chiziqli; funksional.*

Mehnat taqsimotining predmetli varianti hujjatlarning bo‘limlarning nomlanishiga muvofiq taqsimlashni nazarda tutadi:

- hisob-kitob bo‘limi;
- ishlab chiqarish bo‘limi;
- hisob bo‘limi;
- sotish bo‘limi;
- umumiy bo‘lim.

Albatta, konsalidatsiyalangan hisobotdan asosiy foydalanuvchilar aksiyadorlar hisoblanadi. Bosh kompaniyaning aksiyadori uning aksiya paketiga to‘g‘ri keladigan sof aktivlar hajmini baholash imkoniga ega emas. Chunki bosh kompaniyaning balansi faqat sho‘ba korxonalariga quyilmalar summasidan iborat va ushbu quyilmalarning jami real qiymatini va mos ravishda aksiyadorlarning ulushini aks ettirmaydi. Aksiyadorlar uchun ularning quyilmalarini obyektiv aks ettiradigan, bosh kompaniyaning barcha sho‘ba va tobe korxonalari faoliyatining ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladigan obyektiv axborotlar zarur.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishdan to yuritish va hisobot tuzish hamda taqdim etishga qadar barcha ishlarni mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda moddiy-texnik ta’minlash - ***hisob siyosatining texnik ta’minoti*** deb ataladi.

Hisob siyosatining texnik ta’minoti buxgalteriya hisobining uslubiy va tashkiliy jihatlarini zamon talablari darajasida amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimidir.

Bunday tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy schotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma asosida ishchi schotlar rejasini ishlab chiqish;

– dastlabki hujjatlar va ularni rasmiylashtirish qoidalari (buxgalteriyaning har bir bo‘limi bo‘yicha, masalan, ish xaqi hisobi, Materiallar hisobi va h.k);

– sintetik va analitik hisob registrlarining korxona sharoitiga mos namunaviy shakllarini tanlash va (yoki) ishlab chiqish;

– zamonaviy EHM, axborot texnologiyalari, dastur ta’minoti va shu kabilar negizida buxgalteriya hisobini komptyerlashtirish;

– sintetik va analitik hisob obyektlari bo‘yicha tasniflagich (kodifiqator)lar tuzish;

– biznesni boshqarishning zamon talablariga javob beradigan malakali buxgalterlar bilan ta’minlash;

– hisob jarayonlarini optimallashtirishga doir tashkiliy-texnik va sanitariya-gigiena tadbirlari;

– ichki nazorat tizimini tashkil etish;

– hisob xodimlari jamoasida ishlab chiqarish munosabatlari madaniyati va mehnat taqsimotini tashkil etish;

– hisobot tuzish va taqdim etishni tashkil etish.

Avtomatlashtirilgan hujjatlar aylanishini tashkil etish tizimi belgilangan darajada strategik boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatlaydi, barcha turdagi va shakllardagi, jumladan, audio va videohujjatlarga ham ishlov berish imkoniyatini hamda boshqa quyi tizimlar bilan muvofiqlikni ta’minlaydi. Mazkur hujjatlar aylanishining afzalligi hujjatlar aylanishining ko‘p pog‘onali iyerarxik tuzulmasini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Pirovard natijada, avtomatlashtirilgan hujjatlar aylanishini tashkil etishda bunday yondashuvlarni amalga oshirish-bu korxonada buxgalteriya hisobini yo‘lga quyishning yangi sifat bosqichiga, natijada, samaraliroq boshqaruv darajasiga o‘tish demakdir.

4.3. Hisob siyosatini o‘zgartirish

Hisob siyosati, qoidaga ko‘ra, hisobot davri davomida o‘zgartirilmasligi lozim.

Hisob siyosatini o‘zgartirishga quyidagi shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi:

- O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik yoki buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi davlat organi me’yoriy hujjatlarining o‘zgarishi;

- korxona moliya-xo‘jalik faoliyatining ayrim uchastkalarida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi usullari ishlab chiqilishi;

- korxona faoliyatining jiddiy o‘zgarishi.

Bunda moliyaviy hisobotdan manfaatdor foydalanuvchilar qo‘llash to‘g‘risida moliyaviy ahvolni, pul oqimlarini yoki moliyaviy natijalarni ishonchli baholash mumkin bo‘lmagan, buxgalteriya hisobini yuritish usullari muhim deb e’tirof etiladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli, pul mablag‘larining xarakati yoki faoliyatining natijalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan yoki ko‘rsata oladigan hisob siyosatini o‘zgartirish oqibatlari pul ifodasida baholanadi. Hisob siyosatini o‘zgartirish oqibatlarini pul ifodasida baholash buxgalteriya hisobining o‘zgartirilgan usuli qo‘llanila boshlagan sanaga, korxona tomonidan chiqarilgan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Hisob siyosatini o‘zgartirish oqibatlarini aks ettirish hisobot davri uchun tegishli ma’lumotlarni hisobot davridan oldingi davrdagi moliyaviy hisobotga kiritishdan iborat. Ko‘rsatilgan tuzatishlar faqat moliyaviy hisobotda aks ettiriladi. Bunda hech qanday buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi.

Hisob siyosatini o‘zgarishini hisob siyosatidan oldingi davrga nisbatan pulda ifodalash unchalik ishonchli amalga oshirilmaganda buxgalteriya hisobini yuritishni o‘zgartirilgan usuli faqat bunday usul kiritilgan xo‘jalik faoliyati faktlarga muvofiq qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining taqqoslanuvchanligini ta’minlash maqsadida hisob siyosatiga o‘zgartirishlar yilning 1-yanvaridan ya’ni moliya yilining boshidan kiritilishi lozim.

Hisobot yilidan keyingi yil uchun hisob siyosatiga kiritilgan o‘zgartirishlar moliyaviy hisobotni tushuntirish xatida izoh beriladi. Korxona faoliyatida birinchi marta vujudga kelgan yoki oldin mavjud bo‘lgan faktlardan mohiyatan farq qiladigan xo‘jalik faoliyati faktlarini buxgalteriya hisobida yuritish usulini tasdiqlash hisob siyosatining o‘zgartirishi hisoblanmaydi.

4.4. Buxgalteriya hisobini tashkil etishga quyiladigan talablar

Qishloq xo‘jalik korxonalarida buxgalteriya hisobi oldiga quyilgan vazifalar faqat u to‘g‘ri va oqilona tashkil etilganidagina muvaffaqiyatli

hal etilishi mumkin. Buxgalteriya hisobini tashkil etishda yo‘l quyilayotgan xato-kamchiliklar butun hisob siyosatining, xususan, hisob ishlarining orqada qolishi, hisobotlarni va boshqa axborotlarni taqdim etishda kechikishlarga olib keladi. Buxgalteriya hisobi va iqtisodga oid axborotlarning vujudga kelishi hamda undan foydalanish vaqti o‘rtasidagi katta uzilishlar korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiladi. Buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi kamchiliklar uning chigallashuviga, tovar-moddiy boyliklarning talon-taroj bo‘lishi va boshqa suiste’molliklar, ma’muriy – boshqaruv xarajatlarining ko‘payishiga olib keladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish deganda korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida ishonchli va o‘z vaqtida axborotlar olish hamda ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulotlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida-hisob jarayonining shart-sharoitlar tizimi va ular elementlarining tuzilishi tushuniladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimining asosiy elementlari dastlabki hisob va hujjatlar aylanishi, inventarizatsiya, hisob-kitob ishlarining tashkiliy shakllari, hisobotlarning hajmi va mazmuni hamda hisob siyosatidan iborat bo‘lishi lozim (4.3 – rasm).



4.3 - rasm. Buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimining asosiy elementlari

Korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarish talablariga muvofiq, buxgalteriya apparatining oldiga quyidagi talablar quyiladi :

– korxona faoliyati va uning natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotlarni shakllantirish;

– korxonaning faoliyatini nazorat qilish va boshqarish uchun ichki va tashqi foydalanuvchilarni zarur axborotlar bilan ta’minlash;

– moliya-xo‘jalik faoliyatidagi noxush holatlarning o‘z vaqtida oldini olish, ichki imkoniyatlarni aniqlash va safarbar etish;

– korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini hisobda to‘g‘ri aks ettirish;

– korxona xodimlarining mehnatiga haq to‘lashni nazorat qilish;

– moliyaviy hisobotni tuzish uchun zarur ma’lumotlarni olish va o‘z vaqtida taqdim etish.

Belgilangan vazifalarni hal etish jarayonida korxona hisob siyosatida belgilangan talablarga rioya qilish zarur (4.4- rasm).

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 7-moddasiga muvofiq, «Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni korxona, muassasa va tashkilot rahbari amalga oshiradi»[6]. Bunda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobot tizimini tashkil etish uchun mas'ul bo‘lib, u hisob ishlarining hajmidan kelib chiqqan holda ma’lum huquqlarga ega.



4.4 -rasm. Buxgalteriya hisobini tashkil etish oldiga quyiladigan asosiy talablar

Amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari kamdan-kam hollarda buxgalteriya hisobini o‘zi yuritadi. Odatda, bu vazifani buxgalteriya apparati yoki yollangan buxgalter bajaradi. Bu holda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish uchun

[6]O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni 7-modda.

barcha zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi, barcha bo‘linmalar va buxgalteriya hisobiga aloqador xodimlar tomonidan belgilangan talablarning bajarilishini ta’minlashi lozim. Bunda rahbar quyidagi huquqlarga ega:

- «bosh buxgalter rahbarligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalteriya xizmatidan foydalanish;
- buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan buxgalteriya markaziga yoki tarkibiga buxgalteriya subyekti ham kiradigan xo‘jalik birlashmasining markazlashtirilgan hisobga olish bo‘limiga yuklash;
- buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish»[7].

Shuningdek, rahbar quyidagilarni ta’minlashi shart:

- « – ichki hisob va hisobot tizimini ishlab chiqilishini;
- xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibini;
- buxgalteriya hisobi to‘liq va aniq yuritilishini;
- hisob-kitob hujjatlarining saqlanishini;
- tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotning tayyorlanishini;
- soliq hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;
- hisob-kitoblar o‘z vaqtida amalga oshirilishini»[8].

4.5. Buxgalteriya hisobini tashkil etishni rejalashtirish tizimi

Buxgalteriya hisobini oqilona tashkil etishni ta’minlashda rejalashtirish tizimi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, alohida ish turlari bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish va bajarishni o‘z ichiga oladi (4.5-rasm).

Hujjatlashtirish rejasida xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlar blankalariga bo‘lgan ehtiyoj hisob-kitobi tuziladi. Bunda xo‘jalik yurituvchi subyekt dastlabki hujjatlarning namunaviy shakllaridan foydalanishi yoki o‘zi mustaqil ishlab chiqqan hujjat shakllarini qo‘llashi mumkin.

Dastlabki hujjatlar blankalariga bo‘lgan ehtiyoj aniqlanganidan so‘ng ularni sotib olishga yoki bosmaxonada chop etishga buyurtma beriladi. Dastlabki hujjatlar blankalari bilan markazlashtirilgan holda

[7] Shu yerda
[8] Shu yerda

ta’minlashda ularni olish uchun yuqori tashkilot tomonidan buyurtma beriladi.

Dastlabki hujjatlarning namunaviy shakllari ham, korxonada ishlab chiqilgan shakllari ham O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi qonunida ko‘zda tutilgan talablarga rioya qilgan holda tuziladi.

Dastlabki hujjatlarni tashkil etishning asosi korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan hujjatlar aylanishi grafigi hisoblanadi.

Inventarizatsiya o‘tkazish rejasida rejadagi va rejadan tashqari inventarizatsiyalarni o‘tkazish tartibi, shakllari va muddatlari ko‘rsatiladi. Inventarizatsiya rejasi aktivlar va majburiyatlarni tekshirish korxonaning normal ishlashiga ta’sir ko‘rsatmaydigan qilib tuziladi. Rejadan tashqari inventarizatsiya o‘tkazish muddatlari moddiy javobgar shaxslarga bildirilmasligi lozim.

Hisobot taqdim etish rejasida quyidagilar ko‘rsatiladi: hisobot shakllari, u yoki bu hisobot tuzilishi lozim bo‘lgan hisobot davri, hisobotlarni topshirish muddatlari, korxona, tashkilot va muassasa nomi va manzili hamda hisobotni qabul qiluvchi mansabdor shaxs familiyasi va ismi-sharifi, hisobotlarni taqdim etish usuli (elektron, pochta va b.) va hisobotlarni tuzish uchun mas’ul shaxslarning familiyasi va ismi-sharifi, ular bajaradigan ishlar aniq ko‘rsatilgan holda. Hisobot rejasi qoidaga ko‘ra, ikki qismdan iborat.

Birinchi qismda tashqi foydalanuvchilarga taqdim etiladigan, ikkinchi qismda korxonaning alohida bo‘linmalaridan olinadigan hisobotlar bo‘yicha zarur ma’lumotlar keltiriladi.

Buxgalteriya hisobini texnik rasmiylashtirish rejasida mazkur korxonada qo‘llaniladigan hisob shaklining batafsil tavsifi keltirilib, korxonada qanday elektron hisoblash mashinalari, qurilmalar va boshqa texnik vositalardan foydalanilishi ko‘rsatiladi. Buxgaletriya hisobining shaklini tanlashda mazkur masalaga oid yo‘riqnomalar va ko‘rsatmalardan foydalanish, korxona faoliyatining muayyan shart-sharoitlarini hisobga olish, buxgalteriya hisobi amaldagi shakllarining afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganish tavsiya etiladi.

Buxgalteriya hisobini texnik jihozlash rejasida hisobni kompyuterlashtirish masalasiga alohida o‘rin ajratish lozim. Elektron hisoblash mashinalaridan foydalanish bilan birga, turli hisoblash jadvallari va mexanik o‘lchagich vositalari (o‘lchagich idish, tarozi va h.k.)dan ham foydalanish zarur.



4.5-rasm. Alohida ish turlari bo‘yicha rejalar

Buxgalteriya xodimlarining mehnatini tashkil etish rejasida buxgalteriya apparatining tuzilishi va shtat jadvali aniqlanib, har bir xodimga lavozim yo‘riqnomasi ishlab chiqiladi, ularning malakasini oshirish bo‘yicha tadbirlar belgilanadi, hisob ishlarining grafiklari tuziladi (4-8- ilovalar).

Buxgalteriya apparatining tuzilmasini va uning alohida bo‘linmalar bilan aloqa qilish shakllarini aniqlashda buxgalteriya hisobini markazlashtirilgan yoki markazlashtirilmagan shaklda tashkil etish to‘g‘risidagi masalani hal etish zarur.

Markazlashtirilgan buxgalteriya hisobida korxonaning hisob apparati markaziy buxgalteriyada jamlanadi va unda alohida bo‘linmalar (bo‘lim, omborxona va h.k.)dan kelib tushuvchi dastlabki va yig‘ma hujjatlarga asosan sintetik va analitik hisob bitta joyda amalga oshiriladi. Korxona bo‘linmalarida esa faqat xo‘jalik operatsiyalari dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Markazlashtirilmagan buxgalteriya hisobida hisob apparati korxonaning alohida bo‘linmalariga tarqatilib, u yerda sintetik va analitik hisob amalga oshiriladi hamda bo‘linma, bo‘lim va boshqa tarkibiy bo‘linmalarning balans va hisobotlari tuziladi. Bu holda markaziy buxgalteriya tarkibiy bo‘linmalarning balans va hisobotlarini umumlashtirib, butun korxona bo‘yicha yig‘ma balans va hisobotlarni tuzadi hamda tarkibiy bo‘linmalarda buxgalteriya hisobi va hisobotning yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, buxgalteriya hisobini markazlashtirish bosh buxgalter tomonidan rahbarlik va nazorat qilishning ta’sirchanligini ta’minlaydi, hisob xodimlari o‘rtasida mehnat taqsimotini maqsadga muvofiq amalga oshirish va EHM dan samarali foydalanishga imkon beradi. Shuning uchun, buxgalteriya hisobini faqat yirik korxonalarda markazlashtirilmagan holda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Aksariyat korxonalarda markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimi qo‘llaniladi. Ayrim korxonalarda muayyan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda qisman markazlashtirilmagan buxgalteriya hisobi tashkil etilib, tarkibiy bo‘linmalarda dastlabki hujjatlarni tuzishdan tashqari ayrim sintetik schotlar bo‘yicha analitik hisob yuritiladi, xarajatlar hisobi amalga oshiriladi, mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqiy tannarxi hisoblanadi va h.k. Lekin, tarkibiy bo‘linmalarda yakuniy buxgalteriya hisobi yuritilmaydi. Balans hamda boshqa hisobot shakllari tuzilmaydi.

Buxgalteriya xodimlarining mehnatini tashkil etishda, hisob ishlarining grafigini tuzish muhim bosqich hisoblanadi.

Hisob ishlari grafiklarining asosiy maqsadi xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, ishlarning bajarilish muddatlarini aniqlash bo‘lib, hisob xodimlarining mehnatini ilmiy tashkil etish bo‘yicha tadbirlar belgilanmoqda. Bunday grafiklar individual, tuzilmaviy va yig‘ma bo‘lishi mumkin.

Individual grafiklar (kalendar rejalar)da har bir hisob xodimi tomonidan qanday ishlar va ular qaysi muddatlarda bajarilishi ko‘rsatiladi. Grafikda xodimning ish kuni davomida va undan uzoqroq davrlarda (xafta, oy, chorak va h.k.) band bo‘lishi ta’minlanadi.

Tuzilmaviy grafiklarda buxgalteriyaning yoki korxonaning alohida tarkibiy bo‘linmalari (hisob-kitob bo‘limi moddiy bo‘lim, omborxona va h.k.) tomonidan qanday ishlar va qaysi muddatlarda bajarilishi lozimligi ko‘rsatiladi.

Yig‘ma grafikda butun korxona bo‘yicha alohida hisob ishlarini bajarish (inventarizatsiya o‘tkazish, moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarni tuzish va sh.k.) muddatlari ko‘rsatiladi. Unda korxona bo‘yicha butun hisob-jarayoni umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Uning bajarilishi uchun korxona bosh buxgalteri mas'ul hisoblanadi. Hisob ishlarining grafigi jadvallar ko‘rinishida tuzilib, ularda rejalashtirilgan ishlarning bajarilish muddatlari to‘g‘risida belgi quyish ko‘zda tutiladi.

4.6. Buxgalteriyaning tashkiliy tuzilmasi

Buxgalteriya korxonani zarur va mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, uni bosh buxgalter boshqaradi. Buxgalteriya apparatining tuzilishi korxonaning boshqaruv tuzilmasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, hisob ishlarining hajmi va texnik vositalar mavjudligiga bog‘liq. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda buxgalteriya tuzilmasini tashkil etishning asosiy 3 ta tipi shakllangan (4.6-rasm).

Buxgalteriya chiziqli tashkil etilganda barcha buxgalteriya xodimlari bevosita bosh buxgalterga bo‘ysunadi. Bundan buxgalteriya apparati tuzilmasi xodimlar soni 7-9 kishidan iborat bo‘lib, uncha katta bo‘lmagan korxonalarda qo‘llaniladi.



4.6-rasm. Buxgalteriyaning tashkiliy tuzilmasi

Buxgalteriya bajariladigan hisob ishlarining funksional belgisi bo‘yicha tashkil etilganida bo‘limlar (guruhlar) tuziladi. Masalan, mehnat haqi hisoblash bo‘limi; moddiy bo‘lim, nafaqa bo‘limi kabilar bo‘lib, ularga katta buxgalter boshchilik qiladi.

Bu holda bosh buxgalterning farmoyishlari tegishli bo‘lim (guruh)larning katta buxgalterlariga etkazilib, ular aniq bajaruvchini tayinlaydi va nazorat qiladi. Buxgalteriyaning bunday tuzilmasi ko‘plab o‘rta va ayrim yirik korxonalarda qo‘llaniladi. Bajariladigan hisob ishlarining funksional belgisi bo‘yicha tashkil etilgan buxgalteriyaning taxminiy tuzilmasi 4.7-rasmda keltirilgan.

Sanab o‘tilganlardan tashqari agrofirmalarda odatda, idishlarni hisobga olish, asosiy vositalar hisobi, hisob-kitob guruhlari bo‘linib, ularda debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar, yig‘ma-analitik guruh va boshqalar yuritiladi.

Buxgalteriya korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha tashkil etilganida har bir tarkibiy bo‘linmada (bo‘linma, bo‘lim, yordamchi xo‘jalik va ishlab chiqarishlar va h.k.) buxgalteriya tashkil etiladi. Bu holda, bunday buxgalteriyaga katta buxgalterlar tayinlanib, ular o‘z

bo‘linmasida hisobni tashkil etish bilan mustaqil shug‘ullanadilar. Buxgalteriya apparatini tashkil etishning bunday shakli juda katta korxonalarda va ishlab chiqarish birlashmalarida qo‘llaniladi.



4.7-rasm. «Mehnat» agrofirmasi buxgalteriyasining funksional belgi bo‘yicha tuzilishi

Buxgalteriya apparatining ishi korxonaning barcha bo‘limlari faoliyati bilan bog‘liq. Buxgalteriya xodimlari ulardan hisobni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan u yoki bu ma’lumotlarni oladilar (4.8-rasm).

Tarkibiy bo‘linmalar	Bo‘linmalar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning nomlari va tarkibi
Bo‘linmalar	Alohida xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha hujjatlar, ishlab chiqarish hisobotlari, Materiallar harakati to‘g‘risida hisobot va boshqalar
Omborxo-nalar	Tovar moddiy boyliklar harakati bo‘yicha hujjatlar
Reja-moliya bo‘limi	Korxona faoliyatining turlari bo‘yicha tasdiqlangan reja ko‘rsatkichlari (xarajatlar va daromadlar smetasi) va boshqalar

Mehnat va ish haqi bo‘limi	Mehnatga haq to‘lash va ayrim toifa xodimlarini mukofotlash to‘g‘risida nizom, maosh stavkalari, okladlar, shtatlar va boshqalar
Kadrlar bo‘limi	Ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish va lavozimini o‘zgartirish to‘g‘risida buyruqlar, xodimlar ro‘yxati va boshqalar
Muhandis-lik-texnika bo‘lim	Qurilmalarning xarakati va ularni ta’mirlash, avtotransport va boshqalarga doir hujjatlar

4.8-rasm. Korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha tashkil etish

Buxgalteriya korxona va uning alohida bo‘linmalari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni korxona (bo‘linma) rahbariyatiga va korxona boshqaruviga, menejyerlarga va boshqa axborot foydalanuvchilarga muntazam ravishda taqdim etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. «Korxonaning hisob siyosati» tushunchasining mazmunini ochib bering.
2. Hisob siyosati qanday vazifalarni hal etadi?
3. Hisob siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini aytib bering.
4. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini boshqarish tizimi qanday?
5. Buxgalteriya hisobini uslubiy ta’minlashning mohiyati nimadan iborat?
6. Buxgalteriya hisobini tashkiliy ta’minlashning mazmunini ta’riflang.
7. Buxgalteriya hisobining texnik ta’minoti deganda nimani tushunasiz?
8. Hisob siyosati qanday hollarda o‘zgartiriladi?

NAZORAT TESTLARI

1. Hisob siyosati nima va u qaysi buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) asosida ishlab chiqiladi?

A) Hisob siyosati – bosh buxgalter tanlab oladigan asosiy qoidalar majmuidir. 4-sonli «Tovar-moddiy zahiralar» nomli BHMS

B) Hisob siyosati-rahbar tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tayyorlash hamda tuzish uchun foydalaniladigan maxsus tamoyillar, qoidalar va amaliy yondashuvlar to‘plamidir. 1-sonli «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli BHMS

S) Hisob siyosati-xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan berilgan ko‘r- satmalar yig‘in-disidir.5-sonli «Asosiy vosi- talar» nomli BHMS

D) Hisob siyosati-korxonaning bir yilda qiladigan ishlari majmuidir. 1-sonli «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli BHMS

2. Hisob siyosatini shakllantirish jarayoni bosqichlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Hisob siyosatini ishlab chiqish uchun kyerak buxgalteriya hisobi obyektlarini aniqlash; unga ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlarni o‘rganish; birlamchi qoidalarni tanlash va asoslash, dalolatnoma tuzish

B) Inventarizatsiya komissiyasi tuzish; hisob siyosatini tayyorlash; zarur usullar va amallarni tanlash; hisob siyosatini rasmiylashtirish

S) Hisob siyosatini ishlab chiqish uchun zarur buxgalteriya hisobi obyektlarini aniqlash; ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar; birlamchi qoidalarni tanlash va asoslash, hisob siyosatini tuzish; zarur usullar va amallarni tanlash; hisob siyosatini rasmiylashtirish (buyruq, farmoyish)

D) Buxgalteriya hisobi obyektlarini aniqlash; ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlarni o‘rganish; qoidalarni tanlash va asoslash; inventarizatsiya dalolatnomasi tuzish

3. Hisob siyosatini shakllantirish tamoyillari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) To‘liqlik, o‘z vaqtidalik, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustuvorligi, muvofiqlik, oqilonalik

B) ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik, hisoblash, aniqlik, muvofiqlik, ehtiyotkorlik

S) O‘z vaqtidalik, to‘liklik, hisobot davrida daromad va xarajatlarning muvofiq kelishi, uzluksizlik, hisoblash, tanlash

D) Aniqlik, to‘g‘rilik, uzluksizlik, ehtiyotkorlik, hisoblash, ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, ehtiyotkorlik

4. Hisob siyosati buxgalteriya hisobi tizimining qaysi jihatlarini qamrab oladi?

A) Tashkiliy, siyosiy va texnik jihatlar

B) Metodik, tashkiliy va ijtimoiy jihatlar

S) O‘z vaqtidalik, to‘liqlik va aniqlik jihatlari

D) Uslubiy, tashkiliy va texnik jihatlar

5. Hisob siyosati hisobot davri davomida o‘zgartiriladimi?

A) Hisobot davri davomida o‘zgartilmasligi lozim

B) Hisobot davri davomida o‘zgartiriladi

S) Hisobot davri davomida qisman o‘zgartiriladi

D) Hisobot davri davomida butkul o‘zgartiriladi

6. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan, necha moddadan iborat?

A) 1996 yil 30 aprel, 29 modda

B) 1998 yil 30 may, 26 modda

S) 1997 yil 30 aprel, 24 modda

D) 1996 yil 30 avgust, 24 modda

7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish kimning zimmasiga yuklanadi?

A) Xo‘jalik yurituvchi subyekt bosh iqtisodchisining

B) Xo‘jalik yurituvchi subyekt bosh buxgalterining

S) Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining

D) Xo‘jalik yurituvchi subyekt taftish komissiyasi raisining

8. Buxgalteriya hisobini tashkil etishga quyiladigan asosiy talablar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Sintetik va analitik hisobning tengligi; moliyaviy natijalarni hisobot davrlarida to‘g‘ri aks ettirish; buxgalteriya hisobi ishlarining hajmini aniq belgilash

B) Xo‘jalik operatsiyalarini hisobda to‘liq aks ettirish; hisobda joriy xarajatlar va kapital quyilmalarni alohida hisobga olish; daromad va xarajatlarni hisobot davrlariga to‘g‘ri olib borish; sintetik va analitik hisobning tengligi

S) To‘liqlik, o‘z vaqtidalik, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustuvorligi, muvofiqlik, oqilonalik

D) Hisobda joriy xarajatlar va kapital quyilmalarni alohida hisobga olish; daromad va xarajatlarni hisobot davrlariga to‘g‘ri olib borish; buxgalteriya hisobi ishlarining hajmini aniq belgilash

V BOB. BAHOLASH VA TA’MINOT JARAYONINI HISOBGA OLISH

5.1. Baholashning mohiyati, ahamiyati va tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» qonunining 4-moddasiga muvofiq barcha asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar hamda moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa tomonlari buxgalteriya hisobining obyektlari hisoblanadi.

Ushbu hisob obyektlarini yagona o‘lchov – *pul o‘lchovi*ga keltirish uchun ularni baholash ya’ni pulda ifodalash zarur.

Baholash – bu hisob obyektlarini natural o‘lchovlardan pul o‘lchoviga o‘tkazish usulidir. Baholash tufayligina buxgalteriya hisobida har xil o‘lchovlarda ifodalangan hisob obyektlarini umumlashtirishga muvaffaq bo‘linadi. Masalan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsiyalar, Materiallar, chet el valutasi va hokazolar bitta umumlashtiruvchi o‘lchov – pul o‘lchovida ifodalanadi.

Baholash yordamida xo‘jalik mablag‘lariga sarflangan va xo‘jalik jarayonlarida iste’mol qilingan, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlarini haqqoniy aks ettirish ta’minlanadi. Shuning uchun buxgalteriya hisobida xo‘jalik mablag‘larini baholashning negizini ularning haqiqiy tannarxini hisoblash tashkil etadi. Tannarx shakllanishi va ishlab chiqarishning alohida uchastkalaridagi boshqa qiymat o‘lchovlarining shakllanishi to‘g‘risida to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun baholashning boshqa usullari ham qo‘llaniladi. Masalan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ularni sotib olish, qurish va barpo qilish dastlabki qiymati bo‘yicha hamda eskirishi chegirib tashlangan qoldiq, ya’ni sof qiymati bo‘yicha baholanadi. Eskirish yoki amortizatsiya hisoblash asosiy vositalarning bahosini aniqlashtirish usuli hisoblanadi. Xom-ashyo va Materiallar, boshqa tovar-moddiy zaxiralari haqiqiy tannarxi bilan bir qatorda ulgurji narxlari, normativ tannarxi bo‘yicha; tayyor mahsulotlar-ishlab chiqarish reja tannarxi va normativ tannarxi bo‘yicha baholanadi. Ish haqi hisoblash mohiyatiga ko‘ra mehnat o‘lchovini pul o‘lchoviga o‘tkazish usuli hisoblanadi.

Xo‘jalik mablag‘larini baholash uchun haqiqiy tannarx faqat ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish natijasida olinishi mumkin. Hisob-kitob asosida tannarxni aniqlash usuliga kalkulyatsiyalash deb ataladi. Baholash va kalkulyatsiyalash buxgalteriya hisobi metodining asosiy usullaridan bo‘lib, ularsiz buxgalteriya hisobining muhim umumlashtiruvchi qiymat o‘lchovlari to‘g‘risidagi axborotlarni shakllantiradigan tizim sifatidagi asosiy tavsifi ro‘yobga chiqmaydi. Yerkin iqtisodiyot sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt aktivlari, passivlari, xo‘jalik jarayonlari va ularning natijalari o‘zlarining aniq ifodasini qiymat shaklida aks ettirishi lozim. Xarajatlar va ishlab chiqarish natijalari, soliq, bank va boshqa kredit muassasalari, korxonalar hamda tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlar, xodimlar bilan hisob-kitoblar, xususiy kapital va kapital quyilmalarning harakati faqat qiymat shaklida aks ettirilishi mumkin va tegishli tarzda baholashni talab etadi.

Demak, baholash va kalkulyatsiya korxona aktivlari, passivlari hamda xo‘jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tizimining ajralmas qismidir. Ta’minot jarayonini buxgalteriya hisobida aks ettirish Materiallarni tayyorlash tannarxini aniqlash bilan yakunlanib, ular ishlab chiqarishga shu tannarx bo‘yicha beriladi. Ishlab chiqarish jarayonini buxgalteriya hisobida aks ettirish natijasida tayyor mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi aniqlanib, ular shu tannarx bo‘yicha sotiladi. Realizatsiya jarayonini buxgalteriya hisobida aks ettirish natijasida mahsulot(ish, xizmat)larning to‘la tannarxiga qo‘shilmaydigan realizatsiya xarajatlari hamda realizatsiya ning moliyaviy natijasi aniqlanadi.

Xo‘jalik mablag‘lari va ularning vujudga kelishi manbalari alohida elementlar bo‘yicha buxgalteriya hisobi schotlarida pul ifodasida aks ettiriladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi: o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lar va ularning harakati; xo‘jalik jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari; xo‘jalik munosabatlari ya’ni mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar, xaridorlar, davlat budjeti va shunga o‘xshashlar bilan bo‘ladigan hisob-kitob munosabatlari. Byudjetdan moliyalashtiriladigan subyektlarda ayrim o‘ziga xos hisob obyektlari mavjud. Bularga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar; byudjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan qilingan sarflar (tasdiqlangan smetalar bo‘yicha); pullik va hisob-kitob muomalalari misol bo‘ladi.

Xo‘jalik faoliyatining tartibga solinishi talab va taklif ta’siri ostida kechadigan bozor iqtisodiyoti sharoitida mulklar va majburiyatlar haqqoniyligi va birligining asosiy tamoyillari ularni baholashning to‘g‘riligini belgilaydi.

5.2. Asosiy hisob obyektlarini baholash usullari

Buxgalteriya hisobida baholanishi lozim bo‘lgan asosiy obyektlarni quyidagicha turkumlash mumkin (5.1-rasm):



5.1-rasm. Baholanadigan asosiy hisob obyektlari

Mulklar va majburiyatlar hamda xo‘jalik jarayonlarini baholash mamlakat hududida amal qilayotgan milliy valuta, ya’ni so‘mda amalga oshiriladi. Agar ular xorijiy valyutada ifodalangan bo‘lsa, u holda uni xo‘jalik muomalasi sodir bo‘lgan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki o‘rnatgan rasmiy kurs bo‘yicha so‘mga aylantiriladi. Bir vaqtning o‘zida ko‘rsatilgan yozuvlar hisob-kitob va to‘lov hujjatlarida xorijiy va milliy valyutada aks ettiriladi.

Shuning uchun baholash xalqaro standartlar bilan qat’iy belgilab quyilmagan bo‘lsada, buxgalteriya hisobining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Hisob obyektlarining xo‘jalik muomalasini hisobga qabul qiladigan sanadagi dastlabki bahosi bilan bir qatorda baholashning

boshqa usullari ham qo‘llaniladi. Boshqa baholash usullarini qo‘llashning zarurati eng avvalo, inflyatsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Shuning uchun baholashning boshqacha usullaridan foydalanish dastlabki bahoni real mahsulot, ish va xizmatlarni takror ishlab chiqarish xarajatlarining hozirgi holatiga yaqinlashtirishga yo‘naltirilgan.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida xo‘jalik yurituvchi subyekt obyektlarini baholashning quyidagi uslublari e’tirof etilgan:

- ✓ haqiqiy sotib olish qiymati;
- ✓ tiklash qiymati, ya’ni tegishli aktivlar turlarining, ularni hozirgi sharoitda takror ishlab chiqarishga mos keladigan qiymati;
- ✓ normal bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib, uning oddiy faoliyati sharoitida sotish mumkin bo‘lgan baho;
- ✓ diskontlangan qiymat.

Diskontlangan qiymat muayyan aktivni foydalanishdan yaqin kelajakda olinishi taxmin qilinayotgan iqtisodiy naflar yig‘indisidan iborat. Ayrim hisob obyektlarini bevosita haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobga quyishga to‘sqinlik qilayotgan boshqa bir sabab, ayrim xo‘jalik muomalalarining ommaviy tavsifga ega ekanligi hisoblanadi. Bular asosan moddiy tusdagi, likvidligi yuqori hisoblangan xom-ashyo, asosiy Materiallar, yoqilg‘i va boshqalar. Ma’lumki, ularning joriy hisobi har kuni yuritilib, xo‘jalik muomalalari ko‘p miqdorda sodir bo‘lganida sotib olish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar summasini qayd qilish va berish paytida darhol schotlarda aks ettirish imkoni hamma vaqt ham bo‘lavermaydi. Hisob siklining oxiriga kelib dastlabki hisob hujjatlari bilan tasdiqlangan, ishlab chiqarish zaxiralarining harakati to‘g‘risida aniq va to‘liq axborotga ega bo‘linganida, ushbu baholar haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi. Baholashni aniqlashtirish hisob-kitobining negizida qat’iy hisob baholarining mazkur zaxiralar haqiqiy qiymatidan chetga chiqishining o‘rtacha foizini aniqlash yotadi.

Mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar, turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar joriy hisobda dastlabki hisob hujjatlari bilan tasdiqlangan xo‘jalik muomalalarining mazmunidan kelib chiqadigan summalarda ko‘rsatiladi.

Ayrim hisob obyektlari bo‘yicha ularning dastlabki, nominal bahosi real bahosidan yuqori bo‘lgan hollarda bunday obyektlarning qiymati balansda real bahoda aks ettirilishi lozim.

Shunday qilib, eng umumiy ko‘rinishda baholash iqtisodiy hodisalarni pul o‘lchovida ifodalash usulidir.

Alohida hisob obyektlarining real bahosini noto‘g‘ri hisoblash natijasida iqtisodiy hodisalar faktlari noto‘g‘ri sharhlanadi (interpretatsiyalanadi). Keyinchalik ularni umumlashtirish esa korxona boshqaruv xodimlari tomonidan noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi.

Shunday qilib, haqiqiy tannarx mulklar va majburiyatlarni baholashning asosi bo‘lib hisoblanadi. Uning ko‘lami muayyan nomdagi mahsulot, bajarilgan ish yoki xizmat turini ishlab chiqarish hamda sotish xarajatlarining pulda ifodalanishini bildiradi. Tannarx shakllanishi ichki xo‘jalik hisob-kitobini tashkil etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mahsulot(ish, xizmat)larning sotish bahosi ularning tannarxiga bog‘liq holda shakllantiriladi. Natijada ishlab chiqarishning rentabelligi tannarxga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun menejerlar mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini boshqarishga doimiy e’tibor qaratishlari, baholashning asosiy tamoyillari – reallik va birlik – hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Baholashning boshqa usullari mulklar va majburiyatlarning turlariga bog‘liq. Chunonchi asosiy vositalar ularni takror ishlab chiqarish dastlabki qiymati bilan birga qoldiq va tiklash qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Qoldiq qiymati hisobda asosiy vositalarning real bahosini, ya’ni dastlabki qiymatidan eskirish summasini chegirib tashlagan holda hisoblash uchun qo‘llaniladi. Tiklash qiymati hozirgi haqiqiy xarajatlarni, ularning haqiqiy tannarxini tavsiflaydi. Asosiy vositalarning dastlabki qiymatini tiklash qiymatiga o‘tkazish qayta baholash orqali amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar (xom ashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va b.) qabul qilishda oldin qat’iy hisob baholari bo‘yicha: normativ yoki reja tannarxi hisobot oyi oxiriga ularni tayyorlashning haqiqiy tannarxini hisoblash sharti bilan hisobga olinadi. Tovar-moddiy zaxiralarni sarflashda quyidagi ikkita baholash usulidan bittasi qo‘llaniladi:

1. O‘rtacha haqiqiy tannarx bo‘yicha
2. FIFO usuli bo‘yicha

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish zaxiralarini baholashning quyidagi usullaridan ham foydalaniladi:

1. Keyingi partiyani kirimga olib, birinchisini sarflash (LIFO) usuli
2. Bazis usuli va boshqalar.

5.3. Asosiy xo‘jalik jarayonlarining mazmuni va ta’minot jarayonini hisobga olish

Korxonaning xo‘jalik mablag‘lari doiraviy harakatlanishning turli bosqichlarida bo‘lib, har xil xo‘jalik jarayonlarida: *ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya* jarayonlarida ishtirok etadi.

Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayoni kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy bosqich bo‘lib, aynan shu bosqichda moddiy ne’matlar ishlab chiqariladi. Lekin ishlab chiqarish jarayonidan oldin yaxshi yo‘lga quyilgan ta’minot jarayoni bo‘lmasa, u muvaffaqiyatli amalga oshmaydi.

Ta’minot jarayonida korxona mol yetkazib beruvchilardan asosiy vositalar, xom-ashyo, Materiallar, yoqilg‘ilar va mahsulot ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash uchun zarur bo‘ladigan boshqa buyumlarni sotib oladi. Bunday tovar-moddiy qiymatliklar hisobda haqiqiy tannarxi bo‘yicha aks ettiriladi. Sotib olinadigan tovar-moddiy boyliklarning haqiqiy tannarxi ikkita asosiy miqdor: ularning xarid narxi va transport-tayyorlov xarajatlaridan iborat. *Xarid narxi* – bu xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq mol yetkazib beruvchilar tomonidan to‘ldiriladigan tovar hamda hisob-kitob hujjatlarida (schot-faktura; to‘lov talabnomasi va boshqalar) ko‘rsatilgan qiymatdir. Erkin iqtisodiyot sharoitida tovar-moddiy zaxiralar talab va taklif darajasidan kelib chiqqan holda bozor narxlarida xarid qilinadi.

Transport-tayyorlov xarajatlari tovar-moddiy zaxiralarini mol yetkazib beruvchilardan temir yo‘l, suv transporti yoki avtotransportda tashib keltirish, ularni yuklash va tushirish, tabiiy kamayish natijasida yo‘lda yo‘qolishi hamda ta’minot-savdo korxonalarining ustama xarajatlaridan tashkil topadi. Transport-tayyorlov xarajatlari sanoatning bir qancha tarmoqlarida tovar-moddiy qiymatliklarining sezilarli qismini tashkil etadi. Ularning miqdori yuklarni tashish masofasi, savdo-ta’minot korxonalarining uzoqligi, transport vositalarining turlari va boshqa omillarga bog‘liq. №4-«Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSga muvofiq transport-tayyorlov xarajatlari sotib olingan tovar-moddiy qiymatiga qo‘shiladi.

Ta’minot jarayoni korxonaning ta’minot rejasi (grafigi) asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat: korxona tomonidan sotib olinadigan tovar-moddiy qiymatliklarning miqdori, muddati, turlari va hokazo. Shu munosabat bilan ta’minot

jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari ta’minotning haqiqiy hajmini va sotib olinadigan tovar-moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarxini aniqlashdan iborat. Buxgalteriya hisobining analitik va sintetik schotlari tizimida sotib olinadigan tovar-moddiy qiymatliklarining miqdori va turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllanib, ular ta’minot jarayonini miqdor va qiymat jihatidan nazorat qilishni ta’minlaydi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimidan korxonaning barcha turdagi tovar-moddiy qiymatliklarini sotib olish hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham olish mumkin.

Tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olish uchun 1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (1010-«Xom-ashyo va Materiallar», 1020-«Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar», 1030-«Yoqilg‘ilar», 1040-«Ehtiyot qismlar», 1050-«Qurilish Materiallari», 1060-«Idish va idish Materiallari» va boshqa schotlar) mo‘ljallangan. Tovar-moddiy qiymatliklarni sotib olish uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq xaridor mol yetkazib beruvchiga ko‘rsatilgan summaning kamida 15%ini oldin to‘lov yo‘li bilan o‘tkazib berishi lozim. Buning uchun xaridor bankka to‘lov topshiriqnomasi (shartnoma va mol yetkazib beruvchi taqdim qilgan schot-fakturani ilova qilgan holda) taqdim etadi. So‘ngra mol yetkazib beruvchining yukni kuzatuvchi hujjatlariga muvofiq xaridor korxonada kirim hujjatlari rasmiylashtirilib, omborga kirim qilinadi va xarid narxiga yuqorida qayd qilingan schotlardan tegishlisi debetlanadi. Tovar-moddiy qiymatliklarga tegishli transport-tayyorlov xarajatlari ham ushbu schotlarga olib boriladi. Shunday qilib, tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga oladigan schotlarning debet oboroti ta’minotning haqiqiy hajmini, ya’ni hisobot davri ichida haqiqatan olingan tovar-moddiy qiymatliklarning umumiy summasini, ularning haqiqiy tannarxi bo‘yicha aks ettiradi. Ushbu schotlarning kreditida esa, tovar-moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarx bo‘yicha sarflanishi ko‘rsatiladi. Ularning qoldiqlari faqat debet tomonida bo‘lib, tovar-moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarxi bo‘yicha omborda mavjudligini bildiradi.

Ta’minot jarayonini boshqarish uchun tayyorlangan tovar-moddiy qiymatliklarning umumiy hajmi ko‘rsatkichidan tashqari keltirilgan Materiallarning har bir turi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham zarur. Bunday ma’lumotlar analitik schotlar yordamida olinadi.

Analitik hisobda, qoidaga ko‘ra, tegishli material turining shartnoma bahosi bo‘yicha qiymati ko‘rsatiladi. Tovar-moddiy qiymatliklarning harakatini aks ettiradigan dastlabki hujjatlarda faqat material-

larning shartnoma bahosi bo‘yicha qiymati ko‘rsatiladi. Transport-tayyorlov xarajatlari esa barcha Materiallarga taalluqli jami summasi bilan yoziladi. Ushbu xarajatlarning har bir Material turiga to‘g‘ri keladigan ulushi oy oxirida bir marta hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanib, alohida material turlarining haqiqiy tannarxini aniqlash uchun, ularning shartnoma baholari bo‘yicha qiymatiga qo‘shiladi.

Korxonaning mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblari 4300-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schotlar» (4310, 4320, 4330)va «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»da (6010, 6020) aks ettiriladi. 4300-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schotlar» aktiv bo‘lib, ularning debetida tovar-moddiy qiymatliklar, uzoq muddatli aktivlarning yetkazib berilishi va ishlarning bajarilishi uchun o‘tkazilgan bo‘naklar aks ettiriladi. 6000-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» (6010, 6020) passiv bo‘lib, ularning kreditida korxonaning turli mol yetkazib beruvchi va pudratchilardan olingan tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va boshqa aktivlar uchun joriy qarzlari aks ettiriladi. Bu schotlarning debetida to‘langan to‘lov hujjatlarining summalari, ya’ni mol yetkazib beruvchilarga to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarning kamayishi ko‘rsatiladi. 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» (6010, 6020) schotining kredit qoldig‘i mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzlarning joriy qismini bildiradi.

Ta’minot jarayoniga oid xo‘jalik muomalalarini hisobda aks ettirishga doir misollarni ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik, korxonada 1 aprel 2011 yil holatiga Materiallarni hisobga oluvchi schotlarning qoldiqlari quyidagicha:

1010-«Xom ashyo va Materiallar» schoti100000 so‘m.

shu jumladan:

Materiallarning jami summasidan, so‘m hisobida:

«A»Material (3000 kg x 20 so‘m) 60000 so‘m.

«B»Material (1000 kg x 40 so‘m) 40000 so‘m.

Jami : 100000 so‘m.

5110-«Hisob-kitob schoti»90000 so‘m.

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga

to‘lanadigan schotlar»12000 so‘m.

Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq korxonaga 61200 so‘mlik schot taqdim qilingan. Jumladan:

«A» Material – 20000 so‘m (1000 kg x 20 so‘m)
«B» Material – 40000 so‘m (1000 kg x 40 so‘m).
Jami 60000 so‘m
Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish
qiymati korxona hisobidan qoplanadi 1200 so‘m
H a m m a s i: 61200 so‘m

Mazkur korxonada aprel oyi davomida quyidagi ta’minot jarayoniga oid muomalalar sodir bo‘lgan.

1-muomala. Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq 15% bo‘nak o‘tkazildi.

Dt 4310-«TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar
va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schoti9180
Kt 5110-«Hisob-kitob schoti» schoti 9180

2-muomala. Mol yetkazib beruvchilardan quyidagi Materiallar korxonaga keltirilgan, so‘m hisobida:

«A» Material – 20000 so‘m (1000 kg x 20 so‘m)
«B» Material – 40000 so‘m (1000 kg x 40 so‘m).
Jami 60000 so‘m

Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish qiymati korxona hisobiga mol yetkazib beruvchilar tomonidan to‘langan.1200 so‘m
H a m m a s i: 61200 so‘m

Materiallarning shartnoma narxlari bo‘yicha sotib olinishi dastavval 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetiga yoziladi. Materiallarni temir yo‘l orqali tashib keltirish uchun transport-tayyorlov xarajatlarining summasi ham ushbu schotga olib boriladi. Lekin ushbu summalar alohida kolonkalarda aks ettiriladi (1510-schot). Ushbu muomala bo‘yicha 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti kreditlanadi. Chunki, bu schot passiv bo‘lib, sotib olingan Materiallar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan qarzlarning ko‘payishi uning kreditida aks ettiriladi. Shunday qilib, mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan qarzlarning umumiy summasi 61200 so‘mni tashkil etadi.

Dt 1510«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schoti	61200 so‘m.
Kt 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti	61200 so‘m.

Ushbu muomalani rasmiylashtirishda 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotida sotib olingan Materiallarning shartnoma narxlari bo‘yicha qiymati – 60000 so‘m va transport-tayyorlov xarajatlari – 1200 so‘m alohida aks ettiriladi.

3-muomala. Materiallarni temir yo‘l stansiyasidan korxona omboriga tashib keltirganligi uchun transport tashkilotiga 3000 so‘m hisoblandi. Ushbu summa transport-tayyorlov xarajatlarini aks ettiradi va olingan Materiallarning haqiqiy tannarxiga qo‘shilishi lozim. Ushbu xarajatlarning ko‘payishi 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetida ham yozilish mumkin. Ushbu summaga 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti kreditlanadi, chunki uning kreditida transport tashkilotiga bo‘lgan qarzning ko‘payishi aks ettiriladi.

Dt 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schoti 3000 so‘m

Kt 6010-«Mol yetkazib beruvchilar
va pudratchilargi to‘lanadigan schotlar» schoti… … … 3000 so‘m

4-muomala. Sotib olingan Materiallar shartnoma bahosi bo‘yicha (60000 so‘m) omborga kirim qilindi. Ularning kirimi 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» aktiv schotining debetida aks ettiriladi. 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schoti debetida avval aks ettirilgan faktura qiymati (60000 so‘m) uning krediti bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

D-t 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schoti – 60000 so‘m.
K-t 1510-«Materiallarni tayyorlash va
xarid qilish» schoti – 60000 so‘m

Muomalalarni sintetik schotlarda aks ettirish bilan bir vaqtning o‘zida «A» va «B» Materiallarni hisobga oladigan analitik schotlarda ham ularning ulgurji baholari bo‘yicha, ya’ni «A» Material – 20000 so‘m va «B» Material 40000 so‘m aks ettiriladi.

5-muomala. Mol yetkazib beruvchilardan olingan Materiallar bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlariga to‘g‘ri keladigan farq summa (4200 so‘m) aniqlandi (2-muomala bo‘yicha 1200 so‘m Q 3-muomala bo‘yicha 3000 so‘m). Ushbu summa 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debet oboroti (64200 so‘m) va kredit oboroti (60000 so‘m) ni solishtirish natijasida aniqlanadi. Mazkur schotni yopishda farq summa (4200 so‘m) 1610-«Materiallar qiymatidagi farqlar» schotining debetiga olib boriladi, ya’ni:

D-t 1610-«Materiallar qiymatidagi
farqlar» schoti 4200 so‘m

K-t 1510-«Materiallarni tayyorlash
va xarid qilish» schoti 4200 so‘m

6-muomala. Mol yetkazib beruvchilarga shartnomaga muvofiq o‘tkazilgan 15 foizlik oldin to‘lov (bo‘nak) – 9180 so‘m hisobga qabul qilindi:

D-t 6010-"Mol yetkazib beruvchilar va
pudratchilarga to‘lanadigan schotlar" – 9180 so‘m
K-t 4310-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘langan bo‘naklar» schoti– 9180 so‘m.

7-muomala. Hisob-kitob schotidan qarzning qolgan qismini qoplash uchun o‘tkazildi.

Mol yetkazib beruvchilarga ulardan sotib olingan
Materiallar va ular tomonidan qilingan
transport xarajatlari uchun … … … … …52020 so‘m
Transport tashkilotiga Materiallarni temir
yo‘l stansiyasidan korxona omboriga tashib
keltirganligi uchun … … … … … … … … … … 3000 so‘m
J a m i55020 so‘m

Ushbu muomala natijasida mol yetkazib beruvchilarga va transport tashkilotiga qarz kamayishi sodir bo‘ladi, shuning uchun 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schotining debeti va pul mablag‘larini to‘lash natijasida 5110-«Hisob-kitob schoti» ning krediti bo‘yicha kamayish sodir bo‘ladi.

Dt 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va
pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti55020 so‘m.
Kt 5110-«Hisob-kitob schoti»55020 so‘m.

Tayyorlangan har bir Materialning haqiqiy tannarxini aniqlash uchun maxsus hisob-kitob ishlarini amalga oshirish zarur. Buning uchun transport-tayyorlov xarajatlarining sotib olingan Materiallar shartnoma qiymatidagi ulushi(foizi)ni topish kerak. So‘ngra aniqlangan foiz bo‘yicha, analitik schotlar ma’lumotlaridan foydalangan holda transport-tayyorlov xarajatlarining tegishli Material turiga to‘g‘ri keladigan summasi hisoblab chiqiladi. Agar transport-tayyorlov xarajatlarining summasi sotib olingan har bir Material turi bo‘yicha shartnoma bahosiga qo‘shilsa, sotib olingan har bir Material turining haqiqiy tannarxi kelib chiqadi.

Ushbu misolda bir oy ichida sotib olingan Materiallarga taalluqli transport xarajatlarining umumiy summasi 4200 so‘mni (1200Q3000), ya’ni 7,0%ni (4200:60000x100) tashkil etgan.

Materialar turiga tegishli transport-tayyorlov xarajatlarini taqsimlash quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

«A» Materialga q $\frac{20000 \bullet 7,0}{100} = 1400$ so‘m

«B» Materialga q $\frac{40000 \bullet 7,0}{100} = 2800$ so‘m

Sotib olingan Materiallarning haqiqiy tannarxi quyidagicha:

«A» Material– 20000+1400=21400

«B» Material– 40000+2800=42800

Jami: 64200

Sotib olingan Materiallar har bir turi bo‘yicha bir birligining tannarxini aniqlash uchun alohida tannarx hisob-kitobi bajariladi (5.1-jadval)

5.1-jadval

Tayyorlangan mahsulotlar tannarxining hisob-kitobi

Xarajat turlari	«A» Material		«B» Material		Haqiqiy tannarx, jami
	Jami miqdori (1000 kg)	1 kg	Jami miqdo-riga (1000 kg)	1 kg	
Shartnoma bahosi bo‘yicha qiymati	20000	20,0	40000	40,0	60000
Transport-tayyorlov xarajatlari	1400	1,40	2800	2,80	4200
Haqiqiy tannarx bo‘yicha jami	21400	21,40	42800	42,80	64200

Yuqorida keltirilgan tannarx hisob-kitobida nafaqat sotib olingan Materiallar alohida turlarining (21400 so‘m va 42800so‘m), balki bu Materiallar bir birligining (bir kg mos ravishda 21,40 so‘m va 42,80 so‘m) haqiqiy tannarxi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan muomalalarni analitik va sintetik hisob schotlarida chizma tarzida quyidagicha aks ettirish mumkin:

Sintetik schotlarda aks ettirilishi

1010-«Xom-ashyo va Materiallar»

D-t	K-t
1.04.ga qoldiq 100000 so‘m	
4) 60000	

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»

D-t	K-t
6) 9180	1.04.ga qoldiq 12000 so‘m
7) 55020	2) 61200
	3) 3000

5110-«Hisob-kitob schoti

D-t	K-t
S-do: 90000	1) 9180
	7) 55020

4310-«TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar»

D-t	K-t
1) 9180	6) 9180

1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schoti

Debet				Kredit			
Muo-mala №	Shart-noma bahosi	Trans-port tayyor-lov xarajat-lari	Haqi-qiy tan-narxi	Muo-mala №	Shart-noma bahosi	Trans-port tay-yorlov xara-jatlari	Haqi-qiy tan-narxi
1.04. ga qol-diq.	-	-	-				
2)	60000	1200	61200	4)	60000	-	60000
3)	-	3000	3000	5)	-	4200	4200
Oylik oborot	60000	4200	64200	Oylik oborot	60000	4200	64200

1610-«Materiallar qiymatidagi farqlar» schoti

D-t	K-t
5) 4200	

Analitik schotlarda aks ettirilishi

«A» Material

Debet				Kredit			
Muomala sanasi va №	Miqdori. Kg	Bahosi	Qiymati, so‘m	Muomala sanasi va №	Miqdori. Kg	Bahosi	Qiymati, so‘m
1.04. ga qoldiq.	3000	20	60000				
4)	1000	20	20000				

«B» Material

Debet				Kredit			
Muomala sanasi va №	Miqdori. Kg	Bahosi	Qiymati, so‘m	Muomala sanasi va №	Miqdori. Kg	Bahosi	Qiymati, so‘m
1.04.ga qoldiq	1000	40	40000				
4)	1000	40	40000				

Ma’lumki, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarning analitik hisobi har bir mol yetkazib beruvchi bo‘yicha alohida yuritiladi. Misolni soddalashtirish maqsadida ushbu schot bo‘yicha analitik schotlarning ma’lumotlari berilmagan.

Keltirilgan misolda schotlar bo‘yicha oylik oborotlar va qoldiqlar chiqarilmagan. Chunki, mazkur misolni keltirishdan maqsad ta’minot jarayonini hisobga olishning tegishli schotlarda qanday aks ettirilishini ko‘rsatishdan iborat. Misoldan ko‘rinib turibdiki, 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schotida hamda unga ochilgan analitik schotlarda ta’minot

jarayonini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar keltirilgan. Shunday qilib, ushbu schot Materiallar qiymati qismining debet oboroti haqiqiy ta’minot hajmining miqdoriy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ushbu misolni chizma ko‘rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (5.2-rasm).

Ta’minot jarayoni hisobining ko‘rsatkichlari korxonada ta’minot rejasining bajarilishini nazorat qilish imkonini yaratadi. Buning uchun haqiqiy sotib olingan Materiallar reja bilan taqqoslanadi.

Haqiqiy transport-tayyorlov xarajatlarining belgilangan normativlariga mosligini ham shunday tarzda aniqlash mumkin. Ushbu misolda Materiallar shartnoma bahosi bo‘yicha baholanib, transport-tayyorlov xarajatlari esa alohida aks ettiriladi. Bunday tartib tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olishning usullaridan biri hisoblanadi.

Korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlar ishlab chiqarilib, ularni tayyorlash ma’lum xarajatlarni talab etadi. Bunday xarajatlar sirasiga sarflangan Materiallar, yoqilg‘i va boshqa moddiy zaxiralar qiymati, ishchilarning ish haqi, ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, asosiy vositalar eskirishi va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va boshqalar kiradi. Nomlari yuqorida qayd qilingan xarajatlardan tashqari korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham amalga oshiriladi. Ular boshqaruv va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ish haqlari, binolarni isitish va yoritish xarajatlari va boshqalardan iborat. Qilingan xarajatlarning pul ifodasidagi jami summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash buxgalteriya hisobining muhim uchastkalaridan biri hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish rezervlarini topish, Materiallar, pul mablag‘lari va mehnat resurslari ustidan muntazam nazorat o‘rnatishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Korxona tashkilot va muassasa zarur bo‘lgan moddiy boyliklar, ya’ni asbob-uskuna, xom-ashyo va materiallar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar va boshqa moddiy boyliklarni tuzilgan shartnomaga asosan mol yetkazib beruvchilardan oladi. Shartnomada muayyan moddiy boylikning nomi, miqdori, sifati, bahosi, to‘lov shartlari, assortimenti va qaysi oyda olib kelinishi ko‘rsatilgan bo‘ladi.



5.2-rasm. Ta’minot jarayoni hisobining umumiy chizmasi

Ta’minot jarayonini hisobga oluvchi schotlar korxonaning asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xom-ashyo va Materiallar, yoqilg‘i, qurilish Materiallari va o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar bilan qay darajada ta’minlanganligi, sotib olingan, qurilgan, ishlab chiqarilgan mehnat qurollari va buyumlarining haqiqiy tannarxi haqida tegishli ma’lumotlar beradi va ular ustidan to‘la nazorat o‘rnatadi.

Demak, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xom-ashyo va materiallar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar va boshqa mehnat buyumlarining haqiqiy tannarxi mol yetkazib beruvchilarning schot-fakturasida ko‘rsatilgan qiymati, ta’minot tashkilotlariga to‘langan ustamalar, transportga yuklash va tushirish chiqimlari, tashib keltirish uchun transport tashkilotlariga to‘lovlar, mehnat buyumlarini tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat safari chiqimlari, ularni tashib keltirish yo‘lidagi tabiiy kamayish va boshqa chiqimlardan tashkil topadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Baholash tushunchasini ta’riflang.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining axborot tizimini shakllantirish jarayonida baholash qanday o‘rin tutadi?
3. Baholanishi lozim bo‘lgan buxgalteriya hisobi obyektlariga nimalar kiradi?
4. Materiallar kirim qilish paytida qanday baholanadi?
5. Materiallarni chiqim qilish paytida qanday baholash usullari qo‘llaniladi va ularni tavsiflang.
6. Asosiy vositalarni baholashning qanday usullarini bilasiz?
7. Asosiy vositalar obyektining dastlabki qiymati qanday aniqlanadi?
8. Asosiy vositalar obyektining qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?
9. Asosiy vositalar obyektining tiklash qiymati deganda nimani tushunasiz va uni aniqlashda qanday usullar qo‘llaniladi?
10. Nomoddiy aktivlarni baholashning qanday usullarini bilasiz va ularni tavsiflang.
11. Tayyor mahsulotlarni baholashning qanday usullari mavjud va ular qanday qo‘llaniladi?

NAZORAT TESTLARI

1. Baholash haqida tushuncha qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Hisob obyektlarini natural o‘lchovlardan mehnat o‘lchoviga o‘tkazish

B) Hisob obyektlarini natural o‘lchovlardan pul o‘lchoviga o‘tkazish usulidir

S) Hisobot davri davomida o‘zgartilmasligi lozim

D) Hisob obyektlarini mehnat o‘lchovlardan pul o‘lchoviga o‘tkazish

2. Baholanadigan asosiy hisob obyektlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, Materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar

B) Schotlar, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, Materiallar, tayyor mahsulotlar

S) Jarayonlar, rezyerv kapitali, majburiyatlar, Materiallar, tovarlar

D) Subyektlar, asosiy vositalar, majburiyatlar, Materiallar, tayyor mahsulotlar

3. Tovar-moddiy zaxiralarni sarflashda qaysi baholash usullari qo‘llaniladi?

A) FIFO usuli bo‘yicha; sotish bahosi bo‘yicha

B) o‘rtacha haqiqiy tannarx bo‘yicha (AVECO usuli); FIFO usuli bo‘yicha

S) NIFO usuli bo‘yicha; daromad bo‘yicha

D) LIFO usuli bo‘yicha; foyda usuli bo‘yicha

4. Asosiy xo‘jalik jarayonlari qaysi bosqichlarni o‘z ichiga oladi?

A) Ta’minot, tannarx, realizatsiya

B) Ikki yoklama yozuv, sotish**,** pul tushumi

S) Ta’minot, ishlab chiqarish, sotish

D) Inventarizatsiya , ta’minot, sotish

5. Ta’minot jarayoni mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Korxonalarning tayyor mahsulotlarni sotib pul tushumi kelib tushishi va o‘zini ta’minlashi

B) Xo‘jalik yurituvchi subyektning mol yetkazib beruvchilardan Materiallar va asosiy vositalarni sotib olib o‘zini ta’minlashi

S) Korxonalarning mahsulotni ishlab chiqarib tayyor holiga keltirishi va o‘zini ta’minlashi

D) Xo‘jalik yurituvchi subyektning mol yetkazib beruvchilardan qisqa muddatli majburiyatlar va asosiy vositalarni sotib olib o‘zini ta’minlashi

6. Materiallarni harakati bilan bog‘liq hujjatlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Yuk xati, kirim orderi, chiqim orderi, pul cheki, e’lon

B) Yuk xati, to‘lov-topshiriqnomasi, to‘lov-talabnomasi, chek daftarchasi, ariza

S) Yuk xati, buyruq, avans hisoboti, yo‘l varaqasi

D) Yuk xati, ishonchnoma, limit-zabor karta, kirim orderi

7. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Poliz ekinlarini qabul qilish punktlari, meva-sabzavot mahsulotlarini qabul qilish korxonalari, do‘konlar, MTP, avtobaza

B) Paxta tozalash zavodi va punktlari, don qabul qilish punktlari, meva-sabzavotlarni qabul qilish punktlari

S) Neftebaza, qishloq xo‘jalik kimyo, urug‘chilik xo‘jaliklari, avtobaza, MTP, qurilish tashkilotlari

D) Kimyo tashkiloti, o‘g‘it korxonalari, neftbaza, paxta tozalash punktlari, don qabul qilish punktlari, qurilish tashkilotlari

8. Mol yetkazib beruvchilardan asosiy vositalar sotib olinganda shartnoma bahosiga qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 0820 Kt 6010

B) Dt 0830 Kt 6010

S) Dt 0810 Kt 6010

D) Dt 0820 Kt 4310

9. Mol yetkazib beruvchilardan Materiallar sotib olinib kirim qilinganda qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 4310-4390 Kt 6010

B) Dt 6010 Kt 1010-1090

S) Dt 1010- 1090 Kt 6010

D) Dt 1010-1090 Kt 4310-4390

10. Mol yetkazib beruvchilar materiallarni yuklab jo‘natganda qaysi hujjatlar asos bo‘ladi?

A) Shartnoma, yuk xati, to‘lov-topshiriqnomasi

B) Shartnoma, tovar-transport yukxati, schot-faktura

S) Ishonchnoma, naqd pul topshirish haqidagi e’lon, kassa kirim orderi

D) Schot-faktura, avans hisoboti, to‘lov talabnomasi.

VI BOB. ASOSIY ISHLAB CHIQARISH JARAYONI HISOBI VA MAHSULOT (ISH, XIZMAT) LAR TANNARXINI KALKULYATSIYALASH

6.1. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishni tashkil etish

Korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati uning uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari, xom-ashyo, asosiy materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yordamchi materiallar, asbob-uskunalar, imorat, inshoot va boshqa moddiy boyliklar bilan ta’minlangandan so‘ng boshlanishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan mehnat buyumlariga kishilar mehnat qurollari bilan ta’sir qilib, mehnat buyumlarining shakl va ko‘rinishlarini o‘zgartiradi, natijada ishlab chiqarish xarajatlari paydo bo‘ladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotning asosini tashkil qiladigan mehnat buyumlarining qiymati, ularning shaklini o‘zgartirishga ta’sir qilgan ishchilar ish haqi va ish haqiga nisbatan hisoblangan har xil ajratmalar summasi, mehnat buyumlariga ta’sir qilishda ishchilar tomonidan foydalanilgan mehnat qurollarining amortizatsiya summasi hamda ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish va unga rahbarlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab sarf-xarajatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan aloqador sintetik schotlar to‘g‘risida qisqacha tavsif berib chiqish yo‘li bilan ishlab chiqarish jarayoni hisobining vazifalari va ahamiyati haqida talabalarni tanishtirib chiqamiz.

Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasidan tayyor mahsulotlar olinadi. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni biznes-reja va shartnoma-kontraktasiya asosida amalga oshirilib, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi va reja tannarxi belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar aks ettiriladi hamda mahsulotlarning haqiqiy tannarxi hisob-kitob qilinadi.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

− natural va pul ifodasida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmini aniqlash. Bunda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori kabi, ular ayrim turlarining ham miqdori aniqlanadi;

– ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni aniqlash va mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash. Buning uchun korxonaning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga qilgan xarajatlari hamda alohida mahsulot turlarining tannarxi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish uchun maxsus schotlar tayinlangan. Ularning asosiylaridan biri 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni aks ettirish va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Ushbu schotning debet tomonida mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha xarajatlar to‘planadi, uning kreditida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar reja tannarxi bo‘yicha baholanib aks ettiriladi. Hisobot davri oxirida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanib, reja tannarx haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi. Bu ikki xil usulda amalga oshiriladi. Birinchisi, agar haqiqiy tannarx reja tannarxdan past, ya’ni xarajatlar tejalgan bo‘lsa, o‘rtadagi farq summaga bu schotning krediti bo‘yicha «qizil storno» yozuvi amalga oshiriladi. Ikkinchisi aksincha, ya’ni haqiqiy tannarx reja tannarxdan yuqori bo‘lsa, o‘rtadagi farq summaga (rejadan oshiqcha sarflangan summaga) qo‘shimcha buxgalteriya yozuvi tuziladi. Shu tarzda reja tannarx bilan haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq tuzatiladi (korrektirovka qilinadi). 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti aktiv bo‘lib, uning debetida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i qolishi mumkin.

Alohida mahsulot turlarining tannarxi analitik schotlar ma’lumotlari bo‘yicha aniqlanadi. Analitik schotlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schotiga buyumlarning alohida turlari yoki bir xil mahsulotlar guruhlari bo‘yicha ochiladi. Oy davomida bu schot debetiga faqat bevosita asosiy ishlab chiqarish schotining tegishli analitik schoti debetiga yozish va aniq bir mahsulot tannarxiga qo‘shish mumkin bo‘lgan xarajatlar yoziladi. Bunday xarajatlar bevosita (to‘g‘ri) xarajatlar deb ataladi. Ularga ma’lum mahsulot turlarini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan asosiy Materiallar, ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan xodimlarning ish haqi, texnologik maqsadlar uchun ishlatiladigan yoqilg‘i, elektr enyergiyasi, bug‘ va boshqalar kiradi. Ushbu schotning yoki tegishli analitik schotning debetiga bevosita olib borish imkoni bo‘lmagan, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari bilvosita (egri) xarajatlar deb ataladi. Ular maxsus yig‘ib-taqsimlovchi schotlarda hisobga olinadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlariga quyidagilar kiradi: bo‘linmalarning boshqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlarining ish haqi

ijtimoiy sug‘urta ajratmalari bilan birga, sexlarning binolarini yoritish, isitish va suv ta’minoti, amortizatsiya va joriy ta’mirlash xarajatlari, mehnatni muhofaza qilish va boshqa xarajatlar. 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schoti bo‘yicha analitik schotlar sanoat korxonalarida sexlar bo‘yicha, qishloq xo‘jalik korxonalarida tarmoqlar (o‘simlikchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi va h.k.) bo‘yicha ochiladi, analitik schotlar doirasida xarajatlar hisobi moddalar bo‘yicha yuritiladi.

Barcha tegishli xarajatlar oy davomida 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotining debetida hisobga olib boriladi. Oy oxirida bu xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo‘shish va tannarx hisoblash maqsadida 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotining kreditidan 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti va boshqa tegishli schotlar debetiga taqsimlash yo‘li bilan o‘tkaziladi. Taqsimlash hisob-kitobi tegishli tarmoqda qabul qilingan taqsimlash uslubiga muvofiq shu tarmoqdagi bevosita xarajatlarga mutanosib amalga oshiriladi. Masalan, ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqiga mutanosib, qurilmalarning ishlagan mashina-soatlariga mutanosib yoki qandaydir boshqa usul bo‘yicha hisob-kitob qilinadi. Qishloq xo‘jaligidagi umumishlab chiqarish xarajatlari asosiy tarmoqlarning bevosita xarajatlariga (o‘simlikchilikda – urug‘lik, chorvachilikda – em-xashak, sanoat ishlab chiqarishida – xom-ashyo va Materiallar qiymati chegirib tashlangan holda) mutanosib taqsimlanadi. Shunday qilib, bu schot bo‘yicha barcha xarajatlar hisobdan o‘chirilib, oy oxirida qoldiq qolmaydi. Ammo bu schot oy davomida debet qoldiqqa ega bo‘lganligi sababli aktiv schot hisoblanadi.

6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schotining mazmunini ko‘rib chiqamiz. Hisoblangan mehnat haqi ushbu schotning kreditida, ish haqidan ushlanadigan va xodimning qo‘liga beriladigan summalar esa debetida aks ettiriladi. Uning kredit qoldig‘i korxona xodimlariga hisoblangan, lekin hisobot sanasida to‘lanmagan ish haqi bo‘yicha qarzni bildiradi. Ish haqi bo‘yicha xarajatlar ham tegishli schotlarda aks ettirish orqali mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo‘shiladi. Misol, asosiy ishlab chiqarishdagi xodimlarga 100000 so‘mlik ish haqi hisoblandi. Ushbu xo‘jalik muomalasi schotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti100000 so‘m
Kt 6710-«Mehnat haqi bo‘yicha
xodimlar bilan hisob-kitoblar» schoti100000 so‘m

Ish haqidan ushlangan soliqlar hamda boshqa summalar 6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schotining debeti bo‘yicha aks ettiriladi. Chunki, bunda xodimlarga ish haqi bo‘yicha to‘lanadigan qarzlar kamayadi. Bir vaqtning o‘zida budjetga to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha qarzlar ko‘payadi. Shuning uchun 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» (soliq turlari bo‘yicha), 6450-«Majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» (turlari bo‘yicha) schotlarning kreditida ham aks ettiriladi.

Ish haqidan tashqari ijtimoiy sug‘urta fondi, bandlik fondi va nafaqa fondlariga ham sarflangan ish haqi fondiga nisbatan belgilangan foiz hisobida to‘lovlar hisoblanadi. Ushbu summalar tegishli hisob-kitoblarga muvofiq ijtimoiy sug‘urta, bandlik xizmati va nafaqa fondi tashkilotlariga 5110-«Hisob-kitob schoti»dan o‘tkaziladi. Ushbu summalarni hisobga olish uchun 6510-«Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» 6520-«Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schotlari yuritiladi.

Shuningdek**,** ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish bilan asosiy vositalarning eskirishini hisobga oladigan schotlar (0211-0299) ham bog‘liq. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar eskiradi va ularning qiymatlari eskirish hisoblash me’yorlariga muvofiq mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga bo‘laklab o‘tkaziladi. Asosiy vositalar bu qismining puldagi ifodasi amortizatsiya deb ataladi. Amortizatsiya ajratmalarining summasi mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo‘shiladigan ishlab chiqarish xarajatlarining turlaridan biri hisoblanadi.

Amortizatsiya summalarini hisoblash va mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga olib borish 2010-«Asosiy ishlab chiqarish», 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish», 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» va boshqa tegishli schotlarning debeti va asosiy vositalarning eskirishi hisobga olinadigan kontraktiv schotlar (0211-0299) krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

Ishlab chiqarishdan olingan mahsulotlar 2810-«Tayyor mahsulotlar» schotining debetida hisobga olinadi. Tayyor mahsulotlar bu schotga reja tannarxi bo‘yicha baholanib. 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schotining kreditidan kirimga olinadi. Ularning haqiqiy tannarxi oy oxirida hisoblanadi.

6.2. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining hisobi

6.2.1. Dehqonchilik tarmoqlarining tasnifi, hisobining uslubiy asoslari va vazifalari

Dehqonchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, chorvachilikni yem-xashak bilan ta’minlaydi va bu tarmoqning rivojlanishida zamin hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarga doir hukumat qarorlariga ko‘ra dehqonchilikda yaqin kelajakda don ekinlarining hosildorligini oshirish hisobiga olinadigan donning yillik o‘rtacha yalpi miqdorini jiddiy o‘stirishni, qishloq xo‘jalik mahsulotlari (paxta, kartoshka va sabzavot, shuningdek, meva, rezavor, uzum) ishlabchiqarishni oshirishni ta’minlash nazarda tutiladi.

Dehqonchilik tarmog‘ining muhim vazifalaridan biri chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratish va ozuqa ishlab chiqarishni ko‘paytirishdir. Bu vazifalarni bajarish qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minotini har tomonlama mustahkamlash, dehkonchilikni ximiyalashtirish, kompleks mexanizatsiyalashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yo‘li bilan intensifikatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Bu vazifalarning hal etilishida dehqonchilik tarmoqlariga qilinadigan xarajatlar va undan olinadigan mahsulotlarni aniq hamda o‘z vaqtida hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dehqonchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining o‘ta o‘ziga xos xususiyatlarga ega tarmog‘idir. Dehqonchilik tarmog‘ida mablag‘larning aylanishiga ishlab chiqarishning mavsumiylik xususiyati, jumladan, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar olinishi o‘rtasidagi uzilish jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Dehqonchilik sohasiga ishlab chiqarish xarajatlari uzoq vaqt davomida qilinadi va o‘ta notekis tusda bo‘ladi. Sarflangan mablag‘larning qoplanishi mahsulotlarning chiqishi, pishib etilishining tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning barchasi, tabiiyki, ushbu sohada xarajatlarni hisobga olishni tashkil qilishda nazarda tutilishi lozim.

Dehqonchilikda ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etishi hamda xarajatlar bir-biri bilan bog‘langan ikki yil hosili uchun parallel qilinishi tufayli, buxgalteriya hisobida ular yillar bo‘yicha aniq chegaralanishi lozim. Shuning uchun qishloq xo‘jalik korxonalarining dehqonchilik

xarajatlari buxgalteriya hisobida ikki qismga: joriy yildagi hamda kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlarga bo‘linadi.

Bundan tashqari, dehqonchilikda xarajatlar ayrim ishlab chiqarishlarda ko‘pincha konkret ekinlarni o‘stirish uchun ham amalga oshiriladi. Bu ham buxgalteriya hisobida aniq aks ettirilishi lozim. Shuning uchun boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi ishlab chiqarish turlari va tegishli ekinlarni parvarish qilish bo‘yicha tashkil etiladi.

Dehqonchilikdagi ishlab chiqarish – bir vaqtda amalga oshiriladigan jarayon emas. Ishlab chiqarish jarayoni yilning turli fasllarida (kuz, qish, bahor va yozda) bajariladigan har xil turdagi ishlardan tarkib topadi. Dehqonchilikdagi ishlab chiqarishning texnologik jarayoni quyidagi asosiy ishlar majmuidan iborat: tuproqni ekishga tayyorlash, ekish, ekinlarni parvarish qilish, hosilni yig‘ishtirish. Bu majmuilarning har biri ko‘p sonli aniq ishlardan, masalan, tuproqni ekishga tayyorlash, haydash, boronalash, mola bostirish, g‘altaklash, kultivatsiyalash va shunga o‘xshashlardan iborat. Demak, qilinadigan xarajatlar buxgalteriya hisobida bajarilgan ish turlari bo‘yicha chegaralanishi lozim.

Dehqonchilik ishlab chiqarishi jarayonida muayyan ishlarni bajarishda turli xarajatlar qilinadi: neft mahsulotlari, urug‘lik, o‘g‘it sarflanadi, mashinalar va boshqa asosiy ishlab chiqarish vositalari qisman eskiradi, xodimlarga mehnat haqi hisoblanadi va to‘lanadi va hokazolar.

Bunday xarajatlarning barchasi hisobda alohida-alohida to‘planishi lozim. Demak, boshqaruv hisobida dehqonchilik xarajatlarining hisobi umumiy summa bilan emas, balki xarajat moddalari bo‘yicha yuritilishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tarqoqligi tufayli bir turdagi ishlar va xarajatlar xo‘jalikning turli bo‘linmalarida bir vaqtda qilinishi mumkin. Boshqaruv buxgalteriya hisobi dehqonchilikdagi xarajatlarning mas'uliyat markazlari bo‘yicha chegaralanishini ta’minlashi lozim.

Shunday qilib, dehqonchilik tarmog‘idagi ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlariga ko‘ra hisobda xarajatlar va tegishli yakuniy ma’lumotlarning olinishi quyidagilar bo‘yicha chegaralanishi lozim:

- ishlab chiqarishning yondash yillari bo‘yicha;
- ishlab chiqarish va ekinlarning asosiy turlari bo‘yicha;
- bajariladigan ishlarning asosiy turlari bo‘yicha;
- xarajatlarning asosiy moddalari (turlari) bo‘yicha;
- mas'uliyat markazlari bo‘yicha.

Birinchi belgiga koʻra, xarajatlar haqida ishlab chiqarish yillari boʻyicha maʼlumotlarni alohida-alohida olinishi joriy yil va kelgusi yil mahsulotlari uchun xarajatlarning alohida analitik schotlarini ochish hisobiga taʼminlanadi. Odatda, har bir yil boshida oldingi yildan oʻtgan xarajatlar joriy yildagi mahsulot xarajatlariga qoʻshiladi (nomenklatura hisobi muvofiq kelmagan hollarda ular alohida moddalar boʻyicha taqsimlanadi); kelgusi yil hosiliga qilingan xarajatlar alohida ajratiladi.

Xarajatlarni turlari boʻyicha chegaralash, yaʼni ularni moddalar boʻyicha hisobga olish schotlarning shakllarini tegishli tarzda tuzish hisobiga taʼminlanadi. Ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar hisobi koʻp grafali registrlarda olib borilib, unda ochilayotgan schot boʻyicha xarajatlarning har bir turini hisobga olish uchun alohida grafalar ajratiladi.

Xarajatlarni xoʻjalik boʻlinmalari boʻyicha chegaralash, odatda, analitik hisobni tegishli tarzda tashkil etish hisobiga taʼminlanadi. Odatda, bu maqsadlarda ishlab chiqarish hisobotlari yoki ularning oʻrnini bosuvchi registrlardan foydalaniladi.

Xarajatlarning ishlab chiqarish, ekin va bajariladigan ishlar turlari boʻyicha chegaralanishi, ularni hisobga olishning turli uslublarini qoʻllash orqali taʼminlanishi mumkin. Dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olish va tashkil qilishning bir necha uslublari mavjud.

Bajarilgan ishlarni hisobga olish uslublaridagi farqlarga qaramay dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olishning yagona tamoyili parvarishlanayotgan ekin turlari yoki ekinlar guruhi boʻyicha analitik schotlar ochishdir.

Dehqonchilik tarmogʻi boʻyicha boshqaruv hisobida quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

xarajatlarning asosiy ishlab chiqarish, ekinlar va ekin guruhlari boʻyicha toʻgʻri hamda iqtisodiy asoslangan holda chegaralanishi;

xarajatlarning asosiy moddalari: mehnat, urugʻlik, oʻgʻit, yonilgʻi, yordamchi ishlab chiqarishlar xarajatlari va tarmoqqa taalluqli boshqa xarajatlar boʻyicha kyerakli maʼlumotlar olinishini taʼminlash;

olinayotgan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini oʻz vaqtida hamda toʻliq hisobga olish;

mahsulot tannarxini hisoblash uchun zarur boʻlgan axborotlarni iqtisodiy asoslangan holda bir tizimga keltirish va umumlashtirish;

xarajatlarni yondosh yillar ishlab chiqarishi bilan mahsulot olinadigan kelgusi qishloq xoʻjalik davrlariga taalluqli xarajatlarni doimo ajratib (kuzgi ekinlar, koʻp yillik oʻtlar, shudgorlash va shu kabilarning xarajatlari) aniq hamda iqtisodiy asoslangan holda chegaralash;

tezkor nazorat va rahbarlikni amalga oshirish uchun xarajatlar haqida zarur axborot berishni ta’minlash.

6.2.2. Dehqonchilik xarajatlarining hisob obyektlari va moddalari

Dehqonchilik tarmog‘i xarajatlari va mahsulotlarining chiqishini hisobga olish 2010-«Dehqonchilik» schotida amalga oshiriladi. Bu schotning debetida ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, kreditida – mahsulotning chiqishi hisobga olinadi. Debet va kredit bo‘yicha yozuvlar yil davomida o‘sib boruvchi summalarda tashkil qilinadi; shunga ko‘ra joriy balansda schotning ma’lumotlari yoyilgan holda ko‘rsatiladi. Faqat yil oxiriga kelib schot bo‘yicha qoldiq aniqlanib, uni yakuniy balansda dehqonchilik tarmog‘ining tugallanmagan ishlab chiqarish summasi sifatida aks ettiriladi.

Dehqonchilik tarmog‘ida xarajatlar quyidagi obyektlar bo‘yicha hisobga olinadi:

1. Ekinlar yoki ekin guruhlari
2. Qishloq xo‘jalik ishlari
3. Taqsimlanadigan xarajatlar
4. Boshqa obyektlar

Xarajatlarni u yoki bu ekin turining joriy yildagi hosiliga bevosita o‘tkazish mumkin bo‘lgan barcha hollarda ular birinchi guruh bo‘yicha xarajatlar obyektlariga taalluqli schotlarda hisobga olinadi. Ikkinchi guruhda xarajatlarni hisobga olish obyektlari tarkibida kelgusi yil hosili uchun qilingan qishloq xo‘jalik ishlarini bajarish xarajatlari aks ettiriladi, bularni tabiiyki, hosili joriy yilda olinadigan ekinlar xarajatlarini hisobga olish obyektlariga o‘tkazib bo‘lmaydi. Ularni hisobga oluvchi uchinchi guruh obyektlari tarkibida hisobning bir necha yoki ko‘pgina obyektlariga o‘tkaziladigan, demak, ularga taqsimlanadigan (joriy ta’mirlash, sug‘orish va sho‘r yuvish xarajatlari va boshqalar) xarajatlar hisobga olinadi. To‘rtinchi guruh obyektlari tarkibida ozuqa ishlab chiqarish va ayrim boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

Yuqorida aytilgan to‘rtala guruh bo‘yicha konkret tarzda hozirgi kunda xarajatlar hisob obyektlarining quyidagi nomenklaturasi qabul qilingan.

Birinchi guruh. *Don va dukkakli don ekinlari. Kuzgi don ekinlari.* Kuzgi don ekinlari (kuzgi bug‘doy, kuzgi javdar, kuzgi arpa). Bahorgi

bug‘doy. Bahorgi boshqa boshoqli don ekinlar (bahorgi javdar, bahorgi arpa, suli); yem-xashak ekinlar: tariq, qora bug‘doy, sholi.

Jo‘xori. Dukkakli don ekinlar – no‘xat, loviya, dukkakli xashaki ekinlar – xashaki no‘xat va xashaki no‘xat aralashmasi, lyupin (shirin, achchiq), seradella (doni uchun) boshqa dukkakli ekinlar.

Texnik ekinlar. Paxta, zig‘ir (uzun tolali), zig‘ir (kalta tolali), qandlavlagi, kungaboqar, soya, tamaki. Turlar bo‘yicha texnik ekinlar - kanop, jut. Efir-moy va boshqa texnik ekinlar.

Texnik ekinlar urug‘liklari (har bir ekin bo‘yicha alohida).

Kartoshka, ochiq yerga ekiladigan sabzavotlar va poliz ekinlari. Kartoshka, karam, bodring, pomidor, osh lavlagi, piyoz, sarimsoq. Ochiq yerga ekiladigan boshqa sabzavot ekinlari (petrushka, sholg‘om, turp, salat, shpinat, ukrop va boshqalar). Xo‘raki poliz ekinlari. Sabzavot ekinlari urug‘liklari (har bir ekin bo‘yicha). Poliz ekinlari urug‘liklari. Sabzavotchilik yordamchi tarmoq bo‘lgan ixtisoslashmagan xo‘jaliklarda xarajatlar ochiq yerda ekiladigan barcha sabzavotlar bo‘yicha yalpisiga yuritiladi.

Yopiq yerga ekiladigan sabzavotchilik. Qishki issiqxonalar (ko‘k piyoz, bodring, pomidor, salat, rediska va boshqalar). Bahorgi issiqxonalar (ko‘k piyoz, bodring, pomidor, salat, selderey, karam, pomidor ko‘chatlari va boshqalar). Himoyalangan boshqa yerlar (ko‘k piyoz, bodring, pomidor, salat, selderey, karam, pomidor ko‘chatlari va boshqalar). Shampinon xonalar (qo‘ziqorinlar, shampinon mitseliylari).

Yem-xashak ekinlar, pichanzor va yaylovlar. Xashaki ildizmevalar (xashaki lavlagi, xashaki sholg‘om, sabzi va boshqalar). Molga oziq uchun qand lavlagi. Xashaki ildizmevalilar urug‘liklari. Xashaki poliz ekinlari. Silos uchun jo‘xori. Silos ekinlari (jo‘xoridan tashqari). Ekilganbir yillik o‘tlar. Ko‘k oziq sifatida kuzgi don ekinlari. Ko‘k o‘g‘it ekinzorlari (lyupin va boshqalar). Ekin o‘rib olingan yerga ozuqabop ekilgan ekinlar (xashaki lavlagi, xashaki sholg‘om va boshqalar). Madaniy pichanzorlar. Tabiiy pichanzor va yaylovlar.

Meva, rezavor meva va boshqa ko‘p yillik daraxtlar. Urug‘li ekinlar: olma, nok, behi, do‘lana, na’matak va boshqa urug‘li, danakli ekinlar. Danakli ekinlar: olxo‘ri, olcha, gilos, o‘rik, shaftoli va boshqalar. Rezavor mevali ekinlar: qulupnay, malina, smorodina, maymunjon va boshqalar. Yong‘oq mevali ekinlar. Subtropik ko‘chatlar. Sitrus ekinlari. Tokzorlar. Gulchilik. Mevazor ekinlar pitomniklari. Daraxt va buta navlari pitomnigi. Manzarali ekinlar pitomnigi.

Sabzavotchilik tarmog‘i yordamchi xarakterda bo‘lgan ixtisoslashmagan xo‘jaliklarda xarajatlar hisobi ekinlar guruhi (po‘choq urug‘li, danakli urug‘lar, rezavorlar) bo‘yicha yoki yalpi tarmoq - bog‘dorchilik bo‘yicha yuritiladi.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jalik korxonalarida melioratsiya borasida katta ishlar qilinmoqda. Buxgalteriya hisobida lalmi va sug‘oriladigan yerlardagi dehqonchilik bo‘yicha xarajatlar qat’iy chegaralanadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan tasnif bo‘yicha birinchi guruh hisob obyektlarining barchasi to‘rt guruh: muntazam sug‘oriladigan yerlar, shartli sug‘oriladigan yerlar, quritilgan yerlar, lalmi yerlar bo‘yicha chegaralanadi. Demak, xo‘jaliklarda ayni bir ekinning o‘zi sug‘oriladigan va lalmi yerlarga ekilgan bo‘lsa, ular bo‘yicha xarajatlar hisobi turli obyektlar bo‘yicha chegaralanadi. Lalmi yerlardagi xarajatlar tarkibida sug‘orilgan yerlarda mahsulot yetishtirish xarajatlari alohida ajratiladi.

Ikkinchi guruh. Bajarilgan qishloq xo‘jalik ishlari bo‘yicha xarajatlar hisobining obyektlari, yuqorida qayd qilib o‘tilganidek, agarda qishloq xo‘jalik ishlari bo‘yicha xarajatlar darhol ekinlar (ekinlar guruhi) bo‘yicha joriy yildagi hosil hisobi obyektlariga o‘tkazish mumkin bo‘lmagan hollarda ajratiladi. Bu kelgusi yil hosillariga, ya’ni dehqonchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishga qilingan xarajatlardir. Bu guruhga xarajatlar hisobining obyektlari sifatida quyidagi ish turlari: kuzgi don ekinlari uchun har bir ekin bo‘yicha yerga ishlov berish, ko‘kat oziq va silos uchun kuzgi don ekinlari (agarda ular ajratilsa), sabzavot ekinlarini kuzda ekish (ekinlar bo‘yicha), kuzgi shudgor, yumshatish (kuzgi shudgorsiz) organik o‘g‘itlarni chiqarish, minyeral o‘g‘itlarni chiqarish. Oldingi yillar ko‘p yillik o‘tlar ekinlari (ekilgan yillar bo‘yicha alohida) hisobot yili bahorgi va kuzgi sof ko‘p yillik o‘tlar, ko‘p yillik aralash o‘tlar, hisobot yili kuzgi shudgor, kelgusi yil bahorgi ekinlar hosili uchun shudgor, yangi yerlarni o‘zlashtirish, yaxshilangan (tubdan yaxshilash) pichanzorlar va yaylovlarni yuzaki yaxshilash, tuproqni ohak, gips bilan o‘g‘itlash xarajatlari (o‘z mablag‘lari hisobiga), melioratsiya qilinayotgan yerlarni dastlabki madaniylashtirish xarajatlari, parnik, issiqxona, shampinon yetishtiriladigan xonalar, bog‘lar (hosil terib olingach), pitomniklardagi ishlar, boshqalar ajratiladi.

Bu guruh analitik schotlarida yil oxiriga hisobga olingan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarishda qoladi va keyingi yilga o‘tadi. Keyingi yilda ular birinchi guruhda xarajatlarni hisobga olish obyektlariga

taqsimlanadi. Bunda taqsimlashning turli usullaridan foydalaniladi. Xarajatlarning ayrim turlari yerni ohaklash, melioratsiya qilinayotgan yerlarni dastlabki madaniylashtirish va boshqa xarajatlarni hisobga olish obyektlariga 5-7 yil davomida turishi mumkin.

Uchinchi guruh. Xarajatlarning ayrim turlarini xarajatlar hisobi obyektlarining xoh birinchi, xoh ikkinchi guruhiga darhol o‘tkazish mumkin emas, chunki ular xarajatlarni hisobga olish obyektlarining bir necha guruhlariga taalluqlidir. Ular yil davomida alohida analitik schotlarda olinib, yil oxirida taqsimlanadi. Bu ular tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida kelgusi yilga o‘tmaydi demakdir.

Bu guruh xarajatlarni hisobga olish obyektlariga quyidagi taqsimlanadigan xarajatlar: dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalarning taqsimlanishi lozim bo‘lgan amortizatsiya ajratmalari; dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalarning taqsimlanishi lozim bo‘lgan joriy ta’mirlash xarajatlari; taqsimlanishi lozim bo‘lgan sug‘orish xarajatlari; taqsimlanishi lozim bo‘lgan yerlarni quritish xarajatlari; ihota o‘rmonlarini saqlash xarajatlari taalluqlidir.

Yuqorida keltirilgan dehqonchilik xarajatlarining har bir hisob obyektlariga alohida analitik schot ochilib, unda tegishli xarajatlar moddalarining belgilangan nomenklaturasiga ko‘ra hisobga olinadi. Bu analitik schotlar yil oxirida xarajatlarni birinchi va ikkinchi guruh xarajatlarini hisobga olish obyektlariga taqsimlab yopiladi. Bu hol xarajatlarning har bir turi o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, taqsimlashning turli uslublaridan foydalaniladi.

To‘rtinchi guruh. Dehqonchilik tarmog‘idagi xarajatlarning ayrim turlari oziq yetishtirish, mahsulotga o‘rim-yig‘imdan keyin qayta ishlov berish, poholni yig‘ishtirish va g‘aramlash kabilar bilan bog‘liqdir. Bu xarajatlar alohida analitik schotlarda: silos tayyorlash, senaj tayyorlash, o‘t uni, granula va briketlar ishlab chiqarish, mahsulotga o‘rim-yig‘imdan so‘ng qayta ishlov berish va shu kabilar hisobga olinadi. Bu xarajatlarni alohida hisob obyektlari sifatida ajratish yo ayrim qo‘shimcha va yondosh mahsulot turlarining tannarxi aniqroq hisoblanadi, yo oziq ishlab chiqarish xarajatlarini alohida guruhga ajratish zaruriyatidan kelib chiqadi. Xarajatlar har bir analitik schotda belgilangan moddalar bo‘yicha hisobga olinadi. Yil oxirida yo tegishli mahsulot turlarining tannarxi hisoblanadi, yo xarajatlar birinchi guruh obyektlari schotlariga taqsimlanadi.

Dehqonchilik xarajatlarining analitik hisobi quyidagi moddalar bo‘yicha yuritiladi:

1. Mehnat haqi ijtimoiy sug‘urta ajratmalari bilan birga
2. Urug‘lik va ko‘chat materiallari
3. O‘g‘itlar
4. O‘simliklarni himoya qilish vositalari
5. Ishlar va xizmatlar
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
7. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari
8. Sug‘urta to‘lovlari
9. Boshqa xarajatlar

1. «Mehnat haqi ijtimoiy sug‘urta xarajatlari bilan birga» moddasida muayyan ekin turlari yoki guruhlarining bevosita texnologiya jarayonida ishlagan turli toifadagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqi tavsifiga ega bo‘lgan pul va natura to‘lovlari hisobga olinadi.

Xodimlarning asosiy va qo‘shimcha mehnat haqlari, ijtimoiy sug‘urta va ta’minot fondiga o‘tkazilgan ajratmalar hamda ta’til haqi ajratmalari ham shu moddada hisobga olinadi.

Aniq bir ekin va ish turiga o‘tkazish mumkin bo‘lmagan mehnat haqlari hisob obyektlari o‘rtasida mehnat haqiga mutanosib taqsimlanadi.

2. «Urug‘lik va ko‘chat xarajatlar» moddasida xo‘jalikning o‘zida yetishtirilgan va sotib olingan urug‘lik va ko‘chatlar hamda ularning tegishli ekinlarni ekish uchun sarflanishi aks ettiriladi. Bunda oldingi yillarda yetishtirilgan hamda sotib olingan urug‘lik va ko‘chatlar haqiqiy tannarxida aks ettirilsa, joriy yilda yetishtirilgan urug‘ va ko‘chatlar yil davomida reja tannarxda hisobga olinib, yil oxirida haqiqiy tannarx darajasiga yetkazib quyiladi.

Urug‘larni ekishga tayyorlash (quritish, saralash va boshqa ishlov berish) xarajatlari ularning tannarxiga o‘tkaziladi. Lekin bevosita ekish oldidan qilinadigan xarajatlar (urug‘ni ekish joyiga tashib keltirish, ortish, tushirish, dorilash, ivitish va shu kabilar) urug‘ning tannarxiga o‘tkazilmay, bevosita o‘simlikchilikning tegishli xarajat moddalari (mehnat haqi, ishlar va xizmatlar, asosiy vositalarni saqlash xarajatlari)ga yoziladi.

3. «O‘g‘itlar» moddasida muayyan bir ekin (ekin guruhi) sarflagan ma’danli o‘g‘itlar, mikro o‘g‘itlar va boshqa o‘g‘itlar, shuningdek, mahalliy o‘g‘itlar miqdor va summa ko‘rsatkichida aks ettiriladi. Bu moddada xarajatlar ma’danli va organik o‘g‘itlar bo‘yicha alohida hisobga olinadi. O‘g‘itlarni tayyorlash, yuklash, dalaga tashish va yerga solish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar bu xarajat moddasida emas, balki bevosita o‘simlikchilikning tegishli xarajat moddalarida aks ettiriladi.

4. «O‘simliklarni himoya qilish vositalari» moddasida begona o‘tlarga, ekinlarning zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashishda foydalaniladigan pestitsidlar, urug‘lik dorilari, defoliant va boshqa kimyoviy va biologik materiallar sarfi hisobga olinadi.

1. «Ishlar va xizmatlar» moddasida xo‘jalikning o‘zidagi avtomobil transporti va ot-ulov transporti, traktorlar bajargan transport ishlari hisobga olinadi.

Yerlarni o‘g‘itlash bo‘yicha «Agrokimyota’minot» birlashmalari va aviya otryadlar bajargan ishlar ham «Ishlar va xizmatlar» moddasida aks ettiriladi.

Yil oxirida bajarilgan ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so‘ng reja tannarx haqiqiy tannarx darajasiga yetkaziladi. O‘simlikchilik tarmog‘i uchun ko‘rsatilgan elektr ta’minoti, suv ta’minoti, issiqlik ta’minoti, gaz ta’minoti xizmatlari ham shu moddada hisobga olinadi.

Chet tashkilotlarining transport va boshqa xil xizmatlari shartnoma qiymati bo‘yicha baholanadi.

1. «Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita o‘simlikchilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisobga olinadi. Bularga asosiy vositalarni saqlash, ulardan foydalanish xarajatlari, ularning amortizatsiya ajratmalari kiradi. Turli moslamalarning eskirishi, ularni tiklash uchun ketgan xarajatlar ham shu modda bo‘yicha hisobga olinadi.

O‘simlikchilikda bunday asosiy vositalarga mahsulot yetishtirishda foydalaniladigan traktorlar, qishloq xo‘jalik mashinalari, asbob-uskunalar, issiqxonalar, parniklar, omborxona binolari, xo‘jalik ichidagi sug‘orish shahobchalari, ko‘p yillik daraxtlar, yerlarning holatini yaxshilash bo‘yicha qilinadigan noinventar kapital sarflar kiradi.

Mevaga kirgan daraxtlarni parvarishlash xarajatlari (amortizatsiya ajratmalardan tashqari) bu xarajatlar moddasiga kirmaydi.

O‘simlikchilikda foydalanilgan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari ayrim ekin va tugallanmagan ishlab chiqarishlarga quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

– maxsus asosiy vositalar (paxta tyerish mashinalari, kartoshka yig‘ib-terib oladigan kombaynlar va shu kabilar)ni saqlash xarajatlari tegishli ekinlardan olinadigan mahsulotlar tannarxiga o‘tkaziladi;

– traktorlarni saqlash xarajatlari – ekin va ishlar uchun bajarilgan ish hajmi (shartli etalon gektar)ga mutanosib taqsimlanadi;

– qishloq xo‘jalik mashinalarini saqlash xarajatlari – ishlov berilgan ekinlar maydoniga mutanosib ravishda taqsimlab o‘tkaziladi;

– hosilni yig‘ib-terib olishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari yig‘ib-terib olingan ekinlar maydoniga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

– o‘g‘itlash mashinalarini saqlash xarajatlari – ekin maydonlariga solingan o‘g‘itlarning miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

– g‘alla va sabzavot mahsulotlari saqlanadigan binolarning xarajatlari tegishli ekinlarga, g‘alla va sabzavot mahsulotlari band qilgan maydonga mutanosib ravishda taqsimlanadi va hokazo.

1. «Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida o‘simlikchilik tarmog‘ining brigadalarida va boshqa ishlab chiqarish bo‘lishmalarida ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari va xo‘jalikni boshqarish xarajatlarining tegishli qismi hisobga olinadi.

1. «Sug‘urta to‘lovlari» moddasida qishloq xo‘jalik ekinlari va meva beradigan yoshdagi ko‘p yillik daraxtlar hosilining davlat majburiy sug‘urtasiga oid to‘lovlar hisobga olinadi.

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan binolar, inshootlar, qishloq xo‘jalik mashinalari, qurilmalar, inventarlar va boshqa asosiy vositalarning sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar ham shu moddada hisobga olinadi. Bunday asosiy vositalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari o‘simlikchilik turiga (o‘simlikchilik guruhlariga) asosiy vositalarni saqlash xarajatlariga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan olib boriladi.

9. «Boshqa xarajatlar» moddasida yuqoridagi moddalarda hisobga olinmagan, o‘simlikchilikning barcha bevosita xarajatlari aks ettiriladi. Bu xarajatlarga tegishli ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflar, idish va qadoqlash xarajatlari (agar idish qiymati mahsulotning realizatsiya narxiga kiritilmasdan alohida to‘lansa) texnika tashviqoti va standartlashtirishga oid xarajatlar kiradi.

6.2.3. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi

Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishi to‘g‘risidagi barcha yozuvlar tegishli dastlabki hujjatlar ma’lumotlariga asosan yoziladi. Bunday dastlabki hujjatlar to‘rt guruhga: mehnat, mehnat buyumlari va mehnat vositalari sarfi hamda mahsulot chiqishiga oid hujjatlar.

Mehnat sarfini hisobga olish hujjatlarida dehqonchilik tarmog‘ida o‘stirilayotgan ekinlar bo‘yicha muayyan ishlarni bajarish uchun sarflangan mehnat va hisoblangan to‘lov aks ettiriladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarda traktorchi mashinistning hisob varaqalari (67- va 67-b shakllar), mexanizatsiyalashtirilmagan ishlarda mehnat hisobi va bajarilgan ishlar varaqalari (66- va 66-a shakllari) qo‘llanadi. Shuningdek, ishbay ishlarda ishlangan vaqtni hisobga olish uchun – ish vaqtini hisobga olish tabeli (64-shakl) qo‘llanadi.

Mehnat predmetlari sarfi hisobga olinadigan hujjatlarda dehqonchilik tarmog‘ida sarflangan turli moddiy qiymatlar: urug‘lik, o‘g‘it, zaharli ximikatlar, gerbitsidlar, ehtiyot qismlar va hokazolarni qayd etadi. Ekishga sarflangan urug‘ va ekish Materiallari urug‘ va ekish materillarini sarflash dalolatnomasi (119-shakl), o‘g‘it, zaharli ximikat va gerbitsidlar sarfi – ma’danli, organik va bakterial o‘g‘itlar zaharli ximikatlar va gerbitsidlarni ishlatish to‘g‘risida dalolatnoma (118-shakl), mayda inventar va buyumlar – ishlab chiqarish va xo‘jalik inventari va buyumlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (126-shakl) bilan rasmiylashtiriladi va hokazo. Dastlabki hujjatlar ko‘rsatkichlari oy oxirida moddiy qiymatlar harakati haqidagi hisobotlarda (121-shakl) umumlashtiriladi, shundan so‘ng bo‘linmalarning ishlab chiqarish hisobotlariga moddiy qiymatlar sarfi haqida tegishli yozuvlar kiritiladi.

Mehnat vositalari sarfini hisobga olish hujjatlari dehqonchilik tarmog‘ida foydalanilgan mehnat vositalari bo‘yicha xarajatlar, xususan hisoblangan amortizatsiya ajratmalari aks ettiriladi. Bunga amortizatsiyani hisoblash va taqsimlash bo‘yicha turli hisob-kitoblar: yil boshidagi holatiga ko‘ra asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalar hisob-kitobi kelib (52-shakl) tushgan va chiqib ketgan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari hisob-kitobi (60-shakl), bir oylik amortizatsiya ajratmalarini hisoblash qaydnomasi (62-shakl), dehqonchilik tarmog‘idagi asosiy vositalari bo‘yicha hisoblangan amortizatsiyasi taqsimlash qaydnomasi (63-shakl).

Bu guruh bilan asosiy vositalarni joriy ta’mirlash bo‘yicha hujjatlar uzviy boglangan. Bularga mashinalarni ta’mirlash uchun defektlar qaydnomasi (130-shakl), joriy ta’mirlash xarajatlarini taqsimlash qaydnomasi taalluqlidir.

Mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo‘yicha hujjatlar: don, texnik ekinlar, sabzavot, meva, ozuqa kabi dehqonchilik tarmogi mahsulotlarini kirim qilish qayd etiladi. Bularga: don ekinlari bo‘yicha – don va boshqa mahsulotlarni daladan jo‘natish qaydnomasi (77-shakl), mahsulotni dal-

adan olib chiqish yo‘llanmasi (77-a-shakl), donni talonli hisobga olish usulida talonlar (77-b,77-v,77-g-shakl), don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish reestri (78-shakl), donni tarozibon tomonidan qabul qilish reestri (78-a-shakl), don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi (80-shakl); kartoshka, sabzavot, meva, rezavor meva va boshqa ekinlar bo‘yicha - qishloq xo‘jalik mahsulotining kelib tushish qaydnomasi (82-shakl), yopiq yerga ekilgan mahsulotning kelib tushish qaydnomasi (83-shakl), bog‘dorchilik mahsulotlarini kelib tushish qaydnomasi (84-shakl); ozuqa ekinlari bo‘yicha – dag‘al va shirali ozuqalarni qabul qilish dalolatnomasi (92-shakl), yaylov ozuqalarini kirim qilish dalolatnomasi (93 va 93-a-shakllari) kiradi. Dehqonchilik tarmog‘ida xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha ham, mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo‘yicha ham ko‘p miqdordagi xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi. Har bir guruh hujjatlaridagi ma’lumotlar ularga ishlov berilganda ma’lum belgilariga ko‘ra hujjatlarning harakatlanishi va ishlatilish tavsifiga ko‘ra bir tizimga solinadi. Mehnat sarflari hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari ish haqi hisoblash va to‘lash uchun har bir xodim hamda xodimlar toifasi bo‘yicha ish haqi fondidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida umumlashtiriladi. Mehnat predmetlarini hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari moddiy javobgar shaxslar hamda moddiy qiymatlarning kelib tushishi va sarflanishi yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi. Mehnat vositalarining sarflanishi hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari bir turdagi asosiy vositalar guruhlari va turlari hamda asosiy vositalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi. Mahsulotlar chiqishi hisobga olinadigan hujjatlar ma’lumotlari mahsulot turlari, moddiy javobgar shaxslar, mahsulotning kelib tushish va sarflanish yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi.

Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi barcha hujjatlarning ma’lumotlari xarajatlarni hisobga olish obyektlari – ish turlari hamda ekinlar (ekin guruhlari) bo‘yicha albatta bir tizimga keltiriladi. Bunday bir tizimga keltirishda maxsus ishlab chiqilgan jamg‘arma qaydnomalar va jurnallardan foydalaniladi. Masalan, yuqorida aytib o‘tilgan mehnat sarflari to‘g‘risidagi va boshqa ayrim hujjatlarning ma’lumotlari yuqorida ko‘rib chiqilgan, ta’mirlash ustaxonasidan foydalanish, jamg‘arma qaydnomasi (73-shakl) hamda ish va boshqa xarajatlarni hisobga olish jurnalida (37-shakl) to‘planadi.

Ish va xarajatlarni hisobga olish jurnallari ishlab chiqarish bo‘linmalarida yuritiladi. Ularda har bir ekin (ekinlar guruhi), bajariladigan ishlar va hisobning boshqa obyektlari uchun taxmin qilinayotgan

yozuvlar miqdoriga ko‘ra sahifalar ajratiladi. U yoki bu ekinga taalluqli ish turlari texnologik kartaga muvofiq tarzda yoziladi. Har bir hisob obyekti bo‘yicha bajarilgan ishlarning hajmi naturada hamda shartli etalon gektarga aylantirib, ishlangan vaqt soatlarda va hisoblab o‘tkazilgan to‘lov (traktorchilar va boshqa xodimlar bo‘yicha alohida-alohida) yoqilg‘i sarfi (norma bo‘yichava haqiqiysi), yorug‘lik va ekish Materiallarining sarfi va boshqa xarajatlar qayd etiladi. Ish va xarajatlarni hisobga jurnali dastlabki hujjatlar asosida, ta’mirlash ustaxonasi xarajatlari bo‘yicha esa ta’mirlash ustaxonasidan foydalanish jamg‘arma qaydnoma (37-a-shakl) asosida qilinadi.

Dehqonchilik tarmog‘ida qilingan xarajatlar va yetishtirilgan mahsulotlar 2010-«Dehqonchilik» schotida hisobga olinadi.

Bu schot debetida mahsulot yetishtirish uchun qilingan xarajatlar hisobga olinsa, kreditida esa yetishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxida baholanganqiymati va yil oxirida reja tannarxi bilan haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut aks ettiriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yil oxirida ushbu schot debetida qoldiq tarzida aks ettirilib, yillik balansda ko‘rsatiladi.

Boshqaruv buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo‘jalik bo‘yicha xarajat obyektlarini to‘g‘ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Dehqonchilikda xarajat obyektlari bo‘lib ekin turlari yoki guruhlari, ishlar, taqsimlanadigan xarajat turlari va boshqa obyektlar hisoblanadi.

Dehqonchilikda xarajatlar va olingan mahsulotlarning analitik hisobi «O‘simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi.

Ushbu qaydnoma ma’lumotlari xarajat limitlariga rioya qilinishini nazorat qilish hamda butun xo‘jalik bo‘yicha analitik va sintetik hisobni tashkil etish uchun foydalaniladi. Qaydnomada xarajatlar har oyda o‘simliklar (o‘simlik guruhlari) va tegishli xarajat moddalari bo‘yicha bir oylik va yil boshidan o‘sib boruvchan tartibda aks ettirib boriladi.

Ayrim o‘simliklarni parvarishlash uchun qilingan xarajatlarni hisobga olishga mo‘ljallangan analitik schotlardan tashqari, mustaqil hisob obyektlarini aks ettirish uchun quyidagi analitik schotlar ochiladi: «O‘simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalar bo‘yicha taqsimlanmagan amortizatsiya ajratmalari», «o‘simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalarning taqsimlanadigan joriy ta’mirlash xarajatlari», «taqsimlanadigan sug‘orish xarajatlari», «sho‘r yuvish xarajatlari» va h.k. Bu analitik schotlarda o‘simlik turlari (o‘simlik guruhlari) ga bevosita o‘tkazib bo‘lmaydigan tegishli xarajatlar yil davomida to‘planib boradi.

O‘simlik va ish turlari bo‘yicha guruhlangan jami ma’lumotlar oy oxirida ishlarni va xarajatlarni hisobga olish jurnali (37-shakl) dan qaydnomaga o‘tkaziladi.

O‘simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish
Q A Y D N O M A S I

№	Xarajatlar	Analitik hisob obyektlari						Debet bo‘yicha jami	
		joriy yil kuzgi bug‘doyi			kuzgi bug‘doy kelgusi yil				
		yil boshidan	1 oy	Jami	yil boshidan	1 oy	jami		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
I O‘ s i m l i k ch i l i k x a r a j a t l a r i									
1	Mehnat haqi	184000	-	184000	116000		116000	300000	6710
2	Yagona ijt. to‘lov	46000		46000	29000		29000	75000	6520
3	Urug‘lik	-	-	-	275000		275000	275000	1010
4	Minyeral o‘g‘it	178000		178000	59600		59600	237600	1010
5	Mahalliy o‘g‘it	-	-	-	93440		93440	93440	2012
6	Neft mahsuloti	39900	-	39900	32400		32400	72300	1030
7	AV eskirishi	108900	-	108900	99500		99500	208400	0200
8	AV joriy ta’mir	62500	-	62500	49700		49700	112200	6010
9	Avtotransport	345000	-	345000	105000		105000	450000	2310
9a	Tannarx farqi	-34500	-	-34500	-10500		-10500	-45000	2310
10	Boshqa xarajatlar	86800		86800	32000		32000	118800	1010
11	**j a m i**	1016600		1016600	881140		881140	1897740	
12	Yil boshiga qoldiq	399800		399800	-	-	-	399800	

	(shartli)								
13	**h a m m a-s i**	1416400		1416400	881140		881140	2297540	
II O‘ s i m l i k ch i l i k m a h s u l o t l a r i o l i n i sh i									
14	Don, s	225		225				225	
15	Qiymati, so‘m	1125000		1125000				1125000	2810
16	Don chiqiti, s	70		70				70	
17	Qiymati, so‘m	140000		140000				140000	2810
18	Somon, s	255		255				255	
19	Qiymati, so‘m	102000		102000				102000	1090
	jami mahsulot, so‘m	1367000		1367000				1367000	X

Amortizatsiya, joriy ta’mirlash xarajatlari, sug‘urta to‘lovlari va o‘simlikchilik bo‘linmasiga biriktirilgan qishloq xo‘jalik mashinalarini saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari yordamchi ishlab chiqarishlar, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish bo‘yicha yil davomida to‘planib boriladi. Ko‘rsatilgan xarajatlar yil oxirida tegishli o‘simliklar (o‘simliklar guruhi) va bo‘linmadagi hamda boshqa bo‘linmalardagi hisob obyektlariga bajarilgan shartli etalon gektarlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Buning uchun mazkur qaydnomada ishlangan shartli etalon gektarlarda o‘simliklar (o‘simliklar guruhi) bo‘yicha aks ettiriladi. Bundan tashqari, yil oxirida, tegishli o‘simlik turlari (guruhlari)ga xizmat ko‘rsatgan boshqa bo‘linmalardagi asosiy vositalarning amortizatsiyasi,joriy ta’mirlash xarajatlari, sug‘urta to‘lovlari va boshqa qishloq xo‘jalik texnikalarini saqlash va foydalanish bo‘yicha boshqa xarajatlar o‘tkaziladi.

Oy oxirida, korrespondensiyalanuvchi schotlar bo‘yicha bir tizimga keltirilgan jami xarajatlar, qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o‘tkaziladi.

Qaydnomaning II «O‘simlikchilik mahsulotlari chiqishi» bo‘limida yig‘ib-terib olingan maydon, kirim qilingan mahsulotlar miqdori, qiymati ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, qaydnoma ma’lumotlaridan fermer xo‘jaligining faoliyatini yakunlash, mahsulot yetishtirish bo‘yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va ishlab chiqarish xarajatlari limitlariga rioya qilinishini aniqlanadi.

Oy davomida 2010-schoti kreditining korrespondensiyalanuvchi schotlar bo‘yicha barcha muomalalar bir tizimga keltirilib, jami ma’lumotlar qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o‘tkaziladi.

Yil davomida o‘simlikchilikdan olingan mahsulotlar reja tannarxi bo‘yicha baholanib, 2010—schot kreditidan 2811-«Ombordagi o‘simlikchilik mahsulotlari» schotining debetiga kirim qilinadi.

Agar mahsulot olinayotgan paytida urug‘lik yoki yem-xashak sifatida foydalanilishi ma’lum bo‘lsa, 2010 schot kreditidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schotiga tegishli o‘simlik turi bo‘yicha urug‘lik analitik schoti (masalan, «urug‘lik sholi») ochilib qabul qilinadi.

Yil oxirida, 2010 schot bo‘yicha yordamchi ishlab chiqarish bajargan ishlarning reja va haqiqiy tannarxi o‘rtasidagi farqlar, hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining o‘simlikchilikka to‘g‘ri keladigan ulushi aks ettirilgandan so‘ng o‘simlikchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashga doir tayyorgarlik ishlariga kirishiladi.

6.3. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

6.3.1. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari

Tannarx – xo‘jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichidir. Fermer xo‘jaliklarining faoliyatini baholashda tannarx muhim o‘rin tutadi. Mahsulotlar tannarxini tahlil qilish esa xo‘jalikda foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni topish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga yordam beradi.

Afsuski, hozirgi vaqtda qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxini hisoblashga yetarli e’tibor berilmayapti. Ta’kidlash joizki, bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida nafaqat mahsulotlar tannarxi to‘g‘risidagi axborotlarning aniqligi, balki ularning har xil boshqaruv masalalarini (rejalashtirish, me’yorlashtirish, rezervlarni aniqlash, baho belgilash, samaradorlikni baholash va h.k.) hal etish uchun ishonchliligi, obyektivligi, foydaliligi va moslashuvchanligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan dehqonchilik mahsulotlarining tannarxini

hisoblashda kalkulyatsiya obyektini va Kalkulyatsiya birliklarini asosli tanlash muhim uslubiy masala hisoblanadi.

Shu bois, dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish, hisobga olish va kalkulyatsiyalash obyektlari hamda Kalkulyatsiya birliklari taqdim etildi (ilova).

Mahsulot tannarxini hisoblashdan oldin xarajatlarni aks ettiruvchi schotlar bo‘yicha quyidagilar sinchiklab tekshiriladi:

- barcha qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarning hisobda to‘liq aks ettirilganligi;

- kelgusi yillar hosili uchun qilingan xarajatlarning yillar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanganligi va hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligi;

- tabiiy ofatlar oqibatida zararlangan ekinlar bo‘yicha xarajatlar summasini to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligi;

2011-«Dehqonchilik» schotida aks ettirilgan miqdor ko‘rsatkichlar (kishi-soatlar, ekilgan urug‘lik va ko‘chatlar, solingan o‘g‘itlar va boshqalar) ning to‘g‘riligi va shu kabilar.

Dehqonchilikdan asosiy, yondosh va qo‘shimcha mahsulotlar olinadi. Ishlab chiqarish qanday mahsulot yetishtirish maqsadida tashkil qilingan bo‘lsa, shu mahsulot (paxta, g‘alla, kartoshka va boshqalar) asosiy hisoblanadi. Ayrim ekinlardan ikki va undan ortiq asosiy mahsulotlar olinsa, ular yondosh mahsulotlar deyiladi. Masalan, bir yillik va ko‘p yillik o‘tlardan pichan, urug‘ hamda ko‘k massa olinishi mumkin.

O‘simliklarning biologik xususiyatlariga qarab asosiy mahsulotlar bilan birga ikkinchi darajali,ya’ni qo‘shimcha mahsulotlar ham olinishi mumkin (poxol, somon, palak va boshqalar). Demak, o‘simlikchilikdan asosiy va xo‘jalikda foydalaniladigan qo‘shimcha mahsulotlar ham olinadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdagi eng muhim hisob ishlaridan biri xarajatlarni asosiy (yondosh) va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida to‘g‘ri (haqqoniy) taqsimlashdir. Ekinlardan faqat bir xil mahsulot olinsa, uning tannarxi qilingan barcha xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot hajmi (sentner, kilogramm, dona) ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Agar ekinlardan ikki va undan ortiq mahsulotlar olinsa, tannarx hisoblashda maxsus uslublar qo‘llaniladi. Bunday hollarda xarajatlar asosiy (yondosh) va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida iqtisodiy asoslangan uslublar bo‘yicha taqsimlanadi va tegishli mahsulot turi (asosiy, yondosh, qo‘shimcha)ga to‘g‘ri kelgan xarajat summasi mazkur mahsu-

lot miqdoriga bo‘linib, mahsulot birligi (s, kg, dona) ning tannarxi aniqlanadi.

Dehqonchilikda ekinlardan olingan hosil turlari, tugallanmagan ishlab chiqarishga o‘tkaziladigan (ularning turlari bo‘yicha) kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar, korxonaning o‘z aylanma mablag‘i hisobidan yer holatini yaxshilash bo‘yicha qilingan ishlar tannarx hisoblash obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlashda mahsulotni qayergacha yetkazib berish (franko) xarajatlari qo‘shilishini bilish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda belgilangan tartibga asosan mahsulotlarni quyidagi joylarga yetkazib berish (franko) xarajatlar qo‘shib hisoblanadi:

a) g‘alla, paxta, kungaboqar urug‘i-franko-dala (xirmon yoki daladan mahsulot yig‘iladigan boshqa joy);

b) somon, pichan-franko-saqlash yoki qaytadan ishlov berish joy;

B) kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari mahsulotlari, lavlagi va boshqa ildiz mevalar-franko-saqlash joyi;

g) qand lavlagi (fabrikada qayta ishlanadigan) – franko-dala;

d) parnik issiqxona sabzavoti-franko-ombor yoki franko-qabul punkti;

e) silosbop ko‘k massa-franko siloslash joy;

j) vitaminlashtirilgan o‘t uni tayyorlash uchun o‘rilgan ko‘k massa – franko oziq tayyorlaydigan joyi.

Demak, mahsulotni iste’molchilar (tayyorlov tashkiloti, dehqon bozori, agar xo‘jalik yetkazib berayotgan bo‘lsa, bolalar muassasalari va shu kabilar)ga yetkazib berish xarajatlari dehqonchilik mahsulotining tannarxiga kiritilmaydi.

Mahsulotni saqlash joylari (ombor, oziq saqlanadigan joylar)gacha yetkazib berish xarajatlari tannarxga kiritiladi, ya’ni ular yil davomida 2011-schotining debetida aks ettiriladi.

6.3.2. Paxtachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Paxtachilikda o‘rta tolali va ingichka tolali paxta navlari mahsulot tannarxini hisoblash obyekti bo‘lib hisoblanadi. G‘o‘zapoya va g‘o‘za po‘choq (agar foydalanilsa) yordamchi mahsulot bo‘lishi mumkin.

1 sentner paxtaning tannarxini hisoblash uchun g‘o‘zapoya va g‘o‘za po‘choqlar normativ xarajatlar bo‘yicha baholanib, paxtachilik

bo‘yicha qilingan umumiy xarajatdan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajat summasi hisobga o‘tgan paxta miqdoriga bo‘linadi.

Misol: fermer xo‘jaligida hisobga o‘tgan 2620 sentner o‘rta tolali paxtani yetishtirish uchun 83316,0 ming so‘mlik xarajat qilingan. g‘o‘zapoya va g‘o‘zapo‘choqlarning normativ xarajatlar bo‘yicha qiymati 164,0 ming so‘m. Demak, 1 sentner paxta tannarxi 31,8 ming so‘mni tashkil etadi (83480,0-164,0) : 2620. Paxtaning tannarxini alohida navlari bo‘yicha aniqlashda xarajatlar summasi ularning xarid bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. So‘ngra mazkur navga tegishli xarajatni shu nav bo‘yicha hisobga o‘tgan paxta xom ashyosi miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan har bir nav bo‘yicha 1 sentnerining tannarxi aniqlanadi.

6.3.3. G‘alla ekinlari mahsulotlarining tannarxini hisoblash

G‘alla ekinlari mahsulotining tannarxi ularga qayta ishlov berish,quritish natijasida kamayishi va xo‘jalikda foydalanilmaydigan xas-cho‘plar vazni chiqarib tashlangandan keyingi vaznda aniqlanadi. Masalan, fermer xo‘jaligida yetishtirilgan g‘allaning bunker vazni 992 sentner. g‘allaga qo‘shimcha ishlov berish va uni quritish natijasida kamayishiga tuzilgan dalolatnomalar bo‘yicha:

a) g‘allani xas-cho‘pdan tozalash va quritish tufayli kamaygan vazni 12 sentner;

b) em uchun foydalaniladigan don chiqiti (laboratoriya tahlili natijasida tarkibida 40% don borligi aniqlangan) – 80 sentner. Undan tashqari, 54 sentner somon olingan. Demak, 830 sentner sof g‘alla bilan 80 sentner don chiqitining tannarxini aniqlash kyerak.

G‘allaning tannarxini aniqlash uchun 2010-«Dehqonchilik» schotining tegishli analitik schotida g‘allaning mazkur turi bo‘yicha hisobga olingan barcha xarajatlar summasidan somon uchun normativlar bo‘yicha qilinadigan (o‘rib-yig‘ib olish, presslash, jo‘natish, g‘aramlash) xarajatlari summasi chegirib tashlanadi. Qolgan summa g‘alla bilan don chiqiti tarkibidagi sof don hajmiga mutanosib taqsimlanadi. So‘ng don chiqiti tarkibidagi 1 sentner donning tannarxi aniqlanadi.

Fermer xo‘jaligida yuqorida keltirilgan miqdordagi g‘alla mahsulotlarini yetishtirish uchun 13200000 so‘m sarflangan.

G‘alla mahsulotlari tannarxini aniqlash uchun jami qilingan xarajatlardan somonning normativ qiymati chegirib tashlanadi. Faraz qilaylik, 54 sentner somonning normativ xarajatlar bo‘yicha qiymati 270000

so‘mga teng, unda 1 sentner somonning normativ tannarxi 5000 so‘m (270000:54) bo‘ladi. Bu holda g‘alla bilan don chiqitiga tegishli xarajat 12930000 so‘mni (13200000-270000) tashkil etadi.

Don chiqitining tarkibida 40% don bo‘lganligi uchun g‘allaga aylantirilganda 32 sentner bo‘lsa (80x40:100), jami shartli g‘alla miqdori 862 sentner (830+32) ga teng. Shundan don chiqitidagi g‘alla miqdori 3,712%ni (32x100:862) tashkil etadi. Demak, somonning normativ qiymati (270000 so‘m) chegirib tashlangandan so‘ng qolgan xarajatlar summasining 3,712%i don chiqiti (g‘alla)ga tegishlidir. Bu 480000 so‘mni (12930000x3,712:100) tashkil etadi. Shunday qilib, 1 sentner don chiqiti tannarxi 6000 so‘m (480000:80) bo‘lsa, 1 sentner sof don tannarxi 15000 so‘mga (12930000-480000):830) teng.

Amaldagi tartibga muvofiq urug‘chilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan urug‘lik don tannarxi quyidagi obyektlar bo‘yicha hisoblanadi: superelita, elita, I va II reproduksiya va foydalaniladigan don chiqiti.

Bir sentner tegishli reproduksiyadagi urug‘lik don (superelita, elita, I reproduksiya va II reproduksiya) tannarxini aniqlash uchun jami xarajatdan don chiqiti normativ qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan urug‘lik donga tegishli summa yuqoridagi reproduksiyalarning sotish bahosi bo‘yicha qiymatiga mutanosib taqsimlanadi va olingan summa tegishli reproduksiyadagi urug‘lik donning, ular tozalanib, quritilgandan so‘nggi miqdoriga bo‘linadi. Natijada tegishli reproduksiyadagi I sentner urug‘lik donning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

6.3.4. Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari mahsulotlarining tannarxini hisoblash

O‘simlikchilik tarmog‘ining oziq-ovqat mahsulotlari orasida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu mahsulotlarning ma’lum qismi yangiligicha iste’mol qilinadi. Sabzavotlarning katta qismi konservalash, quritish, tuzlash va boshqa yo‘llar bilan qayta ishlanadi.

Kartoshkaning tannarxini hisoblash uchun jami qilingan xarajatlardan kartoshka palagining normativ qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa olingan standart va nostandart mahsulotlar o‘rtasida. ularning sotish bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Masalan, fermer xo‘jaligida kartoshka yetishtirish uchun 1242000 so‘mlik xarajat qilingan. Kartoshka palagining normativ qiymati 22000 so‘m. Standart va nostandart kartoshkaga taqsimlanadi-

gan xarajat summasi 1220000 so‘m. 1 sentner standart va nostandart kartoshka tannarxini hisoblash quyidagi amalga oshiriladi (6.1-jadval).

6.1-jadval

Kartoshka tannarxini hisoblash

Mahsulot nomi	Miq-do-ri, s.	1s. bozor bahosi (so‘m)	Sotish bahosi bo‘yicha qiymati (so‘m)	Jami qiymati dagi ulushi, %	Xarajat summasi (so‘m)	1 sent-ner-ning tan-narxi (so‘m)
Standart kartosh-ka	86	68000,0	5848000	89,7	5037552	58576
Nostan-dart kartosh-ka	22	30500,0	671000	10,3	578448	26293
Jami	-	-	6519000	100,0	5616000	-

Ochiq yerdagi sabzavotlarni yetishtirish mavsumiy xususiyatga ega. Shu boisdan bozorni yangi sabzavotlar bilan yil davomida uzluksiz ta’minlash maqsadida xususiy mulkchilikka asoslangan yopiq yerdagi sabzavotchilik rivojlanmoqda. Ta’kidlash joizki, ochiq yerdagi va yopiq yerdagi sabzavotchilik tashkiliy-texnologik jihatdan bir-birlaridan sezilarli darajada farq qilib, bu o‘z navbatida ularning tannarxini hisoblashda turli usullarni qo‘llashni taqozo etadi.

Sabzavotlar yetishtirish bilan asosan sabzavotchilikka ixtisoslash-gan fermer xo‘jaliklari shug‘ullanadilar. Lekin ushbu mahsulotlarni ish-lab chiqarish hajmi, assortimenti, tannarxi va samaradorlik ko‘rsatkichlari fermer xo‘jaliklari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi. Yirik ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida mazkur ishlab chiqarish mu-him hisoblanib, asosiy sabzavot mahsulotlari katta maydonlarda et-ishtiriladi. Bunday fermer xo‘jaliklari ichki bozorni sabzavotchilik mahsulotlari bilan ta’minlash va chetga eksport qilish bilan ham shug‘ullanadilar. Ular odatda, shahar atrofida joylashgan bo‘lib, mahsulotlarni iste’molchilarga etkazish xarajatlari, ushbu mahsulotlar tez buziluvchan bo‘lganligi bois, yo‘qotishlar ham qisqaradi.

Ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari xo‘jalikning ichki ehtiyojlarini qondirish va qisman bozorda sotish uchun ishlab chiqariladi.

Sabzavotchilikda har xil mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada farq qiladi. Chunki bozorda ularga bo‘lgan talab va mahsulotlarning tayinlanishi ham turlicha. Shu munosabat bilan ochiq yerdagi sabzavotchilik asosiy ekinlar (karam, bodring, pomidor, lavlagi, sabzi, sarimsoqpiyoz)va boshqa sabzavot ekinlariga (petrushka, salat, shpinat, ukrop) bo‘linadi.

Ushbu sabzavot mahsulotlarining ahamiyati, yetishtirish hajmi va fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashganligini hisobga olgan holda sabzavot ekinlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish obyektlari belgilanadi. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida xarajatlar har bir asosiy ekin turi bo‘yicha alohida va boshqa ekinlar bo‘yicha bir butunligicha, ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida esa ochiq yerdagi barcha sabzavot ekinlari bo‘yicha butunligicha hisobga olinadi. Bu o‘z navbatida Kalkulyatsiya obyektlari va har xil ekinlar mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini belgilashda tegishli yondashuvlarni taqazo etadi. Masalan, ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari har bir asosiy ekin turi bo‘yicha alohida, boshqa ekinlar bo‘yicha butunligicha hisoblanadi. Ixtisoslashmagan xo‘jaliklarda esa ochiq yerdagi barcha sabzavot mahsulotlari tannarxi bir butunligicha hisoblanadi.

Odatda sabzavot ekinlaridan bir turdagi mahsulotlar olinadi. Ayrim hollardagina palak, karam bargi, to‘liq rivojlanmagan karam boshlari foydalanilishi mumkin. Bunday mahsulotlar qo‘shimcha hisoblanadi va ko‘k massa tannarxi bo‘yicha baholanadi (agar kirim qilinsa). Shunday qilib, alohida ekin turi, ekinlar guruhi butun quyi tarmoq bo‘yicha asosiy sabzavot mahsulotlari tannarxi uni parvarishlash uchun qilingan barcha xarajatlardan qo‘shimcha mahsulot qiymatini (agar u mavjud bo‘lsa) chegirib, aniqlanadi.

Sabzavotchilik mahsulotlarini kirim qilishda ular standart va nostandart mahsulotlarga bo‘linib, bu keyinchalik mazkur mahsulotlar har bir guruhining tannarxini alohida hisoblash uchun zarur axborotlar bilan ta’minlaydi. Bizning fikrimizcha, standart va nostandart mahsulotlar tannarxini alohida hisoblash uchun asosiy mahsulotga tegishli xarajatlar ushbu mahsulot guruhlari bo‘yicha ularning bozor bahosiga asosan aniqlangan qiymatiga mutanosib taqsimlanishi zarur. Fikrimizni tas-

diqlash uchun fermer xo‘jaligida yetishtirilgan sabzavotchilik mahsulotlari tannarxini hisob-kitobini keltiramiz (6.2-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 1s standart sabzavot mahsulotlari haqiqiy tannarxi 261,0 ming so‘m, 1s nostandart sabzavot tannarxi esa 117,0 ming so‘mni tashkil etgan. 1s standart sabzavot sotishdan 189,0 ming so‘m (450,0-261,0), nostandart sabzavot sotishdan 83 ming so‘m (200,0-117,0) foyda olingan. Demak, fermer standart mahsulotlar ulushini ko‘paytirish va sotish bahosini yanada oshirish imkoniyatlarini izlashi lozim. Sabzavotchilikka ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari ularning turlari bo‘yicha hisoblanishi mumkin. Bunda hisobga olingan xarajatlarning asosiy mahsulotlarga tegishli qismi ularning bozor bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida «boshqa sabzavot mahsulotlari» guruhiga kiruvchi ekinlardan olingan mahsulotlar tannarxi ham shu tartibda aniqlanadi.

6.2-jadval

Fermer xo‘jaligida yetishtirilgan asosiy sabzavot mahsulotlari tannarxi hisob-kitobi

Sabzavot mahsulotlari	Miq-dori, s	1s bo-zor ba-hosi, ming so‘m.	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, ming so‘m.	Ulu-shi, %	Jami xarajat, ming so‘m.	1s tannarxi, ming so‘m.
Standart sabzavot	9050	450	4072500	90,2	2360534	261,0
Nostandart	2200	200	440000	9,8	256466	117,0
Jami	11250	X	4512500	100,0	2617000	X

Asosiy sabzavot ekinlaridan olingan mahsulotlar tannarxini hisoblashda mazkur ekinlar bo‘yicha hisobga olingan xarajatlardan, qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa standart va nostandart mahsulotlarning bozor baholari bo‘yicha aniqlangan

umumiy qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanishi maqsadga muvofiq. Faraz qilaylik, fermer xo‘jaligida «yertagi karam» analitik schot bo‘yicha yil davomida xarajat hisobga olingan. Undan 1200t standart karam, 240t nostandart karam, 13t karam bargi va to‘liq rivojlanmagan karam boshlari olingan. To‘liq rivojlanmagan karamning 1 tonnasi 7000 so‘mdan baholangan. Ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun karamning haqiqiy tannarxini hisoblash tartibini taklif qilamiz. Bunda hisobkitobni bajarishdan oldin jami xarajatdan qo‘shimcha mahsulot qiymati chegiriladi (626200-91000=535200) (6.3-jadval).

6.3-jadval

Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida karam tanarxini hisoblash tartibi (tavsiya)

Mahsulot nomi (guruhi)	Miq-do-ri, t	1s bo-zor baho-si, ming so‘m	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, ming so‘m	Ulu-shi, %	Jami xarajat, ming so‘m	1t. tan-narxi, ming so‘m
Standart karam	1200	850	1020000	93,0	497736	415
Nostandart karam	240	320	76800	7,0	37464	156
Jami	1440	X	1096800	100,0	535200	X

Yil oxirida hisobdan chiqariladigan, qishda saqlash uchun qoldiriladigan mahsulotlar ham shunday tannarx bo‘yicha baholanishi lozim.

6.3.5. Yopiq yerdagi sabzavot mahsulotlari tannarxini hisoblash xususiyatlari

Yopiq yerda sabzavot mahsulotlari yetishtirish asosan parnik va issiqxonalarda amalga oshiriladi. Bunday inshootlar ko‘proq yirik shaharlar atrofidagi mintaqalarda keng tarqalgan. Yopiq yerda sabzavot mahsulotlari yetishtirish xarajatlari ixtisoslashtirilgan fermer

xo‘jaliklarida inshoot turlari (qishgi issiqxonalar, oyna yoki shaffof plenka qoplangan bahorgi issiqxonalar, kichik ko‘lamdagi plyonka bilan qoplangan joylar, isitiladigan yerlar, gidroponika) va ulardagi har bir ekin bo‘yicha alohida, ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida esa har bir inshoot bo‘yicha hisobga olinadi. Amaldagi qoidalarga muvofiq yopiq yerdagi sabzavotchilikda xarajatlarning hisob obyekti bo‘lib inshootlarning turlari (qishki, bahorgi issiqxonalar, parniklar va h.k) bo‘yicha aks ettirilgan xarajatlar qabul qilingan. Bunday xarajatlar butun inshoot bo‘yicha hisobga olinganligi esa har bir issiqxona bo‘yicha har xil mahsulotlar yetishtirilganligi bois, ularni yetishtirish uchun qilingin xarajatlarni mahsulot turlariga taqsimlash zarurati vujudga keladi. Bunday taqsimlash belgilangan bazaga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Bunda mazkur o‘simlik turini parvarishlash uchun sarflangan urug‘likka, ko‘chat va ekish Materiallarigina bevosita xarajat hisoblanadi.

Issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini hisoblashda xarajatlar ekin turlari o‘rtasida metr-kunlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ularni aniqlash uchun issiqxonada mazkur ekin bilan band bo‘lgan maydon uning vegetatsiya davriga (parvarishlangan kunlar soniga) ko‘paytiriladi. Ushbu ma’lumotlar har bir inshoot bo‘yicha yuritiladigan vegetatsiya jurnalidan olinadi. Misol tariqasida bahorgi issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini hisoblashni keltiramiz (6.4-jadval).

6.4-jadval

Bahorgi issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

Ekin turlari Ko‘rsatkichlar	Bodring	Pomidor	Barra piyoz	Hammasi
yer maydoni, m^2	1000	1100	1000	3100
Vegetatsiya davri, kun	120	100	42	X
Kvadrat-metr kunlar	12000	111000	42000	272000
Bevosita xarajatlar (urug‘lik-ko‘chat va h.)	80000	58000	194000	332000
Bilvosita (taqsimlanadigan) xarajatlar	-	-	-	4129500
1kv.m tannarxi, so‘m	-	-	-	1332

Xarajatlarning ekin turlariga taqsimlanishi	1800000	1700000	629500	4129500
Jami xarajat, so‘m	1880000	1758000	823500	4461500
Olingan mihsulot, kg	1253	976	1830	X
1kg mahsulot tannarxi, so‘m	1500	1801	450	X

Issiqxonalardan olingan mahsulotlar standart va nostandart mahsulotlarga ajratilib, kirim qilinadi.

Nostandart mahsulotlar mavjud bo‘lganida xarajatlarni ushbu sifat guruhlari o‘rtasida (ularning tannarxini alohida hisoblash maqsadida)umum belgilangan tartibda, ya’ni mahsulotlarning bozor bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib amalga oshiriladi. Ta’kidlash joizki, qishgi issiqxonalarda yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish summalari qolishi mumkin. Bu holda uni aniqlash va shu bilan barcha xarajatlarni olingan mahsulotlar va yil oxiriga o‘stirishda mahsulotlar o‘rtasida taqsimlash zarurati vujudga keladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash umum belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ya’ni vegetatsiya jurnali ma’lumotlariga muvofiq parvarishlanayotgan ekinlar bo‘yicha kvadrat-metr-kunlar soni va ekish Materiallari qiymati hisob-kitob qilinadi. Shunga asosan tugallanmagan ishlab chiqarishga taalluqli xarajatlar aniqlanadi.

Sabzavot mahsulotlari yetishtirish uchun parniklardan foydalanilganda issiqxonalardagi kabi, urug‘lik va ko‘chat Materiallari qiymati bevosita parvarishlanayotgan ekinlarga olib boriladi. Qolgan xarajatlar esa rom-kunlar soniga mutanosib taqsimlanadi.

Rom-kunlar mazkur ekin turi uchun ishlatiladigan romlar sonini uning vegetatsiya davri (kunlar soni)ga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. Parniklarda yil davomida romooborotlar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun amaldagi qoidalarda taqsimlanadigan xarajatlarni yil bo‘yicha umumiy yillik va siklli xarajatlar bo‘yicha ajratish ko‘zda tutilgan.

*Siklli xarajatlar*ga tuproq tashib keltirish, parniklarni bioyoqilg‘i bilan to‘ldirish va boshqa xarajatlar kiradi. Ular faqat ramooborot yetishtirilgan mahsulotlarga tegishli bo‘ladi (odatda, 1 maygacha bo‘lgan davrda). Bu ko‘proq ko‘rsatilgan davrdan so‘ng tabiiy issiqlik yetarli darajada bo‘lishi va keyingi romooborotlarda bioyoqilg‘idan foydalanishga zarurat yo‘qligi bilan izohlanadi.

Yillik xarajatlar - bu tegishli ekinlarni parvarishlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar. Ular har qanday romooborotga bir xil me’yorda olib boriladi.

Shunday qilib, parniklarda birinchi romooborotda sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha umumiy xarajatlar summasi bevosita, siklli va umumiy yillik xarajatlarga, keyingi romooborotlarda yetishtirilgan mahsulotlarga doir xarajatlar bevosita va umum yillik xarajatlarga bo‘linadi. Parnikda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlari tannarxini hisoblash metodikasini fermer xo‘jaligi misolida ko‘rib chiqamiz (6.5-jadval).

6.5-jadval

Parnikda yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash

Mah-su-lot-lar	Bevo sita xara-jat-lar, so‘m	Siklli xara-jat-lar, so‘m		Yillik umu-miy xara-jatlar, so‘m	Ham-ma xara-jatlar so‘m	Olin-gan mah-sulot kg	1kg tannarxi so‘m			
		1,05 gacha rom-kunlar soni		1 rom-kuni-ga, so‘m	jami	1,05 ga-cha rom kun-lar soni	1 rom-kuni-ga, so‘m	Jami		
Bod-ring	316400	146000		4.45	649700	242000	6.61	1599600	2565700	8276	310
Po mi-dor	286840	101600		4.45	452120	197600	6.61	1306000	2044960	5842	350
Ka-ram ko‘-chat va.k	225840	98400		4.45	437900	98400	6.61	650424	1311346	163.9	8000
Jam i:	829080	346000		4.45	1539720	538000	6.61	3553200	5922000	-	-

Fermer xo‘jaligi parnigida yetishtirilgan ekin turlari bo‘yicha bir yillik bevosita xarajatlar (urug‘lik qiymati) quyidagicha: bodring-316400 so‘m, pomidor-286840 so‘m, ko‘chatlar-225840 so‘m; sabzavot ekinlari va ko‘chatlarni ekish uchun parniklarni tayyorlash xarajatlar (siklli xarajatlar)-1539720 so‘m; sabzavotlar va ko‘chatlarni parvarishlash (yillik) xarajatlar-3553200 so‘mni tashkil etgan. Yil davomida 8276 kg bodring, 5842 kg pomidor, 4000 ming dona ko‘chat yetishtirilgan.

Vegetatsiya jurnali ma’lumotlariga asosan sabzavot va ko‘chatlar uchun rom-kunlar davrlar va yil bo‘yicha aniqlanadi (6.6-jadval).

6.6-jadval

Sabzavot va ko‘chatlar yetishtirishda yillik va davrlar bo‘yicha rom-kunlar soni

Ekinlar	1.05. gacha dastlabki 90 kundagi rom-kunlar (1-romoborot)	1.05. dan keyingi rom-kunlar (2-romoborot)	Bir yillik rom-kunlar soni
Bodring	146000	96000	242000
Pomidor	101600	96000	197600
Karam ko‘chat	98400	-	98400
Va. h.k			
Jami	346000	192000	538000

Umumiy xarajatlarni ham siklli xarajatlar kabi yillik parvarish-lanayotgan alohida ekinlar o‘rtasida taqsimlash maqsadida 1 rom-kuniga to‘g‘ri keladigan xarajatlar aniqlanadi. Bizning misolimizda 1 rom-ku-niga to‘g‘ri keladigan:

1) siklli xarajatlar 1539720/346000=4,45 so‘m.

2) yillik xarajatlar 3553200/538000=6,61 so‘m.

Har bir ekin turi bo‘yicha rom-kunlar sonini 1 rom-kuniga to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasiga ko‘paytirish yo‘li bilan ko‘rsatilgan xarajatlar taqsimlanadi. Buning uchun bevosita, siklli va yillik xarajatlar jamlanadi. Tegishli ekin turi bo‘yicha xarajatlarni olingan mahsulot miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Parnik mahsulotlari tannarxini hisoblashda ularning sifat ko‘rsatkichlari ham hisobga olinishi lozim. Bunda ma’lum ekin turidan

olingan barcha mahsulotlar standart va nostandart mahsulotlarga bo‘linadi. Ekin turlariga olib borilgan xarajatlar standart va nostandart mahsulotlar o‘rtasida ularning bozor bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

6.3.6. Bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash

Meva-sabzavotchilik shirkat xo‘jaliklari tugatilib, ular negizida ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tashkil etilishi natijasida bog‘dorchilik va uzumchilik sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni samarali boshqarish, xususan, mahsulotlar tannarxini to‘g‘ri shakllantirish va uning dinamikasini nazorat qilish, norma va normativlarning haqqoniyligini baholash, tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash, mahsulotlarga baho belgilash hamda uni tezkor qayta ko‘rib chiqish masalalarini ta’minlaydigan tannarx hisoblash uslubini shakllantirish lozim. Bu borada professor N.Yu.Jo‘raev haqli ta’kidlagan: «Mahsulotlar tannarxini hisoblash uchun har bir mahsulot turini ishlab chiqarish samaradorligini ishonchli aniqlashga imkon beradigan uslub zarur»[9].

Darhaqiqat, har bir muayyan sharoit uchun tannarx hisoblashning maqsadga muvofiq uslubi zarur. Masalan, hajmi nisbatan kichik meva-sabzavotchilik fermer xo‘jaliklarida bog‘lar maydoni unchalik katta bo‘lmasdan, asosan bir turdagi meva etishtiriladi. Shuning uchun ushbu tarmoq xarajatlari bitta – «Bog‘dorchilik» analitik schotida butunligicha hisobga olinishi mumkin. Ushbu analitik schotda bog‘larni parvarishlash, hosilni yig‘ishtirish va hosil yig‘ishtirilgandan so‘ng hisobot yili oxirigacha bog‘da bajariladigan ishlar, barcha turdagi daraxtlar va butazorlar bo‘yicha parvarishlash hamda hosilni yig‘ishtirish xarajatlari aks ettiriladi. Natijada, bunday fermer xo‘jaliklarida bog‘dorchilik mahsulotlari bir sentnerining tannarxi bir butunligicha hisoblanadi. Buning uchun barcha xarajatlar kirimga olingan mahsulotlarning umumiy miqdoriga (ularni turlarga ajratmasdan) bo‘linadi. Masalan, fermer xo‘jaligida hisobot yilida xarajatlar 6510000 so‘mni tashkil etib, 186 sentner mahsulot kirim qilingan. Bunda bog‘dorchilikdan olingan 1 sentner mahsulotning haqiqiy tannarxi:

6510000:186=35000 so‘m.

[9] N.YU.Jo‘raev. Ischislenie sebestoimosti produktsii sadovodstva i vinogradstva. Se`lskoe xozyastvo Uzbekistana, №10-11, 1992, s. 44-45.

Bog‘dorchilik mahsulotlarining har bir turi bo‘yicha alohida tannarx hisoblash zarur bo‘lganida xarajatlar har bir mahsulot turining bozor bahosi bo‘yicha aniqlangan umumiy qiymatidagi ulushiga mutanosib taqsimlanishi mumkin. Agar bog‘dorchilik xarajatlari 26354000 so‘m bo‘lib, olingan barcha mahsulotlarning bozor bahosi bo‘yicha qiymati 63540000 so‘mni tashkil etsa, u holda taqsimlash koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

26354000:63540000=0,4147

So‘ngra har bir mahsulotning bozor bahosi bo‘yicha qiymatini ushbu koeffitsient (0,4147)ga ko‘paytirish yo‘li bilan mahsulot turiga tegishli xarajat summasi aniqlanadi. Aniqlangan summa ushbu ekin turidan olingan mahsulot miqdoriga bo‘linib, har bir mahsulot turi birligining haqiqiy tannarxi hisoblanadi.

Agar bog‘ning qator oralariga sabzavot ekilgan bo‘lsa, u holda ushbu ekinlar bo‘yicha barcha xarajatlar alohida «Sabzavotchilik» analitik schotida aks ettirilib, bog‘dorchilik xarajatlariga qo‘shilmaydi. Voyaga yetmagan va foydalanishga qabul qilinmagan yosh bog‘lardan meva va rezavor mevalar olinganda, ular sotish mumkin bo‘lgan baholarda qabul qilinishi mumkin. Ushbu baho summasidan yosh bog‘larni parvarishlash xarajatlari chegirib tashlanadi. Natijada, yosh bog‘lardan olingan mahsulot tannarxi ularni parvarishlash va hosilni yig‘ishtirish xarajatlaridan oshib ketmasligi mumkin (6.7-jadval).

Yerga tushgan mevalar bog‘dorchilikda qo‘shimcha mahsulot sifatida qabul qilinishi mumkin. U foydalanish mumkin bo‘lgan bahoda baholanadi va shu bahoda jami xarajatdan chegirib tashlanadi. Agar ular qayta ishlansa, sifatiga qarab bozor bahosi bo‘yicha baholanadi. Yerga tushgan yoki buzilgan mevalar chorva mollariga berilsa, ular ozuqa ildiz mevalilarning reja tannarxi bo‘yicha baholanib, kirim qilinishi mumkin.

Ixtisoslashgan bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklarida alohida ekin turlari katta maydonlarni egallab, xarajatlar ularning har biri bo‘yicha alohida hisobga olinadi. Shuningdek, bunday fermer xo‘jaliklarida asosiy mahsulotlar bilan bir qatorda yondosh mahsulotlar sifatida qalamcha, parxish, ildiz bachkisi va ildiz qalamchalari ham olinadi.

6.7-jadval

Kichik fermer xo‘jaliklarida bog‘dorchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Mahsulotlar	Olingan mahsulot, s	1s. bozor bahosi, so‘m	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, So‘m	Taqsimlash koeffisienti	Xarajatlar, so‘m	1s. mahsulot tannarxi, so‘m
Olma	160	30000	4800000	0,4147	1990859	12443
Gilos	86	600000	51600000	0,4147	21401734	248857
O‘rik	90	46000	4140000	0,4147	1717116	19077
Uzum	100	30000	3000000	0,4147	1244287	12443
Jami	-	-	63540000	0,4147	26354000	-

Har bir mahsulot turining tannarxini hisoblashda mazkur ekindan olingan barcha mahsulot belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha shartli mahsulotga aylantiriladi. Shundan so‘ng kalkulyatsiyalash umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Masalan, olma yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida bog‘ni parvarishlash va hosilni yig‘ishtirish xarajatlari 3271800 so‘mni tashkil etgan. 6s yerga to‘kilgan va 2s urilgan nostandart olma ozuqa sifatida 1s. 5000 so‘mdan baholanib, chorvachilik fermer xo‘jaligiga sotilgan. Ushbu qo‘shimcha mahsulot qiymati (40000 so‘m) jami xarajatdan chegirib tashlanadi.

Ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida bog‘dorchilik mahsuloti – 1s olma tannarxi quyidagicha:

Olma hosilini yetishtirish, yig‘ishtirish va hosil yig‘ishtirilganidan so‘ng bog‘ni parvarishlash xarajatlari 3271800 so‘m.

Qo‘shimcha mahsulot qiymati:

- yerga tushgan olma (6s x 5000s) 30000 so‘m
- urilgan nostandart olma (2s x 5000s) 10000 so‘m

Kal`kulyatsiyalanadigan mahsulotga tegishli xarajat:

(3271800 – 40000s) = 3231800 so‘m.

Kalkulyatsiyalanadigan mahsulot shartli birliklarga o‘tkazilganda:

-standart olma (80s x 1,0)80

-nostandart olma (30s x 1,0)30

-qalamcha ko‘chatlar (6x 0,5)3
Hammasi 113 s.
1 shartli birlik tannarxi yoki 1s olmaning o‘rtacha tannarxi
(3231800:113s) 28600 so‘m
Qalamcha ko‘chatlar tannarxi (28600 x 5) 143000 so‘m
Standart va nostandart olma tannarxi
(3231800 – 143000 yoki 28600 x 110) 3088800 so‘m

joriy yilda 1s standart olma o‘rtacha bozor bahosi 60000 so‘m, nostandart olmaniki 40000 so‘m bo‘lgan.

Shunday qilib, haqiqatda olingan olma miqdoridan buzilganlari chegirib tashlangandan so‘ng qolgan qismining tannarxi hisoblanishi lozim. Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaligida 32 sentner nostandart olma hosili olingan.

6.8-jadval

Olma tannarxini hisoblash

Mahsulot nomi (guruhi)	Miqdori, s	1s bozor bahosi, ming so‘m	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, ming so‘m	Ulushi, %	Jami xarajat, ming so‘m	1s tannarxi, ming so‘m
Standart olma	80	60000	4800000	80	2471040	30888
Nostandart olma	30	40000	1200000	20	617760	20592
Jami	110	X	6000000	100	3088800	X

Shundan urilgan 2 s olma qo‘shimcha mahsulot sifatida chegirib tashlanib, qolgan 30 sentnerining tannarxi Kalkulyatsiyalanishi lozim. Jami xarajat summasidan qo‘shimcha mahsulot qiymati (40000 so‘m) chegirib tashlanganidan so‘ng qolgan summa (3231800 so‘m) alohida mahsulot turlari (olma va qalamcha ko‘chat) o‘rtasida belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha taqsimlanadi. Olmaga tegishli xarajat summasi (3088800 so‘m) esa standart va nostandart olmalarning bozor baholari bo‘yicha qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanib, 1 sentnerining tannarxi aniqlanadi (8-jadval). Ushbu misolda mahsulotlar tannarxini

aniqlashning kombinatsiyalashgan uslubi qo‘llanilgan. Ushbu uslub qo‘shimcha mahsulotlar qiymatini chegirish, koeffitsientli va mutanosib taqsimlash usullaridan iborat.

6.3.7. Dehqonchilik mahsulotlarining rejadagi va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish)

Dehqonchilik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi aniqlanganidan so‘ng yil oxiriga sarflanmay qolgan urug‘lik, yem-xashak, tovar mahsulotlar hamda sotilgan, qayta ishlangan, chorva mollariga va boshqa ehtiyojlar uchun sarflangan mahsulotlar qayta baholanadi ya’ni ularning reja tannarxi haqiqiy tannarxiga tenglashtiriladi.

Mahsulotlarning haqiqiy va reja tannarxi o‘rtasidagi farqlar quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: butun korxona bo‘yicha mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha rejadagi va haqiqatdagi xarajat summalari taqqoslanadi va natijada taqsimlanishi lozim bo‘lgan umumiy farq topiladi; mahsulot turlari bo‘yicha umumiy farqni korrektirovka qilinishi kyerak bo‘lgan mahsulot miqdoriga bo‘lib, mahsulot birligiga qancha tejash yoki oshiqcha sarflash to‘g‘ri kelishi aniqlanadi; aniqlangan summalar mahsulotlarning turlari bo‘yicha ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan miqdorlariga ko‘paytiriladi va shu mahsulotlar aks ettirilgan schotlarga qo‘shimcha o‘tkazish (oshiqcha sarflanganda) yoki storno qilinishi (tejalganda) kerak.

Mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlar boshqacha usulda ya’ni tafovutlarning mahsulotlar reja tannarxiga nisbatan foizda hisoblangan hissalari bo‘yicha ham hisobdan o‘chirilishi mumkin. Bu usulda reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: har bir analitik schot bo‘yicha yil davomida kirimga olingan mahsulotlarning reja tannarxini ularni yetishtirishga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi va bunday taqqoslash asosida taqsimlanishi lozim bo‘lgan farq topiladi; topilgan farqlar mahsulotlarning reja tannarxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi; ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan mahsulotlarning reja tannarxi hisoblab chiqarilgan foizga ko‘paytiriladi va korrektirovka qilinishi lozim bo‘lgan summa aniqlanadi.

Mahsulotlar reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlarning jami ma’lumotlari ekin turlari (bir xil ekin guruhlari) bo‘yicha

«Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi»[10]ga o‘tkaziladi.

6.4. Chorvachilik xarajatlari, mahsulotlar chiqishini hisobga olish va tannarxini hisoblash

6.4.1. Chorvachilik tarmog‘i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslari

Chorvachilik tarmog‘i aholining sut, go‘sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida islohotlarning chuqurlashtirish natijasida chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) va xususiy chorvachilik korxonalari rivojlanmoqda. Ushbu tarmoq rivojlanishidagi bunday yo‘nalish mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish, mehnat unumdorligini oshirish mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishga imkon yaratmoqda.

Chorvachilik o‘simlikchilik bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning tarkibiga sut va go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, ipakchilik, baliqchilik va boshqalar kiradi. O‘z navbatida bu tarmoqlarning har biri mahsulotning ayrim turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan holda muayyan ishlab chiqarishlarni: qoramolchilik – sut chorvachiligini hamda mol go‘shti, parrandachilik – tuxum hamda parhez go‘sht yetishtirishni o‘z ichiga oladi.

Shunga ko‘ra, chorvachilikdagi xarajatlar ishlab chiqarish sohalari va turlari bo‘yicha farqlanadi. Bu esa buxgalteriya hisobida o‘z aksini topishi kyerak.

Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi chorvachilikda ham ishlab chiqarish xarajatlari xilma-xil. Ular turli xildagi moddiy xarajatlarni (ozuqa, biopreparatlar, dori-darmonlar, turli Materiallar va hokazolar), sarflangan mehnat, asosiy vositalarning eskirishi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Demak, buxgalteriya hisobi chorvachilik xarajatlarini ularning turlari bo‘yicha qat’iy hisobga olishni ta’minlashi kerak.

---

[10] Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizomning 18-ilovasi (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining 21.01.2008 y. 1-son va S – son qarorlari bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan. № 1781, 26.03.2008 y)

Chorvachilikda mablag‘larning doiraviy aylanishi dehqonchilikdagiga qaraganda muhim farq va xususiyatlarga ega. Tarmog‘da ishlab chiqarishning texnologik jarayoni muomalalarning bir maromda sodir bo‘lishi va bir xilligi bilan o‘simlikchilikdagidan farq qiladi. Bu xususiyatlar albatta, tabiiyki, xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishga ta’sir ko‘rsatadi.

Chorvachilikda, odatda, mablag‘lar sarflanishi va mahsulotlar olish davrlarida uzulishlar uzoq davom etmaydi. Shu bois, joriy yildagi barcha xarajatlar mazkur kalendar yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga tegishli bo‘ladi. Demak, buxgalteriya hisobida chorvachilik xarajatlarini, dehqonchilikdagi singari, yondash yillarga ajratish zaruriyati yo‘q. Chorvachilikdagi barcha xarajatlar joriy yil mahsulotlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobga olinadigan schotlarda aks ettiriladi.

Chorvachilikda dehqonchilikdagi singari bajariladigan ishlar ham xilma-xil bo‘lmaydi. Bunda ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bajariladigan ishlar (oziqlantirish, mollarga qarash va mahsulot olish)ning bir xilligi bilan tavsiflanadi. Bu ishlarning hammasi, odatda, uzluksiz davom etadi va vaqt bo‘yicha qat’iy chegaralanmaydi. Demak, buxgalteriya hisobida xarajatlarni mana shu belgilar bo‘yicha bo‘limlarga ajratish uchun ehtiyoj yo‘q.

Nihoyat, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayoni, odatda, bir joyga jamlangan bo‘ladi. Masalan, sut ishlab chiqarish sutchilik majmuilarida va hokazo. Shunday ekan, buxgalteriya hisobida xarajatlarni ayrim ishlab chiqarish bo‘linmalari bo‘yicha hisobga olishga ham ehtiyoj yo‘q.

Shunday qilib, chorvachilikda ishlab chiqarish xarajatlarini yondash yillar, ish turlari va ba’zan ishlab chiqarish bo‘linmalari kabi muhim belgilar bo‘yicha alohida-alohida hisobga olishga ehtiyoj yo‘q. Xarajatlarni chegaralash va tegishli yakuniy ma’lumotlar olish, odatda, ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishning asosiy turlari va chorva mollarining asosiy guruhlari bo‘yicha;

- xarajatlarning asosiy turlari bo‘yicha;

Ayrim hollarda masalan, qorako‘lchilik va parrandachilikda xarajatlar hisobi bo‘linmalari alohida tashkil etilishi mumkin.

Xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va chorva mollarining guruhlari bo‘yicha hisobga olish analitik hisob obyektlarini to‘g‘ri tashkil etish hisobiga ta’minlanadi. Analitik hisob obyektlari chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo‘yicha, tarmoq ichida esa ishlab chiqarishning har bir turibo‘yicha yoki chorvamollarining guruhi bo‘yicha ochiladi.

Xarajatlarni asosiy turlari bo‘yicha hisobga olish hisob registrlarini tegishli tarzda tuzish orqali ta’minlanadi. Xarajatlarni hisobga olish ko‘p grafali shakldagi registrlarda xarajatlarning har bir tarmog‘iga alohida grafa ajratilgan holda olib boriladi.

Chorvachilik xarajatlarni hisobga olishda har xil uslublardan foydalanish ehtiyoji paydo bo‘lmaydi. Barcha zarur ma’lumotlar analitik hisob va hisob registrlarini odatdagicha tuzish orqali olinadi.

Chorvachilik xarajatlari hisobining olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va chorva mollarning guruhlari bo‘yicha iqtisodiy asoslangan holda ajratish;
- yetishtiriladigan mahsulotning tannarxi shakllanadigan barcha xarajatlarni iqtisodiy jihatdan bir turdagi element va tarmoqlar bo‘yicha aniq ajratib chiqish;
- chorvachilikdan olingan mahsulotlarni o‘z vaqtida, aniq va to‘liq aks ettirish;
- xo‘jalikning bo‘linmalari bo‘yicha xarajatlarni aniq aks ettirish;
- asosiy, yondash va qo‘shimcha mahsulotlar tannarxini iqtisodiy asoslangan holda hisoblash.

6.4.2. Chorvachilikda xarajatlar hisobining obyektlari va moddalari

Chorvachilikka qilingan xarajatlar va undan olinadigan mahsulotlar hisobi olish 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» operatsion va tannarxni hisoblash schotida olib boriladi. Ushbu schotning debeti bo‘yicha xarajatlar, krediti bo‘yicha esa – mahsulotlarning chiqishi aks ettiriladi.

Ushbu schot bo‘yicha xarajatlar chorvachilikning quyi tarmoqlari doirasida chorva mollarining ayrim turlari va guruhlari sifatida hisob obyektlariga ajratib hisobga olinadi. Schot bo‘yicha hisobga olish nomenklaturasi quyidagicha:

Chorvachilikda qoramol – sut chorvachiligi; asosiy poda, barcha yoshdagi yosh chorva mollar va bo‘rdoqiga boqilayotgan mollar, sigir va g‘unajinlar yetishtirish (ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda bir maqsadni ko‘zlab yetishtirish). Qoramol – go‘sht chorvachiligi: asosiy poda, 8 oylikdan katta bo‘lgan yosh mol va bo‘rdoqiga boqilayotgan mol. Buqalar: buqalarning asosiy podasi, boquvga qo‘yilgan har xil yoshdagi buzoqlar va katta yoshdagi buqalar.

Qo‘ychilikda xarajatlar hisobi uning yo‘nalishlari – mayin junli, yarim mayin junli, yarim dag‘al junli, dag‘al junli, qorako‘l tyeri vabarra tyeri bo‘yicha yuritiladi:

Parrandachilikda tuxum qo‘yadigan tovuqlar: katta yoshli tuxum qo‘yadigan tovuqlar; go‘sht uchun boqiladigan tovuqlar, 1 kunlikdan 150 kunlikkacha bo‘lgan jo‘jalar. Go‘sht va go‘sht – tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar: katta yoshli ona tovuqlar; 1 kunlikdan 180 kunlikkacha bo‘lgan yosh tovuqlar; jo‘ja (broylyer)lar. Parrandalarning boshqa turlari (o‘rdaklar, g‘ozlar, kurkalar va b.) bo‘yicha hisob ikki guruhga ajratib yuritiladi: katta yoshdagi va barcha yoshdagi yosh parrandalar. Inkubatorlardagi tuxumlar parrandalar turi bo‘yicha hisobga olinadi.

Yilqichilikda (otlar, eshaklar, xachirlar) naslchilik: nasldor (zotli) otlarning asosiy podasi, zotli toychalar (tug‘ilgan yili bo‘yicha). Ishlatiladigan yilqichilik (sut beradigan va uyurdagi yilqilar): asosiy poda, barcha yoshdagi uyurdan ajratilgan yosh yilqilar. Yosh ishchi otlarni yetishtirish alohida hisobga olinadi (katta yoshdagi ishchi otlar bosh soni bo‘yicha xarajatlar 2310-schotda hisobga olinadi).

Tuyachilikda xarajatlarni hisobga olish ikki guruh bo‘yicha yuritiladi: asosiy poda, barcha yoshdagi bo‘taloqlar, bo‘rdoqiga boqiladigan tuyalar. Barcha guruh hayvonlar birgalikda saqlanganda xarajatlar hayvonlarning barcha guruhlari bo‘yicha birlashgan holda hisobga olinadi.

Quyonchilikda va mo‘ynali hayvonlarda. Ishlab chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha (go‘sht, teri, tivit) hisobga olinadi. Mo‘ynali hayvonlar hayvon turlari bo‘yicha ikki guruhga asosiy poda va yosh hayvonlarga bo‘lingan holda hisobga olinadi.

Cho‘chqachilikda chuchqaning asosiy podasi, ikki oylikdan to‘rt oylikkacha bo‘lgan yosh cho‘chqalar, to‘rt oylikdan katta bo‘lgan yosh cho‘chqalar va bo‘rdoqiga boqilayotgan cho‘chqalar. Ixtisoslashtirilmagan xo‘jaliklarda xarajatlar hisobi tarmoq bo‘yicha umumiy yuritiladi.

Baliqchilik, asalarichilik, ipakchilik hayvonlar va parrandalarni sun’iy qochirish. Baliqchilikda: umuman tarmoq bo‘yicha ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda semirtiriladigan va pitomnik havzalari bo‘yicha alohida. Asalarichilikda – asalari boqish, asal, asal changlatish, changlatish bo‘yicha. Ipakchilik – umuman tarmoq bo‘yicha. Sun’iy urchitish – hayvonlar turi bo‘yicha nasl beruvchilar (sperma olish).

Chorvachilikda analitik schotlar hayvonlar guruhlarining turlari yoki yosh-jinslari bo‘yicha ochiladi. Biroq, ayrim hollarda mahsulot tannarxini yanada aniqroq hisoblash maqsadida yondash mahsulotlarn-

ing ayrim turlari bo‘yicha to‘g‘ri xarajatlarni alohida hisobga olish uchun qo‘shimcha analitik schotlar ochiladi. Masalan, qorako‘lchilikda qo‘shimcha analitik schotlar ochilishi mumkin: qo‘ylarning junini qirqish bo‘yicha xarajatlar va qorako‘l terilari olish bo‘yicha xarajatlar. Birinchisiga jun qirqish punktini saqlash, jun qirquvchilar mehnatiga haq to‘lash, junni markalash, saralash va tashish bo‘yicha xarajatlar kiradi; ikkinchisiga - qo‘zichoqlarni so‘yish, dastlabki ishlov berish, tyerilarni oshlash va tashish xarajatlari kiradi. Natijada jun va qorako‘l terining tannarxini aniq belgilash imkoni yaratiladi.

Chorvachilikdagi ayrim analitik schotlarda ozuqa tayyorlash xonalari va sexlarida ozuqa tayyorlash bo‘yicha xarajatlar hisobga olinadi. Belgilangan muddatlarda hisobga olingan xarajatlar bu schotlardan chiqarib tashlanadi va hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha xarajatlar obyektlari schotiga tayyorlangan (berilgan) ozuqa miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

Dehqonchilikdan farq qilgan holda chorvachilik bo‘yicha yil oxiriga, odatda, tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Bu shu bilan bog‘liqki, chorvachilikning asosiy tarmoqlari hisoblangan qoramolchilik, qo‘ychilik va boshqalar bo‘yicha har bir yildagi qilingan xarajatlarni shu yilda olingan mahsulotlar tannarxiga olib boriladi. Lekin, chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, yilqichilik, asalarichilik kabi ayrim tarmoqlarida yil oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘lishi mumkin. Masalan, agar parrandachilikda tuxumlar inkubatorga joriy yilning 10 dekabridan keyin quyilib, yil oxirigacha jo‘jalar ochib chiqarilmagan bo‘lsa, tuxumlar va ularni inkubatorga quyish xarajatlari keyingi yilga o‘tadi.

Asalarichilikda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga asalarilar qishlashi uchun uyalarida qoldirilgan asal qiymati; baliqchilikda – keyingi yilga o‘tadigan baliqlarni urchitish xarajatlari; tuyachilikda esa birinchi bo‘g‘oz bo‘lib, keyingi yilda tug‘adigan tuyalarni saqlash uchun qilingan xarajatlar kiritiladi.

6.4.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi

Chorvachilik tarmog‘ida xarajatlarva olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko‘plab dastlabki hujjatlar qo‘llaniladi. Bular asosan xarajatlar va olingan mahsulotlar hisobga olinadigan dastlabki hujjatlarga bo‘linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat

vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlaridan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatlariga koʻra tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilib boriladi. Masalan, sarflangan yem-xashaklarning dastlabki hisobi yem-xashak sarflash qaydnomasi (94-shakl)da, yigʻma hisobi esa ularni hisobga oladigan maxsus jurnal (35-shakl)da yuritiladi. Unda chorva mollarining har bir turi va guruhi uchun alohida betlar ajratilib sarflangan yem-xashak miqdori, ularning ozuqa birligiga va hazm boʻluvchi proteinga aylantirilgan miqdori, shuningdek, ozuqa-kunlar soniga koʻrsatiladi. Bu jurnalning jamlangan maʼlumotlariga asosan yem-xashak sarflarini hisobga olish yigʻma qaydnomasi tuziladi.

Chorvachilikda sarflangan boshqa moddiy boyliklar (dori-darmonlar, biopreparatlar va boshqalar) belgilangan tartibda limit-zabor kartalari va nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat vositalari sarfi dehqonchilikdagi kabi amortizatsiya hisoblash hujjatlariga asosan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik xodimlari mehnatiga haq toʻlash yetishtirilgan mahsulotlar miqdori va sifatiga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun chorvachilikdan olingan mahsulotlarni rasmiylashtiradigan hujjatlar (sut sogʻishni hisobga olish jurnali, tugʻilgan hayvon bolalarini kirimga olish dalolatnomasi, chorva mollarining vaznini oʻlchash qaydnomasi, chorva mollarini guruhdan-guruhga oʻtkazish dalolatnomasi va boshqalar) mehnatga haq toʻlash uchun asos boʻladi. Chorvachilik xodimlari ishlagan vaqtining hisobi har kuni ish kuni ish vaqtini hisobga olish tabeli(64-shakl)da yuritiladi.

Ushbu hujjatlarga asosan chorvachilik xodimlariga mehnat haqi hisob-kitobi tuziladi.

Chorvachilikdagi ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi chorva mollarining turlari, yoshi va jinsiga qarab ochiladigan analitik schotlarda quyidagi xarajat moddalari boʻyicha yuritiladi:

1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sugʻurta ajratmalari bilan birga, kishi-soati, soʻm;
2. Ozuqalar, ozuqa birligi, soʻm;
3. Chorva mollarini himoya qilish vositalari, soʻm;
4. Ishlar va xizmatlar, soʻm;
5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari, soʻm;
6. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari, soʻm,
7. Sugʻurta toʻlovlari, soʻm;
8. Boshqa xarajatlar, soʻm;

9. Chorva mollarini yaroqsizga (brakka) chiqarish va ularning nobud bo‘lishdan kelib chiqqan yo‘qotishlar, so‘m.

1. «Mehnat haqi xarajatlari (yagona ijtimoiy to‘lov fondiga ajratmalar bilan)» moddasida muayyan chorva turi yoki guruhlariga qarovchi turli toifadagi ishlovchilarning ish haqi yagona ijtimoiy to‘lov fondiga ajratmalar bilan birga, ta’til vaqti uchun to‘lanadigan haqlar hamda moddiy rag‘batlantirish fondidan ajratilgan to‘lovlar aks ettiriladi.

2. «Chorva mollarini himoyalash vositalari» moddasida xo‘jalikning o‘z mablag‘lari hisobidan sotib olinib, sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfeksiyalovchi vositalar hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq sarflar hisobga olinadi.

Budjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan sotib olinib, foydalanilgan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfeksiyalovchi vositalari bu moddaga yozilmaydi.

3. «Yem-xashak» moddasida xo‘jalikning o‘zida ishlab chiqarilgan va chetdan sotib olingan yem-xashaklarning chorva mollariga (ish hayvonlarini ham qo‘shib), parrandalarga va boshqa turdagi chorva mollariga sarflanishi hisobga olinadi. Sotib olingan va xo‘jalikning o‘zida tayyorlangan yem-xashaklar sarflanishi «yem-xashak sarfi» jurnali (35-shakl)da alohida ularning turlari bo‘yicha hisobga olinganligi sababli analitik hisob registrida ushbu modda bo‘yicha birlashtirib hisobga olinadi. Yem-xashak tayyorlash sexlarining xarajatlari ham shu moddada alohida analitik schot ochilib, hisobga olinadi va tayyorlangan yem-xashak miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4. «Ish va xizmatlar» moddasida mazkur chorvachilik tarmog‘i uchun korxonaning o‘z yordamchi ishlab chiqarish bajargan ish va ko‘rsatgan xizmatlarining qiymati hamda chet tashkilotlarning ko‘rsatgan xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobga olinadi. Ushbu xarajat moddasida yuk avtotransporti, ot-ulov transporti, traktorlarning transport ishlari, suv ta’minoti, elektr ta’minoti, ta’mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobga olinadi.

5. «Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita chorvachilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisobga olinadi. Inventar va xo‘jalik jihozlari hamda moslamalarni tiklash uchun qilingan xarajatlar ham shu moddada hisobga olinadi.

6. «Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida ferma larda, tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari aks ettiriladi.

7. «Sug‘urta to‘lovlari» moddasida ish hayvonlari, yosh va mahsuldor mollar, parrandalar, quyonlar, asalarichilik, shuningdek, chorvachilikda foydalanilayotgan binolar, inshootlar va asbob-uskunalarning majburiy sug‘urtasiga doir to‘lovlar aks ettiriladi.

Mollar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta to‘lovlari bevosita tegishli hisob guruhining xarajatlariga o‘tkaziladi. Chorvachilikda asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta to‘lovlari esa chorvachilikning hisob guruhlari o‘rtasida asosiy vositalarni saqlash xarajatlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

8.«Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulot yetishtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, lekin yuqoridagi xarajat moddalarida hisobga olinmagan sarflar aks ettiriladi.

Bularga quyidagilar kiradi: ferma atroflarini o‘rash xarajatlari, dezinfeksiya g‘ovlarini qurish va boshqa xarajatlar; to‘shamalar; sut sog‘uvchilar, molboqarlar va boshqa xodimlarga berilgan maxsus kiyim va poyafzallar, chorva mollari uchun yozgi lagyerlar, bostirmalar va boshqa nokapital inshootlarni qurish xarajatlari.

Shuningdek, oldin 3100-«Kelgusi davr xarajatlari»ni hisobga oladigan (3110, 3120, 3190) schotlarda hisobga olinib, keyinchalik ularning qoplanish davri davomida bir tekis usulda yoki ishlab chiqarilgan mahsulot(bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadigan xarajatlarning chorvachilikka tegishli qismi ham ushbu modda bo‘yicha hisobga olinadi.

9. «Chorva mollarini yaroqsizga (brakka) chiqarish va ularning nobud bo‘lishidan ko‘rilgan zararlar» moddasida boquvda turgan yosh va katta yoshdagi mollar, parrandalar, asalarilar, quyonlar va boshqa hayvonlarning nobud bo‘lishidan ko‘rilgan zararlar aks ettiriladi. Nobud bo‘lgan chorva mollari uchun aybdor shaxslardan undirib olinadigan summa va tabiiy ofatdan ko‘rilgan zararlar bu xarajatlar moddasiga yozilmaydi.

Chorvachilikdagi ayrim tarmoqlarning o‘ziga xosligini hisobga olib, ularda qo‘shimcha xarajat moddalari ham belgilanishi mumkin. Parrandachilikda – «Inkubasiyaga quyilgan tuxumlar qiymati», baliqchilikda – «Suv havzalariga quyilgan baliqchalar qiymati», ipakchilikda – «Ipak qurti qiymati», qo‘ychilikda – «Jun qirqish punkti xarajatlari» mana shunday grafalar bo‘lishi mumkin. Bu grafalarning ko‘plari bo‘yicha xarajatlar oldindan alohida analitik schotlarda hisobga olinadi va belgilangan muddatlarda ko‘rsatilgan grafalar bo‘yicha mansubligiga ko‘ra xarajatlarni hisobga olish obyektlariga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, parrandachilakda, quyonchilikda, hayvonotchilikda, asalarichilikda katta yoshdagi parrandalar, quyonlar, hayvonlar o‘lati va nobud bo‘lgan asalari uyasi qiymatini (moddiy javobgar shaxslarning aybi bilan o‘lat tegishi va tabiiy ofatlar tufayli halok bo‘lishidan tashqari) aks ettirish uchun alohida grafalar belgilanadi.

Chorvachilikdagi xarajatlarning analitik hisobi «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish» qaydnomasida yuritiladi. Unda ishlab chiqarish xarajatlari yuqoridagi moddalar bo‘yicha guruhlanib, analitik hisob obyektlari va tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha tuziladi hamda hujjatlar aylanish grafigiga muvofiq belgilangan muddatda markaziy buxgalteriyaga topshiriladi. Bu qaydnomada xarajatlarning miqdor va qiymat ko‘rsatkichlari yoziladigan qatorlar, hisob obyektlari va tarkibiy bo‘linmalarni yozish uchun esa tegishli grafalar ajratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari qaydnomaga ikki xil: yil boshidan hisobot oyigacha va hisobot oyida kabi ko‘rsatkichlar ko‘rinishida yoziladi. Bu esa xarajatlarni nazorat qilish va yil davomidagi hamda yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda mahsulot tannarxini hisoblash imkonini yaratadi.

Qaydnoma uch qismdan iborat bo‘lib, bir yilga ochiladi. Uning birinchi, «Chorvachilik mahsuloti yetishtirish xarajatlari» bo‘limida barcha texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (ishlangan kishi-soat, oziq-kunlar, sarflangan em-xashaklar) va boshqa xarajatlar chorvachilik hisob guruhlari bo‘yicha bir tizimga keltirilgan. Bu bo‘limda oylik xarajatlar asosiy xarajat moddalar bo‘yicha guruhlanib aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, inventar va xo‘jalik jihozlari sarfi kabilar alohida ko‘rsatiladi. Xarajatlar to‘g‘risidagi jami ma’lumotlar bir oylik vayilboshidan o‘sib borish tartibida aks ettiriladi.

Qaydnomaning ikkinchi «Chorvachilik mahsulotlar chiqishi» bo‘limida chorvachilikdan olingan asosiy va yordamchi mahsulotlar turlari, miqdori va reja tannarxi yoki shartnoma bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymati, ya’ni 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schotining krediti va boshqa korrespondensiyalanuvchi (1010-1090, 2010, 2810 va b.) schotlarning debetiga yoziladigan ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

Bu bo‘limda aks ettirilgan ma’lumotlar moddiy boyliklarning harakati to‘g‘risidagi hisobot (121-shakl), hayvon va parrandalarning harakati to‘g‘risidagi hisobot (102-shakl), hayvonlarning harakatini hisobga

Chorvachilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish
Q A Y D N O M A S I

№	Xarajatlar	Analitik hisob obyektlari						Debet bo‘yicha jami	
		Asosiy poda			Yosh mollar				
		yil boshi-dan	1 oy	jami	yil boshi-dan	1 oy	jami		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
I Chorvachilik xarajatlari									
1	Mehnat haqi	1264000		1264000	650000		650000	1914000	6710
2	Yagona ijt. to‘lov	316000		316000	162500		162500	478500	6520
3	em-xashak	2588000		2588000	1168400		1168400	3756400	1010
4	AV eskirishi	247000		247000	250100		250100	497100	0200
5	AV joriy ta’mir	241500		241500	148200		148200	389700	6010
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
6	Avtotrans-port	530000		530000	170000		170000	700000	2310
6 a	Tannarx farqi	-53000		-53000	-17000		-17000	-70000	2310
7	Boshqa xarajatlar	330500		330500	-	-	-	330500	1010
8	**j a m i**	5464000		5464000	2532200		2532200	7996200	
II Chorvachilik mahsulotlari olinishi									
9	Sut, s	368,8		368,8				368,8	X
10	Qiymati, so‘m	4425300		4425300				4425300	2810
11	Buzoq, bosh	30		30				30	X
12	Qiymati, so‘m	491700		491700				491700	1110

13	Go‘ng, so‘m	50000		50000				50000	2011
14	Semirgan vazn, s				26,0		26,0	26,0	X
15	Qiymati, so‘m				2197000		2197000	2197000	1110
16	Go‘ng, so‘m				43440		43440	43440	2011
	jami mah-sulot, so‘m	4967000		4967000	2240440		2240440	7207440	

olish daftari (34a-shakl), sog‘ilgan sutni hisobga olish jurnali (112-shakl) va shunga o‘xshagan hujjatlarda, hisobot davri ichida aks ettirilgan ko‘rsatkichlarga teng bo‘lishi kerak.

Bu hujjatning uchinchi bo‘limi muomalalarni oy oxirida 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schotining kreditidan boshqa korrespondensiyalanuvchi schotlarning debetiga yozish uchun mo‘ljallangan. Oy oxirida bu ma’lumotlar 10-ASK jurnal-orderga o‘tkaziladi.

Yig‘ma qaydnomada ko‘rsatilgan 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schotining debeti va kreditiga yozilgan oylik summalarning jami jurnal-orderlarga asosan tuzilgan Bosh daftarning (18-ASK shakl)dagi 2012-schotdagi debet va kredit oborotlari yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak.

6.5. Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2012-«Chorvachilik» schoti bo‘yicha hisob ma’lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo‘yicha umumiy xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob obyektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, ozuqa-kunlar va ozuqa birliklari to‘g‘ri hisobga olinishi, chorvachilikning ayrim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining to‘g‘ri aniqlanishi, olingan *asosiy, yondosh va qo‘shimcha* mahsulotlar miqdori hamda qiymatining to‘g‘ri aks ettirilishga e’tibor berish zarur.

Chorvachilikda asosiy mahsulotlar: sut, jun, tuxum, nasl, tirik vazn, umumiy tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash obyektlari bo‘lib

hisoblanadi. Koʻpchilik tarmoqlarda bir vaqtning oʻzida oʻzaro bogʻliq mahsulotlarning bir qancha turlari olinadi. Sut yoʻnalishidagi qoramollardan sut va nasl; qoʻychilikdan – jun, nasl, qoʻshilgan vazn; parrandachilikdan – tuxum, goʻsht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat obyektlari bilan tannarx hisoblash obyektlari bir-biridan farq qiladi va natijada xarajatlarni mahsulot turlariga toʻgʻri taqsimlash zarurati tugʻiladi. Chorvachilikda qoʻshimcha mahsulotga goʻng, parranda axlati, jun-tivit, pat, tyeri hamda nobud boʻlgan hayvonlardan olingan nimtalangan goʻsht va boshqalar kiradi.

Goʻngning tannarxi muayyan sharoitidagi uni yigʻishtirish va toʻshamalarning normativ xarajatlari hamda goʻng chiqarish va saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari boʻyicha mahsulotlar tannarxini hisoblash tartibini koʻrib chiqamiz.

6.5.1. Sut yoʻnalishidagi chorvachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash

Bu yoʻnalishdagi chorvachilikda tannarx hisoblash obyekti boʻlib olingan sut va buzoqlar hisoblanadi.

Bir sentner sut va bir bosh buzoqning tannarxini hisoblash uchun sut yoʻnalishidagi qoramollarga qilingan yillik xarajatlar summasidan goʻng, tullashdan tushgan jun va boshqa shunga oʻxshash qoʻshimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

Misol: hisobot yilida xoʻjalikning sigirlar fermasida 15306000 soʻm xarajat qilinib, 1420 sentner sut, 81 buzoq olingan. 26800soʻmlik goʻng jami xarajatdan chegirib tashlanadi (15306000-26800 q 15279200) qolgan xarajat summasining 90% i sut miqdoriga va 10%i buzoqlar bosh soniga boʻlinadi ya’ni:

bir sentner sut tannarxi =$\frac{15279200x90}{100}$: 1420 s=9684 soʻm.

bir bosh buzoq tannarxi = $\frac{15279200x10}{100}$: 81 bosh q18863 soʻm

Demak, 1 s. sutning tannarxi 9684 sum, bir bosh buzokniki 18863 sum ekan.

6.5.2. O‘stirilayotgan va boquvdagi qoramollarning qo‘shilgan va tirik vaznining tannarxini hisoblash

O‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha tirik vazni, qo‘shilgan vazni va molning umumiy tirik massasi tannarx hisoblash obyektlari bo‘lib hisoblanadi.

Qo‘shilgan tirik vaznning tannarxi ushbu hisob guruhidagi mollarni saqlash xarajatlari umumiy summasini (qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlangan holda) qo‘shilgan tirik massaga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

U yoki bu hayvon turining tegishli guruhi bo‘yicha qo‘shilgan vazn quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_q=Vo+Vch-Vk-Vb, \quad (1)$$

Bunda: V_q - qo‘shilgan (semirgan) vazn;

Vo - yil oxiriga qolgan vazn;

Vch – yil davomida xo‘jalikdan chiqarilgan hayvonlar vazni (no-bud bo‘lgan hayvonlarning yil boshiga bo‘lgan tirik vaznini ham qo‘shgan holda);

Vk – yil davomida xo‘jalikka kirim qilingan hayvonlar vazni;

Vb – yil boshiga bo‘lgan vazni.

O‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha qo‘shilgan vazn tannarxini hisoblashdan tashqari bir sentner tirik massasining ham tannarxi hisoblanadi.

Tirik vazn tannarxini hisoblash shuning uchun ham zarurki, o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollarining har bir turi bo‘yicha 1100-«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schot-lar» (1110-1120) bo‘yicha hisob yuritishda har xil baholar qo‘llaniladi. Masalan, olingan buzoq, uning olingan bosh sonidan qat’iy nazar sut yo‘nalashidagi asosiy podaga qilingan xarajatning 10 foizi bo‘yicha tan-narxi aniqlanadi. Buzoqning qo‘shilgan vazni rejadagi qo‘shilgan vazn tannarxi bo‘yicha baholanadi. Sotib olingan buzoqlar esa haqiqatda sotib olingan baholarda kirim qilinadi. Boquvga qabul qilingan katta yoshli mol va o‘tgan yilgi yosh mollar yil boshidagi bir sentner tirik vazni o‘tgan yillardagi o‘rtacha tannarxi bo‘yicha hisobga olinadi.

Go‘sht yo‘nalishidagi chorvachilikda tannarx hisoblash obyektlari quyidagilar: asosiy poda bo‘yicha – olingan asl, qo‘shilgan tirik vazn va sut, o‘stirishdagi va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha esa qo‘shilgan

tirik vazn va katta yoshdagi chorva mollari guruhi bo‘yicha qo‘shilgan vatirik vazn. Go‘sht yo‘nalishidagi chorva mollaridan olingan sut qo‘shimcha mahsulot bo‘lib hisoblaniladi va asosiy mahsulot tannarxini hisoblashda uning qiymati (davlat xarid narxlari yoki sotish bahosida baholanib) umumiy xarajatlardan chegirib tashlanadi.

6.5.3. Cho‘chqachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Cho‘chqachilik tarmog‘ida tannarx hisoblash obyektlari quyidagilar hisoblanadi: «Asosiy poda» hisob guruhi bo‘yicha qo‘shilgan tirik vazn, «2 oylikdan 4 oylikkacha bo‘lgan cho‘chqalar», «4 oylikdan katta cho‘chqa bolalari» va «boquvdagi katta yoshli cho‘chqalar» hisob guruhi bo‘yicha - qo‘shilgan va umumiy tirik vazn.

Onasidan ajratish paytida 2 oyga to‘lgan cho‘chqa bolalarining tannarxini aniqlash uchun «Asosiy poda» hisob guruhi bo‘yicha qilingan haqiqiy xarajatlar jami summasidan qo‘shimcha mahsulotlar (go‘ng, qil) qiymati normativ bahoda baholanib chegirib tashlanadi. Qolgan summaga onalaridan ajratilmagan cho‘chqa bolalarining yil boshiga bo‘lgan balans qiymati qo‘shilib hosil bo‘lgan summani yil davomida onasidan ajratilmagan cho‘chqa bolalarining umumiy tirik vazniga (o‘lganlarining vazni chegirib tashlanib) taqsimlanadi.

Onasidan ajratilgan bir bosh cho‘chqa bolasining tannarxini hisoblash uchun har sentner tirik vazn tannarxini ularning umumiy vazniga ko‘paytirib, hosil bo‘lgan summa onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari tannarxini hisoblashda tekshiriluvchi va bir martalik ona cho‘chqalarni saqlash xarajatlari ham hisobga olinadi (cho‘chqalar qochirilgandan boshlab ularni saqlash xarajatlari asosiy poda hisobiga o‘tkaziladi).

Boshqa hisob guruhlari bo‘yicha tirik vazn, umumiy tirik vazn va qo‘shilgan tirik vazni tannarxini hisoblash qoramolchilikdagi kabi amalga oshiriladi.

6.5.4. Qo‘ychilik va echkichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Qo‘ychilik va echkichilik mahsulotlarining tannarxi asosiy podadagi va yosh qo‘y echkilarni parvarishlash hamda ularning junini qirqish bilan bog‘liq xarajatlardan iborat. Bu tarmoqda quyidagi

mahsulotlar tannarx obyektlari bo‘lib hisoblanadi: jun-go‘sht va go‘sht – jun yetishtirishga ixtisoslashtirishgan qo‘ychilikda – jun, qo‘shilgan hamda tirik vazni: qorako‘lchilikda - qorako‘l teri, jun, joriy yilda tug‘ilgan qo‘zilar va oldingi yillardagi qo‘zilarning o‘sgan vazni.

Go‘sht va jun yo‘nalishidagi qo‘ychilikdan quyidagi yordamchi mahsulotlar olinadi: shirdon, sut, nobud bo‘lgan va o‘lik tug‘ilgan qo‘zilar terisi, go‘ng va boshqalar. Qorako‘lchilikda bulardan tashqari, barra go‘shti bo‘lishi mumkin.

Qo‘ychilikning barcha tarmoqlaridan olingan mahsulotlar tannarxini hisoblashda hisobot yilida qilingan xarajatlardan qo‘shimcha mahsulotlar qiymati normativ xarajatlar asosida baholanib chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasi olingan asosiy mahsulot turlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Tug‘ilgan qo‘zilar tannarxini hisoblashda asosiy podaga qilingan jami xarajatlardan (qo‘shimcha mahsulot qiymati chegirib tashlangandan qolgani) quyidagi miqdorda ajratib mahsulot birligiga (qo‘zilar bosh soniga) taqsimlanadi: jun-go‘sht va go‘sht – jun yo‘nalishidagi qo‘ychilikda – 10%, romanov qo‘ychiligida – 12% va qorako‘lchilikda – 15%.

Umumiy xarajatdan qo‘zilar tannarxiga o‘tkaziladigan summa chiqarib tashlangandan so‘ng qolgan summa qo‘ychilikdan olingan boshqa asosiy mahsulotlarning (1s ortgan vazn va 1 s jun) realizatsiya bahosi bo‘yicha qiymatiga mutanosib taqsimlanadi. Tegishli summa esa mahsulot miqdoriga bo‘linib, uning o‘lchov birligi tannarxi aniqlanadi.

Qo‘ychilikdan olingan ayrim mahsulotlar bir qancha qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular jun qirqish xarajatlari, junlarni saralash, joylash, markalash va jun qirqish punktlarining xarajatlaridan iborat. Qorako‘l teri olishda esa qo‘zilarni so‘yish, dastlabki ishlov berish, saralash, markalash xarajatlaridan tashkil topadi. Bunday xarajatlar alohida analitik schotlarda hisobga olinib, tannarx hisoblashda bevosita jun va terilar tannarxiga o‘tkaziladi.

Qo‘zilarning sovlig‘idan ajratish paytidagi 1 sentner ortgan tirik vaznining tannarxi, ularning tug‘ilgan paytdagi tannarxiga parvarishlash xarajatlari va yil davomida chetdan keltirilgan qo‘zilar qiymatini qo‘shib qo‘zilarni sovlig‘idan ajratish vaqtidagi joriy yilga tegishli bo‘lgan vazniga (nobud bo‘lgan qo‘zilar vazni ham qo‘shilgan holda) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Echkichilikda ham olingan nasl, tirik vazn va jun tannarxi qo‘ychilikdagi kabi tartibda (qorako‘lchilikdagidan tashqari) aniqlanadi.

6.5.5. Parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Parrandachilikda tannarx hisoblash obyektlari asosiy podadan olinadigan tuxum, o‘stirishdagi yosh parrandalarning qo‘shilgan vazni va sutkalik jo‘jalar hisoblanadi. 1 ming dona tuxum va parrandalarning 1 sentner qo‘shilgan vaznining tannarxi parrandalarni saqlash va parvarishlash xarajatlaridan qo‘shimcha mahsulot (pat, axlat) qiymati chegirib tashlanib, qolgan summani tegishli mahsulot (tuxum, qo‘shilgan tirik vazn) miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan topiladi.

Sutkalik jo‘jalarning tannarxi inkubatsiyaga doir barcha xarajatlardan (tuxumlar qiymatini ham qo‘shgan holda), qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa sutkalik sog‘lom jo‘jalar miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

6.5.6. Yilqichilik va tuyachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash

Yilqichilikda quyidagi mahsulotlar tannarx hisoblash obyekti hisoblanadi: asosiy poda bo‘yicha – baytaldan ajratilgan qulunlar, toylar bo‘yicha o‘sishi va o‘stirilgan toylarning to‘liq qiymati, sut yo‘nalishidagi yilqichilikda qimiz, qulun, katta yoshli boquvdagi otlar bo‘yicha qo‘shilgan va tirik vazn.

Yilqichilikda tulashdan olingan jun, qil, o‘lgan otlarning tyerisi, go‘shti va go‘ng kabi qo‘shimcha mahsulotlar olinadi. Bular normativ asosida yoki bozor narxlarida baholanib kirimga olinadi.

Qulun tug‘ilgan vaqtida biyani asrash 60 ozuqa - kunining qiymati bo‘yicha baholab kirimga olinadi.

Asosiy podadagi qulunlarni biyasidan ajratib olish paytidagi tannarxini aniqlash uchun biyalar, ayg‘irlar va qulunlarni boqish xarajatlari summasidan yordamchi mahsulotlar va ayg‘irlar hamda biyalar bajargan ishlarning (ishchi otlar ot-kunining normativ tannarxi bo‘yicha baholab) qiymatini chegirib tashlab, qolgan summani biyasidan ajratilgan qulunlar soniga bo‘linadi.

Toylar bo‘yicha qo‘shilgan vazn (semirish) aniqlanmaydi ya’ni ular tarozida tortilmaydi. Shuning uchun toylarning o‘sish tannarxi hisoblanadi. Bunda toylarning xo‘jalikda bo‘lgan kunlari sonini aniqlash lozim. Buning uchun toylarning yil boshidan mazkur guruhdan chiqib ketgunga qadar (sotilishi, boshqa hisob guruhiga o‘tkazilishi) yoki ushbu

hisob guruhida hech qanday o‘zgarish bo‘lmasa – yil oxiriga bo‘lgan ozuqa-kunlar soni aniqlanadi. So‘ng umumiy xarajat summasidan qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi. Agar toylar ishchi ot sifatida foydalanilgan bo‘lsa, bajargan ishlar bir ish kunining normativ qiymati bo‘yicha baholanib, aniqlangan summa umumiy xarajatlardan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasini muayyan hisob guruhi bo‘yicha ozuqa kunlar soniga taqsimlash yo‘li bilan bir ozuqa-kun tannarxi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich toylarning muayyan guruhida boqilgan kunlarisoniga ko‘paytirilib ularning o‘sish tannarxi aniqlanadi.

Qimizchilik biyalar ferma sining asosiy mahsuloti biya suti, qimiz va biyasidan ajratilmagan qulunlardir. Biya va ayg‘irlarni asrash xarajatlaridan qo‘shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlab qolgan summa qimiz bilan qulunlarga quyidagicha taqsimlanadi:

Sut – 1 sentner – 1,0; 6-9 oylik 1 bosh qulun – 6,0.

Qimiz olinmaydigan yilqichilikda bir bosh qulun tannarxi biya va ayg‘irlarni asrash xarajatlaridan qo‘shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlanib qolgan summani qulunlar bosh soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tuyachilikda tug‘ilgan bir bosh bo‘taloqning tannarxi urg‘ochi tuyalarning 120 ozuqa-kuni qiymati bilan aniqlanadi. Bir bosh bo‘taloqning moyasidan ajratish vaqtidagi tannarxini aniqlash uchun yil boshiga qolgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga joriy yildagi bo‘taloqni tuyalarning bo‘talog‘i ajratilgunga qadar qilingan saqlash xarajatlarini qo‘shib, olingan summadan katta yoshdagi tuyalar bajargan ishlar, olingan sut, jun va qo‘shimcha mahsulotlar qiymati hamda kelgusi yilga o‘tkaziladigan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qiymati chegirib tashlanadi va qolgan summa bo‘taloqlar bosh soniga bo‘linadi.

Bo‘taloqlar o‘sishining tannarxi ham yilqichilikdagi kabi aniqlanadi. Lekin bu ishda ayrim xususiyatlar mavjud. Tuyalar ikki yilda bir marta bolalaydi va ularning bo‘g‘ozlik davri 13 oygacha cho‘ziladi. Shuning uchun ham tuyalarning bir yillik asrash xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kelgusi yilga qoldiriladi.

6.5.7. Asalarichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Asalarichilikdan asosan asal olinadi va qishloq xo‘jalik ekinlarini changlatishda foydalaniladi. Bu tarmoqda olinadigan asal, mum, yangi

asalari uyalari, ona asalarilar, ona asalari suti tannarx hisoblash obyekti hisoblanadi. Changlantiriladigan ekinlarning maydoni va hosildorligiga qarab asalarichilik xarajatlarining rezavor-meva ekinlari va urug‘lik bedaga 40-60 foizi, boshqa ekinlarga 20-40 foizi o‘tkaziladi. Asalarichilikdan olinadigan mahsulotlar (naslsiz ona ari, nasl beradigan ona ari, yangi asalari uyalari, asal, ona asalari suti, mum va xokazo) tannarxi qilingan xarajatlar summasini olingan mahsulot turlariga ularning xarid narxi bo‘yicha bahosiga mutanosib taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Ortgan mum kataklarning tannarxi eritilgan konditsiyadagi mumlar tannarxi bo‘yicha aniqlanadi. Bunda uyadagi 435x230 mm hajmdagi mum katak 140 gramm, 435x125 mm – 110 gramm, 435x145 mm – 70 gramm mumga teng qilib olinadi.

Yangi asalari oilalari ularni sotish bahosida kirimga olinadi. Bunda 1 kg asalari 10 kilogramm asalga tenglashtiriladi.

Sotilgan, qish-bahor davrida oziq uchun uyalarda va omborlarda qoldirilgan asal asalarichilikdan olingan yangi hosilni tashkil etadi.

Asalarichilikda asalari uyalarining balans qiymati ham aniqlanib, u ona asalari, ishchi asalari, oziq sifatida uyada qoldirilgan asal, asalari yashiklari vashu kabilarning qiymatlari yig‘indisidan iboratdir.

Faqat qishloq xo‘jalik ekinlarini changlantirish uchun mo’ljallangan asalarichilik xarajatlari changlantiriladigan ekinlardan olingan mahsulotlar tannarxiga o‘tkaziladi. Bunda olingan asal, mum va boshqa mahsulotlar qo‘shimcha mahsulot hisoblanib, xarid narxi bo‘yicha baholanadi va xarajatlar summasidan chegirib tashlanadi.

6.6. Sanoat ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot olinish hisobi va tannarx hisoblash

Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, qurilish Materiallari ishlab chiqarish, mayda asbob-uskunalarni tayyorlash va hokazolar uchun qishloq xo‘jalik korxonalari tarkibida yoki mustaqil sanoat korxonalari hamda yordamchi xo‘jaliklar tashkil etiladi. Bunday sanoat korxonalari ishchi kuchining mavsumiy oshiqchaligidan to‘la va samarali foydalanish hamda rentabellikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Sanoat ishlab chiqarishini hisobga olish har bir ishlab chiqarish sarfini hisob obyekti va xarajat moddasi bo‘yicha hisobda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni aniq hisobga olish va ularning tannarxini to‘g‘ri hisoblash, tugallanmagan ishlab chiqa-

rishni to‘g‘ri aniqlash, mablag‘larni tejab sarflashni nazorat qilish, oila pudrati va pudrat asosida ishlaydigan bo‘linmalarning shartnomaviy majburiyatlarni bajarishi ustidan nazorat qilish va har bir korxona bo‘yicha ishlab chiqarish faoliyatining (moliyaviy) natijalarini alohida aniqlashni ta’minlash lozim.

Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishlariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan (tegirmon, sutni qayta ishlash, moyjuvoz, konsyerva va pishloq zavodlari va h.) korxonalar va ishlab chiqarishlar, yog‘och tilish, g‘isht zavodi, salloqxona, hamda mahsulotlarga oddiy ishlov berishga oid ishlab chiqarishlar (meva vasabzavotlarni quritish, bodring va pomidor tuzlash va boshqalar) kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishida qilingan xarajatlar quyidagi moddalar bo‘yicha hisobga olinadi: 1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug‘urta xarajatlari bilan birgalikda. 2. Xom ashyo va Materiallar. 3. Ishlar va xizmatlar. 4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari. 5. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga oid xarajatlar. 6. Sug‘urta to‘lovlari. 7. Boshqa xarajatlar. 8. Yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar.

«Xom ashyo va Materiallar» moddasida tayyorlanadigan mahsulotning negizini tashkil etuvchi yoki uni tayyorlashda zarur bo‘ladigan komponentlar: masalan, tegirmon va juvozxonalarda – donning qiymati; kanop va zig‘irni qayta ishlashda – poyaning qiymati; meva, sabzavot, kartoshka va rezavor mevalarni qayta ishlashda – meva, sabzavot, kartoshka, dukkaklilar, rezavorlar va boshqalar qiymati.

«Yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar» moddasida butunlay yaroqsizga chiqarilgan mahsulot (buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar) qiymati, qurulmalarning dastlabki ishlatish vaqtida buzilgan xom-ashyo, Materiallar va yarim tayyor mahsulotlar qiymati hamda yaroqsizlikni tuzatish xarajatlari aks ettiriladi.

Qolgan xarajat moddalari o‘zlarining mazmuniga qarab 2010 va 2020 schotlar bo‘yicha ko‘rib chiqilgan xarajat moddalariga o‘xshashdir.

6.6.1. Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi

Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olishda xilma-xil dastlabki hujjatlar va hisob registrlari qo‘llaniladi.

Bajarilgan ish va sarflangan mehnatni hisobga olish *ishbay ishlar uchun naryad* (70 va 70a-shakllar)ga asosan amalga oshiriladi.

Salloqxonalarda mollarning so‘yilishini rasmiylashtirish uchun *asosiy podadagi chorva molini brakka chiqarish dalolatnomasi* (№57 shakl), *chorva mollari va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi* (№100 shakl) *chorva mollarini tarozida tortish qaydnomasi* (boquvdagi yosh va katta yoshdagi mollarni so‘yish paytida) kabi dastlabki hujjatlardan foydalaniladi. So‘yishdan olingan mahsulotni hamda mahsulotning tayinlanishi dalolatnomaning orqa tomonidaga shu mahsulotni omborga topshirishga asos bo‘lgan nakladnoy raqamini ko‘rsatgan holda yoziladi.

Sutni va sut mahsulotlarini qayta ishlashni har kuni hisobga olish uchun *sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash qaydnomasi* (№124-shakl) da foydalaniladi. Bu qaydnoma sutni qayta ishlash punktining boshlig‘i tomonidan ikkita nusxada to‘lg‘aziladi. Qaydnomaning birinchi nusxasida qayta ishlash uchun berilgan sut va sut mahsulotlarining nomi, miqdori, sifati, ikkinchi nusxasida esa qayta ishlashdan olingan mahsulotlar xuddi shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha yozib boriladi.

Xo‘jalik tegirmon va juvozxonalarda *don yanchish (maydalash) pattasi (kvitansiyasi)* (122-shakl) dastlabki hujjat bo‘lib hisoblanadi. U tegirmon (juvozxona) boshlig‘i tomonidan don olingan vaqtda ikki nusxada to‘lg‘aziladi. Birinchi nusxasi yanchish uchun don topshirgan shaxsga beriladi, ikkinchisi esa tegirmon (juvozxona)da qoladi.

Sabzavot va mevalarni qayta ishlash uchun sarflangan xom-ashyo, materiallar, idishlar va boshqa materiallar, shuningdek, olingan tayyor mahsulotlarni rasmiylashtirishda *mahsulotni qayta ishlash to‘g‘risidagi hisobot* (123-shakl) tuziladi. Bu hisobot ilova qilingan hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi. Hisobot ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida qayta ishlash uchun qabul qilingan xom-ashyo va Materiallar ko‘rsatilsa, ikkinchi bo‘limida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar aks ettiriladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan hujjatlar, shuningdek, «Ish va xizmatlarni hisobga olish jurnali» ma’lumotlari asosida sex boshlig‘i oy oxirida sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha ishlab chiqarish hisoboti to‘lg‘azadi. Buxgalteriyada tekshirib qabul qilingan ishlab chiqarish hisoboti ma’lumotlari 10-ASK jurnal-orderidagi tegishli schotlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Sanoat ishlab chiqarishiga xarajatlar qilinganda 2030-«Sanoat ishlab chiqarish» schoti debetlanib quyidagi schotlar kreditlanadi:

0500-"Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlar" (0510-0590) nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasiga;

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (1010-1090) – sarflangan xom-ashyo va Materiallar qiymatiga;

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti - qayta ishlashga berilgan tayyor mahsulotlar qiymatiga;

9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» schoti – o‘z xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollarining shartnoma bahosiga;

6710 – «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schoti – hisoblangan mehnat haqi summasiga va boshqa schotlar.

Qayta ishlash uchun boshqa tashkilotlar va aholidan qabul qilingan Materiallarga ishlov berish tannarxini aniqlash uchun alohida analitik schotlarda hisobga olingan xarajatlarni qabul qilingan Materiallar hajmiga bo‘lish kyerak.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari reja tannarxida qabul qilinganda 2030 schot kreditlanib quyidagi schotlar debetlanadi:

1010 – schot o‘z ishlab chiqarishi uchun xom-ashyo va Materiallar sifatida kirimga olingan mahsulotlar qiymatiga.

2810 – schot – sotish va qisman o‘z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan sanoat mahsulotlari qiymatiga;

9720 – schot – tabiiy ofatlar oqibatida to‘liq nobud bo‘lgan sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari uchun qilingan xarajatlar summasiga.

Yil oxirida mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so‘ng uni reja tannarx darajasiga yetkazib qo‘yiladi.

6.6.2. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish va tannarxni hisoblashning xususiyatlari

Sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarining tannarxini hisoblashda mahsulot tayyorlash uchun qilingan xarajatlardan (qayta ishlangan xom-ashyo qiymatinini ham qo‘shgan holda) olingan yordamchi mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa asosiy mahsulot miqdoriga bo‘linadi.

Lekin har bir sanoat ishlab chiqarishi o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lganligi uchun ularning mahsulotlari tannarxini hisoblashda ham shunday xususiyatlar mavjud.

Sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini quyidagi ishlab chiqarishlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Tegirmon (juvozxona)da donni qayta ishlash.

Donni qayta ishlashda, un, yorma, maydalangan don tannarx hisoblash obyektlari bo‘lib hisoblanadi.

Tegirmonda tortilgan I t un, yorma yoki maydalangan donning tannarxi muay'an mahsulot turini tayyorlash uchun tegirmon yoki juvozxonada qilingan xarajatlar umumiy summasidan (qayta ishlangan don qiymatini ham qo‘shgan holda) foydalansa bo‘ladigan chiqindilar qiymati (xarid narxi yoki foydalanish narxida baholanib) chegirib tashlanib qolgan summani qayta ishlashdan olingan mahsulot miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Agar tegirmonda xo‘jalikning o‘zida yetishtirilgan g‘alla bilan birga chet buyurtmachilar va aholi g‘allasi tortilsa, xarajatning umumiy summasidan tortishga qabul qilingan o‘z donining qiymati chegirib tashlanadi va g‘allani tortishga qilingan xarajat aniqlanib olinadi. So‘ngra bu xarajatlar summasi tortilgan g‘alla (o‘ziniki va buyurtmachilarniki) miqdoriga bo‘linib, 1 sentner tortilgan g‘alla tannarxi aniqlanadi.

Xo‘jalikka tegishli tortilgan un, yorma va boshqa mahsulotlar tannarxini aniqlash uchun 1 s g‘allaning tortish tannarxi jamim tortilgan g‘alla miqdoriga ko‘paytirilib, hosil bo‘lgan summaga g‘allaning qiymati qo‘shiladi va qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa olingan un yoki yorma miqdoriga bo‘linadi.

Sabzavot, ho‘l meva va kartoshkani qayta ishlash. sabzavot, mevalar va kartoshkani qayta ishlashdan olingan konservalar, tez muzlatilgan mahsulotlar, tuzlangan va achitilgan mahsulotlar, quritilgan kartoshka va sabzavotlar, quruq mevalar va sharbatlar tannarx hisoblash obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Sabzavot, mevalar va kartoshkani qayta ishlashdan olingan mahsulotlar tannarxi har bir mahsulot turini tayyorlash uchun ketgan xarajatlar summasidan tashkil topadi. Bunda har bir mahsulotni qayta ishlash uchun ochilgan analitik schotlarda qilingan xarajatlar yig‘ib boriladi va xarajatdan xo‘jalikda ishlatiladigan chiqitlarning qiymati (silos ekinlari ko‘k massasi ozuqa birligining reja tannarxida baholanib) chegirib tashlanadi. Qolgan summani olingan tayyor mahsulot miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Meva-sabzavot konservalari va sharbatlar tayyorlashda ming shartli bankamahsulot tannarx hisoblash obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Har bir tayyorlangan mahsulot turini shartli mahsulotga o‘tkazish uchun koeffitsientlardan foydalaniladi. Bu koeffitsiyentlar bir banka yoki shishaga solingan mahsulot massasi va ularning hajmiga bog‘liq.

Masalan, 0,5 l hajmdagi bankada konservalangan bodring uchun 1,53, 1 l hajmdagi uchun 2,83 va3 l hajmdagi bank auchun 8,48 koeffitsientlar qo‘llaniladi. Ming shartli banka tannarxini hisoblash uchun har bir mahsulot turiga sarflangan xarajatlar summasini tayyorlangan shartli banka miqdoriga bo‘lish kyerak.

Sutni qayta ishlash. Sutni qayta ishlashdan olingan sariyog‘, qaymoq, tvorog, kefir va pishloq tannarx hisoblash obyekti hisoblanadi. Sutni qayta ishlashdan olingan ayrim turdagi mahsulotlar tannarxini hisoblash uchun qayta ishlashga sarflangan xarajatlarning umumiy summasidan foydalansa bo‘ladigan ayron, zardob va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa ayrim mahsulot turlariga ularning xarid narxi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Hisobning bunday soddalashtirilgan usuli sutni qayta ishlab chiqarish hajmining unchalik katta bo‘lmagan hollarida qo‘llanilishi mumkin.

Sutni qayta ishlash xo‘jalikda doimiy ishlab turuvchi ishlab chiqarish mavjud bo‘lgan holda xarajatlar hisobi quyidagi bosqich (qayta ishlash) lar bo‘yicha yuritiladi: sutni qaymoqqa aylantirish, yog‘i olingan olingan sutni yog‘siz tvorogga aylantirish, qaymoqni yog‘ga aylantirish va boshqalar. Bunda har bir qayta ishlashga analitik schot ochiladi. Sex sarflari alohida hisobga olinadi. Sutni qayta ishlash bo‘yicha asosiy xarajatlar va sex sarflarini hisobga olish belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha yuritiladi.

Sut mahsulotlari tannarxini hisoblab chiqarish ishlab chiqarishning har bir bosqichi bo‘yicha hisobga olingan xarajatlar va mahsulotning chiqishi ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Birinchi qayta ishlash bosqichida qaymoqning tannarxi qayta ishlab chiqariladi. Buning uchun uning qayta ishlashdagi xarajatlar umumiy summasidan (qo‘shimcha xarajatlar summasi ham shu hisobga kiradi) realizatsiya narxlarida qaymog‘i olingan sut qiymati chiqarib tashlanadi va qolgan xarajatlar summasi qaymoqdan olingan asosiy mahsulot soniga tegishli bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda sariyog‘ tannarxi hisoblab chiqiladi. Buning uchun taqsimlangan qo‘shimcha sarflarni ham hisobga olingan holda qayta ishlashda hisobga olingan xarajatlar summasidan qo‘shimcha mahsulot – ayronning belgilangan narxlardagi qiymati chiqarib tashlanadi va qolgan xarajatlar summasi olingan asosiy mahsulot – sariyog‘ga tegishli bo‘ladi.

Xarajatlarni alohida hisobga olish mavjud bo‘lgan boshqa qayta ishlashlar bo‘yicha ham mahsulot tannarxi mana shunday yo‘l bilan aniqlanadi (pishloq, yog‘li tvorog, quyultirilgan sut ishlab chiqarish).

Sutni qayta ishlab chiqarishda sut xom-ashyosining (sut, qaymoq, yog‘i olingan sut) sarfini va tayyor mahsulotning chiqishini doimiy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. *Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash qaydnomalari* (124-shakl) mana shu maqsadda yuritiladi. Ularda xronologik izchillikda qayta ishlov berishga kelgan sut mahsuloti, qayta ishlashdan keyin olingan sut mahsulotlari nomi, ularning soni va yog‘ning miqdorini qayd qilinadi. Qaydnomaning orqa tomoni ish vaqtini hisobga olish va ish haqini hisoblab chiqish uchun foydalaniladi. Sutni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar sarfi ham mana shu yerda aks ettiriladi. Bunda mahsulotning qayerga, kimga berilganligi, hujjatning tartib nomeri, soni, yog‘ining miqdori ko‘rsatiladi. Qaydnoma asosida har kuni xom ashyo sarfi va tayyor mahsulotning chiqishi nazorat qilinadi.

Mol so‘yish. Chorva mollari va parrandalar korxonaning ichki ehtiyojlari uchun noilojlikdan so‘yiladi. Mol va parrandalarni so‘yishdan asosiy mahsulot – go‘sht, qo‘shimcha mahsulotlar – teri, tuyog‘i, shoxi, pat va boshqalar olinadi. Mol va parrandalarni so‘yishdan olingan mahsulotlar tannarxi ularning har bir turi bo‘yicha aniqlanadi. Masalan, go‘shtning tannarxini hisoblash uchun qilingan jami xarajatdan (so‘yilgan chorva mollari qiymatini ham qo‘shgan holda) qo‘shimcha mahsulotlar, shox, tuyoq, pat va boshqa yordamchi mahsulotlar sotish bahosida baholanib chegirib tashlanadi va qolgan summa olingan go‘sht miqdoriga bo‘linadi. I tonna go‘sht tannarxini uning massasiga tegishli xarajatlar summasini olingan go‘sht miqdoriga (tonna) bo‘lib aniqlanadi.

Qorako‘l teri tannarxini aniqlash uchun oldin qorako‘l qo‘zilarni so‘yish punktiga olib kelish, so‘yish, terilarga dastlabki ishlov berish, so‘yish punktiga doir xarajatlar va so‘yilgan qo‘zilarning qiymati alohida analitik schot ochib hisobga olinadi. So‘ng bu xarajatlardan sotish narxida baholangan qo‘shimcha mahsulot (barra go‘shti, shirdon)lar qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan summani qorako‘l terilarning miqdoriga bo‘lib bir dona qorako‘l tyerining haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

6.6.3. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz (brak) mahsulotlarni hisobga olish

Sifati bo‘yicha belgilangan standartlar, texnik talablar yoki shartnomalarga mos kelmaydigan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar yaroqsiz (brak) hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar yoki yarim tayyor mahsulotlarni baholashda aniqlangan kamchiliklarning tavsifiga ko‘ra yaroqsizlik tuzatiladigan va tuzatilmaydigan yaroqsizlikka bo‘linadi.

Tuzatiladigan yaroqsizlik deb tuzatilganidan so‘ng tayinlanishiga ko‘ra ishlatilishi mumkin bo‘lgan hamda tuzatilish imkoni mavjud va bu iqtisodiy jahatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlik deb tuzatilganidan so‘ng tayinlanishiga ko‘ra ishlatilishi mumkin bo‘lmagan hamda tuzatilish imkoni yo‘q va tuzatish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Bunday buyumlar ishlatish mumkin bo‘lgan bahoda sotiladi yoki boshqa turdagi mahsulotlarni qayta ishlash uchun ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Yaroqsizlik aniqlangan joyiga ko‘ra ichki va tashqi yaroqsizlikka bo‘linadi. Ichki yaroqsizlik deb mahsulot xaridorga jo‘natilgunga qadar korxonada aniqlangan yaroqsizlik hisoblanadi. Mahsulot xaridorga jo‘natilgandan so‘ng aniqlangan yaroqsizlik tashqi yaroqsizlik deyiladi. Yaroqsizlik aniqlangan chog‘da texnik nazorat bo‘limining xodimlari mahsulot chiqishini hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda tegishli belgilar qo‘yadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlik *yaroqsizlik to‘g‘risidagi dalolatnoma* yoki *yaroqsizlik to‘g‘risidagi qaydnoma* bilan rasmiylashtirilib, unda yaroqsizlikning bir qancha faktlari qayd qilinadi.

Dalolatnomada yaroqsizlik tavsifi, uning sababi, yaroqsizga chiqarilgan mahsulot miqdori, yaroqsizlik aybdori, yaroqsiz mahsulot tannarxi, aybdor shaxslardan undirilishi lozim bo‘lgan summa, yaroqsizlikdan yo‘qotishlar hamda yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar qabul qilinganligi to‘g‘risida omborchi yoki qabul qilgan sex belgisi ko‘rsatiladi.

Dalolatnoma texnik nazorat bo‘limining xodimi, usta va sex boshlig‘i tomonidan tuziladi va buxgalteriyaga topshiriladi. U yerda yaroqsiz mahsulotning tannarxi hisoblab chiqariladi. Dalolatnoma xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan tasdiqlanib, unda yaroqsizlikdan

ko‘rilgan zararni hisobdan chiqarish – aybdor shaxsdan undirish yoki ishlab chiqarishga olib borish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlikdan kelib chiqqan yo‘qotishlar uning tannarxidan yaroqsizga chiqarilgan buyumlarning ishlatish mumkin bo‘lgan bahosi bo‘yicha qiymati va aybdor shaxslardan undiriladigan summalarni chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tuzatilmaydigan ichki yaroqsizlik tannarxi belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha haqiqiy xarajatlardan tashkil topadi. Bunda «ishlab chiqarishni tayyorlash va o‘zlashtirish xarajatlari», «yaroqsizlikdan kelib chiqadigan yo‘qotishlar», «boshqa ishlab chiqarish xarajatlari» moddalari hisobga olinmaydi. Buyumlar soni ko‘p bo‘lgan korxonalarda yaroqsizlik odatda reja yoki normativ tannarxdan kelib chiqqan holda baholanadi.

Tuzatiladigan ichki yaroqsizlik tannarxi tuzatish uchun sarflangan xom-ashyo, Materiallar va yarim tayyor mahsulotlar hamda tuzatishda band bo‘lgan xodimlarning ish haqi, ijtimoiy sug‘urta ajratmalari va umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tuzatiladigan ichki yaroqsizlikdan yo‘qotishlar uning tannarxidan aybdor shaxslardan undiriladigan summalarni chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tashqi yaroqsizlik qiymati yaroqsizga chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, xaridorlar tomonidan ushbu mahsulotni sotib olish xarajatlari, hamda yaroqsizga chiqarilgan mazhsulotlarni almashtirishdagi transport xarajatlari yoki iste’molchining yaroqsizga chiqarilgan mahsulotni tuzatish xarajatlaridan tashkil topadi.

Ishlab chiqarishdagi yaroqsizlikdan yo‘qotishlar to‘g‘risidagi axborotlar 2610-«Ishlab chiqarishgdagi yaroqsiz mahsulotlar» schotida umumlashtiriladi. 2610-schotning debetida aniqlangan yaroqsizlikka doir xarajatlar hamda kafolatli ta’mirlash xarajatlari aks ettiriladi. Bu schotning kreditida esa yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlarni kamaytiradigan summalar (yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarning ishlatish imkoni bo‘lgan bahodagi qiymati, aybdor shaxslardan undiriladigan summalar, ishlatilishi natijasida yaroqsizlik vujudga kelgan, mol yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazilgan sifatsiz Materiallar yoki yarim tayyor mahsulotlar uchun undiriladigan summalar va h.k.) hamda yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar sifatida ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladigan summalar aks ettiriladi.

2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning alohida bo‘linmalari, mahsulot turlari, xarajat moddalari va yaroqsizlik sabablari bo‘yicha yuritiladi.

Aniqlangan yaroqsizlik va kafolatli ta’mirlash bo‘yicha xarajatlarga 2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schoti debetlanganda quyidagi schotlar kreditlanishi mumkin:

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (1010-1090) – yaroqsizlikni tuzatishga sarflangan Materiallar qiymatiga;

2010-«Asosiy ishlab chiqarish», 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schotlari – asosiy va yordamchi ishlab chiqarishda aniqlangan, tuzatilmaydigan yaroqsizlikdan yo‘qotishlar hisobdan chiqarilganda;

2110-«O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar» schoti – o‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yaroqsizligi aniqlangan va hisobdan chiqarilganda;

2510-«Umum ishlab chiqarish xarajatlari» schoti – umum ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushi yaroqsiz mahsulot tannarxiga qo‘shilganda;

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar o‘rniga xaridorlarga jo‘natilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi;

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» – mol yetkazib beruvchilardan yaroqsizlikni tuzatishda va kafolatli ta’mirlash bo‘yicha olingan xizmatlar summasiga;

6520-«Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schoti – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha davlat maqsadli fondlariga qlingan ajratmalar summasiga;

6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schoti – yaroqsizlikni tuzatishda ishtirok etgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda;

4220-4290, 6970-schotlar – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar hisobdor shaxslar zimmasidan hisobdan o‘chirilganda;

6990-«Boshqa majburiyatlar» schoti – iste’molchilarning yaroqsizlikni tuzatishga doir xarajatlari bilan bog‘liq sarflar summasiga.

2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schoti kreditlanganda quyidagi schotlar debetlanadi:

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (1010-1090) – yaroqsizlikni tuzatish chog‘ida qolgan Materiallar kirimi va tuzatilmadigan yaroqsizlik ishlatish mumkin bo‘lgan bashoda hisobdan chiqarilganda;

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti, 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schoti – yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlarning mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga qo‘shilganda;

9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schoti – o‘tgan yillardagi yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar hisobdan chiqarilganda.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Asosiy ishlab chiqarish jarayoni hisobining tashkiliy asoslarini tavsiflang.
2. Dehqonchilik tarmoqlarining tasnifi, hisobining uslubiy asoslari va vazifalari qanday?
3. Dehqonchilikda xarajatlar hisobi qanday obyektlar va moddalar bo‘yicha tashkil etiladi?
4. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi qanday tashkil etiladi?.
5. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning asosiy qoidalarini aytib bering.
6. Paxtachilik mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi?
7. G‘allachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini tushuntirib bering..
8. Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari tannarxini hisoblash.
9. Yem-xashak ekinlari tannarxini hisoblash.
10. Bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash.
11. Dehqonchilik mahsulotlarining reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni to‘g‘rilash qanday amalga oshiriladi?.
12. Chorvachilik tarmog‘i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslarini aytib bering.
13. Chorvachilikda xarajatlar hisobining obyektlari va moddalarini aytib bering.
14. Chorvachilikda xarajatlar va olinadigan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi qanday tashkil etiladi?
15. Asosiy chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash usullarini aytib bering.
16. Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari hisobining mazmuni, vazifalari va umumiy tamoyillari.

17. Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi.

18. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblashning xususiyatlari.

19. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz (brak) mahsulotlarni hisobga olish.

NAZORAT TESTLARI

1. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Ta’minotdan boshlanib to tayyor mahsulot olinguncha qilinadigan operatsiyalar

B) Ishlab chiqarish boshlangandan u tayyor bo‘lib, sotilib, to puli kelib tushgungacha bo‘lgan jarayon

C) Ishlab chiqarish boshlangandan (masalan, urug‘ ekilgandan) to tayyor mahsulot olinguncha qilinadigan operatsiyalar

D) Mahsulot tayyor bo‘lib, sotilib, to puli kelib tushgungacha bo‘lgan jarayon

2. Dehqonchilik xarajatlarining analitik hisobi qaysi moddalar bo‘yicha yuritiladi?

A) mehnat haqi; urug‘lik; o‘g‘itlar; o‘simliklarni himoya qilish vositalari; ishlar va xizmatlar; asosiy vositalarni saqlash xarajatlari va boshqalar

B) ma’muriy xarajatlar, sotish bilan bog‘liq xarajatlar, operatsion xarajatlar

C) moliyaviy xarajatlar; urug‘lik; o‘g‘itlar; o‘simliklarni himoya qilish vositalari

D) ma’muriy xarajatlar; urug‘lik; ishlar va xizmatlar; asosiy vositalarni saqlash xarajatlari va boshqalar

3. Asosiy ishlab chiqarishga urug‘lik xarajati qilinsa, qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 2010 Kt 5010

B) Dt 2010 Kt 1010

C) Dt 1010 Kt 2010

D) Dt 2010 Kt 6710

4. Asosiy ishlab chiqarishda ishlayotgan xodimlarga ish haqi hisoblanganda, qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 2010 Kt 6720

B) Dt 2010 Kt 1010

C) Dt 1010 Kt 2010

D) Dt 2010 Kt 6710

5. Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda, qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 2010 Kt 6720

B) Dt 2010 Kt 0220-0290

C) Dt 2010 Kt 1010-1090

D) Dt 2010 Kt 6710

6. Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar olinganda, qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 2810 Kt 1010

B) Dt 2810 Kt 4010

C) Dt 2810 Kt 2010

D) Dt 2810 Kt 2820

7. Dehqonchilik tarmog‘ida xarajatlar qaysi obyektlar bo‘yicha hisobga olinadi?

A) hosildorlik; qishloq xo‘jalik ishlari; taqsimlanadigan xarajatlar; boshqa predmetlar

B) ekinlar va ekin guruhlari; qishloq xo‘jalik ishlari; taqsimlanadigan xarajatlar; boshqa obyektlar

C) chorva mollari mahsuldorligi; qishloq xo‘jalik ishlari; bo‘linadigan xarajatlar; va boshqalar

D) ekinlar va ekin guruhlari; qayta ishlash masalalari; taqsimlanmaydigan xarajatlar; boshqa ishlar

8. 1 s paxtaning tannarxi qanday aniqlanadi?

A) g‘o‘zapoya normativ hujjatlar bo‘yicha baholanib, paxtachilik bo‘yicha umumiy xarajatga qo‘shiladi, xarajat jami summasi paxta miqdoriga bo‘linadi

B) paxtachilik bo‘yicha umumiy xarajat paxta miqdoriga bo‘linadi

C) g‘o‘zapo‘choq normativ hujjatlar bo‘yicha baholanib, xarajat jami summasi paxta miqdoriga bo‘linadi

D) g‘o‘zapoya normativ hujjatlar bo‘yicha baholanib, paxtachilik bo‘yicha umumiy xarajatdan chegiriladi, qolgan xarajat summasi paxta miqdoriga bo‘linadi

9. Asosiy ishlab chiqarishdan tug‘ilgan nasl kirimga olinsa, qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi ?

A) Dt 1110 Kt 2310

B) Dt 1110 Kt 2010

C) Dt 1120 Kt 6010

D) Dt 1110 Kt 6010

10. Sut yo‘nalishidagi chorvachilikda mahsulotlar tannarxi qanday aniqlanadi?

A) jami xarajatdan go‘ng, jun va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatning 90 % i bir sentner sutning va 10 % i buzoqlarning tannarxini tashkil etadi

B) xarajatga go‘ng, jun va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati qo‘shilib, xarajatning 80 % i bir sentner sutning va 20 % i buzoqlarning tannarxini tashkil etadi

C) jami xarajatdan go‘ng, jun va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatning 70 % i bir sentner sutning va 30 % i buzoqlarning tannarxini tashkil etadi

D) jami xarajatga go‘ng, jun va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati qo‘shilib, umumiy xarajatning 50 % i bir sentner sutning va 50 % i buzoqlarning tannarxini tashkil etadi

VII BOB. REALIZATSIYA JARAYONI HISOBI VA MOLIYAVIY NATIJALARNI ANIQLASH

7.1. Realizatsiya jarayoni va moliyaviy natijalar hisobining nazariy asoslari

Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari realizatsiya jarayonida xaridorlarga jo‘natiladi va ular qabul qilib olgan mahsulotlari uchun shartnoma narxida fermer xo‘jaliklariga pul to‘laydi. Mahsulotlarning shartnoma bahosi tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Tayyor mahsulotlar xaridorlarga yetkazib berilgunga qadar bir qancha xarajatlar qilinadi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni xaridorlarga yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar qo‘shilmaydi, ular davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi va asosiy faoliyatdan olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarni sotish (ish bajarish va xizmat ko‘rsatish) shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi va hisob-kitoblar ustidan nazorat o‘rnatish uchun buxgalteriya hisobi oldiga quyidagi vazifalar quyiladi:

− barcha mahsulot (ish, xizmat)lar va ularning alohida turlari bo‘yicha haqiqiy realizatsiya hajmini aniqlash. Realizatsiya hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar buxgalteriya hisobida natural va qiymat o‘lchovlarida ifodalanadi;

− sotilgan mahsulot(ish, xizmat)larning to‘la tannarxi va ularning shartnoma bahosi bo‘yicha qiymatini taqqoslash yo‘li bilan realizatsiya jarayonining haqiqiy natijalarini aniqlash. Olingan foyda yoki ko‘rilgan zarar ko‘rsatkichi nafaqat butun mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) va realizatsiya qilishning, balki ularning alohida turlari bo‘yicha ham rentabelli yoki norentabelli (zarar ko‘rilayotgan) mahsulot turlarini aniqlashga imkon beradi;

− tayyor mahsulotlar va tovarlarning korxona omboridagi holati, ularning barcha harakatlanish bosqichlaridagi saqlanishi, xaridorlardan shartnomada ko‘rsatilgan oldin to‘lov(bo‘nak)larning o‘z vaqtida olinishi, tayyor mahsulotlar va tovarlarning xaridorlarga o‘z vaqtida yuklab

jo‘natilishi va bankka barcha to‘lov hujjatlarining taqdim etilishi hamda yakuniy hisob-kitoblarning amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatish.

Realizatsiya jarayonini hisobga olish uchun qo‘llaniladigan schotlarning xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Bular ichida 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlar sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar», 9110-«Sotilgan mahsulot tannarxi», 9120-«Sotilgan tovarlar tannarxi», 9130-«Sotilgan ishlar, xizmatlar tannarxi» schotlari muhim o‘rin tutadi. Sotilgan mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni to‘la tannarxi 9110, 9120, 9130, schotlarining debet tomonida, olingan daromadlar 9010, 9020, 9030-schotlarning kredit tomonida aks ettiriladi. Shuningdek, realizatsiya jarayoni va moliyaviy natijalarni hisobga olishda 9200-"Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar" (9210-9220), 9300-Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9310, 9320, 9330, 9340, 9350, 9360, 9370, 9380, 9390), 9410-«Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» (9410, 9420, 9430, 9440), 9500-«Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9590), 9600-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» (9610, 9620, 9630, 9640, 9650, 9660, 9690), 9700-«Favqulodda foyda(zarar)larni hisobga oluvchi schotlar» (9710, 9720), 9800-«Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlar» (9810, 9820) va 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar» (9910) qo‘llaniladi (1-ilova. Schotlar rejasining V qismiga qarang). Hisobot davrining oxirida olingan daromadlar xarajatlar bilan taqqoslanib, realizatsiya natijalari aniqlanadi.

Yuqorida bayon qilingan umumiy qoidalarni quyidagi misollar va chizmalar bilan mustahkamlaymiz.

Masalan, korxonaning birinchi sentabr 2011 yilga 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti va uning analitik schotlarida qoldiqlar quyidagicha:

«V» mahsulot 276000 so‘m (18400 dona, haqiqiy tannarxi 15 so‘m),

«G» mahsulot 300000 so‘m (15000 dona, haqiqiy tannarxi 20 so‘m).

Jami:576000 so‘m

1-muomala. Shartnomaga muvofiq xaridor tashkilotga quyidagi mahsulotlar uchun schot taqdim qilindi:

«V» mahsulot 16400 dona, 25 so‘mdan 410000 so‘m,
«G» mahsulot 13000 dona, 32 so‘mdan 416000 so‘m.
Jami: 826000 so‘m

Ushbu muomala buxgalteriya hisobi schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» 826000 so‘m
K-t 9010-«Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schoti 826000 so‘m
Shu jumladan:
«V» mahsulotni sotishdan daromad 410000 so‘m
«G» mahsulotni sotishdan daromad 416000 so‘m.

2-muomala. Shartnomaga muvofiq mahsulotlar shartnoma bahosining 50%i miqdorida bo‘nak olindi:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti» 413000 so‘m
K-t 6310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti 413000 so‘m

3-muomala. Shartnomaga muvofiq xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobdan o‘chirildi.

D-t 9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schoti – 506000 so‘m
K-t 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti – 506000 so‘m.
Shu jumladan:
«V» mahsulotning sotish tannarxi – 246000 so‘m
«G» mahsulotning sotish tannarxi – 260000 so‘m.

4-muomala. Sotilgan mahsulotlar uchun olingan bo‘naklar xaridorga to‘lov hujjatlari taqdim etilganidan so‘ng hisobga o‘tkazildi.

D-t 6310-«Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti 413000 so‘m
K-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» 413000 so‘m

5-muomala. Sotilgan mahsulotlar uchun shartnoma qiymatining qolgan 50%i hisob-kitob schotiga kelib tushdi.

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti» 413000 so‘m
K-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» 413000 so‘m

6-muomala. Sotilgan mahsulotlarni yuklash va yetkazib berish uchun transport tashkilotining schotiga akseptlandi.

D-t 9410-«Sotish xarajatlari» schoti 17400 so‘m

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»17400 so‘m

7-muomala. Royalti bo‘yicha olinadigan summa aks ettirilganda

D-t 4850-«Olinadigan royalti» schoti 12300 so‘m

K-t 9510-«Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schoti12300 so‘m.

8-muomala. Qisqa muddatli bank krediti bo‘yicha foizlar hisoblanganda

D-t 9610-«Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schoti 12000 so‘m

K-t 6920-«Hisoblangan foizlar» schoti 12000 so‘m

9-muomala. Foydadan budjetga to‘lovlar bo‘yicha summalar hisoblanganda

D-t 9810-«Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar» 82600 so‘m

K-t 6410-"Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)"schoti 82600 so‘m

10-muomala. Daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar to‘liq yopildi va yakuniy moliyaviy natija aniqlandi:

10 a) Daromadlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi

Debet 9010-«Tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar» schoti 826000 so‘m

Debet 9510-«Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schoti 12300 so‘m

Kredit 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti 838300 so‘m

10 b) Xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi

Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti 618000 so‘m

Kredit 9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schoti 506000 so‘m

Kredit 9410-«Sotish xarajatlari» schoti 17400 so‘m

Kredit 9610-«Foiz ko‘rinishidagi xarajatlar» schoti 12000 so‘m

Kredit 9810-«Daromad (foyda) solig‘i

bo‘yicha xarajatlar» schoti 82600 so‘m

Sintetik schotlar

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti

D-t	K-t
1.09.ga qoldiq: 576000.	3) 506000

9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi » schoti

D-t	K-t
3) 506000	10 б) 506000

9010-«Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar schoti »

D-t	K-t
10 a) 826000	1) 826000

4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»schoti

D-t	K-t
1) 826000	4) 413000 5) 413000

6310-«Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti

D-t	K-t
4)413000	2) 413000

5110-«Hisob-kitob schoti»

D-t	K-t
2) 413000 5) 413000	

6010-"Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar" schoti

D-t	K-t
	6) 17400

9410-«Sotish xarajatlari» schoti

D-t	K-t
6) 17400	10 б) 17400

9510-«Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schoti

D-t	K-t
10 a) 12300	7) 12300

4850-«Olinadigan royalti» schoti

D-t	K-t
7) 12300	

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schotiga ochilgan analitik schotlar

D-t 2810-schot, «V» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m
1.09.	18400	15	276000	3)	16400	15	246000

ga qoldiq							

D-t 2810-schot, «G» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiy-mati, so‘m
1.09. ga qoldiq	15000	20	300000	3)	13000	20	260000

9010-«Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schotiga ochilgan analitik schotlar

D-t 9010-schot, «V» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiy-mati, so‘m
				1.	16400	25	410000

D-t 9010-schot, «G» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiy-mati, so‘m
				1)	13000	32	416000

9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schotiga ochilgan analitik schotlar

D-t 9110-schot, «V» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiyma-ti, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiy-mati, so‘m
3)	16400	15	246000				

D-t 9110-schot, «G» mahsulot K-t

Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Baho-si, so‘m	Qiy-mati, so‘m	Muo-mala № va sanasi	Miq-dori, dona	Bahosi, so‘m	Qiy-mati, so‘m
3)	13000	20	260000				

7.2. Daromadlar va xarajatlarning turkumlanishi, hisobini tashkil etishning me’yoriy asoslari

«Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari» №0 BHMS va «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli №2 BHMSga muvofiq daromadlar «hisobot davri mobaynida, aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning qisqarishi ko‘rinishidagi iqtisodiy foydalarning ko‘payishidir, *ular xususiy kapitalning ko‘payishiga* olib keladi, xususiy kapital egalari tomonidan qilingan quyilmalar bilan bog‘liq ko‘payishlar bundan mustasno.

Daromadlar turli aktivlarning ko‘payishi ko‘rinishida vujudga keladi; bular nafaqat pul mablag‘lari, balki, realizatsiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning o‘rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo‘lishi mumkin; agar tovarlar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to‘liq to‘lanmagan bo‘lsa, bu, debitorlik qarzlari ham bo‘lishi mumkin. Daromadlar, shuningdek, majburiyatlarni kamaytirish ko‘rinishida ham olinishi mumkin, bu esa korxonaning kapitaliga aktivlarning ko‘payishi kabi ta’sir ko‘rsatadi.

Daromadlarni hisobotda aks ettirish, ular bo‘yicha tuzilgan bitimning bajarilishiga nisbatan quyilgan talablar qondirilgan, bitim bo‘yicha huquqlar va mas'uliyatlarning katta qismi esa xaridor zimmasiga o‘tgan, shuningdek, yuklab jo‘natilgan tovarlar yoki bajarilgan ishlar uchun pul mablag‘larining hammasi olinishiga yetarlicha ishonch mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi. Agar bitim bo‘yicha shartnomada ko‘rsatilmagan jami summa olinmagan bo‘lsa va debitorlik qarzlarining ma’lum qismi uning olinishi mumkinligiga shubha tug‘dirsa – bu hol hisoblab yozilgan daromadning kamaytirilishi uchun sabab bo‘la olmaydi; bunday holatlarda hisobga olishda xarajatlarni kabi shubhali qarzlar summasiga rezyerv yaratish yo‘li bilan aks ettirish zarur.

Moliya-xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad *asosiy*, *operatsion va moliyaviy faoliyat* daromadlaridan iborat.

«Xarajatlar tarkibi … to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olinadigan daromadlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) realizatsiya dan olingan sof tushum;
2) boshqa operatsion daromadlar;
3) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
4) favqulodda daromadlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt daromadlari va xarajatlarining hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ulardan foydalanish hisobi schotlar rejasining V-qism, to‘qqizinchi bo‘limida joylashgan 9000-9900-schotlarda amalga oshiriladi:

9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010-9050);

9100-«Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110-9150);

9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210-9220);

9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» (9310-9390);

9400-«Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» (9410-9430);

9500-«Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9510-9590);

9600-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar hisobga oluvchi schotlar» (9610-9690);

9700-«Favqulodda foyda (zarar)larni hisobga oluvchi schotlar» (9710, 9720);

9800-«Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlar» (9810, 9820);

9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar» (9910-schot).

Ushbu schotlarning barchasi — tranzit (vaqtinchalik) schotlar bo‘lib, hisobot davrining oxirida yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun 9910-schot bilan yopiladi (9200-schotdan tashqari). 9910-»Yakuniy moliyaviy natija» schoti saldosi, ya’ni unda aniqlangan sof foyda (yoki zarar)keyin 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotiga, ya’ni balansga o‘tkaziladi.

Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishi (chiqib ketishi) hollarida 9200-schot 9310, 9320 (foyda olingan hollarda) yoki 9430-schot (zarar ko‘rilgan hollarda) orqali yopiladi.

Schotlar rejasining to‘qqizinchi bo‘limidagi schotlar joylashtirilish tartibiga ko‘ra «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»(2-shakl)ga muvofiq keladi. Mazkur shaklning birinchi satrida sotishdan tushg‘an sof tushum (KQS, aksizlar va shu kabilarni hisobga olmagan holda), ya’ni 9000-schot (9010-9050) ma’lumotlari aks ettiriladi.

Xarajatlarni hisobga olish. Xarajatlar – mahsulot (tovar) larning yetkazib berilishi yoki ishlab chiqarilishi, xizmatlarning ko‘rsatilishi yoki xususiy kapitalining kamayishiga olib keluvchi, biroq uning qatnashchilar o‘rtasida taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lmagan, boshqa faoliyat turlarining amalga oshirilishi oqibatida aktivlarning kamayishi yoki boshqa xil sarflanishi yoki/va qarzlarning vujudga kelishidir. Ya’ni, xarajatlarning asosiy alomatlaridan biri bo‘lib, ularning xususiy kapital summasini kamaytirishiga olib kelishi hisoblanadi.

Pul mablag‘lari summasi (yoxud boshqa aktivlar) ning kamayishini yoki korxonaning tovarlarni sotib olish yoki xizmatlar haqini to‘lashi natijasida majburiyatlari summasining ko‘payishini aks ettiruvchi chiqimlar, xarajatlardan farqli ravishda kapitalning kamayishiga olib kelmaydi. Masalan, agar korxona tovarlarni sotib olsa yoki xizmatlar haqini to‘lasa – ulardan foydalanish vaqtiga qadar kapital summasining kamayishiga ta’sir qilmaydigan chiqimlar hosil bo‘ladi. Xarajatlar tovarlar yoki xizmatlardan foydalanish faktini, ya’ni, ularning xo‘jalik faoliyati jarayonida iste’mol qilinishini anglatadi. Masalan, fermer xo‘jaligi avgust oyida 100,0 ming so‘mlik minyeral o‘g‘it sotib olgan; shunda uning aprel oyiga bo‘lgan chiqimlari 100,0 ming so‘mni tashkil qilgan. Bu operatsiya schotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 1010-«Xom-ashyo va Materiallar» schoti – 100,0 ming so‘m,

K-t (6010) 5110 «Hisob-kitob schoti» - 100,0 ming so‘m

Xo‘jalik operatsiyalari natijasidagi chiqim xarajatlar tarkibiga kiritiladi yoki bo‘lmasa, mazkur davrning oxirida schotlarda Materiallarning qoldig‘i ko‘rinishida hisobga olinadi. Masalan, agar sotib olingan mineral o‘g‘itdan xo‘jalik faoliyatida 60,0 ming so‘m summadagi qismi foydalaniladigan bo‘lsa, xarajatlar 60,0 ming so‘mga ko‘payadi.

Shunday qilib, Materiallar (mineral o‘g‘it) ning ko‘payishi chiqimlarning ko‘payishi bilan (biroq xususiy kapital hajmining o‘zgarishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi) bog‘liq bo‘lib, korxona faoliyatini ta’minlash uchun Materiallar (o‘g‘it) dan foydalanish esa - o‘z navbatida korxona kapitalini kamaytiradigan xarajatlar bilan bog‘liq. Chiqimlar qiymatliklarning sotib olinishi chog‘ida, xarajatlar esa – qiymatliklardan foydalanilganida vujudga keladi.

Mahsulotlar (tovar) lar ishlab chiqarilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishi bilan bog‘liq xarajatlar sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi va hisobotlarda sotishdan olingan daromadlar bilan taqqoslanadi. Mazkur hisobot davrida daromad olinmasligi tegishli daromadni olishni ko‘zlab, maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilgan xarajatlarni kelgusi davrlar (3100-schotlar), tugallanmagan ishlab chiqarish (2000-schotlar) yoki tovar-moddiy zaxiralar (1000-schotlar va boshqalar) xarajatlari sifatida aktivlarga kiritilish imkonini beradi.

Asosiy xo‘jalik faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlardan tashqari, kelgusida biror-bir iqtisodiy naf keltirmaydigan xarajatlardan iborat zararlar ham bo‘lishi mumkin. Ularga quyidagi uchta mezondan biriga javob beradigan xarajatlar kiritiladi:

- kelgusida ma’lum bir daromadlarni keltirib chiqarmasligi;
- aktivlar sifatida tan olib bo‘lmasligi (kelgusi davrlar xarajatlari yoki oldindan to‘langan boshqa xarajatlarga o‘xshash);
- xo‘jalik yurituvchi subyekt balansidagi mol-mulklarning ko‘payishiga olib kelmasligi.

Zararlar iqtisodiy nafning kamayishiga olib kelishi (ya’ni, o‘z xususiyatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmasligi) tufayli, buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq ular ham xarajatlar deb hisoblanadi va hisobotda mustaqil element sifatida ko‘rsatilmaydi. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, zararlar kutilmagan operatsiyalar yoki favqulodda hodisalar, shuningdek, xarajatlarning hisobot davri mobaynida daromadlar bilan to‘liq qoplanmasligi natijasida korxona kapitalining kamayishidan iborat. Masalan, asosiy vositalar yoxud boshqa aktivlarning sotilishidan

olingan zararlar boshqa operatsion xarajatlar sifatida 9430-schotda aks ettiriladi.

Oddiy operatsiyalarga oid xarajatlar ular vujudga kelgan hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishi ko‘rinishida, mazkur operatsiyalar bo‘yicha kelib tushgan daromadlar bilan bevosita aloqadorlikda aks ettiriladi. Daromadlar va xarajatlarning muvofiqligiga albatta rioya etilishi kyerak. Agar qilingan xarajatlar daromadlarning bir necha hisobot davrlari mobaynida kelib tushishini taqozo etsa yoki xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi aloqadorlik aniq belgilanmaydigan bo‘lsa, bunday xarajatlar hisobotda, ularni hisobot davrlari o‘rtasida taqsimlashga oid biror-bir asoslangan hisob-kitoblar asosida aks ettiriladi. Masalan, yangi mahsulotlarni o‘zlashtirishga oid xarajatlar.

Joriy davrda taqsimlab bo‘linmagan xarajatlar buxgalteriya balansida kelgusi davrlar xarajatlarini hisobga oluvchi schotlarda aks ettiriladi. Masalan, gazeta va jurnallar uchun to‘langan yillik obuna haqi.

Ta’kidlash joizki, buxgalteriya tamoyillari bo‘yicha xarajatlarning hisobotlarda aks ettirilishi soliqqa tortish qoidalari bilan hech ham bog‘lanmaydi. Yuqorida bayon qilingan, tan olishga mezonlariga muvofiq, barcha xarajatlar, ularning soliqqa tortiladigan bazaga kiritilishi yoki kiritilmasligidan qat’i nazar, aks ettirilishi kyerak.

Buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida «... xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan qilinadigan barcha xarajatlar quyidagi tarzda guruhlanadi:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar. Bular:

a. bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b. bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

c. boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarishga oid qo‘shimcha xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat) larning tannarxi o‘zida mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan tabiiy resurslar, xom ashyo, Materiallar, yoqilg‘i, enyergiya, asosiy vositalarning amortizatsiyasi, mehnat resurslari, shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan boshqa xarajatlarning qiymatini aks ettiradi.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, ***davr xarajatlarida*** hisobga olinib, asosiy faoliyatdan olinadigan foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar;

a) realizatsiya xarajatlari;

b) ma’muriy-boshqaruv xarajatlari;

B) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar davr xarajatlari bo‘lib hisoblanadi. Ularga ma’muriy-boshqaruv xarajatlari, realizatsiya xarajatlari, boshqa umumxo‘jalik maqsadlaridagi xarajatlar, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga qilingan xarajatlar kiritiladi. Mazkur xarajatlar moddasining xususiyati shundan iboratki, ular ishlab chiqarish jarayonining faoliyat ko‘rsatishi bilan bevosita bog‘liq emas, balki korxonaning tayyor mahsulotlari (bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar) va boshqa aktivlarni sotish jarayoni bilan bog‘liqdir.

Shuningdek, ular ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar yoki tovarlar hajmiga bog‘liq emas, balki ko‘proq, xo‘jalik faoliyatining davomiyligi, vaqti bilan bog‘liq. Ushbu xarajatlar ular yuzaga kelgan hisobot davrida hisobdan chiqariladi.

3. Xo‘jalik yurituvchi subyektning umumxo‘jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki ko‘rilgan zararni hisob-kitob qilish chog‘ida hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar:

– foizlar bo‘yicha sarflar;

– xorijiy valuta muomalari bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

– moliyaviy quyilmalarni (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalarga va h.k.) qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar;

– xususiy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

– moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar korxonaning asosiy faoliyatiga kirmaydi, shuning uchun ular alohida guruhga ajratilgan.

Ular ham, davr xarajatlari kabi, ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot yoki tovarlar hajmiga bog‘liq emas va yuzaga kelgan hisobot davrining o‘zida hisobdan chiqariladi;

4. Favqulodda zararlar., ular daromad (foyda) solig‘i to‘langungacha bo‘lgan foyda yoki zararlarni hisob-kitob qilish chog‘ida hisobga olinadi.

Biroq, soliqqa tortish uchun korxona qaysi xarajatlarini haqiqiy tannarxga va davr xarajatlariga kiritishi alohida ahamiyatga ega emas. Moliyaviy hisobda tannarx va xarajatlarni hisobga olish tartibi faqat soliqqa tortish maqsadida belgilanadi.

Soliqqa tortish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha xarajatlarini shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

1. Soliqqa tortiladigan daromadni kamaytiruvchi xarajatlar, ya’ni soliqqa oid qonun hujjatlari tomonidan chegirishga ruxsat etilgan xarajatlar. Bular tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan (davlat nuqtai nazaridan olganda) xarajatlardir.

2. Soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydigan xarajatlar, ya’ni soliqqa oid qonun hujjatlarida chegirishga ruxsat etilmagan xarajatlar. Bular tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lib hisoblanmaydigan (davlat nuqtai nazaridan olganda) xarajatlardir. Xarajatlarning ushbu guruhiga har qanday turdagi xayriya, homiylik yordami mol-mulklarni tekinga berishlar, xodimlarga beriladigan har xil rag‘batlantirish to‘lovlari, ular uchun turli yo‘llanmalar, ovqatlanish va yo‘l xarajatlari, moddiy yordam, ijtimoiy-madaniy tadbirlar kiritiladi.

Mazkur guruhga korxonaning o‘z aybi bilan yuzaga kelgan va agar faoliyati yaxshi tashkil qilinganda oldini olish mumkin bo‘lgan xarajatlar ham; masalan, mahsulot(ish va xizmat)larning sotilishidan va mol-mulkning sotilishidan ko‘rilgan zararlar; korxona to‘lashiga to‘g‘ri kelgan sud chiqimlari, jarimalar, penyalar, boqimandalar, shuningdek tovar-moddiy qimmatliklarning buzilishi, o‘g‘irliklar (agar aybdor shaxslar aniqlanmagan bo‘lsa) kiritiladi. Bular, shuningdek, davlat nuqtai nazaridan qaralganda isrofgarchilik bo‘lib hisoblanuvchi xarajatlardir: xizmat avtomobilidan, uyali aloqadan foydalanish xarajatlari, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, shuningdek, me’yordan ortiqcha xarajatlardir.

Ushbu guruhga qimmatli qog‘ozlarning chiqarilishi bilan bog‘liq xarajatlar va uzoq muddatli bank krediti, O‘zR Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalaridan ortiqcha qisqa muddatli kreditlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha, shuningdek muddati kechiktirilgan va muddati o‘tib ketgan ssudalarga oid xarajatlar kabi moliyaviy faoliyat xarajatlarini kiritish mumkin.

3. Me’yorlanadigan xarajatlar, ya’ni me’yorlari qonun hujjatlari bilan belgilangan xarajatlar. Bunday xarajatlar me’yorlar doirasidagi qismi soliqqa tortiladigan daromaddan chegirib tashlanishi mumkin; me’yordan ortiqcha xarajatlar esa daromad(foyda) solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladi. Ularga quyidagi xarajat turlari kiradi: xizmat safari xarajatlari, vakillik, reklamaga oid, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasiga oid xarajatlar; kadrlarni o‘qitishga oid xarajatlar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinishi

bo‘yicha chegirmalar; atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik uchun to‘lov, ta’til pullari, ijtimoiy va madaniy-maishiy obyektlarni saqlash xarajatlari, moddiy qiymatliklarning yo‘qolishi va kamomadiga oid va shu singari boshqa xarajatlar.

7.3. Asosiy faoliyatning mahsulot (tovar, ish va xizmat) larini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hisobi

Tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning realizatsiya sidan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytarilishi va chegirmalar quyidagi schotlarda aks ettiriladi:

9010- «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar»

9020- «Tovarlarni sotishdan daromadlar»

9030- «Ishlar bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatishidan daromadlar»

9040- «Sotilgan tovarlarning qaytishi»

9050- «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Realizatsiya dan olingan daromadlarni hisobda aks ettirish paytining belgilanishi uchun huquq konsepsiyasi boshlang‘ich punkt bo‘lib hisoblanadi. Unga muvofiq realizatsiya - bu tovarga bo‘lgan mulkiy huquqning o‘tish paytidir va, shu tariqa, ko‘pincha, sotishdan olinadigan daromad tovarlarning yuklab jo‘natilishi paytida yuzaga keladi.

Biroq amaliyotda yuklab jo‘natish paytida daromadni tan olish mumkin bo‘lmagan vaziyatlar ham bo‘ladi.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar iqtisodiy naf xo‘jalik yurituvchi subyektga kelgusida kelib tushadigan, ikkinchidan, ushbu naf ishonchli va aniq o‘lchanadigan bo‘lsagina aks ettiriladi.

Ushbu ikkala shartga bir xilda rioya etilishi daromadlarni hisobga olishda juda muhim bo‘lib, ularning birinchisi, odatda hech qanday savollar keltirib chiqarmasada, ikkinchisiga aniqlik kirish zarur.

G‘arb mamlakatlari amaliyotida tovarni qaytarish huquqi oddiy holat bo‘lib, ko‘pincha bu haqda oldi-sotdi shartnomalarida qayd etiladi, qaytarib berish davri esa bir necha kundan (tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun) bir necha yilgacha (nashr qilishga oid ayrim huquqlarning oldi-sotdisi uchun) bo‘lishi mumkin. Modomiki qaytarish huquqi mavjud va qaytarish hajmi sezilarli darajada bo‘lishi mumkin ekan, sotuvchi sotilgan mahsulotining qaytarilish riskini o‘z zimmasiga oladi va daromadning kelib tushish jarayonini jami daromad summasining kreditga sotish (yoki qisman oddindan to‘lovlar) sharoitida olinishini is-

honch bilan kafolatlash mumkin bo‘ladigan vaqtga qadar tugallangan deb hisoblash mumkin emas.

Ushbu holatda, №2 BHMSga muvofiq tovarning xaridorga yuklab jo‘natilishi paytidan, to qaytarib berish muddati nihoyasiga etmaguniga qadar daromad deb tan olinmasligi, sotish payti esa 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schotida aks ettirilishi mumkin. Bunda shuni ta’kidlash kyerakki, soliqqa tortish maqsadida daromadni tovarning sotilishi vaqtida tan olish zarur.

Konsignatsion tovarlarni sotish qoidalariga muvofiq oluvchi (xaridor) tovarlarni yukni jo‘natuvchi (sotuvchi) nomidan sotish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, daromad hamda tovarning yuklab jo‘natilishi vaqtida daromad tan olinmaydi, balki tovarlar faqat yukni oluvchi tomonidan uchinchi tarafga sotilgandagina, yukni jo‘natuvchi (sotuvchi) tomonidan tan olinadi.

Mahsulotning sotish bahosi o‘z ichiga sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishning ma’lum bir summasini olgan holdagina, ushbu summaning muddati kechiktirilishi va xizmatlar ko‘rsatib boriladigan davr uchun bo‘lgan asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromad sifatida tan olinishi kerak.

Masalan, kompyuterning realizatsiya bahosi 500 ming so‘mni tashkil qiladi. Ushbu bahoga, oldi-sotdi shartnomasiga binoan, kompyuetrga sotishdan keyingi bir yil davomida xizmat ko‘rsatish summasi — 60 ming so‘m (har oyda 5 ming so‘mdan) kiritilgan. Mazkur holatda kompyuterning sotilishi chog‘ida quyidagi provodka tuziladi:

D-t 5110 «Hisob-kitob schoti»— 500,0 ming so‘m

K-t 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar» — 440,0 ming so‘m

K-t 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» — 60,0 ming so‘m.

Demak, komptyer realizatsiya sidan olingan daromad tovarning sotish bahosiga teng bo‘lgan summada (440,0 ming so‘m) aks ettiriladi, xizmatlar ko‘rsatilishidan olingan daromad esa (60,0 ming so‘m) faqat ushbu xizmatlar haqiqatdan ko‘rsatilgan paytdagina aks ettiriladi. Yil davomida har oyda balansda muddati kechiktirilgan daromad sifatida asta-sekin hisobdan chiqarib boriladi.

D-t 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» — 5,0 ming so‘m

K-t 9030-«Ishlar bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatilishidan daromad» - 5,0 ming so‘m

№2 BHMSga binoan asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan faqat uning schotiga olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan yalpi tushumlardangina tashkil topadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektga kelib tushuvchi va kapitalning ko‘payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar (QQS, aksiz va boshqalar) kabi uchinchi shaxslar nomidan undiriladigan summalar asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarga qo‘shilmaydi va daromadlarni hisobga oluvchi schotlarda aks ettirilmaydi.

Masalan, sotish chog‘ida QQS asosiy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar(9010, 9020, 9030)ga kreditlanmasdan, quyidagicha aks ettiriladi:

D-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»

Vositachilik faoliyatidan olinadigan yalpi tushumlar ham asosiy xo‘jalik faoliyati hisoblanmaydi va daromadlarni hisobga oluvchi schotlarda aks ettirilmaydi. Mazkur holatda komission taqdirlashlar summalari daromad bo‘lib hisoblanadi.

Komission tovarlarning sotilishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin.

D-t 5110 «Hisob-kitob schoti» - kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga

K-t 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schoti – komission taqdirlash summasiga

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» — komitentga to‘lanadigan qarzlar summasiga.

Bunda shuni ham ta’kidlash lozimki, bu daromadni buxgalteriya hisobida tan olish va aks ettirish tamoyillari bo‘lib, ular soliqqa doir qonunchilikning tamoyillari bilan mos kelmasligi mumkin (va juda ko‘p hollarda shunday ham bo‘ladi).

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromad faqat muomala bilan bog‘liq iqtisodiy naf xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan olinadigan bo‘lsagina tan olinadi. Daromadga kiritilib bo‘lingan summaning olinishiga tegishli noaniqliklar yuzaga kelgan hollarda, №2 BHMSga muvofiq, qaytarib berilmagan summa yoki olinish imkoni bo‘lmagan summa, dastlab tan olingan summaga tuzatishlar sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi. Ya’ni, debitorlik qarzlarining undirilishiga gumon paydo bo‘lganda, dargumon qarzlar summalariga rezerv yaratilishi va korxona xarajatlari (zararlari)ga kiritilishi lozim:

D-t 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schoti

K-t 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezyerv»schoti

Xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati (tayyor mahsulot, tovarlarning sotilishi, ishlar bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatilishi) bo‘yicha olingan daromadlar 9010, 9020, 9030-schotlar krediti va olinadigan schotlar (4010, 4110, 4120) yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar (5010, 5110, 5210)ning debeti bo‘yicha aks ettiriladi.

O‘tgan davrda olingan, biroq hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromadlar summalari 6230- «Boshqa kechiktirilgan daromadlar», 6310- «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schotlari debeti bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

9010, 9020, 9030-schotlar krediti bo‘yicha xaridorlar va buyurtmachilarga (QQS, aksizlar va boshqa bilvosita soliqlar ayirib tashlangan holda) hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan yuklab jo‘natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun tushumlar summasi aks ettiriladi.

Masalan, ishlab chiqarish tannarxi 100000 so‘m bo‘lgan (QQS bilan birga) mahsulot 300000 so‘mga sotilgan. Shartnomaga muvofiq 100% oldin to‘lov (bo‘nak) olingan.

1. Oldindan to‘lov olinganida:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti» schoti – 300000 so‘m

K-t 6310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» – 300000 so‘m

2. QQSni hisobga olgan holda mahsulot realizatsiya si aks ettirilgan

D-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» – 300000 so‘m

K-t 9010-«Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schoti – 240000

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» - QQS – 60000 so‘m.

3. Olingan bo‘naklar hisobga o‘tkazilganda:

D-t 6310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti – 300000 so‘m,

K-t 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» – 300000 so‘m.

4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aks ettirilganda:

D-t 9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schoti – 100000 so‘m,

K-t 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti – 100000 so‘m

Mahsulot(tovar, ish va xizmat)lar realizatsiyasini schotlarda aks ettirishning ayrim xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

1. QQS, aksizlarva boshqa bilvosita soliqlar (yoqilg‘i iste’moli uchun soliq) sotishdan olingan daromadlar schotida aks ettirilmaydi, ya’ni daromadlar schotida faqat sof tushumning o‘zi aks ettiriladi.

2. Sotishdan olinadigan daromadlar 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010, 9020, 9030) schotlar kreditida sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi 9100-«Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110, 9120, 9130) schotlar debeti bo‘yicha aks ettiriladi.

3. Hisobot davrining oxirida 9000, 9100-schotlar 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti bilan yopiladi. Ya’ni, bizning misolimizda:

D-t 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schoti — 240 000 so‘m

K-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti — 240 000 so‘m

va

D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti — 100000 so‘m

K-t 9110 «Sotilgan mahsulot tannarxi» schoti — 100000 so‘m

9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar», 9100-«Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» yopilganidan so‘ng 9910-schot bo‘yicha aniqlangan saldo sotishdan olingan yalpi foydani ko‘rsatadi (150000 so‘m).

YaF = SST-IT = 240 000 so‘m – 100 000 so‘m = 140 000 so‘m

Faqat qolgan barcha schotlar (9300, 9400, 9500, 9600, 9700) yopilganidan so‘ng 9910-schotda soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda(zarar)ga ega bo‘lamiz.

Foyda solig‘ining hisoblab yozilishi quyidagi provodka bilan aks ettiriladi:

D-t 9810-«Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schoti

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schoti

Shundan so‘ng 9810-«Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schoti ham yopiladi:

D-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti

K-t 9810-«Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schoti

Endi 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti bo‘yicha saldo korxonaning hisobot davri uchun sof foydasini aks ettiradi.

Daromadlar oraliq to‘lovlar summalari va xaridorlardan olingan bo‘naklar summalari bo‘yicha tan olinmaydi. Ushbu summalar balansda majburiyatlar kabi: 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar», 6310-«Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schotlarida – joriy qismi, 7230-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar», 7310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schotlarida – uzoq muddatli qismi aks ettiriladi.

Qishloq xo‘jaligining «Agrokimyota’minot», «Neftta’minot» va MTP kabi savdo, tayyorlov va ta’minot-sotish tashkilotlarida 9020-«Tovarlarni sotishdan daromadlar» schotining krediti bo‘yicha sotilgan tovarlarning shartnoma bahosi (tayyorlov va ta’minot-sotish korxonalari uchun — QQS ayirilgan holda) aks ettiriladi.

Masalan, tumandagi «Agrokimyota’minot» AJ tomonidan tannarxi 120000 so‘m bo‘lgan tovar sotilgan. Shartnoma bo‘yicha QQSni hisobga olgan holda sotish qiymati 200000 so‘m bo‘lib, 15%lik oldin to‘lov (bo‘nak) to‘lanishi belgilangan.

1) olingan 15 % lik oldin to‘lov (bo‘nak) aks ettirilganda:

D-t 5110 «Hisob-kitob schoti» — 30000 so‘m,

K-t 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti — 30000 so‘m.

2) Tovarning sotilishi aks ettirilganda:

D-t 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» — 200000 so‘m

K-t 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar» schoti - 16667 so‘m

K-t 6410 «Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar» schoti - QQS-33333 so‘m.

3) Ilgari olingan bo‘nak hisobdan chiqarilganda:

D-t 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schoti -30000 so‘m

K-t 4010 «Xaridorlar va burtmachilardan olinadigan schotlar» — 30000 so‘m.

4) Sotilgan tovarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

D-t 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schoti — 120000 so‘m

K-t 2910 «Ombordagi tovarlar» schoti — 120000 so‘m.

5) Xaridorning debitorlik qarzi qoplandi:

D-t 5110 «Hisob-kitob schoti» — 170000

4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» — 170000 so‘m.

Shundan so‘ng yuqorida keltirilgan misoldagiga o‘xshab hisobot davrining oxirida daromadlar va xarajatlarga oid barcha schotlar yopiladi.

7.4. Asosiy faoliyatning mahsulot (tovar, ish va xizmat) larini sotishni hisobga olish

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishga oid muomalalarni hujjatlashtirish. Mahsulot sotishga oid muomalalarni rasmiylashtirish bo‘yicha tegishli hujjatlar belgilangan.

Daladan paxta punktiga jo‘natilgan paxtaning har bir partiyasi uchun oila pudrati boshlig‘i yoki ijarachi paxta jo‘natish – *qabul-qilish tovar-transport nakladnoyi* (I q-x shakl)ni to‘lg‘azib haydovchiga topshiradi.

Kombaynlar yordamida yig‘ilgan don *daladan don va boshqa mahsulotlarni jo‘natish reestri* (77-shakl) yoki *daladan mahsulot olib chiqish yo‘l varaqasi* (77-a shakl) yordamida rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlar 3 nusxada yozilib, kombaynchiga, haydovchiga va ombor mudiriga beriladi.

O‘simlikchilik mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlariga va boshqa xaridor hamda buyurtmachilarga jo‘natish uchun – qabul qilish tovar-transport nakladnoylarining quyidagi maxsus shakllari qo‘llaniladi: *paxta xom-ashyosi* (№I q-x shakl (paxta)), *donli, moyli o‘simliklar* (№I q-x shakl (don)), *sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar* (№I q-x shakl(sabzavot)) va *qand lavlagi* (№I t.p. shakl (lavlagi).

Yuqorida ko‘rsatilgan maxsus tovar-transport nakladnoylari o‘simlikchilik mahsulotlarini avtotransport, traktor, temir yo‘l va suv transporti hamda ot-ulov yordamida tayyorlov tashkilotlariga va boshqa xaridorlarga tashib berishni rasmiylashtiradigan yagona hujjat hisoblanadi. Pilla, omuxta yem, meva-sabzavot va boshqa konservalarni tashish uchun *idoralararo tovar-transport nakladnoyi* (¹ I-t shakl) qo‘llaniladi. Odatda, nakladnoylar to‘rt nusxada yoziladi.

Qishloq xo‘jalik korxonasi tovar-transport nakladnoylarni har bir yuk qabul qilib oluvchi uchun alohida barcha zarur rekvizitlarini to‘lg‘azib, transport vositasining har bir qatnovi uchun alohida to‘lg‘azadi. Tovar-transport nakladnoylarining barcha rekvizitlarini to‘g‘ri to‘lg‘azish yuk jo‘natuvchining mahsulotni to‘g‘ri hisobdan

o‘chirishi, yuk oluvchining esa to‘g‘ri kirimga olishini hamda sotilgan mahsulotlar va ularni tashish bo‘yicha hisoblashuvlarni o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlaydi.

Bir avtomobilda bir necha yukni bir vaqtda bir necha yuk oluvchilarga jo‘natilgan hollardan tovar-transport nakladnoylari har bir partiyasi va yuk oluvchi uchun alohida to‘lg‘aziladi.

Mahsulotlar boshqa tashkilotlarning transportida tashilganida tovar-transport nakladnoyi beshta nusxada to‘lg‘aziladi, ikkita nusxasi avtotransport tashkilotining haydovchisida qoladi.

To‘lg‘azilgan tovar-transport nakladnoydlarini ombor mudiri *mahsulotlarni jo‘natish hujjatlarining reestri* (№79-shakl) da ro‘yxatga olib boradi.

Dehqon bozorlarida, do‘konlarda va boshqa savdo shahobchalarida sotish uchun jo‘natiladigan mahsulotlar nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi. Bozor, do‘kon va boshqa joylarda mahsulotlarni sotgan shaxslar belgilangan muddatlarda *mahsulotlarning sotilishi to‘g‘risida hisobot* (125-shakl) ni topshiradilar.

Hisobot ilova qilingan hujjatlar bilan birga hujjatlar aylanishining reja-grafigida ko‘rsatilgan muddatlarda buxgalteriyaga topshiriladi.

Mahsulotlar korxona xodimlariga ish haqi hisobiga sotiladigan mahsulotlar turi bo‘yicha qaydnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik mahsulotlarining olinishi, jo‘natilishi va sarflanishini hujjatlashtirish. Sut tovar ferma larida sog‘ilgan sut *sut sog‘ishni hisobga olish jurnali* (112-shakl) da hisobga olinadi. Bu jurnal sog‘uvchilar guruhi yoki mashinada sog‘ish ustalarining kundalik sog‘ib olgan sutini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Sutning kundalik olinishi va sarflanishini ferma mudiri oy davomida *sut harakatining qaydnomasi* (114-shakl) da hshisobga oladi.

Jun qirqish punktlarida olingan jun kirimi va jo‘natilishi *jun kirimi va jo‘natilishi kundaligi* (II shakl) ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda zootexnik, bosh cho‘pon va jun qirqish punkti mudiri ishtirokida *jun qirqish va qabul qilish dalolatnomasi* (115-shakl) ni to‘lg‘azish uchun asos bo‘ladi. Junni tayyorlov tashkilotlariga jo‘natishda *toy (bog‘lam) ro‘yxati* (115a-shakl) tuziladi.

Parrandachilik fermalarida olingan tuxumlar *qishloq xo‘jalik mahsulotlarining kelish kundaligi* (81-shakl) bo‘yicha kirim qilinadi. Unda har kuni ferma dagi tuxum qo‘yadigan tovuqlar, olingan yaroqli va singan tuxumlar soni hamda yosh parrandalardan olingan tuxumlar soni yozib boriladi.

Parrandachilik fabrikalarida olingan tuxumlarning kundalik hisobi *katta yoshdagi parrandalar harakatining hisob kartochkasi* (108-shakl) da yuritiladi. Yig‘ib olingan tuxumlar ichki xo‘jalik nakladnoyi bilan tuxum omboriga topshiriladi va u yerda og‘irligi va toifasi bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq saralandi.

Sutni, sut mahsulotlarini qabul punktlariga yog‘ va pishloq zavodlariga, do‘konlarga va bolalar muassasalariga yetkazib berish tovar-transport nakladnoylarining quyidagi maxsus shakllari bilan rasmiylashtiriladi:

Sut va sut mahsulotlari (№I q-x shakl(sut, xom-ashyo)) va jun (№I q-x (jun)).

Buzoqlarga va cho‘chqa bolalariga ichiriladigan sut yem-xashak sarflash qaydnomasi, korxonaning o‘z yordamchi xo‘jaligida qayta ishlash uchun berilganida nakladnoy bilan rasmiylashtiriladi.

Mahsulot sotish bo‘yicha barcha hujjatlar (tovar-transport nakdladnoylari, xo‘jalik ichida qo‘llaniladigan nakladnoylar va boshqalar) belgilangan tartibda buxgalteriyaga topshiriladi. Buxgalteriyada bu hujjatlar tekshirilib to‘g‘riligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng ular guruhlanadi va tegishli hisob registrlarilarida aks ettiriladi.

Asosiy faoliyatga doir tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi to‘g‘risidagi axborotlar quyidagi schotlarda umumlashtiriladi:

9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi»;

9120-«Sotilgan tovarlarning tannarxi»;

9130-«Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi».

Yuklab jo‘natilgan mahsulot, ishlar va xizmatlarning tannarxi summasi ishlab chiqarish korxonalarida 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti, 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti va boshqa schotlarning (2110, 2310) kreditidan 9110, 9130-schotlar debetiga hisobdan chiqariladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxini tarmoq turlari bo‘yicha shakllantirish maqsadida 9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» schoti bo‘yicha quyidagi schotlarni ochishni tavsiya qilamiz:

9111-«Sotilgan dehqonchilik mahsulotlari tannarxi»,

9112-«Sotilgan chorvachilik mahsulotlari tannarxi»

9113-«Sotilgan sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlari tannarxi».

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti bo‘yicha esa quyidagi schotlar ochib hisob yuritishni tavsiya qilinadi:

2811-«Ombordagi dehqonchilik mahsulotlari»

2812-«Ombordagi chorvachilik mahsulotlari»,

2813-«Ombordagi sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlari».

Masalan, ombordan 10 t, bug‘doy haqiqiy tannarxi 80000 so‘mdan, 800000 so‘mlik sotishga jo‘natildi:

D-t 9111-«Sotilgan dehqonchilik mahsulotlari tannarxi» schoti - 800000 so‘m.

K-t 2811-«Ombordagi dehqonchilik mahsulotlari» schoti - 800000 so‘m.

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytishi» va 9050-«Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schotlari sotilgan tovarlar qaytarilishini, shartnoma narxlari munosabati bilan shuningdek, sotilgan mahsulotning yaroqsiz ekanligi aniqlanishi chog‘ida berilgan sotishdan chegirmalar va narxlardan chegirmalarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan.

Mazkur schotlar asosiy faoliyatdan olingan daromadlar schotlari (9010, 9020, 9030) guruhiga kontr-passiv schotlar bo‘lib, ularning debet oboroti moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda yalpi sotish summasidan chiqarib tashlanadi. Qaytarib berilgan tovarlar qiymati yoki taqdim etilgan (berilgan) chegirmalar summalarga 9040 va 9050-schotlar debetlanganda quyidagi schotlar kreditlanadi:

- pul mablag‘lari schotlari (5010, 5110)—mazkur tovar qiymatining xaridorlar va buyurtmachilarga qaytarib berilganda;

- olinadigan schotlar (4010, 4110, 4120)—qaytarilgan tovarlar bo‘yicha debitorlik qarzning bekor qilingan summasiga.

Bunda ilgari hisoblab yozilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjet to‘lovlariga doir qarzlarni hisobga olish 6410-schotining debeti va pul mablag‘larini hisobga olish schotlari hamda olinadigan schotlar krediti bo‘yicha tegishli tarzda aks ettiriladi.

Qaytarilgan mahsulot va tovarlar tannarxi tovarlar hisobga olinadigan tegishli schotlarning (2800, 2900) krediti va sotilgan mahsulotlar tannarxini hisobga oluvchi tegishli schotlar (9110, 9120) debeti bo‘yicha «qizil storno» usulida, yoki teskari provodka bilan (D-t 2800, 2900— K-t 9110, 9120) aks ettiriladi.

Ta’kidlash lozimki, chegirmalarning ikki turi mavjud: pullik va savdo chegirmalari.

Savdo chegirmalari odatda turli savdo-sotiqlar vaqtida yoxud yirik buyurtmalarni rag‘batlantirish uchun tovarlarning ulgurji sotilishi vaqtida yoki o‘tmay (turib) qolgan tovarlarning sotilishi vaqtida qo‘llaniladi. Bunday chegirmalar hisobda aks ettirilmaydi, chunki ushbu

holatda o‘sha zahotiyoq shartnoma shartlariga va schot-faktura bahosiga muvofiq chegirmalar ayirib tashlangan holda sotishdan olingan daromad aks ettiriladi.

№21 BHMSning 2-ilovasi «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schotlar rejasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma»ga muvofiq hisobot davrining oxirida chegirmalarni va tovar qaytarilishini hisobga oluvchi schotlar (9040, 9050) ham mazkur bo‘limdagi boshqa barcha schotlardagi kabi 9910-schotda yopilishi kerak.

7.5. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlarini hisobga olish

7.5.1. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga olish

Xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishi va boshqacha tarzda chiqib ketishi (tugatilishi, hisobdan chiqarilishi, tekinga berilishi va hokazo) quyidagi schotlarda aks ettiriladi:

9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi»

9220-«Boshqa aktivlarni chiqib ketishi».

9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schoti debeti bo‘yicha chiqib ketayotgan asosiy vositalar obyektlarining boshlang‘ich qiymati, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar (binolar, inshootlarning buzilishi va bo‘laklarga ajratilishi, uskunalarning demontaj qilinishi va shu kabilar) aks ettiriladi.

9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schoti kreditiga asosiy vositalar obyektlarini sotishdan olingan tushum hamda hisobdan chiqarilishi munosabati bilan olingan moddiy qimmatliklarning ishlatish yoki sotish mumkin bo‘lgan bahosi bo‘yicha qiymati, shuningdek, chiqib ketayotgan asosiy vositalar obyektlari bo‘yicha hisoblangan eskirish summalari aks ettiriladi. Asosiy vositalarning sotilishidan olinadigan tushum 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» schotining debeti va 9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schotining kreditida aks ettiriladi.

9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi» schoti bo‘yicha debet saldosi (zarar) joriy hisobot davrida 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schotiga, mazkur schotining kredit saldosi (foyda)

esa 9310-«Asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foyda» schotiga o‘tkazilib, 9210-schot yopiladi.

Misol: «Zafar» fermer xo‘jaligida boshlang‘ich qiymati 70,0 ming so‘m bo‘lgan traktor sotilgan, eskirish — 70,0 ming so‘m, ya’ni to‘liq eskirgan, shartnoma bo‘yicha sotish bahosi — 200,0 ming so‘m.

To‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalarning sotilishidan olingan foyda (zarar) shartnoma bo‘yicha olinadigan tushum hisoblanadi.

QQS summasi asosiy vositalarning shartnoma qiymati bo‘yicha hisoblanadi. Soliq solinadigan aylanma hajmi quyidagini tashkil qiladi:

QQS=200,0 ming so‘m x 20,0% = 40,0 ming so‘m.

Muomala mazmuni	D-t	K-t	Summa
Sotilayotgan traktorning shartnoma bahosi	4010	9210	200,0
Boshlang‘ich qiymat hisobdan chiqarilganda	9210	0130	70,0
Eskirishi hisobdan chiqarilganda	0230	9210	70,0
QQS hisoblanganda	9210	6410	33,0
Moliyaviy natija aniqlanganda	9210	9310	167,0

Olingan operatsion foyda (160,0 ming so‘m) foyda solig‘iga tortish obyekti bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni, 160,0 ming so‘m x 20% q 32,0 ming so‘m foyda solig‘i ham to‘lanadi.

7.5.2. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga olish

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga olish-quyidagi schotlarda yuritiladi:

9310-«Asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foyda»

9320-«Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda»

9330-«Undirilgan jarimalar, penya va ustamalar»

9340-«O‘tgan yillar foydalari»

9350-«Qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar» .

9360-«Kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar»

9370-«Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning daromadlari»

9380-«Tekin moliyaviy yordam»

9390-«Boshqa operatsion daromadlar».

9310-«Asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foyda» schotida asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foyda summasi

aks ettiriladi, u 9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schoti kreditidan o‘tkaziladi, 9320-«Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda» schotida esa boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olinadigan foyda summasi aks ettiriladi, u 9220-«Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schotining kreditidan o‘tkaziladi.

9330-«Undirilgan jarimalar, penya va ustamalar» schotida qarzdorlardan olingan (olinishi lozim bo‘lgan) jarimalar, penyalar, ustamalar va xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari, shuningdek, yetkazilgan zararlarning qoplanishi bo‘yicha daromadlar hisob-kitoblar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Masalan, xo‘jalik shartnomalari shartlarining buzilganligi uchun ustamalar olingan:

Hisoblab yozishlar chog‘ida (xo‘jalik sudining qarori, inkasso talabnomasi taqdim etilgan hollarda):

D-t 4860-«Da’volar bo‘yicha olinadigan schotlar»

K-t 9330-«Undirilgan jarimalar, penyalar va ustamalar».

Ustamaning‘ olinishi chog‘ida:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti»

K-t 4860-«Da’volar bo‘yicha olinadigan schotlar».

Bu yerda yana bir marotaba ta’kidlash lozimki, xuddi buxgalteriya hisobidagi kabi, O‘zbekistonda soliq hisobining asosiy tamoyili hisoblab yozish tamoyili hisoblanadi, shuning uchun ham mazkur holatda daromad hisobda pul mablag‘larining haqiqatda olinishi vaqtidan qat’i nazar aks ettiriladi.

9340-«O‘tgan yillar foydasi» schotida hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillarning foydasi, shu jumladan, o‘tgan davrlarda aniqlangan xatolar natijasida aniqlangan summalar ham aks ettiriladi.

Masalan, o‘tgan yillar uchun uskunaga doir ortiqcha hisoblab yozilgan amortizatsiyaga oid tuzatishlar aks ettirilgan:

D-t 0230-«Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi»

K-t 9340-«O‘tgan yillar foydasi».

№3-«Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» nomli BHMSga muvofiq avvalgi davrlarning moliyaviy hisobotlari tayyorlanishi chog‘ida yo‘l quyilgan xatoliklarni (muhim bo‘lmagan) tuzatish summasi hisobot davrining sof daromadi yoki zarariga kiritiladi. 9340-schotda aks ettirilgan foyda korxonaning soliq solinadigan daromadiga kiritiladi; shuningdek, daromadlar (foyda) solig‘ining o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar ham hisoblab yozilishi lozim.

Avvalgi davrda yo‘l quyilgan jiddiy xatoliklarga oid tuzatishlar summalari esa yil boshida taqsimlanmagan foyda qoldig‘ini o‘zgartirish yo‘li bilan aks ettiriladi. Masalan, moliyaviy natijalarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatilgan hollarda shu holat (ortiqcha hisoblab yozilgan amortizatsiyaga oid tuzatishlar) quyidagi tartibda aks ettirilishi mumkin:

D-t 0230-«Mashina va asbob-uskunalarning‘ eskirishi»

K-t 8720-«Jamg‘arilgan foyda»

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar».

Mazkur holatda jiddiy xato summasi aynan mana shu davrda olingan daromad deb hisoblanmasligi uchun joriy davrning daromadi sifatida aks ettirilmaydi. Ushbu summa daromadlarni hisobga oluvchi schotlarni chetlab o‘tganligi, ya’ni soliqqa tortiladigan bazaga qo‘shilmaganligi uchun ham 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schotining krediti bo‘yicha tegishli soliq stavkasi bo‘yicha hisoblangan soliq summasi aks ettiriladi.

9350-«Qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar» schotida molmulkning ijaraga berilishidan olingan (bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga) daromadlar aks ettiriladi. Masalan, 200,0 ming so‘mdan iborat summadagi ijaradan olingan daromadning, QQSni hisobga olgan holda, hisoblab yozilishi chog‘ida quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

D-t 4820-«Qisqa muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar»-150,0 ming so‘m.

K-t 9350-«Qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar» — 125,0 ming so‘m.

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar», QQS- 25,0 ming so‘m

Ijaradan daromad olinishi chog‘ida:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti» — 150,0 ming so‘m

K-t 4820-«Qisqa muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar»-150,0 ming so‘m

7.6. Davr xarajatlarini hisobga olish

«... Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq *davr sarflari* ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar bo‘lib, unga xo‘jalik yurituvchi subyektni boshqaruv xarajatlari, mahsulot sotish xarajatlari va umum xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar kiradi.

Ushbu xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonaning mahsulot(ish, xizmat)lar ishlab chiqarishga oid faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmasada, lekin ularning realizatsiyasiga oid asosiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham operatsion xarajatlar deb ataladi. Ular, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘lmasdan, daromadlarning olinishi chog‘ida qilingan xarajatlar bo‘lib, daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga binoan ushbu xarajatlar tufayli olingan daromadlar aks ettirilgan hisobot davriga kiritilishi kyerak.

Davr xarajatlari quyidagi schotlarda aks ettiriladi:

9410-«Sotish xarajatlari»

9420-«Ma’muriy xarajatlar»

9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»

9440-«Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari».

Zarur hollarda xo‘jalik yurituvchi subyekt ishchi schotlar rejasiga tegishli bo‘limlarda qo‘shimcha schotlarni ochishi va uni hisob siyosatida aks ettirishi mumkin.

Masalan, quyidagi schotlarni joriy qilish mumkin:

9441-«Reklamaga oid xarajatlar»,

9412-«Saqlash va tashish bo‘yicha xarajatlar»,

9421-«Ma’muriy boshqaruv xodimlarining ish haqi xarajatlari»,

9423-«Umumma’muriy maqsadlardagi asosiy vositalarning eskirishi»

9431-«Asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar»

9433-«TMZlar bahosining arzonlashtirilishidan ko‘rilgan zararlar»

9437-«ITTKIga oid xarajatlar»,

9438-«Hisoblab yozilgan jarimalar, penyalar, ustamalar» yoki mazkur korxonaga xos bo‘lgan operatsiyalarni aks ettirish uchun zarur bo‘ladigan boshqa schotlar.

9410-«Sotish bo‘yicha xarajatlar» schotida mahsulotni sotishga oid xarajatlar, ya’ni mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib berish, transport vositalarga yuklash bilan bog‘liq xarajatlar, marketing bilan, mahsulotlarni sotish va shu kabilar bilan band bo‘lgan bo‘limlar va xodimlarning xarajatlari aks ettiriladi.

Masalan, reklamaga oid xarajatlar aks ettirilganida:

D-t 9411-«Reklamaga oid xarajatlar»

K-t 5110-«Hisob-kitob schoti».

Tovarlarni xaridorlarga yuklab jo‘natish chog‘ida transport xarajatlari aks ettirilgan:

D-t 9412-«Saqlash va tashish bo‘yicha xarajatlar»

K-t 5110-«Hisob-kitob schoti»

9420-«Ma’muriy xarajatlar» schotida korxonani boshqarish bo‘yicha xarajatlar, umumma’muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta’-mirlashga oid xarajatlar, umumxo‘jalik maqsadlarida xonalarning ijara to‘lovlari, axborotga oid, auditorlik va maslahat xizmatlari xaqining to‘lanishi va boshqa xarajatlar.

Masalan, boshqaruv xodimlariga ish haqi hisoblanganda:

D-t 9423-«Ma’muriy boshqaruv xodimlarining ish haqi xarajatlari»

K-t 6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar hisob-kitoblar».

Ma’muriy bino bo‘yicha eskirish hisoblanganda:

D-t 9423-«Umumma’muriy maqsadlardagi asosiy vositalarning amortizatsiyasi»

K-t 0220-«Binolarning eskirishi».

9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schotida ilmiy-tadqiqot ta-jriba-konstruktorlik» ishlanmalariga oid xarajatlar, korxona aktivlarining sotilishi va boshqacha, chiqib ketishlaridan ko‘rilgan zararlar, TMQlar bahosining arzonlashtirilishidan ko‘rilgan zararlar, tabiiy kamayishlar-dan ko‘rilgan zararlar, xodimlarga beriladigan moddiy yordamlar, sud chiqimlari va xo‘jalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan (ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan va favqulodda xarajatlar moddalari sifatlariga ega bo‘lmagan) boshqa xarajatlar ko‘rsatiladi.

Masalan, asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar aks ettirilganda:

D-t 9431-«Asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar-lar»

K-t 9210-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi».

Tovarlar bahosining arzonlashtirilishidan ko‘rilgan zarar aks et-tirilganda:

D-t 9433-«TMZlarning arzonlashtirilishidan ko‘rilgan zararlar»

K-t 2910-«Ombordagi tovarlar».

O‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlar bo‘yicha penyalar aks ettirilgan:

D-t 9438-«Hisoblab yozilgan jarimalar, penyalar, ustamalar»

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar».

9440-«Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari» schotida, «... schotlar rejasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma»ga muvofiq, Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomga

ilovada keltirilgan, kelajakda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari (ya'ni vaqtinchalik farqlar) aks ettiriladi.

Ma'lumki, «... xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ning 1 va 2-ilovalari buxgalteriya hisobi maqsadlari va soliq solish maqsadi uchun xarajatlarni hisoblab yozish chog'ida yuzaga keluvchi farqlarni aks ettiradi.

Mazkur Nizomning 1-ilovasida korxona daromadlaridan hisobot davrining sof foydasini hisob-kitob qilish chog'ida chiqarib tashlanadigan, biroq xo'jalik yurituvchi subyektning soliq solinadigan bazasiga soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) solig'ining hisob-kitobi chog'ida kiritiladigan xarajatlar moddalari keltiriladi. Bular keyingi davrlarda bekor qilinmaydigan doimiy farqlardir**.** Ularga xodimlarga to'lanadigan moddiy yordamlar, qo'shimcha ta'til, mukofotlarning to'lanishi, uyali va peyjing aloqalar, yengil xizmat avtotransportiga xizmat ko'rsatish va ko'pgina boshqa xarajatlar kiritiladi.

2-ilovada sof foydani hisob-kitob qilish chog'ida korxonaning daromadlaridan chegirib tashlanadigan, biroq ularning yuzaga kelishi vaqtida soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlarning ro'yxati beriladi. Doimiy farqlardan farqli ravishda ushbu xarajatlar keyingi davrlarda soliq solinadigan baza tarkibidan chiqarib tashlanishi kyerak (vaqt bo'yicha tafovutlar yoki vaqtincha farqlar).

Vaqtinchalik farqlar hisobga olinishi lozim bo'lgan (mazkur bo'limning boshqa barcha schotlari kabi) 9440-schot ham hisobot davrining oxiriga borib saldoni 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkazish bilan yopiladi, 9440-schotda jamlangan xarajatlar to'g'risidagi axborot esa 012-«Kelgusi davrlardagi soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar» nomli balansdan tashqari schot debetiga yoziladi. Ushbu xarajatlar, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, soliq solish maqsadlari uchun joriy davrning soliq solinadigan bazasiga qaytadan kiritilishi kyerak, keyinchalik esa undan mazkur xarajatlarning butun foydali amal qilish muddati davomida yoki ushbu muddatlardan qaysi biri qisqa bo'lishidan kelib chiqqan holda 10 yil davomida chegirilib boriladi.

Xarajatlarning buxgalteriya hisobi maqsadlari va soliqqa tortish maqsadlari uchun aks ettirilishidagi farqlar buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining sof foydasini, demak, bozordagi raqobatbardoshligini ham aniqlash uchun ularning xarajatlari hisoblash va moliyaviy natijalarini aniqlash ekanligidan kelib chiqadi. Soliq organlari, odatda, buxgalterlik foydasi

bilan qiziqmaydilar, ularni xo‘jalik yurituvchi subyektning ayrim xarajatlar moddalarini soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq buxgalterlik foydasiga qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadigan soliqqa tortiladigan daromad ko‘proq qiziqtiradi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro tamoyillariga binoan vaqtinchalik farqlar — hisobot davrining soliqqa tortiladigan va hisob daromadlari o‘rtasidagi farqlar bo‘lib, ular ayrim moddalari soliqqa tortiladigan daromadga kiritiladigan hisobot davri ular hisob daromadiga kiritiladigan hisobot davri bilan muvofiq kelmasligi sababli yuzaga keladi. Doimiy farqlardan farqli ravishda, vaqtinchalik farqlar keyingi hisobot davrida bekor qilinadi.

2-ilovaga muvofiq, vaqtinchalik farqlarga, misol uchun, yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, ishlab chiqarish, sex, agregatlarni o‘zlashtirishga oid xarajatlari, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga oid xarajatlar va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlarning ushbu ro‘yxatidan ko‘rish mumkinki, bular aynan kelajakda daromad keltiruvchi xarajatlardir (axir aynan mana shuning uchun ham yangi ishlab chiqarishlarni o‘zlashtirishga oid sarflar va shunga o‘xshash xarajatlar qilinadi), demak, buxgalteriya hisobi tamoyillariga muvofiq ular korxona balansida aktiv sifatida aks ettirilishi va keyingi davrlarda biror-bir muntazam asosda hisobdan chiqarib borilishi kyerak. Bunday xarajatlar 3200-«Kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi» schotlarda (3210, 3220, 3230) aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobida bunday katta xarajatlarni birdaniga hisobdan chiqarish unchalik o‘rinli emas, — bu narsa hisobot davrining daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi tamoyilini buzish hisoblanadi.

Vaqtinchalik farqlar yuzaga keladigan vaziyatlar g‘oyatda xilmaxil bo‘lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida vaqt bo‘yicha farqlarning yuzaga kelishiga oid eng ko‘p tarqalgan misollardan biri bo‘lib, korxona tomonidan Soliq kodeksi tasdiqlanganidan farq qiluvchi amortizatsiya hisoblash usullarining qo‘llanishi hisoblanadi. Har qanday holatda ham amortizatsiyalanadigan mol-mulkning barcha qiymati asosiy vositalarning me’yorlangan xizmat muddati mobaynida xarajatlarga hisobdan chiqariladi, biroq ushbu muddat ichida turli usullarda hisoblab yozilgan amortizatsiya summasidagi farqlar ko‘zga tashlanadi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha soliq qonunchiligi va buxgalteriya qonun hujjatlari bir-biriga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun buxgal-

teriya hisobida vaqt bo‘yicha farqlarni aks ettirish masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, aks holda bu hol soliq qonunchiligining buzulishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 oktyabrdagi 444-son qaroriga muvofiq «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 2-ilovasi jadallashtirilgan metod bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summasi va belgilangan me’yorlar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi quyidagi vaqtinchalik farqlar kiritilgan:

a) asosiy vositalar bo‘yicha soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq;

b) nomoddiy aktivlar bo‘yicha boshlang‘ich qiymat va foydali foydalanish muddatidan kelib chiqqan holda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan hisoblab chiqarilgan me’yorlarga muvofiq.

Uncha katta bo‘lmagan ko‘pchilik korxonalarda buxgalteriya hisobi vaqtinchalik farqlarni aks ettirmasdan yuritish maqsadga muvofiq. Bunda soliqlarni hisoblash osonlashadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 9-moddasiga muvofiq, xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun operatsiyalarning amalga oshirilganligi va ularning o‘tkazilishi uchun farmoyishlar berish faktlarini qayd qiluvchi boshlang‘ich hisob hujjatlar asos hisoblanadi. Boshlang‘ich hisob hujjatlari, agar ular tegishli shaklda tuzilgan va O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 9-moddasida majburiy rekvizitlarga ega bo‘lgandagina haqiqiy hujjat hisoblanadi. Bunday hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga va daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazani kamaytiruvchi xarajatlarga kiritilmaydi.

7.7. Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish

Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni aks ettirish uchun quyidagi schotlar mo‘ljallangan:

9500-«Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar»

9510-«Royalti ko‘rinishidagi daromadlar»

9520-«Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar»

9530-«Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar»

9540-«Valutalarning kurs farqlaridan olingan daromadlar»

9550-«Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadlar»

9560-«Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar»

9590-«Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari»

9600-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar»:

9610-«Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar»

9620-«Valuta kursidagi farqlardan ko‘rilgan zararlar»

9630-«Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» schoti

9690-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schoti.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va xarajatlarni shakllantirish tartibi №2 «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar», №6 «Ijara hisobi», №12 «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» BHMSlar va «...xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» bilan tartibga solinadi.

9510-schot kreditida olinadigan royalti, 9610-schot debetida esa - royalti bo‘yicha to‘langan (hisoblangan) hisob-kitoblar va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Masalan, oluvchi tarafda royalti bo‘yicha olinadigan daromad hisoblab yozilgan:

D-t 4850-«Royalti bo‘yicha olinadigan schotlar» schoti

K-t 9510-«Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schoti.

Uni olish chog‘ida:

D-t 5110-«Hisob-kitob» schoti

K-t 4850-«Olinadigan royalti» schoti.

To‘lovchi korxonada royaltiga oid summalarning to‘lanishi:

D-t 9690-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schoti

K-t 5110-«Hisob-kitob schoti».

9520-schotda boshqa korxonalarning faoliyatida ulush qo‘shib ishtirok etishdan olingan daromadlar va korxonaga tegishli aksiyalar bo‘yicha olinadigan dividenlar aks ettiriladi.

Masalan, dividend ko‘rinishidagi daromad aks ettirilganida:

D-t 4840-«Olinadigan dividendlar» schoti

K-t 9520-«Dividend ko‘rinishidagi daromadlar» schoti.

Uni olish chog‘ida:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti»

K-t 4840-«Olinadigan dividendlar» schoti

9530-schotda uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foiz ko‘rinishidagi daromadlar, 9610-schotda esa – banklar, yetkazib beru-

vchilarning kreditlari va qarzlar bo‘yicha foizlarning to‘lanishiga oid xarajatlar aks ettiriladi.

Masalan, qarz beruvchi tashkilotda berilgan qarzlar bo‘yicha foizlar hisoblab yozilganida:

D-t 4830-«Olinadigan foizlar» schoti

K-t 9530-«Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schoti.

Uni olish chog‘ida:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti»

K-t 4830-«Olinadigan foizlar» schoti.

Qarz oluvchi tashkilotda to‘lanadigan foizlarning (olingan qarzlar bo‘yicha) hisoblab yozilishi:

D-t 9610-«Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schoti

K-t 6920-«Hisoblangan foizlar» schoti.

Foizlar to‘langanida:

D-t 6920-«Hisoblab yozilgan foizlar» schoti.

K-t 5110-«Hisob-kitob schoti».

Olingan qarz va kreditlar (6800, 7800-schotlar) bo‘yicha hisoblangan foizlaralohida (6920-schotda) hisobga olinadi. Bu qarz (kredit) larning balans qiymati hisoblangan foizlar o‘zgarmasligini ta’minlaydi.

9540-«Valyutalarning kurs farqlaridan olingan daromadlar» schotida valyuta schotlari bo‘yicha ijobiy kurs farqlari, shuningdek, xorijiy valyutalar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarga oid daromadlar hisobga olinadi. 9620-«Valutalarning kurs farqlari bo‘yicha xarajatlar» schotida esa-xorijiy valutalar bilan amalga oshirilgan muomalalarga oid salbiy kurs farqlari va zararlar aks ettiriladi.

Masalan, valuta schoti bo‘yicha ijobiy kurs farqi aks ettirilganda:

D-t 5210-«Mamlakat ichidagi valuta schotlari»

K-t 9540-«Valyutalar kursi farqlaridan daromadlar».

Valyuta schotiga oid salbiy kurs farqi:

D-t 9620-«Valyutalar kursi farqlaridan zararlar»

K-t 5210-«Mamlakat ichidagi valuta schotlari».

«Xorijiy valyutadagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq (O‘zR Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 16 noyabrda 1085-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan), unga oid qo‘shimchalarni hisobga olgan holda (O‘zR Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 7 iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan), xo‘jalik yurituvchi subyektlar valuta schotidan olingan bank ko‘chirmalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

kursi bo‘yicha balansning valuta moddalarini har oyda qayta baholashni amalga oshiradilar.

Yuzaga kelgan valuta kursi farqlari xo‘jalik yurituvchi subyektning hohishiga qarab quyidagi usullardan biri bo‘yicha hisobdan chiqariladi:

1) Bevosita moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish yo‘li bilan (keyingi o‘rinlarda — bevosita olib borish usuli). Bunda ijobiy kurs farqlari moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schotlarda (9540-schot), salbiy kurs farqlari esa — moliyaviy faoliyatga oid xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarda (9620-schot) aks ettiriladi.

2) Jamlash yo‘li bilan (keyingi o‘rinlarda — jamlash usuli). Bunda ijobiy kurs farqlari muddati kechiktirilgan daromadlar (kelgusi davrlar daromadlari)ni hisobga oluvchi schotlarda (6230-schot), salbiy kurs farqlari esa kelgusi davrlar xarajatlarini hisobga oluvchi schotlarda (9620-schot) aks ettiriladi.

Valyuta kursi farqlar tegishli schotlarga olib borishning xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tanlangan usuli uning hisob siyosatida majburiy tartibda aks ettirilishi va kalendar yil davomida o‘zgartirilmasligi lozim (№1 BHMSning 56-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Valyuta kursi farqlarini to‘g‘rilash(korrektirovka)ning jamlash usuli qo‘llanilganda balansning valyuta moddalarini har oyda qayta baholash natijasida hosil bo‘lgan salbiy va ijobiy kurs farqlari moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga quyidagi tartibda olib boriladi:

- xorijiy valutadagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha — ularni qoplash (hisobdan chiqarish)ning borishiga qarab);
- qolgan holatlarda — balansning tegishli valuta moddalari bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarining amalga oshirilishiga qarab.

Balans valuta moddalarining so‘mdagi ekvivalentida qayta baholanishi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **hisobot oyining oxirgi sanasiga** bo‘lgan kursi bo‘yicha amalga oshiriladi, kurs farqi summasi esa, balansning valyuta moddalarining qayta baholangungacha va undan keyingi qiymatlarini taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi.

Balansning valuta moddalariga quyidagilar kiradi:

- kassadagi, bankdagi depozit va ssudalar schotlaridagi valyuta mablag‘lari, shu jumladan, akkreditivlar;
- xorijiy valyutadagi pul hujjatlari;
- xorijiy valyutadagi qisqa muddatli va uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar;

- xorijiy valutada olingan debitorlik va kreditorlik qarzlari, kreditlar va qarzlar.

Valuta kursi farqlarini to‘g‘rilashda quyidagilar qayta hisob-kitob qilinmaydi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning xorijiy valyutaga sotib olingan mol-mulki (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qimmatliklar);
- xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav kapitali va ta’sischilari (ishtirokchilar) ulushlarining nisbatlari, bularga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham kiradi.

Masalan, uskuna xorijiy valutaga sotib olingan va uning valyutadagi qiymati 100 ming AQSh dollari. Uskunaning qiymati milliy valyutada hisob-kitob qilish uchun ushbu operatsiya rasmiylashtirilgan sanada amal qilgan almashtirish kursi qabul qilinadi.

Ushbu uskunani olish vaqtida amal qilgan 1 AQSh dollari 960,0 so‘mga teng bo‘lgan kursni hisobga olgan holda, uning qiymati 9600 ming so‘m deb baholanadi, mol yetkazib beruvchiga bo‘lgan kreditorlik qarzi ham mana shuncha summaga baholanadi. Uskunaning qiymati valuta kursining o‘zgarishi chog‘ida o‘zgarmasligi lozim, biroq, mol yetkazib beruvchidan kreditorlik qarzlari summasi to u to‘liq qoplanmagunga qadar, har oyning oxirida qaytadan hisob-kitob (korrektirovka) qilib boriladi.

Faraz qilaylik, hisobot oyining oxirgi sanasida 1 AQSh dollarining rasmiy kursi 970 so‘mni tashkil qilgan va bu kreditorlik qarzlari summasi endi 9600,0 ming so‘mni emas, balki 9700,0 ming so‘mni tashkil qiladi.

Jamlash usuli qo‘llanilganda mazkur salbiy kurs farqi (9600,0-9700,0) muddati kechiktirilgan xarajatlar sifatida aks ettiriladi:

D-t 3230-«Boshqa kechiktirilgan boshqa xarajatlar» schoti — 100,0 ming so‘m

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti – 100,0 ming so‘m.

Bevosita usul qo‘llanilganda salbiy kurs farqi jamlanmaydi, balki o‘sha zahotiyoq zararlarga kiritiladi:

D-t 9620-«Valyuta kursi farqlaridan zararlar» - 100,0ming so‘m

K-t 6010-«Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schotlar»-100,0 ming so‘m.

Mol yetkazib beruvchiga qarz to‘langan (o‘tkazilgan) vaqtda esa 1 AQSh dollarining kursi 975,0 so‘mni tashkil qilgan. Bunda yetkazib

beruvchiga (10,0 x 975,0) q 9750,0 ming so‘m o‘tkazildi. Ushbu holatda bir hisobot davri doirasidan chiqmaydigan salbiy kurs farqi o‘sha zahotiyoq zararlarga kiritiladi:

D-t 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti - 9700,0 ming so‘m

D-t 9620-«Valuta kursi farqlaridan zararlar» schoti – 9750,0 ming so‘m

K-t 5210-«Mamlakat ichidagi valyuta schotlari» - 9750,0 ming so‘m.

Ilgari jamlash usuli bo‘yicha 3230-schotda aks ettirilgan kursdagi farq ham to‘lov amalga oshirilishi vaqtida zararlarga hisobdan chiqariladi:

D-t 9620-«Valyuta kursidagi farqlardan ko‘riladigan zararlar» schot – 100,0 ming so‘m.

K-t 3230-«Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» — 100,0 ming so‘m.

Mazkur operatsiya bo‘yicha valyutadagi farqlardan ko‘rilgan jami umumiy zarar summasi 150,0 ming so‘mni tashkil qiladi.

9550-schotda mol-mulkning uzoq muddatli ijaraga berilishidan, shuningdek, moliyaviy lizing shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha olinadigan daromad va joriy debitorlik qarzlarining qoplanishiga taqsimlanadigan lizing to‘lovi olinganda lizing beruvchi buni quyidagi tarzda aks ettiradi.

Masalan, 1200,0 ming so‘mdan iborat summadagi lizing to‘lovi, qoplash jadvaliga muvofiq, lizing oluvchining asosiy qarzini (750,0 ming so‘m) kamaytirish va foizlar ko‘rinishidagi daromadga (450,0 ming so‘m) kiritilishi kyerak

Hisoblab yozish tamoyiliga muvofiq oldin lizing bo‘yicha foizli daromad hisoblab yozilishi kyerak:

D-t 4830-«Olinadigan foizlar» schoti - 450,0 ming so‘m

K-t 9550-«Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadlar» - 450,0 ming so‘m.

Lizing oluvchidan undiriladigan asosiy qarzning joriy qismini tavsiflovchi lizingga oid olinadigan joriy to‘lovlar to‘lov muddati kelishi bilanoq 4810-«Uzoq muddatli ijara bo‘yicha olinadigan joriy to‘lovlar» schotida aks ettirib quyilgan. Lizing to‘lovining olinishi chog‘ida operatsiya quyidagi tarzda aks ettiriladi:

D-t 5110-«Hisob-kitob schoti» — 1200,0 ming so‘m

K-t 4810-«Uzoq muddatli ijara bo‘yicha olinadigan joriy to‘lovlar» schoti — 750,0 ming so‘m

K-t 4830-«Olinadigan foizlar» schoti — 450,0 ming so‘m.

9560-«Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar»-schotida qimmatli qog‘ozlarga quyilgan mablag‘larni qayta baholashda olinadigan daromadlar aks ettiriladi. Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholash bilan bog‘liq xarajatlarni 9690-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schotida aks ettirish mumkin.

Masalan, qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarning qayta baholanishi amalga oshirilgan:

D-t 5810-«Qimmatli qog‘ozlar» schoti

K-t 9560-«Qimmatli qog‘ozlarni qayta bahoshdan daromadlar» schoti.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar rezerv kapital schotlarida aks ettiriladi:

D-t 0610-«Qimmatli qog‘ozlar» schoti

K-t 8510-«Aktivlarning qayta baholanishi bo‘yicha tuzatishlar» schoti

Biroq, №12 BHMSning 22-bandiga muvofiq bozor bahosi bo‘yicha qayta baholangan qimmatli qog‘ozlarning sotilishi chog‘ida rezyerv kapital schotlarida aks ettirilgan jami qo‘shimcha baholash summasi joriy davrning daromadi sifatida (yoki taqsimlanmagan foydaning ko‘payishi sifatida) aks ettiriladi:

D-t 8510-«Mulkni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schoti

K-t 9560-«Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar» schoti yoki 8720-«Jamg‘arilgan foyda».

Qayta baholashda qimmatli qog‘ozlar bahosining arzonlashtirilganda:

D-t 9690-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schoti

K-t 5810-«Qimmatli qog‘ozlar» schoti.

Uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarning bozor bahosi kamaytirilganda, uni, ushbu qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha avvalgi qayta baholashlar doirasida rezyerv kapitalini kamaytirish hisobiga kompensatsiyalash mumkin. Ushbu qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tashkil qilingan rezyervdan ortiq bo‘lgan arzonlashtirish summasi moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga qo‘shiladi.

Masalan, qimmatli qog‘ozlarning bozor bahosi 100,0 ming so‘mgacha kamaygan, oldingi qayta baholash hisobiga tashkil qilingan rezyerv esa 80,0 ming so‘mni tashkil qiladi:

D-t 8510-«Mol-mulkning qayta baholanishi bo‘yicha tuzatishlar» schoti —80,0 ming so‘m

D-t 9690-«Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» — 20,0 ming so‘m

K-t 0610-«Qimmatli qog‘ozlar» schoti – 100,0 ming so‘m.

9630-«Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar»-schotida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schotlar bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

Masalan, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha xarajatlar to‘langanida:

D-t 9630-«Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» schoti

K-t 5110-«Hisob-kitob schoti» yoki 6990-«Boshqa majburiyatlar» schoti

Bunday xarajatlar soliq solish maqsadda daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydi.

9590-«Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schotida moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar aks aks ettiriladi.

7.8. Favqulodda foyda (zarar) ni hisobga olish

«... Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq favqulodda foyda moddalari – ko‘zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo‘lgan hodisa yoki xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdagi muomalalar natijasida paydo bo‘ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan, boshqa daromadlar bo‘limida aks ettirilishi kyerak bo‘lgan, o‘tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda olingan foydalar 9710-«Favqulodda foydalar» schotida aks ettiriladi.

«… Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq *favqulodda zararlar* – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning odatdagi faoliyatdan chetga chiquvchi hodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan, odatdan tashqari xarajatlardir. Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo‘lgan o‘tgan davr xarajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo‘jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq emasligi.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo‘jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo‘lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog‘liq holdagi ishlamay turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda «bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak» mezoniga javob bermaydi.

Masalan, tabiiy ofatlardan keyin inventarizatsiya qilish chog‘ida aniqlangan materiallar kamomadlari aks ettirilgan:

D-t 9720-«Favqulodda zararlar» schoti

K-t 1010-«Xom ashyo va Materiallar» schoti.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq favqulodda moddalarga quyidagilar kiradi: mol-mulkning majburiy tarzda olib quyilishi natijalari, yirik baxtsiz hodisalarning oqibatlari, joriy etilgan qonunlar yoki me’yoriy hujjatlarlarga muvofiq taqiqlashlar natajasida yuzaga kelgan zararlar va boshqalar.

7.9. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga olish

Joriy yilda olinadigan foydadan yil davomida soliqlar va yig‘imlar to‘lash uchun foydalanish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

9810-«Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schoti

9820-«Foydadan olingan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar».

Daromad (foyda) solig‘i, yagona soliq, yalpi tushumdan yagona soliq, infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisoblab yozilishi 9810, 9820-schotlar debetida va 6410-"Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)" schotining krediti bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi. 9810 va 9820-schotlar debetida jamlangan summalar hisobot davrining oxirida ularning kreditidan 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debetiga o‘tkazilib yopiladi.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga va №21 BHMSga muvofiq hisobot davrida daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar vaqtincha farqlarning soliq samarasini hisobga olish asosida aniqlanadi.

Bizning amaliyotimiz uchun yangi bo‘lgan ayrim tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha xarajatlar — hisob siyosatiga muvofiq hisoblab chiqariladigan daromad (foyda) solig‘i summasi (9810-schot).

To‘lanadigan daromad (foyda) solig‘i — soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqariladigan daromad (foyda) solig‘i summasi (6410-schot).

Muddati uzaytirilgan soliq majburiyati —soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kelgusi davrlarda to‘lanadigan daromad (foyda) solig‘i summasi (6250, 7250-schotlar).

Muddati uzaytirilgan soliq talabi — chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kelgusi davrlarda qoplanadigan daromad (foyda) solig‘i summasi (0950, 3210-schotlar).

Muddati uzaytirilgan soliq talablarining kelgusi davrlarda hisobga olinishi mazkur davrlardagi soliqqa tortiladigan daromadning kamaytirilishini bildiradi. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyati kelgusida soliqqa tortiladigan daromadni ko‘paytiradi.

Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobot davridagi soliqqa tortiladigan daromadi 500,0 ming so‘mni, 3210-«Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan daromad (foyda) solig‘i» schotining saldosi 40,0 ming so‘mni tashkil qiladi. Bu esa o‘tgan hisobot davrlarida soliq solinadigan daromadning balans foydasidan katta bo‘lganligini va korxona hisob siyosatiga muvofiq hisoblab yozilganidan 40,0 ming so‘m ko‘p summani budjetga to‘laganligini anglatadi.

Agar 3210-schotda vaqtinchalik farqlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan daromad (foyda) solig‘i summalari mavjud bo‘lmaganda edi, korxona budjetga 100,0 ming so‘m daromad solig‘i (500000x20%:100%) to‘lagan bo‘lar edi. Biroq 3210-schotdagi qoldiq ushbu summani kamaytiradi va korxona budjetga 40000 so‘m kam, ya’ni 60000 so‘m daromad solig‘i to‘laydi (100000-40000).

D-t 6410-«Foyda solig‘i bo‘yicha budjetdan qarzlar» schoti - 40000

K-t 3210-«Vaqtinchalik farqlarga bo‘yicha muddati kechiktirilgan daromad solig‘i» schoti - 40000.

Demak, agar korxona, chegirmalar amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yetarlicha soliqqa tortiladigan daromad olgandagina, soliq to‘lovlarining qisqartirilishi shaklidagi iqtisodiy nafni qo‘lga kiritadi. Shuning uchun, agar korxonada vaqtinchalik farqlar chegirib tashlanadi-

gan, soliqqa tortiladigan daromadni olish ehtimoli mavjud bo‘lgandagina muddati uzaytiriladigan soliq talabi tan olish o‘rinli hisoblanadi.

9820-«Foydadan olingan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schotida korxonalarning foydasidan to‘lanadigan boshqa soliqlarga oid hisoblab yozishlar aks ettiriladi. Masalan, infratuzilmani rivojlantirish uchun to‘lanadigan soliqning hisoblab yozilishi schotlarda quyidagicha aks ettiriladi.

D-t 9820-«Foydadan olingan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schoti

K-t 6410-«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar» schoti.

7.10. Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga olish va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl) ni tuzish

9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti hisobot yilida korxona faoliyatini yakuniy moliyaviy natijasini shakllantirish to‘g‘risidagi axborotni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) ana shu faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytirilgan, asosiy faoliyatdan olingan daromadlar, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va favqulodda daromadlar moliyaviy natijasining qo‘shilishidir. 9910-schot debeti bo‘yicha korxonaning zararlari (xarajatlari), krediti bo‘yicha esa — foydasi (daromadlari) aks ettiriladi. Hisobot davri uchun debet va kredit oborotlarining taqqoslanishi hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasini ko‘rsatadi.

Har bir hisobot davrining oxirida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet va kredit tomonlarining ko‘rsatkichlari jamlanib, o‘zaro taqqoslanganidan so‘ng hisobot davri uchun umumiy balans foyda(yoki zarar) aniqlanadi.

Hisobot yili nihoyasiga yetishi bilan yillik buxgalteriya hisobotini tuzish chog‘ida 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti yopiladi. Hisobot yili sof foydasi (zarari) 9910-schotdan 8710-«Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)» schotining debeti (zarar) yoki kreditiga (sof foyda) o‘tkaziladi.

Foyda ko‘rilgan hollarda:

D-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti

K-t 8710-«Hisobot yilidagi taqsimlanmagan foyda» schoti.

Zarar ko‘rilgan hollarda:

D-t 8710-«Hisobot yilidagi taqsimlanmagan zarar» schoti

K-t 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti.

Hisobot davri uchun korxona barcha daromadlari va xarajatlarining taqqoslanishi va faoliyatga oid yakuniy moliyaviy natija aniqlanishi Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotda (2-shakl) aks ettiriladi.

7.11. Daromadlar va xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash hisobiga doir muomalalarni hisob registrlarida aks ettirish

Buxgalteriya hisobi jurnal-order shaklida yuritilganda 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010-9050), 9100-«Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110-9150), 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210, 9220) schotlar bo‘yicha analitik hisob quyidagi registrlarda yuritiladi:

62-ASK - Qishloq xo‘jalik korxonalarining mahsulot, Material, ish va xizmatlari realizatsiya sini hisobga olish qaydnomasi;

63-ASK – Tayyor mahsulotlar realizatsiyasiga oid hujjatlar reestri,

64-ASK – tovar-material qiymatliklar, ish va xizmatlar realizatsiyasiga oid hujjatlar reestri.

Mahsulot sotish, bajarilgan ish va xizmatlarga oid barcha dastlabki hujjatlar ma’lumotlarning xususiyatiga qarab tegishli registrlarida aks ettirilib boriladi. Masalan, sotish uchun jo‘natilgan barcha qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha tuzilgan tovar-transport nakladnoylari va boshqa hujjatlar xo‘jalik bo‘linmalarida realizatsiya qilinadigan mahsulotning har bir turi bo‘yicha oylik qilib ochilsa, buxgalteriyada yig‘ma shaklda har yilga ochilib, unda quyidagi ma’lumotlar xronologik tartibida aks ettiriladi: mahsulot sotuvchi bo‘linma, tayyorlov tashkiloti, xaridor va to‘lovchining nomi, mahsulot sifati, «jo‘natildi» degan bo‘limda sotilgan mahsulotning qiymati, xaridorlar tomonidan to‘lanmaydigan relizatsiyaga doir xarajatlar summasi va korrespondensiyalanuvchi schotlar ko‘rsatiladi.«Qabul qilindi» bo‘limida qabul kvitansiyasi yoki reestr, tayyorlov tashkiloti (yuk qabul qiluvchi) ning boshqa hujjatlarining raqami, qabul qilingan mahsulot miqdori, mahsulot uchun to‘lanishi zarur bo‘lgan summa, qo‘shimcha to‘lanadigan summa va korrespondensiyalanuvchi schotlar ko‘rsatiladi. Ushbu reestr ilova qilinadigan dastlabki hujjatlar bilan birga belgilangan muddatda xo‘jalikning markaziy buxgalteriyasiga topshiriladi. Bu yerda bankdan olingan ko‘chirma va unga ilova qilingan hujjatlarga, shuningdek, kassa hujjatlariga asosan har bir nakladnoy yoki boshqa ilova hujjatlarining puli

to‘langanligi tekshiriladi va «to‘langanligi to‘g‘risida belgi» degan bo‘limining tegishli grafasiga ma’lumotlar yoziladi: sotilgan mahsulot uchun pul tushgan kun, summasi va pul tushgan schotning raqami (5010, 5110, 5210, 6810 va b.).

Oy oxirida 63-ASK reestrning summa ko‘rsatkichlari oy bo‘yicha va yil boshidan jamlanib, «jo‘natildi» va «qabul qilindi» degan bo‘limlaridagi schotlar bo‘yicha guruhlanib 62-ASK qaydnomaga o‘tkaziladi.

Boshqa tovar-Material qiymatliklar, chetga bajarilgan ish va xizmatlar 64-ASK reestrda oy davomida hisobga olib boriladi. Bu reestr bir yilga ochilib, unda xo‘jalik bo‘linmalari (oila pudrati, ijarachi, markaziy ombor, ustaxona, avtopark va b.), buyurtmachi, oluvchi, to‘lovchi, o‘lchov birligi ko‘rsatiladi.

«9120, 9220-schotlar debetiga quyidagi schotlar kreditidan» degan bo‘limining tegishli grafalarida jo‘natilgan tovar-Material qiymatliklar (qishloq xo‘jalik mahsulotidan tashqari) yoki bajarilgan ish va xizmatlarning sanasi, hujjat raqami, miqdori (hajmi), qiymati, korrespondensiyalanuvchi schotlar bo‘yicha aks ettiriladi.

«To‘lovga qabul qilindi» (9020, 9030 schotlar kreditidan boshqa schotlar (4010, 5010 va b.) debetiga) bo‘limida sotilgan Material qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlarning miqdori(hajmi)ni tasdiqlovchi hujjatlar sanasi, raqami, shuningdek korrespondensiyalanuvchi schot ko‘rsatiladi.

«To‘langanlik to‘g‘risida belgi» bo‘limida sotilgan tovar-matierial qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlar uchun olingan summa, sanasi va korrespondensiyalanuvchi schotlar bo‘yicha hisobga olinadi. Bu bo‘limdagi yozuvlar 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar» schotining krediti bilan korrespondensiyalanuvchi (5010, 5110, 5210, 6810) schotlar bo‘yicha bo‘ladigan muomalalar aks ettiriladi.

Oy oxirida 64-ASK reestrdagi jamlangan miqdor va summa ko‘rsatkichlari 62-ASK qaydnomaga o‘tkaziladi.

63-Ask shakl

Q/x korxonasi «Qangli» agrofirmasi
2011 yil martoyi uchun

Tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish hujjatlari reestri №__
Mahsulot (hayvon, parranda) turi _____, o‘lchov biriligi _____, sotish turi _____

bo‘-linma	Xaridor, buyurtmachi	Mahsulot navi sifati	Jo‘natildi.(9110-schot debetiga schotlar kreditidan)						To‘lashga qabul qilindi (9010 schot kreditidan 4010,9050 - schotlar debetiga)							Xaridor tomonidan pul to‘langanligi to‘g‘risida belgi (4010-schot kredit 5110-schot debet)		
			Hujjat (yuk xati, reestr va b.)		miqdori (massa)	Mahsulot qiymati reja tannarx, so‘m		Boshqa xarajatlar	Korr. schot	Hujjat (kvitansiya, reestr va b.)			Miqdori		Summa		sana	summa	Korr-esplondensiya-lanuvchi schot
			Sana					va h.k.		Sana	№	naturada, kg	Hisobga o‘tgan massasi,	realizatsiya shartnoma bahosi, so‘m	qo‘shimcha, ustama,chegir-ma va h.k	Korr schot			

														kg			№9 050					
№ 1	«Qi bra y sut» AJ	1 s.	01. 03	01	2200	620	-	-	-	2810	01.03.	01	2200	2200	666	-	-	-	4010	05.0 3.	666	5110
№1	--//-	1 n.	02. 03	02	2300	645	-	-	-	2810	02.03	02	2300	2310	693	-	-	-	4010	07.0 3	693	5110
№1	--//-	1 n.	03. 03	03	2300	645	-	-	-	2810	03.03	03	2300	2320	696	-	-	-	4010	08.0 3	696	5110
№1	--//-	1 n.	04. 03	04	2300	645	-	-	-	2810	04.03	04	2300	2320	696	-	-	-	4010	09.0 3	696	5110
№1	--//-	1 n.	05. 03	05	2400	670	-	-	-	2810	05.03	05	2400	2420	726	-	-	-	4010	10.0 3	726	5110
№1	--//-	1 n.	06. 03	06	2400	670	-	-	-	2810	06.03	06	2400	2420	726	-	-	-	4010	11.0 3	726	5110
№1	--//-	1 n.	07. 03	07	2400	670	-	-	-	2810	07.03	07	2400	2420	726	-	-	-	4010	12.0 3	726	5110
№1	--//-	1 n.	08. 03	08	2300	645	-	-	-	2810	08.03	08	2300	2315	694	-	-	-	4010	13.0 3	694	5110
Jami		-		-	665 00	186 20	-	-	-	2810	-	-	66500	67000	20100	-	-	-	4010	-	20 10 0	511 0

64-ASK shakl

Q/x korxonasi «Qangli»agrofirmasi .

Tovarni sotishga doir hujjatlari reestri №_*1*__

2011 yil mart uchun

Realizatsiya turi ____*shartnoma №4, 4.01.2011*_____

Bo‘lin ma	Xaridor, buyurtma-chi, to‘lovchi	Material qiymat-liklar. Bajarilgan ish va xiz-matlarning nomi	O‘l-chov birligi	Jo‘natilgan, bajarilgan (9120-schot debetiga 2910, 2920 va b schotlar kreditidan)					To‘lashga qabul qilindi (9020-schot kreditidan 4010-schot debetiga			To‘langanligi haqida (4010-schot kreditidan schotlar debetiga		
				Hujjat		Miq-dori, massa, hajm)	Qiy-mati	Korr yu schot	Huj-jat	Miq-dori (ha-jm)	sum-ma	sa-na	Sum-ma	Korres-ponden-siyala-nuvchi schot
				Sana	№									
Avtotra sport	Go‘sht kombinati	Qoramol-larni tashish	-	29.03	110	-	4500	2910	schot	-	4100	-	-	-
	va h.k.													

№62-ASK shakl
(Q/x korxonalari uchun)

«Qangli»agrofirmasi
2011 yil uchun mahsulot, Material, ish va xizmatlar realizatsiyasi hisobi qaydnomasi
realizatsiya turi. Material qiymatliklar guruhi _____

Yozuv-lar raqa-mi	Bo‘-linma	Registr yoki boshqa hujjat		Mahsulotlar, hayvonlar va parrandalar, Materiallar, ish va xizmatlar nomlari	Sor-ti, sifa-ti	O‘l-chov bir-ligi	Jo‘natildi, bajarildi (№___schot debetidan schotlar kreditiga)				To‘lashga qabul qilndi (№__-schot kreditidan _____-schotlar debetiga					
							№2800-«Tayyor mahsulotlar»		va h.k.	Debet bo‘yi-cha jami	Reestr raqa-mi, kvi-tan-siya va b. hu-jjatlar	№____-«____»			va h.k.	Kre-dit bo‘yi-cha jami
												Miqdori				
		Sana	№				Miq-dori (mas-sa, hajm)	qiy-mati				Natu-rada	Hiso b miq-dori	qiy-mati		
A	B	V	G	D	e	J	1	2	3…8	9	10	11	12	13	14..17	18
1	№1 ferma	mart	17	Sut	1 s.	kg	66500	18620	-	18620	01-31	66500	67000	20100	-	20100
				va h.k.												

11-ASK shakl

Korxona _____
_____ yil «_____» uchun №_____, va buyurtmachilar schotlari krediti bo‘yicha

11-ASK JURNAL-Order

_____ schotlar debetiga		_____ schotlar krediti bo‘yicha												
		2810 - «Tayyor mahsulotlar»	va h.k.		va h.k.		№	№	№	va h.k.	___ schot bo‘yicha jami	va h.k.		Jami
03	Asosiy vositalar ta’miri	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
29	Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalimklar	-	-	-	-	-	-	-	18425	-	18425	-	-	18425
	Kapital quyilmalar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Tayyor mahsulotlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Tovarlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Jo‘natilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlar	20200	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	20220

	Realizatsiya	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	46900	46900
	Kassa	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Hisob-kitob schoti	-	-	-	-	-	76100	4100	-	-	80200	-	-	80200
	Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kito-blar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Foyda va zararlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	118900
	Qisqa muddatli bank kreditlari	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
	Jami	20200	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
													-	
					-	-	76100	4100	18425	-	98625	-	165800	284645

Shunday qilib, 63-ASK va 64-ASK reestrlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– xo‘jalikning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, Material qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlar bo‘yicha dastlabki hujjatlarni guruhlash;

– har bir ichki xo‘jalik bo‘linmasi (oila pudrati, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik, ijarachi) bo‘yicha realizatsiya shartnomalarining bajarilishini nazorat qilish;

– sotilgan mahsulot, Material qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlar uchun xaridor(buyurtmachi)lar tomonidan bo‘nak va yakuniy hisob-kitoblar bo‘yicha pul o‘tkazib berilishi ustidan nazorat qilish;

– 62-ASK qaydnoma qishloq xo‘jalik mahsulotlari va boshqa tovar-Material qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlar realizatsiya si jarayonini umumlashtiruvchi analitik hisob registri bo‘lib hisoblanadi. Bu qaydnomada realizatsiya qilingan mahsulot turlari (bajarilgan ish va xizmatlar) hamda realizatsiya yo‘nalishlari (davlat buyurtmasi va h.k.) bo‘yicha oylik va yil boshidan bo‘lgan miqdor va summa yig‘ib boriladi.

Alohida tayyorlangan mahsulot realizatsiya sining hisobi 62-ASK qaydnomaning alohida betlarida yuritiladi. Bunda o‘simlikchilik, chorvachilik va boshqa tarmoqlar mahsulotlari realizatsiya sining hisobi alohida betlarda aks ettiriladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari, bajarilgan ish va xizmatlar realizatsiya sining sintetik hisobi 11-ASK jurnal-orderda yuritiladi. Unda 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010-9050), 9100-«Sotilgan mahsulot(tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110-9150), 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210, 9220), 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar», 0940-«Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar» schotlarning kreditlari bo‘yicha jamlangan oylik oborotlari debetlanuvchi schotlar (5010, 5110, 5210 va b.) ko‘rsatilib aks ettiriladi.

11-ASK jurnal-orderni to‘lg‘azish uchun ma’lumotlar 62-ASK qaydnomadan olinadi. 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010-9050), 9100-«Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110-9150), 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210, 9220), 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar», 0940-«Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar» va boshqa schotlar bo‘yicha analitik ma’lumotlar 11-

ASK jurnal-orderning orqa tomonida yil boshidan o‘sib boruvchi jami ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlar 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9010-9050), 9100-«Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar» (9110-9150), 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210, 9220), 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar», 0940-«Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar» va boshqa schotlar summasining harakatini nazorat qilib turish, mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiya sidan ko‘rilgan moliyaviy natijalarni hamda 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti bo‘yicha yakuniy natijani aniqlash uchun foydalaniladi.

11-ASK jurnal-orderning jamlangan ma’lumotlari boshqa tegishli registrlar bilan taqqoslangandan so‘ng Bosh daftarga o‘tkaziladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Realizatsiya jarayonining mohiyati va uning hisobi qanday tashkil etiladi?
2. Moliyaviy hisobda daromadlar va xarajatlarning turkumlanishi, hisobni tashkil etishning me’yoriy asoslari.
3. Asosiy faoliyatning mahsulot(tovar, ish va xizmat)larini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hisobi.
4. Asosiy faoliyatning mahsulot(tovar, ish va xizmat)larini sotishni hisobga olish.
5. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlarini hisobga olish.
6. Davr xarajatlarini hisobga olish.
7. Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish.
8. Favqulodda foyda(zarar)larni hisobga olish.
9. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishi hisobga olish.
10. Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga olish.
11. Daromadlar va xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash hisobiga doir muomalalarni hisob registrlarida aks ettirish.

NAZORAT TESTLARI

1. Realizatsiya jarayonining mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Ta’minotdan boshlanib to tayyor mahsulot olinguncha qilinadigan operatsiyalar

B) Ishlab chiqarish boshlangandan u tayyor bo‘lib, sotilib, to puli kelib tushgungacha bo‘lgan jarayon

C) Ishlab chiqarish boshlangandan (masalan, urug‘ ekilgandan) to tayyor mahsulot olinguncha qilinadigan operatsiyalar

D) Mahsulot tayyor bo‘lgandan to sotilgunga qadar bo‘lgan, ya’ni xaridorga yetkazib berilganga qadar bo‘lgan jarayon

2. Mahsulotlarni sotish (ish bajarish va xizmat ko‘rsatish)ga asos bo‘luvchi asosiy hujjat qaysi hujjat hisoblanadi?

A) ishonchnoma

B) shartnoma

C) dalolatnoma

D) kirim kassa orderi

3. Xaridorlar va buyurtmachilar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Neftebaza, qishloq xo‘jalik kimyo, urug‘chilik xo‘jaliklari, avtobaza, MTP, qurilish tashkilotlari

B) Poliz ekinlarini qabul qilish punktlari, meva-sabzavot mahsulotlarini qabul qilish korxonalari, do‘konlar, MTP, avtobaza

C) Paxta tozalash zavodi va punktlari, don qabul qilish punktlari, meva-sabzavotlarni qabul qilish punktlari

D) Kimyo tashkiloti, o‘g‘it korxonalari, neftbaza, paxta tozalash punktlari, don qabul qilish punktlari, qurilish tashkilotlari

4. Xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish qaysi me’yoriy hujjat bilan tartibga solinadi?

A) «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari»

B) «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom

C) «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizom

D) Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari to‘g‘risida»gi Nizom

5. Tayyor mahsulot sotishga jo‘natilganda haqiqiy tannarxiga qanday schotlar aloqasi tuziladi?

A) Dt 2010 Kt 2810

B) Dt 9010 Kt 2810

C) Dt 2810 Kt 9010

D) Dt 9110 Kt 2810

6. Xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan mahsulotlar qabul qilib olinganda (shartnoma bahosida) qanday buxgalteriya yozuvi qilinadi?

A) Dt 4010 Kt 9010

B) Dt 6310 Kt 9010

C) Dt 9010 Kt 4010

D) Dt 4010 Kt 6310

7. Moliyaviy natija qanday aniqlanadi?

A) 8710-Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schoti kreditida yalpi foyda summasi aks etadi

B) 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet tomonidagi xarajatlar summalari va kredit tomonidagi daromadlar summalari jamlanidi. Agar kredit tomonidagi summa ko‘p chiqsa foyda, debet tomoni ko‘p chiqsa zarar ko‘rilganligi ma’lum bo‘ladi

C) 8710-Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schoti kreditida zarar summasi aks etadi

D) 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet tomonidagi xarajatlar summalari va kredit tomonidagi daromadlar summalari jamlanidi. Agar kredit tomonidagi summa ko‘p chiqsa zarar, debet tomoni ko‘p chiqsa foyda ko‘rilganligi ma’lum bo‘ladi

8. Moliya xo‘jalik faoliyati natijasida foyda olinsa qanday buxgalteriya provodkasi tuziladi?

A) Dt 8720 Kt 9910

B) Dt 9910 Kt 8720

C) Dt 8710 Kt 8720

D) Dt 9910 Kt 8710

9. Moliya xo‘jalik faoliyati natijasida zarar ko‘rilsa qanday schotlar aloqasi tuziladi?

A) Dt 9910 Kt 8720

B) Dt 8510 Kt 9910

C) Dt 8710 Kt 9910

D) Dt 9910 Kt 8310

10. Moliyaviy hisobotda daromadlar va xarajatlar qaysi shaklda aks ettiriladi?

A) 1-shakl «Buxgalteriya balansi»

B) 2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»

C) 3-shakl «Asosiy vositalar to‘g‘risida hisobot»

D) 4-shakl «Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot»

VIII BOB. BUXGALTERIYA HISOBOTLARI

8.1. Hisobotning mohiyati va ahamiyati

Korxonaning joriy faoliyati ma’muriyat tomonidan boshqaruv funksiyalarini safarbar qilish yo‘li bilan amalga oshirilib, uning natijalari buxgalteriya hisobi tizimida aks ettiriladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida amalga oshirilgan xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi axborotlar tegishli hisob registrlarida umumlashtiriladi va guruhlangan holda ulardan buxgalteriya hisobotlariga o‘tkaziladi. Buxgalteriya hisobini huquqiy-me’yoriy tartibga solish tizimida hisobot korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvoli hamda moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona tizimi sifatida qaraladi. Hisobotlar ma’lum hisobot davri uchun belgilangan shakllar bo‘yicha tayyorlangan buxgalteriya hisobi axborotlari asosida tuziladi. O‘z navbatida hisobot davri – bu korxona moliyaviy hisobotini tuzishi lozim bo‘lgan davr.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq moliyaviy hisobotning hisobot davri 1 yanvardan 31 dekabrga qadar bo‘lgan kalendar yil deb belgilangan. Yangidan tashkil etilgan yuridik shaxslar uchun ular yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan sanadan boshlab, yuridik shaxs hisoblanmaydigan subyektlar uchun esa ular tegishli davlat organlarida ro‘yxatga olingan sanadan boshlab, o‘sha yilning 31 dekabrigacha bo‘lgan davr birinchi hisobot yili deb hisoblanishi belgilangan.

Agar xo‘jalik yurituvchi subyekt joriy yilning 1 oktyabridan keyin ro‘yxatga olingan bo‘lsa, uning uchun birinchi hisobot yili keyingi yilning 31 dekabrida tugaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni davlat ro‘yxatidan o‘tkazgungacha amalga oshirilgan xo‘jalik muomalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar uning birinchi yildagi hisobotiga kiritiladi.

Hisob axborotlarini umumlashtirishning bunday tartibi avvalo, korxonaning o‘zi uchun zarur va muayyan korxona moliya-xo‘jalik faoliyatini aniqlashtirish hamda ayrim hollarda unga tuzatish kiritish bilan bog‘liq.

Shuning uchun buxgalteriya hisobotining mazmuni axborotdan foydalanuvchilarning mulklar, moliyaviy ahvol, foyda va zararlar ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni baholashiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, istalgan faktlarni ochib berishi lozim. Bunday axborotlardan foydalanuvchilar rahbarlar, ta’sischilar, ishtirokchilar va korxona mulkining egalari hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati, mulkiy ahvoli va moliyaviy barqarorlik darajasi to‘g‘risidagi hisobotning mazmuni kapital quyishdan manfaatdor bo‘lgan investorlarda ham uchun qiziqish uyg‘otadi.

Buxgalterlik (moliyaviy) hisobot–hisobot davri uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar to‘plami.

Moliyaviy hisobotni tuzish va e’lon qilish tamoyili buxgalteriya hisobi uslubiyatining asosi hisoblangan muhim tamoyillardan biridir.



Ishonchlilik nafaqat buxgalterlik hisobi axborotlari, balki hisobning boshqa turlari, eng avvalo, statistik hisob ma’lumotlariga asoslanadi. Ushbu yondoshuvning buzilishi biznes-reja tuzish, xo‘jalik faoliyatining turli pog‘onalarida mulklarni tezkor boshqarish imkonini ham yo‘qqa chiqaradi. Ushbu talab hisobot va reja ko‘rsatkichlarining taqqoslanuvchanligini talab etadi.

To‘liqlik aniqroq asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Shu maqsadda sintetik va analitik hisob ma’lumotlari inventarizatsiya natijalari va mustaqil auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

O‘z vaqtidalik zarur moliyaviy hisobotlarni tegishli joylarga belgilangan muddatlarda taqdim etishni bildiradi. Tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar (budjet tashkilotlaridan tashqari) barcha tashkilotlar har chorakda choraklik yakunlanganidan keyin 30 kun ichida moliyaviy hisobot taqdim etishlari lozim. Yillik moliyaviy hisobot yil yakunlanganidan so‘ng 90 kun davomida, agar boshqacha muddat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanmagan bo‘lsa, taqdim etilishi lozim. U mulkdorlarning ta’sis hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim.

Moliyaviy hisobotning *oddiyligi* uning qisqa va tushunarliligidan iborat. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga o‘tkazilishi ushbu talabni amalga oshirishga yordam bermoqda.

Moliyaviy hisobotning *tekshirishga qulayligi* unda taqdim etilgan axborotning istalgan vaqtda tasdiqlanish imkoniyatini nazarda tutadi. Ushbu shart bilvosita unda taqdim etilgan axborotning betarafligini bildiradi.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining *taqqoslanuvchanligini* ta’minlash maqsadida hisob siyosatiga o‘zgarishlar moliyaviy yilning boshida kiritilishi lozim.

Agar bunday taqqoslanuvchanlik bo‘lmasa, hisobot davridan oldingi davr uchun ma’lumotlarga tuzatish kiritilishi kerak. Bunda O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini huquqiy-me’yoriy tartibga solish tizimining amaldagi me’yoriy hujjatlari bilan belgilangan qoidalar qo‘llaniladi. Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining uslubiy birligi shundan iborat.

Tuzatishlar va ularni bajarish uslubi moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida tuzatishlar sababi ko‘rsatilgan holda ochib berilishi lozim.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi uning to‘laqonligi bilan kuchayadi, ya’ni u korxonaning o‘z moliya-xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlari kabi, uning filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari, jumladan mustaqil balansga ajratilgan boshqa tarkibiy bo‘linmalar ko‘rsatkichlarini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Taqqoslanuvchanlik kechayotgan jarayonlar va tafovutlarni aniqlash maqsadida har xil vaqt oralig‘ida bir xil ko‘rsatkichlar mavjudligini nazarda tutadi.

Bunday taqqoslashning maqsadi korxona rivojlanishining borishini aniqlash uchun zarur. Lekin, undan foydalanishda axborotlarning foydalilik chegarasi tamoyilidan chetga chiqish mumkin emas. Bu esa noto‘g‘ri xulosalarni shakllantirishga olib keladi. Masalan, korxona hisobot davrida ishlab chiqarishni pasaytirish maqsadida ishlab chiqarish tuzulmasini o‘zgartirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan va shu munosabat bilan bankdan uzoq muddatli kredit olgan. Taqdim etilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlariga ko‘ra korxonaning moliyaviy holati yaxshilanishini faqat uzoq kelajakda ko‘rish mumkin.

Ushbu yondoshuvlarni amalga oshirish uchun moliyaviy hisobotda keltirilgan o‘tgan davrdagi va hisobot davridagi aniq ko‘rsatkichlar bo‘yicha axborotlarni taqqoslash keltirilishi lozim.

Tejamlilik tegishli hisobot shakllarini unifikatsiyalash va standartlash, ayrim ko‘rsatkichlarni hisobot ma’lumotlarining sifatiga zarar yetkazmaydigan tarzda qisqartirish yo‘li bilan yerishiladi. Bu eng avvalo, axborot-ma’lumotnoma tavsifidagi ko‘rsatkichlarga taalluqlidir.

Moliyaviy hisobotga quyiladigan talablardan biri – uni ***rasmiylashtirish*** hisoblanadi. Bu moliyaviy hisobotni tuzish ham mulklar, majburiyatlar va xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish kabi, o‘zbek tilida va milliy valyuta – so‘mda amalga oshirilishini bildiradi. Moliyaviy hisobot korxonaning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotni ***e’lon qilish*** O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 20-moddasida belgilangan ro‘yxatdagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Ularga ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari kiradi.

Moliyaviy hisobotni e’lon qilish axborotdan foydalanuvchilar uchun ma’lumot olish imkoni bo‘lgan ommaviy axborot vositalarida yoki tegishli nashrlarda, hamda qiziquvchilarga taqdim etish uchun korxona ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat statistika organlariga taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayidan kechikmasdan e’lon qilinishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot e’lon qilinishidan oldin auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilib, ijobiy auditorlik xulosasi olingan va xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqaruv organi (aksiyadorlarning umumiy majlisi, ta’sischilar majlisi va h.k.) tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot shakllaridan *buxgalteriya balansi* (1-shakl) va *moliyaviy natijalar*

to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl) e’lon qilinishi lozim. Bunday tajriba xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan bo‘lib, tashqi axborotdan foydalanuvchilarga mazkur korxonaga kapital quyish va boshqa masalalar bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Buxgalteriya balansi qisqartirilgan shaklda e’lon qilinishi mumkin va uning mazmuni korxona tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining qoidalarida ko‘zda tutilgan talablar doirasida bo‘lishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot bilan birga auditorlik xulosasi ham e’lon qilinishi mumkin. Uning mazmuni mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy hisobotning ishonchliligi to‘g‘risidagi fikr (baho) dan iborat.

Ichki buxgalteriya hisobotlari korxonaning tijorat sirlari oshkor qilinmasligi uchun e’lon qilinmaydi. Tijorat siri hisoblangan ma’lumotlarni noqonuniy olish va oshkor etish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

8.2. Hisobotlarning turlari, tarkibi va unga quyiladigan talablar

Xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobotlari uchta asosiy mezon bo‘yicha turkumlanadi:

- axborotlar hajmiga ko‘ra;
- tuzilish maqsadiga ko‘ra;
- davriyligi bo‘yicha.

Hisobotdagi ma’lumotlar hajmiga ko‘ra xususiy hisobot va umumiy hisobotlarga bo‘linadi.

Xususiy hisobot xo‘jalik yurituvchi subyektning batta faoliyat uchastkasidagi ishi to‘g‘risidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy hisobot xo‘jalik yurituvchi subyektning butun moliya-xo‘jalik faoliyatini tavsiflaydi.

Hisobotlar tayinlanishiga ko‘ra tashqi va ichki hisobotlarga bo‘linadi.

Tashqi hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat tavsifi, daromadliligi mulkiy hamda moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi axborotdan tashqi foydalanuvchi-manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunining 20-moddasiga muvofiq tashqi yillik moliyaviy hisobot e’lon qilinishi lozim.

Ichki hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Hisobot qamrab oladigan davrlar bo‘yicha davriy (joriy) va yillik hisobotlarga bo‘linadi.

Davriy hisobotlar hisobot yili ichida muntazam ravishda ma’lum davr oralig‘i (kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yarim yillik, 9 oylik) uchun tuziladi. Yillik hisobot hisobot yili tugaganidan so‘ng tuziladi (8.1-rasm).



8.1-rasm. Buxgalteriya hisobotlarining turkumlanishi

Moliyaviy hisobotda korxona faoliyatidan olinadigan moliyaviy natijalar, ularning iqtisodiy tavsifiga muvofiq turlari bo‘yicha guruhlanib aks ettiriladi. Aktivlar, passivlar va kapital balansda korxona moliyaviy holatini bevosita baholaydigan elementlarga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 16-moddasiga muvofiq moliyaviy hisobot quyidagi asosiy shakllarni o‘z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot;
- pul oqimlari to‘g‘risida hisobot;
- xususiy kapital to‘g‘risida hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotga tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi tizimining yakuniy natijasi sifatida moliyaviy hisobot subyektining moliyaviy holatini va uning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Bunday axborotlardan ko‘plab iste’molchilar quyidagi maqsadlardla foydalanadi:

a) kreditlar berish bo‘yicha qarorlar qabul qilish va investitsion qarorlar qabul qilish uchun;

b) subyektning kelgusidagi pul oqimlarini baholash;

B) subyektning resurslari, majburiyatlari va ulardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

Buxgalteriya hisobotlarining tarkibi va shakllari hamda ularni to‘lg‘azish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilanadi.

Yillik moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Uning mazmuni hisob ma’lumotlarining mulklar va ular manbalarining haqiqiy mavjud qoldiqlariga mosligini tasdiqlash bilan belgilanadi.

Shuning uchun yillik balansni tuzishga yil davomida tuziladigan balanslarga qaraganda juda yuqori ishonchlilikni ta’minlash talabi quyiladi.

Bunda tayyorgarlik ishlarining negizi barcha turdagi xo‘jalik mablag‘lari va mablag‘lar manbalarini to‘liq inventarizatsiya qilishdan iborat.

Buxgalteriya balansini tuzish texnikasi uning isbotlovchi hujjatlar bilan tasdiqlangan hisob yozuvlari asosida to‘ldirilishini nazarda tutadi. Balansni tuzishdan oldin analitik hisob schotlari bo‘yicha qoldiqlar va oborotlar bosh daftardagi schotlar bo‘yicha qoldiqlar va oborotlar bilan solishtirilib, tekshirilishi lozim. Bunda ularning tengligiga ishonch hosil qilish zarur.

Hisobotning ayrim shakllarini tuzish jarayonida ularga ma’lum talablar quyiladi. Masalan, balansni tuzishda uning ayrim moddalarini baholash qoidalariga rioya qilish kyerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning mulklari va majburiyatlarini baholashning umumiy tartibi O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 12-moddasida belgilangan.

Buxgalteriya balansi ayrim moddalarining bahosini shakllantirish tamoyillari quyidagi yondoshuvlarni nazarda tutadi:

- pul to‘lash yo‘li bilan sotib olingan mulklar sotib olish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha baholanadi;
- bepul olingan mulklar balansda hisobga olingan sanadagi bozor bahosi bo‘yicha aks ettiriladi;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zida tayyorlangan mulklar ularni tayyorlash xarajatlarining summasi bo‘yicha balansga qabul qilinadi;

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar amalga oshiriladi;

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar balansda qoldiq qiymati bo‘yicha baholanadi;

– mulklar va majburiyatlarni baholashning boshqacha uslublari amaldagi qonunchilik va me’yoriy hujjatlarga zid bo‘lmagan hollarda ruxsat etiladi.

Buxgalteriya hisobotlari shakllariga quyiladigan umumiy talablar ularda bo‘yab tuzatish va noaniqliklar bo‘lmasligini nazarda tutadi. Agar shakllarda xatolar aniqlansa, ular o‘rnatilgan qoidalar bo‘yicha tuzatilishi lozim.

Buxgalteriya hisobotlarida aniqlangan xatolar ular qaysi davrga taalluqli bo‘lishlaridan qat’iy nazar hisobot davridan keyingi birinchi davrda (chorakda, yil boshidan) tuzatilishi lozim. Tuzatishning bunday varianti ichki audit xizmati yoki nazorat organlari tomonidan aniqlangan, tekshiruvlar va inventarizatsiya chog‘ida aniqlangan noaniqliklarni tuzatishga ruxsat etiladi.

Tuzatishlar tegishli tarzda izoh berilib, tuzatish sanasi ko‘rsatilgan holda rahbar va bosh buxgalter imzosi bilan tasdiqlanadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobotlarini tuzishga quyiladigan talablar, umuman olganda joriy buxgalteriya hisobini shakllantirishga quyiladigan talablarga mos keladi.

Hisobot rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi.

Buxgalteriya hisobi shartnoma asosida ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan yoki buxgalteriya hisobiga doir mutaxassis bilan fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida yuritiladigan tashkilotlarda buxgalteriya hisobotlari xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari hamda hisobni yurituvchi chet tashkilot vakili yoki mutaxassis tomonidan imzolanadi.

8.3. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 16-moddasiga muvofiq yoziladi.

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlarning asosiy maqsadi korxonaning moliyaviy ahvoli va uning mahsulot, tovar, ish va xizmatlar

bozoridagi o‘rni to‘g‘risida to‘liqroq axborotlar olish uchun hisobot shakllarining mazmunini to‘ldirishdan iborat.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun hisobot davridagi va o‘tgan shu davrdagi ko‘rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, buxgalteriya balansi (1-shakl) va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot(2-shakl)da umumiy summa bilan keltirilgan ayrim, eng muhim mulklar va majburiyatlarni turlarining baholash uslublarini qo‘llashda yagonalikni ta’minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobini yuritishda u yoki bu qoidalar qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan vaqtdagi faktlarni ko‘rsatish va tegishli asoslashlarni tushuntirish xatida keltirish zarur. Aks holda bunday qoidalarni qo‘llash ushbu vaziyatni mazkur qoidalarni qo‘llashdan bosh tortish deb qaraladi va korxona tomonidan buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi amal qilayotgan qonunchilikni buzish deb tan olinadi.

Tushuntirish xatining mazmuni korxonaning joriy investitsion va moliyaviy faoliyatining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini, jumladan korxona ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi yoki taqsimlanmasligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Hisob siyosatining tovar-moddiy zaxiralarni baholash, ularning tayyorlanishi va ishlatilishi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash hamda ular faol qismidan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish, mahsulot (ish, xizmat) realizatsiya sidan olinadigan tushumlarni hisoblash variantlari, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishga doir turli investitsion loyihalarning rejalashtirilish va amalga oshirilishi, uning sifatini yaxshilash va hokazolar bo‘yicha batafsil ma’lumot beriladi.

8.4. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va uni e’lon qilish

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunining 19-moddasiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari quyidagi organlarga taqdim qilinadi:



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq boshqa ayrim turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobotni taqdim qilishning boshqa muddatlarini belgilashi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisobotlari manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va boshqalar uchun oshkora hisoblanadi. Manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar yillik moliyaviy hisobot bilan tanishish va nusxa ko‘chirish sarflarini to‘lab undan nusxa olish huquqlariga egadirlar.

Ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta kompaniyalari, banklar, fond va tovar birjalari, investitsiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yilgi moliyaviy hisobotini, ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘g‘riligi auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangach, hisobot yilidan keyingi yilning birinchi mayigacha e’lon qilishlari shart.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tugatilganida (bankrot, ixtiyoriy ravishda yoki boshqa asosda tugatilishi) sud yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan bankrot deb e’lon qilingan yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanaga yakuniy moliyaviy hisobot tuzadilar. Xo‘jalik yurituvchi subyektni tugatishga doir muomalalarni hisobga olish, tugatish balansi va hisobotini tuzish uchun javobgarlik tugatish komissiyasiga yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektni tugatishni amalga oshiradigan boshqa organga yuklatiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlari tugatish balansida tugatish komissiyasi tomonidan aniqlangan bahoda, ya’ni ularni sotish mumkin bo‘lgan baholarda baholanadi. Umidsiz qarzlar va zararlar tugatish balansiga kiritilmaydi.

Tugatilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiyatlari aniqlashtiriladi va ularni tuzish vaqtiga qadar hisoblangan foizlar bilan birga qo‘shib, tugatish balansida aks ettiriladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobotining ta’riflang.
2. Buxgalteriya hisobotlarining turlari, mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
3. Yillik buxgalteriya hisobotining tarkibi qanday?
4. Buxgalteriya balansi ayrim moddalarining baholanishini shakllantirish tamoyillari qanday?
5. Buxgalteriya hisobotiga qanday talablar quyiladi?

6. Moliyaviy hisobotni e’lon qilish mezonlari qanday?
7. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati nima?

NAZORAT TESTLARI

1. Buxgalterlik (moliyaviy) hisobot ta’rifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) o‘tgan yil uchun korxona faoliyatining foydasi, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar

B) keyingi yil uchun korxona faoliyatining natijalari, moliya bo‘limlariga taqdim etiladigan, o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan ko‘rsatkichlar

C) hisobot davri uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar to‘plami

D) keyingi yil uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tasdiqlanmagan shakllarda taqdim etiladigan, har xil ko‘rsatkichlar

2. Moliya yili qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) 31 dekabrdan 1 yanvargacha bo‘lgan davr

B) 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan davr

C) 1 sentabrdan 31 avgustgacha bo‘lgan davr

D) 21 martdan 20 martgacha bo‘lgan davr

3. Moliyaviy hisobotning muhim tamoyillari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) aniqlik, to‘liqlik, o‘z vaqtidalik, oddiylik, tekshirishga qulayligi, taqqoslanuvchanlik, tejamlilik, topshirish, e’lon qilmaslik

B) ishonchsizlik, hisoblash, oddiylik, tekshirishga qulayligi, taqqoslanuvchanlik, rasmiylashtirish, e’lon qilish

C) o‘z vaqtidalik, oddiylik, shaklning mazmundan ustunligi, nazorat, taqqoslanuvchanlik, rasmiylashtirish, bashoratlash

D) ishonchlilik, to‘liqlik, o‘z vaqtidalik, oddiylik, tekshirishga qulayligi, taqqoslanuvchanlik, tejamlilik, rasmiylashtirish, e’lon qilish

4. Buxgalteriya hisobotlari qaysi asosiy mezonlar bo‘yicha turkumlanadi?

A) ma’lumotlarga ko‘ra, tuzilish maqsadiga ko‘ra, aniqligi bo‘yicha

B) axborotlar hajmiga ko‘ra, tarkibiga ko‘ra, hisoblashishlar bo‘yicha

C) axborotlar hajmiga ko‘ra, tuzilish maqsadiga ko‘ra, davriyligi bo‘yicha

D) axborotlar hajmiga koʻra, tayinlanish maqsadiga koʻra, hisoblash boʻyicha

5. Maʼlumotlar hajmiga koʻra hisobotlar qaysi turlarga boʻlinadi?

A) davriy (joriy) hisobot, yillik hisobot

B) buxgalteriya hisoboti, statistik hisobot

C) qisman hisobot, umumiy hisobot

D) tashqi hisobot, ichki hisobot

6. Tuzilish maqsadiga koʻra hisobotlar qaysi turlarga boʻlinadi?

A) davriy (joriy) hisobot, yillik hisobot

B) buxgalteriya hisoboti, statistik hisobot

C) qisman hisobot, umumiy hisobot

D) tashqi hisobot, ichki hisobot

7. Davriyligi boʻyicha hisobotlar qaysi turlarga boʻlinadi?

A) davriy (joriy) hisobot, yillik hisobot

B) buxgalteriya hisoboti, statistik hisobot

C) qisman hisobot, umumiy hisobot

D) tashqi hisobot, ichki hisobot

8. Moliyaviy hisobotning asosiy shakllari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) Buxgalteriya balansi, ishlab chiqarish xarajatlari toʻgʻrisida hisobot, moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobot, pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobot

B) Balans hisoboti, foyda va zararlar toʻgʻrisida hisoboot, Materiallar hisoboti

C) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobot, asosiy vositalar harakati toʻgʻrisida hisobot, pul oqimlari toʻgʻrisida hisobot, xususiy kapital toʻgʻrisida hisobot

D) Balans hisoboti, moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobot, pul oqimlari toʻgʻrisida hisobot, debitor va kreditorlik qarzlari toʻgʻrisida maʼlumotnoma, mehnat hisoboti

9. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xatining mazmuni qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) korxonaning joriy investision va moliyaviy faoliyatining asosiy texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlarini, jumladan korxona ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi va taqsimlanmasligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi

B) korxonaning asosiy faoliyatining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, jumladan, korxona ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiradi

C) xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatining natijalari, jumladan, subyekt ixtiyorida qoladigan daromadning taqsimlanmasligi to‘g‘risidagi axborotlar kiradi

D) xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatining natijalariini, jumladan subyekt ixtiyorida qoladigan foydaning taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

10. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni qaysi organlarga taqdim qilinadi?

A) Soliq organlariga, davlat statistika organlariga, ta’sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga, qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa organlarga

B) Statistika organlariga, jismoniy shaxslarga, mulkdorlarga, homiylarga

C) Fermer xo‘jaliklari uyushmasiga, oilalarga, jismoniy shaxslarga, soliq inspeksiyasiga

D) Qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlariga, fermer xo‘jaliklari uyushmasiga, oilalarga, jismoniy shaxslarga

IX BOB. STATISTIKANING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

9.1. Statistika to‘g‘risida umumiy tushuncha

«Statistika» atamasi lotincha «status» so‘zidan olingan bo‘lib, bu so‘z hodisalarning holati, vaziyati, ahvoli degan ma’noni bildiradi. Ikkinchi bir ma’nosi davlat to‘g‘risidagi muayyan bilim, ma’lumotlar yig‘indisi va davlat ishi bilan shug‘ullanuvchilar degan ma’noni anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, ushbu nom bilan ayrim davlatlarning tuzilishi va ahvoliga oid bilimlar ham yuritilgan. Shu bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarni davlat va siyosatlar bilimdoni deb atashgan.

Demak, dastlab statistika deganda davlatlar haqidagi turli-tuman bilimlar (ma’lumotlar) to‘plami tushunilgan, keyinchalik bu nom bilan ijtimoiy hayotning turli tomonlarini belgilab beruvchi ma’lumotlar yuritilgan va nihoyat ijtimoiy fanlarning maxsus tarmog‘i ham- «Statistika» deb atalgan.

Hozirgi paytda bu tyermin har xil ma’noda qo‘llaniladi. Statistika deganda avvalo, ijtimoiy hayotning turli tomonlari-ishlab chiqarish va uning mahsulini taqsimlash, sotish hamda iste’mol qilish, madaniy, ma’naviy va siyosiy hayotdagi hodisa va voqealar, aholining moddiy farovonligi va hokazolarni ta’riflaydigan umumiy ko‘rsatkichlar tushuniladi. Tegishli ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy faoliyat ham statistika deb ataladi.

Demak, hozirgi kunda statistika nazariyasi o‘z ob’yekti va usuliga ega bo‘lgan mustaqil fan bo‘lib, amaliy faoliyatidagi mustaqil tarmoqlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi, viloyatlarda statistika boshqarmalari, tumanlarda (shaharlarda) esa statistika bo‘limlarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Statistika ko‘p asrlik tarixga egadir. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, yeramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi hisobi (ro‘yxati), Rossiya (Moskva) da esa ikki marta (1362 va 1389 yillarda) aholi ro‘yxati o‘tkazilgan. XV asrda Moskvada «Mirza daftarlari» nomi bilan ma’lum bo‘lgan maxsus statistik to‘plamlar tuzilgan. Pyotr I davrida «aholi taftishi» nomi bilan mashhur bo‘lgan soliq to‘lovchi aholi ro‘yxatlari

o‘tkazila boshlangan. Jami 10 marta taftish (oxirgilari 1857-1860 yillarda) o‘tkazilgan. Ulardagi ma’lumotlar XVIII va XIX asrning birinchi yarmidagi Rossiya aholisining sonini tavsiflovchi yagona manba bo‘lib hisoblangan.

Statistika fani XVII asrning oxirlariga kelib, mustaqil fan sifatida shakllana boshlandi. Shu davrda «Siyosiy arifmetika» degan fan vujudga keldi. Uning asoschilari ingliz olimlari U.Petti (1623-1687) va Jon Graunt (1620-1674) bo‘lganlar. U.Pettini o‘z vaqtida iqtisodning «otasi» va ma’lum darajada statistikaning ixtirochisidir, deb atashgan.

Yevropada statistikaning asoschisi bo‘lib belgiyalik olim A.Ketle (1796-1874) hisoblangan. O‘sha davrda Germaniyada P.Axenvall (1719-1772) birinchi marta «statistika» so‘zini qo‘llagan. Angliyada esa A. Bouli (1869-1957) statistikaning taraqqiy etishiga asos solgan.

Rossiyada statistikaning rivojlanishiga quyidagi olimlar o‘z hissalarini qo‘shishgan:

N.Tatishchev (1686-1750) birinchi marotaba aholi ro‘yxatini o‘tkazish bilan birga aholining joriy hisobini tadbiq qilish lozimligini kun tartibiga qo‘ydi.

I.Krilov (1689-1737) statistika tarixida birinchi marotaba davlatni tavsiflovchi iqtisodiy-statistik ma’lumotlarni jadval yordamida izohladi.

P.Juravskiy (1810-1856) birinchi marotaba statistika - fanining ta’rifini berdi, guruhlash rolini ko‘rsatdi, markaziy statistika boshqarmasini tashkil etish to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surdi.

Semenov Tyan-Shanskiy (1827-1914) ma’lum darajada rus davlati statistikasining «otasi» hisoblanadi. U 1864 yilda markaziy statistika qo‘mitasining boshlig‘i etib tayinlangan. Uning rahbarligi ostida 1897 yilda butun Rossiya aholisining ro‘yxati o‘tkazilgan.

E.Yanson (1835-1893) birinchi marotaba Rossiyada nazariy statistika bo‘yicha darslik yozgan.

Rus statistikasini rivojlantirishda A.I.Chuprov (1842-1908), AL.Chuprov (1974-1926), N.A.Kablukov (1849-1919), A.A.Kaufman (1864-1919), V.E.Varzar (1851-1910) va boshqalar juda katta xizmat qilishgan.

Rus statistikasining rivojlanishida zemstvo statistikasi alohida o‘rin tutadi. Bu statistika XIX asrning boshlarida vujudga kelgan edi. V.I. Orlov (1849-1885), A.P.Shlikeviya (1849-1909), A.A.Rusov (1847-1915) va boshqalar zemstvo statistikasining buyuk namoyandalaridan bo‘lib hisoblanadi. Zemstvo statistikasi yer va uning sifati, undan olinadigan daromadni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ularning to‘plagan

ma’lumotlaridan keyinchalik bir qancha iqtisodchi olimlar juda keng foydalanishgan.

Sobiq ittifoq davrida statistika nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda quyidagi olimlarning xizmatlari kattadir:

Akademik S.R.Strumilin (1877-1975) - mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ilmiy texnika taraqqiyoti kabi muhim muammolarni yechishning yangi usullarini ishlab chiqdi.

Akademik V.S.Nemchinov (1894-1964) - qishloq xo‘jaligi statistikasiga asos solgan birinchi olimdir. U iqtisodiy tadqiqot fanida yangi, ya’ni iqtisodiy tadqiqot va rejalashtirishda matematika usulini qo‘llashni asoslab berdi.

V.N.Starovskiy, M.I.Smit, B.S.Yastremskiy, M.V.Gurevich, L.V.Nekrash, A.I.Rotshteyn, D.V.Savinskiy, S.M.Yugenburg, G.A.Baklanov, A.I. Gazulov, N.K.Drujinin, A.I.Ejov, A.I.Petrov, G.V.Ryabushkin, E.N. Freymundt, A.M.Dubrov, V.E.Adamov, V.M. Ryabsev kabilar yuqori malakali statistlarni tayyorlashda muhim hissa qo‘shdilar.

Bu fanni O‘zbekistonda rivojlantirishda professorlar N.Soatov, E.Akramov, I.Yermatov, X.Nabiyev, S.Sirojiddinov, Yo.Abdullayev, M.Xamroyev, Z.Toshmatov, X.Shodiyev, B.Usmonov, A.Nabixo‘jayev va X.Xo‘jaqulov kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi.

9.2. Statistika fanining predmeti va metodi

Statistika mustaqil ijtimoiy fan bo‘lib, o‘zining xususiy predmeti va usuliga ega, bu fan o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat tomonlari bilan uzviy ravishda bog‘langan holda olib o‘rganadi. Butun borliq, ya’ni moddiy dunyodagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning barchasi statistikaning o‘rganish obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Tabiiy hodisalarning sifat tomonlarini maxsus tabiiy fanlar o‘rganadi. Masalan, hayvonot dunyosini-zoologiya, modda tuzilishini-kimyo, organik hayotni-biologiya, fazoni-astronomiya, yer qatlamlari boyliklarini- geologiya fani o‘rganadi va hokazo. Tabiiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini esa mavhum holda matematika o‘rganadi.

Ijtimoiy hayotdagi hodisalarning sifat tomonini falsafa, iqtisodiy nazariya, iqtisodiy geografiya, iqtisodiy ta’limotlar tarixi, iqtisodiyot va shu kabi ijtimoiy fanlar o‘rganadi. Masalan, iqtisodiy nazariya jamiyat oldida turgan ikkita qarama-qarshi muammo, ya’ni ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi o‘rtasidagi

mutanosiblikni o‘rganadi, tegishli qonun va qonuniyatlarni belgilab beradi.

Ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini esa statistika o‘rganadi. U ayrim hodisalar bilan shug‘ullanmasdan, balki ommaviy hodisalarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat tomoni bilan chambarchas bog‘lagan holda tahlil qiladi.

Demak, **statistika fanining predmeti** deb, jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisalarni miqdor[11] jihatdan o‘rganib, ularni sifat[12] ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqt va joyda o‘rganishiga aytiladi.

Bu ta’rifdan quyidagi to‘rtta asosiy xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish mumkin:

Birinchi xususiyati shundan iboratki, bu fan o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarni o‘rgangani uchun ijtimoiy fan bo‘lib hisoblanadi va jamiyatning hamma tomon (iqtisodiy, ijtimoiy va hokazo) larini o‘z ichiga qamrab olib o‘rganadi.

Ikkinchi xususiyati shundan iboratki, o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini o‘rganadi.

Uchinchi xususiyati shundan iboratki, o‘rganilayotgan ijtimoiy, hodisalarning miqdorini sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab o‘rganadi.

To‘rtinchi xususiyati shundan iboratki, o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning miqdori va sifatini ma’lum vaqt va joyda o‘rganadi.

Misol qilib, paxta yetishtirishni olaylik. Xo‘jalik 2010 yilda 1200,0 t. paxta etishtirgan bo‘lsin. Bu yerda bu son paxta yetishtirish hajmini, hodisa miqdorini belgilasa, uning chiqish tolasi esa sifat ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi va bu ko‘rsatkichlar bir-biri bilan uzviy birlikda bo‘ladi va bir-birini taqozo etadi.

Demak, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlari bilan aloqasi **qonuniydir,** ya’ni sifat o‘zgarishlari faqat miqdor o‘zgarishlari vositasidagina sodir bo‘ladi. Bu qonunning mohiyatidan kelib chiqqan holda statistika fani bilan quyidagi tushunchalar chambarchas bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz.

Qonun - bu ikki hodisa o‘rtasidagi ichki va zaruriy bog‘lanishdir. Qonun hodisalardagi muhim, umumiy, zaruriy takrorlanadigan bog‘la-

[11] Miqdor ko‘rsatkichi deb, hodisaning u yoki bu xususiyati va belgisinining yuzaga chiqish me`yori, soni va darajada ifodalangan uning tashqi qiyofasi, aniqligi tushuniladi.

[12] Sifat ko‘rsatkichi deb, hodisaning ichki qiyofasi va aniqligi, uning rivojlanish qonuni va qonuniyatlari bilan bevosita bog’liq bo‘lgan tub mohiyati tushuniladi.

nishlarni ifodalaydi. Masalan, qiymat qonuni bo‘yicha tovarlarning qiymati unda mujassamlangan ijtimoiy zaruriy mehnat bilan aniqlanadi.

Qonuniyat - ko‘pincha hodisalardagi takrorlanish, ketma-ketlik, izchillik va tartib tushuniladi. Bu ketma-ketlik, izchillik faqatgina u yoki bu tomonga og‘gan alohida ko‘rsatkichlarning umumiy to‘plam o‘rtasida o‘zaro yeyishib ketishi natijasida yuzaga keladi.

Statistik qonuniyatlar - ommaviy ijtimoiy ma’lumotlarni umumlashtirish yo‘li bilan aniqlanadigan qonuniyatlarni o‘rganilishini tushunamiz.

Dinamik qonuniyatlar - faqatgina alohida hodisalarda ro‘y beradigan qonuniyatlarni o‘rganilishini tushunamiz.

Yuqoridagi ko‘rib chiqilgan ommaviy-ijtimoiy hodisalar statistika fani bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikni quyida ko‘rib chiqamiz:

Birinchidan, iqtisodiy hodisalar o‘rganiladi. Bunda, eng avvalo bu yerda moddiy ne’matlar ishlab chiqarish ko‘zda tutiladi, ya’ni: statistika iqtisodiy hodisalar miqdorini, ijtimoiy taraqqiyot negizi-iqtisodiy qonun va qonuniyatlarni aniq vaqt va joy sharoitida qanday miqdoriy bog‘lanish va nisbatlarda yuzaga chiqayotganligini o‘rganadi. Bu o‘rinda u ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarini bir butunligida olib tekshiradi.

Ikkinchidan, madaniy va ta’lim-tarbiya sohadagi hodisalar o‘rganiladi. Statistika ularni ham miqdor jihatdan o‘rganadi. Jumladan, u madaniy-ma’rifiy munosabatlarning, o‘quv yurtlarining, maktab, bog‘cha, kutubxona va hokazolarning rivojlanishini o‘rganadi.

Uchinchidan, siyosiy va mafkuraviy hodisalar o‘rganiladi. Bunda barcha bo‘lib o‘tgan va bo‘layotgan qurultoylar, sessiyalar, saylovlar, ulardagi qatnashchilar soni, ovozlarning taqsimlanishi kabilar ana shunday hodisalar turkumiga kiradi.

To‘rtinchidan, tabiiy hodisalar o‘rganiladi. Bunda tabiiy ofatlar, ya’ni: zilzila, suv toshqinlari, do‘l yog‘ishi, yong‘in, portlash kabilar ana shunday hodisalar turkumiga kiradi.

Bundan tashqari, statistik qonuniyatning namoyon bo‘lishi **ulkan sonlar qonunining** amal qilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu qonunning mohiyati shundaki, hodisalar to‘plami qancha ko‘proq unsurlardan tashkil topsa, unda alohida tasodifiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchanliklar shuncha to‘laroq o‘zaro yeyishadi va natijada hodisalarning zaruriy bog‘lanishi va izchilligi, umumiy qonuniyatlari aniqroq yuzaga keladi.

Masalan, tug‘ilishlardagi o‘g‘il bolalar bilan qizlar sonining nisbatidagi umumiy qonuniyatni olaylik. Shartli ravishda olsak, viloyat miqyosida har 100 ta tug‘ilishdan 51 tasi o‘g‘il va 49 tasi qizdir. Vaholanki, ayrim oilalarda bu nisbat turlicha, ya’ni faqat o‘g‘il bolalar, faqat qiz bolalar yoki aralash bo‘lishi mumkin.

Demak, bir qancha tasodiflar orqali o‘ziga yo‘l ochuvchi va ularni tartibga soluvchi ichki qonun faqatgina katta to‘plamdagi miqdor olingan vaqtdagina namoyon bo‘ladi.

Endi statistika fanining usulini ko‘rib chiqamiz.

Statistika dialektik va tarixiy materializm hamda iqtisodiy nazariyaga suyangan holda o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarga to‘g‘ri tavsifnoma berishi mumkin. Chunki bu fanlar ijtimoiy hayotdagi hodisalarning mohiyati va rivojlanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham bu fanlar statistik fanining ilmiy nazariy asosini tashkil etadi.

Masalan, har bir xodimga ish haqi hisoblashdan oldin, statistika ish haqi darajasining mohiyatini iqtisodiy nazariya fanidan aniqlab oladi. Shu bilan birga statistika fani o‘zining xususiy o‘rganish usullariga egadirki, bu usullar dialektik materializmning belgilangan talab va qoidalaridan kelib chiqadi. Bunda o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarni bir-biridan ajratmasdan, balki ularni bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va aloqadorlikda o‘rganadi.

Demak, o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarni kuzatayotganda ulardagi tomonlarni alohidalikda, bir-biridan ajralgan holda emas, balki shu hodisaga taalluqli barcha tomonlarni, aloqalarni birgalikda olib o‘rganish zarur. Bu aloqalarni bilish juda katta ahamiyatga egadir, ya’ni odamlar bu aloqalarni bilib olib, obyektiv dunyoning qonunlarini kashf etadilar.

Statistika dialektikaning qonun-qoidalariga asoslanib o‘zining xususiy usullarini ishlab chiqqan. Ular quyidagilardan iboratdir:

Ommaviy statistik kuzatish. Bunda oldindan tuzilgan dastur va ma’lum qoidalar asosida o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalar to‘g‘risidagi to‘plangan ma’lumotlar birma-bir qayd etiladi.

Kuzatish ma’lumotlarini svodkalash va guruhlash. Bunda olingan dastlabki ma’lumotlar turkumlanib, undan keyin esa bir tizimga solinib hisoblanadi va to‘g‘ri hisoblanganligi tekshirilib chiqiladi. Shundan so‘nggina ushbu olingan ma’lumotlar asosida guruhlash amalga oshiriladi.

Turli umumlashtiruvchi ko‘rsatkich (masalan, mutlaq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, indeks usuli, dinamik ko‘rsatkichlar va ho-

kazo)larni hisoblash. Bunda o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mutlaq o‘zgarishi, o‘rtachasi, dinamikasi va shu kabi ko‘rsatkichlari bir qator yillar uchun hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarni jadval va grafiklar ko‘rinishida tasvirlash. Bunda hisoblangan ko‘rsatkichlar jadval va grafiklarda umumlashtirilgan statistik ko‘rsatkichlarda keltiriladi va bu hisoblangan ko‘rsatkichlarga kerakli bo‘lgan xulosa va takliflar ishlab chiqiladi. Ilmiy jihatdan asoslangan statistik tadqiqot bu to‘rtala usulning chambarchas ravishda olib borilishini taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligi statistikasi ijtimoiy fan bo‘lib, uning ob’yekti qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini o‘rganishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligidagi hodisa va jarayonlarning miqdor tomonini sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqtda va joyda o‘rganadi.

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish jarayoni xilma-xil qishloq xo‘jaligi korxonalarida amalga oshirilganligi uchun ham qishloq xo‘jaligi statistikasi bu korxonalarning faoliyatini o‘rganadi va tahlil etadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini o‘rganishda qishloq xo‘jaligi statistikasi statistika fanining umumiy qoidalari va uslublariga (metodlariga) asoslanib, o‘zining ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda statistik ko‘rsatkichlar tizimini tashkil etgan. Demak, qishloq xo‘jaligi statistikasi fanining predmeti deb, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining obyektiv statistik tizim ko‘rsatkichlari orqali holatini va rivojlanishini aks ettirilishiga aytiladi.

Obektiv statistik ko‘rsatkichlar umumiy xususiyatlariga ega: o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning miqdori va sifatining umumiyligi; o‘rganilayotgan hodisaning to‘laligicha kuzatilishi; qishloq xo‘jaligining holati va rivojlanishining muhim belgilarini belgilash va hokazo. Demak, obyektiv statistik ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligida ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning miqdorini va sifatini o‘zida aks ettiradi.

Qishloq xo‘jaligi statistika fanining uslubi (metodi) - iqtisodiy nazariya, dialektik va tarixiy materializm fanlariga asoslangan bo‘lib, o‘zining maxsus o‘rganish uslublariga egadir. Bu uslublar statistik kuzatish; statistik axborotlash va guruhlash; indeks uslubi; tanlama kuzatish uslubi, balans uslubi va hokazo.

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarmog‘i hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining umumiy qonunlariga bo‘ysungan holda, o‘zining ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, statistika fani orqali o‘rganiladi.

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarmog‘ining eng asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning muhim ishlab chiqarish vositasi yer bo‘lib hisoblanadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositasidan farqi shundan iboratki, unga vaqt mobaynida qancha yaxshi ishlov berilsa va undan to‘g‘ri foydalanilsa, jismoniy eskirmaydi, balkim shuncha yaxshilanib, o‘z hosildorligini va qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshiradi. Shuning uchun ham yer qishloq xo‘jaligida doimiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib qolaveradi. Bu ishlarni faqatgina kishilarning mehnati orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish tarmog‘ining boshqa ishlab chiqarish tarmog‘idan yana bir farqi shundan iboratki, bunda iqtisodiy jarayonlar bilan tabiiy jarayonlar uzviy bog‘lanib ketganligi sababli, ish davri bilan ishlab chiqarish davri o‘rtasidagi tafovutdan iboratdir.

Ish davri - bu shunday davrki, bu davr davomida olinadigan mahsulot mehnat ta’siri ostida bo‘ladi. Ishlab chiqarish davri esa-shunday davrki, bunda olinadigan mahsulot tabiat ta’sirida pishib, o‘sib, yetilib boradi. Masalan, kuzgi bug‘doy yetishtirishda, ish davri shunday jarayonlarni o‘z ichiga oladi-ki, bunga shudgorlash, ekish, ekilgan maydonlarni parvarish qilish, hosilni yig‘ib-terib olish kirsa, ishlab chiqarish davriga esa-shu ekinlarning tabiiy o‘sishi va pishib yetilishi kiradi. Ish davri bilan ishlab chiqarish davri to‘g‘ri kelmasligi sabablaridan biri bo‘lib, yil faslining o‘zgarishi tufayli qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish jarayonining mavsumiy bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnat va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishiga katta ta’sir etadi.

Masalan, hosilni yig‘ib-terib olishda ishchi kuchiga va qishloq xo‘jaligi texnikasiga bo‘lgan talab ancha oshib boradi, qish oylarida esa-keskin kamayib boradi.

Respublikamizda hozirgi kunda qishloq xo‘jalik ekinlari har xil iqlim-sharoitlari bo‘lgan katta maydonlarga joylashtirilgan bo‘lib, bir xil maydonlarda iqlim sharoitini hisobga olgan holda paxta, bug‘doy yoki boshqa ekin turlari ekilgan bo‘lsa, u holda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rasional joylashtirish orqali esa qishloq xo‘jalik korxonalarini ixtisoslashuvini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu esa ishchi kuchidan va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi o‘zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bo‘lganligi uchun obyektiv statistik ko‘rsatkichlar tizimini (sistemasini) tashkil etgan bo‘lib, bu tizim

o‘zining maxsus shakli va mazmuni, tahlil etishning usuli va uslubiga egadir. Bu ko‘rsatkichlar tizimi orqali qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning omil va uning natijaviy belgilarining belgilangan rejalarini bajarilishini tasvirlashdan iboratdir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning omil ko‘rsatkichlariga yer resurslari, asosiy va oborot fondlari, mehnat resurslari kiradi.

Shu omillarning bir-biriga bo‘lgan munosabati orqali esa shu omillardan ish unumi va samarali foydalanish darajasi aniqlanadi. Masalan ishlab chiqarish vositalari (asosiy va oborot fondlari) qishloq xo‘jaligidagi yaroqli yerlarga nisbati, uning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining intensifikatsiya darajasini tavsiflasa; qishloq xo‘jaligidan yaroqli yerlarning mehnat resurslariga nisbati mehnat resurslari bilan ta’minlanish ko‘rsatkichini tavsiflasa; ishlab chiqarish vositalarining mehnat resurslariga nisbati esa ish kuchining fond bilan qurollanish darajasini tavsiflaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida omillarning iste’moli ekstensiv (vaqt bo‘yicha) va intensiv (ish unumi bo‘yicha) bo‘lishi mumkin. Bularga yer resurslaridan, ishlab chiqarish vositalaridan va mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari kiradi.

Bu ko‘rsatkichlar orqali ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi aniqlanadi. Masalan, bir traktorning bir smenadagi ish unumi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning natijaviy ko‘rsatkichlariga mahsulot turi va elementlari bo‘yicha sarflar; mahsulotlar bo‘yicha ularning hajmi va sifati kiradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar natura va qiymat ko‘rinishida hisobga olib boriladi. Bu mahsulotlarning hajmi omilli ishlab chiqarishga taqqoslanadi. Masalan, o‘simlikchilikda olingan mahsulotni yer maydoniga bo‘lish orqali dehqonchilikning hosildorlik ko‘rsatkichi kelib chiqadi; mahsulot hajmining mehnat massasiga nisbati bo‘yicha mehnat unumdorligi kelib chiqsa; qilingan xarajatni ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga bo‘lish orqali esa ishlab chiqarilgan mahsulotning samaradorligini bilish mumkin. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda statistik tizim (sistema) ko‘rsatkichlari faqatgina qishloq xo‘jaligi korxonasini emas, balkim barcha qishloq xo‘jalik korxonalarining tarmoqlari, tiplari va hududlari bo‘yicha ham foydalanish mumkin.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi xalq xo‘jaligining g‘oyat muhim, hayot uchun ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘idir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini ta’minlash aholining oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoatning xom-

ashyoga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘liqrok qondirish uchun, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining zaruriy davlat zaxiralarini yaratish uchun dehqonchilik va chorvachilik samaradorligini har tomonlama oshirishda, birinchi navbatda yerning holati va undan foydalanishni o‘rganish, yerni foydalanuvchilar tomonidan maqsadli foydalanilishini nazorat etish hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi statistikasining eng muhim vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, yana bir muhim vazifalaridan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligini rivojlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisoblash va tahlil etish uslublarini (metodlarini) takomillashtirish hisoblanadi. Bu borada ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) har xil turdagi qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyati natijalarini obyektiv ravishda to‘liq va aniq yoritib beradigan bo‘lishi lozimdir.

Demak, bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi ishlar bajarilishi lozim:

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining (davlat buyurtmasi) bajarilishini ko‘rsatuvchi zaruriy statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish;
- jamiyat hayotida yuz bergan va yuz berayotgan yangi hodisalarni ochib berish va ularni qayd etib, tahlil etish;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yuz berayotgan kamchiliklarni ochib berish va ularni tugatish;
- qishloq xo‘jaligida yerishilgan yutuqlarni (masalan, mehnat unumdorligi; moddiy-texnika bazasining yaxshilanishi; aholining moddiy manfaatdorligining o‘sishi va hokazo) ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni mehnatkashlar orasida keng yoyishdan iboratdir.

Bu ishlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga fandagi yangi yutuqlarni va ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

9.3. Statistik to‘plam va ko‘rsatkichlar

Bizga ma’lumki, ijtimoiy hayot ko‘p qirrali bo‘lib, bularning tarkibi xilma-xil bo‘lgan ommaviy hodisa va jarayonlardan tashkil topgan. Bularga moddiy boylikni ishlab chiqarish, savdo, qurilish, yuk tashish va shu kabilar kiradi. Bu ta’kidlab o‘tilgan hodisa va jarayonlarning har biri alohida statistik to‘plamni tashkil etadi.

Demak, **statistik to‘plam** deb, bir xil tip (toifa)dagi ijtimoiy hodisalarning faqat darajalari bilan farqlanuvchi belgilarni tushunamiz. Masalan, fermer xo‘jaliklari bo‘yicha ishlab chiqarilgan paxtaning hajmi, xodimlar soni, ish haqi darajasi va shu kabilar bir-biridan farqlanadi. Bu

yerda so‘z ayrim fermerlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, xodimlar soni va ish haqi darajalari o‘rtasidagi munosabat qanday bo‘lganligi to‘g‘risida bormay, balki umuman xo‘jalik bo‘yicha ushbu munosabat qanday miqdorda ifodalanishi ustida borayotir. Shu jihatdan ushbu korxonani bir turdagi hodisalar, birliklar, elementlar deb qarash mumkin va shu asosda statistik to‘plamda shu to‘plamning muhim belgisi aniqlanadi.

Statistik to‘plamning muhim belgisi deb, shu to‘plamda ichki o‘zgaruvchanlikning mavjud bo‘lishiga aytiladi.

Masalan, har bir fermer bo‘yicha ishlab chiqarilgan paxtaning hajmi yoki ishchilarning soni misol bo‘la oladi. Bularning har biri alohida-alohida bir-biri bilan qo‘shilib, pirovard natijada xo‘jalik bo‘yicha jami ishlab chiqarilgan paxta miqdori yoki ishchilar soni bilan ifodalangan miqdorlarga ega bo‘lamiz. Bunday miqdorlar statistikada **o‘zgaruvchan belgilar deb ataladi.** Shu belgilar asosida esa statistika ommaviy-ijtimoiy hodisalarni o‘rganadi va ularning rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerak-ki, har bir statistik to‘plam birliklari o‘zining ayrim xususiyatlariga ega bo‘lib, bu xususiyatlar shu to‘plamdagi barcha birliklar uchun umumiy bo‘lgan tomonini mujassamlashtiradi.

Masalan, har bir qishloq xo‘jaligi korxonasini bir qator belgilar bilan tavsiflash mumkin: xo‘jalikning ishlab chiqarish yo‘nalishi, yer fondining hajmi, ishlovchilar soni va shu kabilar bilan, lekin hamma qishloq xo‘jalik korxonalari ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha bir tip (toifada)dagi korxonalar bo‘lib, ijtimoiy shakli bo‘yicha-fermer xo‘jaligi bo‘lib hisoblanadi hamda bular birgalikda statistik to‘plam birligini tashkil etadi.

Statistik ko‘rsatkich[13] **deb,** ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlarning umumlashtirilgan tavsifini uni miqdor va sifat ko‘rsatkichlari orqali ma’lum vaqt va joyda o‘rganilishini tushunamiz.

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi[14] deb, ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini qamrab oluvchi statistik ko‘rsatkichlar to‘plamini tushunamiz.

[13] Statistik ko‘rsatkich – aniq sharoitda sodir bo‘lgan voqea va hodisaning miqdorini, hajmini, qiymatini ifodalaydi.

[14] Ko‘rsatkichlar tizimi - bir-biri bilan o‘zaro bog’langan yaxlit tizim bo‘lib, hodisa va voqealarni bir butunligicha tavsiflaydi.

Bu koʻrsatkichlarga quyidagilarni kiritish va oʻrganib chiqish mumkin:

1. Aholi koʻrsatkichlar tizimi. Bu koʻrsatkichlar orqali aholi soni, uning jinsiy tarkibi, yoshi, millati, ma'lumotliligi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa belgilariga, shuningdek, aholining harakat va takror ishlab chiqarish koʻrsatkichlariga ham tavsifnoma beriladi.

2. Mehnat resurslari koʻrsatkichlar tizimi. Bu koʻrsatkichlar orqali mehnat qobiliyati yoshidagi aholi soni va uning tarkibi, ularning shahar va qishloq aholi soniga boʻlinishi, ish vaqtidan foydalanishi, kadrlarni tayyorlash va shu kabi koʻrsatkichlar aniqlanadi.

3. Milliy boylik koʻrsatkichlar tizimi. Bu boylikka - yer va suv resurslari, yer osti va usti boyliklari, ishlab chiqarish binolari va inshootlari, mashinalar, jihozlar, chorva mollari, yoqilgʻi, uy-joylar, maktablar, kasalxonalar, teatrlar, bibliotekalar va hokazolar kiradi hamda ularning hajmi qiymat koʻrinishida aniqlanadi.

4. Madaniyat koʻrsatkichlar tizimi. Bunda oʻquv yurtlari (univyersitetlar, institutlar, kollejlar, maktablar) ning miqdoriga, bularda oʻqiyotganlar soniga, shuningdek, biblioteka, teatr va kinoteatrlarning joylanishiga tavsifnoma beriladi.

5. Sogʻliqni saqlash koʻrsatkichlar tizimi. Bunda kasalxonalar, dispanserlar, sanatoriyalar va shu kabi sogʻliqni saqlash muassasalarining miqdori, shuningdek, vrachlar va bularga xizmat koʻrsatuvchi xodimlar soni aniqlanadi va hokazo.

Bu koʻrsatkichlar tizimi bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, yagona statistik koʻrsatkichlar tizimini tashkil etadi.

9.4. Statistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Statistika koʻp tarmoqli ijtimoiy fan hisoblanadi. Statistika fani uchun umumiy xos boʻlgan xususiyatlarni statistikaning **umumiy nazariyasi** oʻrganadi. Agarda, **statistika tarixi** shu fanning kelib chiqishi, shakllanishi, tashkil topishi, uning rivojlanish bosqichlarini batafsil oʻrgatsa, **matematik statistika** esa tarmoqlararo balanslarni tuzish, korrelyasion-regression tahlil etish usullarini qoʻllash, koʻp variantli bashoratlarni tuzish yoʻllarini oʻrgatadi.

Ijtimoiy statistika aholi turmush tarzi bilan bogʻliq boʻlgan barcha hodisalarni statistik usullarda batafsil oʻrganadi. Jumladan, **aholi (demografik) statistikasi** aholining' soni, tarkibi, dinamikasi, tabiiy oʻsishi, migratsiyasi va hokazolarni oʻrgansa, **jinoyat va sud statistikasi**

esa aholi o‘rtasidagi qonunbuzarlik, jinoyat va unga qarshi kurash, sud jarayonlarini o‘rganadi. **Mehnat statistikasi** aholining faol ishini, ya’ni xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi soni, tarkibi, dinamikasi, ulardan foydalanish darajasi va shu kabilarni statistik usullarda o‘rganadi. **Iqtisodiy statistika** ikkita yirik tarmoqqa bo‘linadi. Birinchi tarmoqdagi fanlar (mintaqaviy **statistika, xalqaro statistika, bozor iqtisodiyoti statistikasi** va hokazo) xalq xo‘jaligi miqyosida ro‘y berayotgan hodisa va voqealarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat tomonlari bilan uzviy bog‘lanishda olib boradi. Ayrim tarmoqlar va korxonalar statistikasi **(sanoat statistikasi, qishloq xo‘jaligi statistikasi, savdo statistikasi** va hokazo), nazariy va iqtisodiy statistika ko‘rsatkichlarga asoslanib, xalq xo‘jaligining ayrim tarmoq va sohalari xususiyatlarini hisobga oladigan ko‘rsatkichlar tizimini aniqlaydi va ularni hisoblash usullarini bayon etadi.

Statistika eng avvalo iqtisodiy nazariya fani bilan bog‘langan. U ushbu fandan iqtisodiy kategoriyalar - **qiymat, ish haqi, tovar, mehnat unumdorligi, ijtimoiy mahsulot, milliy daromad, foyda** va shu kabilar haqidagi tushunchani hamda iqtisodiy qonunlarning mohiyatini bilib oladi, keyin esa aniq sharoitda ular qanday amal qilayotganini miqdor jihatdan belgilaydi.

Bu bog‘lanishni quyidagicha ifodalash mumkin: «... foyda me’yorini hosil qilishda amal qilayotgan munosabatni bilgan taqdirdagina statistika turli mamlakatlarda, turli davrlar uchun ish haqi darajasini haqiqiy tahlil qilishga qodir bo‘la oladi». Bu xususida akademik S.G.Strumilinning «Iqtisodiyot nazariyasi tugagan joydan statistika boshlanadi» degan so‘zi ham juda o‘rinlidir.

Statistika **Falsafa** fani bilan ham chambarchas bog‘langan. Falsafaning sifat, miqdor va o‘lchov, mohiyat va hodisa, tasodif va zaruriyat alohidalik va umumiylik kabi kategoriyalari hamda miqdorning sifatga o‘tish, ziddiyatlar kurashi va birligi qonunlari ham statistika uchun katta ahamiyatga egadir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyalarini bilish statistika fani uchun juda ham muhim. Ma’lum sharoit mavjud bo‘lgan taqdirda albatta yuz beradigan hodisa yoki voqea **zaruriyat** deb ataladi. U rivojlanuvchi hodisaning mohiyatidan, ichki talablaridan kelib chiqadi. Zaruriyatdan farqli o‘laroq tasodifning albatta sodir bo‘lishi shart emas.

Tasodif muayyan narsaning tabiatidan kelib chiqmaydi, u barqaror va vaqtinchadir. Ammo tasodif sababsiz yuz bermaydi. Uning sababi narsaning o‘zida bo‘lmay, balki undan tashqarida-tashqi shart-sharoit-

larda bo‘ladi. Masalan, biron-bir joydan foydali qazilma boylikning topilishi tasodifiy tavsifga ega, shu asosda tegishli qayta ishlaydigan sanoat korxonasining qurilishi esa zaruriy tavsifiga ega va hokazo.

Tasodif va zaruriyatning dialektik tarzda o‘zaro bog‘liqligi **ulkan sonlar qonunining** amal qilishiga olib keladi. Ulkan sonlar qonuni umumiy prinsip bo‘lib, katta miqdordan tasodifiy omillarning umumiy ta’siri (boshqa shart-sharoitlar juda ham umumiy bo‘lgan holda) deyarli tasodifga bog‘liq bo‘lgan narsalarga olib keladi.

Statistik bilish tashqidan ichkiga, alohidalikdan maxsuslikka va umumiylikka, hodisaning mohiyatga tomon boradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyati o‘rganilayotgan vaqtda dastlab har bir korxonaga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar batafsil o‘rganiladi so‘ngra shu ma’lumotlarga asoslanib umumiy xulosalar chiqariladi.

Obektiv olamda alohidalik umumiyliksiz, umumiylik esa alohidaliksiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Har qanday alohidalik umumiylikning bir qismi bo‘lib hisoblanadi.

Statistikashunos ayrim masalani o‘rganayotganda boshqa fanlar ko‘rsatmalarini ham hisobga oladi. Masalan, ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashuvini tekshirishda iqtisodiy geografiya fani tushunchalariga agrotexnika tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlayotganda agronomiya fani tushunchalariga, ijtimoiy hodisalarni o‘rganayotganda esa sotsiologiya fani tushunchalariga asoslanadi. Shu bilan birga boshqa fanlar namoyondalari ham o‘z sohasi masalalarini yoritayotganda statistika ma’lumotlaridan keng foydalanadilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Statistika so‘zi nimani anglatadi?
2. Statistika mustaqil fan sifatida qachon shakllangan?
3. Qaysi olimlarning Rossiyada statistikaning rivojlanishida o‘rni katta?
4. Statistikaning nazariyasini rivojlantirishda qaysi rus va o‘zbek olimlari o‘z xizmati bilan ajralib turadilar?
5. Nima uchun statistika fanini mustaqil fan deymiz?
6. Statistika fanining predmeti va usulini tushuntirib bering?
7. Qonun va qonuniyat deganda nimalarni tushunasiz? Statistik qonuniyatning dinamik qonuniyatlardan farqi nimada?
8. Statistikada ulkan sonlar qonunining ahamiyati va mohiyati nimalardan iborat?

9. Qishloq xo‘jaligi statistikasi fanining predmeti va uslubi haqida tushuncha bering?

10. Qishloq xo‘jaligi statistikasi fanining vazifalari qanday?

11. Statistik to‘plam deb nimaga aytiladi?

12. Statistik to‘plamning muhim belgisi deganda nimani tushunasiz?

13. Statistikada o‘zgaruvchan belgilar deb nimaga aytiladi?

14. Statistik ko‘rsatkich deb nimaga aytiladi?

15. Statistik ko‘rsatkichlar tizimini tushuntirib bering.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Statistika atamasining lug‘aviy ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) aktivlar, passivlar va ularning harakati degan ma’noni bildiradi

B) hodisalarning holati, vaziyati, ahvoli degan ma’noni bildiradi

C) u qarzdor va u ishonadi degan ma’noni anglatadi

D) kitob yurituvchi degan ma’noni anglatadi

2. Yevropada statistikaning asoschisi kim hisoblanadi?

A) A.Bouli

B) V.Nemchinov

C) A.Ketli

D) P.Axenvall

3. Statistika fanining predmeti qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisalarni miqdor jihatdan o‘rganib, ularni sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqt va joyda o‘rganishga aytiladi

B) bir xil tip (toifa) dagi ijtimoiy hodisalarning faqat darajalari bilan farqlanuvchi belgilar tushuniladi

C) ommaviy ijtimoiy ma’lumotlarni umumlashtirish yo‘li bilan aniqlanadigan qonuniyatlarni o‘rganishga aytiladi

D) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning tashkil topish manbalari va ularning harakati bilan bog‘liq operatsiyalarga aytiladi

4. Statistik qonuniyatlar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisalarni miqdor jihatdan o‘rganib, ularni sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqt va joyda o‘rganishga aytiladi

B) bir xil tip (toifa) dagi ijtimoiy hodisalarning faqat darajalari bilan farqlanuvchi belgilar tushuniladi

C) ommaviy ijtimoiy ma’lumotlarni umumlashtirish yo‘li bilan aniqlanadigan qonuniyatlarni o‘rganishga aytiladi

D) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning tashkil topish manbalari va ularning harakati bilan bog‘liq operatsiyalarga aytiladi

5. Statistikaning xususiy usullari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) hujjatlashtirish va inventarizatsiya; baholash va kalkulyatsiya; schotlar va ikki yoqlama yozuv; balans va hisobot

B) solishtirish va ko‘rsatkichlarni qiyoslash; detyerminant; matrisa

C) ommaviy statistik kuzatish; kuzatish ma’lumotlarini svodkalash va guruhlash; turli umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblash; statistik ma’lumotlarni jadval va grafiklar ko‘rinishida tasvirlash

D) jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisalarni miqdor jihatdan o‘rganib, ularni sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqt va joyda o‘rganish

6. Statistikada umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?

A) statistik axborotlash va guruhlash; umumiylik va xususiylik va hokazo

B) obyektiv va subyektiv ko‘rsatkichlar; balans va hisobot va boshqalar

C) hujjatlashtirish va inventarizatsiya; baholash va kalkulyatsiya; schotlar va ikki yoqlama yozuv va boshqalar

D) mutlaq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar; indeks usuli; dinamik ko‘rsatkichlar va hokazo

7. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining omil ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?

A) yer resurslari, asosiy va aylanma fondlar, mehnat resurslari

B) materiallar, asosiy vositalar, majburiyatlar

C) xarajatlar, daromadlar, xususiy kapital

D) mahsulot turi va elementlari, mahsulotlarning hajmi va sifati

8. Statistik to‘plam mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning tashkil topish manbalari va ularning harakati bilan bog‘liq operatsiyalarga aytiladi

B) bir xil tip (toifa) dagi ijtimoiy hodisalarning faqat darajalari bilan farqlanuvchi belgilar tushuniladi

C) ommaviy ijtimoiy ma’lumotlarni umumlashtirish yo‘li bilan aniqlanadigan qonuniyatlarni o‘rganishga aytiladi

D) jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy hodisalarni miqdor jiqatdan o‘rganib, ularni sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab, ma’lum vaqt va joyda o‘rganishga aytiladi

9. Statistik ko‘rsatkich mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) xo‘jalik mablag‘lari, mablag‘larning tashkil topish manbalari va ularning harakati bilan bog‘liq operatsiyalarga aytiladi

B) ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlarning umumlashtirilgan tavsifini uni miqdor va sifat ko‘rsatkichlari orqali ma’lum vaqt va joyda o‘rganilishini tushunamiz

C) ommaviy ijtimoiy ma’lumotlarni umumlashtirish yo‘li bilan aniqlanadigan qonuniyatlarni o‘rganishga aytiladi

D) bir xil tip (toifa) dagi ijtimoiy hodisalarning faqat darajalari bilan farqlanuvchi belgilar tushuniladi

10. Statistik ko‘rsatkichlar tizimi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) aholi ko‘rsatkichlar tizimi, mehnat resurslari ko‘rsatkichlari tizimi, milliy boylik ko‘rsatkichlar tizimi, madaniyat ko‘rsatkichlar tizimi, sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlar tizimi

B) oilalar ko‘rsatkichlar tizimi, korxonalar ko‘rsatkichlar tizimi, tashkilotlar ko‘rsatkichlar tizimi,

C) ijtimoiy va iqtisodiy statistika, mehnat statistikasi,

D) qiymat, ish haqi, tovar, mehnat unumdorligi, ijtimoiy mahsulot, milliy daromad, foyda.

X BOB. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK STATISTIKASI

10.1. DEHQONCHILIK STATISTIKASI

10.1.1. Ekin maydonlari statistikasi

Ekin maydonlari dehqonchilikning negizi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning eng asosiy elementlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham statistika ekin maydonlarning miqdorini aniqlab, birinchi navbatda ularning tarkibini (strukturasini) tahlil etib, ekin maydonlarning har xil xo‘jalik kategoriyalari (fermer, dehqon va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari) bo‘yicha aniqlab, ekin maydonlarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini (rezervlarini) topishga yoradamlashadi. Bu o‘z navbatida dehqonchilik (o‘simlikchilik) mahsulotlarini har bir turi bo‘yicha hajmini aniqlashga yordam beradi.

Demak, dehqonchilikda (o‘simlikchilikda) ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi bevosita ekin maydonlarning umumiy miqdori va ekin turlari bo‘yicha hosildorlikka bog‘liq bo‘lganligi uchun ekin maydonlar statistikasi - o‘simlikchilik (dehqonchilik) statistikasining eng asosiy bo‘limi bo‘lib hisoblanadi.

Ekin maydon deb, statistikada haydalgan yerlarning qishloq xo‘jaligi ekin turlari bilan band bo‘lgan ekinzorlarga aytiladi.

Ekin maydonlar statistikasining eng asosiy birinchi navbatdagi vazifasi shundan iboratki, har bir ekin turlari bo‘yicha absolyut (mutlaq) miqdorini aniqlab va ekin turlari bo‘yicha umumlashtirib, ekin maydonlar to‘g‘risidagi to‘plangan ma’lumotlarni to‘laligicha tahlil etish uchun quyidagi nisbiy darajalar hisoblanadi: reja bajarilishi darajasi, ekin maydonlarning dinamikasi, ularning strukturasi (tarkibi), jami ekin turlari bo‘yicha har xil xo‘jalik kategoriyalarining salmog‘ini va hokazo. Shu bilan birga bahorgi va kuzgi ekish davrida ekish davrining boshlanishi va uning davomiyligini, kalendar kunlar bo‘yicha ekin ekish reja bajarilishini, joriy yildagi ekish borishining o‘tgan (bazis) yilga nisbatan taqqoslash yo‘li bilan tahlil etiladi.

Demak, ekin maydonlar to‘g‘risidagi olingan ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi qay darajada rivojlanayotganligiga umumiy tavsifnoma berishda, shu jumladan o‘simlikchilik (chorvachilik) tarmog‘iga katta yor-

dam beradi, chunki bu ma’lumotlar asosida shu tarmoqdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yalpi hosilini va chorvachilik ozuqa bazasining miqdorini aniqlashda yordam beradi.

Ekin maydonlarning miqdori statistikada har bir ekin turi bo‘yicha alohida o‘rnatilganligi uchun hamma ekin maydonlarni ekin turlari bo‘yicha ishlab chiqarish texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni to‘rtta guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

– don va dukkakli ekinlar (bug‘doy mahsuloti). Bularga - oziq-ovqat (bug‘doy, javdar), krupabop (tariq, sholi), ozuqabop (suli, arpa, makkajo‘xori), donli dukkakli (dala no‘xati, loviya, vika va boshqalar) ekinlarga bo‘linadi.

– texnika ekinlari (ishlab chiqarilgan mahsulot qayta ishlashga boradi). Bularga tolali (paxta), lubli tolali (uzun tolali zig‘ir, kanop va boshqalar), shakarli (qand lavlagi), yog‘li (donli kungaboqar, soya va boshqalar), efir moyli (arpabodiyon, zira, yalpiz va boshqalar), dorivor (rayhon, moychechak), tamaki (tamaki, maxorka) ekinlariga bo‘linadi.

– poliz-sabzavot va kartoshka ekinlari (aholi iste’moli va qayta ishlash uchun boradi). Bularga - karam, kartoshka, ildiz mevali (sabzi, lavlagi, sholg‘om, turp va boshqalar), pomidor, bodring, poliz (tarvuz, qovun va boshqalar) va boshqa sabzavot ekinlarga bo‘linadi.

– yem-xashak ekinlari (ishlab chiqarilgan mahsulot chorva mollar uchun ozuqa sifatida ishlatiladi). Bularga - bir yillik o‘tlar (vika, ko‘k ozuqa, makkajo‘xori, oq jo‘xori), ko‘p yillik o‘tlarga (beda, yo‘ng‘ichqa, yerkak o‘t, ajiriqbosh), yaylov o‘tlarga (tabiiy yaylov va o‘tzorlar) hamda silosbop (makkajo‘xori, kungaboqar, dukkakli o‘simliklar), ildiz mevali xashaki (xashaki lavlagi, sabzi, xashaki sholg‘om), xashaki poliz (oshqovoq) ekinlarga bo‘linadi.

Ekin maydonlarni hisobga olishda quyidagi ekilgan maydonlar aniqlanadi:

Tigizlashtirib ekish - qator oralig‘iga ishlagan maydon tushuniladi. Ular mustaqil maydonni tashkil etmaganligi sababli, umumiy maydonga qo‘shilmaydi, faqat urug‘ sarflarni aniqlash uchun hisoblanadi.

Oraliq ekish - asosiy ekin turi ekilguncha olingan mahsulot maydoni tushuniladi. Bunga kuzda ekilgan ko‘k yem-xashak va silos misol bo‘la oladi. Umumiy maydonga bu ekinlar maydoni kiritilmaydi va u alohida hisobga olinib boriladi.

Qayta ekish - belgilangan maydondan ikki va undan ortiq hosil olish uchun mo‘ljallangan maydon tushuniladi. Bunda yakuniy hisobotga

birinchi asosiy ekin turi bo‘yicha ekilgan maydon hisobga olinadi, qayta ekilgan maydonlar esa alohida hisobga olinadi.

Bog‘ qator oralig‘iga ekish - dala va sabzavot ekin turlarini bog‘ oralab ekilgan maydon tushuniladi. Bu ekin maydonlar alohida hisobga olinib, umumiy maydonlarga kiritiladi.

Dastlabki ekin turlari bo‘yicha ekish-o‘tloq va yaylovlar maydonlarini meliorativ holatini yaxshilash uchun ekilgan maydon tushuniladi. Bu ekin maydonlar umumiy ekin maydonlarga kiritiladi.

Zichlashtirib ekish (qoplama)- asosiy ekinlarga bir yillik ekinlarni aralashtirib ekish tushuniladi. Bu ekin maydonlar umumiy ekin maydonlarga kiritilmaydi.

Zichlashtirmasdan ekish-sof holda ekish tushuniladi (bir ekin turi bo‘yicha). Bu ekin maydonlar umumiy ekin maydonlarga kiritiladi.

Aralash ekish-bir maydonda bir necha ekin turlari ekilishi tushuniladi. Bu ekin maydonlar umumiy ekin maydonlarga kiritiladi.

Ko‘kat (ko‘k) o‘g‘it ekish (sidyeral)-ko‘k o‘g‘it ekilgan maydon tushuniladi.

Ma’lum maydonga yil davomida har xil ekin turlari bo‘yicha ekilgan bo‘lishi mumkin. Ekish faqat haydalgan yerlarda emas, balkim ag‘darilgan (shudgorlangan) o‘tloq va yaylovlarda olib borilishi mumkin. Ekish davri boshlangandan to hosilni yig‘ishtirib olinguncha ekin maydonlarning miqdori qishki ob-havoning o‘zgarishi bilan (kuzgi ekin turlari uchun) va bahorgi-yozgi (do‘l yoki quruqchilik kelishi munosabati bilan) o‘zgarib turadi. Nobud bo‘lgan ekin maydonlar to‘liq yoki qisman boshqa ekin turlari bilan ekilishi natijasida shu ekin maydonlarga qancha jami urug‘ sarfi, hosilni yig‘ishtirib olish uchun ketgan mehnat sarfi va hokazolarni aniqlashda quyidagi ekin maydon kategoriyalari orqali hisobga olinadi va tahlil etiladi:

-urug‘langan maydon. Bu maydonga barcha urug‘ sepilgan yer maydonlari kiradi, ya’ni asosiy ekinlar maydoni bilan bir qatorda takroriy ekinlar, oraliq ekinlar, aralashtirib ekilgan ko‘p yillik o‘tlar, bog‘larning qatorlari orasidagi ekinlar, haydalgan yaylovlardagi dastlabki ekinlar, nobud bo‘lgan ekinlar o‘rniga qaytadan ekilgan ekinlar maydonlari ham kiradi.

Ekish va yig‘ib-terib olish davri bir kalendar yili ichida bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi tufayli urug‘langan maydon ikkiga bo‘linadi:

1. Joriy yil hosili olinishi uchun urug‘ sepilgan maydon. Bu maydonni aniqlash uchun o‘tgan yil kuzda ekilgan ekin va joriy yil bahorida ekilgan ekin maydonlari qo‘shib hisoblanadi.

2. Joriy yilda urug‘ sepilgan maydon. Bu maydonni aniqlash uchun joriy yilning bahorida ekilgan maydonga joriy yilning kuzida kelgusi yil hosili uchun ekilgan maydonlari qo‘shib hisoblanadi. Agarda, nobud bo‘lgan bir maydonga ikki marta urug‘ sepilsa, shu maydon urug‘ sepilgan maydonga ikki marta kiritilib hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarni aniqlashdan maqsad, ekish rejasining bajarilishini, urug‘lik, mehnat, yoqilg‘i va boshqa xarajatlar ustidan nazorat o‘rnatishdan iboratdir.

Bahorgi mahsuldor maydon - bahorgi ekish davrining oxirgi muddatiga kelib, ekinlar bilan band bo‘lgan maydon tushuniladi. Bu maydonga o‘tgan yilning kuzida ekilgan ekin va o‘tgan yillarda ekilgan ko‘p yillik o‘tlar maydoni (nobud bo‘lganlari chiqarib tashlanadi), bahorda ekilgan maydonlar kiradi. Bahorgi mahsuldor maydonga haydaladigan yerlardagi ekin maydonlari bilan bir qatorda bog‘lar orasidagi va yaylovlarni tubdan yaxshilash uchun ekilgan dastlabki ekin maydonlari ham kiradi. Bahorgi mahsuldor maydon tarkibiga quyidagilar kiritilmaydi:

1. Oraliq tig‘iz va takroriy ekinlar hamda aralashtirilib ekilgan ko‘p yillik o‘tlar maydoni, chunki bular mustaqil maydonni ishg‘ol etmaydi.

2. Ko‘k o‘g‘it ekin maydoni. Bu maydondan olinadigan mahsulot - qishloq xo‘jaligi ekinlari mahsuloti bo‘lmasdan, kelajakda ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratilgan alohida agrotexnik tadbir bo‘lib hisoblanadi.

3. Yerda to‘kilgan dondan unib chiqqan ekinlar bilan band bo‘lgan maydon. Bu ekin turi yovvoyi ekinlarga tenglashtiriladi.

4. Maxsus madaniylashtirilgan inshootlarni talab qiladigan yopiq joydagi ekinlarning maydonlari ham bahorgi mahsuldor maydonga kiritilmaydi.

Demak, bahorgi mahsuldor maydon kategoriyasi (ko‘rsatkichi) orqali qishloq xo‘jalik ekinlarining har bir turi bo‘yicha yalpi hosil va hosildorligini aniqlashda baza bo‘lib hisoblanadi va bu hisoblangan ko‘rsatkich orqali har bir xo‘jalik bo‘yicha davlat buyurtmasi (rejasi) belgilanadi.

- hosili yig‘ishtirib olinadigan maydon - hosilni yig‘ishtirib olish vaqtiga kelib, hosil olish uchun mo‘ljallangan maydon tushuniladi. Bu maydonning miqdori yozda nobud bo‘lgan ekinlar maydoni hisobiga kamayadi, takroriy ekinlar hamda ikki va undan yuqori o‘rib olinadigan ko‘p yillik o‘tlar maydoni hisobiga esa ko‘payadi. Bu maydon to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar o‘rim-yig‘im ishlarining rejalarini tuzish va ularning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatishda ishlatiladi.

- haqiqiy hosili yigishtirib olinadigan maydon deb - o‘rim-yig‘im ishlari amalga oshirilgan maydonga aytiladi. Bunda yetishtirilgan

hosilning bir qismi ayrim sabablarga ko‘ra masalan, ob-havo yomon kelishi, sovuq urishi, xo‘jasizlik va h.k. tufayli yig‘ib olinmasdan qolishi mumkin.

Ekin maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni iqtisodiy-statistik tahlilni o‘tkazishda birinchi navbatda ekin turlarining strukturasi (tarkibi)ni, ekin maydonlarning xo‘jalik kategoriyalari bo‘yicha taqsimlanishi, ekin maydonlar strukturasining dinamik o‘zgarishini qator yillar bo‘yicha o‘rganib chiqiladi. Bu ko‘rsatkichlarni tahlil etishda nisbiy ko‘rsatkichlaridan keng foydalaniladi.

Ekin turlarining strukturasi (tarkibi)ni hisoblashda har bir ekin turlari bo‘yicha (yoki guruhlari bo‘yicha) tegishli egallab turgan ekin maydonni umumiy ekin maydonga bo‘lib aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich quyida keltirayotgan jadval orqali o‘rganib chiqamiz (10.1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tumanda asosiy ekinlardan bo‘lgan paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, ularning salmog‘i jami ekin maydonda 42,0 % dan ortiqni tashkil etadi. Ikkinchi o‘rinda esa, don va dukkakli ekinlar tashkil etib, ularning salmog‘i jami ekin maydonda 33,0 % dan ortiqni tashkil etadi. Bu jadval ma’lumotlaridan foydalanib, har bir ekin turi hisobot yilidagi ekin maydonlarni bazis yildagi maydonlargi taqqoslab, uning dinamik o‘zgarishini aniqlash mumkin.

10.1-jadval

Ekin maydonlarning strukturasi (tarkibi) bo‘yicha hisob

Ekin turlarining nomi	Bazis yil (2012 yil)		Hisobot yil (2013 yil)	
	ga	% da, jamiga nisbatan	ga	%da, jamiga nisbatan
Don va dukkakli ekinlar	10400	33,23	10650	33,86
Texnik ekinlar (paxta)	13450	42,97	13250	42,12
Poliz-sabzavot va kartoshka ekinlari	1190	3,80	1240	3,94
Yem-xashak ekinlari	6260	20,00	6320	20,08
Jami	31300	100,00	31460	100,00

10.1.2. Ko‘p yillik daraxtlar statistikasi

Ko‘p yillik daraxtlar deb, sun’iy ravishda ko‘p yillar davomida hosil olinishi uchun o‘stiriladigan daraxtlar tushuniladi. Bular tarkibiga-mevali, rezavor-mevali, uzum, choy, sitrus daraxtlari, tut, xmel (etimak) va ko‘p yillik manzarali (dekorativ) o‘simliklar kiradi. Ulardan olinadigan hosil ularning egallab turgan maydoni va daraxtlarning soni bilan tavsiflanadi.

Ko‘p yillik daraxtlarning eng asosiy vazifalari shundan iboratki, ularni o‘tkazish va o‘stirish reja bajarilishini nazorat etish, hajmi, tarkibi, strukturasi va egallab turgan maydonlarning dinamikasini turlari va guruhlari bo‘yicha, xo‘jalik kategoriyalari va ularning joylanishini hamda mahsuldorligini o‘rganadi.

Ko‘p yillik daraxtlarning hajmi ularning egallab turgan maydoni unda o‘stiriladigan daraxtlar soni bilan tavsiflanib, ular alohida ajratilgan massivda, bog‘ qator oralarida yoki alohida egallab turgan maydonlarda namoyon bo‘ladi.

Ko‘p yillik daraxtlarning hajmini ularning turlari va guruhlari bo‘yicha aniqlanganligi uchun ularni guruhlari bo‘yicha turkumlashni ko‘rib chiqamiz.

Ko‘p yillik daraxtlarning turlari va ularning xo‘jalikda, ishlatilishiga qarab, quyidagi guruhlarga bo‘linib o‘rganiladi:

- mevali-rezavorli:

a) urug‘li - olma, behi, nok ...

b) donakli - gilos, olxo‘ri, shaftoli ...

c) rezavorli daraxtlar - qulupnay, malina, smorodina ...

d) sitrus mevalari - limon, apelsin, mandarin ...

e) subtropik - anjir, xurmo, anor ...

j) yong‘okli mevalilar - yong‘oq, bodom, mindal ...

- uzum daraxtlari: aholi iste’moli uchun va sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallanadi.

- choy, xmel (etimak): texnik qayta ishlash uchun mo‘ljallanadi.

- pitomniklar: o‘tkazuvchi materiallarni o‘stirish uchun mo‘ljallanadi.

- dekorativ daraxtlari: har xil manzarali o‘tqazilgan daraxtlar kiradi.

Ko‘p yillik daraxtlar yoshlari bo‘yicha, ayniqsa hosil yoshidagi va hosil yoshida bo‘lmagan (yosh daraxtlarga) bo‘linib o‘rganiladi. Ularning hosil yoshiga kirishi faqat daraxtlarning turiga bog‘liq bo‘lmasdan

balkim ularning sorti, o‘stirish usuli va hokazolarga bog‘liqdir. Hozirgi kunda statistikada bu ko‘p yillik daraxtlar to‘g‘risidagi taqqoslama ma’lumotlarni olish uchun yosh senzi belgilanadi. Bunga asosan yosh va hosil beradigan katta daraxtlarni bir-biridan ajratish uchun ro‘yxatga olish natijasi bo‘yicha quyidagi yosh senzi belgilangan:

- urug‘li, donakli, yong‘oq mevali, subtropik va sitrus daraxtlarning birinchi mevasi ko‘zga ko‘ringandan keyin 3-4 yil o‘tishi bilan ularni hosil beruvchi katta daraxtlar safiga ko‘chiriladi;

- rezavorli o‘simliklar (malina, smorodina) bo‘yicha ularning ko‘chatlarini o‘tkazgandan so‘ng - uchinchi yildan boshlab, qulupnay va xmellar (etimak) - ikkinchi yildan boshlab, uzum - to‘rtinchi yildan boshlab, choy plantatsiyasi-to‘qqizinchi yildan boshlab, tut plantatsiyasi-janubiy tumanlarda uchinchi yildan, shimoliy tumanlarda esa to‘rtinchi yildan boshlab, normal hosil beruvchi o‘simliklar hisoblanadi.

Ko‘p yillik daraxtlarning yoshi bilan hosili o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish va ularning yangilanishi ustidan o‘z vaqtida nazoratni o‘rnatish uchun ularni yoshlari bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi va ro‘yxatga olinadi:

4-yoshgacha, 5-8 yoshgacha, 9-10 yosh, 11-18 yosh, 19-25 yosh, 26-50 yosh va 50 yoshdan yuqori.

Ko‘p yillik daraxtlar ko‘chat o‘tkazish usullari bo‘yicha to‘rt guruhga bo‘linadi:

- qatorlab ekish;
- tizimsiz (tartibsiz) ekish;
- qator oralarida tig‘izlashtirib ekish;
- aralash ekish.

Toklar qishlash (qishlamoq) usuli bo‘yicha ko‘miladigan va ko‘milmaydigan, tirgovich bo‘yicha ishkomli (so‘rili), stelajli va tirgovichsiz uzumlarga bo‘linadi.

Mevali va rezavor daraxtlarning ko‘chatlari mustaqil ravishda hisobga olib boriladi. Ko‘chatlarning har bir turi bo‘yicha ko‘paytirish uchastkasi va parxish qilingan tup (ona tup) uchastkasiga bo‘linadi.

Ko‘p yillik daraxtlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil etishda ularning miqdori, strukturasi, turlari va guruhlari, xo‘jalik kategoriyalari, tumanlar va viloyatlar bo‘yicha egallab turgan maydonlarning dinamikasi o‘rganib chiqiladi. Shu bilan birga ko‘p yillik daraxtlarga tegishli bo‘lgan quyidagi maxsus ko‘rsatkichlar hisoblanadi:

- hosil berish yoshidagi daraxtlarning egallab turgan maydonining salmog‘i. Buni aniqlash uchun ularning maydonini 100% ga ko‘paytirib, jami egallab turgan maydonga bo‘lib hisoblanadi.

- zichlik ko‘rsatkichini aniqlash uchun - jami o‘tkazilgan daraxtlarning sonini o‘tkazilgan daraxtlarning egallab turgan maydoniga bo‘lib hisoblanadi.

10.1.3. Agrotexnika chora-tadbirlar statistikasi

Statistikada agrotexnika tadbirlari deb, belgilangan dehqonchilik ishlarini qisqa muddatda yuqori saviyada o‘tkazish hamda mineral va organik o‘g‘itlardan intensiv ravishda foydalanish, bahorgi ekish mavsumini qisqa muddatda tugallash, almashlab ekishni to‘g‘ri joriy qilish, syerunum navli urug‘larni sepish va dehqonchilik madaniyatini oshirishga qaratilgan boshqa tadbir (ishlar)ga aytiladi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ko‘paytirishning eng asosiy yo‘llaridan biri bo‘lib, barcha qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirish uchun agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida yuqori saviyada tashkil etishdan iboratdir. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, agrotexnika tadbirlari darajasi tabiiy sharoitga bog‘liq bo‘lganligi uchun, bu ko‘rsatkich ishlab chiqaruvchi kuchlarning va dehqonchilikdagi konkret shakllardagi intensifikatsiya darajasining rivojlanganligiga qarab aniqlanadi. Hozirgi kunda agrotexnika tadbirlari darajasining yuqori darajada bo‘lishi uchun birinchi navbatda mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarishni ximiyalashtirish va foydalaniladigan yerlarda keng ko‘lamlarda melioratsiya ishlarini olib borishdan iboratdir.

Yuqori darajadagi agrotexnika tadbirlari bilan ta’minlash uchun dehqonchilikda shunday birinchi darajali bo‘lgan intensifikatsiya shakllaridan biri bo‘lgan sug‘orish va quritish meliorativ sistemasi (tizimi) ni qurish, yangi yuqori hosil beradigan navlarni joriy etish, yuqori samaradorligi bo‘lgan mashinalardan foydalanishdan iboratdir. Shuni ta’kidlab o‘tish kyerakki, dehqonchilikda intensifikatsiya darajasi hosildorlikka ta’sir etishda faqat kerakli bo‘lgan mehnat vositalari va materiallariga bog‘liq bo‘lmasdan, balkim ularning tavsifi va ulardan foydalanish darajasiga ham bog‘liqdir.

Demak, statistik agrotexnika tadbirlari - eng asosiy agrotexnika tadbirlarining hajmini va samaradorligini aniqlashda, eng ilg‘or agrotexnik usullarini joriy etishdagi ishlarni tavsiflashda yordam beradi.

Agrotexnika tadbirlari statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- agrotexnika tadbirlarni amalga oshirish reja bajarilishini nazorat etish;
- agrotexnika tadbirlarni amalga oshirishdagi hajmini va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;
- eng ilg‘or agrotexnika tadbirlarni o‘rganish va joriy etish va h.k.

Agrotexnika tadbirlari quyidagi guruhlarga bo‘linib o‘rganiladi:

- hosilning tashkil topishiga ta’sir etuvchi agrotexnika tadbirlari bunga almashlab ekish uchun ajratilgan maydon va uning darajasi; meliorativ holati yaxshilab o‘zlashtirilgan yerlar, kuzgi ekin turlarining qora shudgor bilan ta’minlanishi va boshqalar kiradi;
- agrotexnika ishlari - bunga yerda namni to‘plash bo‘yicha o‘tkaziladigan maxsus tadbirlar; tuproqqa asosiy ishlov berish va ekish oldidan o‘g‘it sepish; ekishga tayyorlash choralari; ekish va ko‘chat o‘tkazish; hosilni yig‘ib olish, hosilni yig‘ib olingandan so‘ng uni qayta ishlash va h.k. kiradi;
- hosilni tashkil topishga bevosita ta’sir qiluvchi moddiy sarflar-bunga o‘g‘itlar (mahalliy va mineral), zaharli ximikatlar va boshqa kimyoviy moddalar, ekish uchun sarflangan urug‘lar, sug‘orish uchun sarflangan suv va boshqalar kiradi.

Agrotexnika tadbirlari ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- umumiy - dalachilikdagi agrotexnika tadbirlari darajasi;
- xususiy - ayrim ekin guruhlarga tegishlisi;
- maxsus - qishloq xo‘jalik ekin turlarining konkret turiga qarab.

Misol. 1 ga haydalgan yerga sepilgan o‘g‘it - umumiy bo‘lib hisoblanadi.

1 ga g‘alla maydoniga sepilgan o‘g‘it - xususiydir.

1 ga suli maydoniga sepilgan o‘g‘it-maxsusdir.

Statistikada quyidagi agrotexnika tadbirlari bo‘lgan umumiy ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi:

1 ga qishloq xo‘jaligi yerlariga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish vositalarining ta’minlanishi (so‘mda); har 100 ga qishloq xo‘jaligi yerlariga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi texnikalari; 1 ga haydalgan yerlarga sepilgan o‘g‘it va h.k.

Agrotexnika tadbirlari samaradorligiga - belgilangan tadbirlarni hajmi, ishning sifati, hosilga ta’sir etuvchi moddiy sarflar va tadbirlarning o‘z vaqtida o‘tkazilganligi kiradi.

Belgilangan tadbirlar hajmini naturada (fizik) birliklarida, ayrim hollarda shartli-natura birliklarida aniqlanishi mumkin. Masalan, belgilangan konkret ishlardan biri bo‘lgan suv sarfi m^3 da o‘lchansa, mineral o‘g‘itlarni esa shartli tuklarda (shartli naturada) o‘lchanadi.

Agrotexnika tadbirlari (ishlari)ni tahlil etishda xo‘jalik hisobotlari va buxgalteriya hisobining dastlabki ma’lumotlari asosida dastavval bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmini rejaga yoki o‘tgan (bazis) yilga nisbatan taqqoslanib, absolyut (mutlaq)-(+,-) va nisbiy-(% da) o‘zgarishlari aniqlanadi.

Endi agrotexnika tadbirlari tizimiga kiruvchi ayrim muhim ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiga (metodikasiga) to‘xtalib o‘tamiz:

- almashlab ekishni olib borish darajasi (% da)- almashlab ekish uchun ajratilgan ekin maydonni 100 % ga ko‘paytirib, umumiy ekin maydonga bo‘linib aniqlanadi;

- kuzgi ekinlarning qora shudgor (bir yoz bo‘sh qoldirilgan maydon) bilan ta’minlanish darajasi (% da)-qora shudgor maydonni 100 % ga ko‘paytirib, kuzgi ekinlar jami maydoniga bo‘linib aniqlanadi;

- bahorgi ekinlarning kuzgi shudgor bilan ta’minlanishi darajasi (% da) - kuzgi shudgor maydonini 100 % ga ko‘paytirib, bahorda haqiqiy ekilgan ekinlar umumiy maydoniga bo‘linib (bunga kuzda ekilgan ekinlarning nobud bo‘lgan qismi bahordagi qayta ekishga kirmaydi) aniqlanadi;

- xo‘jalikning urug‘ bilan ta’minlanish darajasi (% da)-haqiqiy mavjud urug‘larni shu urug‘larga bo‘lgan talabga (normativ yoki me’yorga) bo‘linib, 100 % ga ko‘paytirib hisoblanadi;

- xo‘jalikning urug‘ga bo‘lgan talabi (kg, sentner yoki tonnada) – 1 ga sepish me’yori (normativ)ni shu ekinlar uchun ajratilgan maydonga ko‘paytirib hisoblanadi;

- 1 ga sepish (kg yoki sentnerda) me’yoriy (normativi)- urug‘ning ekish normasini urug‘ning yaroqlilik koeffitsientiga bo‘linib aniqlanadi;

- xo‘jalikdagi urug‘larning yaroqlik koeffitsienti (% da)- urug‘larning tozalik koeffitsientini unib chiqish koeffitsientiga ko‘paytirilib hisoblanadi;

- xo‘jalikdagi yaroqli urug‘larning miqdori (kg, sentner yoki tonnada) – bor bo‘lgan urug‘larning natura og‘irligini xo‘jalikdagi urug‘larning yaroqlilik koeffitsientiga ko‘paytirib hisoblanadi;

- urug‘larning tozalik koeffitsienti (% da) - sog‘lom urug‘larning og‘irligini umumiy urug‘larning og‘irligiga bo‘linib, 100 % ga ko‘paytirib hisoblanadi;

- sepilgan urug‘larning unib chiqish koeffitsienti (% da) – sepilgan urug‘larning unib chiqqan qismini jami sepilgan urug‘larga bo‘linib, 100 % ga ko‘paytirib hisoblanadi;

- urug‘larning namlik koeffitsienti (% da) - urug‘dagi bor bo‘lgan namlikni jami urug‘ og‘irligiga bo‘linib, 100% ga ko‘paytirib hisoblanadi;

- o‘simlikka ta’sir etuvchi o‘g‘itdagi oziq moddalarning miqdori (kg, sentner yoki tonnada)- o‘g‘itning natura og‘irligini o‘simlikka ta’sir etuvchi o‘g‘itdagi oziq moddalarning o‘rtacha foiziga ko‘paytirib, 100% ga bo‘linib aniqlanadi.

Bu ko‘rsatkichni ayrim holatlarda quyidagi formula shakliga ham keltirilib o‘rganiladi, ya’ni:

D=FxK / 100, bu yerda

D - o‘g‘itdagi oziq moddalari miqdori (kg, sentner yoki tonnada);

F - o‘g‘itning natura (fizik) og‘irligi (kg, sentner yoki tonnada);

K - o‘g‘itdagi oziq moddalar darajasi (% da).

Masalan, xo‘jalikda yerga 35% li oziq moddaga ega bo‘lgan 110,0 sentner azotli o‘g‘it solinadigan bo‘lsa, u holda o‘simlikka ta’sir etuvchi o‘g‘itdagi oziq moddalarning miqdori quyidagicha bo‘ladi:

D=FxK / 100=110,0 x 35,0 / 100=38,5 sentner.

Demak, 110,0 sentner azotli o‘g‘it o‘simlikka ta’sir etuvchi 38,5 sentner oziq modda miqdoriga egadir.

10.1.4. Qishloq xo‘jalik ekinlari hosili va hosildorligi statistikasi

Hosil va hosildorlik - o‘simlikchilik (dehqonchilik) tarmog‘ining eng muhim natijaviy ko‘rsatkichlari bo‘lib hisoblanadi, chunki bu tarmoqda aholini oziq-ovqat bilan, chorvachilik sohasini esa yem-xashak bilan ta’minlash maqsadida xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Hosil deb, u yoki bu ekin turining jami maydonidan yig‘ib-terib olingan umumiy mahsulotga aytiladi.

Hosildorlik deb, bir ekin turi bo‘yicha bir gektar (ayrim hollarda 1kv.m./ ga) hisobiga olingan hosilga aytiladi.

Hosil har bir ekin turi bo‘yicha ishlab chiqarishning umumiy hajmini, hosildorlik esa shu ekinning konkret sharoitdagi mahsuldorligini tasvirlaydi.

Hosil va hosildorlik statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jalik ekinlarining turlari va guruhlari bo‘yicha hosil va hosildorligini xo‘jaliklar, tumanlar, viloyatlar va respublika bo‘yicha aniqlash hamda reja (davlat buyurtmasi) va o‘tgan (bazis) davrlar ko‘rsatkichiga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatish;

- yalpi hosil va hosildorlikning o‘zgarishiga ta’sir etayotgan omillarni tahlil etish;

- ilg‘or xo‘jaliklarning tajribasini o‘rganish va targ‘ibot etish;

- hosil va hosildorlikni oshiruvchi imkoniyatlarni (rezervlarni) izlab topish va h.k.

Demak, bu vazifalarni amalga oshirish har bir mehnatkashning, mutaxassisning, shu jumladan, iqtisodchi kadrlarning ham burchidir.

Yalpi hosil va hosildorlik to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar faqat o‘rim-yig‘im tugagandan keyin aniqlanadi. Ammo, amalda terimga qadar, ancha barvaqt davrlarda hosil va hosildorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish zarurati tug‘iladi. Shu nuqtai nazardan o‘simliklarning o‘sish davrlari bilan ishlab chiqarish davrlari uchun hosil (hosildorlikka mos ravishda) ko‘rsatkichlari hisoblanadi:

- ko‘z chamalab aniqlangan hosil (hosildorlik) - bu ko‘rsatkich orqali ekin turlari bo‘yicha ularning holati tasvirlanib, bu ishlarni bajarishda o‘simliklarning har xil o‘sish davrida mutaxassislar (agronom, ish yurituvchi va boshqalar) ko‘z bilan chamalab ularning ahvolini «yaxshi», «o‘rta» va «yomon» deb baholaydi. Ayrim ilmiy kitoblarda bu ko‘rsatkichni ko‘kati ekin turi hosili (hosildorligi) ko‘rsatkichi ham deb yuritiladi;

- ekinlarning terim oldidagi hosili (hosildorlik) - bu ko‘rsatkich orqali pishib yetilgan, ammo hali terib-yig‘ib olinmagan hosil aniqlandi. O‘simliklarning o‘sish biologik jarayoni hali to‘liq tugallangan bo‘lmaydi;

- haqiqiy terib-yig‘ib olingan hosil (hosildorlik)- bu ko‘rsatkich orqali yig‘ib terib olingan, omborga tushgan hosil aniqlanadi;

- haqiqiy hosil (hosildorlik) - dastlabki (fizik) hosil (hosildorlik) miqdorida va qayta hisoblangan hosil (hosildorlik) miqdor ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Dastlabki (fizik) hosil (hosildorlik) miqdori deb, shu hosilni (hosildorlikni) to‘laligicha (namligi, iflosligidan qat’iy nazar) qabul qilib olingan mahsulotga aytiladi. Qayta hisoblangan hosil (hosildorlik) miqdori deb, shu hosilning (hosildorlikning) iflosligi tozalangandan so‘ng, uning namligi belgilangan normaga (me’yoriga) keltirishiga aytiladi. Bunda uning dastlabki massasi kamayib, belgilangan normativ standartga keltiriladi;

- sof hosil - bu koʻrsatkich orqali ekinning haqiqiy hosilidan (hosildorligidan) shu ekin uchun sarflangan urugʻ miqdori chiqarib aniqlanadi. Bu koʻrsatkich asosan don va dukkakli, kartoshka va kungaboqar ekinlari uchun aniqlanadi, chunki bu mahsulotlardan urugʻ sifatida foydalanish mumkin boʻladi.

Endi ekin turlari boʻyicha yalpi hosil maʼlumotlarini aniqlashda shu ekin turlari boʻyicha hosildorlikni hisoblashning oʻziga xos xususiyatlarini ayrim ekin turlari boʻyicha quyida koʻrib chiqamiz:

- donli ekinlar boʻyicha. Bunda yalpi hosilni kuzgi ekin maydonga (qishda nobud boʻlgani chiqarib tashlanib, qayta ekilgan maydon esa qoʻshiladi) boʻlib topiladi;

- paxta (kartoshka) ekini boʻyicha. Bunda yalpi hosilni bahorgi mahsuldorlik maydoniga boʻlib topiladi;

- koʻp yillik daraxtlar boʻyicha. Bunda hosil yoshidagi daraxtlardan olingan yalpi hosilni shu hosil yoshdagi daraxtlar egallab turgan maydoniga boʻlib topiladi;

- makkajoʻxori silosi boʻyicha. Bunda yalpi hosilni oʻrib olingan maydoniga boʻlib topiladi;

- bir yillik oʻtlar boʻyicha. Bunda jami hosilni (birinchi, ikkinchi va ayrim hollarda uchinchi oʻrimdan olingan hosilni qoʻshish natijasida aniqlanadi) birinchi oʻrim maydoniga boʻlib topiladi;

- issiqxonadagi ekin turlari boʻyicha. Bunda issiqxonada biron ekin turi boʻyicha (masalan: pomidor, bodring) jami olingan hosilni (kg.da) shu ekinning issiqxonadagi egallab turgan maydoni (kv.m) ga boʻlib topiladi.

Oʻsimlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ikki yildagi oʻzgarishini (hisobot yilni bazis yilga yoki rejalashtirilgan yilga) tahlil etish uchun, shu davrlarda ishlab chiqarilgan oʻsimlikchilik mahsulotlari miqdorini taqqoslash natijasida tahlil etiladi.

Bu tahlilni amalga oshirish uchun «taqqoslash», «indeks» va «koʻrsatkichlar farqi» usullaridan foydalanib, oʻsimlikchilik mahsulotlari boʻyicha iqtisodiy-statistik tahlilini koʻrib chiqamiz.

«Taqqoslash» usuli orqali hisobot davrida yetishtirilgan oʻsimlikchilik mahsulotlari miqdorini bazis davridagi (rejada koʻzda tutilgan) koʻrsatkichlar bilan taqqoslanib, uning koʻpayganligi (kamayganligiga) taʼsir etuvchi omillar va shu har bir omilning miqdori hisoblanib topiladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- birinchidan, har bir ekin maydon hisobiga olingan mahsulotning (hosildorligi) oʻzgarishi tufayli koʻpayishi (kamayishi) boʻlsa (intensiv

omil), ikkinchidan, ekin maydonining o‘zgarishi tufayli mahsulot ishlab chiqarish ko‘payishi (kamayishi) orqali ro‘y beradi (ekstensiv omil).

Endi tahdil qilishni statistik (indeks) uslubini ko‘rib chiqamiz.

Hisobot davridagi mahsulot miqdorini bazis davriga (rejaga) nisbatan o‘zgarishni (ko‘payishi yoki kamayishi) o‘simlikchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy (dinamikasi) indeks formulasi orqali aniqlash mumkin.

$$J_{ym} = \frac{\sum Y_1 \Pi_1}{\sum Y_0 \Pi_0}$$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum Y_1 \Pi_1 - \sum Y_0 \Pi_0 = \pm Дyn$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

Bunda, Y_1 va Y_o - hisobot va bazis davridagi ekin turlari bo‘yicha hosildorlik (har bir ekin maydon hisobiga olingan mahsulot miqdori). O‘lchov birligi - sentner, kg hisobida

P_1 va P_o - hisobot va bazis davrdagi ekin turlari bo‘yicha egallab turgan ekin maydoni (gektar yoki 1 kv.m hisobida)

Y_1P_1 va Y_oP_o - hisobot va bazis davridagi yetishtirilgan jami mahsulot miqdori (jami yetishtirilgan paxta, bug‘doy va boshqalar).

Birinchi omilning, ya’ni ekin maydonlarining hosildorligi (bir gektar yoki 1.kv.m hisobiga olingan mahsulot miqdori) ning o‘zgarish ta’sirini aniqlash uchun hosildorlikning umumiy indeks formulasidan foydalaniladi (intensiv omil):

$$J_y = \frac{\sum Y_1 \Pi_1}{\sum Y_0 \Pi_1}$$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum Y_1 \Pi_1 - \sum Y_0 \Pi_1 = \pm Дy$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

Bunda, $\sum Y_o P_1$, - shartli mahsulot miqdori (hisobot davridagi mavjud ekin maydonlarining bazis davridagi ekin maydonlarining hosildorligi o‘zgarmasdan qolgan taqdirda yetishtirish mumkin bo‘lgan mahsulot miqdori).

Ikkinchi omilning, ya’ni ekin maydonining o‘zgarish ta’sirini aniqlash uchun ekin maydonlarning umumiy indeks formulasidan foydalaniladi (ekstensiv omil):

$$J_n = \frac{\sum \Pi_1 Y_0}{\sum \Pi_0 Y_0}$$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum \Pi_1 Y_0 - \sum \Pi_0 Y_0 = \pm Дn$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

yuqorida, ko‘rib chiqilgan birinchi omil bo‘lgan hosildorlikning umumiy indeksining suratini (Y_1P_1-hisobot davridagi miqdorini) uning maxrajiga (Y_0P_1-shartli mahsulot miqdori) bo‘lish orqali ekin may-

donlarining hosildorligi o‘zgarishi hisobiga shu davrdagi mahsulot miqdori necha foizga oshganligi (kamayganligi) aniqlansa, suratidagi ko‘rsatkichidan maxraj ko‘rsatkichi ayirilsa, shu davrdagi mahsulot miqdorining hosildorlikning ta’siri hisobiga mutlaq ko‘payishi (kamayishi) kelib chiqsa, ikkinchi omil bo‘lgan ekin maydonlarning umumiy indeksining suratini (P_1Y_o-shartli mahsulot miqdori) uning maxrajiga (P_oY_o-bazis davridagi mahsulot miqdori) bo‘lish orqali ekin maydonlarning o‘zgarishi hisobiga shu davrdagi mahsulot miqdori necha foizga oshganligi (kamayganligi) aniqlansa, suratidagi ko‘rsatkichidan maxraj ko‘rsatkichi ayirilsa, shu davrdagi mahsulot miqdorining ekin maydonlarning ta’siri hisobiga mutlaq ko‘payishi (kamayishi) kelib chiqadi.

So‘ngra, shu davrdagi mahsulot miqdorini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini belgilovchi ko‘rsatkichlar bilan to‘g‘ri kelishini (ularning tengligini) tekshirish kerak. Bu tengliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Jy x Jn = Jyn - indeks uslubi orqali hisoblangan nisbiy tenglik,

Дух Дп = Дуп - mutlaq tenglik.

10.2. CHORVACHILIK STATISTIKASI

10.2.1. Chorvachilik statistikasining vazifalari

Chorvachilik qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lib, uning tarkibiga qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik, quyonchilik, pillachilik va boshqa chorva tarmoqlari kiradi.

Chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish uchun, eng avvalo, yem-xashak bazasini yaxshilash, genetika va seleksiyada erishilgan yutuqlardan keng foydalanish, biologik uslublarni keng qo‘llash hamda poda tarkibini yaxshilash zarurdir.

Shuning uchun ham statistika, eng avvalo, chorvachilik moddiy-texnika bazasining ahvoli va rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganib chiqadi.

Bu turdagi ko‘rsatkichlarga: chorvachilikning yem-xashak, molxona, texnik vositalar, ishchi kuchi, yuqori malakali mutaxassislar va boshqalar bilan ta’minlash kirsa, chorvachilikning rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga esa-chorva mollari soni; podaning tarkibi; chorva mollarini takror ishlab chiqarish va ularning harakati; chorva mollarining mahsuldorligi; zoomuxandislik tadbirlar majmuasi kiradi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar o‘z navbatida mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, olingan foyda, rentabellik darajasi va shu kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham katta ta’sir etadi.

Shu boisdan statistika fani ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni chorvachilikning moddiy-texnika bazasining ahvolini va rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan uzviy bog‘langan holda o‘rganib, chorvachilikni yanada rivojlanishi va uning iqtisodiy samarasini oshirish imkoniyatlarini (rezervlarini) topishda muhim ilmiy-nazorat vazifalarini bajaradi.

Demak, chorvachilik oldida turgan vazifalarni hal etilishida statistika fanining roli katta bo‘lib, uning asosiy vazifalari:

1. Tarmoqning holati va rivojlanishiga tavsifnoma berish;
2. Davlat tomonidan bajarilishini nazorat etish;
3. Chorva mollarning dinamikasini o‘rganish;
4. Chorvachilik tarmog‘i bo‘yicha kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash; chorva mollarning soni va poda tarkibini o‘rganish; chorva mollarni takror ishlab chiqarish va uning harakatini hamda ozuqa bazasining ahvolini o‘rganish;
5. Chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish imkoniyatlarini (rezyervlarni) qidirib topish kabilardan iboratdir.

Ushbu vazifalarni bajarishda iqtisodiy adabiyotlarda foydalaniladigan taqqoslash, guruhlash, monografik tadqiqot usullaridan mustaqil ravishda foydalaniladi.

10.2.2. Chorva mollarining son ko‘rsatkichlari

Chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi bevosita chorva mollarning bosh soni va uning mahsuldorligiga bog‘liqdir. Chorva mollarining bosh soni-chorvachilik mahsulotlarini aniqlashda, yem-xashakka bo‘lgan talabni aniqlashda, chorvachilik inshootlarini qurishda, ishchi kuchiga bo‘lgan talabni aniqlashda keng foydalaniladi. Chorva mollarni bosh soni xo‘jalikning kundalik, oylik, choraklik hamda yillik hisobotlaridan 1 yanvargacha bo‘lgan holatiga binoan, ularning bosh sonini quyidagi uch ko‘rsatkich orqali aniqlash mumkin:

1. Chorva mollarining ma’lum muddatga bo‘lgan soni;
2. Chorva mollarining ma’lum bir davrdagi o‘rtacha bosh soni;
3. Chorva mollarining shartli soni.

Chorva mollarning ma’lum muddatga bo‘lgan (har qaysi oyning, choraklikning va yilning boshiga) soni to‘g‘risidagi ma’lumotlardan, mollar soniga bog‘liq bo‘lgan yutuqlarni, mollar soni rejasining bajarilishini nazorat etish, yem-xashakka bo‘lgan talabni rejalashtirishda, tarmoq taraqqiyotini tavsiflashda keng foydalaniladi.

Bizga ma’lumki, yil davomida chorva mollar bosh soni – buzoq olish, zotli mollarni chetdan sotib olish, davlatga mollarni so‘yib, go‘sht sifatida sotish, mollarning nobud bo‘lishi va boshqa holatlar o‘zgarib turganligi sababli, chorva mollarining sonini ma’lum muddatga hisoblashdan tashqari, ularning u yoki bu davr uchun o‘rtacha sonini ham aniqlash zarurdir.

Chorva mollarining ma’lum bir davrdagi o‘rtacha son ko‘rsatkichi orqali, chorva mollarni oziqlantirish darajasi, bir bosh mol hisobiga sarflangan mehnat birligi hamda yetishtirilgan yalpi mahsulot, mahsuldorlik darajasi va boshqalar aniqlanadi. Chorva mollarining oylik, choraklik va yillik o‘rtacha sonini aniqlash uchun-oddiy usul, o‘rtacha arifmetik (ham oddiy ham tortgichli) va o‘rtacha xronologik miqdorlar formulalaridan keng foydalaniladikim, ularni batafsil quyida o‘rganib chiqamiz.

Oddiy usul. Bunda, har oyning boshi va oxirida chorva mollarining bosh soni berilgan bo‘lsa, shu oy uchun o‘rtachasini oddiy usul bilan aniqlash mumkin. Bu formula quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\overline{X} = \frac{x_1 + x_2}{2}$$

Bu yerda - x_1 va x_2 oy boshi va oy oxiridagi chorva mollarining bosh soni; *X*- shu oydagi chorva mollarining o‘rtacha bosh soni.

Misol: 1 yanvardagi sigirlar soni -250;

1 fevraldagi sigirlar soni -260;

1 martdagi sigirlar soni -264;

1 apreldagi sigirlar soni -270.

Endi yuqoridagi formulalar orqali har bir oy uchun chorva mollarining o‘rtachasini aniqlaymiz:

Yanvar oyi uchun(250+260) / 2 = 255 (bosh)

Fevral oyi uchun (260+264) / 2 = 262 (bosh)

Mart oyi uchun (264+270) / 2 = 267 (bosh)

Oddiy o‘rtacha arifmetik. Agarda, chorva mollarining har oy uchun o‘rtachasi aniqlangan bo‘lsa, o‘rganilayotgan ma’lum davrdagi (masalan bir choraklik uchun) chorva mollarining o‘rtachasini aniqlash uchun oddiy o‘rtacha arifmetik formula orqali aniqlanadi:

i q 1,2,3,..., n;

$$\overline{X} = \frac{\sum x_i}{n}$$

Bu yerda, x - o‘rganilayotgan hodisaning belgisi;

n - o‘rganilayotgan hodisaning soni;

X - o‘rganilayotgan hodisaning o‘rtachasi.

Endi yuqoridagi hisoblangan har bir oy uchun chorva mollarining o‘rtacha sonini ushbu formulaga quyib hisoblaymiz:

$$\overline{X} = \frac{\sum^{i=3} x}{n} = \frac{255+262+267}{3} = \frac{784}{3} = 261 \text{ (bosh)}$$

Statistika chorva mollarining u yoki bu davrdagi o‘rtacha sonini aniqlash bilan bir qatorda ularning shartli bosh sonini ham hisobga olib boradi.

Shartli chorva mollar soni. Ma’lumki, chorva mollarining har xil turlari va guruhlari bo‘yicha ularning umumiy (fizik) bosh sonini qo‘shish usuli bilan hisoblab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham chorvachilikning umumiy ahvoli va taraqqiyotini tavsiflash uchun «Chorva mollarining shartli bosh soni» ko‘rsatkichi keng qo‘llaniladi.

«Chorva mollarining shartli bosh soni» ni aniqlash uchun dastavval mollarning turlari va guruhlari bo‘yicha fizik sonlarini belgilangan koeffitsientlarga ko‘paytirib, kelib chiqqan natijalarni qo‘shish yo‘li bilan topiladi. Amalda barcha chorva mollar va parrandalarning shartli qoramolga aylantirib olinadi. Boshqa chorva mollar va parrandalar shunga nisbatan hisoblab topiladi. Bular uchun belgilangan koeffitsientlarga asos qilib, bir bosh molning o‘rtacha qiymati va iste’mol qilinadigan yem-xashak miqdori olinadi. Bu qabul qilingan koeffitsientlarni quyidagi 10.2-jadval orqali keltiramiz:

10.2-jadval

Hayvonlarni turlari va guruhlari bo‘yicha shartli chorva mollar soniga aylantirish koeffitsientlari

Chorva mollarning turlari va guruhlari	Chorva mollarning qiymati bo‘yicha	yem-xashak miqdori bo‘yicha
1. Sigir va naslli buqalar	1,0	1,0
2. Yosh qoramollar	0,50	0,6
3. Qo‘y va echkilar	0,10	0,1
4. Otlar	1,10	1,0
5. Parranda	0,02	0,025

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan hayvonlarning turlari va guruhlari orqali shartli chorva mollarining qiymati bo‘yicha aylantirish koeffitsientlaridan foydalanib, iqtisodiy tasvirlashga ega bo‘lgan hisob-kitoblar (raschotlarini) tuzishda ishlatiladi. Masalan: chorva mollari va parrandalarning absolyut sonlari orqali dinamikasining tahlil etishda yoki ularni territoriyalari bo‘yicha joylashuvini solishtirishda, to‘plangan nisbiy ko‘rsatkichlarni aniqlashda (masalan: jon boshiga, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning bir yoki yuz gektariga, to‘g‘ri keladigan chorva mollari sonini va boshqa ko‘rsatkichlar) ishlatiladi. Yem-xashak miqdori bo‘yicha esa aylantirish koeffitsientlari orqali chorva mollari yem-xashak bilan ta’minlanishi (rejasi), ozuqa ratsionini tuzishda va boshqa ko‘rsatkichlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Statistikada qishloq xo‘jalik hayvonlari bir necha belgilari bo‘yicha turkumlashtiriladi. Birinchi navbatda hayvonlar turlari bo‘yicha bo‘linadi. Hayvonlarning asosiy turlariga qoramollar, otlar va qo‘y-echkilar kiritilib o‘rganiladi. Bulardan tashqari, statistikada qishloq xo‘jalik parandalarini turlari bo‘yicha, quyonlarni, mo‘ynali hayvonlar, asalarilar, baliq, xizmatchi itlarni hisobga olinadi.

Barcha chorva mollar va parrandalar asosiy ishlab chiqarishi yo‘nalishi bo‘yicha ikkiga bo‘linadi:

1. Mahsuldor mollar;
2. Ish hayvonlar.

Mahsuldor mollarga qoramol, qo‘y, echkilar kiradi. Ish hayvonlari tarkibiga-ishchi xo‘kizlar, ot, eshak, xachir, ishchi bo‘yvollar, aravaga qo‘shiladigan bug‘ular kiritiladi. Katta yoshdagi mahsuldor va ish hay-vonlar mehnat vositasi bo‘lib, ular asosiy fondlar tarkibiga kiradi. Yosh va bo‘rdoqiga boqilgan mollar mehnat predmetlari bo‘lib, ular aylanma fondlar tarkibiga kiritiladi.

Chorva mollarini turkumlashning eng muhim belgilaridan biri jinsi va yoshi hisoblanadi. Hayvonlarning har bir turi yoshiga qarab, ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Katta mollar;
2. Yosh mollar.

Takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan eng katta yoshdagi hayvonlar ona mollar va buqalar jinsiy guruhlarga bo‘linadi. Takror ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan katta yoshdagi hayvonlar boquvga quyilgan katta yoshdagi mollar guruhini tashkil etadi.

Yosh hayvonlar jinsi, yoshi bo‘yicha guruhlarga bo‘linadi.

Hayvonlarning hisobini statistika quyidagi jinsiy-yoshi guruhlari bo‘yicha tashkil qiladi:

- qoramollar bo‘yicha - sigir (boquvdagi sigirlarsiz), boquvdagi sigirlar, ikki yoshdan katta g‘unojinlar (qochirilganlari va qochirilmaganlari bilan birgalikda), bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan urg‘ochi tanalar, bir yoshgacha bo‘lgan buqalar, ishchi xo‘kizlar, bir yoshdan oshgan bichilgan tanalar.

- qo‘ylar bo‘yicha - naslli qo‘chqorlar, bir yoshdan katta bo‘lgan boshqa qo‘chqorlar va axta qo‘chqorlar, sovliqlar (ona qo‘ylar), bir yoshdan oshgan to‘qlilar, bir yoshgacha bo‘lgan qo‘zilar.

- echkilar bo‘yicha - bir yoshdan katta bo‘lgan takalar, bir yoshdan oshgan ona echkilar, bir yoshgacha bo‘lgan uloqlar.

- otlar bo‘yicha - nasliy ayg‘irlar uch yoshdan oshgan boshqa ayg‘irlar va axtalangan otlar, uch yoshdan oshgan biyalar, bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan ot bolalari, bir yoshgacha bo‘lgan toylar, uch yoshdan oshgan ishchi otlar alohida hisoblanadi.

- parrandalar bo‘yicha - har bir parranda turlari va ularning yoshi bo‘yicha guruhlarga bo‘lingan holda hisobga olib boriladi. Katta yoshdagi tovuqlardan ona tovuqlar ajratib ko‘rsatiladi. Chorva mollar mahsuldorligining darajasi qancha me’yorda bo‘lishi ularning zotiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham statistika chorva mollari zotini ham bir necha guruhlarga bo‘lib o‘rganadi.

10.2. 3. Chorva mollarining takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Bizga ma’lumki, chorvachilik mahsulotlarini hajmini ko‘paytirish ekstensiv yo‘li chorva mollarining bosh sonini oshirishdan iboratdir. Chorva mollarining bosh sonini oshirish uchun yil davomida buzoq olish va boshqa turli o‘stirish jarayonlarini uzluksiz davom ettirish natijasida amalga oshiriladi.

Chorva mollarni takror ishlab chiqarish - cheklagan (chegaralangan), oddiy va kengaytirilgan ko‘rinishda bo‘ladi. Cheklangan (chegaralangan) takror ishlab chiqarish deb, chorva mollar sonining yil oxiriga borib kamayib borishi tushuniladi. Oddiy takror ishlab chiqarish deb, yil oxiriga borib chorva mollar sonining oldingi darajada saqlanib qolinishi tushuniladi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deb, chorva mollar sonining yil oxiriga borib oldingi darajaga nisbatan oshib ketishi tushuniladi.

Yil davomida chorva mollar bosh soni o‘zgarib turganligi sababli (tug‘ish, sotib olish, davlatga go‘sht sifatida sotish, nobud bo‘lishi, kichik yoshdagi mollarni katta yoshdagi mollar guruhiga o‘tkazish va hokazo) shu o‘zgarishlarni aks ettirish uchun poda oboroti tuziladi.

Poda oboroti deb, chorva mollarining u yoki bu davrdagi harakati tushuniladi (ko‘pincha bir yilga). Poda oboroti balans jadvali shaklida tuzilib, yotiq chiziqda chorva mollarining guruhlari ko‘rsatilsa, tik chiziqda esa yil boshidagi chorva mollar soni, ularning yil davomida qabul qilinishi va chiqib ketishi, yil oxiridagi soni ko‘rsatiladi.

Poda oboroti alohida fermerlar, tumanlar, viloyatlar va respublika bo‘yicha tuziladi. Poda oboroti rejali va hisobotli ko‘rinishda bo‘ladi. Rejali oborot - yil boshida tuzilib rejalashtirilgan yilda chorva mollarining guruhlari bo‘yicha harakati va rivojlanishi aks ettirilsa, hisobotli oborotda esa shu chorva mollarining guruhlari bo‘yicha haqiqiy harakati va rivojlanishi ko‘rsatilib o‘tiladi. Poda oboroti ma’lumotlarida yil oxiridagi chorva mollari bosh sonini aniqlash statistikada eng asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, bu ko‘rstakich orqali statistika organlari chorvachilik holati va rivojlanishini maxsus nazorat etadi. Bu ko‘rstatkich statistikada «chorva mollarining chiqish» ko‘rsatkichi deb yuritiladi.

Shu davrda jami chorva mollar soni 434 (4798-4364) boshga yoki 9,95 (109,95-100,00)% ga oshdi. Sigirlar soni esa-80 (2432-2352) boshga yoki 3,4 (103,40-100,00)% ga oshdi. Ikki yoshdan katta g‘unojinlar - 260 (402-142) boshga yoki 2,8 marta oshdi, shu jumshshdan 149 bosh chetdan sotib olish hisobiga. Shuning natijasida bir sigirga yil oxiriga kelib 16,5 (2352:142) ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unojinlar to‘g‘ri keladi, bu esa navbatida kelasi yilga sigirlar bosh sonini oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Endi poda oboroti balans jadvali va ayrim qo‘shimcha ma’lumotlar asosida chorva mollarining ishlab chiqarish jarayonining asosiy; ko‘rsatkichlarini tahlil etib chiqamiz.

1. Ona mollarni qochirish ko‘rsatkichlari. Bu ko‘rsatkichni alohida sigirlar uchun, ham ona sigirlar uchun, ham jami urg‘ochi mollar uchunaniqlash mumkin. Sigirlar uchun jami qochirilgan sigirlarni qochirish kyerak bo‘lgan yil boshidagi sigirlar soniga bo‘linadi. Ona sigirlar uchun; jami qochirilgan ona sigirlarni yil boshidagi qochirish kerak bo‘lgan jami ona sigirlar soniga bo‘linib topiladi. Qochirish kerak bo‘lgan ona sigirlar soniga yil boshidagi sigirlar va ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unojinlar kiradi. Jami urg‘ochi mollar uchun, qochirish kerak bo‘lgan jami urg‘ochi mollarni yil boshidagi jami urg‘ochi mollar soniga

bo‘linadi. Jami urg‘ochi mollarga yil boshidagi sigirlar, ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unojinlar va bir yoshdan katta bo‘lgan qochirilgan g‘unojinlar kiradi. Bunda, 1 yoshdan katta g‘unojinlarning faqat qoch-prilgan qismi olinadi, chunki qolgan qismi o‘stirishga qoldiriladi va go‘shtga topshirilib yuboriladi. Qo‘ychilikda qochirish kerak bo‘lgan ona qo‘ylarga jami ona qo‘ylar va bir yoshdan oshgan to‘qlilar, yilqichilikda 3 yoshdan katta bo‘lgan hamma biyalar, kiritilib o‘rganiladi. Endi jadval ma’lumotlari asosida aniqlaymiz.

Sigirlarning qochirish foizi (ko‘rsatkichi) – 2211x100:2352=94,1% ga teng bo‘ladi. Demak, har yuz sigirdan 94 tasi qochirilgan.

Ona sigirlarning qochirish foizi (ko‘rsatkichi)-2310x100: (2352+142)=2310x100:2494=92,6 foizga teng bo‘ladi. Demak, har 100 ona sigirdan 93 tasi qochirilgan.

Jami urg‘ochi mollar uchun qochirish foizi (ko‘rsatkichi)-2310x100:(2352+142+207)=2310x100:2701 =85,5 foizga teng bo‘ladi. Demak, har 100 ta jami urg‘ochi mollardan 86 tasi qochirilgan.

Umumiy qochirish koeffitsienti bilan bir qatorda sun’iy qochirish koffisienti ham aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun sun’iy qochirilgan jami urg‘ochi mollar sonini jami qochirilgan urg‘ochi mollar soniga bo‘lib topiladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida u quyi-dagi munosabatda aniqlanadi. 1809:2310x100=78,3% ni tashkil etadi.

Jami urg‘ochi mollarni qochirish ko‘rsatkichining darajasi naslli buqalar bilan ta’minlash darajasi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun statisti-kada naslli buqalar bilan ta’minlash ko‘rsatkichi ham aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun qochirish mumkin bo‘lgan kontingent sonini naslli buqalar soniga bo‘linib topiladi. Ammo shuni esdan chiqar-maslik kerakki, bu ko‘rsatkichni aniqlash paytida qochirish mumkin bo‘lgan umumiy kontingentdan sun’iy qochirish uchun belgilangan kontingentni topib olib, ularning farqi sun’iy buqalar soniga bo‘lish yo‘li bilan bu ko‘rsatkich aniqlanadi. U quyidagi munosabatda ifodalanadi:

(2701-1809):11=892:11=81(bosh)ga teng bo‘ladi.

2. Chorva mollaridan bola olish koeffitsienti (ko‘rsatkichi). Chorva mollarini takror ishlab chiqarishini ifodalashda chorva mollaridan bola olish eng muhim nisbiy ko‘rsatkich miqdori bo‘lib hisoblanadi. Bu asosiy ko‘rsatkichni jami olingan buzoqlarni jami ona mollarga nisbatan aniqlanish mumkin.

16-jadval

Tuman bo‘yicha chorva mollarining poda harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar (2012 yil)

Chorva mollari guruhi	Yil boshidagi, bosh	Kirim, bosh		Chiqim								Yil oxirida, boshda
		Jami	Shu jumladan buzoq olish va boshqa guruhlardan o‘tkazish	Davlatga sotildi		Naslchilik xo‘jaliklariga sotilishi, boshda	Boshqa guruhlarga o‘tkazildi, boshda	Boshqa sotuvlar va o‘tkazilganlar, boshda	Xo’jalikda so‘yilgani, boshda	Nobud bo‘lganlari, boshda	Kamomad va o‘g‘irlanishi, boshda	
				Boshda	Tirik vaznda, s							
1. Sigirlar	2352	425	425	236	1168	-	84	-	25	-	-	2432
2. Ishchi ho‘kizlar	11	4	3	5	38	3	-	-	-	-	-	7
3. Ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unojinlar	142	705	557	10	41	-	425	-	8	2	-	402
4. Oldingi yillarda tug‘ilgan yosh buzoqlar va bo‘rdoqiga quyilgan mollar	1830 *	84	84	403	1306	190	560	14	94	3	1	649**

5. Hisobot yilida tug‘ilgan yosh buzo-qlar	-	2362	2362	642	768	161	-	-	253	11	2	1293
6. Ishchi hayvonlar	29	-	-	14	98	-	-	-	-	-	-	15
Jami chorva mollari soni	4364	3580	3431	1310	3419	354	1069	14	380	16	3	4798

** Shu jumladan, qochirilgan g‘unajinlar - 207*

*** Shu jumladan, bir yoshdan katta bo‘lgan g‘unajinlar -476*

Bundan tashqari, tuman bo‘yicha shu davrda - 2211 sigir qochirildi jami qochirilgan urg‘ochi mollar 2310 ga teng bo‘lib, shundan 1809 bosh sun’iy ravishda qochirilgan shu davrda chetdan 149 bosh chorva moli sotib olindi {bu ko‘rsatkichni shu keltirilgan jadval orqali aniqlash mumkin, ya’ni kirim bo‘lgan jami chorva mollar soni (3580) bilan tug‘ilgan va boshqa guruhlardan o‘tkazilgan chorva mollar soni (3431=2362+1069) o‘rtasidagi tafovut orqali aniqlanadi: 149=3580-3431}. Bu yerda (1069) shu jadvaldan quyidagicha aniqlanadi: 1069=425+3+557+84

Shu davrda sigirlardan 2078 buzoq olingan bo‘lsa, jami ona sigirlardan esa 2186 buzoq olindi. Joriy yilda tug‘ilgan yosh buzoqlarning majburiy so‘yilib, go‘shtga topshirilgan soni - 172 boshni tashkil etadi.

Bola olish ko‘rsatkichini aniqlashda faqat tirik olingan bolalar soni (buzoq, qo‘zi va boshqalar) olinib, yil boshiga mavjud jami ona mollar soniga bo‘linadi. Bu ko‘rsatkichni asosiy poda tarkibidagi har 100 ta sigir hisobiga olingan buzoqlar uchun, har 100 ta ona sigirlarga nisbatan olingan buzoqlar uchun, har 100 ta jami urg‘ochi mollariga nisbatan alohida aniqlanadi. Statistika, bola olish ko‘rsatkichi bilan bir qatorda yaroqli bola olish koeffitsientini ham hisoblaydi. Buning uchun tirik olingan bolalar sonidan, nobud bo‘lgan bolalar sonini chiqarib tashlanib, qolgan qismi ona mollar soniga bo‘linadi.

Bu ko‘rsatkichlarni keltirilgan misolimiz yuzasidan quyidagicha aniqlanadi:

Sigirlar uchun – 2078:2352x100=89(bosh)

Ona sigirlar uchun – 2186:(2352+142)x100=2186:2494=88

Jami urg‘ochi mollar uchun – 2186:(2352+142+207)x100=81

Yaroqli bola olish koeffitsienti – (1362-11):2362x100=99,5

3. Ona mollarning qisir qolish koeffitsienti (ko‘rsatkichi). Bu ko‘rsatkichni hisoblash uchun bola tug‘magan ona mollar (qisir qolgan) sonini bola berish uchun mo‘ljallangan barcha ona mollar soniga bo‘linadi. Bu ko‘rsatkichni 100 foizdan, bola olish foizini ayirish yo‘li bilan ham aniqlash mumkin.

Bu ko‘rsatkich keltirilgan misolimiz yuzasida quyidagicha aniqla-nadi:

Sigirlar uchun – (2352-2078):2352x100=11,0 yoki 100 % - 89 %=11 % gacha teng bo‘ladi.

Ona sigirlar uchun – (2494-2186):2494x100=12,0 yoki 100 % -88 % =12 % ga teng bo‘dadi.

Jami urg‘ochi mollar uchun–(2701-2186):2701x100=19,0 yoki 100 %-81 % =19 % ga teng bo‘ladi.

4. Poda safini ta’mir yoshidagi mollar bilan to‘ldirish koeffitsienti (ko‘rsatkichi). Bu ko‘rsatkich katta yoshdagi mollar guruhini kichik yoshdagilari bilan to‘ldirish imkoniyatini tavsiflaydi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun har turdagi ta’mir yoshdagi mollar sonini shu turdagi katta yoshdagi mollar soniga bo‘linadi va natijasi 100 % ga ko‘paytiriladi. Bu ko‘rsatkichni yil boshida va yil oxirida hisoblash mumkin.

Bu ko‘rsatkichni quyidagi munosabatlarda aniqlash mumkin:

Ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unojinlar uchun-402 : 2432 x 100=16,5 (bosh)

Bir yoshdan katga bo‘lgan g‘unojinlar uchun - 476 : 2432 x 100=19,6 (bosh)

5. Chorva mollarni brak qilish koeffitsienti (ko‘rsatkichi). Chorva mollardan ishlab chiqarish zoomuxandislik belgilari bo‘yicha xo‘jalikda foydalanish mumkin emas, deb topilsa, bu chorva mollar brak qilinib, go‘sht sifatida realizatsiya qilinadi yoki xo‘jalik ehtiyoji uchun ishlatiladi. Bu ko‘rsatkich orqali, xo‘jalikning ta’mir yoshdagi chorva mollar ko‘rsatkichini xo‘jalikdagi chorva mollarni brak qilish ko‘rsatkichi bilan taqqoslash yo‘li orqali chorva mollarning asosiy podasini ko‘payishi (asosan ona sigirlarni) imkoniyatlari yuzasidan xulosa va takliflar kiritish asosida o‘rganilishi mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, statistikada chorva mollarini brak qilish deb, go‘sht olish maqsadida so‘yish, davlatga va bozorda sotish, o‘z xo‘jaligi ehtiyoji uchun so‘yilgan mollar tushuniladi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun, brak qilingan chorva mollar sonini oborotdagi chorva mollar soniga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Oborotdagi chorva mollar sonini-yil boshidagi chorva mollar soniga, xo‘jalikda olingan hayvon bolalari va tashqaridan qabul qilib olingan mollar sonini qo‘shib, jamlash yo‘li bilan topiladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, chorva mollarning brak qilingan qismiga chorva mollarning boquv guruhiga va zotli chorva mollarni tarkibiga o‘tkazilgan bo‘lib, bular boquvga va zotli chorva mollar tarkibida saqlash muddati tugagan holatdan kiritilib o‘rganiladi.

Bu ko‘rsatkichlarni quyidagi munosabatlarda aniqlash mumkin: Oborotdagi jami mollar uchun -(1310+380):(4364+2362+149)x100%= =24,6 % ga teng bo‘ladi.

Sigirlar uchun - (236+84+25):(2352+425)x100%=12,4% ga teng bo‘ladi.

Joriy yilda tug‘ilgan yosh mollar uchun -(642+253):2362x100%= =37,9% ga teng bo‘ladi.

6. Chorva mollarni saqlab qolish va nobud bo‘lish koeffitsienti (ko‘rsatkichlari)**.** Chorva mollarni saqlab qolish ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun oborotdagi chorva mollar sonidan nobud bo‘lganlarni chiqarib tashlab, qolgan qismini 100 % ga ko‘paytirib, oborotdagi chorva mollar soniga bo‘linadi yoki 100 % dan chorva mollarni nobud bo‘lish ko‘rsatkichi (foiz)ni olib tashlash yo‘li bilan ham aniqlash mumkin.

Chorvachilik ahvolini baholashda joriy yilda tug‘ilgan yosh buzoq-larning saqlanish ko‘rsatkichini aniqlash uchun joriy yilda saqlanib qolingan qismini yil davomida olingan buzoqlarga bo‘linib topiladi.

Chorva mollarning nobud bo‘lish ko‘rsatkichini aniqlash uchun nobud bo‘lgan mollar sonini oborotdagi jami mollar soniga bo‘lib va olingan natijani 100% ga ko‘paytiriladi.

Joriy yilda tug‘ilgan yosh buzoqlarning nobud bo‘lish ko‘rsatkichi ham yuqoridagi tartibda aniqlanadi, ya’ni yil davomida nobud bo‘lganlarni yil davomida tug‘ilgan yosh buzoqlarga bo‘linib va olingan natijani 100 % ga ko‘paytiriladi.

Bu ko‘rsatkichlarni keltirilgan misolimiz yuzasidan quyidagicha aniqlanadi:

Jami chorva mollarning saqlanish koeffitsienti –

((4364+2511)-16):(4364+2511)x100=99,8 % ga teng bo‘ladi.

Jami chorva mollarning nobud bo‘lish koeffitsienti –

16:(4364+2511)x100=0,2 % yoki 100 % - 99,8 % =0,2 % ga teng bo‘ladi.

Tug‘ilgan yosh buzoqlar uchun saqlanish koeffitsienti - (2362-11):2362x 100=99,5 % ga teng bo‘ladi.

Tug‘ilgan yosh buzoqlar uchun nobud bo‘lish koeffitsienti - 11:2362x100=0,5 % yoki 100 %-99,5 %=0,5 % ga teng bo‘ladi.

Bundan tashqari chorva mollarning ishbilarmonlik ko‘rsatkichi ham aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich ham ona sigirlar uchun, ham joriy yilda tug‘ilgan yosh buzoqlardan shu davrda nobud bo‘lganlar va majburiy so‘yilib, go‘shtga topshirilgan bosh soni ayirilib, yil boshidagi sigirlar va ikki yoshdan katta bo‘lgan g‘unajinlar (ona sigirlar) soniga bo‘linib, 100 ga ko‘paytirib aniqlanadi.

Joriy yilda tug‘ilgan buzoqlar uchun ham yuqoridagi tartibda aniqlanadi, ya’ni shu davrda tug‘ilgan yosh buzoqlar sonidan nobud bo‘lganlari va majburiy so‘yilganlari ayirilib, shu davrda olingan buzoq-lar soniga bo‘linib, 100 ga ko‘paytiriladi.

Bu ko‘rsatkichni keltirilgan misolimiz yuzasidan quyidagicha aniqlanadi:

Har yuz ona sigirga to‘g‘ri keladigan ishbilarmonlik tug‘ilishining chiqishi - (2362-11-172):(2352+142)x100=87,4 (bosh).

Tug‘ilgan buzoqlarning ishbilarmonlik foizi-(2362-11-172):2362x100=92,3 % ga teng bo‘ladi.

10.2.4. Chorvachilik mahsuloti va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Chorvachilik mahsulotlarining umumiy hajmi chorva mollarining bosh soni va ularning mahsuldorligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Statistikada chorvachilik mahsuloti deb, chorva mollarini so‘ymasdan oldingi, ulardan olinadigan mahsulot tushuniladi. Bunga - sut, jun, tuxum, asal, pilla hamda chorva mollarining nasli, yosh chorva mollarining o‘sishi va boquvdagi mollarning semirishi kiritilib o‘rganiladi.

Lekin shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, chorvachilik statistikasi chorva mollarini so‘yish orqali ishlab chiqarilgan go‘sht hajmini aniqlab berib, bu bilan u sanoat statistikasining mazkur kamchiligini to‘ldirib, go‘sht yetishtirishning hamma tomonlarini aniq belgilashga yordam berib kelmoqda. Chunki chorva mollarni o‘stirilishidan olinadigan barcha mahsulotlar (tug‘ilgan nasl vazni, yosh mollarning o‘sishi va bo‘rdoqidagi mollarning vazniga vazn qo‘shilishi) iste’mol qilinishi uchun dastavval qayta ishlab chiqarish sanoati bilan bog‘langan bo‘lib, qayta ishlanganligi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotiga kiritilmay, balki u sanoat mahsulotiga kiritilib, bu jarayon to‘laligicha hozirgi kunda sanoat statistikasi o‘rganib kelmoqda.

Chorvachilik statistikasi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini o‘rganish bilan birga, chorva mollarning mahsuldorligini ham o‘rganadi.

Chorva mollarning mahsuldorligi deb, bir bosh chorva moliga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha mahsulot chiqishini tushunamiz. Chorva mollarning asosiy mahsuldorlik ko‘rsatkichlari quyidagilardan iboratdir: bir bosh sigirdan o‘rtacha hisobda sog‘ib olinadigan sut; bir bosh qo‘ydan o‘rtacha hisobda qirqib olinadigan jun; bir bosh chorva molining o‘rtacha vazni; chorva mollarning o‘rtacha vazni va semirishi; bir ona tovuqdan olingan o‘rtacha tuxum; bir asal uyasidan o‘rtacha olingan asal va hokazolarni tashkil etadi.

1. Sut ishlab chiqarish va sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlari. Chorvachilik fermalarida yetishtirilgan sut miqdoriga, sut yo‘nalishidagi sigirlardan haqiqiy sog‘ib olingan jami sut kiradi. Onalaridan ajratilmasdan boqilayotgan (o‘stiralayotgan) buzoqlarning emgan sutlari yalpi sut miqdoriga kiritilmaydi, chunki ularning miqdorini aniqlash qiyin bo‘lib hisoblanadi.

Sigirlarning sut mahsuldorligining darajasi quyidagi koʻrsatkichlar orqali ifodalanadi:

- sut yoʻnalishidagi sigirdan sogʻib olingan oʻrtacha sut miqdori;

- sogʻin yoʻnalishidagi bir sigirdan sogʻib olingan oʻrtacha sut miqdori**.** Sut yoʻnalishidagi bir sigirdan sogʻib olingan oʻrtacha sut miqdorini aniqlash uchun, chorvachilik fermasi boʻyicha oʻrganilayotgan davrda jami sogʻib olingan sut miqdorini shu davrdagi sut yoʻnalishidagi oʻrtacha sigirlar soniga boʻlinadi. Bu koʻrsatkich-chorvachilik ferma sining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, hamma sigirlarning bosh soni olinadi (shu davrda shu sigirlardan sut sogʻib olinishi va olinmasligidan qat'iy nazar) va bu koʻrsatkich hozirgi kunda statistikada qoʻllaniladigan eng asosiy koʻrsatkich boʻlib hisoblanadi.

Sogʻin yoʻnalishadagi bir sogʻin sigirdan sogʻib olingan oʻrtacha sut miqdorini aniqlash uchun, sogʻin yoʻnalishidagi sigirlardan sogʻib olingan jami sut miqdorini sogʻin sigirlarining oʻrtacha bosh soniga boʻlinadi. Sogʻin sigirlar deb, hisobot davrida shu sogʻin sigirlardan olingan buzoq va sut sogʻilganligi tushuniladi.

Agarda, sut yoʻnalishidagi bir sigirdan sogʻib olingan sut-bir yillik mahsuldorlik darajasini tasvirlasa, sogʻin yoʻnalishidagi bir sogʻin sigirdan sogʻib olingan oʻrtacha sut esa sogʻin sigirlarning laktatsiya davridagi mahsuldorligini tasvirlaydi.

«Laktatsiya» koʻrsatkichi orqali, sigirlarning sut mahsuldorligini zoomuhandislik nuqtai-nazaridan baholash uchun chorvachilik fermalari shu davrda bir sogʻin sigir hisobiga olingan sut miqdorini aniqlaydilar. Bu koʻrsatkichni faqat bevosita chorvachilik fermalarining oʻzida hisoblab chiqarish mumkin, chunki sogʻin sigirlarning hisobi faqat chorvachilik ferma sida boʻladi, statistika hisobotlarida esa bunday ma'lumot aks ettirilmaydi. Bu koʻrsatkich sigirlarga zoomuhandislik jihatdan baho berish va oʻrtacha sut sogʻilishini bir bosh sigirdan hisoblaydigan chet el mamlakatlarida (AQSh, Kanada va boshqalar) solishtirish uchun kerak boʻladi. Laktatsiya davri 300-305 kunni tashkil etadi.

Masalan, 2-ta chorvachilik ferma sida sigirlarning bir yildagi ozuqa-kunlari 182500 ga teng boʻlsin, sogʻin kunlari esa 146000 kunni tashkil etadi. Jami sogʻib olingan sut miqdori 1350000 kg. Sut yoʻnalishidagi oʻrtacha yillik sigirlar soni - 500(182500:365), sogʻin yoʻnalishidagi sigirlar esa - 477(146000:305) ga teng boʻladi. U holda sut yoʻnalishidagi bir sigirning oʻrtacha yillik mahsuldorligi 2700(1350000:500) kg. boʻlsa, sogʻin sigirlarning oʻrtacha yillik mahsuldorligi esa-2830(135000:477) kg teng boʻladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, sog‘in sigirlarning bosh soni hamma vaqt sut yo‘nalishidagi sigirlardan kam bo‘ladi. Bunga sabab shuki, sigirlar bola berish oldidan ma’lum vaqt sog‘ilmaydi. Bu davr statistikada - ko‘rik davr (mahalliy tilda uvuz davri) deb yuritiladi. Chorvachilik ferma larida sigirlardan sut olishda foydalanishini aks ettirishda sog‘in sigirlarning chorvadagi salmoq ko‘rsatkichi aniqlanadi.

2. Jun ishlab chiqarish va jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlari. Yalpi yetishtirilgan jun miqdoriga tirik qo‘y va tuyalardan qirqib olingan jami jun, hamda echki tiviti kiritiladi. So‘yilgan va o‘lgan mollardan olingan jun qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan jun miqdoriga kiritilmaydi, chunki u qayta ishlab chiqaruvchi sanoat mahsuloti bo‘lib hisoblanadi.

Qirqilib olingan jun miqdori fizik vaznda hisobga olinadi. Ayrim xo‘jaliklar qo‘ydan olinadigan junni yuvmasdan qirqib olsa,, ko‘pchilik xo‘jaliklar esa junni qirqishdan oldin uni tozalash maqsadida qo‘ylarni suv havzalari (hovuzlar) orqali haydalib, yuviltiriladi. Shunday qo‘ylardan olingan jun tozalangan jun bo‘lib, yuvilmagan qo‘ylardan olingan jundan farq qiladi. Ularni solishtirish mumkin bo‘lishi uchun yuvilgan junni belgilangan koeffitsientlar asosida yuvilmagan junga aylantirib hisoblab chiqariladi. Demak, qo‘ychilikda jun mahsuldorligi tozalanmagan jun bo‘yicha hisoblanadi. Yuvilmasdan qirqib olingan jun mumkin qadar taqqoslab bo‘lmaydigan ko‘rsatkichdir, chunki qo‘ylarning zoti va ularni boqish sharoiti ta’siri ostida qabul qilinadigan junning sof chiqimi har xil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bevosita to‘g‘ri ko‘rsatkich bo‘lib, tozalangan (yuvilgan) jun hisoblanadi, chunki deyarli barcha jun tovar mahsulotiga kiritilib o‘rganiladi.

Statistika junning yalpi yetishtirilishidan tashqari, uning tolasining - mayin, yarim mayin, dag‘al, yarim dag‘al sifatlarini ham hisobga olib o‘rganadi. Xo‘jaliklarda yetishtirilgan junning sifatini tayyorlov tashkilotlarining hisobotlari asosida aniqlash mumkin.

Bir qo‘ydan o‘rtacha qirqib olingan jun qo‘ychilik mahsuldorligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun yil boshidagi (ayrim vaqtlarda 1-aprelga) qo‘ylar soni olinib, shu ko‘rsatkichga nisbatan o‘rtacha jun mahsuldorligi darajasi topiladi. Holbuki, chorvachilikning boshqa tarmoqlarida chorva mollarning o‘rtacha yillik bosh soni olinib aniqlanadi.

Demak, o‘rtacha bir bosh qo‘y hisobiga olingan jun miqdorini aniqlash uchun yalpi yetishtirilgan jun miqdorini yil boshidagi (birinchi apreldagi) qo‘ylar soniga bo‘linadi.

3. Tuxum yetishtirish va mahsuldorlik koʻrsatkichlari. Yalpi tuxum yetishtirishga tovuqlar, oʻrdaklar va boshqa parrandalar tuxumlarining hammasi kiradi. Tovuq tuxumlari alohida, boshqa parrandalarning tuxumlari bilan birgalikda hisoblanadi.

Tuxumlarning sifati ikki xil boʻladi: standartli va standartsiz. Standartli tuxumlar parhezli (7-kungacha) va oshxonali (7-kundan koʻp) larga boʻlinadi. Parhez tuxumlar oʻz navbatida hajmiga qarab, birinchi va ikkinchi kategoriyalarga boʻlinadi. Standartsiz tuxumlarga singan poʻst tashlagan (toʻliq yetilmagan)lar kiradi.

Tovuqlarning oʻrtacha tuxum tugʻishini aniqlash uchun bir tovuq tuxumning oʻrtacha miqdori belgilanib olinadi. Buni belgilash uchun yalpi yetishtirilgan tuxum miqdori tuxum tugʻuvchi tovuqlarning umumiy soniga boʻlinadi, ularning oʻrtacha soni esa oʻrtacha xronologik formulasi orqali hisoblab chiqiladi.

4. Chorva mollarni oʻstirish mahsulotlari va mahsuldorlik koʻrsatkichlari. Chorva mollarni oʻstirish mahsulotlariga ulardan olingan bolalarning tirik vazni, oʻstirilayotgan yosh mollar vaznining oʻsishi va boquvdagi (yosh va katta mollarning) oʻsishi hamda semirishi kiradi. Asosiy poda safidagi chorva mollarning tirik vaznini semirishi yoki ozishi oʻstirish mahsulotlariga kirmaydi. Chorva mollarni oʻstirish mahsulotlari ikki usul bilan hisoblab chiqiladi: biri bevosita hisobga olish yoʻli boʻlsa, ikkinchisi esa hisoblab chiqarish usulidir.

Hisobga olish usuli orqali chorva mollarning vazni, yosh chorva mollarning oʻsishi va boquvdagi chorva mollarning semirishi hisoblanadi. Nobud boʻlgan chorva mollar vazni oʻstirish mahsuloti miqdoridan chiqarib tashlanadi.

Hisoblash usuli orqali chorva mollarning yil oxiridagi vazni bilan yil boshidagi vazni oʻrtasidagi farq aniqlanib, soʻngra hosil boʻlgan koʻrsatkichdan sotib olingan va chetdan kelgan chorva mollarning tirik vazni chiqarilib, hosil boʻlgan miqdorga hisobot davrida realizatsiya qilingan (davlatga, bozorda sotilgan, xoʻjalikda soʻyilgan va hokazo) chorva mollar vazni qoʻshiladi.

Chorva mollarning goʻsht mahsuldorligi quyidagi koʻrsatkichlar orqali ifodalanadi:

1. Bir molning oʻrtacha tirik vazni va soʻyilgan vaznlari;

2. Boquvga quyilgan yosh va katta mollarning sutkalik oʻrtacha oʻsishi;

3. Mollarning semizlik darajasi;

4. So‘yilgan vaznining tirik og‘irlikka nisbatan salmog‘i (so‘yilgan vaznning kelib chiqishi);

5. Bir bosh ona mol hisobiga o‘stirish mahsulotining chiqimi.

10.2.5. Chorvachilik mahsulotlari va mahsuldorligining iqtisodiy-statistik tahlili

Chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarishning ikki yildagi o‘zgarishini (hisobot yilini bazis yiliga yoki rejalashtirilgan yilga) tahlil etish uchun, shu davrlarda ishlab chiqarilgan chorva mahsuloti miqdorini taqqoslash natijasida tahlil etiladi.

Bu tahlilni amalga oshirish uchun «taqqoslash», «indeks» va «ko‘rsatkichlar farqi» usullaridan foydalanib, chorva mollarning iqtisodiy-statistik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

«Taqqoslash» usuli orqali hisobot davrda yetishtirilgan chorva mahsulotlari miqdorini bazis davridagi (rejada ko‘zda tutilgan) ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanib, uning ko‘payganligiga (kamayganligiga) ta’sir etuvchi omillar va shu har bir omilning miqdori hisoblanib topiladi. Bu omillarga quyidagilar kiradi: birinchidan, har bir bosh mol hisobiga olingan mahsulotning (chorva mollar mahsuldorligining) o‘zgarishi tufayli ko‘payishi (kamayishi) bo‘lsa (intensiv omil), ikkinchidan, chorva mollar sonining o‘zgarishi tufayli mahsulot ishlab chiqarish ko‘payishi (kamayishi) orqali ro‘y beradi (ekstensiv omil). Endi tahlil etishning statistik uslubini ko‘rib chiqamiz.

Hisobot davridagi mahsulot miqdorini bazis davriga (rejaga nisbatan) o‘zgarishini (ko‘payishi yoki kamayishini) chorva mahsulotini ishlab chiqarishning umumiy indeks (dinamikasi) formulasi orqali aniqlash mumkin:

$$J_{qS} = \frac{\sum q_1 s_1}{\sum q_0 s_0}$$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum q_1 s_1 - \sum q_0 s_0 = \pm Д_{qs}$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

Bunda, q_1 va q_0 - hisobot va bazis davridagi chorva mollarning mahsuldorligi (har bir bosh chorva mol hisobiga olingan mahsulot miqdori).

s_1 va s_0 - hisobot va bazis davridagi chorva mollarining o‘rtacha yillik bosh soni (bosh hisobida);

$q_1 s_1$ va $q_0 s_0$ - hisobot va bazis davridagi yetishtirilgan jami mahsulot miqdori (jami yetishtirilgan sut, go‘sht va boshqalar).

Birinchi omilning, ya’ni chorva mollarning mahsuldorligi (bir bosh chorva mol hisobiga olingan mahsulot miqdori)ning o‘zgarish ta’sirini aniqlash uchun chorva mollarning umumiy mahsuldorlik indeks formulasidan foydalaniladi:

$J_q = \frac{\sum q_1 s_1}{\sum q_0 s_1}$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum q_1 s_1 - \sum q_0 s_1 = \pm Дq$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

Bunda, $\sum q_0 s_1$ - shartli mahsulot miqdori (hisobot davridagi mavjud chorva mollarning bazis davridagi chorva mollarning mahsuldorligi o‘zgarmasdan qolgan taqdirda yetishtirish mumkin bo‘lgan mahsulot miqdori).

Ikkinchi omilning, ya’ni chorva mollar sonining o‘zgarishi ta’sirini aniqlash uchun chorva mollarnin bosh soni umumiy indeks formulasidan foydalaniladi:

$J_S = \frac{\sum s_1 q_0}{\sum s_0 q_0}$ - nisbiy o‘zgarishini bildiradi;

$\sum s_1 q_0 - \sum s_0 q_0 = \pm Дs$ – mutlaq o‘zgarishini ko‘rsatadi;

Yuqorida, ko‘rib chiqilgan birinchi omil bo‘lgan chorva mollarning umumiy mahsuldorlik indeksining suratini ($q_1 s_1$ - hisobot davridagi miqdori) maxrajiga ($q_0 s_1$ - shartli mahsulot miqdori) bo‘lish orqali chorva mollarning mahsuldorligi o‘zgarishi hisobiga shu davrdagi mahsulot miqdori necha foizga oshganligi (kamayganligi) aniqlansa, suratdagi ko‘rsatkichidan maxraj ko‘rsatkichi ayirilsa, shu davrdagi mahsulot miqdorining chorva mollarning mahsuldorligi ta’siri hisobiga mutlaq ko‘payishi (kamayishi) kelib chiqadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ekin maydonlari statistikasining vazifalari nimalardan iborat?
2. Ekin maydoni kategoriyalarini hisobga olish uslubi nimadan iborat?
3. Ekin maydonlarini tahlil etish uslubi qanday?
4. Ko‘p yillik daraxtlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni statistik tahlil etish uslubi haqida aytib bering.

5. Agrotexnika chora tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil etish uslubi qanday?

6. Hosil va hosildorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil etish uslubini tushuntiring.

7. Chorvachilik statistikasining vazifalari nimalardan iboratdir?

8. Chorva mollarining o‘rtacha soni qanday hisoblanadi?

9. Poda oborotiga ta’rif va chorva mollarining takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qanday hisoblanadi?

10. Chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni iqtisodiy- statistik tahlil etish uslubi qanday amalga oshiriladi?

NAZORAT TESTLARI

1. Ekin maydoni mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) statistikada haydalgan yerlarning qishloq xo‘jaligi ekin turlari bilan band bo‘lgan ekinzorlar

B) har bir ekin turlari bo‘yicha absolyut miqdorni aniqlash va va to‘plangan ma’lumotlarni to‘laligicha tahlil etish

C) ijtimoiy va iqtisodiy statistika, mehnat statistikasi

D) qiymat, ish haqi, tovar, mehnat unumdorligi, ijtimoiy mahsulot, milliy daromad, foyda

2. Ko‘p yillik daraxtlarga tegishli bo‘lgan maxsus ko‘rsatkichlar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) ekin maydonlari salmog‘i; ekin turlari ko‘rsatkichi

B) ko‘p yillik daraxtlar turlari; ko‘chat o‘tkazish usullari

C) ekin maydonlari turlari, ekin maydonlari takibi

D) hosil berish yoshidagi daraxtlarning egallab turgan maydonining salmog‘i; zichlik ko‘rsatkichi

3. Statistikada agrotexnika tadbirlari mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) ekishgacha bo‘lgan barcha tadbirlar, ekishdan so‘nggi tadbirlar kirmaydi

B) tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq chora tadbirlar, ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim tadbirlar

C) belgilangan dehqonchilik ishlarini qisqa muddatda yuqori saviyada o‘tkazish hamda mineral va organik o‘g‘itlardan intensiv ravishda foydalanish va boshqa tadbirlar

D) qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish

4. Hosil va hosildorlik statistikasining asosiy vazifasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) bir ekin turi bo‘yicha bir gektar hisobiga olingan hosil

B) qishloq xo‘jaligi ekinlarining turlari va guruhlari bo‘yicha hosil va hosildorligini xo‘jaliklar, tumanlar, viloyatlar va Respublika bo‘yicha aniqlash hamda reja va o‘tgan davrlar ko‘rsatkichiga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatish

C) hosil va hosildorlik o‘simlikchilik tarmog‘ining eng muhim natijaviy ko‘rsatkichlari bo‘lib hisoblanadi

D) u yoki bu ekin turining jami maydonidan yig‘ib terib olingan umumiy mahsulot

5. Chorvachilik statistikasining vazifalari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) taqqoslash, guruhlash, monografik kuzatish, zanjirli va balansli bog‘lanish

B) chorva mollarining ma’lum muddatga bo‘lgan soni, ma’lum bir davrdagi o‘rtacha bosh soni, chorva mollarining shartli soni

C) tarmoqning holati va rivojlanishiga tavsifnoma berish; chorva mollarining dinamikasini o‘rganish; chorvachilik tarmog‘i bo‘yicha kyerakli ma’lumotlarni to‘plash

D) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish chorva mollar sonining yil oxiriga borib oldingi darajaga nisbatan oshib ketishidir

6. Chorva mollarining son ko‘rsatkichlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) chorva mollarini takror ishlab chiqarish cheklangan, oddiy va kengaytirilgan ko‘rinishda bo‘ladi

B) mahsuldor mollar va ish hayvonlar, katta mollar va yosh mollar

C) taqqoslash, guruhlash, monografik kuzatish, zanjirli va balansli bog‘lanish

D) chorva mollarining ma’lum muddatga bo‘lgan soni, chorva mollarining ma’lum bir davrdagi o‘rtacha bosh soni, chorva mollarining shartli soni

7. Chorva mollarining takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) chorva mollarining o‘rtacha son sonini aniqlashning oddiy usuli, o‘rtacha arifmetik usuli va o‘rtacha xronologik miqdorlar usuli

B) chorva mollarini takror ishlab chiqarish cheklangan, oddiy va kengaytirilgan ko‘rinishda bo‘ladi

C) ona mollarni qochirish koʻrsatkichlari, chorva mollaridan bola olish koʻrsatkichlari

D) oddiy takror ishlab chiqarish yil oxiriga borib chorva mollar sonining oldingi darajada saqlanib qolinishidir

8. Poda oboroti mazmuni qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) chorva mollarining u yoki bu davrdagi (koʻpincha bir yildagi) harakati tushuniladi

B) poda oboroti rejali va hisobotli koʻrinishda boʻladi

C) cheklangan takror ishlab chiqarish chorva mollar sonining yil oxiriga borib kamayib borishidir

D) chorva mollarini takror ishlab chiqarish cheklangan, oddiy va kengaytirilgan koʻrinishda boʻladi

9. Statistikada chorvachilik mahsuloti deb nimaga aytiladi?

A) chorva mollarining u yoki bu davrdagi (koʻpincha bir yildagi) harakati tushuniladi

B) chorva mollarini soʻymasdan oldingi, ulardan olinadigan mahsulot tushuniladi

C) bir bosh chorva moliga toʻgʻri keladigan oʻrtacha mahsulot chiqishi tushuniladi

D) chorva mollarini takror ishlab chiqarish cheklangan, oddiy va kengaytirilgan koʻrinishda boʻladi

10. Chorva mollarining mahsuldorligi mazmuni qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

A) taqqoslash usuli orqali hisobot davrida yetishtirilgan chorva mahsulotlari miqdorini bazis davridagi koʻrsatkichlar bilan taqqoslanib, uning oʻzgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning miqdori topiladi

B) chorva mollarining goʻsht mahsuldorligi-bir molning oʻrtacha tirik vazni va soʻyilgan vaznlari, boquvga quyilgan yosh va katta mollarning sutkalik oʻrtacha oʻsishi,

C) sogʻin yoʻnalishidagi sigirlardan sogʻib olingan jami sut miqdorini sogʻin sigirlarning oʻrtacha bosh soniga boʻlinadi

D) bir bosh chorva moliga toʻgʻri keladigan oʻrtacha mahsulot chiqishi tushuniladi

«QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA STATISTIKA ASOSLARI» FANIDAN IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)

Aylanma qaydnomalar — buxgalteriya hisobi schotlarining hisob registrlari ma’lumotlarini umumlashtirish usuli. Aylanma qaydnomalar schotlarning oy boshiga va oxiriga qolgan qoldig‘i hamda oy bo‘yicha aylanma ma’lumotlariga asosan oy oxirida tuziladi. Aylanma qaydnomalar sintetik va analitik schotlar bo‘yicha tuzilishi mumkin.

Aktiv — ma’lum bir sanaga pul ko‘rsatkichida korxonaning mablag‘lari, ularning tarkibi va joylashishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansining qismi. Buxgalteriya balansi aktivdan tashqari passivga ham ega. Aktiv va passiv bo‘lim va moddalardan iborat. Balans aktiv tomonining jami passiv tomonining jamiga teng bo‘lishi kyerak. Aktiv faol degan ma’noni ham anglatadi.

Aktiv schotlar — korxona mablag‘larini hisobga oladigan buxgalteriya hisobi schotlari. Ular mavjud mablag‘lar, ularning tarkibi va joylashishi to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni beradi. Aktiv schotlarda mablag‘larning ko‘payishi debetda, kamayishi kreditda aks ettiriladi. Qoldig‘i faqat debetda bo‘lib, balansning aktivida ko‘rsatiladi. Quyidagi schotlar aktiv schotlar hisoblanadi: bino, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalarni (1000-schotlar) hisobga oladigan schotlar; pul mablag‘larini hisobga oladigan schotlar; tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga oladigan schotlar; xarajatlarni hisobga oladigan schotlar.

Aksept — ma’lum shart bo‘yicha shartnoma tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitoblarda aksept mol oluvchining mol yuboruvchi schotini to‘lashga roziligidir. Aksept oldindan va keyinchalik qilinishi mumkin. Oldindan akseptda bankka schot kelib tushgan kundan keyin mol oluvchi uch ish kuni ichida aksept qilmaslik to‘g‘risida bankka arz qilmasa, mol yuboruvchining schoti akseptlangan hisoblanadi. Basharti mol oluvchi bankdan uzoqda joylashgan bo‘lsa, shuningdek yo‘l va aloqa yomon bo‘lsa, bank boshlig‘ining ruxsati bilan aksept muddati uzaytirilishi mumkin.

Amortizatsiya — obyektning asta-sekin eskirishi va uning qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki foydalanilishiga qarab boshqa xarajatlarga o‘tkazish. Boshqa ma’noda amortizatsiya bu: mulk qiymatining kamayishi; har zamonda to‘lash yo‘li bilan qarzning asta-

sekin kamayishi; avtomobil harakati, samolyotlarni qo‘ndirishdagi silkinishlarni so‘ndirish va h.k.

Amortizatsiya ajratmalari — belgilangan normalar bo‘yicha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblanadigan amortizatsiya.

Analitik schotlar

— analitik hisob yurituvchi buxgalteriya hisobi schotlari. Ular ma’lum sintetik schotning ko‘rsatkichlarini detallashtirish uchun ochiladi. Analitik schotlar faqat murakkab sintetik schotlarga ochiladi. Masalan, 1010 «Xom ashyo va materiallar» schotida xom-ashyo va Materiallarning turlari bo‘yicha ularning soni va summasi ko‘rsatilib, bir nechta analitik schotlar ochiladi.

Asosiy vositalar

— ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan mehnat vositalari (bino, inshoot, mashina, inventar va h.k)

Asosiy vositalarning hisobi 5-son BHMS «Asosiy vositalar» bilan tartibga solinadi.

Asosiy vositalar amortizatsiyasining normasi

— yillik amortizatsiya summasining asosiy vositalar dastlabki qiymatiga foiz nisbati. 2008 yilning 1 yanvaridan e’tiboran kuchga kirgan Soliq kodeksining 144-moddasida soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizatsiyasining eng yuqori normalari asosiy vositalarning guruhlari bo‘yicha berilgan.

Asosiy vositalarning balans qiymati

— buxgalteriya balansida aks ettiriladigan asosiy vositalar (fondlar)ning qiymati. Asosiy vosytalarning balans qiymati — bu fondlarni qaytadan baholash ma’lumotlari bo‘yicha ularning qiymati yoki qaytadan baholanmagan obyektlarning dastlabki qiymati.

Asosiy vositalarning eskirishi

— ishlab chiqarish jarayonida eskirishi (jismoniy eskirishi) yoki mehnat unumdorligi o‘sgan sharoitlarda mashinalarning texnik eskirishi va ularni ishlab chiqarish qiymatining pasayishi (ma’naviy eskirishi) natijasida asosiy vositalar dastlabki qiymatining kamayishi. Buxgalteriya hisobida har oyda amortizatsiya hisoblash bilan bir vaqtda asosiy vositalarning eskirishi ham aks ettiriladi. Asosiy vositalarning eskirishini hisobga olish uchun 0200 «Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar» tayinlangan. Har oyda hisoblangan eskirish summasiga asosiy vosita obyektlari qaysi sohada xizmat qilayotgan bo‘lsa, shu soha xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar debetlanib, 0200-schotlar kreditlanadi. Korxona mulki bo‘lgan asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga

berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, uzoq muddatli ijaraga berish, kamomad yoki buzilishi natijasida hisobdan chiqarishda ularga hisoblangan eskirish summasi tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlarning (0200) debetidan 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari

— mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar. Bularga texnologik ehtiyojlar uchun zarur bo‘lgan xom ashyolar, Materiallar, yoqilg‘i, elektr energiya, ish haqi va h.k. kiradi. Tayinlanishi bo‘yicha barcha ishlab chiqarish xarajatlari asosiy xarajatlar va ishlab chiqarishni boshqarish hamda xizmat qilish xarajatlariga bo‘linadi.

Asosiy ish haqi

— korxonada ishchi va xizmatchilarga haqiqiy ishlagan vaqti va bajargan ishlari uchun hisoblangan ish haqi. Asosiy ish haqidan tashqari ishchi va xizmatchilar qo‘shimcha ish haqi ham oladi.

Asosiy Materiallar

— tayyorlanayotgan mahsulotning moddiy asosini tashkil etuvchi mehnat buyumlari (mashinasozlikda metall, poyabzal fabrikasida charm va h.k.). Asosiy materiallar 1010 «Xom ashyo va materiallar» schotida hisobga olinadi.

Asosiy mahsulot

— nima tayyorlash uchun ishlab chiqarish tashkil etilgan bo‘lsa, shu asosiy mahsulot. Ko‘pincha asosiy mahsulot bilan birga qo‘shimcha mahsulot ham olinadi. Mahsulotlarni bunday ajratish ularning tannarxini kalkulyatsiya qilishda katta ahamiyatga ega.

Asosiy schotlar

— xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari alohida turlarini, ya’ni korxona xo‘jalik faoliyatining asosini aks ettirish va nazorat qilish uchui tayinlangan buxgalteriya hisobi schotlari. Asosiy schotlar aktiv va passiv bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi schotlarini tayinlanishi va tuzilishi bo‘yicha tasniflashda asosiy schotlar ajratib ko‘rsatiladi.

Asosiy faoliyat

— yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

Balans

— doimo o‘zgarib turadigan, o‘zaro aloqada bo‘lgan holatini ta’riflovchi ko‘rsatkichlar tizimining tengligi. Balans ikki qismdan iborat bo‘lgan jadval shaklida ma’lum bir sanaga tuziladi. Balans qandaydir voqeani ta’riflab, uning qismlari munosabatini ko‘rsatadi. Balans

qismlarining jami ko‘rsatkichlari o‘zaro teng bo‘lishi kerak. Balans alohida korxona, ishlab chiqarish birlashmasi (buxgalteriya balansi, korxonaning daromad va xarajatlar balansi) yoki xalq xo‘jaligi (aholining daromad va xarajat balansi, to‘lov balansi, savdo balansi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari balansi va b.) masshtabida tuziladi.

Balansning bo‘limi

— buxgalteriya balansining aktiv va passividagi bir xillik, moddalar guruhi. Balansning aktivida ham, passivida ham ikkitadan bo‘lim mavjud:

aktivida: birinchi bo‘lim — uzoq muddatli aktivlar; ikkinchi bo‘lim — joriy aktivlar;

passivida: birinchi bo‘lim— o‘z mablag‘lari manbalari; ikkinchi bo‘lim— majburiyatlar.

Bankdagi hisob-kitob schoti

— xo‘jalik yurituvchi subyektning pul mablag‘larini saqlash va naqd pulsiz hisoblashishlarni olib borish uchun tayinlangan bank muassasalaridagi schot. O‘zR VM «Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1999 yil 15 yanvarda chiqargan qarorga binoan yuridik shaxslarga 2000 yil 1 iyundan boshlab soliq to‘lash joyidagi soliq organini xabardor qilgan holda bir nechta banqda schotlar ochish huquqi berildi. Talab qilib olgungacha bo‘lgan so‘mdagi depozit schotlarini ochish uchun yuridik shaxs — rezidentlar quyidagi hujjatlarni topshiradi: schot ochish uchun ariza; statistika organlari tomonidan davlat ro‘yxatiga kiritilganligi to‘g‘risidagi notariusda tasdiqlangan guvohnomaning ko‘chirmasi; yuqori organ yoki ta’sischilar majlisida tasdiqlangan ustav yoki nizomdan notariusda tasdiqlangan ko‘chirma; davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida hujjat; soliq organida ro‘yxatdan o‘tganligi va soliq to‘lovchini identifikatsiyalash raqami berilganligi to‘g‘risida notariusda tasdiqlangan guvohnoma ko‘chirmasi yoki shaxs soliq to‘lovchi subyekt emasligi to‘g‘risida ma’lumot; korxona rahbari va bosh buxgalterining imzo namunalari va muhrning izi tushirilgan kartochka.

Bank kreditlari

— xo‘jalik yurituvchi subyektlar va ayrim jismoniy shaxslarning qarzga oladigan mablag‘larining muhim manbai. Banklar vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘lardan foydalanib, xo‘jalik yurituvchi subyekt va aholining iste’mol ehtiyojlari uchun ana shu mablag‘larni qarzni qaytarib olish tartibida ishga soladi. Banklar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytarib

berish, muddatlilik, to‘lovga qobillik va ta’minlanganlik prinsiplariga qat’iy amal qilib beradi. Bank kreditlarini olish bilan bog‘liq bo‘lgan muomalalar hisobi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schotlarida aks ettiriladi.

Baho

— tovar qiymatining puldagi ifodasi. Baho asosida tovarning qiymati, ya’ni uni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy xarajatlar yotadi. Lekin bu alohida olingan tovarning bahosi albatta uning qiymatiga teng bo‘lishi kyerak degan ma’noni bildirmaydi. Baho qiymatdan farqlanishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho mazkur tovarga bo‘lgan talab va taklifga bog‘liq. Bahoning qiymat atrofida tebranib turishi qiymat qonunining bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Narxlarning darajasi normal ishlayotgan har bir korxonaning ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlarini qoplashini va sof foyda olishini ta’minlashi kyerak. Ishlab chiqarish hajmi, foyda va samaradorlik hozirgi vaqtda korxona faoliyatini ta’riflaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bosh jurnal

— buxgalteriya hisobining eskirgan shakli. U hisobning memorial-order shaklidagi varianti bo‘lib hisoblanadi. «Bosh daftar» deb nomlangan yagona hisob registrida bosh daftar va registratsiya jurnal birlashtirilgan.

Boshqa daromadlar

— tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar.

Buxgalter

– buxgalteriya hisobi bo‘yicha mutaxassis. «Buxgalter» termini XV asrda paydo bo‘lgan. Birinchi bo‘lib buxgalter lavozimini Insburk schotlar palatasi ish yurituvchisi Xrestofor Shtexyer olgan. Vena davlat muzeyida Maksimilianning 1498 yil 13 fevralda chiqargan buyrug‘i saqlangan.

Nafaqat Germaniyada XV asrda, balki Amir Temur davrida ham hisob daftarlarini yurituvchi shaxslar yozuvchilar (kotiblar) bo‘lgan.

«Saltanatning har bir idorasida, — deb yozadi Amir Temur XIV asrning oxirida, — bo‘ladigan kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin» («Temur tuzuklari». — Toshkent, 2005, 105-bet).

1498 yildan boshlab «buxgalter», «buxgalteriya» degan tyerminlar eski nomlarni asta-sekin siqib chiqarib, hamma joyga tarqala boshladi.

Bu terminlar Rossiyada 1732 yildan qo‘llana boshladi. 1732 yil 11 sentabrda Kommers-Kollegiyaning buyrug‘i bilan Petyerburg boj xonasiga birinchi buxgalter etib gollandiyalik savdogar Timmyerman tayinlangan. Hozirgi vaqtda buxgalter ma’lum huquq, burch va majburiyatlarga ega bo‘lgan xizmatchi hisoblanadi. Unga xo‘jalik jarayoni hisobi va hisobotini yuritish, tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxona (tashkilot, muassasa) rahbarlarini zarur axborot bilan ta’minlash vazifasi yuklatilgan.

Bajarayotgan ishlari va egallagan lavozimiga qarab katta buxgalter va bosh buxgalter bo‘lishi mumkin. Katta buxgalter buxgalteriyaning bo‘limi (guruh)ni boshqaradi. Bosh buxgalter buxgalteriyani boshqaradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalterning roli ancha oshdi. Xozirgi vaqtda buxgalterdan nafaqat buxgalteriya hisobini, balki ishlab chiqarishning biznes-rejalarini tuzish, moliyaviy va boshqaruv tahlillarini, shuningdek, boshqa sohalarni chuqur bilish hamda rahbariyat to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishida faol qatnashish talab qilinadi. O‘zbekistonda hozirgi zamon talablariga to‘liq javob beradigan buxgalterlar tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda, buxgalterlar oliy o‘quv yurtlarida, ko‘plab tashkil etilgan kollej va akademik litseylarda tayyorlanmoqda.

Buxgalteriya balansi

— xo‘jalik mablag‘lari, ularning tarkibi, joylashgan joylari va ularning vujudga kelish manbalarini ma’lum bir sanaga pulda ifodalab turadigan jadval. Balans ikki tomonlama jadval bo‘lib uning chap tomoni aktiv, o‘ng tomoni passiv deb nomlanadi. Balansning aktivida xo‘jalik mablag‘lari, joylashgan joylari va tarkibi ko‘rsatilsa, passivida ushbu xo‘jalik mablag‘larining manbai aks ettiriladi. Aktiv va passivning har bir unsuri (elementi), mablag‘lar turi yoki ularning manbai balans moddasi deb ataladi. Uning aktivida ham, passivida ham balans moddalari ikki bo‘limga bo‘lib ko‘rsatiladi.

Aktivda: I bo‘lim. Uzoq muddatli aktivlar. II bo‘lim Joriy aktivlar.

Passivda: I bo‘lim. O‘z mablag‘larining manbalari. II bo‘lim. Majburiyatlar. Balansning aktiv tomonining jami uning passiv tomoni jamiga teng bo‘lishi kyerak

Buxgalteriya provodkasi

— schotlar aloqasi (korrespondensiyasi)ni rasmiylashtirish. Bunda debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlar hamda yozib quyiladigan xo‘jalik muomalasining summasi ko‘rsatiladi. Buxgalteriya provodkalari oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy provodkada xo‘jalik muomalalarining

mazmuniga qarab bir schot debetlanib, ikkinchi schot kreditlanadi. Murakkab provodkalarda xo‘jalik muomalalarining mazmuniga qarab bir schot debetlanib, bir necha schot kreditlanadi yoki, aksincha, umumiy summaga bir necha schotlar debetlanib, bir schot kreditlanadi. Har qanday provodkada ham bir schotning debetiga yozilgan summa ikkinchi schotning kreditiga yozilgan summaga teng bo‘lishi kyerak. Bu qoida murakkab provodkalarga ham tegishli. Bir schotning debetiga yozilgan summa bir necha schotlarning kreditiga yozilgan summalarning jamiga teng bo‘lishi kerak va, aksincha, bir necha schotlarning debetiga yozilgan summalarning jami bir schotning kreditiga yozilgan summaga teng bo‘lishi kerak.

Buxgalteriya provodkasida ikkiyoqlama yozuv o‘z aksini topadi.

Qo‘shimcha va manfiy (storno) buxgalteriya provodkalari bo‘lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi

— ayrim subyektlarda sodir bo‘layotgan xo‘jalik mablag‘lari va jarayonlarining harakatini ma’lum hujjatlar bilan asoslangan holda ro‘yxatga olish va pulda baholab umumlashtirilgan tarzda yoppasiga va bevosita kuzatish tizimi, U subyektning xo‘jalik faoliyatini boshqarish, xo‘jalik hisobini joriy etishning muhim vositasi hisoblanib, mablag‘lardan to‘g‘ri va unumli foydalanish hamda uning butligini ta’minlash ustidan dastlabki, joriy va kelgusi nazoratni yuritish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi har qanday tizimda ham quyidagi uchta funksiyani bajaradi: 1) axborot berish, 2) nazorat qilish, 3) boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish. Bunda buxgalteriya hisobida har xil usullar, texnika va shakllardan foydalanilishi mumkin. Shuning bilan birga, buxgalteriya hisobi har xil ijtimoiy tizimlarda muayyan maqsadlarga qarab har xil vazifalarni bajarishi mumkin.

Hozirgi vaqtda talabalar «Buxgalteriya hisobi» kursini ikkiga bo‘lib o‘rganmoqdalar: Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi.

Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari

— buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish, uzluksizlik; xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Buxgalteriya hisobining ikkiyoqlama tizimi

— ikkiyoqlama yozuvga asoslangan buxgalteriya hisobi tizimi. Hisobning oddiy tizimiga nisbatan ancha mukammallashgan bo‘lib, buxgalteriya hisobi predmeti to‘g‘ri aks etishini ta’minlaydi. 1996 yil 30 avgustda O‘zR Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida buxgalteriya hisobining asosiy qoidalaridan birinchisi etib «buxgalteriya hisobini ikkiyoqlama yozuv usulida yuritish» belgilangan. Demak, buxgalteriya hisobining ikkiyoqlama yozuv tizimi barcha korxona, muassasa va tashkilotlarda qo‘llanilishi kerak.

Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari

— foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlash, vazifalari: buxgalteriya hisobi schotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish; samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish, moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Buxgalteriya hisobining predmeti

— takror ishlab chiqarish jarayonidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning samarali boshqarilishida mablag‘lar holati hamda ulardan unumli foydalanish haqidagi axborotlarni shakllantirish. Turli mulkchilik shakllariga asoslangan, rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi jamiyatda individual kapital yoki mulk egasining kapitali buxgalteriya hisobining predmeti hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining schotlar rejasi

— buxgalteriya hisobi schotlarining tizimiga keltirilgan ro‘yxati 2004 yil 1 yanvardan e’tiboran 21-son BHMS «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha io‘riqnoma» bo‘yicha yangi schotlar rejasi qo‘llanila boshladi. Schotlar rejasi moliyaviy hisobot elementlari: aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlarga muvofiq, guruhlangan schotlar yig‘indisini aks ettiradi.

Schotlar rejasi buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosi bo‘lib hisoblanadi. U 6 ta qism va 9 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, tayinlanishi, tuzilishi va iqtisodiy mazmuni bo‘yicha bir xil bo‘lgan schotlarni o‘z ichiga oladi. Har bir schotning nomidan tashqari nomeri (shifr) ham bor.

Buxgalteriya hisobi subyektlari

—davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O‘zRda ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O‘zR hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho‘ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda buxgalteriya hisobini yuritadi va buxgalteriya (moliya) hisobotini taqdim etadi.

Bo‘nak

— kelajaqdagi xarajatlar va to‘lovlar hisobidan berilgan pul mablag‘lari. Bo‘nak O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan kassa muomalalarini yuritish qoidalariga asosan qat’iy belgilangan maqsad uchun beriladi. Xizmat safarlari uchun naqd pul safar joyiga borish va qaytib kelish qiymatini to‘lash, sutkalik xarajatlar va turar joyni ijaraga olish xarajatlari miqdorida beriladi.

Valyuta

— mazkur mamlakatning pul tizimi va pul birligi (so‘m, rubl, dollar, evro va h.k.), xorijiy kredit biletlari va tangalar ham valyuta deyiladi.

Valyuta kursi

— turli mamlakatlar pul birliklarining o‘zaro munosabati, ya’ni bir mamlakat pul birligi bahosining boshqa mamlakat pul birligidagi (yoki xalqaro pul birligidagi) ifodasi valyuta kursi deyiladi Xalqaro iqtisodiy operatsiyalar milliy valyutalarning ayirboshlanishi bilan bog‘liq. Bu ayirboshlash valyutalar kursini belgilashni taqozo etadi. Valyuta kursi pul birliklarini ayirboshlash nisbatini belgilaydi.

Valyuta kurslari talab va taklif mexanizmi orqali valyuta bozorida valyutalarning kundalik oborotini solishtirish jarayonida vujudga keladi. Pul birligining bahosi pulning xarid qobiliyati asosida shakllanadi.

Vaqtbay ish haqi

— ish haqi summasi ishlagan vaqt miqdoriga qarab aniqlanadigan ish haqi tizimi. Vaqtbay ish haqi tizimida ishlagan ishchilarga ish haqi soat tarif stavkasi va ishlagan soatlariga qarab aniqlanadi. Injenyer-texnik xodimlar, xizmatchilar va kichik xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga ish haqi belgilangan oklad va ishlagan kunlariga qarab hisoblanadi. Mazkur oyda hamma ish kunlarida ishlagan xodimlarga to‘liq oklad hisoblanadi. Agar xodim mazkur oyning hamma ish kunlarida ishlamagan bo‘lsa, uning ish haqi quyidagicha aniqlanadi. Hisoblangan oylik oklad sum-

masi mazkur oyning ish kuni miqdoriga bo‘linadi va olingan natija (o‘rtacha kunlik ish haqi) haqiqiy ishlagan kun miqdoriga ko‘paytiriladi.

Davlat va boshqa jamoat ishlarini bajargan kunlari uchun haq umumiy tartibda to‘lanadi. Vaqtbay ish haqi bo‘yicha xodimlarning ishlagan vaqti hisobi tabelda yuritiladi.

Qaydnoma

— dastlabki hujjat yoki hisob registri. Qaydnoma yig‘ma hujjat bo‘lishi mumkin. Buxgalteriya hisobining barcha shakllarida qo‘llaniladi. Hujjatlar va hisob registrlarining ro‘yxatida ularning nomi ko‘p uchraydi. Muomalalar amalga oshirilgan vaqtda tuzilgan qaydnomalar dastlabki hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Yig‘ma qaydnomalar turli dastlabki hujjatlarga asosan tuziladi. Ularda dastlabki hujjatlarning ma’lumotlari umumlashtirilganligi keyinchalik hisob registrlarida aks ettirishni osonlashtiradi. Hisob registri sifatida qaydnomalar hisobning jurnal-order shaklida ko‘p qo‘llaniladi. Buxgalteriya hisobida jamg‘arma qaydnomalar, taqqoslovchi qaydnomalar, hisoblash-to‘lov qaydnomalari va b. qo‘llaniladi.

Davr xarajatlari

— butun ishlab chiqarish (korxona)ni boshqarish va unga xizmat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar. Bu xarajatlar sotish xarajatlari, ma’muriy xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlardan iborat. Bu xarajatlar 9410 «Sotish xarajatlari», 9420 «Ma’muriy xarajatlar», 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» va 9440 «Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari» schotlarida jamlab borilib, qaysi hisobot davrida vujudga kelgan bo‘lsa, shu davrda quyidagi provodkalar bilan hisobdan chiqariladi: D-t 9910 «Yakuniy moliyaviy natija», K-t 9410, 9420, 9430 va 9440.

Dalolatnoma

— buxgalteriya hisobida keng qo‘llaniladigan dastlabki hujjat. Odatda komissiya yoki amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalari uchun mas'uliyatli shaxslar tomonidan tuziladi.

Dastlabki hujjatlar

— xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lgan paytda tuziladigan va ular amalga oshganligining birinchi guvohi bo‘lgan buxgalteriya hujjatlari. Dastlabki hujjatlar tuzilishi xo‘jalik muomalalari hisob registratsiyasining boshlanishi bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki hujjatlarga g‘azna kirim va chiqim orderlari, yukxatlar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, naryadlar, kvitansiyalar va h.k. kiradi. Hisobni soddalashtirish va hisob registratsiyasini tezlashtirish uchun ko‘pincha dastlabki hujjat-

larga asosan yig‘ma hujjatlar tuziladi. Buxgalteriya hujjatlari tuzish tartibi bo‘yicha tasniflanganda hujjatlar dastlabki va yig‘ma hujjatlarga bo‘linadi.

Debet

— buxgalteriya hisobi schotining bir qismi. Aktiv schotlarning debeti bo‘yicha hisob obyektining ko‘payishi aks ettiriladi, passiv schotlarning debeti bo‘yicha esa kamayishi yoziladi. Hisoblashish schotlarida debet mazkur korxonaning boshqa korxona va shaxslardan oladigan summasini aks ettiradi (debitorlik qarzlari). Debet qoldiq (saldo) faqat aktiv schotlarda bo‘lishi mumkin.

Har bir schot ikki qismdan iborat — debet va kredit.

Debitorlar

— debitorlik qarzi bo‘lgan boshqa korxona, muassasa, tashkilotlar va alohida shaxslar.

Debitorlik qarzi

— to‘lovlar bo‘yicha mazkur korxonaning boshqa korxonalar (muassasa, tashkilot) yoki ayrim shaxslardan oladigan qarzi. Bu korxona va shaxslar debitorlar deyiladi. Debitorlik qarzi mablag‘lari korxonaning xo‘jalik aylanmasida qatnashmaydi, shuning uchun uning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir etadi. Buxgalteriya debitorlik qarzlarini yo‘qotish choralarini ko‘rishi kyerak. Debitorlik qarzlarini undirib olish muddati bo‘ladi. Bu muddat o‘tgach quyidagi provodka bilan zararga o‘tkaziladi: D-t 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar», K-t debitorlik qarzlarini hisobga oluvchi schotlar.

Deponent

— mablag‘lari mazkur korxonada vaqtinchalik saqlashda turgan korxona (tashkilot, muassasa) yoki shaxs.

Dividendlar

— aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a’zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a’zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a’zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi.

Asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish uchun tayinlangan ishlab chiqarish (ta’mirlash ishlari, yuklarni tashish, suv yetkazib berish, par ishlab chiqarish, elektr ta’minoti va h.k.). Yordamchi ishlab chiqar-

ishning ish va xizmatlari asosan korxonaning o‘zida iste’mol qilinadi va ayrim hollarda chetga sotiladi. Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish uchun 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schoti tayinlangan. Bu schotning debetiga xarajatlar yoziladi.

Jarima

— pul ko‘rinishida undirib olinadigan ma’muriy yoki sud jazosi. Korxona tomonidan to‘langan jarima unumsiz xarajatlar bo‘lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

— daromadi bor shaxslarga davlat tomonidan belgilanadigan majburiy to‘lov. Ushbu daromad solig‘i davlat budjetining daromadiga tushadi. Bu soliqni to‘lovchilar bo‘lib soliqqa tortilmaydigan minimumdan ortiqcha daromadi bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi

Jurnal-orderlar

— sintetik va ko‘p hollarda analitik hisobni xronologik tartibda registratsiya qiladigan hisob registrlari. Ular hisobning jurnal-order shaklida qo‘llaniladi. Ularga yozuvlar hujjatlarning kelib tushishiga qarab yoki jamg‘arma qaydnomalardan oy buyicha jami olib yoziladi. Registratsiya kredit belgisi bo‘yicha, ya’ni mazkur schotning krediti va korrespondentlanuvchi boshqa schotlarning debeti bo‘yicha olib boriladi. Bunga jurnal-orderning shaxmat shaklidan foydalanish yo‘li bilan yerishiladi. Bunda xo‘jalik muomalalarining summasi faqat bir marta yoziladi, lekin debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlar ko‘rsatiladi. Aksariyat jurnal-order blanklarida yozuvlarni qulaylashtirish uchun korrespondentlanuvchi schotlar ko‘rsatilgan.

Zararlar

—- korxonaga bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra unga yetkazilgan zarar. Zararlar mahsulot, ish va xizmatlarni sotish, tabiiy ofatlar, debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish, to‘la amortizatsiyalanmagan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va boshqalardan bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma

korxona, muassasa va tashkilotlarning ijtimoiy sug‘urta budjetiga to‘lovlari. Bu to‘lanmalarning miqdori hisoblangan ish haqidan xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari bo‘yicha belgilangan yagona foizda aniqlanadi.

Ikkiyoqlama yozuv

— xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi schotlarida registratsiya qilish usuli. Bu usul shundan iboratki, har bir xo‘jalik muomalasi

ikkita schotga yoziladi — bir schotning debeti va ikkinchi schotning kreditiga.

Imtiyoz

— ma’lum majburiyatlarni bajarishdan qisman ozod etish. Maslan, imtiyozlar soliqlar bo‘yicha belgilanishi mumkin. Chunonchi, jismoniy shaxslarning donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalarga daromad solig‘i solinmaydi. Yangi tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan e’tiboran ikki yil ichida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi.

Inventarizatsiya

— natura shaklidagi mavjud mablag‘lar haqiqiysining buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga to‘g‘ri kelishini, majburiyatlar hisobda to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish usuli. U buxgalteriya hisobi ko‘rsatkichlari ishonchliligini va korxona mulki butligini ta’minlaydi.

Inventar kartochkalar

— asosiy vositalarni obyektlar bo‘yicha hisobga olish uchun tayinlangan namunali shakldagi hisob registrlari. Inventar kartochkalar asosiy vositalar xo‘jalikka tushgan vaqtda har bir obyektga to‘ldiriladi. Bir xildagi obyektlar guruhiga bitta inventar kartochka ochishga ruxsat etiladi. Kartochkada inventar obyekti to‘g‘risidagi barcha zaruriy ma’lumotlar ko‘rsatiladi: uning nomi, inventar nomeri, amortizatsiya normasi, rekonstruksiya, modernizatsiya, kapital ta’mirlash, xo‘jalik ichidagi bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishlar va obyektning tugatilishi.

Ishbay ish haqi

— xodimning ish haqi bajarilgan ishning hajmiga bog‘liq bo‘lgan ish haqi tizimi. Ishbay ish haqi quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: to‘g‘ri ishbay (ish birligining rassenkasi mahsulot ishlab chiqarish normasi bajarilishiga qarab o‘zgarmaydi); progressiv ishbay (normadan ortiq bajarilgan ishga oshirilgan rassenka bo‘yicha haq to‘lanadi); mukofot ishbay (ishbay rassenka bo‘yicha ish haqining ustiga ishda yerishilgan natijalar uchun mukofotlar to‘lanadi); egri ishbay (mazkur xodimning ish natijasi bo‘yicha to‘lov emas, balki uning rahbarligidagi ishbay ishchilar yoki uchastka (sex)ning pirovard ish natijalari bo‘yicha haq to‘lash). Ishbay ish haqi yakka va guruhli (brigadali) bo‘lishi mumkin. Oxirgisida bajarilgan ishlar bo‘yicha haq brigada a’zolari o‘rtasida xodimlarning razradlari va ularning ishlagan vaqti miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari

— korxonadagi barcha Materiallar majmuasi. Ishlab chiqarish zaxiralari 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» va boshqa schotlarda hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari

—korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlari (xom ashyo, Materiallar, yoqilg‘i, elektr enyergiya; ishchi va xizmatchilarning ish haqi; asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi va h.k.).

Ishonchnoma

— ma’lum shaxs tomonidan tovar-moddiy qiymatliklar, pul mablag‘lari, hujjatlar, shuningdek ma’lum harakatlarni amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat. Namunali shakldagi blankda rasmiylashtiriladi. Uning zaruriy rekvizitlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: korxonaning nomi; hisob-kitob schotining nomyeri va u qaysi bankda ekanligi; ishonchnomaning harakat muddati; tovar-moddiy qiymatliklarni olishni kim-kimga ishongani; tovar-moddiy qiymatliklarning nomi va miqdori; ishonchnoma oluvchi shaxsning imzosi namunasi; muhr bilan tasdiqlangan korxona rahbari va bosh buxgalterining imzolari.

Ish haqidan ushlanmalar

— ishchi va xizmatchilardan qonun bilan belgilangan soliqlar va boshqa to‘lovlarni uidirib olish shakli. Ushlab qolinadigan jarima va yo‘qotgan yoki o‘zlashtirilgan mulklar qiymati ish haqining 25 foizidan oshmasligi kerak. Ushlab qolinadigan aliment va o‘g‘rilik hamda kamomad summasi ish haqining 50 foizidan oshmasligi kyerak. Soliqlardan tashqari biryo‘la ushlab qolinadigan ushlanma.

Ish haqidan hisoblash

— razmyeri ish haqi summasidan foiz hisobida belgilanadigan korxonaning to‘lovlari. Bunday to‘lovlar bo‘lib ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar hisoblanadi. Ular ish haqi summasining razmyeriga ta’sir qilmaydi. Bunday ajratmalar korxona hisobidan bo‘lib, ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlariga o‘tkaziladi. Foiz hisobida asosiy ish haqidan navbatdagi ta’til haqini to‘lash uchun rezyervga ajratiladi. Bu summalar qo‘shimcha ish haqi bo‘lib hisoblanadi.

Ish haqining turlari

— nima uchun hisoblanganligiga qarab ishchi va xizmatchilar ish haqining bo‘linishi. Shu nuqtai nazardan asosiy ish haqi va qo‘shimcha ish haqi bo‘ladi.

Ish haqi fondi

-ma’lum davr vaqt ichida korxona, tarmoq yoki butun xalq xo‘jaligining ishchi va xizmatchilariga hisoblanadigan ish haqi summasining jami.

Yillik moliyaviy hisobot

— hisobot yilida korxona faoliyatini har tomonlama ta’riflovchi hisobot turi. Yillik moliyaviy hisobot inventarizatsiya va boshqa usullar bilan tekshirilgan hisob ma’lumotlariga asosan tuziladi. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni (16-modda) bilan yillik hisobotning quyidagi shakllarini tuzish nazarda tutilgan: I. Korxona balansi; 2. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot; 3. Asosiy vositalar harakati to‘g‘risida hisobot; 4. Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot; 5. Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot. Yuqoridagi hisobot shakllariga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar ilova qilinadi.

Kalkulyatsiya

— xarajatlarni guruhlash va sotib olingan moddiy qiymatliklarni, tayyorlangan mahsulot va bajarilgan ishlar tannarxini aniqlash usuli. Kalkulyatsiya tannarx bo‘yicha reja bajarilishi, uning pasayishi va haqiqiy xarajatlarning rejadigidan farqlanishini aniqlash imkoniyatini beradi.

Demak, tannarxni kalkulyatsiya qilish korxonaning har bir bo‘limida tejamkorlik rejimini amalga oshirish quroli bo‘lib hisoblanadi. U xarajatlar obyektlari bo‘yicha va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha ko‘rsatiladigan hujjat ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Tuzilgan vaqti va tayinlanishiga qarab Kalkulyatsiya rejali, normativ va hisobot Kalkulyatsiyasiga bo‘linadi.

Kapital qo‘yilmalar

— natijada asosiy vositalarni ko‘paytiradigan xarajatlar. Ular bino va inshootlarni qurishga, mashina, asbob-uskuna va inventarlarni sotib olishga, bog‘lar tashkil qilish va h.k.larga yo‘naltiriladi. Korxonalarda kapital quyilmalar tasdiqlangan titul ro‘yxati va loyiha-smeta hujjatlari bo‘lsagina amalga oshirilishi mumkin. Kapital quyilmalar ularning yo‘nalishi, rejalashtirish tartibi, kapital ishlar turlari, qurilish obyektlarining qiymati, qurilish ishlarini olib borish usullari bo‘yicha guruhlanadi. Yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqarish obyektlari turar joy, maktab, shifoxona va h.k.larga bo‘linadi. Rejalashtirish tartibiga qarab kapital quyilmalar davlat rejasida nazarda tutilgan va davlat rejasida nazarda tutilmagan quyilmalarga bo‘linadi. Davlat rejasida nazarda tutilmagan kapital quyilmalar korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Kassa orderlari — kassaga qabul qilinayotgan pullarning qonuniyligi va ular maqsadli tayinlanishi bo‘yicha sarflanishini tasdiqlovchi hujjatlar.

Kassir hisoboti — buxgalteriyaga korxona (muassasa, tashkilot) ning kassiri tomonidan topshiriladigan hisobot. U kassa daftarining yirtib olinadigan varag‘i bo‘lib, unga kirim, chiqim kassa orderlari ilova qilinadi. Kassir hisobotni buxgalteriyaga har kuni yoki belgilangan muddatlarda topshiradi. Buxgaltyer hisobotni tekshirib, u qabul qilinganligi to‘g‘risida kassa daftariga imzo qo‘yadi. Kassa muomalalari buxgalteriya hisobi uchun kassaing hisoboti asos bo‘lib hisoblanadi.

Korxona va muassasalarning banklardagi schotlaridan ko‘chirma

— bank muassasalari tomonidan korxonalarga beriladigan va ularning hisob-kitob, joriy va ssuda schotlaridagi pul mablag‘lari harakatini aks ettiradigan hujjatlar. Ko‘chirmalarda korxona schoti bo‘yicha bankdagi yozuvlar kopiyasidagi sana, hujjatlar nomyerlari, schotning debeti va krediti bo‘yicha yozuvlar summasi, shuningdek mablag‘lar qoldig‘i yoki ssudalar bo‘yicha qarz ko‘rsatiladi. Isbotlovchi hujjatlar (schotlar, to‘lov topshiriqnomalari va b.) ilova qilingan holda ko‘chirmalar korxonaga har kuni yoki boshqa belgilangan muddatlarda beriladi. Olingan hujjatlar buxgalteriya tomonidan tekshiriladi va «Hisob-kitob schoti»ga, «Bankdagi maxsus schotlardagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar»ga, qisqa va uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schotlarga yozish uchun asos bo‘ladi. Ko‘chirmalardagi yozuvlarning to‘g‘riligi tekshirilgandan so‘ng korrespondentlanuvchi schotlar aniqlanadi. Bunda shuni e’tiborga olish kyerakki, bankning ko‘chirmalaridagi debet va kreditning ma’nosi korxonadagi schotlarning debet va kreditiga teskari.

Kredit

— buxgalteriya hisobi schotining bir qismi. Aktiv schotlarning krediti bo‘yicha kamayishi passiv schotlarning krediti hisob obyektini ko‘payishini ko‘rsatadi. Kredit qoldiq faqat passiv schotlarda bo‘lishi mumkin.

Kreditorlar

— mazkur korxonaning boshqa korxona (tashkilot, muassasa)lar va ayrim shaxslar oldidagi ma’lum qarzi. Bu korxonalarga to‘lanadigan qarz kreditorlik qarzi deyiladi. Kreditorlar bilan olib boriladigan hisoblashishlar majburiyatlarni hisobga oladigan schotlarda yuritiladi. Kreditorlarning analitik hisobi har bir kreditor bo‘yicha yuritiladi.

Kreditorlik qarzi

— mazkur korxonaning boshqa korxonalar (muassasa, tashkilotlar) va ayrim shaxslardan qarzi. Bu korxona va shaxslar kreditor hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarining vujudga kelishi mol oluvchi va mol yuboruvchilar orasida amal qilayotgan hisoblashish qonunlarining (mol yuboruvchilarning schotlariga haq ulardan Materiallar olingandan so‘ng to‘lanadi, hisoblash usuli) natijasidir yoki korxonalar tomonidan to‘lov majburiyatlarining o‘z vaqtida (turli sabablarga ko‘ra) bajarilmaganligi natijasidir.

Memorial-order

— buxgalteriya provodkasi aks ettiriladigan hujjat. Unda orderning nomyeri, oy, yil, yozuvning mazmuni, summa, debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlarning nomi (schotlar korrespondensiyasi) ko‘rsatiladi. Memorial-orderlar maxsus blanklarda tuziladi va bosh (katta) buxgalter yoki uning yordamchisi tomonidan imzolanadi. Unga isbotlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Har bir memorial-orderga tartib nomyeri quyiladi. Har oyda tuziladigan memorial-orderlar soni yo‘riqnoma bilan belgilanmaydi. Bu masalani bosh buxgalter hal qiladi. Lekin bir xil muomalalar bo‘yicha tuzilgan memorial-orderlar barcha oylarda ham bir xil nomerga ega bo‘lishi kerak. Masalan, g‘azna muomalalarini aks ettiruvchi memorial-order nomeri barcha oylarda bir bo‘lishi kerak, hisob-kitob (joriy) schot muomalalarini aks ettiruvchi memorial-orderlarning nomeri ikki bo‘lishi kerak va h.k. Bu kerakli hujjatlarni qidirib topish va turli ma’lumotlarni olishni osonlashtiradi. Hisobning memorial-order shaklida memorial-orderlar ro‘yxatga olish jurnalida registratsiya qilinadi va ularga ilova qilingan hujjatlar bilan birga schotlar bo‘yicha bosh daftarga yozish uchun asos bo‘ladi.

Mehnat haqi

— mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish predmeti bo‘lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnat haqi deb e’tirof etiladi. Mehnat haqiga rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan to‘lovlar, kom-pensatsiya to‘lovlari va ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lashlar ham kiradi.

Milliy valyuta

— mamlakatning pul birligi. Milliy valyuta tizimi milliy valyutaga asoslanadi. Milliy valyuta naqd pul (banknot va tangalar) shaklida va naqd pulsiz (bank schotlaridagi qoldiq) shaklida bo‘ladi. Naqs pul shak-

lidagi valuta 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schotida hisobga olinadi. Milliy valyutaning emitenti bo‘lib Markaziy bank hisoblanadi.

Moddiy javobgar shaxs

— ma’lum moddiy qiymatliklar yoki pul mablag‘larining butligiga mas'ul shaxslar. Moddiy javobgar shaxs bo‘lib omborchilar, g‘aznachilar va mas'ul saqlashga moddiy qiymatliklar va pul mablag‘larini qabul qilgan boshqa xodimlar hisoblanadi.

Mol yuboruvchi

— mol oluvchilarga o‘z mahsulotini yuklab jo‘natadigan korxona. Mol yuboruvchi bilan mol oluvchining o‘zaro munosabati shartnoma bilan tartibga solinadi va ular orasidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Mol oluvchilar mol yuboruvchilar bilan hisob-kitobni 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schotida hisobga oladi. Mol yuboruvchilardan olingan moddiy qiymatliklar summasi moddiy qiymatliklarni hisobga oladigan schotlarning debeti va 6010-schotning kreditiga yoziladi. Mol yuboruvchilarga o‘tkazib berilgan summaga 6010-schot debetlanib, pul mablag‘larini hisobga oladigan schotlar kreditlanadi.

Murakkab buxgalteriya provodkasi

— bir schot debetlanib, bir necha schotlar kreditlanadigan yoki bir necha schotlar debetlanib, bir schot kreditlanadigan buxgalteriya provodkasi. Murakkab buxgalteriya provodkasida schotlarning debetiga va kreditiga yozilgan summalar o‘zaro teng bo‘lishi kerak. Murakkab buxgalteriya provodkasi mohiyatan bir necha oddiy provodkalarning birlashmasi hisoblanadi. Bunda hisob yozuvlari ancha qisqaradi.

Nakladnoy (yukxat)

—tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olish bo‘yicha biryo‘la tuziladigan dastlabki hujjat. Nakladnoylar barcha korxona, muassasa va tashkilotlarda qo‘llaniladi hamda moddiy qiymatliklarni qabul qilish yoki jo‘natishda isbotlovchi hujjat bo‘lib hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlar

— moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan, xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan xo‘jalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish uchun foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek, uzoq vaqt (bir yildan ko‘p) ishlatish uchun mo‘ljallangan mol-mulk obyektlari. Nomoddiy aktivlar hisobi 7-son BHMS «Nomoddiy aktivlar» asosida tartibga solinadi. Xo‘jalik mablag‘larining bu guruhiga quyidagilar kiradi: tabiiy resurslardan, yerdan foydalanish huquqi, ixtirolar, patentlar, litsenziyalar, savdo markalari, tovar belgilari, sotib

olingan dasturiy mahsulotlar qiymati, brokerlik o‘rinlari yoki brokerlik o‘rinlaridan foydalanish huquqdari, firmani ro‘yxatdan o‘tkazgunga qadar ta’sis hujjatlarini tayyorlash va reklama xarajatlari va boshqa intellektual (aqliy) mulk, jumladan «bilaman qanday» deb tarjima qilinadigan nou-xau.

Oddiy buxgalteriya provodkasi

— bitta schot debetlanib, ikkinchi schot kreditlanadigan buxgalteriya provodkasi.

Passiv

— buxgalteriya balansining bir qismi bo‘lib, unda korxona mablag‘lari tashkil bo‘lish manbalari va tayinlanishi ko‘rsatiladi. Balansning passivi aktiviga o‘xshab ikkita bo‘lim va bir qancha moddalardan iborat.

Passiv schotlar

— o‘z mablag‘lar manbaini va majburiyatlarni hisobga oluvchi buxgalteriya hisobi schotlari. Mablag‘lar manbalari ko‘payishi passiv schotlarning kreditiga, kamayishi debetiga yoziladi. Qoldig‘i kreditida bo‘lib, balansning passivida ko‘rsatiladi. Schotlar rejasida passiv schotlarning ro‘parasiga «P» (passiv) harfi quyilgan.

Pudratchi

— buyurtmachi korxona bilan shartnoma bo‘yicha ish bajaruvchi qurilish tashkiloti. Pudratchi muayyan maxsus (sanitar-texnik va b.) ishlarni boshqa, subpudratchi deb nomlanuvchi tashkilotlarga berishi mumkin. Buyurtmachi pudratchilar bilan olib boradigan hisob-kitobni 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schotida yuritadi. Pudratchilarning schotlari to‘lashga qabul qilinganda 0810 «Tugallanmagan qurilish» schoti debetlanib, 6010-schot kreditlanadi. Pudratchilarga pul o‘tkazib berilganda 6010-schot debetlanib, pul mablag‘larini hisobga oladigan schotlar kreditlanadi.

Pul

— barcha boshqa tovarlar uchun ekvivalent bo‘lgan maxsus tovar bo‘lib, uning yordamida ayirboshlash amalga oshiriladi. Pul iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u tovar ishlab chiqarish bilan bog‘liq.

Qog‘oz pullar va mayda tangalar pul belgilari hisoblanib, davlat tomonidan chiqariladi va O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha to‘lovlar bo‘yicha qabul qilinishi majburiy hisoblanadi.

Har bir davlat o‘zining pul birligiga ega. O‘zR pul birligi bo‘lib so‘m hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida buxgalteriya hisobining umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarini faqat pul o‘lchovida olish mumkin.

Pul mablag‘lari

— korxona kassasida, bankdagi hisob-kitob schotida, akkreditivlarda, hisobdor shaxslarda turgan pul ko‘rinishidagi mablag‘lar. Korxonalar bo‘sh mablag‘larini bankdagi schotlarda saqlashi kyerak. Korxona kassasida belgilangan limitdan ortiqcha summa saqlanmasligi kyerak. Limitdan ortiqcha summa faqat ayrim hollarda, masalan, ish haqi beriladigan kunlari saqlanishi mumkin. Korxona va tashkilotlarda pul mablag‘lari tushishi asosiy manbai bo‘lib mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan tushum hisoblanadi. Naqd pul to‘lash faqat qonun bilan belgilangan hollarda (ish haqi berish, hisobdor shaxslarga bo‘nak berish, mayda inventar va xo‘jalik jihozlarini sotib olish va b.) bo‘lishi mumkin. Odatda korxona, tashkilot va muassasalar bilan hisoblashishlar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Pul cheki

— bankdagi hisob-kitob schotidan tegishli miqdordagi pulni olish uchun subyektning bankka beradigan buyrug‘ini aks ettiradigan hujjat.

Rezerv

— zarur bo‘lgan hollar uchun biror narsaning zaxirasi.

Sal’do — xo‘jalik mablag‘lari yoki ular manbalarining buxgalteriya hisobi schotlari bo‘yicha qoldiq.

Sintetik hisob — pul o‘lchovida umumiy ko‘rsatkichlarni beruvchi hisob. Bunday ko‘rsatkichlar sintetik schotlarda bo‘lib, ular mavjud mablag‘lar hamda ularning manbala-ri va harakati (asosiy vositalar, xom ashyo, Materiallar, yoqilg‘i, ishlab chiqarish xarajatlari, g‘aznadagi va hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lari, ustav kapitali va sh.k.) to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lish uchun zarur. Sintetik hisob ma’lumotlari analitik hisoblarda detallashtiriladi. Sintetik hisob registrlari bo‘lib bosh daftar, jurnal-orderlar hisoblanadi.

Sintetik schotlar — sintetik hisob yuritiladigan buxgalteriya hisobi schotlari. Sintetik hisob schotlari oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Oddiy schotlarning ko‘rsatkichlari detallashtirilmaydi va ular bo‘yicha analitik hisob yuritilmaydi. Murakkab schotlarning ko‘rsatkichlari, zarur bo‘lgan hollarda, analitik hisobda detallashtiriladi. Sintetik schotlarning ro‘yxati schotlar rejasida keltirilgan. Har bir sintetik schot o‘zining shifri (nomyeri)ga ega. Hozir qo‘llanilayotgan schotlar rejasida (21-son BHMS) subschotlar yo‘q.

Soliqlar — korxona va ayrim shaxslarning davlat yoki mahalliy budjetga majburiy to‘lovlari.

Sof foyda — soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

Schot-faktura — qat’iy hisobot hujjati bo‘lib, mol yuboruvchi tomonidan har bir jo‘natilgan yoki sotilgan mahsulot, shuningdek bajarilgan ish va xizmatlar uchun yoziladi.

Tayyor mahsulot — korxonada ishlab chiqarishi tugallangan, belgilangan standartlarga yoki texnik shartlarga to‘g‘ri keladigan mahsulot.

Tannarx — mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi.

Tovar mahsuloti — hisobot davrida ishlab chiqarilgan va sotish uchun tayinlangan yoki shu davr ichida haqiqatda sotilgan mahsulot. Tovar mahsuloti yalpi mahsulotning tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi.

To‘lov qaydnomasi — ish haq to‘lash bo‘yicha buxgalteriyada tuziladigan hujjat. Hisoblash-to‘lov qaydnomasidan shu bilan farqlanadiki, oy boshiga bo‘lgan hisoblashish holati, nimalar uchun hisoblangani va ish haqidan ushlanmalar ko‘rsatilmaydi. To‘lov qaydnomasida faqat familiyasi, ismi, otasining ismi, uning tabel nomeri va qaydnoma bo‘yicha tartib nomyeri, olinadigan summasi va olgani to‘g‘risida imzosi ko‘rsatiladi. To‘lov qaydnomasining birinchi betiga qaydnoma bo‘yicha beriladigan umumiy summa va korxona rahbarining hamda bosh (katta) buxgalterining imzolari va muhr quyiladi.

To‘lov talabnomasi — mablag‘ oluvchining to‘lovchi tomonidan bank orqali ma’lum bir summani to‘lash to‘g‘risida talabi aks ettirilgan pul-hisob-kitob hujjati.

To‘lov topshiriqnomasi — mijozning unga xizmat qiluvchi bankka o‘z schotidan oluvchining schotiga ma’lum bir summani o‘tkazish to‘g‘risidagi topshirig‘i.

Uzoq muddatli kreditlar — bir yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlar. Ular odatda kapital quyilmalar, asosiy podani shakllantirishga yo‘naltiriladi. Uzoq muddatli kreditlar 7810-«Uzoq muddatli bank kreditlari» schotida hisobga olinadi.

Ustav fondi — normal ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash uchun davlat korxonasiga umumdavlat resurslaridan ajratilgan asosiy va aylanma mablag‘larining manbai. 21-son BHMS bo‘yicha 2004 yil 1 yanvarda kuchga kirgan buxgalteriya hisobining schotlar rejasida «Ustav fondi» nomi bilan atalgan schot keltirilmagan. Davlat korxonalari ustav

fondi hisobini 8330-«Ustav kapitalini hisobga oluvchi» schotlarda yuritadi.

Favqulodda foyda (zarar) — koʻzda tutilmagan, tasodifiy tusga ega boʻlgan hodisa yoki xoʻjalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo boʻladigan va kutilmagan moliyaviy natija.

Foizlar — har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qogʻozlar, shuningdek, depozit quyilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Foyda — xoʻjalik yurituvchi subyektning mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi oʻrtasidagi farq.

Xizmat safari xarajatlari — tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan, joyni band qilib quyish haqi.

Shartnoma — ikki yoki bir necha tomonlar (jismoniy va yuridik shaxslar)ning ma’lum oʻzaro munosabatlarni oʻrnatish, oʻzgartirish yoki tugatishga yoʻnaltirilgan kelishuv. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar oʻzaro turli shartnomalar (mol joʻnatish, mol olish, pudrat va h.k.)ni tuzadilar va ular albatta bajarilishi kerak. Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun tomonlar qonun bilan belgilaigan javobgarlikka tortiladi. Korxonalarda shartnomalarning bajarilishi tezkor hisobini yuritish kerak.

talab qiladigan qandaydir masalaning oʻrganilishi (sud-buxgalteriya ekspertizasiga qarang).

Qisqa muddatli kreditlar — bank tomonidan bir yilgacha muddatga koʻpincha korxona aylanma mablagʻlarini vaqtinchalik toʻldirishga beriladigan kreditlar. Bankning qisqa muddatli kreditlarining turlari boʻlib tovar-moddiy qiymatliklarning normadan ortiq zaxirasi uchun olinadigan ssuda, aylanma boʻyicha kreditlar, ishlab chiqarishning mavsumiy xarajatlari va b. sanaladi. Respublika Markaziy bankining 1999 yil 16 martda qabul qilingan 33-son «Xoʻjalik yurituvchi subyektlarga qisqa muddatli kreditlar berilishini tashkil etish» qoidalarida kredit berish tartibi va ta’minlash asoslari belgilangan.

Hisob — birorta narsa mavjudligini belgilash, uni oʻlchash va son hamda sifat tomonidan qayd etish. Hisob xoʻjalik faoliyati va ijtimoiy hayotning barcha jabhalari toʻgʻrisidagi doimiy axborot bilan ta’minlaydi. Jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi bilan hisob axborotlarining hajmi ortadi va jamiyat hamda xoʻjalik jarayonlarini

nazorat qilish va boshqarishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun hisobni yanada takomillashtirish zarur. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi, statistika hisobi va tezkor hisoblarni o‘z ichiga oluvchi yagona xalq xo‘jaligi hisobi tashkil etilgan.

Hisobdor shaxslar — keyinchalik qilinadigan xarajatlar uchun hisobini berish sharti bilan pul mablag‘ini olgan shaxslar.

Hisoblash-to‘lov qaydnomasi — ishchi va xizmatchilar bilan hisoblashishni aks ettiradigan yig‘ma hujjat. Bu hujjat belgilangan shaklda har oyda tuziladi. Unda har bir xodim bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi: tabel nomyeri, familiyasi, ismi, otasining ismi, oy boshiga hisoblashishning holati, oy bo‘yicha hisoblangan mehnat haqi, mehnat haqi yuzasidan berilgan bo‘nak, ushlangan soliqlar, ijro varaqalari bo‘yicha ushlanmalar, qo‘liga beriladigan summa. Qaydnoma bo‘yicha jami summa (mazkur qaydnoma bo‘yicha hisoblangan ish haqi, to‘lashga tegishli summa, haqiqiy to‘langan summa va deponentlangan summa) so‘z bilan va raqamda ko‘rsatiladi. Barcha hujjatlar kabi hisoblash-to‘lov qaydnomasi ham tegishli ravishda tekshiriladi va tasdiqlanadi.

Hisob registrlari — hisob yozuvlari uchun tayinlanib, chizilgan qog‘oz varaqlari. Ular tipografiya usulida tayyorlanadi va ularda qanday obyektlar hisobga olinishi hamda qanday ko‘rsatkichlar olinishiga qarab turli shakllar (chiziqlar)ga ega bo‘ladi. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha hisob registrlari yerkin varaqlarda (qaydnomalarda), kartochkalar va daftarlarda bo‘lishi mumkin. Mazmunining hajmiga qarab hisob registrlari sintetik hisob va analitik hisobga ajratiladi. Hisob yozuvlarining turlariga qarab hisob registrlari xronologik va tizimli (sistematik)ga bo‘linadi.

Hujjat — yozma isbot, guvoh. Buxgalteriya hisobi schotlaridagi yozuv hujjatlarga asoslanadi. Buxgalteriya hujjatlari xo‘jalik muomalalarini amalga oshirish yoki haqiqiy amalga oshganligi, uning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlovchi yozma dalildir.

Hujjat aylanishi — hisob jarayonida hujjatlarni tuzish vaqtidan ularni arxivga topshirishgacha bo‘lgan hujjatlar harakati. Korxonaning xo‘jalik bo‘limlari (boshqaruv, bo‘lim, sex, uchastka, brigada va h.k.)da tuzilgan hujjatlar buxgalteriyaga topshiriladi. U yerda shaklan va mazmunan tekshiriladi, bir xillik belgilariga qarab guruhlanadi va hisob registrlariga yozish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Hisob registrlariga yozilgandan so‘ng papkalarga tikilib, turli ma’lumotlar berish va turli tekshirishlar uchun foydalaniladi. Ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan

hujjatlar davlat arxiviga topshiriladi, qolganlari yo‘q qilinadi. Har bir korxonada hujjat aylanishi rejasi bo‘lib, unda tegishli hujjatlarni tuzish kimga yuklatilganligi, kim kimga qaysi muddatda hujjatlarni taqdim etishi, hujjatlarning hisobda foydalanilishi ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasida «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» va «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi elektron hujjat aylanishini rivojlantirish va elektron raqamli imzoni qo‘llash uchun huquqiy asos yaratdi.

Hujjatlashtirish — xo‘jalik muomalalarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish. Hujjatlashtirish yordamida xo‘jalik muomalalari yoppasiga muomala sodir bo‘lgan joyda va vaqtda aks ettiriladi. Hujjatlashtirish buxgalteriya hisobining asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, yozuvlar faqat hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 26 avgust 1996 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 25 dekabr 2007 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 29 avgust 1996 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida» Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, 1-6. Toshkent – 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» Qonuni. (yangi tahriri) 2004 yil 26 avgust.
6. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: «O‘zbekiston», 2005 y. – 517 b.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. - T.: «O‘zbekiston», 2009. -56 b.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: «O‘zbekiston», 2010. - 80 b.
9. Karimov.I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr / -T.: «O‘zbekiston», 2010. -56 b.
10. Karimov.I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza. 2011 yil 21 yanvar / -T.: «O‘zbekiston», 2011. -48 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 140-son buyrug‘i. «Bulleten normativnix aktov ministyerstiv, gosudarstvennix komitetov i vedomstv Respubliki Uzbekistan», 2003 g., N 1-2
12. «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori. 1999 y. 5- fevral.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori 2003 yil 15 oktabr, 444-son. O‘zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari-12, 7-15 b.

14. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari. O‘zBAMA nashriyot-axborot markazi, Toshkent-2002.

15. G‘ulomova F. Buxgalteriya hisobi (o‘quv qo‘llanma). –T.: «Mehnat», 2001.

16. Do‘smuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2007. -351 b.

17. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: «Sharq» NMAK, 2004. – 592 b.

18. Кирянова З.В. Теория бухгалтерского учета. Учебник. - М.: Финанси и статистика, 2000.-192 с.

19. Любушин Н.П., Жаринов В.В., Бородина Н.В. Теория бухгалтерского учета. – Москва: Юнити, 2002. – 312 с.

20. Международное стандарт финансовой отчетности 1999: Издание на русском язике. – М.: Аскери-АССА, 1999.

21. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. / Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziyev I., Rizayev N. – T.: «Iqtisod-moliya», 2008.-443 b.

22. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуелл Д. Принсипи бухгалтерского учета. – М: Финанси и статистика, 1994. -496 с.

23. Ostonaqulov M., Ostonaqulov U., Ostonaqulov G. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi» nashriyoti, 2005. – 367 b.

24. Палий В.Ф., Палий В.В. Финансовий учет. Учебное пособие. -М.: ИДФБК – ПРеСС, 2001. –672 с.

25. Полковский Л.М. Теория бухгалтерского учота. - М.: Экономика и финанси, 2002. – 447 с.

26. Radjapov R., Do‘smuratov R. Qishloq xo‘jalik korxonalarida buxgalteriya uchoti. Nukus: «Bilim», 1995. 348 b.

27. Разяснения Международних Стандартов Финансовий Отчетности. Комитет по международном стандартам финансовий отчетности, 2002.

28. Соколов Я.В. «Основи теория бухгалтерского учота». М.: Финанси и статистика, 2000.-496 с.

29. Sotivoldiyev A.S., Itkin Yu.M. «Zamonaviy buxgalteriya hisobi». T.: 2002. 1-3 tomlar.

30. Umarova M., Eshboyev U., Axmadjonov K. Buxgalteriya hisobi. –T.: «O‘AJBNT», 2004.-366 b.

31. Frenk Vud. Buxgaltyerskiy uchot dlya predprinimateley. – M. OOO Askyeri, 1996.

32. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004.-279 b.

33. Энтони Р., Рис. Дж. Учот: ситуасии и примерў – М.: Финансў и статистика, 1993.-348 с.

«Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risida»gi NIZOMga

1-ILOVA

Fermer xo‘jaliklarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi NAMUNAVIY SCHOTLAR REJASI

Schotlar t/r	Schotlar nomi	Schotlar turi
I QISM. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR		
I bo‘lim. Asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlar		
0100	**Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
0110	Yer	
0111	Yerni obodonlashtirish	
0112	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish*	
0120	Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar	
0130	Mashina va asbob-uskunalar	
0140	Mebel va ofis jihozlari	
0150	Kompyutyer jihozlari va hisoblash texnikasi	
0160	Transport vositalari	
0170	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	
0180	Ko‘p yillik o‘simliklar	
0190	Boshqa asosiy vositalar	
0200	**Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar**	**KA**
0211	Yerni obodonlashtirishning eskirishi	
0212	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi	
0220	Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi	
0230	Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi	
0240	Mebel va ofis jihozlarining eskirishi	
0250	Kompyutyer jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi	
0260	Transport vositalarining eskirishi	
0270	Ishchi hayvonlarning eskirishi	
0280	Ko‘p yillik o‘simliklarning eskirishi	
0290	Boshqa asosiy vositalarning eskirishi	
0299	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi	

0300	**Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
0310	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar	
0400	**Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
0410	Patentlar, litsenziyalar va nou-xau	
0440	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari	
0490	Boshqa nomoddiy aktivlar	
0500	**Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlar**	**KA**
0510	Patentlar, litsenziyalar va nou-xauning amortizatsiyasi	
0540	Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi	
0590	Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	
0600	Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar	A
0610	Qimmatli qog‘ozlar	
0690	Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar	
0800	**Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
0810	Tugallanmagan qurilish	
0820	Asosiy vositalarni xarid qilish	
0830	Nomoddiy aktivlarni xarid qilish	
0840	Asosiy podani shakllantirish	
0850	Yerni obodonlashtirishga kapital quyilmalar	
0860	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital quyilmalar	
0890	Boshqa kapital quyilmalar	
0900	**Uzoq muddatli debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
0920	Uzoq muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar	
0940	Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar	
0990	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	
II QISM. JORIY AKTIVLAR		
II bo‘lim. Tovar-moddiy zaxiralari		
1000	**Materiallarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
1010	Xom-ashyo va Materiallar	
1020	Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar	
1030	Yoqilg‘i	
1040	Ehtiyot qismlar	
1060	Idish va idishbob Materiallar	

1070	Chetga qayta ishlash uchun berilgan Materiallar	
1080	Inventar va xo‘jalik jihozlari	
1090	Boshqa Materiallar	
1100	**O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
1110	O‘stirishdagi hayvonlar	
1120	Boquvdagi hayvonlar	
2000	**Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
2010	Asosiy ishlab chiqarish	
2300	**Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
2310	Yordamchi ishlab chiqarish	
2500	**Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
2510	Umumishlabchiqarish xarajatlari	
2600	**Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
2610	Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar	
2800	**Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
2810	Ombordagi tayyor mahsulotlar	
2820	Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar	
2830	Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar	
III bo‘lim. Kelgusi davr xarajatlari - joriy qismi		
3100	**Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
3110	Oldindan to‘langan ijara haqi	
3120	Oldindan to‘langan xizmat haqi	
3190	Boshqa kelgusi davr xarajatlari	
IV bo‘lim. Olinadigan schotlar - joriy qismi		
4000	**Olinadigan schotlar**	**A**
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar	
4200	**Xodimlarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4210	Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar	
4220	Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar	
4230	Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar	
4290	Xodimlarga berilgan boshqa bo‘naklar	
4300	**Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4310	TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	

4320	Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	
4330	Boshqa berilgan bo‘naklar	
4400	**Budjetga bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4410	Budjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)	
4500	**Maqsadli davlat jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4520	Maqsadli davlat jamg‘armalariga bo‘nak to‘lovlari	
4600	**Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4610	Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi	
4700	**Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4710	Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi	
4720	Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi	
4730	Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi	
4790	Xodimlarning boshqa qarzlari	
4800	**Turli debitorlar qarzlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
4810	Uzoq muddatli ijara bo‘yicha olinadigan joriy to‘lovlar	
4820	Qisqa muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar	
4830	Olinadigan foizlar	
4840	Olinadigan dividendlar	
4850	Olinadigan royalti	
4860	Da’volar bo‘yicha olinadigan schotlar	
4890	Boshqa debitorlar qarzlari	
4900	**Dargumon qarzlar bo‘yicha rezyervni hisobga oluvchi schotlar**	**KA**
4910	Dargumon qarzlar bo‘yicha rezyerv	
V bo‘lim. Pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa joriy aktivlar		
5000	**Kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5010	Milliy valutadagi pul mablag‘lari	
5100	**Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5110	Hisob-kitob schoti	
5200	**Chet el valutasidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5210	Mamlakat ichidagi valuta schotlari	

5500	**Bankdagi maxsus schotlardagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5510	Akkreditivlar	
5520	Chek daftarchalari	
5530	Boshqa maxsus schotlar	
5600	**Pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5610	Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)	
5700	**Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)larini hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5710	Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari	
5800	**Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5810	Qimmatli qog‘ozlar	
5830	Berilgan qisqa muddatli qarzlar	
5890	Boshqa joriy investitsiyalar	
5900	**Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar va boshqa joriy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar**	**A**
5910	Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar	
5920	Boshqa joriy aktivlar	
III QISM. MAJBURIYATLAR		
VI bo‘lim. Joriy majburiyatlar		
6000	**Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar**	**P**
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar	
6200	**Kechiktirilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6230	Boshqa kechiktirilgan daromadlar	
6240	Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar	
6290	Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar	
6300	**Olingan bo‘naklarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar	
6320	Aksiyaga obunachilardan olingan bo‘naklar	
6390	Boshqa olingan bo‘naklar	
6400	**Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6410	Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)	
6500	**Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6520	Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar	
6600	**Ta’sischilarga bo‘lgan qarzni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6610	To‘lanadigan dividendlar	

6700	**Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6710	Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar	
6720	Deponentlangan ish haqi	
6800	**Qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6810	Qisqa muddatli bank kreditlari	
6820	Qisqa muddatli qarzlar	
6900	**Turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
6910	To‘lanadigan qisqa muddatli ijara	
6920	Hisoblangan foizlar	
6930	Royalti bo‘yicha qarz	
6950	Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi	
6960	Da’volar bo‘yicha to‘lanadigan schotlar	
6970	Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz	
6990	Boshqa majburiyatlar	
VII bo‘lim. Uzoq muddatli majburiyatlar		
7200	**Kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
7230	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar	
7240	Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar	
7290	Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar	
7800	**Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
7810	Uzoq muddatli bank kreditlari	
7820	Uzoq muddatli qarzlar	
7900	**Turli kreditorlarga bo‘lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schotlar**	**P**
7910	To‘lanadigan uzoq muddatli ijara	
7920	Turli kreditorlarga bo‘lgan boshqa uzoq muddatli qarzlar	
IV QISM. XUSUSIY KAPITAL		
VIII bo‘lim. Kapital, taqsimlanmagan foyda va rezyervlar		
8300	**Ustav kapitalini hisobga oluvchi schotlar**	**P**
8330	Pay va ulushlar	
8400	Qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schotlar	
8420	Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi	

8500	**Rezyerv kapitalini hisobga oluvchi schotlar**	**P**
8510	Mulkni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar	
8520	Rezyerv kapitali	
8530	Tekinga olingan mulk	
8700	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schotlar	
8710	Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)	
8720	Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)	
8800	Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schotlar	
8810	Grantlar	
8820	Subsidiyalar	
8840	Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari	
8890	Boshqa maqsadli tushumlar	
8900	Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezyervlarini hisobga oluvchi schotlar	
8910	Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezyervlari	
V QISM. MOLIYAVIY NATIJALARNING SHAKLLANISHI VA ISHLATILISHI		
IX bo‘lim. Daromadlar va xarajatlar		
9000	**Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9010	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar	
9100	**Realizatsiya qilingan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9110	Realizatsiya qilingan tayyor mahsulotlarning tannarxi	
9200	**Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9210	Asosiy vositalarning chiqib ketishi	
9220	Boshqa aktivlarning chiqib ketishi	
9300	**Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9310	Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda	
9320	Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda	
9330	Undirilgan jarima, penya va ustamalar	
9340	O‘tgan yillar foydalari	
9350	Qisqa muddatli ijaradan daromadlar	
9360	Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar	

9380	Tekinga olingan moliyaviy yordam	
9390	Boshqa operatsion daromadlar	
9400	**Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9410	Realizatsiya xarajatlari	
9420	Ma'muriy xarajatlar	
9430	Boshqa operatsion xarajatlar	
9500	**Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9510	Royalti bo‘yicha daromadlar	
9520	Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar	
9530	Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar	
9540	Valutalar kurslari farqidan daromadlar	
9550	Uzoq muddatli ijaradan daromadlar	
9560	Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar	
9590	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	
9600	**Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9610	Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar	
9620	Valutalar kurslari farqidan zararlar	
9690	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	
9700	**Favquloddagi foyda (zarar)larni hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9710	Favquloddagi foydalar	
9720	Favquloddagi zararlar	
9800	**Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9820	Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar	
9900	**Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar**	**T**
9910	Yakuniy moliyaviy natija	
VI QISM. BALANSDAN TAShQARI SchotLAR		
001	Qisqa muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar	BT
002	Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar	BT
006	Qat'iy hisobot varaqlari	BT
010	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar	BT
011	Ssuda shartnomasi bo‘yicha olingan mulk	BT
013	Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)	BT
014	Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari	BT

2-ILOVA
«Turon» MChJ
2012 yil uchun hisob siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida
Toshkent shahri ***2011 yil 27 dekabr***

1. 1996 yil 30 avgustdagi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi 279-1-son qonunga;

2 Adliya Vazirligi 1998 yil 14 avgustda 474-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazgan «Hisob siyosati va buxgalteriya hisoboti» 1-son BHMSga;

3 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan va muvofiq.

BUYURAMAN:

1. Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadlari uchun hisob siyosati tasdiqlansin. U 2012 yil 1 yanvardan boshlab, keyingi hisobot davrlarida belgilangan tartibda zarur o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilib, qo‘llanilsin.

S.Rustamov
«Turon» MChJ boshqaruvi raisi

«Turon» OAJ boshqaruvi raisi S.Rustamovning
2011 yil 25 dekabrdagi 25-son buyrug‘i bilan
TASDIQLANGAN

HISOB SIYOSATI

Umumiy qoidalar

Korxonada buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuniga, standartlarga va boshqa me’yoriy hujjatlarga hamda yo‘riqnoma Materiallariga muvofiq yuritiladi.

Korxonada buxgalteriya hisobi mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida buxgalteriya tomonidan bosh buxgalter rahbarligida amalga oshiriladi.

Korxona moliya vazirining 2002 yil 9 sentabrdagi 103-son qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vaziriligi 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazgan namunaviy Hisobvaraqlar rejasidan foydalanadi.

Buxgalteriya hisobi kompyuter texnikasidan foydalanib yuritiladi.

Birlamchi hujjatlarga imzo quyish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxatini rahbar alohida buyruq bilan tasdiqlaydi.

Inventarizatsiya o‘tkazish tartibi va muddatini korxona rahbari belgilaydi, inventarizatsiya o‘tkazish majburiy bo‘lgan hollar bundan mustasno.

Buxgalteriya hisobini yuritish uslubiyati

Asosiy vositalar bo‘yicha foydali ishlatish muddati amortizatsiya guruhlariga kiritiladigan asosiy vositalar tasnifi asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) usul bilan yuritiladi.

Inventar va xo‘jalik anjomlari foydalanish uchun foydalanish uchun topshirish chog‘ida qiymatning 100 foizi miqdorida ishlab chiqarish chiqimlari yoki davr xarajatlariga hisobdan chiqariladi.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) usulda yuritiladi.

Tovarlar turkumi tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobining birligi hisoblanadi.

Tovarlar xarid qilingan narxda hisobga olinadi.

Materiallar va tovarlar hisobdan chiqarish chog‘ida FIFO usulida baholanadi.

Idishlar xarid narxlarida baholanadi.

Korxona gumonli qarzlar bo‘yicha zaxira barpo etadi va zaxira summasini hisobot davri xarajatlariga kiritadi.

Korxona foyda hisobidan zahira, sarmoyani barpo etadi, uning miqdori ta’sis hujjatlarida foydaning 15 foizi miqdorida belgilangan.

Kelgusi davrlarning daromadlari alohida moddada hisobga olinadi. Bu daromadlar qaysi hisobot davriga oid bo‘lsa, shu davr kelganda xo‘jalik faoliyatining natijalariga kiritiladi.

Korxona olgan qarzlar va kreditlar hisobot davri oxirida to‘lanadigan foizlarni hisobga olib baholanadi.

MUNDARIJA

KIRISH……. 3

I BOB. BUXGALTERIYA HISOBINING MOHIYATI, PREDMETI VA METODI

1.1. Xo‘jalik hisobining mohiyati va funksiyalari……. 5
1.2. Xo‘jalik hisobida qo‘llaniladigan o‘lchovlar ……. 7
1.3. Xo‘jalik hisobining turlari va ularning tavsifi…… 9
1.4. Buxgalteriya hisobining mohiyati,turlari va tamoyillari……. 11
1.5. Buxgalteriya hisobining maqsadi, vazifalari va funksiyalari.. 13
1.6. Buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar……. 18
1.7. Buxgalteriya hisobining predmeti va obyektlari……. 21
1.8. Buxgalteriya hisobi metodining ta’rifi, tarkibi, predmeti va metodining o‘zaro bog‘liqligi…… 28
Nazorat testlari……..…… 34

II BOB. BUXGALTERIYA BALANSI, SCHOTLAR TIZIMI VA IKKI YOQLAMA YOZUV

2.1. Buxgalteriya balansining mohiyati va tuzilishi…….. 37
2.2. Xo‘jalik muomalalari ta’sirida balansda ro‘y beradigan o‘zgarishlar va ularning tavsifi…….. 41
2.3. Buxgalteriya balansi – korxonalarning moliyaviy ahvolini o‘rganish uchun axborot manbai ekanligi …… 46
2.4. Buxgalteriya hisobining schotlari va ularning tuzilishi: aktiv va passiv schotlar……..… 47
2.5. Ikki yoqlama yozuvning mohiyati va ahamiyati…… 51
2.6. Schotlar, ikki yoqlama yozuv va balansning o‘zaro bog‘liqligi…….. 59
2.7. Sintetik va analitik schotlar, ularning o‘zaro bog’liqligi…… 65
2.8. Joriy buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish…. 70
2.8.1. Sintetik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi…… 70
2.8.2. Analitik schotlar bo‘yicha oborot qaydnomasi…… 75
2.8.3. Analitik schotlar bo‘yicha saldo qaydnomasi……. 77
Nazorat testlari……... 80

III BOB. HUJJATLASHTIRISH, INVENTARIZATSIYA, HISOB REGISTRLARI VA SHAKLLARI

3.1. Buxgalteriya hujjati, hujjatlashtirish va hujjatlarni turkum-lash……. 83
3.2. Hisob registrlari, ularning ahamiyati va turlari…….. 89
3.3. Hisob yozuvlaridagi xatolarni tuzatish …….. 94

3.4. Buxgalteriya hisobining asosiy shakllari…… 97
Nazorat testlari……... 117

IV BOB. KORXONANING HISOB SIYOSATI VA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

4.1. Hisob siyosatining mohiyati, vazifalari va shakllantirish bosqichlariva tamoyillari……... 119
4.2. Buxgalteriya hisobining uslubiy, tashkiliy va texnik ta’minoti……. 123
4.3. Hisob siyosatini o‘zgartirish……... 129
4.4. Buxgalteriya hisobini tashkil etishga quyiladigan talablar…. 131
4.5. Buxgalteriya hisobini tashkil etishni rejalashtirish tizimi….. 133
4.6. Buxgalteriyaning tashkiliy tuzilmasi…….. 137
Nazorat testlari……... 139

V BOB. BAHOLASH VA TA’MINOT JARAYONINI HISOBGA OLISH

5.1. Baholashning mohiyati, ahamiyati va tamoyillari…….. 142
5.2. Asosiy hisob obyektlarini baholash usullari……... 144
5.3. Asosiy xo‘jalik jarayonlarining mazmuni va ta’minot jarayonini hisobga olish……. 147
Nazorat testlari……... 158

VI BOB. ASOSIY ISHLAB CHIQARISH JARAYONI HISOBI VA MAHSULOT (ISH, XIZMAT) LAR TANNARXINI KALKULYATSIYALASH

6.1. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishni tashkil etish…… 161
6.2. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining hisobi.. 165
6.2.1. Dehqonchilik tarmoqlarining tasnifi, hisobining uslubiy asoslari va vazifalari…….. 165
6.2.2. Dehqonchilik xarajatlarining hisob obyektlari va moddalari……... 168
6.2.3. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi……. 174
6.3. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash……
6.3.1. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari……... 180
6.3.2. Paxtachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash……. 182
6.3.3. G‘alla ekinlari mahsulotlarining tannarxini hisoblash……. 183
6.3.4. Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari mahsulotlarining tannarxini hisoblash……... 184
6.3.5. Yopiq yerdagi sabzavot mahsulotlari tannarxini hisoblash

xususiyatlari…….. 188
6.3.6.Bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash…… 193
6.3.7.Dehqonchilik mahsulotlarining rejadagi va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish)……. 197
6.4. Chorvachilik xarajatlari, mahsulotlar chiqishini hisobga olish va tannarxini hisoblash……. 198
6.4.1. Chorvachilik tarmog‘i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslari…….. 198
6.4.2. Chorvachilikda xarajatlar hisobining obyektlari va moddalari…….. 200
6.4.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi……. 203
6.5. Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash…….. 208
6.5.1. Sut yo‘nalishidagi chorvachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash…… 209
6.5.2. O‘stirilayotgan va boquvdagi qoramollarning qo‘shilgan va tirik vaznining tannarxini hisoblash……. 210
6.5.3. Cho‘chqachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash…….. 211
6.5.4. Qo‘ychilik va echkichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash…… 212
6.5.5. Parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash…… 213
6.5.6. Yilqichilik va tuyachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash…… 213
6.5.7. Asalarichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash……. 215
6.6. Sanoat ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot olinish hisobi va tannarx hisoblash…….. 215
6.6.1. Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi……. 217
6.6.2. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish va tannarxni hisoblashning xususiyatlari… 218
6.6.3. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz (brak) mahsulotlarni hisobga olish…….. 222
Nazorat testlari…….. 226

VII BOB. REALIZATSIYA JARAYONI HISOBI VA MOLIYAVIY NATIJALARNI ANIQLASH

7.1. Realizatsiya jarayoni va moliyaviy natijalar hisobining nazariy asoslari…….. 229
7.2. Daromadlar va xarajatlarning turkumlanishi, hisobini tashkil

etishning me’yoriy asoslari ……... 235
7.3. Asosiy faoliyatning mahsulot (tovar, ish va xizmat)larini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar hisobi…… 242
7.4. Asosiy faoliyatning mahsulot (tovar, ish va xizmat)larini sotishni hisobga olish……. 248
7.5. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlarini hisobga olish……. 252
7.5.1. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga olish ……. 252
7.5.2. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga olish… 253
7.6. Davr xarajatlarini hisobga olish ……. 255
7.7. Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish…… 260
7.8. Favqulodda foyda (zarar) ni hisobga olish……. 267
7.9. Soliqlar va yig‘imlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga olish……. 268
7.10. Yakuniy moliyaviy natijalarni hisobga olish va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl) ni tuzish…….. 270
7.11. Daromadlar va xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash hisobiga doir muomalalarni hisob registrlarida aks ettirish…….. 271
Nazorat testlari……... 280
VIII BOB . BUXGALTERIYA HISOBOTLARI
8.1. Hisobotning mohiyati va ahamiyati…… 284
8.2. Hisobotning turlari, tarkibi va unga quyiladigan talablar…... 288
8.3. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati…… 291
8.4. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va uni e’lon qilish……. 292
Nazorat testlari……... 294
IX BOB. STATISTIKANING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI
9.1. Statistika to‘g‘risida umumiy tushuncha…… 297
9.2. Statistika fanining predmeti va metodi……... 299
9.3. Statistik to‘plam va ko‘rsatkichlar ……. 306
9.4. Statistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi……... 308
Nazorat testlari……... 311
X BOB. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK STATISTIKASI
10.1. Dehqonchilik statistikasi……... 314
10.1.1. Ekin maydonlari statistikasi……... 314

10.1.2. Ko‘p yillik daraxtlar statistikasi……. 319
10.1.3. Agrotexnika chora-tadbirlar statistikasi……. 321
10.1.4. Qishloq xo‘jalik ekinlari hosil va hosildorligi statistikasi. 324
10.2. Chorvachilik statistikasi…… 328
10.2.1. Chorvachilik statistikasining vazifalari……. 328
10.2.2. Chorva mollarining son ko‘rsatkichlari……. 329
10.2.3. Chorva mollarining takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari…… 333
10.2.4. Chorvachilik mahsuloti va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari.. 341
10.2.5. Chorvachilik mahsulotlari va mahsuldorligining iqtisodiy- statistik tahlili…… 345
Nazorat testlari…….. 347
IZOHLI LUG‘AT …….. 350
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR …… 374
1-Ilova. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schotlar rejasi …….. 377
2-Ilova. Korxona hisob siyosati (namuna)……. 386

DO‘SMURATOV RADJAPBAY DAVLATBAYEVICH
MENGLIQULOV BAXTIYOR YUSUPOVICH

QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA STATISTIKA ASOSLARI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2014

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Тел: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.02.2014.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 24,0. Nashriyot bosma tabog‘i 24,5.
Tiraji 500. Buyurtma №7.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.